

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

SHUKUR XOLMIRZAYEV





TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

SHUKUR XOLMIRZAYEV

25

16 19288
TDTU ...OSIY
ARM (KUTUBXONA)

"O'ZBEKISTON"
TOSHKENT — 2022

UO'K 821.512.133-31
KBK 84(5O')-44
Sh 91

Tahrir hay'ati:

Xayriddin Sulton — hay'at raisi,
Ibrohim G'afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo'ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo'riboyev, G'ofur Eshmurodov, G'ayrat Bozorov,
G'ayrat Majid, Rustam Musurmon, Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi

Sayyora Xolmirzayeva

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat "Turkiy adabiyot durdonalari" deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g'oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo'lib O'zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko'lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro'yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san'atga ko'rsatilayotgan ulkan g'amxo'rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so'z san'atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8569-2-9

©"O'zbekiston" nashriyoti, 2022

NOZIK ADIB, NOZIK INSON

Shukur Xolmirzayev bilan Milliy universitetimiz dargohida tanishganmiz. Ellik sakkizinchi yil kirgan edi. Biz universitetni bitirishga tayyorlanar, Shukurlar bizdan quyiroq kurslarda tahsil olishardi. O'sha paytlar ikkinchi kurs talabasi Shukurning bolalar gazetasida "Tog'lar orasida" ("Oq otli") degan qissasi sonma-son chiqayotgan edi. Odamlar bu qissani qiziqib o'qishar, kattalar, yoshlar davralarida uni tilga olishardi. Shukur universitetning adabiyot va san'at to'garaklarida juda faol va jon-dildan qatnashar, mashg'ulotlarda yosh qalamkashning ilk asari to'g'risida dam-badam so'z ochilib qolardi. Shukur bunday paytlarda favqulodda iymanib, qisinib, gap-so'zlarga aralashmay, munosabat bildirmay turardi. Juda tortinchoqqa o'xshab ko'rinardi Shukur, lekin adabiyot va san'at haqida gap ketganda, u uyalinqirab bo'lsa ham, lekin juda dadil fikrlar bildirardi. Bular uning o'z mustaqil fikrlari bo'lardi. U adabiyot va san'at hodisalari ustida chuqur va keng o'ylayotgani, fikr hosil qilayotgani, ilk xulosalar chiqarayotgani, o'zi uchun qandaydir prinsiplar belgilayotgani-yo'l izlayotgani aniq bilinib turardi. Matyoqub Qo'shjonov, Ozod Sharafiddinov, Laziz Qayumov singari domlalarimiz Shukurni nazardan qochirishmasdi. Shukurga — Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, O'tkir Hoshimov, O'lmas Umarbekov, Uchqun Nazarov, Ne'mat Aminov, Omon Muxtorov singari xuddi shu oltmishinchi va elliginchi yillar o'rtalaridan ovozi ochilayotgan ijodkorlarga jo'rovoz bo'lib chiqayotgan ijodkor deb qarashar, uni avaylashar, namuna qilib ko'rsatishardi. Bu yoshlarning ilk asarlari o'sha paytlarning adabiy-madaniy muhitiga yangi tirik lirik ruh olib kira boshlagan, ularning asarlarida yangi hayotiylik nishonalari qulf ura boshlagandi. Biz "Nido","Mitti yulduz","Cho'l havosi", "Sevgim, sevgilim", "Yoz yomg'iri","O'n sakkizga kirmagan kim bor", "To'lqinlar" singari asarlarni o'zimizga juda yaqin olardik.

Bizning ovozimiz, oltmishinchi yildan keyingi adabiyotda shunday bo'lishi kerak, deb tushunardik. Harakatlarimiz ham shunga yarasha edi. Bir-birlarimizning yozganlarimizni o'qir va tahlil qilardik. U o'smirligida ham juda ko'p tinmay mashq qilganga va birdan o'z-o'zidan yozuvchi bo'lib qolganga o'xshardi (Adibning qizi Sayyora Xolmirzayeva otasining ilk hikoyasi u sakkizinchi sinfda o'qib yurganida tuman gazetasida bosilgani haqida aytib o'tgan). Albatta, kishi birdan va "o'z-o'zidan" hech qachon yozuvchi bo'lib qolmaydi. Ammo Shukurning "Oq otli", "To'lqinlar" va 60-yillardagi ilk hikoyalarida jumlalari, so'z qurish va hikoya qilish maneralari shunday ediki, u haqiqatan ham, birdan va "o'z-o'zidan" yozuvchi bo'lib qolganga o'xshardi. Jumlalari o'ta dadil, pishiq va xuddi katta adiblarning jumlalari kabi edi. To'g'rirog'i, u shu paytgacha o'zbek adabiyotida qalam tebratib kelgan katta-kichik yozuvchilarning birortasiga o'xshamasdi. Uning jumlasidan adabiyotga yangilik, yangi jumla qurilishi, yangi uslub boshlanayotganga o'xshardi.U o'sha paytlar dong qozonib kelayotgan Odil Yoqubov yoki Pirimqul Qodirovga ham o'xshamasdi. U Said Ahmad, O'lmas Umarbekov, O'tkir Hoshimov va Uchqun Nazarovga ham o'xshamasdi. Unga shunday, narsalarni mustaqil ko'rish, mustaqil mushohada, mustaqil fikrlash, mustaqil nuqtai nazar va nihoyat, mustaqil yozish iqtidori berilgandek taassurot qolardi bizda. Shukurda juda teran bir "artistlik" yashirinib yotardi. Shu artistlik uning xarakterining mag'zida tabiiy o'rnashgan edi. Uning har bir xatti-harakatini shu teran artistlik boshqarardi, undardi, yo'naltirardi. O'sha paytlar uning buyuk san'atkor Shukur Burhon etagini mahkam tutgani bejiz emas. Uni ko'p mahal Shukur Burhon davrasida ko'rish, yo'qotib qo'ysangiz ham, shu davradan adashmay topish mumkin edi. Shukur o'zi sevgan malaksiymo qiz(bo'lajak rafiqasi) bilan birga Shukur Burhonov rahbarligida Hamletni o'ynashdi. Bizni goh-goh Shukur Burhon to'garagining yig'ilishlariga boshlab borardi. U Shukur Burhonning har bir so'zi, fikri, mulohazasi, so'ylash ravishini og'zini katta-katta ochib, havo yutayotgan baliqdek o'ziga "yutar", shimirardi. Chamasi, Shukur Burhon uning o'sha ilk adiblik dunyosidagi eng zo'r ideali edi. Shukur g'oyatda nozik mijoz insonlar kabi o'ziga

ideal qidirardi. Taqlid qilish uchun emas. Yo'q. U shunday ideallari bilan bo'y olib, yonma-yon yashash, nafas olishni istardi. Keyin u o'z ideallari haqida badialar yozdi. Mohir adib bo'lib yetilgan kezlarida balog'at pillapoyalaridan turib o'z ideallarining ijodkor va inson sifatidagi sir-sinoatlarini ochishga, ularning jonli qiyofalarini yaratishga intiladi. Shukur Xolmirzayevning "Qo'shjonovi", "O'lmas Umarbekovi", "Ro'zi Choriyevi", "Abdulla Oripovi","Odil Yoqubovi", "Abdulla Qahhori" ... shunday dunyoga keldi.

Lekin Shukur, ajabki, o'z ideallariga ham o'xshamasdi. Ular izidan borish yoki, Xudo ko'rsatmasin, ularga ergashib asar yozishni ham aslo xayoliga keltirmasdi.

Nahotki Shukur hech kimga o'xshamasa?

Bunday bo'lishi sira mumkin emas-ku.

Bilishimcha, Shukur juda ko'p o'qirdi. Muk tushib o'qirdi. O'sha paytlar u tinimsiz I. Turgenevni o'qir va u o'qigan asarlari ustida mulohazalar yuritardi. Ayniqsa, "Otalar va bolalar", "Ovchining hikoyalari" uni qattiq o'ziga jalb etar, u maftunligini do'stlari davralarida baralla oshkor aytardi. Turgenev o'z lirik-romantik jozibali asarlari bilan unga haddan ziyod yaqin bo'lsa kerak. U otalar, bolalar va murabbiylar haqida yozishni yaxshi ko'rardi. Bunga yetarli materiali va hayotiy kuzatishlari ham bor edi. Shukurning yozuvchilik bilan bir qatorda sevgan ishi ovchilik edi. Ovchilik unda mahv ishtiyoqi bilan emas, balki tabiatni behad sevishi bilan chambarchas bog'langan edi. Ov bahona u tabiat quchog'ida bo'lardi, ov bahona u o'z xayollari, kuzatishlari, kuzatishlaridagi kashfiyotlari bilan yolg'iz qolardi. Ovda u tirik mavjudotga o'zini behad yaqin tuyardi.

1958-yilda Moskvada buyuk amerika adibi Ernest Xemingueyning ikki jildli qora muqovalangan kitobi chiqdi. Xeminguey Shukurni butunlay o'ziga asir etdi. "Jom kimga chalinyapti", "Tushdan keyingi o'lim", "Kilimanjaro qorlari", "Chol va dengiz", "Senga hamroh bayram" kabi asarlar Shukurga yod bo'lib ketdi. Oltmishinchi yillar avvalida havasim kelib "Chol va dengiz"ni tarjima qilib, u kitob bo'lib bosilib chiqqanda, Shukur bilan bu favqulodda adib va uning yozish uslubi to'g'risida ko'p

yillar kanda qilmay so'zlashganmiz, bahslar qilganmiz. Shukur Xemingueyning dialog qurishdagi qahramonlar holatini nihoyatda ixcham, lo'nda va g'oyatda ma'nodor tasvirlash mahoratini o'z asarlarida sinab ko'rdi. Asarni lo'nda, ma'nodor, ohangdor, zamzamali dialoglar asosiga qurishni o'z yozuvchilik uslubi darajasiga ko'taradi. Uning oltmishinchi yillardagi asarlarida dialoglar qancha jonli bo'lsa, yetmishinchi-saksoninchi yillarda yozgan asarlarida ham dialog birinchi o'rinda turadi. U dialoglarda qahramonlarning xarakter belgilari, ularning oniy kechinmalari, ruhiyatlarida kechayotgan g'alati sirli jarayonlarni tub-tubdan aks ettiradi. Dialoglarni qahramonlar yuragining oynasiga aylantirdi. Jonli psixologik teran dialoglar yaratishda Shukur nasrning baland cho'qqilariga ko'tarila oldi.

Shukurning ideallari bo'lganidek, hayotda muqaddas sanagan narsalari ham bor edi.

Shukur uchun nima muqaddas edi?

Avvalo adabiyot, keyin yana adabiyot va undan keyin ham adabiyot.

Shukur uchun adabiyot va yozuvchilik muqaddas edi. U kitoblari chiqmay qattiq qiynalib muhtojlikda qolgan kezlari ham, yozuvchilikni muqaddas deb bilgan, e'tiqodidan zarracha bo'lsin chekinmadi. Adabiyot oyini mis tovoqqa alishmadi. Ulkan insoniy matonat bilan asarlari ustida ishlashni bir zum to'xtatmadi. Uning o'ziday mehnatkash, kichkina yozuv mashinkasi bor edi. Mashinka nihoyatda eskirib ketgandi. Temirdan yasalgan bo'lsa ham, egasining zabtiga chidamasdi. Yozuvchi uni qo'ltiqlab dam-badam remontga ko'tarib yurardi. Ammo ta'mirdan chiqqach, mashinka misoli "maksimka" pulemyotiday ishlardi. Egasining o'qi, uning "chaq-chaq"i tugamasdi. Sahifalarni dalva-dalva qilib, ilma-teshik qilib ishlardi Shukur. Bir sahifani necha o'n qaytalab ko'chirib yangidan yangi tahrirga chiqarardi. Oxirgi eng o'ziga ma'qul variantni qanday tanlardi? Bu qorong'u. Bu juda qiyin bo'lsa kerak. Yoz vaqtlari ko'pincha Yozuvchilar bog'ining torgina hujrasida ishlardi. Xonasidan doim mashinka ovozi eshitilardi. Uning mashinkada o'tirib qanchalar qahr va itob bilan yozishiga bir necha bor guvoh bo'lganman.

Shukur haqiqiy, chin professional yozuvchi edi. Uning ilk hikoyalaridan biri "Ikki ko'rgan bilish"da qahramoni yoshgina yigitcha shunday deydi: "Tog' safaridan so'ng menda shunday bir fikr paydo bo'lgan edi: Endi birovga yoqaman deb, hech urinmayman. Yo'qolsin xushomadgo'ylik!" Hikoya so'ngida yana shu yigitcha o'z xatolarini tan olib "xushomadgo'ylik bilan odamgarchilikni farqlay olmadim", degan xulosaga keladi. Bu Shukurning ayni o'zi! U xushomadgo'ylikni hech yoqtirmasdi. Xushomadgo'ylik qilmasdi. Xushomadgo'ylardan qochardi. Uning yana o'sha oltmishinchi yillar hikoyalaridan birining qahramoni har qancha qorni ochib qiynalmasin, "o'g'irlangan olmani yemayman!" — deb turib oladi. Bu ham Shukurning o'zi! U hech qachon o'z axloqiy aqidalaridan chekinmasdi. Hatto eng yaqin kishilariga nisbatan munosabat va muomalalarida ham! Yana o'sha paytning chiroyli hikoyalaridan biri "Olis yulduz ostida"da shunday manzara chiziladi: "Tog' tarafdan nay chalganday cho'ziq-cho'ziq yoqimli bir ovoz eshitila boshladi.

— Nima sayrayapti? — cho'chib so'radi Safo aka.

— Hilol, — dedim. —Juda kamyob qush.

Qalbim hayajonga to'lib butun vujudimga yoyildi va elitdi meni". Shukurni va uning asarlarini adabiyotimizdagi mana shu noyob hilol qushi deb bilaman. Uning asarlarini o'qiganda odamning qalbi entikib hayajonlarga to'lardi. Har bir jumla bamisoli nay sadosiday eshitiladi.

O'zi Hamletday shekspirona nozik, rind yigit edi. Adabiyotga ham, odamlarga, hatto do'stlariga ham, yozgan asarlariga ham Hamletday faol iztirobli munosabatda bo'lardi. Oxirgacha shunday qoldi.

Ibrohim G'afurov,
O'zbekiston Qahramoni, adabiyotshunos

HIKOYALAR

NOTANISH ODAM

Ovga borayotgan edim, havo aynidi. "Bahor havosi-da, bir sevalab o'tar", deb ketaverdim. Biroq sal o'tmay yomg'ir shunday quyib berdiki, birpasda ust-boshim ho'l bo'lib, badanimga yopishib qoldi. Shunda, turgan yerimdan ikki yuz qadamcha narida jar va jarga tushaverishda ovchilar, yo'lovchilar qo'nib o'tadigan kamarcha borligi yodimga tushdi. Jarga yaqinlashishim bilan shuvoq isi aralash tutun dimog'imga urdi. Kamarga kirdim. O'rtada gulxan yonar, chetroqda oqchil chakmon kiygan, o'rta bo'y bir kishi eshagining ayilini bo'shatardi.

— Salomaleykum.

Notanish odam menga qaradi-da, boshimdan oyog'imgacha ko'z yugurtirib chiqdi. U qirg'iz bashara, lekin qoshlari quyuq, qirq yoshlardan oshgan, baquvvat kishi edi.

— Aaalekum.

O't boshiga cho'nqaydim. Etigimni sug'urib, tagini olovga qaratib qo'ydim. Pidjagimni yechib, tizzamga yoydim. Notanish odam gulxan yoniga qaytdi, bir dasta shuvoqni tagiga qo'yib o'tirdi.

— Xo'-o'sh, yo'l bo'lsin, yigit? — dedi u. Uning ohangida allanechuk kinoya borga o'xshab ketdi.

— Ovga, qishloqdan, — qisqa javob berdim.

— Hali ovchiman deng? — daf'atan pixillab kuldi u va gulxanga o'tin qalay boshladi.

"Ovchiman! Buning nimasi kulgili?!" deb jerkib bergim keldi-yu, "ha!" deb qo'ya qoldim.

— Nega yomg'irda qoldingiz? — so'radi u jilmayishini qo'ymay.

— Qoldim-da.

— Yomg'ir yog'ishini bilmadingizmi?

— Qaydan bilay.

— Bulutni ko'rib edingizmi?

— Ha.

— Gallamang, ko'rganingiz yo'q.

— Obbo, mendan... nima istaysiz o'zi, amaki?

Suhbatdoshim menga xotirjam ko'z tashlab oldi.

— Kerakli narsani ko'ra bilishingizni istayman xolos. Ko'rgan bo'lsangiz: bulut tog'dan emas, cho'ldan ko'tarilayotgan edi. Ko'rinib turiptiki, bu bulut to'kkan yomg'ir ancha-muncha mahalda tinmaydi. Agar bulut tog'dan pastlagan bo'lsa, uning yo'rig'i boshqa edi. Shuni ko'ra bilganingizda, ilgariroq o'zingizni panaga tortardingiz, suvga cho'milib, bunday qunishib o'tirmas edingiz.

Men tishimni tishimga bosib, jim qoldim.

Yomg'ir quyyapti. Kamarning "pesh buruni"dan tosh "ostonasi"ga sharillab loyqa, qizg'ish suv to'kilyapti. Nam shuvoq hidi anqiydi. Notanish odam o'rnidan turdi.

— Xafa bo'lmang, yigit.

Chakmonning yoqasini ko'tarib, boshini qopladi, kamardan chiqdi. Sal o'tmay yarmisi ho'l bir quchoq o'tinni ko'tarib kirdi. Uni kamarning to'rrog'iga eltib tashladi-da, menga qaramay, "isina bering", deya yana chiqib ketdi.

"Isina bering? Olovini minnat qilganimi!" Pidjakni kiyib, o'rnimdan turdim. Kamardan chiqarkanman, notanish odamni ko'rdim. U pastda, soyning yoqasida yugura-yela, daryo toshqini toshlarning tagiga tiqib tashlagan shox-shabbalarni terardi. "Ha, pishiq odam. Bu o'tinlarni uyga olib ketadi. Eshagiyam tayyor". Notanish odam o'tin uchun kamar bilan soy orasida yana uch-to'rt marta qatnagach, kiyimlarini siqib, joyiga kelib o'tirdi. Menga ko'z qirini tashlab, o'chayotgan cho'g'larni dag'al barmog'i bilan titkiladi.

— Tomosha qiling, yomg'irning yog'ishida ko'ngilga yoqadigan bir dilgirlik bo'ladi, — dedi u. — Ko'p yaxshi narsalar yodga tushadi. Ayniqsa o't yonida o'tirib tomosha qilsang. Keling-e, yigit, o'tiring.

Men, o'zim ham bilmayman, nima uchundir yumshab qoldim.

Belbog'ini yechib o'rtaga yoydi. Eshakdagi xurjundan bitta yog'liq patir bilan beshta qo'y qurtini olib belbog'ga qo'ydi:

— Dasturxonga qarang.

— Rahmat, qornim to‘q.

— Rahmatni yegandan so‘ng aytasiz.

Men bitta qurtni olib shimiy boshladim.

Ikkalamiz ham jim, tashqarida shuvillab yog‘ayotgan yomg‘irga qarab o‘tiribmiz. Soy sohiliga ko‘kchil tuman o‘rmalayapti. Sohilning so‘l tomoni bug‘doyi kuyib ketgan paykalday qorayib ko‘rinadi. Uning ustiga bulutlardan yo‘l-yo‘l zangor chiziqlar osilib tushgan. Bora-bora u chiziqlar oqardi, qorayib ko‘rinayotgan yerlar ham yorishdi. Atrof oydinlashib, ufq kengayib ketdi. Quyosh chiqdi. Biz ham kamardan chiqdik.

— Xayr, yigit, ovingiz baror olsin, — dedi u. — Mening gaplarimdan xafa bo‘lmang.

U eshagiga mindi. Mening xayolimga u terib kelib kamarga tashlagan o‘tinlar keldi.

— Amaki, o‘tiningizni unutdingizmi deyman?

— Yo‘q, yigit, unutganim yo‘q, — kulimsiradi u,— siz uyga olib ketadi deb o‘yladingizmi? Uyimda o‘tinim bor. Mana, seryomg‘ir kunlar boshlandi. Siz-u bizga o‘xshagan biron yo‘lovchi bu kamarga kirib qolgudek bo‘lsa, sovuqqa qunishib o‘tirmasdan, tayyor o‘tinni yoqib isinadi, shular uchun terdim.

U ketdi. Men kamar og‘zida, undan ko‘z uzolmay qarab qoldim.

1960

BIR KO'RGAN TANISH...

Maktabda yaxshi o'qirdim. Sinfdoshlarim meni hurmat qilishar, muallimlarim: "Salom, Toshboyjon", deb so'rashishar, qo'shnilarimiz: "Yaxshi odam bo'ladi", deyishardi. Lekin faqat bir kishi — tabiiyot muallimimiz — maktabimizning direktori Zokir O'rinovich menga e'tiborsiz qarar, hech vaqt: "Salom, Toshboyjon" demas, hatto ro'paralaridan chiqib, ko'zlariga tikilib salom berganimda ham, oddiygina bosh qimirlatib, o'tib ketardilar. Men, g'ashim kelib, nima qilsam bu kishi ham menga boshqacha ko'z bilan qaraydilar, nomimni aytib so'rashadilar, deb o'ylardim.

Kunlardan bir kun, erta bozor oqshomi tog'ga, tog'amning ovuliga somonga ketdim: otam aravadan olako'z, oriq otni chiqarib, "boyloq"qa tashlagandilar (Men uni har erta o'tloqqa eltib bog'lardim, kechqurun olib kelardim). Tog'dan kelsam, yangi yerga ko'chib ketgan qo'shnimizning hovlisiga o'sha kishi — Zokir O'rinovich ko'chib kelib, joylashib olibdilar.

Men nima qilib bo'lsa ham niyatimga yetish payiga tushdim: maktabdan qaytishim bilan ko'chaga chiqaman, muyulishdagi aravaning shotisiga o'tirib olib, kitob o'qishga "sho'ng'iyman". Qarshimda o'rtoq Zokir O'rinovichning darvozalari! Albatta, bunaqa o'qishda miyaga bir narsa kirmaydi. Bir ko'zing direktorning darvozasida bo'lgandan keyin ahvoling shu-da.

Ikki kun shunday qildim: bir ish chiqmadi. O'rtoq direktor xiyobondan sap-sariq barglarni qisir-qisir bosib, hafsala bilan yurib keladilar-da, shu yurishda darvozadan kirib ketadilar. Meni payqamaydilar ham. Bo'ynimni cho'zib qarayman. "Balki hovlidan qarayotgandirlar"... Yo'q, darvoza past bo'lsa ham hech kim ko'rinmaydi. Aytmoqchi, u kishining bo'ylari anchagina past, men bilan bab-baravar. Lekin boshlari juda katta, quloqlari ham shalpangroq, burunlari ham uzunroq. Kiyim masalasida, bizning farqimiz yer bilan osmoncha.

Yakshanba kuni arava yonidan jilmaslikka qasd qildim.

Tong otdi, kun botdi: o'rtoq direktorning tirnoqlari ham ko'rinmadi.

Qosh qorayganda, yig'lamoqdan beri bo'lib, uyga kirdim.

— Otni obkeldingmi?

— E-ee... — O'tloqdan otni keltirishni ham unutgan ekanman. O'tloqqa yugurdim: ot yo'q! Bu qorong'ida filni ham topib bo'lmaydi. Buning ustiga, hamma yoq tog', archazor, jar-dara... Uyga borsam, otam terimga somon tiqadi.

Bitta toshni topib, o'tirib oldim. O'tiraverdim. Ustim yupqa edi, toshdan sovuq o'tdi. Qo'zg'almoqchi edim, yiroqdan kelayotgan tuyoq tovushini eshitib qoldim: tap-tap-tap... Olako'zning qadam tashlashiga o'xshaydi. Olako'z! Bitta o'zi emas, kimnidir ko'tarib kelyapti. Yerdan bir changal ho'l tuproq olib baqirdim:

— Tush otdan!

Otliq fonarini yoqib, menga tutdi.

— Oliftalik qilma!

"Olifta" yerga tushib, ipni uzatdi.

— Qochib borayotgan ekan, ushlab oldim.

Quloqlarim chippa bitdi: ro'paramda o'sha kishining o'zlari — Zokir O'rinovich turardilar.

— O'lay agar, muallimjon, men sizni boshqa kishi deb o'ylabman.

— Zarari yo'q. — Yurib ketdilar. Kiftlarida rukzaksimon xalta, ustlarida uzun paxtali, boshlarida telpak. Hozir ko'rsa hech kim u kishini direktor deb o'ylamasdi. Men otni yetaklab, shosha-pisha ergashdim. Ichimda otni so'kaman: "Tentak! Borib-borib shu odamga tutqizasanmi?" O'rtoq direktor bir tekis qadam tashlab borar, bellariga osilgan allanarsalar yonlariga shap-shap urilardi.

— Ovdan kelyapsizmi, o'rtoq muallim?

— Ha.

— Uning hammasi kaklikmi?

— Ha.

— Shuncha ko'p otdingizmi?

— Ha.

— Otam ovga chiqsalar, hech nima otolmay keladilar.

Javob bo'lmadi.

— Muallim, meni kechiring.

— Zarari yo'q.

— O'rtoq muallim... men ham ovni yaxshi ko'raman.

— Yaxshi. Ovning o'zi yaxshi-da.

— Men ham siz bilan chiqsam-chi?

— Marhamat.

— Siz qachon chiqasiz?

— Shanba kuni. Kechqurun.

— Keyin o'sha yoqda yotib, ertasi ovlaysizmi?

— Ha.

— A, qayerda yotasiz?

— Ovulda.

Azonda otni minib tog'ga jo'nadim. Tog'amni o'tin yorayotgan yerida topdim.

— Tog'ajon, shu kelayotgan shanbada kechqurun maktabimizning direktori bilan kelaman. U kishini bilasizmi, Zokir O'rinovich deydilar. Juda zo'r odam. Palovni damlab turasiz-da, tog'a! Uyat qilib ketmasinlar.

— Xo'p, jiyan, otdan tush.

— Darsga kech qolaman, bu o'lgir ot ham imillab yuradi. Tog'a, jon tog'a, miltig'ingizni bering, obkelaman o'sha kuni.

— Jiyanjon... bilasan-ku, irimim bor.

Otamning yiroq bir oshnasidan miltig'ini olib keldim. Bizda miltiq yo'q. Direktorimizga aytgan gaplarim yolg'on, dadam umrida ovga chiqmagan. O'zim ikki yil burun, yangi yerga ko'chib ketgan qo'shnimiz Mirzaqobil ovchiga ergashib ikki marta chiqqandim.

Shanba. Kechqurun. Men o'tloqda otdan tushib, Zokir O'rinovichni qarshi oldim.

— O'rtoq muallim, otga mining.

— Rahmat.

— Mingashaylik bo'lmasa. Siz egarga o'tiring.

— Rahmat.

Jo'nadik.

O'rtoq direktor otni o'z holiga qo'yib borar, aravaga qo'shiladigan ot — Olako'z charchagan eshakday boshini osiltirib, elanqaran qadam tashlardi: tap-tap-tap... Ko'nglimga o't tushdi: "Bu yurishda tog'amnikiga qachon yetamiz?"

— O'rtoq muallim, ot zo'r, qattiqroq haydayvering.

— Hojati yo'q.

— O'rtoq muallim... men kaklikning konini bilaman.

— Yaxshi. Kaklik qayerda ko'p bo'lsa, o'sha yerga boramiz.

— Lekin u yer uzoq-da. Otni tezroq haydasakmi deyman?

— Mayli. Unday bo'lsa, mayli.

Ot jadalladi. Men ham otning biqiniga niqtay boshladim.

— Soat necha bo'pti, o'rtoq muallim?

— O'n. To'g'ri ketyapmizmi?

— Ha. Huv, soydan o'tib, tepaga chiqamiz. Yana ikki tepalikdan oshib, pastga tushamiz. O'sha yer — kaklikning koni.

Mana, oxirgi tepalikka chiqib keldik. Past qop-qora archazor. Yiroqda o't miltillaydi. Itlarning cho'ziq-cho'ziq hurishlari eshitiladi.

— Soat necha bo'pti?

— Bir. Ohho, tez yetib kelibmiz-u. Shu yermi aytgan joying?

— Shu yer. Pastga tushaylik.

— Hojati yo'q.

— O'rtoq muallim, hov ovulga borsak-chi? Yaqingina.

— Anchadan beri mana shunaqa, yalang yerda — archazorda yotmagandim. Mana, ikki kishimiz. Yotamiz. Tush... Juda gashtli bo'ladi. Har gal bir o'zim chiqardim. Ovulda tunardim.

— Men ancha kundan beri ovulda tunaganim yo'q.

— Keyingi kelishda tunaymiz. Qani, tush endi. Bunday kechalarni qadrlash kerak. Hademay sovuq tushib qoladi.

Betma-bet o'tiribmiz. O'rtamizda ovchilarning, yo'lovchilarning doimiy hamrohi — gulxan. Gulxanning ikki chetida ikki baland tosh. Ular ustida yashil kastrulka. Hali zamon choy qaynaydi. Etakda buloq bor edi, o'rtoq direktor buyurdilar, kastrulkada suv olib keldim.

— Ovda kastrul yaxshi, nima deding, ovqat pishirish ham mumkin, choy qaynatish ham.

— Ha, o'rtoq muallim.

— Xafa ko'rinasan?

— O'zim... yo'q...

— Xursand bo'lish kerak. Zavqlanish kerak. Zavqlana bilish ham yaxshi narsa. Qara, mayin shabada esyapti. Ko'klamnikidek yumshoq emas, ozgina dag'al. Kuzniki-da, kuzniki. Xususan, mana shu kunlarniki. Bundan rohatlanish kerak. Zavq olish kerak.

Iljayaman — o'zimni rohatlanayotganday ko'rsatmoqchi bo'laman.

Zokir aka davom etadilar:

— Biz ko'p xato qilamiz. Ko'p zavqli manzaralar qarshisidan beparvo o'tib ketamiz. Ko'p zavqlardan bebahra qolamiz. To'g'ri, turmush tashvishlari bor. Ammo ulardan ustun kelish kerak. Aks holda tashvishlarga ko'milib ketasan. Turmush tatimaydi... Sen nimadandir xafasan?

— Nega, o'rtoq muallim?

— Gapim zeriktirgan bo'lsa, bas qilaman, — kastrulkaning qopqog'ini ochdilar. Oppoq bug' ko'tarildi. Suv sutga o'xshab ko'rindi. — Hozir qaynaydi. — Rukzaksimon xaltalaridan quruq choy va krujka oldilar. So'ng allanechuk alahsib, xaltani avaylab titkiladilar-da bir shisha chiqardilar: qornida "Vodka" deb yozilgandi. Araq! Sal kamaygan. Tiqini ham ochilgan. Demak, oz-moz ichilgan. "Hozir yana ichadilar. Maktab direktori o'z o'quvchisining oldida ichadi! Undan keyin... undan keyin..." Ot kishnab yubordi. Zokir aka beixtiyor miltiqqa qo'l cho'zdi. Shitir-shitir yurib kimdir kelardi. "Tog'am olovimizni ko'rib kelayotgan bo'lsa-ya?"

Umrimda ko'rmagan bir odam keldi. Habashday qop-qora, boshida juni to'kilib ketgan yarg'oq telpak, oyog'ida choriq. Qo'shqo'llab ko'rishdi:

— Yov bismillo, yov bismillo.

Qo'llari juda dag'al edi. Yelkasidan miltig'ini olib cho'kkaladi, boshini egib:

— So‘rang, aka, — dedi direktorimizga.

— Siz so‘rang, — dedi direktorimiz.

— Yoshingiz ulug‘, siz so‘rang.

Eski qadrdonlarday so‘rashdilar. Kelgan odam faqat: “Shukur, shukur” dedi, direktorimiz, “rahmat, rahmat”, dedi.

— Ovga chiqibsiz-da?

— Ha.

— Biz ham ovga chiqdik. — Menga o‘girildi. — Siz, inim, Salim mo‘ylovning jiyanimasmi?

Men yerga qaradim.

— Yo‘q.

— Attang, attang.

— Nima edi? — deb qoldilar Zokir aka.

— Salim mo‘ylov degan odam bor-da anavi ovulda. Shunikidan kelyapman. Rayondan jiyani direktorini olib kelmoqchi ekan. Bechora bir qo‘y so‘yib, osh damlab o‘tirdi. Kelishmadi. Ko‘p xafa bo‘ldi-da mo‘ylov. Endi direktorlar katta odam-da, a, aka? Miltig‘ingizni bir ko‘ray. — Miltiqni oldi, nilining uzunligini ko‘zi bilan chamaladi. — Soz miltiq, soz. — So‘ng menikini oldi. — O‘-ho‘, ichini kir bosib ketipti-ku? Moylamapsiz-da, inim-ey.

Men Zokir O‘rinovichga qaramaslik uchun bu odamdan ko‘z uzmasdim. U archadan novda kesib keldi. Tilini chiqarib tishlab, dudama pichog‘i bilan novdani butalay boshladi.

— Kaklik qalay? — birozdan so‘ng so‘radi Zokir O‘rinovich.

— Bor, tovushqon ham bor. Bultur xiyla ko‘p edi, burnog‘i yil undan ham ko‘p edi. Shu shahardan keladigan o‘g‘ri ovchilar kamaytirib tashladi. Saratonda ovga keladi-ya. Bo‘g‘oz tovushqonni ham otadi, tuxum bosib yotgan kaklikni ham. Nomardlar. Endi, aka, qasd qildim, boshqa odamlarimiz ham qasd qilgan. Shunday nomard keldimi, g‘ippa ushlab hukumatga topshiramiz. Mana, hozir ovlasin, qishda ovlasin, haloli bo‘lsin. Kaklik ham bor, tovushqon ham. Qoplon ham uchrab qoladi. Ha. Bultur yozda birini o‘zim ko‘rdim. Qurg‘ur qo‘limda miltiq yo‘q edi. Shu novdaday xivchinim bor edi. Buzog‘imni axtarib borayotsam, oldimdan chiqib qoldi. Muni qarang, uni urmoqchi bo‘lib, shu xivchinni ko‘taribman. Taqqa to‘xtadi u ham.

Men oldinga surildim. Tizzam tegib, araq ag'anab ketdi. Darrov ko'tardim. Hikoyachi bo'lsa, bir menga, bir direktorimga o'qrayib qaradi-da, miltig'ini olib sekin o'rnidan turdi:

— Aka, biz endi ketsak ham bo'ladi. — Javobni kutmay qorong'ilikka kirdi-ketdi. Zokir aka: "Birodar!" deb chaqirganlaricha qoldilar. Men hayron. Ammo Zokir O'rinovichga qarolmayman.

Ancha vaqt jim qoldik.

Zokir O'rinovich ustma-ust uch krujka choy ichdilar. "Nimaga araqni ichmayaptilar? Mendan uyalyaptilarmi? Nega bo'lmasam uni menga ko'rsatdilar? Mana, hali ham oldimizda turibdi. Yashirmaydilar".

— Yot, mizg'ib ol.

— Uyqum kelmayapti, o'rtoq muallim.

— Undoq bo'lsa, men uxlayman. Mana, soat hozir bir. To'rtda meni uyg'otasan.

Uyg'otgim kelmadi. Lekin o'zlari cho'chib uyg'ondilar.

— Yot, endi sen uxlab ol.

— Uyqum kelmayapti.

— Gapni ko'p qilma.

Uyqudan turganimda Zokir aka miltiqlariga o'q joylar, soatlarining mili yettining ustida edi. Tong yorishib qolgan, kakliklarning sho'x-sho'x sayrashi eshitildi. Turayotib araqqa ko'zim tushdi. Kechagidan qittay ham kamaymagan edi: ichmabdilar.

Choshgohgacha archazorni kezdik. Oldimizdan sela-sela kakliklar uchdi, quyonlar qochdi. Biroq hech narsa otolmadik. Nishonga olgan kakligimizni ham, ustidan chiqib qolgan quyonimizni ham kechagi odam otib oldi: allaqayerdan yetib kelib, bizga soyaday ergashib yurdi, lekin biz bilan na so'rashdi, na gaplashdi.

Kakliklarning sayrashi kamaydi, quyonlar g'oyib bo'ldi. Ov "muddati" tugadi. Qo'shxonamizga qaytdik. Endi o'tirgan edik, tepamizdan bir gala ko'k qarg'alar uchib o'tdi. Zokir O'rinovich o'q bo'shatdilar. Bittasi yiqildi. Olib keldim. Zokir O'rinovich bir qo'llariga qarg'ani, bir qo'llariga "araq"ni olib, buloq tomon ketdilar. Ergashdim. Haligi odam mukka tushib, buloqdan suv ichayotgan ekan. Nariroq bordi-da, Zokir O'rinovichga qarab to'xtab

qoldi. Zokir O'rinovich qarg'ani yorib tozaladilar. "Araq"ni ochib, qarg'aning ichiga qulqillatib quya boshladilar.

— Endi bu qotadi, — dedilar menga.

— Qotadi?

— Ha. Bu qotiradigan dori.

U odam esa asta yonimizga keldi, cho'nqaydi, barmog'ini butilkaning og'ziga tegizib hidladi.

— Isi yo'q-ku?

— Yo'q, — dedi Zokir aka. — Kakligingizni bering. Qotirib beraman. Uyingizga qo'yasiz. Xuddi tirikday turadi.

— Tirikday? Tirikday tursa, qiziq bo'ladimi deyman-a, aka?

— Qiziq bo'ladi.

— Mana, mana, ichini tozalaymi? Xo'p... mana... e, yashang, kam bo'lmang. Aka deyman, siz ovdan maza qilmadingiz-a? — dedi ma'noli qilib.

— Ha, — dedi Zokir O'rinovich.

— Hozir maza qilasiz. Inim, siz bu tovushqonning terisini shilib turing. Ketdik, aka, to'xtang, bittadan miltiq bo'shataylik... ana uchishdi, qo'zg'ab yubordik. Ketdik.

Quyonning terisini bir amallab shildim, jirriq labini tomosha qilayotgandim, ular kelishdi. Zokir O'rinovichning bellarida bitta quyon va ikkita kaklik osig'liq, u odam kechagi hikoyasining davomini aytib kelardi:

— Ikkovimiz bir-birimizga qarab turibmiz. Oramiz uch qadam. Xivchinni ko'targanimga kulgim keladi. Es ketgan-da, es ketgan. Aka, yo'lbarsda qirq yigitning haybati bor, bir yigitning kuchi bor; qoplonda bir yigitning haybati bor, qirq yigitning kuchi bor, deydilar. Bekor gap ekan. Bir yigitning haybati bo'lsa, mening esim ketarmidi? Keyin desangiz, bir-birimizga qarab turaverdik, turaverdik. Kiprik qoqqanimiz yo'q. Ishonasizmi, aka, shunda men kiprik qoqsam, qoplon meni olar ekan. Qo'rqqanimdan baqrayib turaverdim-da. Bir vaqt desangiz, asta iziga qayrildi. Ikki qadam yurib, menga yana bir qaradi, ketdi, ha, ketdi. Ana shu mardlikni qarang endi.

Ovqatni yedik. Men ham bir kaklik otdim. Charchab o'tirgan edim, oldimga kelib qo'ndi, otdim.

Qosh qorayishiga yaqin qaytdik. Direktor u kishi bilan oddiygina xayrlashdi. U odam esa bizni uyidan kuzatayotganday:

— Xushvaqt boringlar, — dedi. Balandda, sadaqayrag'ochga o'xshagan archaning yonida uning jikkak gavdasi uzoq vaqt ko'rinib turdi.

Ketyapmiz.

Olako'z qadam tashlaydi: tap-tap-tap... O'rtoq direktor egarda, men egar korsonidan ushlab o'tiribman. Boshim xam. Bir payt direktorimiz so'rab qoldilar:

— Bu odam senga yoqdimi?

Nima deyishimni bilmay qoldim:

— Sizga-chi, o'rtoq muallim?

— Yoqdi, juda yoqdi.

— Nimasi?

— Sofligi, to'g'riligi. Lekin, u, bu kishilarga yoqay deb hatto o'ylaganiyam yo'q. Ko'ngli nimani tusagan bo'lsa, shuni qildi.

Indamay qoldim. Go'yo tildan qolgan edim...

Kunlar o'tdi.

Men shotida o'tirib kitob o'qishni ham, ovga chiqishni ham yig'ishtirib qo'ydim; o'sha kunning ertasi tog'am kelib, mendan xo'p ranjidilar. Bir haftadan keyin esa bozorda mo'ylovlarini burab: "Direktoring ovulimizda tunadi", dedilar. Lekin... men xursand bo'lmadim. Mundoq qaraganda, men o'z niyatimga yetgan edim: Zokir O'rinovich ham menga boshqacha ko'z bilan qaraydigan, nomimni aytib, qo'limni tutib so'rashadigan bo'lib qoldilar. Ammo u kishining qarashlari ham, so'rashishlari ham boshqa muallimlarnikidan farq qilardi.

1965

... IKKI KO'RGAN BILISH

O'sha tog' safaridan so'ng menda shunday bir fikr paydo bo'lgan edi: "Endi birovga yoqaman deb hech urinmayman. Yo'qolsin xushomadgo'ylik!"

Bir kuni — o'shanda qish edi — bozor oqshomi dars tayyorlab bo'lib, deraza yonida turgandim. Tashqarida shitirlab qipiqday quruq qor yog'ar, ayvon ustunidagi chiroq yorug'ida yiltillab, aylanib-aylanib tushardi.

Darvoza taqillab qoldi. "Otam keldi", deb o'yladim. Qarindoshimiz to'y qilib, bizni chaqirtirgan edi. Onam yosh go'dagi borligi uchun, men darsim ko'pligi uchun uyda qolgandik — otam ketgan edi. Pidjagimni kiymasimdan, xonam devori dukulladi. Tushundim: narigi uydan onam dukullatyapti — darvozani och, degani.

Darvozani ochsam, ro'paramda novcha otam emas, o'zim bilan teppa-teng bir kishi yelkasini qisib, junjikib turibdi. Ust-boshi oppoq qor, qorboboga o'xshaydi. "Qorbobo"ning beliga osig'liq allanarsalarga ko'zim tushdi-yu tanidim: Zokir O'rinovich!

— Salomaleykum.

— Salom, — dedi u kishi. — Bu, yangang bir yoqqa ketgan ko'rinadi. Darvoza qulf. Kalitni sizlarda qoldirmadimi?

— Yo'q, — dedim. Onamdan so'rab chiqqim keldi-yu bu kishi xushomadgo'ylik qilyapti, degan xayolga boradi deb, qimirlamadim.

— Chatoq! — dedi Zokir O'rinovich. Etiklarining qorini qoqib, atrofga qarab oldi. — Balki onangga tashlagandir. So'rab chiqmaysanmi?

— Mayli. So'rab chiqaman, — dedim. Yugurib bormoqchi bo'ldim-u, o'zimni bosdim. Salmoqli qadam tashlab ketdim. Onam Zokir O'rinovichning ismini eshitishi hamon irg'ib turdi.

— Kalit yo'qmi, shuni ayting? — dedim.

— Yo'q-yo'q, kelinoying kech tushmay kelaman, devdi.

— Bo'lmasam, o'tiring, borib shunday deyman. Nimaga turyapsiz?

— Seni qara-yu, u kishi sovuqda qotib tursinlarmi uyoqda?

Men indamay qoldim. Rostdan ham bunday sovuqda ko'chada turishi yaxshimas. Onam chiqib Zokir O'rinovichni boshlab qaytdi.

— Hali zamon kelib qoladilar, domlajon.

— Asli o'zim ham bugun qaytmoqchi emas edim, — dedi Zokir O'rinovich, — qarasam, qor hali-veri tinmaydigan. Qayta qoldim.

Ular gaplashib ayvonga chiqishdi. Men xonamga kirayotgan edim:

— Shu uyga kiramizmi? — dedi Zokir O'rinovich. Men eshikni ochgan ko'yim beixtiyor to'xtadim.

— Yo'q, bu Toshboyjonniki, shogirdingizniki, — dedi onam.

— Qani, qani, — Zokir O'rinovich yonimdan ichkariga mo'raladi. Xonam, maqtanmayman, aytsa aytgudekkina edi. Ro'parada, burchakda tunuka pech lovillab turibdi. Undan nariroqda, javonda kitoblarim taxlog'liq. Shiftga osilgan chiroq uychamni yop-yorug' qilib yuborgan.

— Durust, durust, — dedi Zokir O'rinovich. — Shu yerga kira qolaylik bo'lmasam.

— Ta'bingiz, ta'bingiz, — dedi onam. Zokir O'rinovich o'sha yerda etigini yechmoqchi edi, onam: "Etigingiz muzlab qoladi", deb qo'ymadi, Zokir O'rinovich ichkarida yechindi. Onam u kishining etigini yerga yotqizib, tagini pechga qaratib qo'ydi, uzun paxtaligini qoziqqa ildi. Zokir O'rinovich pechga qo'llarini toblab biroz isitgach, kaftlarini bir-biriga ishqay-ishqay, javon yoniga bordi. Onam stol ustini tartibga solar, karavot qoshidagi kiyimlarimni olib, qoziqlarga ilar, tinmay ivirsir va og'izlari ham tinmas edi:

— Domlajon, shugina o'qisin, odam bo'lsin deymiz-da. Otasi ham, men ham bundan hech narsamizni ayamaymiz. Xudoga shukur, bu ham yuzimizni yerga qaratmay kelyapti.

Men bir chetda g'ijinib turardim, onamning ba'zi gaplari ko'nglimning qayerigadir yoqib-yoqib ketsa-da, baribir g'ashimni keltirardi.

— Qani, domlasi, o'tiring, ustalga o'tiring, — dedi onam. Zokir O'rinovich stulga o'tirib, uyni ko'zdan kechira boshladi.

— Yaxshi, yaxshi, — dedi u kishi. — Endi, xola, hammamiz ham shular odam bo'lsin deymiz-da.

— Rahmat, o'rgilay, rahmat. Domlasi, siz bemalol o'tiravering, men hozir kelaman.

— Hech narsaga ovora bo'lmang.

— Ovoragarchiligi bormi, domlajon. Allag'aytib bir kiribsiz uyimizga. — Onam chiqdi. Men toqatim toq bo'lib, Zokir O'rinovichning qarshisidagi stulga cho'kdim.

— Xo'sh, ishlar qalay? — so'radi u kishi.

— Yomonmas, — dedim yonboshimga qarab.

— Bu, ovni ham yig'ishtirib qo'ydingmi deyman?

Men bosh irg'adim.

— Yaxshimas, yaxshimas, — dedi u kishi. — Kishilar uzoq-uzoq shaharlardan ov uchun tog'imizga kelishadi. Sen esa bu yerda turib, qadrlamaysan. Yaxshimas. O'sha odamlar shu yerga kelguncha qancha mashaqqat tortadilar, pul xarj qiladilar. Olib ketadigan boyliklari esa ikkita-uchta kaklik. Lekin ular bundan aslo xafa bo'lmaydilar. Bu yerda gap bor-da.

Men bosh qimirlatib o'tirardim.

Onam choy qaynatib keldi. Stolga shokolad va men mazasini totmagan marmeladlar ham keltirildi... Onam yana qaytib chiqdi, shu payt tashqarida o'tin yorilayotgani eshitildi.

— Onang bir nima qilmoqchi, ayt, ovora bo'lmasinlar, — dedi Zokir O'rinovich.

Men chiqdim.

— Ona... qo'ying...

— Nima? — Onam hayron bo'lib qaradi.

— Qo'ying... o'zlari shunday deyaptilar.

— Jinni bo'ldingmi? Desalar deptilar-da.

— Xushomadgo'ylik qilmoqchimisiz?

— Yo, pirim, bu nima deganing? Bo'ldi-bo'ldi, bor, kir ichkariga. Gaplashib o'tir u kishi bilan, zerikib qolmasinlar. — Onam meni chirt burib, yelkamdan itarib yubordilar.

Zokir O'rinovich devordagi dars jadvalimni ko'zdan kechirayotgan ekan.

— Onam unamadi, o'rtoq muallim, — dedim. Zokir O'rinovich menga ohista burildi-da, tikilib qaradi, so'ng jimjiloqlari bilan ko'zlarining pastini qashib, o'ychan so'radi:

— Nima dedilar u kishi?

— Odamgarchilikni bilmas emishman. — Men yelkamni qisdim va "uzr, o'rtoq muallim, onam sal xushomadgo'yroq" deganday, kulimsiradim. Nazarimda, u kishi ham kulimsirayotgan bo'lishi kerak edi. Ammo qarasam, u kishi tamom jiddiy, buning ustiga, chimirilgan.

— Bo'lmasam sendan iltimos, — dedi Zokir O'rinovich allanechuk temirdek jarangli tovushda, — shu kakliklarning birini u kishiga chiqarib ber. — Turib, kakliklarning bittasini olib berdi. Men hayron bo'lib u kishiga qaradim.

— Nega?

— Bor-bor.

Muzlagan patlari yumshab ho'l bo'lgan kaklikni ko'tarib chiqdim... Onam qaytarib olib keldi. Lekin Zokir O'rinovich: "Xafa bo'laman", deb qo'ymadi.

Men yana hayron edim. Nazarimda, Zokir O'rinovich ham onamga xushomadgo'ylik qilayotgan edi.

Sho'rva ham keldi. Ichildi ham. Albatta, mening tomog'imdan o'tmadi. Choy ustida suhbat yana menga ko'chdi. Onam yana menga yaxshi sharoit yaratib bergani, meni o'qitish va yaxshi odam qilish niyatida ekanligini gapirdi.

— Yaxshi, yaxshi, — dedi Zokir O'rinovich. — Biz ham shularni odam bo'lsin deb harakat qilyapmiz. Lekin bilasizmi, xola, nazarimda, hammamiz ham juda oddiy bir narsani unutayotganga o'xshaymiz. Bu eng oddiy odamgarchilik nima? Kishilarga qanday muomalada bo'lish kerak? Jamoat orasida o'zini qanday tutish kerak? Yoki bo'lmasam, mehmondo'stlik nima? Bular haqida kam ta'lim berayotganga o'xshaymiz. Maktabda ham odamgarchilik to'g'risida fan kiritsakmikin deb o'ylab qoldim.

Direktorning gaplarini bosh qimirlatib ma'qullab o'tirgan onam birdan qizarib ketdi-da, menga qarab oldi, siniq kulimsiradi.

Zokir O'rinovichning gaplari to'g'ridan to'g'ri menga qaratilganini sezib, o'zim ham muzlab ketdim: "Lekin... nega? Nega axir? Men xushomadgo'ylik qilishni istamadim, xolos!"

— I-ye, bizning hovlida chiroq yonibdi! — deb qoldi Zokir O'rinovich.

Haqiqatan, u kishining hovlisida chiroq yongan edi.

Zokir O'rinovich onamga qo'sh-qo'sh rahmat aytib, o'rnidan turdi. Onam rahmatning hech hojati yo'qligi, u kishining izzatini joyiga qo'yolmaganlarini aytdi. Zokir O'rinovich kiyinib, kakliklarni oldi. Chiqdik. Darvoza yonida ham onam bilan u kishi bir muddat haligiga o'xshash gaplar qilishdi: onam u kishidan kalit yonlarida bo'lgan chog'dayam kirib turishlarini so'radi. Zokir O'rinovich va'da berib, onamni ham uyiga taklif etdi.

Onam tirsagimni bir chimchiladi-da, ro'molini peshonasidan pastroqqa tushirib, hovliga kirdi. Men qimir etmadim.

Zokir O'rinovich darvozasi yoniga bordi-da, mening hali ham turganimni ko'ribmi, to'xtadi. So'ng sekin yurib, yonimga keldi.

— Sen bir gap aytmoqchiga o'xshaysan?

— Ha, o'rtoq muallim, — dedim men, — sizga yana yoqmadim... Negadir boshqalarga ham yoqmay qolyapman.

Zokir O'rinovich bir muddat o'ylanib turgach, javob berdi:

— Chunki xushomadgo'ylik bilan odamgarchilikni farqlay olmayapsan. Tushundingmi?.. Xo'p, bu haqda hali ko'p gaplashamiz. Aytmoqchi, tayyorgarligingni ko'rib yur, kelgusi hafta ovga boramiz.

— Mayli, — dedim sekin.

Qor yog'ar, uyda meni onam kutardi.

1965

KO‘KBOY

Choyxonani bekitib qaytayotgan Qalandar aka ovchi o‘rtog‘i Hoshim akaning chorbog‘i yonidan o‘tayotib, uning baland darvozasi qiya ochiq ekanini ko‘rdi va yakka kift bo‘lib ichkariga kirdi. Oyoq uchida yurib, supaga yaqin bordi. Uy muyulishidan mo‘ralagan edi, oldiginasida, supurgi yonida g‘ujanak bo‘lib yotgan ko‘k junli kuchukni ko‘rdi. Ko‘rdi-yu, uning bo‘ynidan bo‘g‘ib ushlab, qo‘yniga soldi. Yana yakka kift bo‘lib, darvozadan chiqdi va muzlab qota boshlagan ko‘chadan jadallab ketdi. Yo‘lda kuchukning bo‘ynini bo‘shatib, choponining bariga o‘rab oldi. Uyga kelib:

— Oxiri qo‘lga tushirdim, — dedi xotiniga. Bag‘ridan olib, paxmoq, qora po‘stak ustiga qo‘ydi. Kuchuk bola javdirab atrofga qaradi-da, yugurib tunuka pechning orqasiga o‘tdi.

— Chiroyli-a? — dedi Salqin opa.

— Surlon itning bolasi, — dedi Qalandar aka.

— Oshnangiz bilib qolsa, opketmaydimi?

— Bermayman. Bu kuchukvachchangga ishqim tushgan, deb yurardim. Bermayman.

— Dumi kesilmagan-ku-a?

— Shunisi yaxshi. Cho‘ltoq itdan xunugi bormi?

— Oti nima?

— O‘zimiz qo‘yamiz-da otini. Ana, Ko‘kboy bo‘la qolsin. Qoraboy, Oqboy deydilar-ku. Bu — ko‘k.

Qalandar aka pechning ustidan egilib, ikki qo‘lini ikki tomondan kuchukchaga yaqinlashtirdi. Kuchukcha tishlarini irjaytirib, burchakka tiqilgandi, bo‘ynidan shappa ushlab ko‘tardi-da, po‘stakka o‘tirib, tizzalari orasiga qo‘ydi. Dasturxondan bir burda non olib, unga tutdi. Kuchukcha og‘zini ochmadi. Qalandar aka bir chaqmoq qand oldi.

— Buni ye, bo‘lmasam.

— Qo'ying, it ham qand yeydimi? — dedi Salqin opa.

— Yeydi, — dedi Qalandar aka va Ko'kboyning tumshug'i yonidan qisib, og'zini ochdi-da, qandni tiqib yubordi. Kuchuk bola qih-qih yo'talib qoldi. Zum o'tgach, boshini yoniga burib, qandni qisirlatib tishladi. Qand uvalanib ikki bo'lakchasi po'stakka tushdi. Ko'kboy shosha-pisha og'zidagini chaynab yutdi.

— Aytmadimmi, — dedi Qalandar aka.

— Baloday yedi, — dedi Salqin opa.

Kuchuk bola po'stakdagi qand ushoqlarini ham qilpili bilan yeb, lablarini yaladi.

— Endi otboy! — dedi Qalandar aka va Ko'kboyni qornidan ko'tarib, ayvonga chiqdi. O'choqqa solib, og'zini tos bilan bekitdi. Tos orqasiga tut to'nkasini tirab qo'ydi. Uyga kirdi.

— Sovqotmaydimi? — dedi xotini.

— Hozirdan ko'nikkani yaxshi, — dedi Qalandar aka va otasining xonasiga o'tdi.

Kuchuk bola iliq kulga yumshoq panjalarini bosib, o'choqning burchagiga bordi va cho'nqayib o'tirdi. Derazada chiroq o'chdi. O'choq orqasiga tutib qo'yilgan kanop qop shamolda patir-putur qila boshladi. Ko'kboy lablarini yalab yonboshladi-da, paxmoq dumi bilan orqa oyoqlari orasiga tumshug'ini tiqdi.

... Oradan uch yil o'tib, kuchuk bola juda bo'limli it bo'ldi. Egasi bilan bir necha bor ovga borib, uni xursand qildi. Mukofotiga hovuch-hovuch qand oldi. U zanjir ko'rmay o'sganidan odamlarga yomon kuz bilan qaramasdi. Qalandar akani ertalab darvozada kuzatar, kechasi u kishining qaytish vaqti bo'lganda, choyxona oldida hozir bo'lardi. Uni butun qishloq tanirdi: ko'chada dumi uzun, quloqlari qalin jun orasiga yashirinib ketgan, oyoqlari ingichka ko'k itning paydo bo'lganini ko'rishsa, to'xtab uni tomosha qilishar, maqtashar edi.

Qish kunlarining birida Qalandar aka Ko'kboyni ergashtirib, tong qorong'isida ovga ketdi. Choshgohlarda Yo'lbars daraga ro'para bo'ldilar. Bo'yin junlari hurpaygan Ko'kboy oldinda ketayotgan edi, taqqa to'xtab, qorga belangan dumini quyrug'i ustida gajak qildi, bir narsaga tashlanmoqchiday, boshini ichiga tortib, pasaydi.

Pakana archa orqasidan churq-churq ovoz keldi va dahshat ichida churillab bir kaklik uchdi. Uning izidan yana bir gala kaklik ko'tarildi. Ular daradan chiqdi. Qalandar aka ham izma-iz ko'tarildi. Kakliklar qordan chiqib turgan yantoqlar oralab ketishardi. Ovchi o'q bo'shatdi. Ikkitasi qorni titib qolishdi-yu, qolganlari nariroqqa uchib borib, yana qorga bota-bota ketishaverdi. Qalandar aka yiqilgan kakliklarni so'yib, beliga osib oldi. Yana yo'lga tushdi. Yana o'q bo'shatdi. Uchtasi tipirlab qoldi. Bularni ham olib qo'zg'algan edi, qayoqdandir bir gala kaklik uchib keldi-yu, oldindagilarga qo'shildi. Ular uzoqqa ucholmas, sovqotgan, muzlagan qanotlari bunga imkon bermas edi. Asta-sekin kakliklar, qizishib, uzoqroqqa ucha boshladilar. Qalandar aka ham endi chopqillab borardi. Kakliklar do'nglar osha, jarlar osha ucha boshladi. Qalandar akaning ko'ziga kaklikdan boshqa narsa ko'rinmay qoldi. Shu ko'yi ular ancha yo'l bosishdi. Nihoyat, oldinda tuman ko'rindi-yu, kakliklar tumanga kirib g'oyib bo'lishdi. Ovchi to'xtadi. Atrofga qaradi. Qayerga kelib qolganini bilmoqchi bo'ldi — bilolmadi. Orqasidagi do'nglikka ko'zi tushdi-yu, "shuning ustiga chiqib qarayman", deb o'yladi. Qadam bosgan edi, belidagi kakliklar og'irlashib ketganini sezdi. Bir necha odim yurgach, shuncha yukni ko'tarib bu yergacha qanday chopib kelganiga hayron bo'ldi. Shunda oyog'i qaltirayotganini sezdi. Do'nglikni qo'yib, yaqinginada ko'rinib turgan archaga qarab yurdi. Archaga yetgach, belbog'ini yechib, qorga qo'ydi. Yonidan pichog'ini olib, cho'qqayib o'tirdi-da, kakliklarning ichini yorib, ichak-chavog'ini chiqarib tashlay boshladi. Ko'kboy hurpayib, yeyishga tushdi, so'ngra to'yib, cho'zilib yotdi. Ovchi hamon kaklik tozalardi. Nihoyat, Qalandar aka kakliklarni sanadi. Yigirma oltita edi. U hech mahal buncha kaklik otmagan edi. Ulardan belbog'idan popukday osilgan iplarga qanotlaridan bog'lab, o'rnidan qo'zg'olgan edi, yuztuban yiqilib tushdi. Og'iz-burni qorga botdi. It cho'chib, ko'zlarini chaqchaytirdi. Ovchi qorga qo'lini tirab, boshini ko'tardi. Qaddini ko'tarmoqchi edi, yana yuztuban tushdi. It g'ingshib, dumini ko'tardi. Tuman bularning ustidan bosib o'tib ketdi. Ovchi yana boshini ko'tardi va uzoq yo'l yurgach birdan cho'nqayib o'tirgani uchun oyoqlarining tomiri tortishib qolganini payqadi.

Bir yonbosh bo'lib, taqimini uqalashga tushdi. Lekin torday tarang bo'lib qolgan tomir yumshamasdi. Shunda ovchining ko'zi birdan tinib ketdi. Dumalab ketadiganday qorni changalladi. Nafasi qisila boshladi. Ovchi buning sababi haqida o'ylolmas, bu uzoq yo'l yurib, birdan to'xtashning oqibati edi. Ovchi itning hurayotganini eshitdi-yu, lekin, it teskari bo'lib ko'rindi. Ichi yonib borardi. U qorni yamlay-yamlay o'zidan ketdi.

Ko'kboy egasining tevaragida g'ingshir, hurar edi. Keyin uning choponi baridan tortqilay boshladi. U egasini hech mahal bunday holda ko'rmagan edi. Nihoyat, ovchining boshida cho'nqayib o'tirdi-da, tumshug'ini osmonga ko'tarib ingichka uvladi. So'ng yalanib, yana egasiga qaradi. Yana uni tortqilashga tushdi. Egasi qo'zg'almas, lekin uning burni tegib turgan qor asta-sekin sarg'ayib borardi. Nihoyat, it uning oyoq tomoniga o'tib, cho'zilib yotdi.

Quyoshning qayerda ekanini bilib bo'lmasa-da, it kech bo'lganini sezdi. Ular hamisha qorong'iga qolmay, uyga yetib borishardi. Ko'kboy turib, yana ovchining atrofida aylandi va yana tortqilashga tushdi. Ovchi qimirlamagach, uning etagidan tishlab oldinga, orqasiga tislanib sudray boshladi. Boya o'zlari qoldirib o'tgan izlarga yetib to'xtadi. Tag'in egasini aylanib vov-vovladi, hurdi. Egasi miq etmay yotar, uning bo'yinlariga qor kirgan, telpagi yo'lda tushib qolgan edi. Ko'kboy ovchini yana sudrashga tushdi. Do'nglikka olib chiqdi-da, ko'zlariga qon tepib, atrofga qaradi. Shunda birdan qorong'i tushib qolganini sezdi. Do'nglik etagiga qarab ho'l burnini qimirlatdi. Keyin ovchini ikki marta aylandi va do'nglik pastiga otilib tushib ketdi. Qorong'i tumanda itning o'tkir ko'zlari o'zi bosib kelgan izlarni yaqqol ko'rar, u izdan chiqmay, do'ngliklar, jarliklar osha uchib borardi. Dimog'iga qishloq hidi urilib, battar jadalladi. Qishloq ko'chalari, devorlaridan ko'z ilg'amas tezlikda o'tib, tanish darvoza yonida to'xtadi. Bo'g'iq hurdi. Hovlidan cholning ovozi eshitildi. It ortiga tislanib, devorga sapchib va tomorqaga o'tib, ayvonga chiqib bordi.

Ochiq eshik oldida hassasiga tayanib turgan chol manglayi tagidan itga tikilib iljaydi, yo'lkaga qaradi. Yo'lkada hech kim ko'rinmagach, yana itga boqdi-da, uning yirtqich vajohatidan qo'rqib ketdi. It g'ingshib, supa tuprog'ini tirnab pastga otdi.

So‘ng tumshug‘ini osmonga cho‘zib, hovlini boshiga ko‘tarib uvladi. Eshikda Salqin opa paydo bo‘ldi.

— Qizim, kuyovingga bir gap bo‘lgan, — dedi chol,— itning avzoyi buzuq.

Xotin otilib chiqib, olazarak bo‘lib turgan itning oldiga bordi. It o‘qrayib, uni tishlamoqchiday vovulladi. Shunda noxos sergaklanib, ko‘zlarini chaychaqtirdi-da, shart burilib chopa ketdi. U yana qishloq ko‘chalaridan uchib o‘tdi. Qirga o‘rladi. Endi u boyagidan ham zo‘r shiddat bilan uchib borar, uning afsonalardagina kuylangan itlik tabiati bir xavfni sezgan edi. Darhaqiqat, tanish do‘nglikka chiqib borarkan, qordagi qorayib yotgan jasad yonida bir-biri bilan talashayotgan ikkita kulrang hamjinsini ko‘rdi. Otilib borib, ularga o‘zini urdi. Bunday bo‘lishini kutmagan bo‘rilar ikki tarafga qarab qochdi. Lekin o‘ttiz qadamcha nariga borib to‘xtashdi. It ovchini gir aylanib hidladi va shaxt bilan bo‘rilarning biriga otildi. Ko‘kboy bu xil hamjinsi bilan bo‘ladigan uchrashuv ikki tomondan birining o‘limi bilan tamom bo‘lishini yaxshi bilardi. Uning yelkasiga sapchib, bo‘yniga og‘iz soldi. Safdoshi bilan o‘lja talashib urisha-urisha holdan toygan bo‘ri qorga yotib qoldi. Ko‘kboy uning kekirdagini uzib tashladi. So‘ng burila solib, do‘ngga qarab chopdi. Jasad ustiga kelib qolgan ikkinchi bo‘ri tishlarini takillatib uni qarshi oldi. Lekin Ko‘kboy hozir tap tortadigan emasdi. U ashaddiy yirtqichga aylangan, ko‘ziga hech narsa ko‘rinmasdi. Borib ko‘kragi bilan uni urdi. Ko‘kboy bu raqibni ham cho‘ziltirgach, egasining yoniga cho‘nqayib, bo‘ri tishlagan yerlarini yaladi.

Tong otib, tuman tarqaldi. Do‘ng pastida shovqin-suron qilib kelayotgan odamlarning qorasi ko‘rindi. Ko‘kboy hurib, dumini likillatib, ovchini aylanardi. Qalandar akani ko‘tarishganda, u o‘tirib oldi. Ammo quloqlari va chakkasida oppoq qor yopishib turar, uning ham muzlab qotib qolishiga sal qolgan edi. Uni choponga solib ko‘tarishdi. Bo‘rilarni ham sudrab olib ketishdi. Ovchining xotini sochini yulib yig‘lar, chol “bo‘tam”lar edi.

Shu kuni tush mahali marhumni go‘ristonga eltib ko‘mdilar. Odamlar yig‘ladi-siqtadi va qishloqqa qaytishdi. Go‘rkov ham, chol ham qaytdi. Go‘ristonda faqat Ko‘kboy qoldi. U go‘rning

qoshida uzoq cho'nqayib o'tirdi, muzlagan tuproq uyumiga bag'rini berib yotdi va tumshug'ini old oyoqlari ustiga qo'ydi. Biron kimsa uni chetdan kuzatganda, malla ko'zlaridan yosh oqib tushayotganini ko'rardi.

Kechki payt Salqin opa itni izlab keldi. It hamon ertalabki alpozda yotardi. Opa o'kirib yig'ladi va itning bo'ynidan quchoqladi. It paxmoq dumini qimirlatib, ayolning qo'lini yaladi. So'ng, Salqin opa itning bo'ynidan tortdi, ammo it qo'zg'almadi. Kesak bilan urdi, turmadi. Uning bag'ri go'rga yopishib qolganga o'xshardi. Opa yana yig'ladi va uyga qaytib, non bilan bir hovuch oq qand olib kelib, itning oldiga qo'ydi. It ularga sovuqqina qaradi-yu, ammo hidlab ham ko'rmadi. Ayol tag'in uni uyga olib ketmoqchi bo'ldi. It tag'in jilmadi.

Ko'kboy yana ikki kun shu ko'yi yotdi. Uchinchi kuni odamlar uning muzlab qolgan jasadini ko'rdilar.

1966

OLMA YEMADIM

Tog'dan qaytib kelayotgan edik. Men, yana uchta oshnam. Hammamiz eshakdamiz. Ola Chopon qishlog'iga kirdik. Odamlari yangi yerlarga ko'chib ketib, uylari huvillab qolgan. Tomlari buzilib, yog'ochlari ham tashib ketilgan. Mol o'tmaydigan balandlikdagi devorlari ham nuragan, bog' ichidagi olma va tog'olchalar esa pishib yotibdi.

Soy yoqalab, devorlarning yonidan borayotgan edik. Oshnalarimning biri — sho'x, shum, tiqmachoqday Habibulla:

— Picha olma olmaymizmi? — deb qoldi. Taklif boshqalarga ham ma'qul bo'ldi. Eshaklardan tushdik.

— Xurjunlarni olinglar. Uyga ham eltamiz. — Bu taklif ham boshqalarga ma'qul bo'ldi. Xurjunlarni olib, biri yelkasiga tashladi, biri bilagiga osdi. Men esam, eshagimning kalta yolidan ushlab, uyoq-buyoqqa qarab turaverdim. Nima bo'lsa ham, bu ish — o'g'irlik-da...

— Ha? — dedi Habibulla.

— Men eshaklarga qarab turaman, — dedim.

— Eshaklarni bo'ri yeydimi, yuraver.

— Borgim kelmayapti...

— Erinyapsanmi? — dedi Mo'min.

— Yo'q...

— Birovning narsasiga tegishni yomon ko'radi bu kishi, — dedi kesatib Habibulla, so'ng bir shumlikni o'yladimi, tirjaydi: — Ko'ramiz hali, ko'ramiz...

— Ha, yomon ko'raman, — dedim men. — Bormayman.

Habibulla boshliq bolalar tosh devordan oshib, qovjirab yotgan o't-o'lan ichiga tushishdi. Keyin sakrab-sakrab olmazorga kirib ketishdi. Men, o'tlar ichida ilon-pilon yo'qmikin, deb ularning ortidan qarab turdim. Keyin eshagimning no'xtasiga bog'langan qilchilvirni oyog'im ostiga bosib, toshga o'tirdim. Soy o'rtasidagi

suvdan xoli yerda o'sib, xarsanglar ustiga yoyilib yotgan yovvoyi uzumni, qishloq uylarini tomosha qildim.

Devor ortida o't shitirladi. O'rnimdan turdim. Oshnalarim xurjunlarining ko'zini to'ldirib, bittadan olmani tishlab iljayib kelishardi. Birin-ketin menga ko'z qiri bilan qarab, devordan o'tishdi.

Habibullaga qaraganda Mo'min menga yaqinroq. Qo'shni bo'lmasak ham, birga yuramiz. Maktabda pryanik olsak, bo'lib yeymiz. U xurjunini eshagiga ortarkan, bir pallasini ochdi.

— Ol, paxtaseb.

— Yemayman, bu o'g'irlik, — dedim.

Paxtaseb — olmaning bir turi. Kichkina, sarg'ish bo'ladi. Lekin, juda mazali, sersuv. Jo'nadik.

Yo'l tor: bir tomon devor, bir tomon soy. Tizilishib ketyapmiz. Orqada men. Oldinda Habibulla. Shartlashib olishganmi, baravariga olma tishlashadi. Po'chog'ini bo'lsa, oldinga cho'zilib, eshaklarining og'ziga solishadi...

Soy bizdan uzoqlashishi bilan, eshagimni niqtadim. Oldinga o'tdim. Qarshimizda Jirg'oti degan dovon bor. Balandligi uch kilometrcha keladi. Eshakning yelkasini xalacho'pning uchi bilan qitiqlab, haydayverdim. Kun qizib kelayotgandi. Mayli, biroz yuray, keyin eshakdan tushaman. Archazor boshlanadi. Soyasidan ketaveraman. Bir payt orqadan Habibulla:

— Buyoqdan boramiz, — dedi.

Qarasam, eshagini dovonning bitta ham tikkaygan daraxti yo'q yalang tomoniga buryapti.

— Nima qilamiz buyoqdan yurib?

— Ovul bor, qatiq ichamiz.

Qatiq... Qatiqdan kim yuz o'giradi? Hademay kun qizib ketadi.

Indamay, eshakni iziga qaytardim. Ular yana oldinda, men orqada. Yana ular olma yeb, po'chog'ini eshaklarining og'ziga tiqib borishyapti. Dovonning yarmigacha bordik. Lekin, ovuldan darak bo'lmadi. Chanqay boshladim... Kun qizib ketdi. Tevarakda suv degan narsa yo'q...

— Ovul qani? — dedim Habibullaga xo'mrayib qarab.

— Yo'q, ko'chib ketishibdi, — dedi u beparvo va qarsillatib yana bitta paxtaseb olmani tishladi. Rosti, og'zimning suvi keldi.

Dovonning tepasiga yetishimizga besh yuz qadamcha qolganda holdan toydim... tanglay o'lgur qurib, tilim og'zimda aylanmay qoldi. Ular bo'lsa, hamon pishillab, olma yeyishadi.

Eshakka o'rnashib o'tirgan kishi bo'lib, Mo'minga qaraganda, uning yuzidan menga achinganini payqab qoldim. Darhol ko'zimni qisdim. Bir mayizni ikki bo'lib yeydigan Mo'mindo'stim fikrimni payqadi. Asta-sekin eshagi menga yaqinlashib keldi.

Mo'min biqinimga turtdi. Unga qaramay, orqa cho'ntagimni kovlayotgan kishiday, qo'limni sekin uzatdim. Muzdakkina, silliqqina olma qo'limga tegdi. Shartta changallab oldim-da, hech narsa bo'lmaganday, eshakni haydayverdim. A'zoyi badanim bilan Habibullaning kulgisini, ta'nasini kutdim. Gaplariga quloq soldim. Yo'q... Boshqa mavzuda... Sezmabdi... Iyagimni qashimoqchiday bo'lib, olmani sekin og'zimga eltdim... Kars... Shum bola kuzatib kelayotgan ekan:

— A-ha! — deb yuborsa bo'ladimi.

Bolalar kulib yuborishdi. Tuf, deb tashladim og'zimdagini. Qo'limda qolgan qismini ham yerga urdim. Titilib ketdi. Eshagim tumshug'ini cho'zgan edi, uning ham bo'yniga xalacho'p bilan tushirdim.

— Qanday bo'larkan? — dedi Habibulla.

— Yemayman, yemayman! — dedim.

— Ko'rdik yemaganingizni.

— Yemadim!

— Ha-ha... O'g'rilikni yeding-ku?

Ancha janjal bo'ldi. Keyin bolalar ikkalamizni yarashtirishga tushib ketishdi: "Hazil", "kelishgan edik", deyishdi. Oxiri Habibning ham achchig'i chiqib ketdi: "Nima, besh-o'n kilo olma bilan hukumatning davlati kamayib qoldimi? Shu olma bilan biz o'g'ri bo'lib qoldikmi? Odamlar yesin deb ekishgan-da! Qorovuli bo'lsaki... Ah!" Men quloq solmadim. Piyoda yurib, eshagimni haydab ketdim. Dovonga chiqib oldim. O'zimga endi juda alam qildi: "Chiqib oldim-ku? O'lmadim-ku? — deb o'yladim. — Nega chidamadim? Nega hech kimdan so'ramasdan olingan olmani og'zimga soldim. Chidash mumkin ekan-ku? Demak, kishi to'g'ri yashay oladi...".

1965

1619188

KECHAGI KUN KECHA

Sobirova opa o'n sakkiz yoshida mansabdor bo'ldi. O'shanda u yozuvni zo'rg'a o'qiy olardi. Keyinchalik Toshkentda partiya kadrlari tayyorlash kursida olti oy tahsil ko'rib keldi. Bor-yo'q olgan bilimi shu bo'ldi. Dastxati nihoyatda xunuk va serxato bo'lar, uni hech kim tuzatmas edi. Biroq bu orada opa ko'p martabali lavozimlarda ishladi. Artelning raisi ham, raykomning ikkinchi sekretari ham bo'ldi. Urush yillarida ota-onasiz bolalar uyida direktor bo'lgani holda, tarbiyachilik ham qildi. Ko'pgina hukumat mukofotlari va yorliqlari ham oldi. Nihoyat, yoshi ellikka yetib, unga pensiya tayinlandi, so'ng uni raykom ishdan bo'shatdi. Opa hali ishlashga qurbi yetishini aytib rad etdi, lekin ular unashmadi. Ishlab turgan o'rni — lesxoz boshlig'i qilib qishloq xo'jaligi institutini bitirib kelgan qizchani qo'yganlaridan keyin opa gap nimadaligini tushundi. Bir necha kun alamini yutib yurdi-da, yana raykomga kirib, joyini so'radi.

— Opa, siz... — dedi raykom sekretari, — qiynalasiz endi.

— Qiynalmayman. Men o'n bir yil shu ishda ishladim. Hammasini bilaman! — dedi Sobirova.

— Yengilroq bir ish bersak-chi, — degan edi sekretar, opa xafa bo'lib ketdi.

— Men hali holdan toyganim yo'q. Keksayganim ham yo'q. Nega yengil ishni qilar ekanman?!

Sekretar opaga, o'ylab ko'ring deb, muhlat berdi. Bu muhlat o'tib ham ketdi. Sobirova opa raykomga qaytib bormadi.

Bir kuni uni eri Shomurod polvon urishib berdi:

— Endi senga ishlashni kim qo'yibdi! O'tiravermaysanmi! Bitta seni boqish qo'limdan kelmaydimi! Bolalaring ham odam bo'ldi.

— E, siz nimani bilasiz, — dedi Sobirova opa,— ular meni shu yo'l bilan jamiyatdan chetlashtirishmoqchi. Menga dushmanlik

qilyapti ular. Bo'lmasam, nima aybim borki, tinchgina ishlab turgan joyimdan bo'shatishsa!

— Ha, o'zing bilasan-e, — dedi Shomurod polvon.

— Men obkomga yozaman, — dedi opa, lekin obkomga yozmadi.

Qog'oz bilan ruchka olib ancha o'tirdi-da, dastxatining xunukligini o'ylab, yig'ishtirdi. "Savodi kam ekan", — deb o'ylashadi, dedi, uning pensiyaga chiqishi bilan baravar ishdan bo'shatilishining ham sababi shu — savodining kamligi, mavjud savodi bilan endigi sharoitda ishlab ketolmasligi ekanini esa tan olgisi kelmasdi. "Men tajribali rahbarman, men ishning ko'zini bilaman. Yoshlar mendan ish o'rganishi kerak", deb fikr qilardi.

Haftalar o'taverdi. Sobirova opa xo'mrayib, raykom chaqirib ishini qaytib berishini kutib yurdi.

— Men qirq yillik partiya a'zosiman, — der edi u eriga. — Shuncha yil ishladim, endi partiya haqiqat qilishi kerak!

Shomurod polvon bu gaplarni eshitganda esnar, keyin iljayib, xotiniga mayda-chuyda ishlarni buyurar edi.

Sobirova opa goho xilvatda o'tirib yig'lab ham olardi. U qandoq prezidumlarda o'tirgan, minbarlarda turib qandoq nutqlar so'zlagan! Uni kishilar qandoq hurmat qilishar edi! Endi bo'lsa, eri ham nazariga ilmay qo'ydi. Opaning tengqur, xizmatchi dugonalaridan ham ko'ngli qoldi. Ilgari haftada uchrashib, bazmlarga taklif etib turishardi, endi bo'lsa eslashmaydi ham, aftidan... opa rahbariy ishlarda yurib ro'zg'ordan chiqib ketgan edi. Ko'nikish juda qiyin. Ro'zg'or ishlari uni ba'zan tahqirlagandek bo'lar, bunga faqat eri sababchidek tuyular edi. Tez-tez yuragi siqiladigan bo'ldi. Toshkentda o'qib, o'sha yerda qolgan o'g'lining uyiga faqat to'yda borgan edi. Endi o'sha yoqqa ham borib keldi. Andijon pedinstitutida o'qiydigan qizidan olti oy ichida ikki marta xabar oldi. Lekin Sobirova opa ko'chada ko'p yurmaydi. O'ziga bir vaqtlar ta'zim bilan salom berganlardan uyaladi...

— Nima, mening Malikovadan qayerim kam? U ishlab yuribdi-ku, — deb qoladi u goho eriga. — Bu yerda boshqa gap bor. Kimlardir menga dushmanlik qilgan. Raykomga yomonlagan meni. Siz kulasiz-da... — Lekin Sobirova opa tengqur dugona-

larining o'z o'rnida ishlab yurganiga bois — vaqti kelganida ular bilimini oshirib qolishgani, maxsus kurslarga bolalarini yolg'iz qoldirmaslik uchun u borolmaganida, ularning o'qib kelgani — shuni Sobirova opa tan olgisi kelmas edi.

Kunlarning birida rayon matlubot kooperatsiyasining raisi — dugonasi Unsinova, gazetaga ikki kilo shokolad o'rab kirib keldi. Sobirova opa o'zida yo'q shod bo'lib, uni o'tqazgani joy topolmay qoldi.

— Urinmang, Sobirova opa, — dedi u, — men tez ketaman.

— Hoy, Xudo yarlaqab bir kepsiz...

— Ish ko'p-da, opajon.

— Rost, — dedi Sobirova opa ichida zil ketib, keyin birdan ko'ziga yosh oldi. —Ko'rmaysizmi, Unsinovajon, mana shunday qilib qo'yishdi meni. Jamiyatdan chiqarib tashlashdi. Xudoyo dushmanlarimning ko'ziga cho'p suqilsin!

— Qo'ying, opajon, xafa bo'lmang. Raykom haqiqat qiladi. Siz ko'p yillik kommunistsiz. Davlatga ko'p xizmatlaringiz singgan.

— Albatta, albatta, — ilib ketdi Sobirova opa.— Men ot minib tog'-toshda yurganimda, hozirgilar burnini artolmay yurar edi. O'zingiz bilasiz-ku.

— Bilaman, opajon, bilaman.

Sobirova opa tuxum qovurishga tushdi. Sopqondan qushlarga tosh otib yurgan kichkina o'g'lini chaqirib:

— Chop, otangning oldiga, go'sht bilan guruch olib berarkansiz de, — dedi. Lekin Unsinova bolani yo'ldan qaytardi:

— Men ketaman, Sobirova opajon. O'tiring. Sizga gap bor.

Sobirova opa o'zidan uch yosh kichik dugonasiga umidvor ko'zlarini tikib, ko'rpachaga cho'kdi.

— Yaqinda men Samarqandga borib keldim, — dedi Unsinova.

— Eshitganim yo'q... shunaqa, eshitmas bo'lib qoldim, — dedi Sobirova opa.

— Ko'ktosh qishlog'idan qimmatchilikda bir sag'ir bola chiqib ketib, endilikda professor, doktor bo'lgan ekan. O'sha odamning ellik yillik yubileyini SamDUdagilar nishonlayotgan ekan. Meni ham taklif qilib qolishdi. Men ham ko'ktoshlik emasmanmi,

domla bilan taklif qilgan ekan. Men ham nutq so'zladim. Hamqishloqlarim nomidan tabrikladim. Keyin u kishi banketga ham taklif qildi. Uyiga bordim. Yigirma mingga qurgan hovlisi bor ekan. Xotini ham odamning joni ekan, deng. Ikki o'g'li bor ekan. Aspiranturada o'qishar ekan. Banketdan keyin meni olib qoldi, ko'nglida dardi bor ekan, yordi: "Hamqishloq, men yetimlikdan shu darajaga yetib keldim. Hamma orzularim ushaldi, lekin endi keksayganim uchunmi, ko'nglimga bir tashvish tushdi. Men endi Ko'ktoshga borib, u yerda yasholmayman. Ilmiy ishlarim uchun bu yer qulay. Mana, katta o'g'lim uylandi. Kichigiga navbat kelib qoldi. Shuni ko'ktoshlik yaxshi bir qizga uylantirsam. Shunday qilmasam, Ko'ktoshdan ildizim uziladi, men o'lgandan keyin bolalarim uni eslaridan chiqarib yuboradi".

Sobirova opa bu gaplardan ta'sirlanib, boshini xam qilib qoldi. Unsinova xotirjam davom etdi:

— Men, yaxshi o'ylabsiz, domla, dedim. Avvalambor, bu bizning baxtimiz, dedim. Keyin, o'ylab-o'ylab, opa, sizning qizingiz Naimaxonni aytdim. Bizda shunday bir qiz bor, yaxshi oiladan, onasi kommunist, dedim. Siz shunga nima deysiz, opa?

Sobirova opa Naimani erga berish to'g'risida hali hech o'ylab ko'rmagan, bilimsizlik ko'ngliga tashvish solib yurganidanmi, "Qizim, sen o'qi, aspiranturalarni bitir", deb yurar edi. Albatta, ko'plar unga og'iz solishar, ayniqsa, o'zining qadimgi tanishi Samad olifta bilan uning chiroyli yosh xotini goho fotiha qilish haqida gap ochishar edi. Uning harbiyda xizmat qilayotgan o'g'li, opaning Toshkentdagi farzandi Kamolning yaqin do'sti bo'lib, bir oyog'i shu xonadonda bo'lib yurganida, qizining unga, uning qiziga zimdan qarab qo'yishlarini opa sezar, lekin bunga ham e'tibor bermas edi. Shuning uchun Samad olifta bilan uning xotiniga ham boshqalarga beradigan javobini takrorlab qo'yar edi: "O'qiyversin-chi...". Sirasini aytganda, Naima ham juda ko'hlik, aqlli, iboli qiz edi. Uni maktabda bo'lsin, tanish-bilishlar orasida bo'lsin, maqtamagan kishi kam edi...

Sobirova opa hayron bo'lib, bir zum o'ylanib qoldi. Ko'z oldida ko'zoynak taqqan professor, uning atrofidagi boshqa olimlar gavdalandi. Keyin uning aspiranturada o'qiydigan o'g'li, so'ng

banket ko'rindi. Opaning nazarida, bir chetda qizil bo'yoqqa bo'yalgan minbar ham ko'rindi. Opa bir zumga o'zini shu davrada ishtirokchi kabi sezdi va siniq dili o'kinch bilan zavqqa to'ldi... Lekin Naimani erga berish to'g'risida hali hech o'ylab ko'rmagan edi. Ko'ngliga allanechuk vahima tushib:

— Unday kishilar bilan quda bo'lish haqiqatan baxt, — dedi. — Lekin Unsinovajon, men qizimni hali erga bermayman.

— Opajon, domla ham kelinni darrov tushirib olmoqchi emas. U kishi ham qizni o'qitmoqchi. O'zlarining xohishi ham shu: o'qigan, madaniyatli qiz bo'lsin, dedilar. O'zingiz bilasiz-ku, olimlar oilasiga tushadigan kelin qanday bo'lishi kerak. — Unsinova dugonasiga zimdan qarab, qo'shimcha qildi: — Shu ish bo'lib ketsa, hammamizga ham yaxshi bo'lar edi-da... Balki shundan keyin rayon rahbarlari sizning kimligingizni ham yaxshiroq bilib olarmidi...

— Hm-hm... — deb bosh qimirlatdi Sobirova opa ichida titrab: "To'g'ri-da, kimsan, professorning qudasi bo'laman... Ha, dushmanlarimning uyiga o't tushsin!"

Shu suhbatdan keyin Sobirova opaning dilida bir cho'g' paydo bo'ldi. Bu cho'g' goh ko'zoynak taqqan professorning, goh uning atrofidagi olimlar, uning o'g'li va xotinining yuzini yoritar; o'zini o'shalarning davrasida ko'rsatar; goh o'zining bu katta chorbog'ini munavvar qilib, unda to'y-tomoshalar namoyon bo'lar edi.

Sobirova opa bir oqshom bu gapni eriga aytgan edi, Shomurod polvon:

— Unsinovang shuning uchun kelgan ekan-da. Men aytdim, qanday shamollar uchirdi? — deb kuldi. Keyin o'zining fikrini aytdi: — Qiz mardum baribir birovga tegadi. Lekin, kampir, bunday katta odamlar bilan quda bo'lishga mening hushim yo'q. Kamol ham menga o'xshaydi. U yog'ini o'zing bilasan.

Yana may oyining issiq kunlaridan birida Unsinova qog'ozga shirinlik o'rab keldi.

— Sizni bir tomoshaga olib chiqmoqchiman, — dedi.— O'zim ham zerikdim, bilaman, siz ham zerikkansiz.

— Qayerga Unsinovajon? — xushvaqt bo'lib so'radi Sobirova opa.

— Samarqandga, — dedi Unsinova xotirjamlik bilan. — Bir-ikki tanishlarim bor. Bir kelib keting, deb yurishadi ko'pdan. Bir tandir kabob yeb, maza qilib kelaylik.

— Xo'p, Unsinovajon, xo'p, — dedi Sobirova. — Sizday dugonam bir yerga olib boray deb keladi-yu, men yo'q deymanmi? — Lekin ichida: "Shu professorning uyiga olib boradi", deb o'yladi. Xayolida tanish manzaralar yana birma-bir o'tdi. Ko'nglini vahima aralash quvonch qopladi. Unsinovaning ham ko'nglida bu gap bor ekan.

— Xohlasangiz, domlaning uylariga ham olib boraman, — dedi. — O'zingiz ko'rasiz, gaplashasiz u kishi bilan. Lekin, opajon, xursand bo'lasiz.

— Mayli, mayli, — dedi Sobirova opa. — Ammo u kishiga qizim haqida va'da berolmayman.

Unsinova erkaklardek xaxolab kuldi.

— E, opaginam-ey, uning tashvishini qilmang. Hali gap ko'p.

Sobirova opa bu xabarni eriga aytgan edi:

— Xotin, sening aqling kamayib boryapti chog'i, — dedi Shomurod polvon. — O'rtoq Unsinovang seni professorning uyiga eltib, og'zingni bog'lab kelmoqchi. Bo'lmasam, seni aylantirib yurish unga nima zarur?! Shuncha vaqtdan beri ishsiz yotding, holing ne deb bir xabar oldimi?

"To'g'ri", deb o'yladi Sobirova opa. G'ashi kelib, ko'ngli qolib yurgan dugonalaridan biri ham shu — Unsinova edi... Biroq, ertalab tor ko'chaning boshida qoldirilgan Unsinovaning "Volga"sini ko'rdi-yu, amirkon etigi, qora atlas ko'ylagini kiyib, yo'lga chiqdi.

Samarqandga borganlarining ikkinchi kuni Unsinova dugonasini Akbarovning uyiga olib bordi. Darhaqiqat, professorning uyi yigirma ming so'mga qurilgan desa arziydigan edi. Lekin ortiqcha jim-jimadorlik yo'q, ham kamtarlik, ham salobat sezilari. Professorning o'zi buzilgan vodoprovodini tuzatayotgan ekan. Yosh yigitlardek qah-qah otib kulib: "yerliklarim, hamqishloqlarim!" deb, bularni qarshi oldi.

Akbarovning bu ochiq, kamtar gapi uni Sobirova opaga juda ham yaqin qilib qo'ydi. Shu kecha professorning uyida ziyofat bo'ldi. Qo'ni-qo'shnilar ham ishtirok etib, hamqishloqlarning

topishganidan mamnun ekanliklarini aytishdi... Bazm chog'ida yuzlari qizargan Sobirova opa bir onga o'zini haqiqatan ham orzu qilgan xayolidagi manzara qatnashchisi deb o'yladi. Dilini faqat zavq va shodlik egalladi. Bundan keyingi hayoti ham hamisha shundoq o'tadigandek tuyuldi... Lekin opa bu davrada o'zining yopishmay turganini bilolmadi. Arzimagan qochiriqlarga ham qahqah otib kuldi. Holbuki, bu vaqtda bazm ishtirokchilari oddiy jilmayish yo tabassum bilan cheklandilar. Nihoyat, Unsinova dugonasini nomzod ko'rsatilgan qizning onasi ekanini aytdi: Akbarov bundan juda xursandligini izhor qildi.

"Endi nima qildik?" degan savol ko'ndalang bo'lganida:

— Mayli, domlajon, siz bizdan qiz so'raysiz-u biz yo'q deymizmi? — deb yubordi Sobirova opa.

Shunday qilib, Sobirova opa Naimani ularga kelinlikka berishga rozi bo'lib qaytdi. Ular Naimani ko'rish uchun Andijonga borishlarini aytib, xayr-xo'sh qilib qoldilar.

Akbarovlar kelishidan ikki kun oldin Naimaning o'zi ham ta'tilga chiqib, u yoqda Kamol ham otpuskaga chiqib, xotini va yosh o'g'ilchasi bilan kelib qolishdi. Uy to'lib, xursandchilikning cheki bo'lmadi. So'ng Sobirova opa bo'lajak fotiha haqida ularga gap soldi.

Naima:

— Men bilmayman, — deb rangi oqarib turib ketdi-yu, Kamol tajang bo'lib o'shqirdi:

— Bu gap qayerdan chiqib qoldi? Nima uchun? Naimaning sizga og'irligi tushyaptimi?

Ona yotig'i bilan tushuntirishga harakat qildi, ammo o'jar bola:

— Kerak emas, professor bo'lsa o'ziga! Bunaqa odamlar bilan qarindosh bo'lishni jinim yoqtirmaydi, — dedi.

— Bolam, sen yoshsan. Turmushni bilmaysan, — dedi Sobirova opa Akbarovlar kelishganidan keyin, masalani ko'ndalang hal qilinishiga fursat yetdi. Uy bekasi mehmonlar bilan sarhovuzda taxmondan tushmaydigan baxmal ko'rpachalarda — davrada o'tirar ekan, Kamol singlisini bolaxonaga boshlab chiqdi. Yoniga, sim karavotga o'tqazib:

— Gapni qisqa qil, sen nima deysan? — dedi.

— Men bilmayman, — dedi Naima yerga tikilib.

— Sening taqdiring hal bo'lyapti-ku, go'dak! Sen bilmay, men bilamanmi? — bo'kirdi Kamol.

— Men bilmayman, — dedi Naima yana.

— Singlim, sharm-hayoning vaqti emas, — deb past tushdi Kamol. — Agar bironta ko'nglingda o'ylaganing bo'lsa, uni ayt menga. Men hoziroq chiqib rad qilaman.

— Qo'ying, akajon, — dedi Naima.

— Samad oliftaning o'g'li-chi? Mening sezishimcha...

— Yo'q-yo'q... — so'ng "Onam..." deb ming'irladi.

Kamol singlisini onasining so'zidan chiqmasligini yaxshi bilardi. Shuning uchun "menga nima?" deb o'yladi alam bilan: "Bir kuni aybdor bo'lib qolaman".

— Bo'pti bo'lmasam, men betarafman! — deb o'rnidan turdi Kamol.

Shu kuni fotiha qilindi. To'y, qiz o'qishni bitirganidan keyin bo'ladi, degan qarorga kelindi. Ikki kundan keyin Kamol onasi bilan janjallashib, xotin-bolasini olib Toshkentga ketib qoldi.

Sobirova opa qattiq xafa bo'ldi. Lekin: "Hali esidan chiqib ketadi. Et-tirnoq ajralarmidi?" dedi o'ziga-o'zi. Endi orzularining amalga oshuviga shubhasi qolmagan edi. Opa beixtiyor to'yning tezroq bo'lishini istay boshladi. Haqiqatan ham ish yurishib ketdi. Bir oy o'tmasdan Unsinova kelib:

— Opajon, domlaning xotinlari meni bezor qilyaptilar har kuni telefon qilib, — dedi. — Naimaning mehrigiyosi bor ekan. Dilimga tushdi. Shuning to'yini tezroq qilsak-chi? Bu yerda ham institutlar bor, o'qiyverar edi... deydi.

— Unsinovajon, axir kelishdik-ku, — dedi Sobirova opa.

Erta kuz kunlaridan birida Kamol: "Singlingning to'yi bo'lyapti. Tezda yetib kelinglar!" degan telegramma oldi. Telegrammani yirtib tashladi.

To'y dang'illama bo'ldi. Rayonning barcha rahbarlari keldi. Sobirova opa raykomning birinchi sekretari bilan qadah urishtirib ichdi. Ish haqida shu yerda gap ochmoqchi ham bo'ldi-yu, o'zini bosdi. Faqat Samad olifta ichib kelib, darvoza oldida biroz janjal

chiqardi. Uning yosh xotini bu hovlidan chiqayotgan childirma va ashula ovozlari ostida uyida o'tirib yum-yum yig'ladi. Ertasiga kechki payt to'y tarqadi va Sobirova opa eri bilan Akbarov tushgan "Volga"ga o'tirib, yana uchta mashina safida Samarqandga yo'l oldi. Samarqandda ham dang'illama to'y bo'ldi. Stolning boshida o'tirgan Sobirova opa o'zini chinakam baxt og'ushida his etdi. To'ydan faqat Shomurod aka biroz ranjib keldi:

— Boy bo'lgani bilan xasis ekan bular, — dedi. — Bergan choponiga qara, tizzamga yetmaydi. Nima, men ko'chada qolganmidim?.. Lekin kampir, Naimangni qaynanasi zahar ko'rinadi.

Qaytib kelganlarining ertasigayoq Sobirova opa ishda kiyadigan poshnasi yo'g'on tuflisi va odmi atlas ko'ylagini kiyib, raykomga bordi.

— Xo'sh, Sobirova opa, mana, ma'rakalardan ham qutulib oldingiz. O'zingiz ham ishsiz yurib zerikkansiz chog'i? Nima bo'ldi, o'ylab ko'rdingizmi endi? Qanaqa yengilroq ishni tanlaysiz? — dedi sekretar.

Sobirova opa o'zini yo'qotib, ko'zoldi qorong'ilashib, biroz qotib o'tirdi-da yig'lab yubordi.

— Mening nima yomonligim o'tgan ekan kishilarga?! — deb pichirladi, shartta o'rnidan turib chiqib ketdi. Uyga borib, boshi og'rib yotib qoldi. — Men nega o'lmadim, esiz jonim, — deb yosh to'kdi. — Kamoljon, onangni kelib ko'r, — deb nola qildi. Shomurod polvon gap nimadaligini bilib, xotinini ovutgan bo'ldi. Lekin bu Sobirova opaning diliga taskin bermadi. Keyin bir oy o'tib, kuyovi bilan qudasini chaqirdi. Keyin o'zi bordi. Biroq bu gal ilgarigidek xursand bo'lib kelmadi...

Opa bosh og'rig'iga yo'liqib, yotib qoldi.

— Bolamni chaqiring, Kamoljonni bir ko'ray,— derdi. Shomurod polvon kichkina o'g'liga ayttirib xat yozdirdi: "O'g'lim, yetib kelmasang, onangni ko'rolmay qolasan, deb qo'rqaman", degan gaplarni ham bittirdi.

Kamol endi qishloqqa bormayman, deb ahd qilgan edi. Biroq, bu xatni oldi-yu onasini ko'rishga shoshildi. Sobirova opa yotgan yerida qo'l uzatib o'g'lining boshidan quchdi. Bir zumda ona-bola ittifoq bo'lib qoldi. Ertasi kechqurun Shomurod polvon:

— O‘g‘lim, o‘tgan ishga salovat. Singlingda ayb yo‘q. Uni ko‘rishing kerak. Qaynanasi, qaynatasi, eri ham so‘rarmish. Borib ko‘rmasang, yaxshi ish bo‘lmaydi. Yolg‘iz singling, musofirchilik... — deb Kamolni Samarqandga borishga undadi.

Kamol singlisini yaxshi ko‘rar, uni sog‘ingan edi. Borib ko‘rmasa, singlisining sha’niga durust gaplar bo‘lmasligini tushundi. O‘g‘lining Samarqandga borish xohishini eshitib, Sobirova opa ham inqillab o‘rnidan turdi.

— Men o‘zim olib boraman o‘g‘limni, — dedi. Eri kasalligiga ishora qilsa ham ko‘nmadi. Ikkinchi kuni ona-bolani Shomurod polvon avtobusga o‘tqazib jo‘natdi. Ular Ko‘ktoshdan o‘tganlaridan so‘ng, Samarqandga boradigan avtobusga tushib ketdilar.

Kamol Akbarovning hovlisiga yot ko‘z bilan kirib, yot ko‘z bilan chiqdi. Shuning uchun bu odamning dilkashligi va sho‘xliklariga o‘zga ma’no berdi. Naima ozib, ko‘zlari kirtayib qolgan, yuzlarini dog‘ bosgan edi. Kuyovning ortiqcha odobliligi ham Kamolga yoqmadi: hamma zalda o‘tirishganda, onasi necha marta tashqariga chiqib kirsa, kuyov bola shuncha marta o‘rnidan turib uni qarshi oldi. Singlisi ochiq aytmagan esa-da, uning qiynalayotganini sezdi. Professor haqiqatan ham Naimani SamDUga joylab qo‘ygan ekan... Albatta Kamol qaynananing o‘zgalarga balanddan qarashini ham payqadi. Ayniqsa, qaytib chiqayotganlarida, o‘zi qishloqdan zo‘rg‘a izlab topgan ikki jo‘ra atlas hamon karzina ichida turganini ko‘rganida, behad g‘azablanib ketdi.

Sobirova opa allanechuk titrab:

— Olish eslaridan chiqibdi, — degandi, u bilan urishib ketishiga oz qoldi. “Begonamiz... Bizlar bu oilaga begonamiz!” deb chiqdi. Kuyov yigit bularni avtobus to‘xtaydigan bekatgacha kuzatib bordi. Shunda Kamol:

— Endi hamisha shu oilada turaverasizlarmi? — deb so‘radi.

— Yo‘q, Naima bilan maslahat qildik. Seksiyaga chiqmoqchimiz. Shuni otamga aytamiz, — dedi kuyov.

Kamol bu gapdan biroz qanoatlanib:

— Yaxshi, shunday qilinglar, — dedi. Ona-bola “ZIL” avtobusga o‘tirib, yo‘lga tushdilar.

— Qalay, onajon, xursandmisiz? — dedi u yo'lda yonma-yon o'tirishar ekan.

Sobirova opa mashaqqat bilan kulimsiradi:

— Albatta, xursandman, bolam. Singling yaxshi oilaga tushdi. Baxtli bo'ldi.

Kamol zaharxanda kuldi:

— Siz nimalik bo'ldingiz, onajon? Tushunolmayman...

— Men... — Opa g'oyat ta'sirlanib, barbod bo'lgan orzulari, aldamchi hislari qalbida junbishga kelib derazaga qaradi, ko'zlaridan yosh oqib ketdi.

Kamol onasi bilan Samarqandga boradigan avtobusga o'tirgan yerlarigacha birga keldi. Keyin, xayrlashib, Toshkentga o'tib ketdi.

Sobirova opa bug'doy ortgan bir mashinaning kabinasida qishloqqa qaytdi. Opa derazadan yalangg'och, bo'r qatlamlari chiqib turgan tog'larga mung'ayib qarab borar ekan, o'zining darhaqiqat keksayganini, ham jisman, ham ma'nan horiganini his qildi. Shunda loqaydlik bilan yaqinginada ot minib, tog'-toshda yurgan chog'lari, prezidiumlarda nutq so'zlaganlari, hamqishloqlariga mag'rurona rahbar ko'zi bilan qarashlari xayolidan bir-bir o'ta boshladi. Ularni qayta tiriltirish qo'lidan kelmasligi, buning uchun har qanday urinish — ertangi kunni ham qisqartirish bo'lishini o'yladi. Shunda o'zining savodsizligi, soddaligi va o'jarligiga ham iqror bo'ldi. Endi yoshlarga yo'l berish fursati yetganiga ishondi... Beixtiyor o'zining bu ahvoli bir kunmas-bir kun tengqur dugonalari boshiga tushishini o'yladi.

Sobirova opa bir haftadan keyin horg'in qadam tashlab, o'ziga yarasha ish so'rash uchun raykomga yo'l oldi.

1968

HAYOT ABADIY

Sovxozning bosh agronomi Nodir Ro'ziqulov majlisdan qattiq tanqid yeb chiqdi. Uyga kelib, o'zi yoqtirmaydigan qaynanasining "hemirisi yo'q ekspeditor ham yangi uchastka qurib olyapti, yer bo'lsa sizning qo'lingizda" degan gapini eshitib: "Mening bo'lgan-turganim shu. Chidamasangiz qizingizni olib ketavering!" — dedi. Xotini ham shuni kutib turgandek qizchasini ko'tarib, onasiga ergashdi.

Nodir ko'chaga chiqib, o'zini qopmoqchi bo'lgan qo'shnisining itiga kesak otgan edi, itga qattiq tegdi shekilli, u shunday vangillab qochdiki, endi ko'knor ichib, boshiga choponini tortayotgan bangi qo'shnining kayfi uchib, darrov devordan qaradi. Nodirni ko'rib nima gapligini so'radi. Nodir aybini bo'yniga olgan edi, u: "Hayf sizga-yey, xo'jayin, kuchingiz shu tilsiz maxluqqa yetdimi! Kuchingiz juda oshib, qo'lingiz qichiyotgan bo'lsa, sekin meni chaqirmaysizmi!" deb, Nodirning ta'bini tirriq qildi, buyam yetmaganday, itini ayvonga chaqirib, unga shunday baqirdiki...

Nodir huvillab yotgan uyga kirib, qizchasining to'shab qo'yilgan ko'rpachasiga ko'zi tushdi, borib uning ustiga cho'nqaygan edi, bolasining ona sutini eslatuvchi isi dimog'iga urildi-da, ko'ngli buzilib ketdi. Chopib tashqariga chiqdi, yuziga sovuq shamol tegib, to'xtab qoldi. Bir nafas ko'ksini ochib, ayvon panjarasiga o'tirdi va to'satdan shu qadar bo'shashib ketdiki, yerga guppa yiqilib, o'lib qoladigandek bo'ldi. Haqiqatan ham guppa yiqildi...

Shamol qattiq esib, bujmaygan tok barglarini uning ustiga opkelib sochdi. Tongga yaqin shivalab yomg'ir yog'a boshladi. Bu ilk kuz yomg'iri edi. Qovjiroq ko'katlar-u daraxtlarning turfa hidi atrofga anqib ketdi. So'ng yomg'ir tinib, havo ochildi, unda oppoq yulduzlar yarqirab yona boshladi. Atrof shu qadar sokin ediki, hatto yaproqlardan tomgan tomchilarning chakillashi ham eshitilardi. Shabada esa boshladi. Atrof salqin, birdaniga sovuq tushganday

bo'ldi. Bu ajoyib o'zgarishlarni Nodirgina ko'rmadi, chunki u tirishib, o'lib yotibdi. Oyoq-qo'lini yozib, ko'zlarini yumib, iyagini ko'tarib bog'lab qo'yadigan bironta odam bo'lmaganidan tirishib, kulala bo'lib qoladi-da. Esiz, yomon o'lim topdi-da, it qavmida ketdi, deyishadimi buni? Vasiyat ham qilmadi, yosh ketdi. Qizchasini ham ko'rib, diydoriga to'yolmadi, xotinidan ham rozilik ololmadi. Sovxoz ishchilari... Har holda uni hurmatlaydigan kishilar ko'p edi. Ayniqsa, Cha-Chaning onasini aytmaysizmi. "Yog'och topib bering, direktor yo'q dedilar. Qish tushyapti, uyim bosib qoladi" deganida uchastka qurish niyatida bir kunlik yo'ldan olib kelib, sim bilan o'rab qo'ygan taxtalarini unga berib yuborgan edi. "Kam bo'lmang, umringiz uzoq bo'lsin, o'lgunimcha sizni duo qilaman", degan edi kampir boyoqish. U eshitsa, albatta yig'laydi, bo'masam-chi?!

Tong otdi. Ko'chadan o'tib ketayotgan bo'lim mudiri o'zining ishga erta ketayotganini bildirish uchun devordan mo'ralab qaradi-yu, odatdagidek, Nodirni ayvon oldidagi kosagullar yonida ko'rmadi. "Uxlab qoptilarmi?" deb o'ylab, "O'rtoq Ro'ziqulov!" deb chaqirdi. Unga hech kim javob bermadi. "Nima, bular qirilib ketganmi?" deb ichkariga kirgan edi, ayvonda g'ujanak bo'lib yotgan bosh agronomni ko'rib qoldi. "Nima balo, mastmi? Bu ko'p ichsa ham hech mast bo'lmasdi-ku?" deb o'ylab, uni chaqirdi. Bir vaqt agronomning o'lib qolganini ko'rib, dodlab yubordi.

Tumonat odam yig'ildi... Albatta yig'iladi-da, kimsan sovxozning bir rahbari olamdan o'tadi-yu, odam yig'ilmaydimi. Marhum ko'plarga yaxshilik qilgan edi...

Hanifaning yig'lashini ko'rsangiz edi! "Vo, to'ram! Meni kimlarga tashlab ketdingiz, o to'ram! Qizingiz: "Mening dadam qani?" desa, nima deyman? Enamnikiga ketmay o'lay! Bunday bo'lishingizni qaydan bilibman? Yoningizda o'tirsam bo'lmasmidi? Vo, to'ram!"

Ha, shunday! Kishining yaxshiligi keyin bilinadi. Hali bu xotin ko'p yig'laydi. Qaynanasi-chi? E, attang, kuyovingni shunchalik sevar ekansan, hayotligida nega uni tergayverding, lo'li! Yo bu samimiy yig'lamayaptimi? Balki yig'isi samimiydir. Bir hisobda bu maddoh kampir ham haq edi. Shular biron narsaga zor

bo'lmasin, der ekan-da. To'g'ri, Nodir oilasiga ko'p beparvo edi. Xolxo'ja milisaning: "Sen g'irt proletarsan!" deganida jon bor.

Hammasi o'tdi-ketdi, endigi pushaymon o'zingga dushman.

Direktor ham yig'layaptimi? Ha-a, yig'layapti. Axir, Nodirbek, halol bir agronom dunyodan o'tsa-yu, u ko'ziga yosh olmaydimi!..

Axir, Nodir tuzuk xodim edi. Direktor nimani o'ylayotganikin? Nodirning favqulodda o'limi uni hayron qoldirayotgan bo'lsa kerak-a? Ehtimol kecha majlisda tanqid qilgani uchun afsus qilayotgandir? Chidolmagan, nohaq gapni ko'tara olmagan, deb o'ylayapti, albatta. Shunday bo'ladi. Bilib tanqid qilish kerak. Bu odam qobil, tanqidga chidaydi deb do'pposlayveradimi kishi deganni.

Mana, kafanga o'ralgan bosh agronomni tobutgayam soldilar, ko'tar-ko'tar qilib, Qizilqoya qabristoniga olib ketdilar.

Hammasi orqada qoldi. Xotin, bola, uy. Araz, diqqatpazlik, g'iybat... Ish. Sovxoz. Ishchilar...

Qishloq ham orqada qolib ketdi.

Xalqimizning yaxshi odati bor-da. Eshakda ketayotgan bir odam shartta pastga tushib, chopib kelib, tobut shotisini yelkasiga oldi. Ellik qadamcha ko'tarib bordi-da, boshqaga berdi. Fotiha o'qib, orqada qoldi. Ana bir shofyor ham mashinasini to'xtatib, kabinadan tusha solib, tobutga qarab chopdi.

Qabriston. Negadir bu yerning tuprog'i qizil. Nodir dinga ishonmas edi. Ammo shu qabriston oldidan o'tayotganda, ko'ngliga allaqanday vahima tushar edi. Kechasi o'tganda ovozini chiqarmas, u yerdan eshitilayotgan boyqushning sayrashi Nodirni qishloq yo'liga tushgancha ta'qib etar edi: "Bu yerda o'liklar qo'rqmasdan qanday yotisharkin-a? I-ye, ular axir, hech narsani sezmaydi-ku? Axir, o'lik o'lik-da. Kesak nima-yu, o'lgan odam nima?.."

Mana, marhum qabrgayam qo'yildi. Mehribon ota go'rga birinchi bo'lib tuproq tashladi. Odamlarga hayronsan! Muncha shoshishmasa? Bosh agronom tezroq ko'zdan yo'qolsin deganday go'rga tez-tez tuproq tashlashadi-ya.

Jimjitlik. O'lik sukunat. Mozor, qizg'ish uy, manavi qaqqaygan qari tut daraxti hech narsani sezmaganday turibdi. Uning kovagiga chumchuqlar har vaqtdagidek shoshib kirib chiqyapi. Ana, namgina tuproq uyumi ustiga bir qarg'a qo'ndi.

Inson hayoti shu ekan-da. Tug'ildi, o'sdi, o'qidi, ishladi, odamlar bilan urishdi, yarashdi. Ro'zg'orni o'yladi, tashvish tortdi. Sevdi... nihoyat, o'ldi. Oilada bir necha kun yig'i-sig'i, rasm-taomillar. Keyin? Uni eslab yurish...

Bu orada sovxozga boshqa kishi, ikkinchi bo'limning boshlig'i bosh agronom bo'ldi.

Ota ham, ona ham asta-sekin g'am bukkan qaddini tiklashdi. Yosh kelinga sovchi keldi. Sovchi uchinchi kelishida qaynana ko'ndi.

Keyin?.. Yoshgina qizi, onasining keyingi erini otam deyishga o'rgatadi uni qaynana. Yo?..

Nodir bo'lsa sezmas, eshitmas bo'lib qabrda yotibdi.

Darvoqe, u qanday bo'lib o'ldi?

O'sha kuni majlisdan tanqid yeb keldi, qaynanasi bilan uy xususida janjallashdi, xotini ketib qoldi, ko'chada itni urib, egasidan dakki eshitdi...

Keyin eshikka chiqqanda ko'kragiga sovuq shamol urildi.

Bu kuz shamoli shunchalik yoqimli, huzurbaxsh ediki, Nodirning xo'rligi keldi. Keyin... bu adolatsizliklarga chidolmay, o'zini achchiq ustida o'ldirib qo'ydi. Bu kimga foyda bo'ldi? Kim uni maqtadi? Nima bo'ldi, keyin nima?

O'sha kechagi seryulduz osmon ham, oppoq yulduzlar ham o'z o'rnida. Daraxtlar, yomg'ir... Shabada.

Hayot Nodirsiz ham davom etyapti.

...Ayvon panjarasida bo'shashib o'tirib qolgan Nodir cho'chib boshini ko'tardi va chuqur xo'rsinib o'rnidan qo'zg'aldi. Sigareta chekib yana bir nafas turdi-da, ko'chaga chiqdi. Qo'shnining ko'ngli yumshab, itga achinganini aytdi va "mashoyixlar aytibdiki, Ka'baga o't qo'yib, butga cho'qin, lekin mo'rchani og'ritmagil, ha, shunaqa bo'ladi-da", dedi. Nodir bolalarini olib kelgani qaynanasinikiga yo'l oldi. Yo'l bo'yi oqshom eshitgan tanqidini eslab, tahlil qilib, xatolarni bartaraf qilish yo'llarini rejaladi.

Hali Nodir panjarada xayol surib o'tirganida, bo'yniga bir necha tomchi yomg'ir tomgan edi, endi shivalab yog'a boshladi. Qovjiroq o't-o'lanlar, daraxtlarning taxir yozgi hidi anqib ketdi.

1970

OG'IR TOSH KO'CHSA

— Qani, bizga kim konyak opkeladi? — dedi kolxoz raisi Shoberdi Murodov.

Uning qarshisida, so'zana tutilgan devor tagida mushtday bo'lib o'tirgan muxbir yigit Islom piqillab kulib, cho'kkalab choy quyayotgan Esonga qaradi.

— Eson, senga gapiryapti rais bobo!

Eson qizarib, Murodovga tikildi.

— Men borishim kerakmi? — dedi.

— Ha, borib keling! — dedi rais. — Bizning xotinga aytasiz, "pliska"dan bor, bitta chiqarib beradi.

— Agar bormasam-chi? — iljaydi Eson.

— Borasiz! — so'zida turib oldi Shoberdi Murodov.

— Turgin-da endi! — dedi Islom unga. — Rais bobo gapiryaptilar-a! Ko'zingizni shira bosib qoldimi? Rais bobo, buning qorni to'yiptimi deyman, egasiga qaramayati.

Davra qah-qah otib kuldi. Eson esa hovur chiqib turgan piyolaga tikilib qoldi.

— Hov, Esonboy, turing endi! — dedi Murodov yana va yonboshidagi paryostiqni olib, tizzasiga qo'ydi, unga o'mrovini tirab oldi.

Eson iljayganicha raisga tikildi.

— Bormayman, o'rtoq Murodov. Ovora bo'lasiz.

Islom boshini sarak-sarak qildi.

— Bunda o'zgarish bor, rais bobo. O'zingiz aybdor.

Murodovning avzoyi o'zgardi. Yonoqlari ko'zi tomon andak tirishdi, xuddi mo'ylovini silagandek qilib, yuqori labini ikki barmog'i bilan siypadi.

— Xo'p, do'stlik uchun borib keling, — dedi Esonga. — Sinfdoshlik hurmatini qiling.

Eson chordona qurib oldi.

— Hali gapni shundan boshlaganingizda borib kelardim. Endi baribir bormayman!

Endi mehmonxonani to'ldirib o'tirgan yor-jo'ralar jiddiy tortishdi. Murosaga ko'chib, Esonni konyak olib kelishga unday boshlashdi.

— Bormayman dedimmi, bormayman! — qichqirib yubordi Eson. — Men malay emasman! Hey, — u Islomga o'shqirdi: — Qachondan beri men bu odamga malay bo'lib qoldim? Qachondan beri, a? Ikkita orriq echki bergan bo'lsa, qaytarib olsin! Bolalarim och qolmaydi. Topaman!

Islom yana piqillab kuldi.

— Lekin rais bobodan aloqang uzilsa, o'lasan-da, oshnajon. Unda biz nima qilamiz? Erta-indin qish tushadi... Ovoragarchilik!..

Eson chap qo'lini ko'tarib, Islomni urmoqchi bo'ldi. Islom "voy-voy" deb, sherigining orqasiga uzala tushdi. Eson uning quymuchiga musht tushirib, cho'nqayib oldi.

— Endi bas qilinglar! — dedi so'ng labi-labiga tegmay. — Hazilning ham chegarasi bor! Siz ham, o'rtoq Murodov, juda-a... kishilarni unday pastga urmang. Yaxshi emas.

Soqiy uzun burnini jiyirib: "Bu yomon-ku?" — deb to'ng'illadi. Islom bilan pichirlashib, qattiq kulishdi. Boshqalar gap chalg'isin uchun ulardan nimaga kulganlarini so'rashdi.

— E, o'zimiz, shunday... — dedi Islom.

— Eson jo'ra, choydan quy! — dedi soqiy.

Eson choydan quyib uzatdi.

Shoberdi Murodov hamon labini silab, yuzini tirishtirib o'tirar, kirtaygan ko'zlaridan uyalgani bilinib turardi.

— Xo'p, opkemasangiz, opkemang, — dedi. — Qani, tamada, aroqdan quying bo'lmasam!

Davra yana azalgi sho'xligiga qaytdi.

— Soat ham uch bo'p qoldi! — dedi rassom Yigitali.

Hamma soatiga qaradi.

— Uch... Uch bo'p qopti... Turish kerak... yetguncha olti bo'p qoladi, — deyishdi.

Shoberdi Murodov tizzasidan yostiqni olib, yoniga tashladi. Ostonaga yaqin, devorga suyanib, ustixon tozalayotgan shofyoriga qaradi.

— Qani, Qulmatboy, turamizmi endi? Mashinangiz qovun tushirmaydimi? Uxlab qolmaysizmi yo'lda?

Qulmamat hiringlab kulib, irg'ib turdi.

— Rais bobo, bizning moshin hech qachon padvadit qilganmi? Shopir-chi? — dedi.

— Barakallo! Qani, turdik bo'lmasam! — rais soqiyga qarab hovuchini ochdi. — Shu xonadondan baraka-qut arimasin! Omin! Yigitali, charchamadingizmi?

Yigitali ham qo'zg'aldi.

— Yo'q. Sizlarning suhbatlaring menga yoqadi. Shuni eshitay deb kelaman! Bilasizmi, bunaqa davralar hozir kam qolgan. Nima desam bo'ladi, bunaqa... bolalikdagi sho'xligini saqlagan oshna-og'aynilarni aytyapman-da. Qarang, qanday ochiqchasiga gaplashadi! Mana, sizning gapingizgayam ko'nmadi!.. Holbuki, ko'p joylarda buning teskarisini ko'raman!

Shoberdi Murodov jimjilog'i bilan tishini kavlab, bosh irg'adi. Eshik tomonga o'tar ekan, pech yonida qo'l qovushtirib turgan Esonga ko'z tashladi.

— Bizning topshiriqni bajarmadingiz-a, siz bilan boshqa yerda gaplashaman, — dedi.

Eson ko'ksida tutib turgan qo'llarini birdan yoniga tushirdi, to'garak-to'la yuzi ma'nosiz bo'zraydi. Shunda soqiylik qilib o'tirgan uy egasi Abdumajid uning biqiniga turtdi. Eson chuqur xo'rsinib:

— Xo'p. Xohlagan joyingizda gaplashing, — dedi.— Men tayyorman. Balki ertaga maktabga o'tib borarsiz?..

Murodov unga qaramay eshikdan chiqdi. Abdumajid chekinib, Esonni burchakka tortdi.

— Bo'ldi endi! — deb achchiq shivirladi. — Janjal chiqarmoqchimisan? U-ku bir... Bo'lmasam, shu yerda o'zini ko'rsatmoqchi bo'ladimi? Uydan konyak opke emish! Bu gap menga tegmadimi, menga? Uy egasiga? Qo'y endi. Parvo qilma! Bir hisobda uni

qaytarib tashlaganing yaxshi bo'ldi. Ikkinchi marta bu oliftagarchiligini qilmaydi... Endi bas. Yigitali shu yerda. Mehmon ayb qilib ketmasin! Shuning hurmatiga yig'ildik-ku?

Eson chuqur nafas oldi.

— Ayb o'zimda, Abdumajid, a? Ayb o'zimda-ya? Nima desa, xo'p deganman. Sizniki to'g'ri deganman. Sizlar ham bunga o'rganib qolgansizlar.

— Shuni bilsang, jim bo'l endi. Eson-omon borib kelaylik.

Bular ham tashqariga chiqishdi. Mehmonlar supa ustida g'o'ng'illashib, kulishib turardi. Abdumajid tancha ustini timiskilab, ro'molga tugib qo'yilgan yaxna go'sht, non va araqni ko'tarib oldi.

Tor ko'cha og'zida Qulmamat "Villis"ning kichkina chiroqlarini yoqib, motorni o't oldirib turardi. Shoberdi Murodov o'ngdagi eshikni ochib, o'rindiqni oldinga qaytardi.

— Qani, o'tiraveringlar! — Yigitalini tutib turdi. Hamma kirib o'tirgach, o'zi ham kirib shofyor orqasidan joy oldi. — Yigitali, siz oldinga o'tiring! O'tiring!

Yigitali ham o'rnashib, sigareta tutatdi. Orqada, burchakka tiqilgan Islom hiringlab kuldi.

— Yigitali, oldinda o'tirish maza-a? Rais bobom ham biladilarda. Nuqul o'sha yerda o'tiradilar. Rais bobo, sizga bir savolim bor, shu raislik qanaqa bo'ladi, a? Rais bo'lgan odam juda maza qilsa kerak-a?

Shoberdi Murodov jiddiy javob qaytardi:

— Siz ham bo'lishingiz mumkin. Bu o'zingizga bog'liq, uka... Lekin, ishi og'ir. Tinim yo'q. Mana, sizlar sakkiz soat ishni qilib, bola-chaqaning oldiga kelasizlar, issiqqina uyga kirib olasizlar. Bizlar bo'lsa, eh-he! Ikki kunlab uxlamagan vaqtlarimiz bo'ladi. Mana, Abdumajid biladi buni. Agronom, lekin buyam yalqov! Charchadimi, kasalman deb yotib oladi.

— O'zingizning qo'lingizdan kelmaydi-da shuyam, o'rtoq Murodov!

— Ax! O'ylamaysizlar-da! — to'ng'illadi rais va oldinga engashib, Yigitalidan sigareta so'radi. — Rahmat. "Stolichniy"mi bu? Shu tuzuk... Rahmat!

Mashina o'nqir-cho'nqir tor ko'chadan chiqib, asfaltga tushdi. Yor-jo'ralarning suhbati, kulgisi davom etardi.

— Rais bobo, yoshingiz nechada, a? — so'rab qoldi Islom va Abdumajiddan musht yeb, qayta so'radi: — Nechada dedingiz?

— Biz hammamiz tengmiz shekilli? — javob berdi Murodov.

— Bo'lmasam, nimaga meni uka deysiz? Kechirasiz.

— E, bularga kulgi bo'lsa, — yana to'ng'illab qo'ydi Murodov. So'ng Yigitaliga zorlanayotganday dedi: — Yigitaliboy, odamlarda tushuncha kam-da. O'ylamaydi... Ba'zida so'kasan, ba'zida urishasan. Ba'zida, endi, birini aka, birini uka deysan.

— To'g'ri, rahbarlargayam qiyin, — dedi Yigitali.

Mashinaning bir maromda ketishi charchagan yigitlarni elita boshladi. Olajarga yetganda ular har xil alpozda uxlashar, biri-birining yelkasiga boshini qo'ygan, boshqasi tizzasiga tiralib chayqalar, Shoberdi Murodov ham o'rindiq qanotiga manglayini qo'yib tebranar, Yigitali ham o'tirgan joyida chayqalar edi. Olajarga kirishgach, mashina yana o'qir-do'qirga tushdi. Yor-do'stlar uyg'ona boshladi. Kimdir jindak-jindak otishga istak bildirdi-yu, boshqalarga ham bu taklif yoqib ketdi. Mashinani to'xtatib, yarimta araqning boshiga yetishgach, yaxnadan gazak qilib, yana yo'lda davom etdilar.

Davraga yana o'sha ruh kirdi.

Orqadagilar o'zlaricha, Shoberdi Murodov Yigitali bilan gaplasha boshladi.

— Hov, mana bu oqarib turgan joyni ko'ryapsizmi?— deb qo'li bilan ko'rsatdi Murodov. — Ana, ana!

— Ko'ryapman, ko'ryapman, — dedi Yigitali. — Bug'doypoyami?

— Bug'doypoya! Bizdan ilgarigi rais bu yerni odamlarga berib qo'ygan ekan. Posira ekib olishardi-da. Men qaytarib oldim. Raykomga kirdim. Bu qanaqasi? Davlatning yeriga kim-kimga ekin ekib, o'z manfaatiga ishlatib yursa, dedim. Raykom ham mening fikrimga qo'shildi. Qaytarib olib, kolxozga qo'shdim!

— Lekin shu ishingiz bilan, rais bobo, ko'plarning qarg'ishig'a qoldingiz! — orqadan gap otdi Islom. — Bechoralarning to'rt-beshtadan moli bor. Unga yemish kerak. Yetti sotix tomorqada

nima bitadi? Suv bo'lsayam bir navi edi, ekkan ekini ko'karardi. Suv yo'q. Buloqlaringiz ham bu yil qurib qoldi. Odamlarning ekinlari ko'karmay quvradi. Shu tomonlari bor-da, rais bobo!

— Ana, bu korrespondentning gapiga qarang! — dedi Shoberdi. — Eshityapsizmi, Yigitali? Aslida, ishni shularni tarbiyalashdan boshlash kerak! — Rais Islomga o'girildi. — Hoy yigit, xato qilyapsiz! Siyosiy xato qilyapsiz. Hammamiz davlatning odamimiz, shuni esdan chiqarmang.

— Kechirasiz, — Islom pastga tushib o'tirib oldi.— Kechirasiz, rais bobo! Shaxsiy mulk-chi, a? Shaxsiy mulk kommunizmda ham bo'ladi, buniyam esingizdan chiqarmang.

Murodov xoholab kuldi.

— Ana, ana endi o'zingizga keldingiz, muxbir yigit! Shaxsiy mulk kerak, buni men ham inkor qilmayman. Lekin... mana bu, mana bu lalmikor shaxsiy mulkmi? Shaxsiy mulkmi? Yo'q, og'ayni! O'ylab gapirish kerak... — Murodovning ovozida kulgi sezila boshladi: — Lekin, o'rtoqlar, biz ham o'ylaymiz, ha, o'ylaymiz! Xalqni unutmaymiz. Shu yerning somonidan, chorisidan bermadikmi, a? Berdik. To'g'ri, sizga emas. Chunki siz intellegent. Sizda mol yo'q. Xo'sh, boshqalarga berdik!

Orqadagilar burchakka tiqilib o'tirgan Esonga qarashdi.

— O'l sen! — dedi Islom Esonga. — Yana hech narsa ko'rmadim deb labingni yalaysan! Nima deyaptilar rais bobo! Tonasanmi? Yana sen bu kishining topshirig'ini bajarmaysan. Bajarmagan kuning o'ldim deyaver... Mollaring emas, o'zing ham ochdan o'lasan! — Islom Esonning mushtumidan tislanib, davom etdi: — To'g'ri-da, muallimlikdan oladigan yuz so'ming bilan kimni boqasan? To'qqizta bolangnimi? O'zingnimi?

Eson gavdasini orqaga tortarkan, boshini birdan temirga urib oldi.

— E, Xudo! Meni buncha baxtsiz qilmasang! — dedi.— Murodov, bas qiling endi, menga hech narsangiz kerak emas! Kerak emas. Bergan o'n qop somoningizni ertaga opkelib, darvozangiz oldiga to'kaman... Kerak emas! O'zim ahmoqman.

Abdumajid uning yelkasini siladi.

— Ahmoqliging rost lekin, jo'rajon.

Mashina ichi yana kulgiga to'ldi. Yigitali:

— Qizishmanglar, — dedi. O'ylanib, Esonga qaradi. — Eson, men sizni tanimay qoldim. Og'ir edingiz, hazilni ko'tarardingiz. Hayron bo'lyapman... Hammalaring og'aynisizlar. Bundan keyin ham ajralmas do'st bo'lib qolasizlar... Kelishdikmi? Agar rozi bo'lsangiz, shuning uchun men ellik gramm ichishga tayyorman.

Tag'in mashina to'xtadi.

Ular belgili manzil — Tomoshakamar tepasiga yetib, mashinadan tushishganda, kunchiqar ufqi sarg'aya boshlagan, pastlikdagi dara sohillarini qoplagan oqish tuman muyulishlarga, pasqam joylarga surilib borar, shimoldan, tog' ostidagi archazordan sovuq shamol esar edi.

— Ketdik kamarga! Ketdik! — dedi Abumajid va tugunini ko'tarib, toshlarni aylanib o'tgan so'qmoqqa tushdi.

Islom bo'lsa, shapkasini bostirib, oqshom mashinaga solib qo'ygan miltig'ini chiqarib, miliga puflab, o'q joyladi.

— Men shu yoqqa bir borib kelay! — deya jar labida o'sgan pakana archalarni oralab ketdi.

— Otib keling! Otib kelmasangiz, kelmang! — dedi Murodov Islomning orqasidan.

— Rais bobo, men, ham boray, — dedi shofyor Qulmamat.

Murodov o'ylandi.

— Sen bizga qarasharsan! Pastga tush. O't yoq. Qorning sovug'i kelyapti.

Abdumajidning orqasidan Yigitali, Murodov va tanburchi Jonqul ergashdi. Qulmamat archazordan qurigan shox sudrab chiqdi. Nihoyat, Eson ham jildi.

Kamarning ichi iliq, shamol uning ustidan o'tar edi. Yigitali o'rtaga borib, kamarning duddan qorayib ketgan shiftiga, yoriqlariga qaradi.

— Bir zamonlar avlodlarimiz shunday yerlarda yashagan-a! — dedi.

Murodov oyog'i ostidagi tezakni etigi uchida tepib yubordi.

— Yovvoyi odamlarni aytasiz-da, Yigitali?

— Ha, — dedi u kulib. — Bilasizmi, Enshteyn degan bir olim o'tgan. Shu odamdan uchinchi jahon urushi qanday bo'ladi, deb

so‘rashipti. U, uchinchi jahon urushini bilmayman-u, to‘rtinchi jahon urushida odamlar yoy bilan urushadilar, depti.

— A-a, ibtidoiy hayotga qaytadi deng? — Tosho‘choq boshiga kelgan Eson to‘ng‘illadi.

— Shunday! Juda og‘ir bo‘lsa kerak... Bilasizlarmi, hozir olamda to‘plangan bombalarni bir yerga yig‘ib portlatsalar, yer shari o‘z orbitasidan chiqib ketar emish!

Murodov xo‘rsinib, pastlikdan tuman ichida ko‘rinayotgan archalarga qaradi.

— Qo‘yinglar-e, urush bo‘lmasin! Hukumatimiz tinchlikni ko‘zlaydi. Urushga yo‘l qo‘ymaydi. Qani, Qulmamatboy, choydish olib kelganmisiz? Bir choy ichaylik... Qani ko‘rpacha, sholcha? E, esingiz qursin! Op keling ularni!

Qulmamat orqasiga burilib, g‘izillay ketdi. Jonqul u keltirib tashlagan archa shoxlarini oyog‘ida toptap sindira boshladi. Abdumajid kamarning teshiklarini timirskilab yurardi: u tuz topdi, qalampir topdi. Ularni tugun ustiga qo‘yib, Yigitalining yoniga keldi.

— Qalay Yigitali, chiroylimi? — dedi pastlikka ishora qilib.

Yigitali xo‘rsindi, o‘choq yaqinidagi xarsangda o‘tirgan Esonga ko‘zi tushib, xo‘mraydi, so‘ng jilmaydi. Eson “e” deganday qo‘l silkidi. Abdumajid kaftlarini bir-biriga urib:

— Maza! Yurtimiz chiroyli! — dedi.

Yigitali yana xo‘rsindi. Abdumajid Jonqulga yordam bera boshladi.

— Bir qo‘y opkelishimiz kerak ekan-da, — po‘ng‘illadi Murodov. — Nima dedingiz, Esonboy?

— Qo‘y bor! Qo‘y bor, Xudoga shukur! — dedi Eson. — Rayonga qaytaylik, uyimga boramiz. Qo‘lingizga pichoqni beraman. Tanlab so‘yasiz!

Murodov labini silab kulimsiradi.

— Yigitaliboy, Esonni kambag‘al deymiz-u, qo‘ri-qutlimiz shu. Puxta-da bu! Chin pulga zoriqib qolsa, bozorga chiqib, dallollik qilishdan toymaydi.

— Qilaman dallollik, qilaman! — dedi Eson. — Buning uyat joyi yo‘q. Kerak bo‘lsa, Rasiyaga uzum ham olib boraman. Qilaman bu ishniyam. Lekin o‘g‘irlik qilmaganman, ha. Qilmayman

ham. Buni yaxshi tushunsangiz kerak, o'rtoq Murodov? Boshqa ishni qilaman. Mening bolalarim sizning bolalaringizni ko'rganda o'ksimasin deyman. Mening bolalarim ham sizning bolalaringiz yeydigan yog'li go'shtni yesin deyman. Iligi puchak bo'lib o'smasin, baquvvat bo'lsin deyman. Xotinim tengqurlari oldida uyalmasin deyman. Ha. O'zim ham! Bitta og'aynim kelganda qarzga non so'rab yurmay deyman. Siz osmonda yuribsiz, o'rtoq Murodov!

Eson irg'ib turib, Qulmamat keltirgan sholchani olib, o'zi o'tirgan qoyaga qo'ydi. Pastlikka sakrab tushib, archa butog'ini sindirib keldi-da, sahnga sochilgan qiy-tezaklarni supura boshladi.

Yigitali Esonga achinish bilan qarab turdi. Kamarning changdan xoli tomoniga qarab yurdi. Murodov ham.

Buyoqda Abdumajid Esonga shivirladi:

— Boplading. Sendayam til-zabon bor ekan!

— E, o'zim ahmoq! — dedi Eson va Abdumajidni chetlab o'tib, Yigitali bilan Murodovni oldiga bordi. Raisning yoqasidan ushlaydigandek qo'lini cho'zdi-yu, havoda silkitdi.

— Yo'q, o'rtoq Murodov, siz menga ayting. Men sizga nima yomonlik qildim, a? — dedi.

Murodov chekindi.

— Nima bo'lgan bunga o'zi! Esi joyidami? Bo'ldi! Bor! — U Abdumajid tomonga ishora qildi. — Bor! Ishingni qil! Bezor qilding-ku kishini...

— A-a, bezor qildimmi? — deb kulimsiradi Eson va yana uning qo'li raisning ko'kragiga intildi, biroq yana yo'lda qolib, havoni kesdi. — Senladingiz-a! A! Rahmat... Esiz! — U qattiq kulib, yoniga yetib qolgan Abdumajidga qaradi. — Ko'ryapsanmi bu odamni? Hoy!— Eson Murodovga tikildi. — Hoy, tirmizak! Sen bilasanmi, g'irt ahmoqsan-ku? Rais bo'lganingdan beri xalqqa kulgi bo'lib yuribsan! Bilasanmi shuni! Chunki kallang yo'q seni. Hey, noinsof! Axir, o'ylamaysanmi, a? Xo'p, birovlarga kattalik qil, birovlarni pisand qilma! Lekin... o'z sinfdoshlaringni o'yla! Axir yong'oq o'ynab katta bo'lganmiz, lanka tepib o'sganmiz, a? Esingdan chiqdimi? Kinoda gung seni urganda, kim qutqargan edi? Men! Mana bular!.. Yigitali, siz uni bilmaysiz! Shularning ro'y-xotirini qil! Amal tegdi, hokim bo'ldim deb, o'z do'stlaring-

niyam oyoq bilan ko'rsatasanmi? Bilaman, sen meni emas, mana bu Abdumajidniyam, anavi Islomniyam, mana bu Jonqulniyam, eng yaqin odamlaringniyam pisand qilmaysan. Ha, bular yuzingga gapirmaydi... Men, o'zim ahmoqman! To'xta, Abdumajid, jonimni chiqarma sen ham! Shuncha vaqt buning gapini eshitib keldim. Nima desa, xo'p dedim. To'g'ri, ba'zan u-bu narsadan qarashdi, tonmayman... Lekin men uni, xizmatlarim haqiga, hurmatim haqiga deb tushunganim yo'q. Boshqa rais bo'lgandayam shunday qilardi... Kechirasizlar meni. Yigitali, kechiring, men jonimdan to'ydim. Men bu odamni o'zimga o'xshab samimiy hazillashadi desam, bu masxara qilar ekan! Shu bilan o'zini ko'rsatar ekan. Buni ilgariyam bir-ikki marta sezgan edim. Noinsof! Hurmat-izzatni bilmagan! Esiz. O'zim ahmoqman!.. Do'stim rais bo'ldi deb boshim osmonga yetipti. Nima buyursa, bajaribman. Bo'lmasam, men o'qituvchiman, bu bilan nima aloqam bor? Yo'q. Buni hurmat qilibman, buni siylabman... Birovlar yomonlaganda tarafini olibman. Ahmoq o'zim... Abdumajid, qonim qaynab turipti, nari tur. Bugun telefon qiladi bu odam. Labbay deyman. Uyga mehmon keldi. Borib qo'zini so'y. Erta telefon qiladi. Labbay, o'rtoq rais? Ko'mir tushipti uyga, tashishib yubor. Xo'p bo'ladi. Nimaga axir? Men senga malay bo'lganim uchun shunday qildimmi, a? O'zim ahmoqman... Menga ba'zi do'stlarim aytgan edi. Hoy, izzatingni bil, u odamga buncha pashshalashma, degan edi. Men quloq solmapman! Oxiri ba'zilar meni sening malayingga chiqarishgan ekan. Shundayam kulgiga burgan edim. Endi ketmaydi, o'rtoq rais. Rais bo'lsangiz o'zingizga! Men siz bilan teng huquqli grajdaninman. Buni unutmang. Bilib qo'ying, amal hech kimga umrbod berilmaydi! Hali tushasiz ham. Shunda, odamlar sizni oyog'i bilan ko'rsatadi. O'lsangiz, janozangizga bormaydi. Meni aytdi dersiz!

Murodov sigaretani so'rib-so'rib tortdi-da, qoldiqni chertib tashladi.

— O'rtoqlar, meni bu odamdan qutqarasizlarmi yo ketaymi shu yerdan? Bu aynab qopti-ku! — dedi.

Eson baqrayib qoldi, so'ng ko'kragiga tufladi.

— Astag'furullo...

Abdumajid Esonni tortib ketdi. Jonqul ham uning bir qo'lidan ushladi. Esonga yomon qarab turgan Qulmamat rais chertib tashlagan sigaretaning pastdagi xaslar orasida tutayotganini ko'rdi-da, qoya labiga borib sakradi. Lekin shudring tushgan o'tda sirg'alib o'tirib qoldi.

Yigitali kulimsirab, o'ychan turar edi.

— Murodov, siz ham qizishmang, — dedi. — Foydasi yo'q. Do'stsizlar. Shuni unutmaslik kerak. Birlaringdan o'tgan bo'lsa, birlaring kechiringlar. Bu davraning do'stligiga butun Boysun xalqi havas bilan qaraydi.

— E, bo'ldi! — dedi Murodov. — Bu bilan oxirgi gaplashganim shu bo'lsin! Ahmoq...

— Kim ahmoq? — Eson o'rnidan irg'ib turdi-yu, birdan manglayiga musht urdi. — Ha, men ahmoq! — dedi, tappa o'tirib, archa butoqlarini qarsillatib sindira boshladi.

— Qalay endi, Yigitaliboy? Ahvollar yaxshimi? Rasmlarni sotib olyaptimi? — gapni burdi Murodov.

— Ahvol yomon emas, — dedi Yigitali. — Ba'zisini oladi, ba'zisini yo'q. — Rassom raisga o'girildi. — Bilasizmi, yo men o'z ishlarimni tushuntirolmayapman, ya'ni ishlarim tushunarli emas. Yoki boshqalar buni tushunmayapti. Men ko'proq vodiymiz odamlarini chizaman. Uyoqda esa ba'zi mutaxassislar qandaydir boshqacha deyishadi. Bilasizmi, Murodov, chamamda, biz o'zimizni yaxshi bilmaymiz, fe'l-u atvorimizniyam yaxshi tushunmaymiz... Men asarlarimda xalqimizdagi, nima desam ekan, qandaydir mardliknimi, o'ziga xos jangariliknimi, jasurlikni deymizmi, xullas, shunaqa narsalarni ko'rsatgim keladi. Ba'zilar esa, yo'q, "asl" o'zbek muloyim, ko'ngli bo'sh, aytaylik, bag'rikeng deyishadi. Bilaman. Shunday... Lekin ana o'sha muloyimlik zaminida tantilik, mardlik bor, katta qalb egasining hotamtoyligi bor. Men ana shunday kishilarni tasvirlashni orzu qilaman. Qahramonim bag'rikeng, muloyim, lekin vaqti kelganda jur'ati, g'azabi ham bor bo'lgan qahramon bo'lsa deyman. Masalan, shu Eson kabi. Qanday yigit edi u? Siz tag'in ko'nglingizga olmang, u sizni haqorat ham qildi. Lekin menga bir jihati ma'qul bo'lganini aytishim kerak. Kesakdan o't chiqar ekan.

— E, qo'ying uni! — dedi Murodov.

— Yo'q, quloq soling-da. U qizishib gapirayotganda men kuzatib turdim. Bu odamning qo'lidan har balo kelishi mumkin. Ha, o'rtoq Murodov.

— Nima keladi qo'lidan! — dedi rais. — O'n besh sutka qamalgisi kelgan. Meni haqorat qildi-ku? Shuni yozib bersam, buni tinch qo'yadimi? Mulla mingan eshakday qilib qo'yadi kerak bo'lsa. Kishi o'ylaydi-da. Aytganingizday, sinfdosh bo'lganmiz, tengdoshmiz. Shuni yuz-xotir qiladi kishi. Lekin endi men bu o'tirgan davrada o'tirmayman...

Yigitali kuldi.

— Demak, bular bilan.. o'tirmas ekansiz-da? Axir, Eson bulardan ajralmaydi!

— E, tashvish tortmang, — dedi Murodov. — Yo'lini topamiz. Nahotki biz uyga chaqirganda bular bormasa?

Yigitali raisning yelkasiga qo'lini qo'ydi.

— Bular... bormaymiz deb turib olishsa-chi? Unda xafa bo'lmaysizmi?

Rais cho'ntagidan qo'lini chiqarib, silkidi.

— Allaqachon bular bilan o'tirishni bas qilganman, Yigitali. Siz tufayli qo'shildim-da.

Yigitali iyagini qashlab qoldi.

— O'rtoq Murodov, kishi degan do'stlarini unutmasligi kerak. Oqshom sizni bular orasida ko'rib, juda xursand bo'lgan edim. Boshqa odamlar ham sizlardek do'st bo'lishlarini orzu qilgan edim... Afsus, Eson aytganidek, lavozim kishiga bir umrga berilmaydi. Yakkalanib qolish mumkin. Yo boshqa davraga qo'shildingizmi?

— E, davrasiyam jonga tekkan! — dedi Murodov. — Nima bo'lardi davrada? Ichkilik bo'ladi. "Hi-hi-hi" bo'ladi. Mana bunday uyqudan qolish...

— Kechirasiz, — ovozi titrabroq so'radi Yigitali, — kelganingizga pushaymon qilyapsizmi?

— Yo'q, nimaga... Ya'niki aytaman-da. Bu yerga sizning hurmatingizni qilib keldim-ku.

— Rahmat. Cheking.

— O'tmayapti tomoqdan.

Abdumajid:

— Marhamat! — deya lang'illayotgan gulxanni ko'rsatdi. — Marhamat! Bir kun yovvoyi bo'lsak bo'pmiz-da! Kelinglar. Ko'rpachalar to'shalgan! Hozir choy qaynaydi.

Borib o'tirdilar.

Abdumajid ro'molni ochdi, yaxnani ushatmoqchi bo'ldi-yu, cho'pga sanchib, o'tga tutdi. Buni ko'rgan Jonqul ham yaxna olib, cho'p sanchdi, o'tga tovlay boshladi. Birpasda yog'ning hidi burqsidi. Abdumajid yana shisha ochdi.

Yigitali krujkani olib, picha o'ylanib turdi-da:

— Xo'p, bir-birimizni yaxshi tushunaylik! — deb ichib yubordi.

— Mana bu Esongayam aql kirsin! — deya Abdumajid ham ichdi.

— Hammalaring salomat bo'linglar, — deb Jonqul ham ko'tardi.

Murodov krujkani olib, bir nafas tishini so'rdi-da:

— Yigitali, sizning sog'lig'ingiz uchun! Hm, ishlarimiz rivoj topsin. Xo'sh, bizning planlar bajarilsin. Siz yangi asarlar chizing, — deya krujkani bo'shatdi. Abdumajidga qaytarib: — o'h-ho'! Ko'p ichdik-da shu kecha! — dedi. — Men anchadan buyon bunday ichmagan edim. Buning sog'liqqa foydasi yo'q, a, Yigitali?

— Menimcha, hayotda foydali ishga nisbatan zararli ishni ko'p qilamiz, — dedi Yigitali. — Kechasi bilan uxlamay chiqishimiz ham zarar. Mashinada ezilib, bu yerga kelishimiz ham zarar. Albatta, ichishimiz ham...

— Rost aytasiz!

Eson krujkani olib ichiga qaradi-da, Abdumajidga uzatdi:

— Tuzukroq quysang-chi shu isqotdan! Bu dunyoda foydali narsa yo'q ekan-ku! — dedi.

Murodov boshini og'ir silkitib, xo'rsinib qo'ydi.

Eson krujkani bir ko'tarishda bo'shatdi. So'ng sekin turib, devor taglariga qaradi, nimanidir izladi.

Shunda so'qmoqda toshlar ko'cha boshladi, tapillab tushdi birov — Islom. Qo'lida bitta kaklik. Uni yerga tashlab, miltiqni yelkasidan oldi.

— Ol buni, tekinxo'r!

Eson miltiqni olib, Murodovga ko'z tashladi.

— O'qi bormi?

— O'q, mana. Belimda. Otasanmi o'zingni? — dedi Islom va uning urib qolishidan qo'rqib, Yigitali tomonga o'tdi. U bilan raisning orasiga kirib, cho'kkalab oldi. Dam unisiga, dam bunisiga qarab tirjaydi: — Qalay dam olishlar?.. Ey, rais bobo! Sizning Sochi, Yaltangizdan shu yerlarning o'lsa o'ligi ortiq! Bekorga pul sarf qilib, o'sha yoqlarga borib yurasiz! Pul ko'pmi deyman-a? Picha bering, bobojon! — U birdan Esonga qarab kulib yubordi. — Uning o'qrayishini qara. Yeb qo'yaman deydi. Hozir o'qi bo'lsa, otadi meni, Xudo ursin! Qo'rqma, qo'rqma! — deb baqirdi u Esonga. — Raising o'zingga buyursin! Menga bir tiyini kerak emas. Har oyda o'n besh so'm gonorar ishlayman, mana bunday yetadi. Uyimga borganingda sening ham qorningni to'yg'izaman. Ha, nimaga indamaysan? Abdumajid, bu tildan qolganmi? Munday baqrayib turipti. Xudo ursin, ayiqqa o'xshaydi shu. Ha, Yigitali! Ayiqning achchiqlanganini ham, xafa bo'lganini ham bilib bo'lmaydi. Yo indamay burilib ketadi, yo tappa ushlab, bo'g'ibgina qo'yadi kishini.

Shunda Eson miltiqni boshiga ko'tarib, metin devorga urdi. Shart burilib so'qmoqqa tushdi, muyulishdan o'tib ketdi.

Yigitali bilan Murodovdan bo'lak hamma o'rnidan turib, uning izidan tushishdi.

— Hoy, esing joyidami?.. Eson! Bo'ldi endi! To'xta deyapman! Ha, jazavang tutmay o'l! Tentak ekan-ku bu! Shuncha yil birga yurib, bilmagan ekanman!

Ular chopa-chop qilib muyulishdan o'tib ketishdi. So'qmoqda qolgan Qulmamat:

— Rais bobo, shuning ko'zini joyiga tushirib qo'yaymi? Juda o'zidan ketib qolipti. Kattani katta, kichikni kichik bilmaydi, — dedi.

— O'tir sen! — dedi Murodov — Rayonga boraylik, o'zim bilaman. Bitta akt. Tamom. Qo'l qo'yasan sen ham. Nima dedingiz, Yigitali!

— Noto'g'ri qilasiz, — dedi rassom.

— Siz ham endi shularning og'aynisisiz-da!

— Siz ham, o'rtoq Murodov... — Yigitali o'ylanib, qo'shimcha qildi. — O'rtoq Murodov, ko'nglingizga olmang, lekin sizning bulardan ortiqcha joyingiz yo'q. To'g'ri, raissiz, lekin amaldorlik insoniy fazilatga qo'shilmaydi... Bularda bor sho'xlik sizda yo'q. Sizda bo'lsayam, uni yo'qotib yuborgansiz. Bularda bor andisha sizda yo'q. Buniyam yo'qotib yuborgan ko'rinasiz. So'zlarim qo'pol bo'lsa, uzr so'rayman...

Murodov birdan irg'ib turdi.

— Yigitali, ketasizmi? Bo'lmasam, men ketdim!

Yigitali ham qo'zg'aldi.

— Tomosha qilgani keldik-ku, o'rtoq Murodov. Hozir dam olyapmiz. Keyin aylanamiz. Hali quyosh ham chiqqani yo'q. Hm, ba'zi bir kelishmovchilik bo'lsa, uni bartaraf qilish mumkin. Shunday emasmi? Men sizga jindek tegdim, uzr... Menimcha, Esonning gaplarida ham jon bor. Sizning tabiatingizda manmansirash yo'q emas. Ko'rdingizmi, bu xislatingiz ba'zan kishiga yomon ta'sir qilar ekan. Shular haqida o'ylab ko'rmaysizmi?

Murodov oftob nuri tega boshlagan jarlik labiga qarab turardi.

— Sigaretdan bering, — dedi. Olib, cho'g'da tutatdi. — Yigitali, men sizni do'st bo'lasizmi, deb o'ylagan edim, — dedi. O'qrayib turgan Qulmamatga baqirib berdi: — Jo'na! Birovning gapiga quloq solishni qayerdan o'rganding? Kalit ortiqchalik qilyaptimi? Marsh mashinaga! O't oldir, motorni qizitib tur! — Qulmamat g'oyib bo'ldi. Rais yana xo'rsinib, tutun burqsitdi. — Kechirasiz, hurmatingizni deb kelgan edim, Yigitali. Yuring, ketaylik! Keyin, mashinani beraman, o'zingiz chiqasiz. Bu yerda qolsak, sezib turibman, janjal chiqadi. Anavi Eson aynadi! Yuring.

Yigitali jilmaydi.

— O'rtoq Murodov, sizni ovora qilganim uchun uzr so'rayman... Lekin men bulardan ajralolmayman. Keyin, tomosha...

— Bo'pti. Hammalaringizga xayr. — Murodov ildam yurib so'qmoqqa tushdi.

Yigitali ham bir-bir bosib, kamar ustiga chiqqanda yor-jo'ralar qoya ustida xo'mrayib turishar, "Gazik" iziga qaytar edi. U to'g'ri yo'lga tushib, chang ko'tarib ketdi.

Rassom ham qoyaga chiqib bordi.

— Bu o'zi aslida odammasdi! — dedi Abdumajid. Uning raisga yalinib, qolishga undagani va gapi rad etilgani ko'rinib turardi.

— E, shuni o'ylaysizlarmi? — dedi Islom. — Yigitali, bir kun tog'lik bo'lsangiz, hechqisi yo'qdir-a? Hadeb shaharlik bo'lib ketaverasizmi? Piyoda qaytamiz. Charchasangiz, mana bu eshakning ustiga minasiz... A? Eson! Yomon ekansan-ku! Xayriyat-e.

Eson yerga tupurdi.

— Senlar ham masxara qilishni tashlanglar endi. Ayniqsa sen, Islom...

1970

OT EGASI

Inodning uchta boyligi bor edi. Biri — soy bo'yidagi serdaraxt qishlog'i; qishloq chetida bosmachilar bilan urushda halok bo'lgan otasining qabri do'ppayib turar, Inod goho uni ziyorat qilgani borardi. Ikkinchi boyligi — qishloq o'rtasidagi tepada o'rnashgan ikki xonali maktabi edi; bu maktabga tog'ning olis-olis burchaklaridan otli, eshakli bo'lib o'quvchilar qatnar, hammasining yagona muallimi shu Inod edi. Uning uchinchi boyligi — qorabayir oti edi; bu otning olis avlodi muallimning otasiga ham vaqtida xizmat qilgan, uni ko'p jang-u jadallardan omon olib o'tgan edi. Lekin Inodning qo'lidagi ushbu qorabayir ham unga sodiq xizmatini o'tardi, ikki bor anavi soyni sel suvi bosganda, egasini olib chiqqan, to'rt yildan buyon ko'pkarilarda uloqni muttasil shu ayirib chiqar, yana uning bir xosiyati quyidagicha edi... Uzoq yili Inodning bor-yo'q ikki farzandi beda solingan bostirmaga tuynukdan kirib, gugurt o'ynaydi, bedaga o't ketadi. Ularning qiy-chuvini eshitgan onalari borib, eshikni ochmoqchi bo'ladi, biroq eshik qulf, u ham jonsarak holatda tuynukdan o'zini ichkariga tashlaydi. Bolalarini topadi, biroq tutun-u olov bosgan xonada kirgan tuynugini topolmaydi. Alangani ko'rib yayov chopib kelgan Inod xotin, bola-chaqasining allaqachon sob bo'lganini ko'radi. So'ng ularni otasi yotgan qabristonga ko'mib, chorbog'da yolg'iz qoladi. U ruhan va jisman harchand kuchli bo'lmasin, g'am uni eza boshlaydi, qishlog'-u maktabidan ham ko'ngli sovib boradi. Nochorlikdan qorabayirni minib, tog'ga ketadi. Cho'ponlar ovulida sang'ib, marhum otasining jang qilgan yerlarini ko'radi, zumrad qorli cho'qqilar ostidan o'tib, yashil o'tloqlarda tunaydi va o'zi sezmagan holda ko'ngli ko'tarilib, dardi pasayib, qishloqqa qaytadi. Shundan keyin darsdan bo'sh kunlarida qorabayirda sayr qilish unga odat bo'lib qoladi.

Oylar o'tib, yigit qalbidagi yara bitgandek bo'ladi. Qishlog'i-yu maktabiga bo'lgan mehri yana jo'sh uradi. U azalgi ahvoliga qaytganday his etadi o'zini.

Maktab ikki xonadan iborat bo'lib, biri dahliz, biri sinfxona. Ana shu sinfda yetti yashar bolakay ham, o'n ikki yashar yigitcha ham yonma-yon o'tirib o'qishadi, ularning har biri har xil sinf o'quvchisi bo'lgani holda, bir sinfda o'tirib saboq olishlari bir-biriga xalaqit bermaydi. Chunki bu atrofda bundan o'zga maktab yo'q, shu yerga qatnab, imkoni boricha ilm oladilar. Inodning o'zi vaqtida o'n sinfni bitirgandi, xolos. Qolaversa, ular o'qituvchilarini sevadi, bu — bir qadar xo'mraygan, og'irkarvon va allanechuk odamovi yigitni hurmat qilishadi. Inod bo'sh soatlarda va mehnat darslarida qorabayir otini maktab qoshidagi maydonga keltirib, o'quvchilarga arg'umoqda yurishni ham o'rgatadi, miltiq otishni ham ko'rsatadi, goho soy suvini band qilib, bolalari bilan baliq ham tutadi.

Bir kech Inod maktabdan chorbog' qorovuli bilan yayov qaytib kelarkan, qorovul Bo'riboy:

— Eshitdingizmi, shaxsiy ot saqlash man bo'lipti, qaror chiqipti. Bir milisa kecha bizning yonimizdagi yurtdan bir cho'ponning otini haydab ketdi, — dedi.

Inodning ko'ngli xira bo'ldi:

— Yangilik-ku... Lekin men otimni bermayman, — dedi.

Darhaqiqat, bu tog' yonbag'irlari qarashli bo'lgan rayondagi partiya komiteti "nega o'zimiz tog'lik bo'lib, qimiz ishlab chiqarmaymiz!" degan mulohaza bilan yangi bir sovxoz tashkil etishga qaror qilgan, aholining ortiqcha baytallarini sotib olish uchun tashkilotlardan joylarga vakil jo'nagan edi. Bu tomonlardan biya sotib olish esa kichik leytenant Egamberdi Xudoyberdiyevga topshirilgan edi. Uning esa dilida boshqa bir pinhoniy istagi ham bor edi: ana o'sha tog'dagi soy bo'yida joylashgan qishloqda istiqomat qiladigan muallimning ko'p yaxshi, chopqir, chiroyli oti bor-da. Shuni o'ziniki qilishning iloji yo'qmikin? U o'ylab-o'ylab, ilojini topdi: bir necha biyaning narxini bichib, rayonga jo'natgandan keyin Tumshuqda bitta cho'ponning soppa-sog' baytali turgani holda, uning minib yuruvchi otini aldab-suldab, qo'rqitib, do'q

urib sotib oldi va: "Nega biya olmading, deb so'rashsa, biyasi yo'q ekan, otini bera qoldi. Buni almashtirish mumkin-ku deyman-da", deb o'yladi. U bilardiki, qishloq qorovuli cho'ponga qo'shni, qishloqda esa Inod muallimdan bo'lak kishi yo'q hisobi. Aholisi bo'z yerlarga ko'chib ketgan. Demak, bu xabarni qorovul chol Inodga yetkazadi...

Inod peshayvonli uyi oldidagi bedapoyada yo'ng'ichqa o'rardi. Quyosh kunbotarga egilib, kunchiqardagi adirlar bag'rini yoritar, soyning ham u yer-bu yeri yiltirar edi. Nari sohildan to'riq ot mingan shapkali, pogoni bor kishi pastlay boshladi. Suvni kechib o'tib, bu sohilga chiqib keldi.

Inod unga bir qaradi-da, ishidan qolmadi.

Egamberdi pakana jiydalarni oralab, bedapoya adog'ida paydo bo'ldi.

— Hov, salomatmi? Qani bu, mehmon keldimi, demaysiz? — dedi.

Inod qaddini ko'tarib turdi. O'roqni o'rik tanasiga qattiq sanchib:

— Keling, — dedi do'rillab.

Egamberdi to'riqni jadal haydab, o'rik ostiga keldi, egardan sakrab tushib, tizgindan tutganicha chorbog' egasi tomon yo'rg'aladi.

Inod u bilan xomush ko'rishdi.

— Qani, bu maza yo'qmi? — dedi Egamberdi kulib va tizginni o'rik cho'qmoriga bog'ladi, o'rib qo'ygan o'tdan bir qo'ltiq olib ot oldiga tashladi; kaftlarini bir-biriga urib qoqqanicha, Inodga kulimsirab boqdi. — Bilaman, nimadan xafasiz? — dedi, so'ng chuqur xo'rsindi: — Endi, Inodboy, bu ko'pga kelgan to'y, jo'ra. Biz oddiy ijrochi. Shuning uchun bizdan xafa bo'lmaysiz endi.

— Yo'g'-e, sizdan nimaga xafa bo'laman, — deb to'ng'illadi Inod va uyi tomonga burildi. Ayvonga yetib, ichkaridan ko'rpacha olib chiqdi. Sholchaga yozib tashlab: — O'tiring, chalob ichasizmi? — dedi.

— Chalobmi, chalobdan ham chakki ma'qul! — dedi militsioner ko'rpachaga cho'kkalab.

Inod dasturxon chiqarib to'shadi, ustunga ilig'liq qo'y qornidan qilingan tulum og'zini ochib, kosaga yog'och qoshiq bilan suzma olib sola boshladi.

— Bu, Inod jo'ra, qachon uylanasan endi? — o'zini unga yaqin ko'rsatish uchun sen-senlab so'radi Egamberdi.

— E, o'lmasak uylanamiz-da bir kuni, — dedi Inod. Kosani keltirib, dasturxonga qo'ydi. Qorovulning xotini yer tandirda pishirib yuborgan uy nonini to'rt bo'lakka bo'lib, mehmonning oldiga tizdi.

— Oling, dasturxonga qarang.

— Qani, o'zlaridan, qani.

— Olavering, qornim to'q... Lekin, Egamberdi, bekor kepsiz bu yerga, men baribir otimni bermayman. U menga... juda qadrdon bo'lib qolgan.

Egamberdi suzmaga bulab olgan nonni og'ziga solib, duduqlanganicha bidillay ketdi:

— Bilaman, bilaman, jo'rajon. Sizlarga ot suv bilan havoday zarur! Lekin iloj qancha... Lekin menga bermasang, boshqasi kelib olib ketadi. Shunday emasmi? Masalaning boshqa jihatiyam bor. Mendan, Inodning oti qani, deb so'raganda nima deb javob beraman? A? To'g'risini aytaman-da, shuni talab qilishadi, to'g'ri so'z aytganda jazoyam kamaytiriladi. Unda, jo'rajon, o'zingga qiyin bo'ladi... Qarorni bajarishdan bosh tortgan, deyishadi seni. Bu yomon gap, bilsang.

Inod boshini quyi solib, ancha vaqt jim o'tirdi. Nihoyat:

— Shundaymi? — dedi.

— Ha, albatta! — dedi Egamberdi.

Inod yana jim qoldi. So'ng mehmonga manglayi ostidan qaradi.

— Bilishimcha, sizlar kelishuvchilikkayam ko'nasizlar, — dedi.

— Qanday? — o'smoqchiladi Egamberdi.

— Shu... jo'ra deyapsiz meni, rahmat bunga... Egamberdi, menda bir sog'in sigir bor, shuni ola keting, o'zingizga... Lekin shu ot qolsin menda, a?

Egamberdi chaynayotgan nonini yutmay: "E, bir sigirli bo'laman-ku?"— deb o'yladi va govmish sigirga egalik qilish hissi

uning qorabayirga bo'lgan ishqini susaytirdi. Shundan keyin u jiddiy tus oldi:

— Bu poraxo'rlik-ku, davlatni aldash-ku?

— Bilaman, — dedi muallim nochorlik bilan. — Bilaman... Lekin sizning ko'nglingizni olay deyman-da. Bu... sizga bog'liq-ku? Mayli, men uch-to'rt yilgacha otni rayonga yo'latmayman, hov tog'ga, tanishlarning qo'liga berib qo'yaman, o'sha yoqda tursayam ko'nglim to'q.

Egamberdi manglayini changalladi: "Hozir sigirning ustiga o'n besh qo'y ber desam ham beradi!" — deb ko'nglidan o'tkazdi.

— Xo'p, lekin oting yoningda qoladi, deb va'da berolmayman, bironta katta payqab qolsa, o'zing javob berasan! — dedi.

Egamberdi kosani yalab, turdi.

— Men anavi qirning ortidagi Eshmat podachining uyida bo'laman, qosh qoraygandan keyin... sigirni yetaklab o't. Cholga berib qo'ysang, o'zi podasining ichida boqib yuraveradi. Lekin shu gap shu yerda qolsin, — dedi. So'ng tahdid bilan davom etdi: — Birovdan shu gapni eshitsam, Inodboy, bilib qo'y, ayb o'zingga tushadi. Organning odamini yo'ldan urmoqchi bo'lgan deyishadi seni. Men uni sinagan edim, qancha shaxsiy moli borligini bilmoqchi bo'lgan edim, deyman... Menga ishonishadi.

— To'g'ri gapingiz, — dedi Inod.

Egamberdi ketgandan keyin qorabayirga egalik qilish istagi unga yana tinchlik bermadi, hafta o'tkazib, xafaqon bir kayfiyatda tag'in to'rig'ini yo'rttirib, Inodning chorbog'ida paydo bo'ldi.

— Bu ishimiz o'tmadi, jo'ra, — dedi u Inodga. — Senda ot borligini rayonning yetti yasharidan yetmish yasharigacha bilarkan. O'lgan desam ham ishonishmadi. Yashirgan, topib keling... bo'lmasam, ishga sovuqqonlik bilan qaragan, deb o'zingizni javobgarlikka tortamiz, deyishdi. Mana, keldim.

— Yana bir marta yo'q deb yuboring, — dedi Inod.— O'n bosh qo'yim bor, shuyam sizniki... Otni bersam, kunim qattiq bo'ladi, Egamberdi. Otamdan yodgorlik. Er yigitning oti bo'lishi kerak, der edilar. Shu ot... mening og'ir kunimga yaradi.

Egamberdi yana manglayini ushladi, qo'ylarni o'ziniki qilganidan keyin ham yana ot xumoriga tushib kelishini his etdi va:

— Yo‘q endi, jo‘rajon! — dedi. — Shu sigiringni olganimdan beri ko‘nglim qora. Xohlasang, borib podachidan qaytib ol.

— Shundaymi?

— Ha! — dedi Egamberdi va ko‘ngliga g‘ashlik tushib, uning nima qilishini kutdi.

Inod yirik gavdasini og‘ir burib, uyi orqasiga o‘tib ketdi. Archazor yonbag‘ridagi qo‘riqda boyloq turgan qorabayirni yetaklab keldi. Uni o‘rik ostida qaqqaygan Egamberdi yonida to‘xtatib, qashqali peshonasidan o‘pdi-da, bedapoyaning o‘rtasiga olib borib, tizgini uchini tikanga bog‘ladi, uyga qaytdi.

Egamberdiga Inodning harakatlari juda sirli ko‘rinib, ko‘ngliga vahima tushdi. “Nima qilmoqchi o‘zi u?” — deb orqasidan qarab qoldi. So‘ng ko‘m-ko‘k yo‘ng‘ichqazorda suvsardek yaltillab, odatdagi otlarnikidan yo‘g‘on bo‘ynini gajak qilib, odatdagi arg‘umoqlarnikidan keng o‘mrovini kerib va odatdagi chopqir otlarnikidan ingichka oyoqlarini yerga qattiq tirab turgan qorabayirga qaradi. Uning ko‘zlariga ko‘zi tushib, eti jimirlab ketdi.

Ot xuddi dahshatli bir xavfni sezgandek olayib, egasi kirib ketgan uyga qarar, hayratda qotgan antiqa haykalga o‘xshar edi. “Yopiray!” — dedi Egamberdi va xona eshigida Inodning qorasini ko‘rdi. Ot birdan titroq tovushda kishnab yubordi.

Shunda uy eshigidan otilgan miltiqning tutuni cho‘zilib chiqdi, arg‘umoq balandga sapchishi hamon o‘q ovozi eshitildi. Nihoyat, eshikdan qo‘lida miltiq tutgan Inod chiqdi. Qorabayir yonboshlab yotib oyoqlarini silkir, qisqa-qisqa kishnar edi, Egamberdi o‘q uning peshonasiga tekkani, qon u yerdan tirqirab chiqayotganini ko‘rdi-yu, ham dahshat, ham achinish bilan ko‘zlarini yumdi.

Inod miltiqni sholchaga tashlab, supa labiga o‘tirdi.

“Buning avzoyi buzuq”, deb ko‘nglidan kechirdi Egamberdi Xudoyberdiyev va miltiqqa nazar tashladi: bir tig‘li. “U o‘q chiqarib joylaguncha ancha yerga borib olaman”, deb o‘yladi... Yigitning karaxt gavdasiga bir qarab olib, to‘rig‘ini yechdi, o‘zini egar ustiga olishi bilan bu manzaradan yuragi yorilgudek bo‘lib turgan ot uni olib qochayotgandek yugura ketdi.

“Meni qamashadimi?!” — loqayd o‘yladi Inod otliq orqasidan qarab va bu o‘yi kor qilmay, ustunga suyandi. Qorabayir

xirillar, hamon ingichka oyoqlarini silkir, issiq qon hidi atrofga yoyilgan edi.

Ot jimib qolgandan keyin Inod uning boshiga bordi va birdan uning bo'ynidan quchoqlab, ko'zlarini yumdi. Ot badani sovidi. Inod o'rnidan turdi: qarshisidagi archali tog'lar ham, chorbog'i, daraxtlari ham, anavi soy-u olisda oqarib turgan maktabi ham ma'nosini yo'qotgan, yigitning ko'zlari loqayd boqardi. U tag'in ot boshida cho'nqaydi-yu, qishloq yoqasidagi qabristonning oq yalovi, tug' uchidagi qo'chqor shoxini ko'rdi. Beixtiyor ot tizgini bilan uning oyoqlarini kulliklab,[1] bilagiga soldi. Yonboshiga yiqilgudek mayishib sudray boshladi. Qabristonga yetib, jigarlari go'ri yonida otni qoldirib qaytdi. Ketmon olib borib, yorma go'r qazidi va qorabayirni tushirib ko'mdi.

So'ng kechgacha shu yerda o'tirdi, otasi va bola-chaqasining ham ruhiga tilovat qilgan bo'ldi. Keyin uyga qaytib, eshiklarini qulfladi-da, soyga tushib bordi.

Uning yoqasi bilan yurib, qosh qorayganda suv oqib chiqayotgan bog' betiga yetdi. O'tirdi. Oy chiqib, olisda qolgan qishloqni-yu tepadagi maktabni ravshan yoritdi. Shunda Inod bosh olib ketib, qayerda ham yashashi mumkinligi haqida o'ylab qoldi.

Inod bir necha oydan keyin Egamberdining o'shandagi niyati nima ekanligini payqadi. Lekin bu vaqtda uning ko'nglida qolgan ikki sevgilisi — qishlog'i-yu maktabi yana tomir otib ulgurgan edi.

1971

[1] **Kulliklab** — juft qilib bog'lab.

ZOV OSTIDA ADASHUV

(Do'stimning o'g'liga aytganlari)

O'shanda yetti yoshlarda edim. Tog'da yashardik. Otam cho'pon, onam sut sog'uvchi. Bitta singlim ham bor. O'tovimiz Zovboshidan besh-olti chaqirim naridagi kungay betda edi. Biz bu yerga yozning boshlarida chiqib kelardik: ko'chlarimiz aravaga ortilgan, onam, singlim va men yuklar ustida o'tirardik. Otamiz aravaga qo'shilgan otni yetaklab borardi. U aravani bizda ot arava deydilar, keyin bilsam, boshqa nomi — qo'qon arava ekan... Shunday qilib, ko'ngay betda kuzning boshigacha yashardik. Otamning cho'pon-cho'liqlari ham bor edi, otam shular bilan ikki suruv qo'yni boqishar, onam qo'ylarni sog'ib, sutini separatordan o'tkazar, qatiq qilar, men bo'lsam, qo'zichoqlarning ketidan chopqillab yurib, onasiga emdirish payti kelganda ko'maklashar, keyin ularni ikki qoziqqa uchlaridan bog'langan ipdagi halqalarga boshini solib, ya'ni ko'ganlab yurardim. Otam ham, onam ham menga ko'z-quloq bo'lishar, ayniqsa Zovboshi tomonga boraman desam, aslo yo'l qo'yishmas edi. Chunki Zovboshi xavfli joy, har xil yovvoyi hayvonlari bor, changalzorlari mo'l. Men buni uyimizdagi gaplardan ko'p eshitgan edim. Goho bironta echkining ortidan bir-ikkita qo'y ergashib zovostiga tushib ketgan bo'lsa, cho'liqlar uni izlamayoq qo'l siltab qo'yishar edi. Chunki u yerda bo'rilar ham ko'p bo'lar emish. Bir kuni otam: "Zovostiga ikki polvon tushib ketdi", deganini ham eshitganman. Polvon degani ayiq degani. Bitta cho'pon: "Arg'amchiyam bor ekan, ko'p chirilladi", degandi. Arg'amchi — ilon degani. Nima uchundir tog'da ko'p hayvonlarni, jonivorlarni o'z nomlari bilan atashmaydi. Masalan, bo'rini ham jondor deyishadi.

Xullas, Zovboshiga borishimni taqiqlab qo'yishgandi uydagilar. Odam degani qiziq bo'larkan: nimani taqiqlashsa, shuni ko'rging kelar ekan. Men ham Zovboshini ko'rgim kelar, lekin odobli bola bo'lganimdan, ota-onamning gapidan chiqmas edim.

Buning ustiga, otam— orden olgan cho'pon. Shunday odamning o'g'li beboshlik qilsa yaxshimas-da!

Lekin kuz kunlarining birida o'z ixtiyorim bilan emas, sharoitning taqozosi bilan, beixtiyor, Zovostiga kirib qoldim. Naq bir kecha-kunduz u yerda adashib yurdim. Shuni sizga hikoya qilib bermoqchiman.

Kuz kirib, tog' cho'qqilarini qor bosdi. Uyoqdan esgan sovuq shamol o'tovimiz chang'arog'idagi kigizni hilpiratar, shunda o'tov zir-zir titrar, shamol keragalar orasidan ichkariga kirsa, uy o'rtasida yashnab turgan cho'g'imizni ham yalab o'chirib ketardi. O'tovni ko'rgan bo'lsangiz, u shunday bo'ladi: tepasi ochiq, tuynuk misoli. Shu tuynukka chang'aroq o'rnatilgan. Chang'aroq degani — gumbaz shaklida qilib xodalardan yasalgan panjara. Shu panjaraning ustini bir parcha kigiz yopib turadi. U kigizning bir uchiga chilvir bog'langan bo'lib, chilvirning ikkinchi uchi eshikning biron yeriga o'rab qo'yiladi. Havo ochiq kunlari va uy o'rtasidagi o'choqqa o't yoqilganda, ana o'sha ipning yordamida tuynuk ochiladi. O'tovni ko'tarib turgan qiyshiq, yovvoyi tol shoxlarini uvuq deyishadi. Shu uvuqlar keragaga mahkamlangan bo'ladi. Keraga degani — bir-bir yarim metr balandlikdagi shaxmatnusxa qilib yasalgan o'tovning poydevoridir. Keragalarning uchlari bir-biriga yaqinlashgan joy — eshik. Bu ma'lumotlarni aytishimga sabab shuki, ko'p shaharliklar bularni bilishmaydi. Axir, bilgani yaxshi-da.

Qisqasini aytganda, tog'dan bizga qishning yaqinlashganidan xabar beruvchi shamol esa boshladi. Bir kechasi sevalab yomg'ir yog'ib o'tdi. Ertalab otamiz:

— Kampir, uyni buz, ko'chamiz cho'lga! — dedilar onamga.

Shuni ham aytishim kerakki, o'tovni tiklash va buzish faqat ayollarga tan, qadim-qadim zamonlardan shunday. Ular bu ishning piri bo'lib kelgan, juda o'rinlatishadi.

Lekin shoshilish kerak edi, cho'pon-cho'liqlar ham yordamga keldi, men ham qarab turmadim. Birpasda o'tovni o'ragan kigizlarni tushirdik, uyning yog'ochdan tiklangan tanasi qaqqayib qoldi. Keyin ularning ham chandilgan iplarini yechib, ayirib ola boshladik. Tushga qolmay, yukimiz ot aravaga ortildi.

Bir piyoladan choy, bir kosadan qatiq ichdik-da, yo'lga tushdik. Cho'pon-cho'liqlar mollarni oldin haydashdi. Biz orqada — har galgiday bu gal ham men, singlim, onam yuklar ustida o'tiribmiz. Otam piyoda, otning yugani uchiga bog'langan tizimchadan ushlab ketyapti. Tekis joylar kelganda, otga minib ham oladilar.

Xayr, tog'! Xayr, yurtimiz. O'rmonlar, xayr! Qo'zi boqib, ir-g'ishlab yurgan o'tloqlarim, xayr! Yanagi yozgacha xayr sizlarga!

Nima uchun cho'lga ketyapmiz? Shuning uchunki, cho'lda hozir havo iliq, qishning yarmigacha ham o't bo'ladi. Bu paytga kelib, tog'ni qalin qor qoplab oladi. Cho'lda ham yurtimiz bor. Yurtimizga yaqin yerda sovxozning atrofi chipta devor bilan o'rab qo'yilgan qo'tonlari ko'p.

Quyosh chiqib turgan bo'lsa ham, nuri ojiz edi. Yelkamizni isitmas, lekin yoqimli edi. O'rmon ichidan ketgan yo'lda boryapmiz. Bu — aralash o'rmon, ya'ni turli-tuman mevali va mevasiz daraxtlari ko'p bo'lgan o'rmon. Archa ham serob. Qarang, haqiqatan ham kuz tushib qolgan. O'riklarning yaprog'i qizil, qontalash. Xuddi birov ular shoxiga bir satil qizil bo'yoqni sepib tashlaganday. Pastga egilgan yaproqlari sariq ipakday mayin. Ko'zga shunday jozibali ko'rinadiki, uzib-uzib, g'arch-g'urch tishlaging keladi. Onda-sonda, goh o'ng, goh so'l tomonimizdan kaklik sayrab qoladi. Unga qo'shilib yonimdagi qafasda turgan kakligimiz ham sayraydi. Men quvonaman, kaklikka taqlid qilgim keladi. Hakkalar ko'p, ular daraxtlarning chakalak shoxlari orasida tipirchilab, yaproqlarni uchirib yurishadi. Xuddi bizni izma-iz ta'qib etib borayotganday, goho shoshib chiqib, g'oq-g'oq deganicha uchadi. Tog'da yashaganingdan keyin tabiatning ko'p sirlarini bilib olarkansan... Hoziroq sizga aytib qo'yay, agar u sirlardan bexabar bo'lganimda, kim biladi, Zovostidan qaytib chiqolmay, anavi yo'qolgan qo'ylarning ahvoliga tusharmidim! Masalan, hakkani bizda ayg'oqchi qush deyilar. U boshqa jondorlarni xavf kelayotganidan xabardor qilib turadi. Lekin, biz xavfli dushman emasmiz, shunday bo'lsa ham, u ovozini baland qo'yib uchgani-uchgan. Nima ham deysiz? Qush. U bizning ko'nglimizni qayerdan bilsin? Kakliklarga qiron keltiruvchi ovchilar deb o'ylayapti-da. Mayli, o'ylayversin, uning ishi.

Bu o'rmondan chiqib, jar yoqalab keta boshladik. Oyog'imiz ostida darz ketgan mallarang tovalar. Arava taqir-tuqur qiladi. Yo'lda donlab yurgan malla to'rg'aylar childirab uchadi. O'ng tomonimizda o'rmon cho'zilgan. Chap tomonimiz... chap tomonimiz bir-ikki terak bo'yi pastlik. Uyoqqa qaramaslikka harakat qilaman. Qarasam, boshim aylanib, dumalab ketadiganday bo'laman. Lekin baribir ko'z qirimni tashladim. Shunda pastlikdagi yengil tuman bosib yotgan o'rmonlarni ko'rdim, o'rmonlar adog'i juda uzoqda, uyoqdagi tog' etagiga tutashgan, tog' esa quyidagi jarlikni otning taqasidek o'rab olgan. Shunda birdan Zovboshida ketayotganimizni payqadim. Zovboshi... bu so'z ham tog'liklarga xos so'zdir. Zov degani — xuddi biz yurib borayotgan yo'l bo'lsa kerak. Zovosti-chi? Anavi ko'z zo'rg'a ilg'aydigan pastlik, undagi changalzorlar bo'lsa kerak.

— Ota, ota! Zovboshi shumi? — deb baqirdim.

Onam nimagadir mening tizzamga turtib qo'ydi. Singlim ham:

— Qani? Shumi? Viy, muncha chuqur! — dedi.

Otam juda gavdali, og'ir, kamgap odam. Egnida chakmon, oyog'ida kirza etik. Chakmonning ustidan ikkita belbog' bog'lab olgan. Boshida telpak. Yozda ham, qishda ham telpakni yechmaydilar, issiq kiyinib yuradilar... Otam gapimni eshitdi: yelkasi osha bir qaradi-da:

— Ha! — deb to'ng'illab qo'ydi, so'ng otni Zovdan chetlatib hayday boshladi.

Yo'l nishob edi. Tushib ketyapmiz. Goho otning tuyog'i silliq toshda sirg'alib ketadi. Otam to'ng'illab, uni to'g'ri yo'lga soladi. Onam bir qo'li bilan singlimning, bir qo'li bilan mening bilagimdan mahkam ushlab olgan.

Zovboshi... biz pastga tushganimiz sari zov ham pasaya boshladi.

* * *

Etakka tushib, yana yalpi archazor oralab ketdik. Bu yerlar juda ham nam ekan. Chamamda, Zovboshida yog'gan yomg'ir suvi shu qadar tiniq, uning xushbo'y hidi shu qadar anqiydiki, entikib ketasan kishi! Yo'q, men bunaqangi kuzni ilgari ko'rma-

ganman. Ko'rgan bo'lsam ham, qadriga yetmaganman, chunki yosh bo'lganman-da. Hozir maktab yoshidagi bolaman. Demak, esliman! Bu o'rmonning ham etak tarafini tuman qoplab olgan ekan. Qayerdan paydo bo'lgan bu tuman? Bilmayman. Balki Zovostidan oqib kelgandir. Tumanga kirdik, buning ham o'z gashti bo'lar ekan. Xuddi tushdagi, ertakdagi bir makonga kirib borayotgandek sezasan o'zingni. Oqish tuman yelkalaringni, boshingni silab o'tadi. Hayratlanasan. Yana nimagadir qo'rqasan.

— O'ranib o'tiringlar, nam tortasiz, — dedi otam. Bu gap ham men uchun yangilik bo'ldi, demak, tumanda kishi nam tortar ekan. Choponimga o'ranib, qalpog'imni bostirib oldim. Onam singlimni bag'riga tortdi. Juda baland archalar orasidan chiqib, rezgi archalar orasidan yurayotganimizda, bir ariqqa duch keldik. Bu ariq ham emas, suv urib ketgan arna edi. Otam otni uyoqqa haydadi, buyoqqa haydadi. Yo'l yo'q. Arnasi tushmagur yo'limizni naq ko'ndalang kesib o'tgan. Oxiri arna qirg'oqlari pasaygan joyni topdilar-da, otni shitob bilan haydadilar. Ot tipirchilab pastga tushdi va uning oldingi oyoqlari tizzasigacha loyga botib ketganini ko'rdim. Otam, chamamda, otni tislantirmoqchi bo'lib, yuganni silkitdilar. Lekin ot buni tushunmadimi, olg'a sakradi. Yana sakradi va narigi betga chiqib oldi-yu, aravani odam bo'yi g'ildiraklari loyga botib qoldi. Ot jonivor kuchanib olg'a intiladi. Arava silkinadi. G'ildirak jilgan bo'ladi-yu, yana chuqurroq botadi. Otam egarga chiqib, u betga sakrab o'tib oldilar. Keyin yuganni tortib:

— Hay! Cho', cho'! — deb hayqira boshladilar.

Qani arava jilsa! Ot zo'riqib intiladi, uning ko'kragidan o'tqazilib, arava biqinlariga bog'langan ayili uzilgudek bo'ladi. Oxiri otam g'azab bilan loyga tushdilar. Aravaning bir g'ildiragiga yelkalarini tirab, otga madad berib, yana:

— Cho'! Cho', jonivor! Ha! — deya boshladilar.

Oxiri bundan ham natija chiqmasligi ma'lum bo'ldi. Onam:

— Qo'ying, otasi. O'zingizni ko'p urintirmang! Biz tushaylik, arava yengil bo'ladi, — dedilar.

Onam bir amallab tushib oldilar. Keyin otam men bilan singlimni ko'tarib, sohilga opchiqib qo'ydilar. Aravaga bir balo bo'lganmi? Shundan keyin ham chiqmasa bo'ladimi!

— Yuklarniyam tushiraylik! — dedilar onam.

— E, tushirib o'tiramizmi, — dedi otam. — Men picha shox-shabba kesib kelay, g'ildirak ostiga tashlasak, shoyad chiqib ketsa!

Shunday deb otam aravadan belkurak bilan boltani sug'urib oldilar. Belkurakni yerga sanchib qo'yib, boltani ko'targancha o'rmonga kirib ketdilar. Biz sohilda junjikib qoldik. Bu yerda kaklikларning ham ovozi eshitilmas, o'zimizning kaklik ham qafasda hurpayib olgan edi. Menimcha, namgarchilikda kaklik sayramasa kerak. Oradan sal vaqt o'tmay, tuman qoplagan o'rmondan boltaning gup-gup ovozi eshitila boshladi.

— Ena, men ham boray, qarashaman, — dedim.

— Yo'q, jilma! Bu yerda adashib ketasan, — dedilar onam.

Men nari-beriga yurib, g'ildiraklariga qarayman. Naq yarmi botib ketgan-a! Ot jonivor zo'riqqanidan ko'zlarini olaytirib pishqirib qo'yadi, ko'kragidan va sonidan aylanib o'tgan tasmalar tagi ter bo'libdi. Pishqiradi, chuqur-chuqur nafas oladi. Singlim qo'rqoq, onamning bilagidan ushlab olgan.

— Ena, qopketsak-a? — deydi.

— Nafasingni o'chir! — deydi onam.

Men, ota-onam ishlayotganda tek turib o'rganmagandim. Albatta otamga yordamga borishim kerak, deb ahd qildim. Qanday yordam beraman? Hozir izlari bilan boraman... Shox ko'tarishib kelaman... Keyin, yo'lda otam meni maqtaydi, onam ham yelkamni silab qo'yadi. Hamma vaqt shunday bo'lgan.

— Xo'p, bormasam bormadim! — dedim-da, bir muddat cho'nqayib o'tirdim. Tuman qoplagan o'rmon sokin, shunday sirli ediki, go'yo o'n qadam yursam, bu tumandan chiqaman-u, buning sirini ham bilib olaman. — Uf, — deb turdim-da, yura boshladim.

Keyin otamning iziga tushdim va birdan chopgan edim, onam baqirdi. U kishi quvadi, ushlab oladi, deb chapga burildim, keyin o'ngga burildim, keyin to'g'riga qarab yugurdim va bitta rezgi archaning qoshiga yetib to'xtadim. Qarasam, onam yo'q... Ha, zo'rman! Qutulib ketibman, deb o'yladim. Xo'sh, otam qayerda? Tek turib quloq soldim. Shundoq yonginamdan boltaning taq-tuq ovozi kelardi. Jo'nab qoldim. Novcha archa ostidan o'tdim. Kat-

takon qoya dumalab yotgan ekan, uni ham aylanib o'tdim. Kichkina yalanglikka chiqdim. Otam qani? E, boltaning tovushi mana buyoqdan kelyapti-ku? Shu yoqqa qarab yurdim Aralash bo'lib o'sgan daraxtzorga kirdim...

Nima qilayki, men shu yerda adashdim. Keyin bilsam, boltaning ovozi meni aldagan ekan. U o'rmonda aks sado berib, har tarafdan eshitilayotgan ekan. Men gangib yuraverib, chopaverib, naq Zovostiga kiradigan yerga borib qolgan ekanman.

* * *

Endi boltaning ovozini ham eshitmasdim. Ota-onam, singlim va aravamizni ham izlay-izlay charchagan, adashganimga iqror bo'lib, ularning ketib qolishganiga ham ishonar edim... Nima qilishim kerak? Atrofga qarayman. Yonginamda ikki odam bo'yi qoya turibdi. Uning tepasidan suv sizib tushyapti. O'sha yerda mitti buloq bo'lsa kerakki, suvning yo'lida maysalar o'sgan. Odatda shunday bo'ladi: hamisha suv oqib turadigan ariqdagi toshlarni ham zuluksimon maysalar qoplab oladi. Unda toshlarga oyoq qo'yish ham xavfli, sirg'alib ketadi kishi. Nima qilish kerak? Alanglayman. Sal narida ayri archa o'sgan, tanasi bitta-yu, bir qarich ko'tarilgach, bo'linib ketgan. Uning chakalaklari shu qadar tig'izki, qush ham uchib kira olmasa kerak. Qiziq: archaning quyi shoxlarida bittayam yaproq yo'q, hammasi to'kilib ketgan. Ana, tagida ko'rpa bo'lib yotibdi. U yerga borgim keldi, lekin yuragim dov bermadi. Men, hamon ota-onam bilan ko'rishishga umid qilar, ular meni izlab topishlariga ko'z tutar edim. Shuning uchun ularni chaqira-chaqira xirillab qolgan tomog'imni yana ishga solmoqchi bo'ldim. Biroq endi nimadandir qo'rqdim. Ovozimni chiqarmasligim kerak deb o'yladim.

Shunisi qiziqki, biz hali Zovboshidan o'tgan bo'lsak ham, men hozir naq shuning og'zida turganimni o'ylamas, o'zimni o'rmonda adashgan, uning qayeridadir qaqqayib qolgan deb o'ylar edim.

Nima qilish kerak? Jim o'tiraversam o'tiraveraman. Yig'lagandan ham foyda yo'q. Aqlni ishlatish kerak. Xo'sh, nima qildim endi? Nima qilib bo'lsa ham odam yurgan so'qmoqni topishim kerak. So'qmoqni topib, shu yo'l bilan ketsam, albatta bir "yurt"-

ga borib qolaman. Tog'da "yurt" deganda cho'ponlar qo'nadigan, o'tov tikadigan yerni ham tushunishadi.

Ehtiyotkorlik bilan atrofimni ko'zdan kechirdim, yerga tikilib, nari-beri yurdim. O'z izlarimni ko'rdim. Yo'q, bu izlardan ketmayman... Menga so'qmoq kerak!

Qoyaning tagidan o'tgan edim, ne ko'z bilan ko'rayki, ro'paramda uzungina yolg'izoyoq so'qmoq cho'zilib yotibdi! Irg'ib shu yo'lga tushib oldim. Qiziq, tuprog'i oq bo'lsayam loy ekan-a. Nega buning tuprog'i oq? Ha-a, so'qmoq yoqalab ketgan qoyalarning tagi oq ekan, shundan uvalanib to'kilgan. Qaniydi biron odamning izini ko'rsam, shunda bu so'qmoqdan odam yurganiga ishonardim. Axir, bu hayvonlar yuradigan so'qmoq bo'lishi ham mumkin-da! Ajabo! Omad deganlari shu-da! Besh-olti qadam bosgan edim, so'qmoqning nishabiga sirg'alib tushgan kattakon etik izini ko'rdim. O'! Maza! Bu yerdan odam o'tgan, kim bo'lsayam odam o'tgan! Nega uning izi nishabda qolgan? Nima balo, u nishabga tushib ketganmi? Yo'q, nishabga tushmagan bo'lsa kerak: shu yo'ldan ketgan-u, bundagi izlarini uvalanib tushgan tuproq bekitgan bo'lsa kerak... Shunga qaramay, men nishablikni ko'zdan kechirdim. So'ng yana uch-to'rt qadam qo'ygan edim, yana nishabga sirpangan izni ko'rdim. Bo'ldi! Ovchi yurgan. O'shanda so'qmoq nam bo'lgan. Shuning uchun oyog'i sirpangan! Buyoqdagi izini uvalangan tuproq bekitgan, nishabdagi izlari qolgan.

Yuryapman-u, notanish odamning qayoqqa borgani meni qiziqtiraverdi. Agar ovchi bo'lsa, biron kamarga boradi. Kamarlar odatda tog'ning belida, shamoldan pana, atrof yaxshi ko'rinadigan yerda bo'ladi. Agar "yurt"ga borgan bo'lsa, bo'ldi! Tog'da otamni tanimaydigan odam yo'q. "Ollomurod cho'ponning bolasiman!" desam, bas. Darrov bir hamrohga qo'shib, otga mingazadi. Qarabsizki, cho'lga ketib boryapmiz-da!

Bir mahal yo'l kengayib ketdi. Shunda tepaga qarab, do'ppim tushgudek bo'ldim. Men yoqalab kelayotgan qoyalar juda balandga ko'tarilib ketganday edi. Shunda qandaydir daraning sohili ostidan ketayotganimni payqadim. "Zovboshi!" degan so'z yodimga tushdi-yu, bunga ishongim kelmadi. Bu so'zni tezroq miyamdan chiqarib tashlab, yana orqaga qaytmoqchi bo'ldim. Biroq, qa-

rasam, pastni qoplab yotgan tuman qorayganday. Osmonga qaradim: och-tund rangda.

Obbo! Kech tushib qolibdi-ku? Axir, uydan chiqqanimizda peshindan o'tgan edi. Nima qildim? Qorong'iga qolmay, odamlarga yetay! Endi so'qmoqdan chopqillab keta boshladim. Sezib qoldimki, so'qmoq pastlab boryapti. Bu pastlagani sari dara sohili ham ko'tarilib ketyapti... Yuragimga birdan vahima kirdi-yu, darrov o'zimni to'xtatib oldim. Sevinib ketdim, axir, "yurt" degani ham suvdan uzoqda bo'ladimi? Suv-chi? Suv pastlikda bo'ladi-da! E, kallavaram!.. Endi chopa boshladim.

* * *

Qosh qoraydi shekilli... Yorug'dan chiqqanimda, balki hozir atrof qorong'i bo'lib ko'rinarmidi? So'qmoq birdan ikkiga bo'lindi-yu, biri sohil yoqalab ketganini, biri pakar archalarni aylanib o'tib, pastlikka ketganini ko'rdim. Hayallamay ikkinchi so'qmoqqa tushdim.

Biroz yurgan edim, badanim junjika boshladi. Ha-a, suvga yaqinlashyapman-da shuning uchun sovqotyapman. Suv urib ketgan joydan o'tib, shoxlari kesilgan archaga duch keldim — quvonib ketdim. Demak, buni odamlar kesgan. Shu yerda uy bor!

Shunda qulog'imga suvning sharillab to'kilayotgani eshitildi. Ho', ish degani mundoq bo'pti-da! Choponimning barini belbog'imga qistirib olib, o'n qadamcha bosgan edim, qarasam, jildirab suv oqayotgan ariq bo'yiga yetibman. Uning narigi betida kichkina bir uycha turibdi! Uychaning ayvoni ham bor, supasi ham.

— Hov, amaki! — deb chaqirganimni bilmay qoldim. Birdan tislanib, boyagi shoxi kesilgan archaga yetdim, tirmashib beliga chiqib oldim.

Siz cho'ponlarning itini bilasizmi? "Eshakday iti bor ekan", deyishadi bizda. Ana shunday ko'ppaklar cho'ponda bo'ladi! Ularning qo'riqchilari shu-da! Bo'rilarning jazosini beradigan azroillari ham shu! Cho'pon uchun olamda itdan qadrli mahluq bo'lmasa kerak! Kezi kelganda o'zlari yemay, ovqatini shu itiga beradi. Men begonaman! Hozir chopib chiqsa nima qilaman!

G'ajib tashlaydi meni! Archaning shoxida o'rnashib olib, yana chaqirdim:

— Hov, yurt egasi! Ho, boy bobo! Amaki!

It ham hurib chiqmadi, uy egasi ham ko'rinmadi. Hayron bo'ldim; biron yoqqa ketishganmi? E kalla! Hozir tog'da cho'pon qoldimi axir? Ko'chgan-da cho'l qayerdasan deb!

Archadan sekingina pastga tushdim. Ikkilanib ariq bo'yiga yetdim. Ariq suvi kattagina xarsangdan burilib tushayotgan ekan. Shu joyi sharillayapti. Gangib uyga qarayman, suvga qarayman, orqamga qarayman. Xo'rsinib, cho'nqaydim-u suv sharillab to'kilayotgan chuqurga qarab, undagi suv ustini o'rgimchak to'rlari o'rab olganini ko'rdim. Etlarim jimirlab ketdi. Suvning yuzini o'rgimchak o'rab olibdimi, demak bu yerdan mol-pol suv ichmagan yaqin orada.

Men nuqul cho'ponlar o'tovda, kapada yashaydi derdim. Rost. Lekin hamma vaqt bir xil yaylovda keladigan cho'ponlar ba'zan mana shunday uychalar ham yasab qo'yishadi. Suv yaqin, loy qilish oson. Yaylovda bunday uylarni uchratish mahol. Keyin, bunday uylarning bir hikmati bor: cho'pon o'tovini buzganda, "yurt"da hech narsa qoldirmaydi. Bunday uydan ko'chganda, oshiqcha narsalarini tashlab ketaveradi... Men o'g'rilik degan gapni keyinchalik eshitganman: tog'da tulki ko'p, shu haqda aytishar edi: "Anavi xolaning xo'rozini o'g'irlab ketibdi. Kapasiga kirib, cho'pqaymog'ini o'g'irlab ketibdi!"

* * *

Ariqdan hatlab uyga yaqin bordim. Shunda yana qo'rqib to'xtadim: bu kimsasiz uy, uning biqinida yoki takxonasida nima yo'q deysiz? Lekin qarshimda odamlar yashagan uyning turishi menga madad bo'ldi: har holda bu kimsasiz, yovvoyi, o'rmonli darada bunday qo'noqning bo'lishi ko'p yaxshi-da!.. Har ehtimolga qarshi deb, yerni timirskiladim. Katta bir tosh qo'limga ilindi. Uni olib, supaga sakrab chiqqan edim, o'choq boshida menga o'qrayib qarab turgan qop-qora, junlari hurpaygan maxluqqa ko'zim tushdi. Nima bu? U battar hurpaydi va "m-iyav", deb ovoz chiqardi. So'ng dik-dik sakrab, supa labiga yetdi-da, o'zini pastga

tashlab g'oyib bo'ldi... Yopiray! Bunday katta mushukni birinchi ko'rishim edi. O'tgan yili yaylovga kelayotganda, yo'lda bir cho'ponning karvoniga yetgan edik. Shunda bitta sariq mushukni ko'rgan edim, juni naq yerga tegib turardi. Nimaga bunday deb so'rasam, "otasi tulki, onasi mushuk" deyishgandi. Keyin buning sirini bilib olgandim, goho cho'ponlar o'zlari oshiqcha deb bilgan mushuklarini va molga yaroqsiz bo'lib qolgan itlarini tashlab ketishadi. Shunda agar mushukni biron jondor yeb ketmasa, u o'z qavmiga yaqin biron hayvon bilan topishadi. Munaqa sariq mushuklar o'shalardan tarqaladi.

Xullas, qora baroq mushuk g'oyib bo'ldi. Men bu mushukni odatdagi mushuklardan emasligini bildim va o'zimga "ehtiyotkor bo'l" deb, bir-ikki qadam bosdim. Toshni pastga tashlab, oyog'imning loyini supa chetiga qoqdim...".

* * *

Qorong'i tushib qolgan, yigirma qadam naridagi qora narsaning nimaligini ko'ra olmas edim. Biroq, unga tikilib, qoramolning tappisi — go'ng ekanini fahmladim. So'ng o'zim tushib kelgan so'qmoqqa qaradim, uning shoxi kesilgan yalang'och archagacha bo'lgan bo'lagini ko'rdim, xolos. Qarasam, tomning tepasidan oppoq tuman meni o'rab oladiganday tushib kelyapti. U xuddi bulutga o'xshaydi. Juda chiroyli edi! Hatto xursand ham bo'ldim. Biroq shu onning o'zida meni yana vahima bosdi va ruhim tushdi: ana xolos! Odamlar yo'q, bu tashlandiq kulba!.. Endi nima qilaman? Shu haqda o'ylab, nima qilib bo'lsa ham bu tunni shu yerda o'tkazishdan boshqa choram yo'qligiga aqlim yetdi. Erta nima bo'ladi? Uni ertangi kun ko'rsatadi! Nahotki ertagayam darani tuman bosib yotsa... Dara, dedim-u, etim jimirlab, ko'nglim bu joyning Zovosti ekanini aytib turar, lekin men bu fikrga o'zimni ko'niktirgim kelmas edi.

Xo'sh, ish boshladim bo'lmasam!

* * *

Bunday mahalda qiladigan birinchi ishing — o't yoqish bo'ladi. Nima uchun? Bilmayman... Hozir kun sovuq emas. Terlaga-

nimdanmi, badanim ham issiqqina edi. Lekin nuqul o't yoqqim kelar edi. Buning sababi shunga o'rganganimda bo'lsa kerak. Chunki oqshom tushdimi, bas, o'tovimiz yonidagi katta o'choqda o't lovillar, goho uning cho'g'i uyga kiritilib, o'rtadagi yero'choqqa to'kilar, biz uning atrofida qur tutib o'tirishardik... Aytmoqchi, bilaman-ku: olamda insondan zo'r narsa yo'q! Hamma jonivorlar insondan qo'rqadi. Men ham insonman. Bundan tashqari, insonning qo'lidan o't yoqish keladi. Hayvonlar esa o'tdan qochadi. Demak, tezda o't yoqsam, xavf-xatardan ham qutulaman. Ana gap qayerda!.. Men shosha-pisha cho'p-cho'pchak izlashga tushdim. Ayvonda xas ham yo'q edi. Supadan sakrab tushgandim, eshigi ochiq takxonada qalanib yotgan shuvoqqa ko'zim tushdi. Apil-tapil ichkariga kirdim-u, bir qo'ltiq shuvoqni ko'tarib qochib chiqdim. Go'yo takxonada bir hayvon, hech bo'lmasa, anavi yarim mushuk pusib yotibdi, orqamdan chovut soladi!

Supaga chiqib, shuvoqni o'choq boshiga eltib qo'ydim. Xo'sh, endi yondirish kerak. E, gugurt qani! Bu uyda yashagan odamlardan aylansang arziydi! Shundoq devordagi mixga sanchib qo'yilgan gugurtni ko'rdim. Ola solib, bir shuvoqni oyog'imda toptadim, keyin uni o'choqqa tiqib, tagidan olov berdim-u, garangsib qoldim. Buning foydasini sezmadim. Agar o'choq ustida choydish bo'lsa, boshqa gap edi. E, lapashang! Uyga qaramaymanmi? Eshikka burildim. Eshik zanjirlangan, taqa qulf ilingan. Obbo! Sekin deraza yoniga bordim. Itargandim, ochilmadi. Romning chetidan ushlab bir tortdim, ochilib ketdi. Shunda birovning uyiga so'roqsiz kirayotganim uchun sal-pal xijolat ham tortdim. Lekin nima qilay? Bir narsasini kamaytirib qo'ymayman-ku? Ertaga yaxshilab bekitib ketaman. Bu yerda bir kecha qo'nganimni bilgan dara hayvonlari ham bir-ikki kun bu xonadonga yaqinlashmaydi!

Sekin ichkariga qadam bosdim. Dimog'imga turshak, mayiz hidi urildi. Ha-a, demak, bu mevalardan ham bor ekan-da. Oz-mozgina olib yeymiz. Uy egasiga g'oyibona rahmat aytamiz. Xafa bo'lmas, axir, odam qimmatmi, mevami? Onam bechora nuqul gap orasida: "Odam topilmaydi, narsa topiladi!" deydilar. Bechora onaginam! Hozir uning ahvoli qanday ekan?.. Eh, ona-

jon! Gapingizga ko'nmadim-da, o'zboshimchalik qildim! Lekin men sizlarga, o'zimizga yaxshilik qilmoqchi edim-ku?! Hay, mayli. Bo'lgan ish bo'ldi endi... Uy juda ham qorong'i ekan. Gugurt chaqqandim, ko'zim to'rdagi yog'och sandiqqa tushdi. Uning ustida uchta ko'rpa taxlab qo'yilgan, tagida bitta kigiz ham ko'rinar edi. "Ha, shulardan bittasini olib yotaman!" deb o'yladim. Yana gugurt chaqib, poygakka qaradim. Bir qop tiralib turibdi, ichida nima bor, kim biladi deysiz. Choydishni topolmadim. Keyin, o'zlari bilan cho'lga olib ketgan, degan qarorga keldim. Qozon bor ekan, lekin unda nima pishiraman. Qolaversa, bu tashvishlarning nima keragi bor: men choyga juda ham xumori emasman, bir o'zimga ovqat pishirishning ham hojati yo'q... Jindek non topsam, ha-ha, non topsam, bas! Anavi ariqning suviga botirib yeyman-qo'yaman. Agar bir kosa qatiq yoki bir-ikki bo'lak go'sht bo'lgandami! Afsus! Boriga qanoat qilish kerak. Men o'z uyimda emasman.

Qopning orqasidan bir ro'molga tugib qo'yilgan qoqnon topdim, allaqanchasini o'ngirimga solib, tashqariga chiqdim. Jiyda, mayiz izlashga ham hafsalam bo'lmadi...

O'choqda yonayotgan o'tning so'nishini tomosha qilib o'tirarkanman: "Nima qilaman bu yerda? Uyga kirsam-chi? O'zimning borligimni ko'rsatib nima qilaman?!" deb o'yladim. O't so'ngach, supa pastini qoplab olgan tumanga qaradim-da, uyga kirib, derazani berkitdim. Gugurt chaqib, xonani yana ko'zdan kechirdim. So'ng paypaslab taxmondan ko'rpa bilan kigizni tushirdim. Kigizni yozib, ko'rpani soldim. So'ng biroz ikkilanib turib boshqa ko'rpani ustimga yopdim.

* * *

Deraza tagida yotibman. Charchagan ekanman, ko'zim ilinyapti. Lekin qo'rqyapmanmi, uxlagisi kelmagan odamday ko'zimni ochaman. Derazaga tikilaman, tashqariga quloq solaman. Bir mahal ayvonda nimadir gurs etdi. Boshimni ko'tarib qaradim. Ustun tagida ko'zi binafsharang bo'lib, oqshomgi mushuk turibdi. "Ha, uyga kirib bo'psan!" dedim. Derazani tortib qo'yib, boshimni yostiqqa qo'ydim. Kechasi ikki marta uyg'ondim. Badanimni nimadir

taladi, burgamikin, deb o'yladim. Lekin uyqu zo'rlik qildi, qotib qolibman.

* * *

Odatdagicha sahar vaqtida uyg'onib ketdim. Qayerda yotganimni ancha vaqt eslolmadim. So'ng irg'ib turib, derazadan qaradim. Tuman yo'q, chap tomondagi dara sohilini quyosh nurlari yoritib turar edi. Kayfim chog' bo'lib ketdi. Derazani lang ochgandim, tag'in o'sha mushukni ko'rdim. Nima balo? U shu yerga o'rganib qolganmi? Yoki bir vaqt bu uyning xonaki mushugi bo'lganmi? O'choq tomonda ekan, tag'in "miyav" dedi-da, supadan tushib ketdi. Derazadan hatlab, tag'in izimga qaytdim. Ko'rpa-to'shakni yig'ishtirib, sandiq ustiga taxlab qo'ydim. Tashqariga chiqqan yerimda yana qaytdim. Qop orqasidan yana picha qoqnon olib, qo'ynimga soldim. So'ng har ehtimolga qarshi deb pichoq izladim. Lekin topolmadim.

Supadan tushgan yerimda, yana takxonaga qaragim keldi: xarilar orasidan uzun hassa topdim. Suyanib, buloq boshiga bordim. Atrofni tomosha qildim. Chamamda, bu yer kichkina qishloqcha edi. Yana to'rtta mana shunaqa kulba qaqqayib turibdi. Har birining takxonasi bor. Yana, oldida kenggina maydon, maydon adog'ida go'ng, qiy uyumi. Tomosha bilan bo'lib, nima qilishim kerakligini unutgan ekanman. Birdan eslab qoldim-u, yig'lagim keldi. Biroq otamning: "Yig'idan foyda yo'q, o'g'il bola yig'lamaydi", deb aytgan gaplarini esladim. To'g'ri-da, yig'lab o'tirsam, birov meni yo'lga solib qo'yadi-yu, men ota-onamni topib olaman-mi? Yo'q, albatta. Harakat qilish kerak.

* * *

Beixtiyor ariqdan hatlab, kecha tushib kelgan so'qmog'imga chiqib oldim. Ana shunda men Zovostida ekanimni bildim. Ishondim va oyoqlarim titray boshladi. Tezgina bu yerdan ketishga, tezgina anavi sohil ostidagi so'qmoqqa chiqib olishga intildim. Har holda jar tagida bo'lganingdan ko'ra, uning teparog'ida bo'lganing yaxshi-da!

Keyin birdan bir yo'l Zovning boshiga chiqib olish. O'sha yerga chiqib olsam, marra meniki! Kechagi aravamiz izini ham toparman. So'ngra, u yerdan tog'ning etaklari ko'zga yaqqol ko'rinadi. Cho'lning qayoqda ekanini bilib olaman-da, o'rmonning xoli joylari bilan yurib, bu yerlardan chiqaman. Naryog'ida yo'l topish oson. Xo'sh, tepaga qanday chiqib olsam bo'ladi? Bu savolga javobni tezgina topdim: mana, ro'paramda sohilni yoqalab so'qmoq yo'l ketgan. Har holda bu ovchilarning yo'li bo'lishi kerak. Bunday yo'l albatta tepaga chiqadi. Tog'da ko'p yurganman, ko'p yurganman bunday yo'llardan.

Yo'l tepaga chiqmaganda ham, tepaning bironta buzilgan yeridan o'tadi-ku! O'sha buzuq joylardan yurib, men ham tepaga chiqib olaman-da!

* * *

So'qmoq tobora pastdagi o'rmondan ajralib, tepaga ko'tarilib borar, bu meni xursand qilar edim. Lekin nimagadir suv ichgim kela boshladi. Shu meni tashvishga soldi. Nima qilay? Suv ichayin deb pastga tushamanmi? Yo'q, chidayman. Tushsam, yana qaytib chiqishim kerak. Chiqqunimgacha yana chanqab qolishim mumkin. Kunbo'yi pastga tushib, tepaga chiqib yuraveramanmi? Chidayman... Eh-he, pastning manzarasi antiqa ekan.

Men ariq deb o'ylaganim kichkina soy ekan. Sohillarini qamish bosib ketgan. Ular sap-sariq. Lekin ichida cho'chqa bor. Tog'da yovvoyi cho'chqadan ko'pi yo'q. Buni tog'da yurgan kishi yaxshi biladi. Biroq cho'chqadan qutulishni biladigan kishi uchun u xavfsiz. Qutulishni bilmasang, unda holing xarob. Men yo'limda bir gala cho'chqaga duch kelib, ulardan eson-omon qutuldim. Buni keyin aytib beraman... Soyning sohilini qoplagan qamishlardan sal narida va sal berida chakalakzor, archazorlar. Ayniqsa narigi sohildagi archa shu qadar zichki, ustidan bemalol yurish mumkindek tuyuladi. Ko'm-ko'k o'tloqning o'zi-ya!.. Muyulishga yetib to'xtadim. So'qmoqning adog'ini ko'ray deb qaragandim, ro'paramda ufqni qiyalab o'tgan taqasimon tog' ko'rindi. Dong qotib qoldim. Men Zovostida edim, to'g'rirog'i, Zovosti bilan Zovboshining orasida, tog'liklar tili bilan aytganda, "qat"dan

o‘tgan so‘qmoqda edim. Bir tomondan buni bilganim ham yaxshi bo‘ldi. Nimaga desangiz, o‘zimni biroz bosib oldim: demak, yana ham ehtiyotkor bo‘laman endi... Biroq xo‘pam yo‘l tutgan ekanman-da! Tepaga chiqish qiyin deb soy yoqalab ketsam bormidi? Nima balolarga yo‘liqar edim.

* * *

Zov betining manzarasi ham chiroyli edi, buni tan olmay bo‘lmaydi. Bu metindek tik devorning ko‘pdan ko‘p joylari darz ketgan. Ana shu darz ketgan joylardan kichkina bo‘lib o‘rik, yovvoyi bodom va na’mataklar o‘sgan. Ularning bunday yovvoyi, kimsasiz joyda o‘sishi nima uchundir kishida rahm-shafqat uyg‘otar ekan. Xuddi aziz bir narsang bu yovvoyi joylarda adashib qolib ketganday. Ularning mevasidan ham inson zoti foyda topmaydi. Qushlar, kalxatlarga yem bo‘lib ketadi... Lekin hozir, yoshim bir yerga yetib o‘ylayman: ana o‘shanaqa joylarning bo‘lgani ham yaxshi, do‘stlar! Ular bizga Vatanimiz tuprog‘i qadim-qadim zamonlarda qay ahvolda, qay yovvoyi ko‘rinishga ega bo‘lganini yaqqol ko‘rsatib turadi. Endi o‘ylab qarasam, mening o‘sha vaqtda adashib, o‘zimga o‘zim yo‘l topib, hayotga intilishim ham ko‘p zavqli bo‘lib tuyuladi. Axir, o‘zingiz o‘ylab ko‘ring, bizning olis ajdodlarimiz o‘zlariga o‘zlari shunday qilib yo‘l ochgan emasmi? Shu yo‘l bilan tajriba orttirib, aqllarini peshlagan emasmi? Shu yo‘l bilan inson sifatida taraqqiy qilgan emasmi?..

* * *

Men tag‘in ham yuqorilab ketib borardim, Zovosti ko‘z ilg‘amas pastlikda qolib ketardi. Shuning uchun endi pastga qaramas edim. Qarasam, boshim aylanadi. Bu yerdan tushgan odam pastga yetolmasa kerak... Bir payt sezib qoldimki, tepaga qarash ham kishining boshini aylantiradi: yuraging “shuv” etadi-da, yer-u osmon chirpirak bo‘ladi, ko‘ngling aynab, tek qotib qolasan. Men bu ahvolda uzoqqa bora olmasligimni sezdim. Nimaga desangiz, bir muyulishga yetganda, yurib kelayotgan yo‘limga qaradim-u, osmon uzilib, oyog‘im ostiga tushganda ham izimga

qaytolmasligimni sezdim. Bu yerga qanday yetib qoldim? Hayron bo'ldim. Endi birdan bir yo'l — tepaga chiqib olish, yo'lni davom ettirish! Shunday ekan, o'zimni bu yo'lga ko'niktirishim kerak. Shunday ko'nikayki, aslo ikkilanmay! Lekin qanday qilib?.. E, axir, bu so'qmoqdan odam yurgan-ku, deb o'yladim men. Odam bo'lganda ham mendaqangi kichkina odam emas, kattakon ovchi yurgan. U shu tor so'qmoqqa sig'ibdi. Men sig'maymanmi? Bu yo'l men uchun tor ko'chaday gap-ku aslida! Shunday, do'stim Berdimurod! Olg'a! Olg'a!

Navbatdagi muyulishdan o'tish qiyin bo'ldi, yo'l nishab edi. O'ylab-o'ylab o'tishga qasd qildim. O'tib oldim. Biroq so'qmoqning kichrayib qolganini ko'rib, kapalagim uchib ketdi... Shu yil bahorda o'tovda eshitgan bir hikoyam yodimga tushdi, anavi, qor bosgan tog' bag'irlarida ham mana shunaqangi "qat"dan o'tgan so'qmoqlar ko'p bo'lar ekan. Shunday so'qmoqlarning biri tog'ning tepasida joylashgan bir qishloqqa olib borar ekan. U qishloq ahli bir zamonlar yovdan qochib, tog' ustiga chiqib ketgan ekan. Shu so'qmoqdan faqat bir kishi yura olar ekan, yurganda ham yelkasini devordan uzmay yurar ekan, deb hikoya qilgan edi otamning oshnasi. Agar ikki kishi bir-biriga ro'para bo'lib qolsa-chi? Unda chek tashlar ekan. Qaysinisi yutsa, shu yerda qolar ekan. Yutqazgani o'zini pastga tashlar ekan... Men o'shanda bu hikoyani eshitib, ko'p o'ylagan edim: odamlar mard bo'lar ekanda, a? Masalan, yutqazgan kishi pastga tashlagisi kelmasa, yoki u, yutgan kishidan kuchliroq bo'lsa, unda sherigini bir musht bilan jarga qulatib, o'tib ketsa bo'lmaydimi? Yo'q, bo'lmas ekan... Chunki lafz bor ekan ularda. Hozir u qishloqqa olib boradigan so'qmoq kengaygan, deyishadi. O'sha so'qmoq devorini teshib, qoziq qoqib chiqibdilar. Qoziqning ustiga shox-shabba bosilgan emish, endi u yo'ldan eshak ham bemalol o'tar ekan... Shu hikoya yodimga tushib, nazarimda ro'paramdan birov kelayotgandek bo'laverdi. Ovchi bo'lsa, meni ko'tarib oladi, deb o'yladim. Yoki men uning oyoqlari orasidan ham nariyoqqa o'tib olaman... Aytmoqchi, uchrasin, uchrasin ovchi! Odam uchrasin! Menga odam kerak-ku?! Lekin hayvon uchramasin, hech-hech! Unda

holim xarob bo'ladi... Unda, onajonim, xayr! Otajonim, xayr! Kichkina singlim, o'tovimiz, molimiz, kakligimiz, xayr!

* * *

Buzuq joyga yetdim. Buning ko'rinishi g'alati-ya! Toshlari qizil, qum toshmi deyman. Bo'yim baravar antiqa cho'qqilar sho'ppayib turibdi. Katta bir qoya yonidan o'tgan edim, oyog'im ostidan chirillab bir sela chil ko'tarildi... Chil degani kaklikdan kichikroq bo'ladi. Lekin go'shti kaklikning go'shtidan mazali deyishadi. U hamma vaqt shunaqa buzuq joylarda yashaydi. "Sela" deb kaklik va chillar galasiga aytishadi. Men bir nafas to'xtab qoldim-da, yana jilgan edim, tag'in bitta chil ortimdan ko'tarildi va unga qarayman deb dong qotib qoldim... Boyagi, yo'q, kechagi qora baroq mushuk menga ergashib kelayotgan ekan. U sakrab chilni havoda tutib oldi; biroz tislandi-da, panjalarida bosib turib, menga "miyav" deb qaradi. Men uning ko'zlarida qandaydir g'amginlikni ko'rdim. "Bu yovvoyi, meni yemoqchi", deb o'ylagan o'yim boshimdan uchdi. "Bu odamlarning uyida yashagan mushuk-ku? — deb o'yladim. — Odamlar esa, buni tashlab ketishgan... Albatta tashlab ketayotganda, ko'zini bog'lab tashlab ketishgan. Bo'lmasa egasini qoralab topib boradi-da! Endi bu bechora odamlarni sog'ingan chamamda! O'-o', falokat! Chilni yeydi-ya?" Lekin baribir undan qo'rqdim. Orqamga qaray-qaray qarshimdagi boshqa qoyadan aylanib o'tdim. Yana qaragandim, oyog'im toyib ketdi... Toshga yopishdim. Aytmadimmi, bunday joylarda ehtiyot bo'lish kerak deb. O'pqonga tushib ketishimga sal qoldi-ya!

* * *

Ana shu o'yiqning oxiriga yetib, bir to'da yovvoyi cho'chqaga duch keldim. Ular hayron bo'lgandek taqqa to'xtab, qozondek boshlarini ko'tarib qarashdi. Men ham serrayib turib qolibman. Shunda chetda turgan kichikroq bir cho'chqa "huq" etib ovoz chiqardi-da, suzmoqchi bo'lgan novvosdek boshini egib olib menga yugurdi. Men hang-u mang bo'lib qoldim va jonholatda yon-

boshimdagi xarsangga tirmashdim. U xarsangga yetib kelganida, men tepada edim. U xarsangni aylana boshladi. To'zg'ib qolgan boshqa cho'chqalar ham to'xtab menga qarab turishardi... Agar shu cho'chqaning o'rnida o'rtacha bir it bo'lganda ham xarsangga sakrab chiqar, hatto uloq ham bu xarsangda bemalol o'ynab yurgan bo'lardi. Lekin u chiqa olmadi. Chiqa olmaydi ham! Chunki u to'g'riga yuradigan hayvon! Unga to'g'rima-to'g'ri kelgan kishining holiga voy! Tumshug'idan chiqib turgan oppoq tishlari bilan yorib ketadi. Shuning uchun ham tog'liklar cho'chqaga duch kelganda, unga chap berishni yaxshi bilishadi. Sal chap berdingmi, bo'ldi, u o'tib ketadi. Iziga qaytib kelguncha sen xoliroq joyga borib olasan!.. Ana shunday! Hayvonlarning xulq-atvorini bilish kerak. Cho'chqalar aylanib, aylanib, xuddi men kelgan so'qmoqqa o'tishdi. Men bo'lsam, vaqtni boy bermay, xarsangdan sakrab tushib, olg'a jildim. Tepaga chiqib oldim. Qatqaloqdek yorilgan xarsanglar ustida turar ekanman, etak tomondan mushukning miyavlagani eshitildi. Nima bo'ldi unga? Cho'chqalar bilan kutilmaganda uchrashib qoldimi? Cho'chqalarning u bilan nima ishi bor? Yo boshqa falokat ro'y berdimi? Yoki o'zlarining hafsalasi pir bo'lib qolib ketishdimi? Qayta ko'rmadim ularni.

* * *

Shunday qilib, men Zovostidek dahshatli joydan osonlikcha qutuldim. Agar ilgariroq tabiat sirlariga qiziqmagan, hayvonlar, atrofimizni o'rab turgan sharoit haqida hech narsa bilmaganimda, kim biladi, men u yerdan qanday qilib chiqolardim?.. Lekin keyinchalik ham Zovostiga bo'lgan qiziqishim susaymadi. Mana, hozir zoologman, hayvonlarni o'rganuvchiman. Yaqinda Zovboshiga boraman. Uning sirlarini ochaman, ilm bilan, tajribalarimga asoslanib u yerga bemalol kiraman... Endi o'ylayman: har holda qiziquvchanlik bo'lgani yaxshi ekan, do'stlar!

* * *

Aytmoqchi, endi hikoyaning davomini ham aytib berayin: buni qarangki, men Zovboshining biz aravada yurgan tomonidan emas, nari tomonidan chiqqan ekanman. Shuning uchun sohilni, o'sha

taqasimon tog'lar tizmasini aylanib, aravamiz qoldirgan izlarga tushgunimcha kun kech bo'ldi. Men shu qadar ochiqdim, holdan toydimki, ko'z oldim qorong'ilashib, gandiraklab borardim. Lekin odamlarga intilardim! Bitta inson qorasini ko'rsam, der edim... Nihoyat, unday inson ham ko'rindi.

Tog'dan kechikib ko'chgan bir cho'ponning qo'ylarini ko'rib, uning iti menga tashlanishini ham o'ylamay, oxirgi kuchimni yig'ib chopdim. Unga yetdim, keyin nima bo'lganini bilmayman... Cho'ldagi tipovoy qilib qurilgan uyimizda ko'zimni ochdim... Otam meni topib olgan ekan. Ot choptirib borib qolibdi. Cho'pon meni chakmoni bilan bekitib: "Suyunchisiga nima berasiz?" deb so'rabdi. Otam bir qo'y va'da qilibdi. Keyin cho'pon kulib, meni unga ko'rsatibdi... O'sha kuni uyimizda katta ziyofat bo'ldi. Boshqa cho'ponlar ham otliq bo'lib, meni izlagani ketishgan ekan, kelishdi... Otam meni urishmadi. Faqat: "Bolam, turmushda ham shunday qilib, aql-farosat bilan yo'l topsang bo'lgani. Bu adashuv senga saboq bo'lsin!" dedilar. Onam ham, gapimga quloq solmading, deb ta'na qilmadilar.

1971

"O'ZBEKNING SODDASI"

O'shanda sakkiz yoshlarda edim. Ikkinchi sinfda o'qiyotgan bo'lsam ham zehnim o'tkir ekanmi, savodim chiqib qolgan, ya'ni otam aytib tursa, men fakturasini yozib borardim. Otam rayon matlubot jamiyatida magazinchimi, bir nima bo'lib ishlar edi. U kishi shunday katta ishda tursalar ham, jussalari mendaqaning o'ntasiga teng kelsa ham, savodlari haligidaqa edi. Lekin otamni mahalla ahli hurmat qilar, u kishi bilan "Polvon bobo" deb so'rashishar, bir qariyaning: "Bechora ko'p sodda, mard odam. O'zbekning soddasi shuyov", deganini ham eshitganman.

Biz yoz oqshomlari alla-pallagacha gurunglashib o'tirardik. Otamning oshnalari kelganda, muk tushib, doston o'qishar, navbat bilan do'mbira chertishar, momom ham qozon boshidan jilmasdi. Esimda: biznikilar ayniqsa, "Alpomish" dostonini sevishar edi. Yusuf degan bir tanishimiz bo'lardi, uyga keldimi, lo'labolishni o'mroviga tortib, shu dostonni o'qishga boshlar edi. Men jiddiy quloq solib o'tirar, keyin uxlab qolganimni bilmas edim, ertalab supa pastidagi yog'och karavotda ko'rardim o'zimni.

O'sha kecha uyimizda mehmon ham yo'q edi. Otam ham qayoqqadir ketib, kelavermadi...

Men zerikib, karavotimga chiqib yotdim. Bir mahal uyqu aralash payqab qoldim: supada g'o'dir-g'o'dir gap bo'lyapti. Ayniqsa, enamning ovozi baland-baland chiqardi. Otam bosiq, lekin u ham ba'zan "E! E!" deb qo'yardi, men shunda beixtiyor hushyor bo'lib ketdim. Otamning odatlari qiziq-da: meni hech vaqt "To'raboy, ke!" deb chaqirmaydi, shunchaki, "To'raboy!" deb qo'ya qoladi, demak, bu — beri ke, deganlari ham bo'ladi. "Ulim!" deb qo'yardilar, vassalom, men yugurib borishim kerak. Otam singillarimni ham "ulim" deb chaqirardi... U kishining "E!" deganini ko'p eshitganman. Dashtda bir sigirimizni cho'pon o'ziniki qilib, "bo'ri yedi"ga chiqargan ekan. Shunda enam cho'pondan sigirimizni

undirish haqida ko'p gapirgan. Otam: "E! E!" deb turib, qo'l siltagan edi. Shundan keyin enam otamga gap kor qilmasligini bilib, cho'ponni qarg'ay-qarg'ay tinchigan edi.

— E! — dedi otam birdan baqirib. — Shu pul bilan biri ikki bo'larmidi, kampir?

— Siz shunday deysiz-da, hoy! — dedi enam. — Dashtdagi mol ham sanoqli qolgan, biz uni qaytib to'laymiz! O'ylaysizmi?

— Mol sizlarga, — deb to'ng'illadi otam. — Men endi manglayda borini ko'raman, kampir! E, gapirma!— otam qizishib ketdi: — Nima qilay? Selpo raisi o'g'irlik qildi, savodim yo'q, meni go'l bilib, shuncha pulga tushirdi, yordam qilinglar, deb arzga boraymi? — E, men bu ishti qilolmayman! Insofi bo'lsa, o'ylab ko'radi, kampir! Olti bolam bor, ko'rib turibdi o'zi. Nokaslik qilmas.

— O, sho'r boshim, sho'rgina boshim! — dedi enam kuyinib va idishlar taraqlab ketdi: — Siz arz qilmasangiz, men qilaman! Ertalab milisaga boraman, tekshirib ko'ringlar, bu odam selpodan hech mahal muncha pul olgani yo'q, fakturayam tuzgani yo'q. Tuzgan bo'lsa, kopiyasi o'zida bo'lardi-da!.. Bu odamni o'sal qilib, o'zlari padlo'k dakumit tuzgan, shuncha pulni buning bo'yniga urgan! Tekshirib ko'ringlar. Buning pakturalarini o'g'lim yozib berardi, uniyam keltirib so'roq qilinglar, deyman!

Otam jimidi. Men bu gaplarning ma'nosiga tushunmas edim. Biroq kimdir otamni aldagani, uning boshida xavf borligini sezdim. Biz bolalar tayyorga ayyor bo'lib o'sar edik: oilada paydo bo'ladigan qiyinchilik, kamchilikni ota-onamiz tuzatar, to'ldirar edi. Bizga o'yin bo'lsa, yonboshlab yotib doston eshitish bo'lsa yoki pistaga pul bo'lsa bo'ldi edi.

Men otamga faktura yozib berganlarimni eslab, ichimda xursand bo'lib, ko'rpaga o'raldim. Salqin tushib qolgan edimi, to'shakdan turishni xayolimga ham keltirmadim. Faqat boshimni ko'tarib, nima yeyishayotgan ekan deb qarardim. Qovurdoq o'rtada bo'lsa, men ham dildirab, iljayib borar edim.

Otamning oxirgi so'zi shu bo'ldi:

— E, kampir, boshimni qotirma. Men aytdim aytgichimni unga. Nomard ekansan, uka. Mayli, shu o'tirik puldi deb ket, lekin biring ikki bo'lmasin. Bir kuni seni bolalaring ham ota deb qolsin,

dedim. Bo'ldi shu gap, kampir. Yurakti bo'shatdim. Agar hayvon emas, odam naslidan bo'lsa, keladi u — ukkig'ar!

O'rtoqlarim bilan so'kishib yurganlarimni esladim, otam: "O'zbekning gapi bir bo'ladi", degich edi. Men yana, hamma vaqt bir so'zli bo'lishni o'yladim. So'ng nima uchundir shu tobda otamning tutgan yo'lini to'g'ri deb bildim va keyin uxlab qoldim.

Yopiray! Juda notinch bo'ldi-da, bu kecha!

Yana uyg'onib ketdim: supada g'o'dir-g'o'dir gap-so'zlar qulog'imga yetmasidan qozonda jiz-biz bo'layotgan go'shtning hidi dimog'imga yetdi. Hayron bo'lib, boshimni ko'tardim. Dashtdan otamning oshnalari kepti deb o'ylagan edim. Yo'q, lampa yoritib turgan dasturxonning bir tomonida matlubot jamiyatining raisi cho'kka tushib o'tirar, u otam bilan kulishar edi. Enam o'choq boshida.

Men bu odamni yaxshi tanir edim, qachon otamga ergashib uning omboriga borsam, shu kishini ham ko'rardim, u burchak-burchakda uyulib yotgan yong'oq, olmaqoqi va olchaqoqilardan hovuchlab olib hidlar, so'ng sochib tashlab, kaftlarini bir-biriga urib qoqar, keta turib, menga qoshini uchirib qo'yar edi. Lekin uyimizga hech kelmagan edi.

Qovurdoqning hididan uning hali yetilib pishmaganini sezdim. Uyda mehmon borida dasturxondan chetda tur, hadeb o'rtaga qo'l uzataverma, bir ishora qil, o'zim beraman, xohlagan narsangni, der edi enam. Men o'zimning uyg'oq ekanimni enamga qanday bildirsam deb o'ylab turgan edim, ular yana kulib yuborishdi. Shunda otamning oqshomgi kayfiyatini eslab, ishi o'ngidan kelgani — tutgan yo'li to'g'ri chiqqaniga ishondim va xursand bo'lib ketdim. Enamga tikilaman, harakatlaridan u kishining ham kayfi chog' ekani bilinib turibdi.

Lekin baribir turishga jur'at etolmadim.

— Ha, Polvon aka, menga yomon ta'sir qildi gapingiz, — dedi rais. — Men shuncha yoshga kirib, bunday gapni eshitmagan edim. Yashirmayman, mard odamsiz, tushunasiz... Bunday ishlar avval ham bo'lgan. Lekin birovi ham o'zimga havola qilib ketmagan edi. Odamga ta'sir qilar ekan, men ham odam bolasiman...

Ana, faktura, dela! Yangamga bering, yoqib yuborsinlar. O'tgan ishga salovat, Polvon aka.

Men karavotdan sekin tushib, o'choq boshiga chopdim.

— Suv ichaman, suv — dedim enamga.

— Go'sht-chi, yemaysanmi, bolam? — dedi enam.

Men tirjayib, cho'nqaydim. Shunda rais meni chaqirib, qoshini chimirdi. Men o'rnimdan turib salom berdim.

— Berman ke, ulim, berman ke! — dedi otam.

Bunday vaqtda borishim kerak. Enam ham yelkamga qoqdi. Otam yoniga o'tqazib:

— Sher ulim! — dedi. — Uxlamadingmi?.. Endi go'shtdan yeysiz-u kirib uxlaysiz. Xavotir olma, bolam! Mard odamning sadag'asi ketsang arziydi. Mana, amaking ham mard chiqib qoldilar...

Ular kulishdi. Shunday qilib, bu notinch kecha o'tdi.

Hozir men o'sha kecha, o'sha suhbatlardan yigirma besh yil beridaman. Ularni tushdagidek eslayman.

Men — endi o'zgarib ketgan, savodim ham rostakamiga chiqib, "Alpomish"ni ham o'zim o'qiydigan, hamda otamning mardlik va arz qilish to'g'risidagi aqidalariga allaqachon qo'shilmay qolgan esam-da, bu keksayib qolgan otam — "o'zbekning soddasi"ga havasim kelib ketdi.

1972

BAHOR O'TDI

Mastura sho'x, odam bilan kulimsirab gaplashadigan, suhbatdoshiga tezda yoqib qoladigan, suhbatdoshi kim bo'lmasin, unda o'ziga saxiy bir mehr, xayrxohlik uyg'otadigan qiz edi. U ko'p narsani o'ylab, fikr qilib o'tirmasdi. Lekin, o'zining yoqimli ekanini bilar va hamisha yoqimli bo'lib qolishiga ishonar edi. Shuning uchun teng-to'shlariga ham, muallimlariga ham, qo'shnilari va yolg'iz onasiga ham erkalik qilar, ters-ters gapirib ketaverardi.

Ularning yigirma sotix tomorqasi bo'lib, unda otasi ekib ketgan xil-xil mevali daraxtlar ko'p edi. Shu bog'dan keladigan daromad va otasiga to'lanadigan pensiya puliga kun kechirishar edi.

Masturaning otasi qirq uchinchi yilda sillasi qurib, ishlab turgan magazinida o'lib qolgan edi.

Mastura shu magazin oldidan o'tganda otasini eslar va ko'ziga yosh olardi. Qishloq kichkina, shuning uchun qizni hamma tanir va o'tmishi-yu, hozirgi hayotini bilar, yig'layotgan qizning ko'nglidagi g'amni sezib, unga hamdardlik bildirishardi. Mastura battar yig'lar va yig'isi tamom bo'lganidan keyin odamlarning unga ko'rsatgan dildorligini eslab, ichida mamnun bo'lar, xayrxohlik ko'rsatmaganlariga alami kelib, ularni so'kar edi.

Mastura hamma meni suyadi va suyishi kerak deb hisoblar, ularning nega suyishlari haqida o'ylash esa, xayoliga kelmas edi. Odamlar bo'lsa avvalo uning yoqimtoy, erka qiz bo'lgani uchun, so'ngra, uning taqdiriga achingani uchun suyishar va ko'nglini cho'ktirmaslikka harakat qilishar edi.

Mastura to'qqizinchi sinfda o'qib yurganida uni o'ninchida o'qiydigan maktab komsomol tashkilotining sekretari Akobir degan yigit yaxshi ko'rib qoldi.

Akobirning ota-onasi u yoshligida o'lib ketgan, u olti yasharligidan yetim bolalar uyida tarbiyalangan, zehnli, andishali, bir so'zli va ko'ngli yarim yigit edi. Uning bitta tog'asi bor edi. Tog'a

bola-chaqasi bilan qishloqning shimolidagi chorbog'ida turar, uning ovdan qo'li bo'shamas, bo'sh vaqtida choyxonada o'tirib, ov tafsilotlarini ko'pirib hikoya qilardi.

Akobir tog'asi bilan kam muloqotda bo'lar, o'zini mag'rur tutib yurar edi.

Ozg'in, novcha, qirraburun bu yigit Masturani yaxshi ko'rib qoldi. U ilgari ham bir-ikkita qizni yaxshi ko'rgan edi. Ammo Masturani sevib qoldi-yu, unga xiyonat qilmadi. Faqat yaxshi ko'rish bilan chegaralanganida, balki vaqti kelib unutar, boshqasiga ko'ngil qo'yib ketaverar edi. Chunki, u yosh edi... Biroq, bu andishali, ko'ngli yarim yigit qizning tarjimayi holi bilan tanishdi-yu, unga bog'lanib qoldi. Muhabbatiga achinish hissi ham qo'shildi. Bu ikki tuyg'u bir poyondoz bo'lib, Masturani uning ko'ngliga olib kirib qo'ydi...

Mastura ham unga mayl bildirdi. Ammo tanishgan kunlaridayoq unga erkalik qildi, ters gapirib ketib qoldi. Akobir o'sha kuniyoq qo'lini yuvib, qo'ltig'iga artmoqchi bo'ldi, tag'in uning oilasi taqdirini o'ylab: "Yo'q, xafa bo'ladi. Ko'ngli cho'kadi, sag'ir deding-da, deydi", dedi ichida. Bu mulohaza unga keyinchalik ham hamroh bo'lib qoldi. Shuning oqibatida Akobir Masturaning barcha xarxashalarini ko'tara boshladi.

Mastura ham uni yaxshi ko'rib qoldi.

O'ninchini bitirishgach, Akobir Toshkent Davlat universitetining geologiya fakultetiga o'qishga kirdi. Masturani bir necha sinfdoshlari qatorida maktab direktori Qarshiga eltib, muallimlar institutiga joylashtirdi.

Qobiliyatli Akobir yaxshi o'qib ketdi. Bir necha durust-durust qizlar unga ro'para bo'la boshladi, lekin, Akobir ular bilan yurmadi. "Mastura eshitsa, xafa bo'ladi", dedi. Mastura faqat sevgilisining bevafoligidan emas, o'z taqdiridan ham xafa bo'ladi, deb o'yladi.

Mastura o'rtacha o'qiy boshladi. Maktabda muallimlar baho yo'rig'ida ham saxiylik qilishar edi. Bunga o'rgangan Mastura institut domlalarining o'ziga hamma qatori qarashlarini tushunmadi. "Bular qiziq, qarshilik", deb ularni yomonlar edi u. Keyin, kursdoshlari ham unga hamma qatori muomala qilar, Mastura buni

ham tushunmas edi. To‘g‘ri, ba’zi yigitlar uni ko‘rganda miyig‘ida jilmayib, unga ishora qilar, goho uning bichimi kelishgan qiz ekanini yuziga ham aytar, Mastura bulardan mamnun bo‘lar, biroq, shulargina uni qanoatlantirmas edi.

Sevishganlar xat yoza boshladilar.

Akobir Masturaning xatlarida nolish ohanglarini uqa boshladi. Ikki yil badalida stipendiyasini tejab-tergab, bir gal bahorda, bir gal qishda Qarshiga kelib ketdi.

Bu harakat ularni bir-biriga yana ham yaqinlashtirib qo‘ydi. Akobirning sevgisi ham, Masturaning muhabbati ham oshib-toshib ketdi. Bu vaqtda Mastura hamma kursdosh qizlar bilan urishgan, muallimlar ham unga sovuq munosabatda bo‘lib qolishgan edi. Negaki, Mastura uch-to‘rt marta hammaning ko‘z oldida darsdan chiqib ketdi.

Bora-bora Masturaning o‘qishdan ko‘ngli sovidi. Uning xayoliga nuqul ko‘zi shilpiq onasi, katta bog‘lari kelar; maktabdagi muallimlari va qo‘ni-qo‘shnilarining kulimsiragan chehralari namoyon bo‘lar; keyin, bular ortida ufqni to‘sib, Akobir turar edi. Mastura xohlasa, uni oyog‘iga poyondoz qiladi, xohlasa yelkasiga minib uchadi. Akobir uni istagan manziliga eltadi, u hamma yerda hamqishloqlarining mehribon chehralarini ko‘rib turadi.

Uchinchi yili Mastura: “Men o‘qimayman”, deb xat yozdi Akobirga. Akobir Baxmaltog‘da edi. Xatni sakkizinchi kuni oldi va “bir falokat bo‘lgan... Bir ish bo‘lgan... Yuzi chidamay ketgan”, deb o‘ylab ko‘ngli Masturani orli, nomusli qiz faxmlab, Qarshiga yetib keldi. Bu vaqtda Mastura qishloqqa ketib qolgan, xatiga Akobirdan tezda javob olmagani uchun undan qattiq xafa bo‘lgan edi. Akobir institut ma’muriyati bilan gaplashib, o‘zining shubhasi behuda ekaniga ishondi. Masturaning o‘zi o‘qishni xohlamay ketganini eshitdi. Biroq: “Yo‘q, bu mumkin emas. U o‘qishni yaxshi ko‘radi. Axir biladi-ku, u o‘qishi kerak. Oilasi uchun ham... Qishloqdan o‘qiyman deb chiqqan. Keyin, ko‘ngli o‘ksik uning. U boshqalardan kam emasligini isbotlash uchun ham o‘qishi kerak”, deb o‘yladi va Qarshida eshitgan gaplariga ishonmay, qishloqqa jo‘nadi.

Kelib tushgach: "Agar hozir undan xabar olmasam, battar ranjiydi", deb yetim bolalar uyiga burilmay, to'g'ri ularnikiga ketdi.

Mastura Qarshidan qaytib kelayotganida, bu ishi hamqishloqlari orasida albatta, har xil gumon va mish-mishlarga sabab bo'lishini tasavvuriga ham keltirmagan edi. Mashinadan tushgani hamono buni his etdi-yu, fig'oni falakka chiqdi.

Kutubxonachi rangpar ayolning: "Bahay? Tinchlikmi?" degan savoliga: "Yo'q, urush bo'ldi, hamma qirilib ketdi", deb javob berdi.

Akobir yuzi oqargan holda chimirilib kirib kelganida, Mastura jonidan to'yib, alamini kimdan olishini bilmay o'tirgan edi.

— Namuncha daragingiz yo'q? — dedi supa labidan turmay. — Xatga ham javob bermaysiz! Yo toshkentlik qizlar qo'lingizni bog'lab qo'yganmi?

Akobir tushunmadi.

— Masturaxon, Toshkentdamasdim, praktikada edim,— dedi atrofga xavfsirab qarab.

— Yuravering edi! Bevafo!

Masturaning ko'ngli to'lib ketdi birdan. Qarshiliklarning muomalalari, hamqishloqlarining munosabatlari yodiga tushib, tomog'ini bo'g'di.

— Men baxtsiz tug'ilganimdan ko'ra o'lsam bo'lmasmidi. Otajon, qayerdasiz? Kelib qizingizni ko'ring! — deb yig'lab yubordi.

Ona chiqib qizini ovutdi.

— Ayb bo'ladi, — dedi.

Mastura:

— E!.. — deb urishib berdi.

Akobir qo'shildi oraga.

— Qoching siz ham! Siz menga nima qilib berardingiz. Boring, Toshkentdagi oyimchalaringiz oldiga!

Ona yana oraga tushdi. Akobir yupatdi.

Mastura o'ziga keldi. Ko'zlarini artib, bog'ga baqrayib qarab o'tirdi.

Bu manzarani kuzatgan begona kishi, albatta, Masturani — shaddod kelin, Akobirni — aybdor kuyov, onani — kelishtiruvchi qaynana deb o'ylar edi.

Akobir kechgacha shu yerda bo'ldi. Qo'shnilarga o'chakishgan erka Mastura unga javob bermadi. Akobir harchand uyalmasin, dam o'tmay tevaragiga qaramasin, baribir: "Ketsam, yaxshi bo'lmaydi. Gap bor..." deb o'zini tutdi.

Endi, yallachi xotinlardek chapanilik va ishonch bilan o'rik ostidagi ariq labiga yalpayib o'tirib olgan Mastura nihoyat, ko'nglini yordi:

— O'lim bersin o'qishlariga! — dedi yig'lamsirab va to'liqib. — Meni u yerda qiynadilar. Kun bermadilar. Begonasiradilar. Nima, men ko'chada qolganmanmi?

— Men ular bilan gaplashaman. Vijdonsizlar! — dedi Akobir.

— Kerak emas, — dedi Mastura. — Men endi o'qishga bormayman.

Akobir nechog'lik harakat qilmasin, Mastura unamadi.

Akobir oqshom bolalar uyiga ketdi. Mastura tor bog' ko'chada uning orqasidan qarab qoldi.

Shu kecha Mastura xo'rozlar bir qichqirguncha shirin bir hordiq qo'ynida yotdi. Uning ko'ngli allanechuk to'lib, chehrasi ochilgan edi. Keyin, Akobirning ertaga ketib qolishini esladi-yu, birdan otajak tong unga qorong'i bo'lib tuyuldi. "Ketmaydi! Ketib ham ko'rsin-chi!" dedi.

Akobir yetim ukalari yonida ko'ngli ma'yus bir shirin tuyg'uni tatiganicha Masturaning kelajagi haqida o'ylab yotdi: "Endi nima bo'ladi?"

Mastura ertalaboq bolalar uyiga yo'l oldi. Devor kemtigidan oshib, buzoq o'tlatib yurgan "Afandi" laqabli boladan Akobirni so'radi. U chaqirib keldi.

— Rostini ayting, yaxshi ko'rasizmi? — dedi qiz yigitga mug'ombirlik bilan qiya qarab.

— Endi... nima hojati bor, o'zingiz bilasiz-ku?— dedi yigit.

— Agar bilsam, siz ham o'qishga bormaysiz! — dedi Mastura.

Akobir kalovlanib qoldi.

— Mastura, bu qanday gap?

— Shunday gap. Men o'qimayman, siz ham o'qimaysiz. Toshkentga qaytib bormaysiz.

Akobir o'ylanib, xo'mrayib javob berdi:

— Hech bo'lmasa, bittamiz o'qishimiz kerak axir, Mastura.

Masturaning ko'ngli g'ash bo'lib qoldi:

— Fu! O'qimaganlar ham yashayapti. O'lib borayotgani yo'q.

— To'g'ri, hech kim o'lmaydi, lekin, o'qish kerak...

Akobir Toshkentga ketdi. Bir oydan keyin izidan xat oldi.

"Meni bular uzatishmoqchi. Harakatingiz bormi... Yig'layverib xun bo'lib ketdim", deb yozgan edi Mastura.

Akobir universitetning partkomiga uchrashdi.

— Shunaqa... qishloq joy. Uzatib yuborishlari hech gapmas. O'zingiz tushunasiz... Mana, xati, — deb ko'rsatdi.

Partkom kasaba soyuzining qarorini chiqartirdi. Soyuz raisi: "Bu yerdagi to'yni o'zimiz o'tkazamiz. Fakultetdan pul to'laymiz", deb uyoqdagi xarajatlar uchun pul berdi.

Akobir qishloqqa kelib tushib, yana Masturalarning chorbog'iga o'tib bordi.

Mastura bu vaqtda nihoyatda zerikkan, ko'ngli yana Qarshini, institut quchog'ini qo'msar, lekin, endi u dargohga bora olishi haqida o'ylamas, u, qizga o'lib ketgan otasidek tuyular edi. Qo'niqo'shnilardan tamoman ko'ngli sovigan, ko'zi shilpiq onasini qon qilib yashar edi.

U Akobirni ko'rib, turgan yerida ko'ziga yosh oldi. Akobir Masturadan ko'z uzmay kelar ekan, qiz behol burilib, devorlari oqlanmagan uylariga kirib ketdi. Akobir ayvon oldida bir dam serrayib turdi-da, atrofga xavfsirab qarab, uyga mo'raladi. Burchakda o'ziga tikilib, munisgina bo'lib turgan qizni ko'rdi. Ikkilanib ichkariga qadam bosdi.

— Keldingizmi? — dedi Mastura piqillab.

Bu uy va qizning bu holati yigitga ta'sir qilib ketdi. Ko'nglida oliyjanob hislar qo'zg'alganicha, uning qoshiga bordi.

Mastura egilib, uning ko'ksiga boshini qo'ydi va yelkalaridan ushlab yum-yum yig'lay boshladi. Akobir nima qilishini bilmay, uning kiftini silar ekan, qizning xatidagi so'zlariga bus-butun ishondi. Uning boshiga katta falokat tushgandek, undan faqat o'zi

qutqazadigandek bo'lib tuyuldi unga va bag'ridagi qizning to'la, do'mboq gavdasi, o'zining yelkasiga issig'i o'tayotgan uning momiq kaftlarini tuyib, o'zini chindan ham baxtiyor sezdi.

— Nima bo'ldi? Kim?

— Meni bu yerdan olib keting, — dedi Mastura.

— Bilasiz-ku, uyim yo'q, — dedi Akobir.

Mastura yigitga yalt etib qaradi. U, bu tomonini o'ylamagan, yoki yuqoridagi gap shunchaki og'zidan chiqib ketgan edi.

— Men yasholmayman, yasholmayman!

— O'qishga opketay bo'lmasam?

— O'qishga? Kerak emas! — Mastura birdan chekindi. — Men shuning uchun sizni chaqirdimmi?

— Bo'lmasam, nima qilamiz? Men tayyor bo'lib keldim. To'y qilamizmi?

— Mayli, — dedi Mastura. — Keyin... siz ketasizmi?

— Men o'qishni bitirishim kerak. Atigi ikki yil qoldi.

— Nima, meniyam Toshkentga olib ketasizmi bo'lmasam?

— Mayli... Lekin, Mastura, qiynalib qolamizmi...

— Nimaga?

— Men stipendiyaga o'qiyman... Yo siz o'sha yerda biron ishgami, o'qishgami kirasizmi?

Masturaning yuragi siqilib ketdi. Bu gaplar unga yot tuyuldi. Yana yig'lab, Toshkentdan ham qaytib keladigandek his etdi o'zini.

— Yo'q, men bormayman! — dedi.

— Bo'lmasam... Sizni rostdan ham birovga berishmoqchimi?

— Ha, berishmoqchi. Hasan kal deganga, — dedi Mastura.

Mastura bu gapni tavakkal aytgan, Hasan kal degan kishi bor-yo'qligini ham bilmasdi. Akobirning nazarida, Hasan kal puldor, boyvachcha qiyofasida ko'rindi. Taqdirdan nolib, Masturaga chinakamiga rahmi keldi. O'zini qizning birdan bir panohi kabi sezdi.

— Bo'pti. To'y qilamiz, — dedi. — Keyin, sizga hech kim og'iz ocholmaydigan bo'ladi.

Xatda o'zi chorasizlikdan yozgan bu gap endi Masturaga qiziq tuyuldi, to'y qilgandan keyin hayoti boshqa izga tushadigandek bo'ldi.

— Mayli. Tezroq, — dedi shunga ilhaq bo'lib yurgan kishidek.

Akobir, nihoyat, qo'shni xonada jun titib o'tirgan bo'lajak qaynanasi bilan so'rashdi va to'g'ri bog'ma-bog' yurib, tog'asining uyiga yetib bordi.

Eshqobilov ko'chaga chiqib ketgan ekan. Kutdi. Yangasi kaklik go'shti bosib, sho'rva pishirdi. Kechga tomon tog'a qaytib keldi. Eshqobilov jiyanini ko'rganidan, albatta xursand bo'ldi va choyxonada aytib tugatolmagan ov haqidagi hikoyasini bunga ham aytib, xumordan chiqishni o'yladi.

Hol so'rashdilar.

— Toshkentda o'qib yuripmiz deng?

— Ha, tog'a. Men sizga bitta iltimos bilan kelgan edim.

— Xo'sh?

— Olim magazinchini bilasizmi?

— Olim magazinchi... E, bilaman!

— Shuning bitta qizi bor. Men shunga uylanaman. Sizdan maslahat so'ragani keldim.

— Anavi, o'qib yurardi...

— O'shanga. Taniysiz.

— Taniyman, taniyman, — dedi Eshqobilov burnini jiyirib. — A, qachon?

— Shu haftada. O'qishga qaytib ketishim kerak.

— Hm... Uylanadigan odamning taraddudi bo'lishi kerak edi. Uy-joyi bo'lishi kerak edi... Sen bo'lsang... o'zing student bo'lsang...

— Zarari yo'q. Keyin bo'ladi hammasi. Hozir yonimda yuz so'm pulim bor...

— Hm... Nimayam derdik... Mayli. Lekin yuz so'm... Mayli, o'zimiz ham qarashib yuboramiz...

— Detdom direktori yordam beradi.

— Yaxshi... Lekin, lekin, jiyan, xafa bo'lma... U Qarshida o'qir edi-ya!

— Ha.

— Bu o'qishni nimaga tashlab kelgan ekan?

— Tog'a, buning ahamiyati yo'q.

— Endi jiyan, sen turmushni bilmaysan...

— Tog'a, uning tarjimayi holi meni qiziqtirmaydi. Sirasini aytganda, men o'zim ham unga o'xshayman.

— Qalay? Qizning ko'ngli bormi o'zi senda?

— Bor...

Eshik og'zida suhbatga quloq osib turgan yanga yengini qoqib tushirib, cho'nqaydi.

— Kimning gapi? Anavi o'lgan magazinchining qizini gapiryapsizlarmi?

— Ha, jiyanim shunga uylanmoqchi, — dedi Eshqobilov.

— Buv-v! Odam quribdiki! Nima, qiz qurib qoldimi? Ertaindin oliy ma'lumotli bo'lasiz, bola!

Akobir indamadi.

— Keyin, o'zining ham oyog'i yengil deydilar. Bekorga Qarshini tashlab kelmagan. O'zi o'larday qaqajon... Voy, bilaman men!

Akobir quloq solmadi.

— Tog'a, o'zingiz sovchilikka borasiz-da? — dedi.

— Nima qilardik, — deb kuldi Eshqobilov, — u qushcha yuragidan uripti, jiyanimizni, xotin. Bo'pti. Ishqilib, jiyan, sen tinch bo'lsang, bizga davlat shu.

Akobir bolalar uyiga borib, o'zini tarbiyalagan frontovik maktab direktoriga ham voqeani aytdi. Ular ham pul jamg'ardilar...

Ikki kundan keyin Eshqobilov o'zining Malik degan ovchi o'rtog'i va bolalar uyining direktori bilan Masturalarnikiga bordi. Ko'zi to'rt bo'lib o'tirgan Mastura beixtiyor ravishda ulardan qochdi. Uy orqasiga o'tdi-da, baland yong'oqqa chiqdi. Keyin, dumbul bo'lgan yong'oqni otib, odamlarni chalg'itib o'tirdi...

Mastura to'yda ham, odamlar ketganida ham o'zini telba quvonch va qandaydir g'ashlik qo'ynida his qildi. Telba quvonchiga sabab shuki, o'ziga yovqarash qilib yurgan qo'shni xotinlar, qiz-juvonlar uni quchib tabrikladilar, unga tabassum qidilar, uning aytganini shak-shubhasiz bajo keltirdilar. Mastura o'zini uch yil burungi Masturadek his etdi. G'ashligining sababi shuki, u ilgari ko'rgan to'ylar dang'illama bo'lardi, bu to'y qandaydir ma'yusgina bo'ldi.

Mehmonlar ketdi.

— Mastur, biz yaxshi yashab ketamiz, — dedi Akobir.

Mastura ko'z oldidagi chimildiq pardalari oppoq shohi pardalarga aylandi; kir vassalar uzoqlashib, o'rnini antiqa bo'yoq qilingan tekis shift egalladi; yonboshidagi taxmon uzoqlashib, o'rnida shifoner paydo bo'ldi. O'tirgan to'shagi ko'tarilib, lo'labolishlar parqut yostiqlarga aylandi.

— Qachon? — dedi gangib Mastura.

— Men o'qishni bitirayin, — dedi Akobir. — Geolog bo'laman... Sizni hech kimga xafa qildirmayman.

Mastura bu gaplarni yaxshi uqmadi. Bu mulohazalar unga yot tuyuldi. So'ng, negadir otasi birdan yodiga tushib ketdi, birdan ta'sirlanib:

— Bechora otam, — dedi u. — Hozir bo'lganida edi...

Akobir turib o'tirdi.

Masturaning ko'nglidagi g'ashlik birdan kuchayib, Akobirning yelkasidan quchoqladi. Bu ishlarga, taqdiriga Akobir sababchidek, uni bag'riga qattiq bosdi va tiz-tiz yosh to'kdi.

Akobirning ko'ngli iyib, Masturaning bu harakatlaridan o'zini olam qadar baxtiyor his etdi. Unga bo'lgan mehri yuz chandon oshib ketdi.

Ikkinchi kuni ertalab Akobir sochlari to'zg'ib, yuztuban uxlab yotar ekan, Mastura yoqimli horg'inlik og'ushida shiftga qarab yotar, vujudida shuncha yoshga kirib tatimagan totli bir osoyishtalik va orombaxsh bir parishonlik yoyilgan edi... Endi o'z uyi — go'shasini yaqindagi xayolidagidek ko'rish uning orzusiga aylangan va o'zining bu yangi holatini ham idrok etgan. Bu holatni va bu orzularni ham hayotida hamishaga tatish va ko'rish uning xayoliga o'rnashib qolgan edi.

To'yning uchinchi kuni Akobir Toshkentga jo'nab ketdi. Yigitning ham qizdan, qizning ham yigitdan ajralishi og'ir bo'ldi.

Hijronli yillar o'tdi.

Mastura bu yillarni bo'lajak uy-joy, kelgusi baxt orzusida, Akobir bilan uchrashuv onlari orzusida o'tkazdi. Bu yillarda uning vujudini to'y kuni egallagan g'ashlik ham tark etib ketgan, vujudida o'shandagi quvonch hokim bo'lib qolgan edi.

Darhaqiqat, qo'shnilar va tanish-bilishlarning unga munosabati avvalgidek davom etar, Mastura ularga erkalanar, u yana beixtiyor ravishda hurmat talab va mehr talab bo'lib qolgan edi va buni hayotda har qadamida ko'rar edi. U yana o'z tabiatiga xiyonat qilmagan: odamlar munosabati unga nechuk o'zgarib qolganini mushohada etmagan, buni tabiiy bir holdek qabul qilgan, ularning yaqindagi munosabatlarini izsiz unutgan edi.

Akobir Toshkentda talashib-tortishib, qishloqlari etagidagi sahroga yo'llanma oldi. Kelib, neft qidiruv ishlarini boshladi.

Asta-sekin ularning orzulari ro'yobga chiqa boshladi.

Akobir uch yuz so'mdan maosh olar va "neft-razvedka"ga zarur bo'lgan barcha xomashyolar uning ixtiyorida edi.

— Xo'sh, qayerdan uy quramiz? — dedi bir oqshom Akobir horg'in.

Bu masalani Akobirdan oldin Mastura onasi bilan hal qilgan edi.

— Bu ota yurtni nima qilasan? — dedi ona. — Meni tashlab ketasizlarmi?

— Yo'q, olib ketamiz, — dedi Mastura.

— Bu hovlini sotasizlarmi?

Bu mulohazalar Mastura uchun yangilik edi. U onasiga diqqat qildi.

— Yo'q, qizim, — dedi ona ko'zlarini pirpiratib.— Mening ham besh kunligim bormi, to'rt kunligim bormi — noma'lum. Shu joy sizlarga qoladi. Shu yerni obod qilinglar. Har holda, ota yurting. Otangni arvohi ham shod bo'ladi.

Mastura uchun ortiqcha gapning hojati yo'q edi.

Mastura eriga ham shunday dedi.

Akobirning bu borada fikri o'zgacha edi: bu ko'ngli yarim bo'lsa ham, andishali va mag'rur yigit o'zicha mustaqil yashashni orzu qilar, qandaydir mulohazalarga borib, o'zining borligini isbotlamoqchi bo'lib yurardi. Keyinchalik esa, Masturada ham shunday maqsad bor deb avvalambor uni sevgani, so'ngra taqdiriga achinganidan mamnun bo'lgan edi.

Masturaning gaplarini eshitgan Akobir unga tikilib qaradi.

— Mastura, sening aytganlaringni qilaman, ammo, rejamiz bo'lakcha edi-ku?

— O‘ylab ko‘rdim, — dedi Mastura. — Axir, men otamning yurtini tashlab ketolamanmi?

“To‘g‘ri, buning gapi ham to‘g‘ri”, deb o‘yladi Akobir va o‘z ota-onasining qabri qayerdaligini hatto bilmasligiga achindi. “Albatta, mening ota-onam bo‘lganida, men ham o‘shalarning yonida bo‘lishni afzal ko‘rardim”, dedi o‘ziga.

— Yaxshi, — dedi Akobir va ro‘parasidagi uyga, bog‘ga yangi bir ko‘z bilan qaradi. Uyni aylanib, bog‘ni kezib chiqdi.

— Asta-sekin geologlarning to‘rt g‘ildirakli mashinasida a’lo sifatli taxta-yog‘ochmi, sementmi kela boshladi. Tog‘asi yaxshi ustalardan topib berdi. Ammo u, endi achindi.

— E, jiyan, chakki qilyapsan-da, — dedi. — Ichkuyov kuchuk kuyov deydilar. Turmushni bilmaysan. O‘zingni qafasga solyapsan...

— Tog‘a, u gaplar eskirdi, — dedi Akobir. — Mening uchun farqi yo‘q: bu hovli nima-yu, boshqasi nima.

Biroq, Masturani bir narsa ranjita boshladi. Akobir sahroda ishlar, haftasida bir kecha kelib yotib ketar edi.

— Shu yerda turib ishlasangiz bo‘lmaydimi, axir?— dedi Mastura.

— Bo‘lmaydi, Mastura. Men boshliqman. Ishimiz mas’uliyatli, — dedi Akobir.

Bu ranjishlar Masturaga boshqa haqiqatlarni ocha boshladi.

— Axir, biz ham odamlarga o‘xshab yashaymizmi o‘zi?— dedi bir kecha. — Hamma erkaklar sakkiz soat ishini qilib uyiga keladi. Xotinining yonida bo‘ladi. Siz bo‘lsa! Nima, yo u yerda bitta-yarimta topganingiz bormi?

Akobir uning mulohazalarini to‘g‘ri deb topdi.

— Mastura, qizishma, — dedi. — Gaping to‘g‘ri. Lekin, nima qilay, ishim shunaqa.

— Qurib ketsin shunaqa ish ham, — ko‘ziga yosh oldi Mastura.

Akobirning ko‘ngli iyib, Masturani: “meni sog‘inadi, yaxshi ko‘radi”, deb o‘yladi va chuqur xo‘rsinib:

— Bu tomonini boshda yaxshi o‘ylamapmiz-da, — dedi. — Albatta, sahroga borib sen yashay olmaysan. Uning issig‘iga chidab bo‘lmaydi. Men bunga yo‘l qo‘ymayman. Qiynalib qolasan!

Shundan keyin Akobir kunora kechasi kelib, tong otmasdan ketadigan bo'ldi. Biroq, juda ozib ketdi. Basharasiga qaragan kishi burnini ko'radigan bo'lib qoldi.

Bu orada esa, Masturaning homilador bo'lgani ma'lum bo'ldi. Unda ilgari ko'rilmagan injiqliklar paydo bo'ldi.

Bu yoqda... uy bitib borardi.

— Tashlaysiz ishingizni, bo'lmaydi! — dedi Mastura.

Akobir ikki oyga otpuska olib keldi. Uy bitdi. Chorbog' yo'lkalari ham qo'ldan chiqdi. Akobir bog'ni o'rab turgan uvada devorni buzdirib, bir g'isht qilib qayta devor urdira boshladi.

Mastura endi o'zi orzu qilgan hayotiga yetgan edi...

Biroq, bu unga hech qiziq tuyulmadi. Asta-sekin bu yangiliklarni unutdi va bularga qadimdan bor narsalardek qaray boshladi.

Akobir esa, o'z ishidan mag'rur va mamnun, Masturani ham shunday deb o'ylar edi.

Bir kuni Mastura ishkom ostida o'tirdi, o'tirdi-da:

— Bitta tandir qurib bering, bu isqotida non turmaydi, — dedi.

— Xo'p, — dedi Akobir. — Bugun kech bo'ldi. Ertaga tuproq opkelaman.

— Ertaga deb yurasizmi? Erta-indin yana sahroga deb ketib qolasiz.

Akobir yelkasini qisdi. Ikki paqir va ketmon ko'tarib, qishloqning g'arb tomonidagi tepalikka qarab ketdi. Tepaning tuprog'i qizil va pishgan bo'lib, uni tandir qurish va tom suvashga ishlatishar edi.

Akobir borib, chuqur, nam g'orga kirdi. Yo'lakdagi axlatlarni ketmon bilan surib tashladi. G'orda cho'nqayib o'tirib, tuproq qaza boshladi... Bir payt tuproq ichidan bitta sopol parchasi chiqdi. Uni paqir labiga urib qoqdi va tomosha qilarkan, sahrodagi ishini esladi. "Bir hafta qopti", deb o'yladi, so'ng xotinining "ketasiz" degani yodiga tushib, "endi nima bo'ladi?" — dedi o'ziga-o'zi.

"Mastura yana janjal qiladi. Ishimni tashlashim kerakmi? Uni olib borolmayman... Haftasiga uch marta qatnaydigan bo'lsam, o'lib bo'laman... E, erta-indin ko'zi yorisa! Qiziq bo'ldi-ku?"

Akobir yana ketmon ura boshladi. Ketmon qattiq narsaga tegdi — uning ko'za ekani ma'lum bo'ldi. Ko'zani sindirmaslik uchun atrofini o'yib, tuprog'ini ola boshladi. Oqibat, ko'zaning bir yoni chiqdi. Akobir tuproqni irg'itib tashlab, yana ketmon urdi va ustidan bir narsa bosayotgandek, uni tashvish qoplab tepasiga qaradi, boshiga yaqinlashib qolgan tuproq-shiftni ko'rdi. Burila solib, eshikka otildi. Yiqilib tushdi va ulkan tuproq uning bo'ynigacha bosib qoldi. Akobir ixtiyorsiz ingradi, butkul ichak-chavog'i bo'g'ziga tiqilgandek bo'ldi. Nafasi bo'g'ildi va ko'zlari otilib chiqqudek bo'lib qoldi. Qimirlamoqchi bo'ldi, nazarida qimirladi ham va "o'lamanmi endi?" dedi-yu, o'zidan ketdi.

Adirda qo'zi boqib yurgan bolalar tuproq olinadigan g'orning qulab tushgan tovushini eshitib qarashdi, g'or og'zidan yengil chang ko'tarildi. Ular taajjublanib chopishdi va g'or og'ziga tushib, Akobirning tuproqdan chiqib turgan boshini ko'rishdi.

— Akobir aka? — deb baqirdi naychining o'g'li.

— Tuproq bosipti, — dedi juvozchining nevarasi.

— Chaqiringlar... — zaif ovoz chiqardi hushiga kelgan Akobir.

Bolalar atrofga alanglashdi va to'g'ri Masturalarnikiga chopib ketishdi.

— A? Tuproq bosdi? — gangib turib ketdi Mastura. — Do-od! — dedi-da bolalarning izidan yugurdi.

Yetib kelganlarida Akobirning lablari tuproq bo'lib ketgan edi.

— Odam chaqiringlar... — dedi u yana zo'rg'a.

Mastura: "Voy, yordam beringlar!" deb qichqirdi. Olisda uning izidan chiqib, biri to'xtab turgan, biri ergashib kelayotgan ikki suvchi yigit bularga qarab yugurdilar.

Akobirning ikki oyog'i va beli sinib ketgan edi.

— Qimirlatmanglar, oh! — dedi u.

Suvchi yigitlar kasalxonaga chopib ketishdi...

Uni zambilga yotqizib, ko'chaga olib chiqishdi, keyin, u yerda turgan "tez yordam" mashinasiga solib olib ketishdi. Mastura yo'l bo'yi dod solib tizzalariga urib bordi.

— Men o'lay! Nimaga tuproq olishga yubordim! — deb yig'lardi u.

Shu kuni Akobirni shaharga olib ketishdi.

Birga borgan Mastura hovlidagi akatsiya daraxti ostida o'tirib, tug'adigan xotindek kuta boshladi. Bir soatdan keyin hamshira chiqib kelib, imladi.

— Vaqtida opkelishmapti. Zarajeniye bo'p ketipti, etidan sopol siniqlari oldik, — dedi doktor.

Mastura dodlab, xuddi doktor ayblidek unga yopishdi.

— Voy, tuzatib berasizlar, tuzatasizlar-ar! — deb baqirdi.

Uni Akobir yotgan xonaga kiritdilar.

Akobir ko'karib ketgan, yuzini tanib bo'lmas, yarim belidan pasti shishib, oq choyshabni ko'tarib turar edi.

— Men o'lay! — deb uning yoniga cho'kkaladi Mastura.

Ko'zlari ichiga cho'kkan Akobir jim yotar, og'zi ochilib, pastki jag'i osilib qolgan edi...

Akobirning qirqi o'tgach, Mastura uni asta-sekin unuta boshladi va uni otasini eslagani singari eslaydigan bo'lib qoldi. Lekin qo'shnilar undan yana yuz o'girishgan edi. Endi tajribali Mastura fikr qildi: "O'zi odamlarning tayini yo'q. Bir kun qarasang, yaxshi ko'radi, bir kun qarasang, yomon ko'radi. Fu! Yana bitta erga tegay, keyin yana kim yaxshi — Masturaxon yaxshi bo'ladi".

1975

QARIYA

Qo'ziboy cholning kasbi betayin. Bozor kunlarida jarchilik qiladi. Xususan, moli yo'qolgan kishilarga asqatadi: "O'zi ola buzoq, bir pochasi qora, ikki yashar! Kimki ushlagan bo'lsa yo ko'rgan bo'lsa, yo bog'lagan bo'lsa, o'ttiz so'm suyunchisi borho-o!" deb baqira boshlaganda ovozi yetti mahalla nariga ketadi. Qo'ziboy chol ana shu ishi uchun mol egasidan cho'tal oladi. Biroq hozir bu kasbning omadi ketgan; rayon shaharga aylanayotgani uchun aholi ko'payib, yer tag'in torlik qilib, tomorqalarda mol saqlab bo'lmaydigan darajaga yetyapti. Shuning uchun molini yo'qotib, Qo'ziboy cholga murojaat qiladigan kishilar ham juda oz! Biroq besh-olti yildan buyon Amudaryo yoqasiga yaqin ko'llar bo'yida guruch yetishtirayotgan koreys o'rtoqlar bozorga serqatnov bo'lib qolishgan. Ular kuzda kelib yotib olishlari bilan toki qishni chiqarmay ketishmaydi! Shundoq bo'lgach, ular qo'shimcha dastyorlarga muhtoj: keltirilgan qop-qop guruchlarni tushirish kerak, rastalarga joylash kerak. Vaqti-bevaqt ularga choydan qarashib turish lozim. Ishning eng qiyin va "sermahsuli" qishga qoladi. Ayniqsa, sahar paytida bozordan baralla ko'rinib turuvchi tog'lardan shundoq izg'irin esadiki, toqat qilib bo'lmaydi. Shunda beva xotin "jon olov, jon er" deganidek, sotuvchi o'rtoqlarga kul paqirda keltirilgan lag'cha cho'g' juda ham asqatadi-da! Bu cho'g'ni ularga Qo'ziboy chol qilib beradi.

Bozorda bu qariyadan bo'lak tag'in beshta xizmatchi bor. Biroq chol sotuvchilar bilan toza elakishib, mijoz bo'lib ketgan. So'ngra u boshqalardek ortiqcha to'ng'illamaydi, berganini olib, haqiga mo'l-ko'l duo qiladi. Pishiqchilik mahalida ham Qo'ziboy cholning ishi ko'payib, qo'li-qo'liga tegmay qoladi. Hali qarasangiz, shartta yorib yeb ketiladigan qovun-tarvuz po'choqlarini chelakka yig'ib yuradi. Hali qarasangiz, oyoq osti bo'lgan uzum,

pomidor, karam po'choqlarini terib yuradi. Ba'zan qo'shni mol bozoriga o'tib, tezak ham supuradi.

Shu ishi evaziga bozorkomdan maosh oladi, xizmatchilar ro'yxatiga "ishchi" deb yozib qo'yilgan. Maoshdan tashqari, sotuvchilarning himmatiga qarab tushadigan uch-to'rt chaqa pul ham cholning cho'ntagiga kiradi.

Qo'ziboy chol — oriq, oyoqlari chilcho'pdek. Yurganda boshini har tomonga burib, xuddi jarchilik qilayotgandek keskin-qaltis harakatlar qilib qadam tashlaydi. Kishilarga benihoya jiddiy nazar soladi. Choyxonaga kirsa, umrida ko'rmagan odami bilan ham nihoyatda quyuq so'rashib, avlod-ajdodlarini surishtiradi.

Darvoqe, ravoch chiqqanda ham qariyaning omadi yurishib qoladi: chunki eshaklarida qop-qop ravoch olib tushgan tog'lik o'rtoqlar ham Qo'ziboy cholning mijozlaridir! Ular rayon markazidagi aholi singari og'ir, "bardoshli"mas. Keltirgan mollarini donalab sotib o'tirgandan ko'ra uni ko'tarasiga sotib, o'zlariga kerakli narsalarni xarid qilib qaytishga shoshadilar: tog' uzoq, kechga qolmay qishloqlariga yetib olishlari kerak. Ana shunda Qo'ziboy chol ularning bamisoli hojatbarori bo'ladi. Biroq u bu xil olibsotarligidan kam foyda qiladi. Negaki savdoga qiziqib ketganidan keyin "o'n tiyinga beshtalab" sotayotgan ravochini "o'n tiyinga o'ntalab" sotganini ham bilmay qoladi. Shunga qaramay, bu ishni qo'ymaydi. Ayniqsa, kechasi kinoxona yonida chordana qurib sota boshlaganida o'zi ham juda mamnun bo'lib ketadi, boshqalar ham...

* * *

Cholning ota avlodidan ham, ona avlodidan ham hech kimi yo'q. Shuni es-es biladiki, bolaligida qishloqlarini qurollangan odamlar bosgan. U somonxonaga bekinib jon saqlab qolgan. Keyin chorbozorchilarga qo'shilib, ko'mir koni yaqinidagi qishloqqa borgan. Qo'y boqqan, pochtachilik qilgan. Bir eshonga murid tushib, yetti yil uning izidan yurgan. Qo'ziboy chol bola ko'rmagan. Xotini bundan sakkiz yil muqaddam o'zining qo'lida jon bergan. Xotinining qabri Qizil Gazada. Uchiga paxta qo'shib

o'rilgan qubbali jamalagi bilan kiygichi hamon qariyaning uyida, tokchada...

Shundan beri chol yolg'iz. To'rt yil bo'ldiki, uni o'lim vahimasi chulg'ay boshladi. Ko'zi pishib ketgani uchun o'limdan emas, jonkuyari bo'lmagani uchun o'lganini hech kim bilmay qolishidan qo'rqadi.

O'limligini tayyorlab, tayinli bir kishiga berib qo'yishni o'z burchi deb bildi va bu yillar orasida jamg'argan pulini Qobil qassobga berib qo'ydi. Onda-sonda qassobning do'koniga kirib: "Qalay, zo'rmi?!" deya pulning omon-eson turganiga shama qilib qo'yadi. Qassob ham kalta iyagini qashiyotgan bo'lib: "Xotirjam bo'l!" deydi.

...Bu yil kuz barvaqt tushdi. Bargi pastidan to'kilgan daraxtlar uchi qontalash. Chug'urchuqlar serob. Mezonlar ko'p — simyog'och simlarida, daraxt shoxlarida, tom bo'g'otidan chiqib turgan yog'och uchlarida. Chumchuqlar ham sertashvish. Rayon ko'chalarida odam siyrak. Hamma paxta terimida. Qo'ziboy chol ham bir hafta terimda bo'lib keldi. Juda yayradi! Biroq qaytib kelgan kuni kimsasiz bozorga kirib huvillab yotgan rastalarni ichki bir mamnuniyat bilan aylanib ko'rarkan, bozor odog'idagi kichkina darcha qattiq itarilib, ochilib ketdi. Ro'molining uchini og'ziga tutib olgan to'lagina ayol qizargan ko'zlarini yashirib, darvozaga qarab yo'naldi.

— Bahay? Tinchlikmi? — so'radi bozor ishchisi.

— O', akajon... Otamni berib qo'ydik. Bilasiz-ku, qandoq odam edi! — kelinchak o'tib ketdi.

"E, miskar olamdan o'tibdi-da... Chakki ish bo'pti. O'zi rahmat qilsin", — dedi qariya va bu kelinchak haqiqatan ham miskarning kelinimi-yo'qmi ekanini bilmoqchidek, uning ketidan tushdi.

Kelinchak chorrahadan o'tib, past ko'chaga enib ketdi.

Qo'ziboy chol choyxonaga kirdi. Kimsasiz, zax xonaga o'tib, bitta ko'kchoy buyurdi-da, chorpoyaga chiqib chordana qurdi. Do'ppisi ustidan qiyiqcha o'ragan G'oziboy choy olib kelgan edi, uni ro'parasiga o'tqazib:

— Attang-a... miskar o'tipti! — dedi. — Dunyo shu ekan-da, birodar!

Choyxonachi shoshib qoldi, surishtira ketdi.

— E, qizishmang, inim, — dedi Qo'ziboy chol beparvolik bilan. — Ajal vaqtiki kelib, har birimizning ham eshigimizni taqillatadi. Musulmon odam o'limni bo'yniga olib qo'ygani ma'qul... Meni boshqa bir nima o'ylatadi, inim! Qodirboy ko'p mo'min-musulmon odam edi. Balli... Uning izzat-hurmatini joyiga qo'yib chiqararmikan bu kelinchak? Shu yog'i meni o'ylatadi... Chakki ish bo'pti-da! Balkim tayyorgarligi yo'qdir? A?.. Unda qiyin! Inim, o'lim degani to'y emas, men sizga aytsam. To'y degani bamaslahat bo'ladi, o'lim tuyqusdan keladi! Buning farqi katta!.. Attang!

Bo'shashib qolgan choyxonachi Qo'ziboy qariyaning uzun, oq oralagan echki soqoli, cho'kik yonoqlariga o'ychan tikildi.

— Ota, so'raganning aybi yo'q. Necha yoshga bordingiz? — so'radi u.

Chol taltayib har tarafga qarab oldi:

— Nasib bo'lsa, mening hisobimda... ikki kam yetmishga kirdim! Men bilan o'sgan mana, Qobil qassob payg'ambar yoshiga borganiga naq besh yil bo'ldi. Shu hisobda uyam ikki kam yetmishga chiqdi.

Choyxonada odam ko'paydi. Qo'ziboy chol ular bilan so'rashib, paxtadan olgan taassurotlarini hikoya qilib xiyla o'tirib qoldi.

— E, bu Shoymardon Qudrat deganingiz toza zo'r ekan! Desangiz, paykalda paxta oppoq bo'lib, shu... charv moydek bo'lib oqib yotibdi! Mashinasi bilan bir oralasa bormi, quruq g'o'zasini ko'rasiz! U zo'r ekan... Haloli bo'lsin! Oltita bolasi bor ekan, xo'sh... bitta qo'li cho'loq. O'zi anavi Sho'rchidan bo'ladi. Qo'ng'irotdan! Boysun Qo'ng'irotidan! Alpomishning urug'i-da, baraka topsin...

Kechqurun uyga bordi. Qo'shnining echkilari tomorqaga kirgan ekan, ularni haydab kemtikdan oshirdi-da, o'ylab turib bostirmaga chiqdi:

— Ho-ho-o! — deb baqirdi. — Biri ola, biri qora echki ko'rgan bormi? Suyunchisini olib kelaver— ho-o! Qo'ziboy jarchining makkasini yeb yuripti! Baraka topsin egasi-yo!..

Qo'shni chiqdi, chol bilan kulishdi. U dahlizga kirayotgan edi, yiroqdan kelayotgan yig'i tovushini eshitib, turib qoldi. Xafa bo'ldi. Siyrak, uzun qoshlarini chimirib, ichkari xonaga o'tdi. Po'stakday qotib ketgan palos ustida turib, xonaga razm soldi. Tokchadagi jamalakni ko'rib, qo'liga oldi-da, tomosha qildi. Yana avaylab joyiga qo'ydi va qornidan ochiladigan yog'och sandiq ustidan eski joynamozini olib to'shadi. Tiz cho'kib, rosa tilovat qildi. O'lganlarga jannatdan joy tiladi, tiriklarga insof-adolat... So'ng pichirlab: "E, rasuli barhaq! Imonimni ber,— dedi. — Birovga yomonlik qilmadim, birovning haqini yemadim... Tog'lik og'aynilarni ham aldamadim. Ko'pning duosini oldim... Ha, farzand ko'rmadim. Senga bir yomonligim o'tgandir-da... O'zingga shukur. Qobilboyga ham umr ber, bola-chaqasining boshida omon yursin! Meni ko'msin! E, Qo'ziboyning hech kimi yo'q ekan demasin birov!.."

U yengil tortib qo'zg'aldi. Biroq tashqariga chiqib, tag'in yig'i ovozini eshitdi va tag'in ta'bi kir bo'ldi. Allaqanday vahima yuragiga tushib, tor ko'chaga chiqdi.

Ko'chaning bir boshi markaz tarafga ketar, bir boshi toshloq orqali soyga tushardi. Soyning tik qirg'og'ida qadimgi qo'rg'on vayronalari qaqqayib turar, uning vodiyga qarab ochilgan shinaklarini kaptarlar in qilgandi. Qo'rg'onning devori ustida ikkita bola ko'rinar edi. "Xah, shumtakalar! Yiqilib tushsa, kimga qiyin?! Yosh-da, yosh...".

Shu kecha qattiq shamol bo'ldi, chol bekorchilikda ekib, yaqinda o'rib qo'ygan makkajo'xorilarini har tarafga sochdi. Bostirma eshiga ko'p marta ochilib-yopildi. Allaqayoqda bir it uzoq hurdi, tongga yaqin uvladi.

Qo'ziboy cholning ta'bi battar xira bo'lib uyg'ondi.

Shu kuni uning ishi yurishmadi: kecha shamolda to's-to'poloni chiqqan bozorni supurib, supurindini axlat qutisiga solib qo'ygan edi, bir mashina tislanib to'kib yubordi. Chol bozorkom raisidan dashnom eshitdi. U Qodir miskarning o'limiga ham kechikib bordi...

Kechqurun Qo'ziboy chol gangib, qassobxonaga mo'raladi:

— Hormang, usta? Zo'rmi?

Qassob go'sht sotilmayotganidan kuyinib o'tirgan edi, tumshaydi:

— Bitta xolodilnik bersa, xotini taloq bo'ladimi?! Mana, go'sht buzilib qolsa, nima qilaman?

— E, tashvish chekmang, — dedi Qo'ziboy chol. — Hademay paxtadan odamlar qaytishadi... Buyoqda kun soviyapti!

— Siz ham gapiraverasiz-da!

* * *

Qo'ziboy chol shu oqshom yotib qoldi. Saharda turganda yomg'ir shivalab yog'ar, tevarak tinch, bostirma biqiniga taqab taxlab qo'yilgan sap-sariq jo'xori poyalari ustida chumchuqlar g'ujg'on o'ynashardi. Yomg'irda shalabbo bo'lgan bir it devor tagida iskalanib turardi.

— Tur! Yo'qol! — Qo'ziboy chol unga kesak otdi. It kemtikdan o'tib ketdi.

Chol odati bo'yicha soyga yuvinishga tushdi-yu, qaytishga madori yetmay qoldi. A'zoyi badani uvishib og'rir, shundoq toza havo ham unga yetishmayotgandek edi. Uyga zo'rg'a yetib kelib, ko'rpachaga cho'zilgan edi, ko'zi ilinib, tush ko'rdi. Marhuma xotini emish. "Yuring, yuring!" deb qo'lidan tortayotgan emish. Chol uyg'onib, bu tushning ta'birini yomon tomonga yo'ydi. Bozorga borishga ham hafsalasi bo'lmadi. Ayvondagi dekchaning tagiga to'rtta qurigan yog'ochni tiqib, ichiga bir kosa suv, kartoshka bilan ikkita sabzi solib, miltillatib qo'yishni o'yladi-yu, erindi. Ovqatga ishtahasi yo'q edi...

Shu bo'yi yotib qoldi. Xayriyat, ertasiga qo'shnisi Jamol aka tag'in buyoqqa tushgan echkilarini haydagani kirganida uni ko'rib qolib, uyidan bir kosa achchiqqina sho'rva chiqardi. Qariyaning ichi ilib, sal madorlandi.

— Bahay, olamda nima gap? — so'radi u. — Men... bozorga chiqolmadim, Jamolboy! Andak tobim aynib yotib qoldim deng... Shamol tegdimi, bilolmadim. Xo'sh?

— Yangilik shulki, rayon odamga to'lib qoldi, — dedi qo'shni. — Paxtadan qaytishgan, bozoringiz ham gavjum... Ko'chaga chiqing, yaxshi bo'ladi.

— To‘g‘ri aytasiz. Yotishdan foyda yo‘q!

Qo‘ziboy chol shundoq degani bilan tushgacha ko‘chaga chiqolmadi. Kechga tomon umrida birinchi marta hassa tayanib chiqdi. Rayon markaziga oralaganda, uning kayfi xiyla chog‘ bo‘lib ketdi... E! Chol haqiqatan ham yolg‘iz emas! O‘g‘li bo‘lmasa, o‘g‘lidek izzat qiladigan yoshlar bor... Ana, o‘zi tengi qariyalar ham unga izzat-ikrom ko‘rsatadi.. Shu koreys o‘rtoqlar ham eski mijozlarini asti unutishmaydi-da; paxtaga ketayotgan xalq chalg‘imasin, deb ularga ham guruch sotish man etilgan edi, yana mollarini olib chiqishibdi. Hammasi xursand! Qo‘ziboy chol ular bilan so‘rashib, choyxonaga kirdi.

G‘oziboy uning oldiga bir choynak choy qo‘yib, aftiga tikildi:

— Nima bo‘ldi, ota?

— E, issiq jon... Olloyim sevgan quliga kasal berar ekan, inim. O‘limni unutmasin, meni eslab tursin deb. Shundoqki, biz ham andak yotib oldik!

U ko‘chaga chiqqanida sovun, tuz xarid qilish uchun tog‘dan tushgan tojik oshnalariga yo‘liqdi. Ular g‘oyat so‘zamollik bilan choldan ahvol so‘rashdi.

— Akun in sol ham chukuri mo‘l meshad! — deyishdi ular. — Sizga rahmat... Bo bizdi esdan chig‘ormang, baxudo xapa bo‘lamez. Mana, bir yuzu oltmish panj kundan so‘ngra chukuri chiqadu!

— Ha, o‘limga sabr bersin, hammasi bo‘ladi, — dedi qariya.

U uyiga qaytar chog‘i qassobxona yonidan o‘tarkan, dili andak og‘ridi. Do‘stining xabar olmagani endi yodiga tushdi...

— Xo‘sh, tani sihatlikmi? — dedi u ichkariga qarab.

Yo‘g‘on, baquvvat qassob unga o‘tkir tikildi:

— O‘zingizni oldirib qo‘yibsiz?..

— Shunchaki...

— Mana, ish ham ko‘payib qoldi, qo‘l qo‘lga tegmayapti.

Chol yo‘lda o‘zini ovutdi: “U ishli odam... O‘zidan ortib borolmayapti. Hozir birovdan gina qiladigan vaqtmi?”

* * *

Qo‘ziboy chol o‘nglanmadi. Tag‘in uch kun yotib, ko‘zlari do‘-layib, olti oylik kasaldek bo‘lib qoldi.Yarim kechada tag‘in tush

ko'rib uyg'ondi va xotinini eslab o'tirgandi, tashqarida jo'xorilar qattiq shitirlab, it g'ingshidi. So'ng cho'zib uvladi, chol dang qotdi.

"He, endi vaqt yetipti, — deb o'yladi u to'shakda chordana qurib, engashib o'tirarkan. — Kun to'lipti endi... Rahmatli kampirim ham sezipti. Ana, it ham... Bekorga uvlamaydi-ku? Ovqatdan ham qoldim... Rizq-nasiba uzilyapti. Endi tayyorgarlik ko'rish kerak".

Ertalab u xotirjam bir holatda hovliga chiqdi. Odamlardan rozi-rizolik olish, qo'shnilarning uyiga mo'ralash, keyin bozorga borib, tanish-bilishlar bilan ham xo'shlashish, Qobilboyga uchrab, xotinining qabrini qanday qilib topishi va uchinchi kuni xaloyiqni chaqirib, yettisini ham, qirqini ham, yilini ham biryo'la o'tkazib yuborishni tayinlash, so'ngra bozorkomga yo'liqib, u bilan ham vidolashishni diliga tugdi...

Odamlar ham qiziq-da!.. Qo'ziboy chol bilan vidolashib, undan rozi ekanlari, bemalol oyog'ini uzatib o'laverishi mumkin ekanini aytish o'rniga nuqul kulishdi. Hatto bir-ikkitasi "vos-vos bo'psiz, o'qiting o'zingizni", deb hazil ham qildi. Yoshlar esa, dangaliga: "Qo'ying-e! Bo'ydoq odam ham shunday deydimi? Avval uylaning, bola-chaqa ko'ring, keyin bir gap bo'lar-da!" deyishdi. Lekin cholning bukchayib, behol qadam tashlab ketishini orqadan kuzatgan ba'zi birovlar achinib xo'rsinishdi ham.

Albatta Qo'ziboy chol ko'plarning gapi, kulgisidan mamnun bo'ldi. Bu narsa o'limning avval sezilmay kelgan hayajonini ham bosdi...

Nihoyat, yoshlik do'sti Qobil qassobning do'koniga kirdi.

— E, gapirmang-e! — dedi u.

— Xo'p deyvering, do'stim! — dedi Qo'ziboy chol kursida qo'zg'alib qo'yib. — Menga ayon bo'ldi...

Yo'g'on yong'oq to'nkasi ustidagi go'sht parchalari, suyak siniqlarini sidirib terib olayotgan qassob unga tikilib qoldi va birdan xo'rsinib, skameykaga o'tirib qoldi.

Bu baquvvat, barvasta, sog'lom odamga — Qo'ziboy avvallari ham oriqligi, qotmaligi uchun kasaldek ko'rinar, ming so'm pulni keltirib sanab berganida, "shu o'ladi-yov" deb ko'nglidan

o'tkazgan edi. Hozir uning botib ketgan ko'zlari, za'faron yuzi, qo'lidagi dag'al hassasiga tikilib: "Ha, o'ladi", deb o'yladi.

— Shuning uchun, do'stim, — davom etdi qariya, — men avvalambor, sizdan rozilik olmoqchiman. So'ngra... andak vasiyatim bor.

— Vasiyat?!

Qassob Qo'ziboy cholning pulini o'shandayoq ishlatib yuborgan va bu odamning hech kimi yo'qligi, o'zi xudojo'y hamda urish-janjaldan nari yurishini bilgani uchun o'shandayoq quvonib: "Bu o'zimniki bo'ldi", deb qo'ygan edi.

— Ha, esim borida vasiyat qilib qo'yay, do'stim. Bir haftadan beri mazam yo'q! Siz ish bilan ovorasiz... Inchunin, o'lib qolganimni bilmay qolishingiz ham mumkin, labbay? Shuning uchun har uch kunda anavi dastyoringizni yuborib, mendan ahvol so'ratsangiz, haqiga o'sha puldan bir so'mdan bering...

Qassob piyolasidagi choyni to'kib tashlab, peshtaxtani tushira boshladi. Xona qorong'i bo'lib qoldi.

— Tashqariga chiqaylik.

— Xo'p bo'ladi... Yo siz ham menga ishonmayapsizmi? Undog' bo'lmasin...

* * *

Yarim soatdan keyin Qobil qassob darvozaga qarab borar, bozor xizmatchilarining yordami bilan rasta taxtasiga chiqib olgan Qo'ziboy chol ko'zidan shashqator yosh oqizib, atrofga xira ovozda jar solar edi:

— Eshitmadim demanglar! Suyunchisi bor... Qobil qassob past odam ekan. Men o'limligim deb ming so'm berib qo'ygan edim, tondi! Xaloyiq! U pul sizlarning pullaringiz edi. Mening halol mehnatim uchun so'mlab, tiyinlab bergan edingiz. Ana shu odamga berib, o'limimga yarat deb edim... Tondi. Yeb ketadi endi... Odamlar, Qobil qassob haromxo'r! Odamning haqini yeydi bu... Xudodan tilagim shuki, o'ligi ko'chada qolsin, bekafan bo'lsin, xaloyiq... Meni bekafan qildi, odamlar!

Qobil qassob darvozadan chiqqan joyida orqaga qarab chopdi. U yetib kelganida yoshlar, qariyalar uning yo'lini to'sishdi. Cholni

himoya qilishdi. Ishga militsioner aralashdi. Qassob bilan Qo'ziboyni bozorkomning idorasiga kiritib, so'roq qildi.

— Bunda pul bo'ladimi, o'zi o'n tiyinga zor-ku?! — baqirdi qassob. — Jinni bo'pti bu... Olibsotar! Guvohing bormi? Asti birovga yaxshilik qilma ekan... Hech kimi yo'q deb do'konga chaqirardim, choy quyib berardim! Mana, tovon to'la, deb turipti... Ketmaydi! Haqiqat bor!

Oraga bozorkom raisi ham qo'shildi. Natija chiqmadi. Qassob qutulib ketdi. Qo'ziboy tashqariga chiqib, gujum ostiga o'tirdi.

Janjalni uzoqdan kuzatib turgan — baland bo'yli, qozoqbashara, o'rta yashar Mirg'ozi qassob kelib, cholning tirsagidan ko'tardi.

— Ota, xafa bo'lmang... O'limni o'ylamang... Siz bekor g'avg'o ko'tardingiz, shu hassa bilan boshiga solishingiz kerak edi.

— O', bolam...

Mirg'ozi Qo'ziboy cholni uyiga eltib qo'ydi. Qo'shnilariga choldan xabar olib turishni tayinlab qaytdi.

* * *

U jimjit uyda, palos ustida cho'zilib yotib, shu fikrga keldi: "Bu ahvolda men qandoq qilib o'laman? Asti mumkin emas, sirayam... Men yana mehnat qilishim kerak. Halol pul topishim kerak. O'limlik qilishim kerak... Undan keyin o'lsam, boshqa gap...".

U qo'shni chiqargan ovqatni zo'rlab yedi. Yarim kechada turib, go'sht qovurdi. Sahar uyg'onib, soyga tushdi. Yuvindi. Tetiklanib, ko'chaga yo'l oldi...

Qo'ziboy chol avvalgidek bo'lib ketdi.

1975

ODAM

Falsafiy hikoya

Rahima endi chelagini suvga botirgan edi, orqasidan birov chaqirdi.

Rahima chelagini suv bo'yiga qo'yib, o'tov oldida turgan Xosiyat opaning yoniga bordi.

— Buyoqqa kir, bir nimani ko'rsataman. Shahardan opchiqishipti!

Rahima uning ortidan o'tovga kirdi-yu, taxmon qoshida tik turgan yigitni ko'rib, ketiga tislandi. Xosiyat opa uning yo'lini to'sdi:

— Satilingni opqo'yaman, bermayman!

— Qoching!

Rahima uni itarib yuborib, tashqariga otildi. Chelagining suvini yarim qilib, sohilga chiqib oldi va soy bo'yidagi o'tovga nafrat bilan qaradi.

Shu kecha uning onasi qazo qildi, o'lim oldida nevara-chevarasigacha yoniga chaqirib, ulardan rozi-rizolik oldi. "Mendan yaxshilik o'tgan bo'lsa, unutmanglar. Yomonlik o'tgan bo'lsa, esdan chiqaringlar. Rostgo'y, mard, halol bo'linglar!" — dedi. So'ng Rahimaga tikilib:

— Bolam, Shodmon shahardan kelgan, — deya entikdi. — Seni deb kelgan. Xosiyat opangni uyiga qo'ngan. Ota-onasiz yetim bola. O'zimizdan. Seni o'shanga bermoqchiydim.

Keyin, yil o'tgach, Rahimani Shodmon polvonga uzatishni katta qizlariga tayinlab, ko'z yumdi.

... Yil o'tib, Rahima Shodmon polvonga xotin bo'ldi, uni shaharga tushirib ketdilar.

Shodmon sho'x, charmgarning beva kelini bilan bordi-keldisi bor ekan. Rahima buni qo'shni ayoldan eshitib, bir oqshom poyladi va eri devordan oshayotganda, oyog'idan tortib yiqitdi. Polvon uni bir urib, shaytonlatib qo'ydi. Shunda Rahimaning chap qo'li sindi. Lekin keyin Shodmon ham bu yurishlarini bas qildi.

Oradan to'rt yil o'tdi. "Inqilob bo'larmish, bek-bekzodalar yo'q bo'larmish" degan xabarlar tarqala boshladi. Shodmon o'shanda yurtdosh polvonlar bilan Afg'onistonga ketgan edi. Bir haftadan keyin uyoqda yiqitgan polvonlari haqqi — bir tuya mol bilan qaytib keldi va uch kun yotib, tirnoqlari ko'kardi, tog'day odam mushtdek bo'lib tirishib qoldi, o'ldi.

Rahima kelin... beva qoldi.

Ikki yildan keyin bozorning farroshi unga odam qo'ydi. Rahima: "Polvon meni qulflab ketgan, kaliti o'zida", deb sovchilarni qaytardi. Ular tag'in kelishgan edi, ariq ichida yotgan kaltakni olib boshiga ko'tardi: "Tinch qo'yasanlarmi, yo'qmi? Qo'y, uchta yetimchani boqay!"

Shodmon polvondan uchta farzand qolgan, kattasi bilan kenjasi qiz, o'rtanchasi o'g'il edi. Bir kuni guzarda "qizillar kelyapti" degan ovoza tarqalib, odamlar tog'larga qocha boshlashdi. Rahima ham bolalarini olib, yo'lga tushdi: xurjunning bir ko'zida non, sapcha, tut mayiz, tolqon. Ikkinchi ko'zida kenja qizi Tursunoy.

Tog'da qochqinlikda bir yil yashadi, o'sha yili qish qattiq kelib, chap oyog'ini sovuqqa oldirdi — shishib ketdi. Bahorda yana shahardan yangi xabarlar kela boshladi: "Qizillar" ham o'zimiznikilar ekan. Musulmonobodlik bo'pti... Omonlik-omonlik!"

Rahima jonidan to'yib yurgan edi, shaharga jo'nagan birinchilar qatorida yo'lga chiqdi.

...Shahar vayron bo'lgan, chet-chetdagi gumbazlar yiqilgan, devorlar qulagan, lekin tinch, sokin edi. Bodomlar gullab turardi.

Uch oy o'tib, kolxoz tuzildi.

Rahima el qatori kolxozga kirdi va uning faol a'zosiga aylandi. G'alla o'rimi mahallarida Adolat bilan Abdurahimni ham olib chiqar, ular mashoq terishar edi.

Kenjasi tog'da... ochlikdan o'lib ketgan.

Bu vaqtda Adolat maktabga qatnar, Abdurahim ham dastyor bo'lib qolgan edi.

Yillar o'tdi... Rahima endi o'tgan kunlarini, qizligi, shaharga tushgani, eri, uni poylaganlarini tushdagidek eslar, endi o'sha kunlar ham unga qiziq, ajib ko'rinar edi.

Urush! Urush!..

Adolatni raykomga ishga olishdi, Abdurahim frontga ketdi. Uning ayoli bilan ikkita farzandi qoldi.

Bir yil o'tib Abdurahimdan qoraxat keldi, saldan so'ng uning yosh xotini ikki bolasini ham Rahima opaga tashlab, chiqib ketdi. Endi Adolat ham bitta o'g'lini uyda qoldirib, dashtma-dasht yurar, erkaklarning ishini qilardi.

Urush tugadi, yana tinchlik, omonlik bo'ldi.

Endi Rahima buvi urush yillaridagi kunlarni xotirlar, u kunlar ko'z oldidan tushdek o'tar ekan, kelinini olti oy o'tirmay er qilib ketgani uchun hamon kechira olmas, o'shanda kunlariga yaragan ola sigirni o'kinch bilan eslardi, sigir sutdan qolgach, so'yishgandi.

Tag'in yillar o'tdi. Uch nevaradan biri institutni bitirib, agronom bo'lib qaytdi. Biri novvoy, biri olis shaharda uylanib qoldi.

Rahima kampir endi nevaralariga qarar, ularga o'tmishidan ertaklar aytib berar, uning butun hayoti ham g'alati bir ertakka o'xshar edi.

Rahima buvi to'qsonga yaqinlashib qoldi. Adolat opa ham davlat pensiyasiga chiqdi. Uning eri Qurbon bobo — kolxoz bog'boni. Chorbog' torlik qilgani uchun agronom nevara boshqa joydan uy solib chiqib ketdi.

...Kampir ikki yilcha tinch, xotirjam yashadi. Nevaralarini suyar, shular bilan ovunar, endilikda o'choqboshiga ham yaqin bormas, ro'zg'or yumushlari ham Adolat opaning qo'liga o'tgan edi.

Keyin-keyin Rahima buvi esdan chiqaradigan odat paydo qildi. Bir narsani bir joyga qo'yib, keyin topolmay yurar, shunda ko'ngli bo'shab yig'lab ham olardi. Keyinchalik chevaralari bilan jiqillashadigan, tortishadigan bo'ldi.

Ezmalik... Rahima buvida ana shu xislat ham paydo bo'ldi. Kattalar uning gapini eshitmasa, go'daklarni yoniga o'tqazib qo'yib gapirar, nuqul tarixdan tushar va shunday aniq qilib so'zlardiki, o'sha voqealarni hozir ko'rib turgandek taassurot qoldirardi kishida.

Bu hol bir necha oy davom etdi.

Agar uning gapini diqqat bilan eshitib, o'zicha tahlil qiladigan kishi bo'lsa, antiqa bir holni sezardi: u dastlab kechagi tarixdan so'zlardi — urushdan keyingi yillar, o'zining chopib-chopqillab ro'zg'or ishlarida yurgani. So'ng nuqul urush davrida boshidan kechirganlarini hikoya qiladigan bo'ldi. So'ng urushdan avvalgi yillarga o'tib oldi: kolxoz tuzilishi, quloqlar, kechasi bittasining: "Kolxozga ishga chiqma, so'yilasan!" — deb qo'rqitgani, o'zining: "Yetimlarimni boq bo'lmasa!" deya faryod qilgani... Keyin, bir-ikki kun o'ziga sovchi bo'lib kelganlarni qarg'adi-yu, eri Shodmon polvon tilidan tushmay qoldi: "Tog'dek yigit edi. Tirishma degani vabomi? Afg'onda bor ekan...".

Bir kuni Rahima kampir yosh qizaloqdek quvonib, uy atrofida timirskilanib yurdi. So'ng narvonga tirmashib, tomga chiqib oldi va pastga tusha olmay, yig'lab o'tirdi. Kuyovi kelib, bir amallab pastga tushirdi.

Shunda qiziq ish bo'ldi, kampir kuyoviga birdan yot nazar bilan qarab qayoqqadir qochmoqchi bo'ldi va hassasini ham tashlab, emaklab uyga kirdi. Eshikni zichlab yopdi.

U dag'-dag' titrar edi. Xonaning shiftlariga hayrat bilan boqdi, eshikka yaqin borgandi, eshik birdan tortildi. Rahima buvi: "Voy!" deya chekindi. Ostonada qizi Adolat opa turardi.

— Xosiyat? Xosiyat opa! — pichirladi kampir. — Qo'yvor meni... Nimaga uyga qamab qo'yding? Baribir qochib ketaman. Satilimni ber!

Adolat opa bir qadam ichkariga bosdi:

— Enajon, sizga nima bo'ldi? Jonim enam?

— Haligi erkak qani, yo'q-ku?

Shu kuni kechgacha Rahima kampir mana shunday, bamisoli o'n besh yashar qizlik davri bilan yashadi: onasini esladi, soyni. Onaning vasiyatlarini.

Adolat opa bilan Qurbon bobo uning xonasida o'tirishardi. Ular chiqib ketgach, Rahima buvi birdan xayolga tolib qoldi va... ko'z oldidan allaqanday baland minoralar, paranji yopingan ayollar o'tdi. Keyin o'zini allaqanday ariq labida ko'rdi: birov devorga tirmashyapti. Kim u? Eri-ku? Oyog'idan tort!.. So'ng kampir o'zicha iljayib, xonada keza boshladi, shipdan osilgan lampoch-

ka tagida taqqa to'xtadi. Boshi aylanib, ko'zi tindi, so'ng ko'zi yumiq bo'lsa-da, aniq ko'ra boshladi: dara, katta gulxan yonyapti. Atrofida otlar, eshaklar. Shoshilib u yoqdan-bu yoqqa o'tayotgan odamlar... Shunda u xuddi sovqotayotgandek junjikib ketdi. Beixtiyor yerga o'tirib, chap oyog'ini uqaladi. So'ng ko'z oldiga lop etib kirza botinka va fufayka kiygan o'g'li Abdurahim keldi. "O, bolam, dushmanga qiron kelsin!" — shivirladi u... Keyin chayqalib o'tirarkan, sap-sariq bug'doyzorda yurgandek his etdi o'zini.

Shunda Rahima buvi birdan hushyor tortib ketdi va nevaralarining nomini tutib chaqira boshladi, keyin o'z-o'zidan xijolat tortdi: nega nevaralarini chaqiryapti u? Ular bu atrofda yo'q-ku? Chevaralarini chaqirmoqchiydi shekilli.

...Adolat qani? Qizi? Haligina shu yerda edi chog'i? Kimlar chiqib ketdi boya? Rahima kampir ertasi kuni bir necha odamga o'xshab, har xil qiyofada yashadi: goh Rahima qiz bo'ladi, goh Rahima kelin. Birdan Rahima onaga aylanadi. Keyin Rahima buviga... So'ng yana Rahima qizga.

— Enajon, bizni qo'rqitmang, enajon, — dedi Adolat opa kechqurun tag'in uning uyiga kirib. — Bu ovqatni yeng... Mana, choy! Kecha meni yomon qo'rqitdingiz.

— Nima? Nima dedim? — so'radi u parishon bo'lib.

— Axir meni tanimay qoldingiz-ku? Sizni uyga qamab qo'ygan emishman. Meni Xosiyat dedingiz... Bunaqa qilmang, enajon? Siz yosh bola emassiz-ku? Eshityapsizmi? Yosh bola emassiz... Sochlaringiz qayta qoraya boshladi, tishlaringiz qaytadan chiqyapti. Piri badavlatsiz, enajon?

— Mening enam qani?.. U kutib qoldi-ku? Nimalar deyapsan?

— Jon ena...

— Satilimni opqo'ydingmi?

— Uf...

— Enam kasal edi, o'ladigan bo'lib yotipti... U o'ladi! Ketaman uyimizga.

Adolat opa yig'ladi. Chiqib eriga yolvordi:

— Choljon, qanday kunga qoldim? Enam yosh bola bo'lib qopti. Choljon... nahotki odam oxir-oqibatda shunday bo'lib qolsa-ya? Bu dahshat emasmi?.. Boyoqish enam! Yomon ayolmas edi.

Bizni deb yashadi, umri o'tdi. Endi hech narsani bilmay, eslolmay o'tiripti. Bilgani, eslagani — bolaligi!.. Men qo'rqib ketyapman, choljon? Menga qarang, nimani o'ylayapsiz?

— Kampir... odam bola bo'lib o'lmaydi.

— Yo'q, yo'q! Bunda bir sir bor... Xo'p deng. Men naqlini ham eshitganman. Topishmoq bor-ku: to'rt oyoqli bo'lib tug'ilarmish, keyin uch oyoqli bo'larmish...

— Keyin ikki oyoqli.

— To'g'ri-da, odam tug'ilganda o'rmalab yuradi, keyin bir nimaga suyanib yura boshlaydi, uch oyoqli bo'ladi. Keyin ikki oyoqli, a?

— So'ng qo'liga hassa oladi, tag'in uch oyoqli bo'ladi. Keyin...

— Yana to'rt oyoqli bola... Bola! Choljon, haqiqatdan ham enam bola bo'lib qoldi-ku? Erta-indin hassaga tayanib ham yurolmay qoladi. Rostakamiga bola bo'ladi... Nimaga ishonmaysiz?

— Kampir... odamzod bola bo'lib o'lmaydi. Unda yashashida ma'no bo'lmas edi.

— Men ana shundan qo'rqyapman-da?

— Hovliqma, kampir... Sabr qil.

* * *

Uch kundan keyin Rahima kampir birdan o'ziga keldi. Unga qaragan, gapini eshitgan kishi kuni kecha qilgan ishlariga sira ishonmas edi.

Momo qizini chaqirdi, unga ma'yus tikilib, yig'ladi:

— Konsert ko'rsatdimmi? Nimalar dedim... Eslolmayman.

— Hozir tuzukmisiz, enajon?

— Xudoga shukur... Bolam, taraddudingni ko'r, men ketaman endi.

— Enajon?

— Xo'p de, yolg'izim. Sezib turibman... Qil ustida turganga o'xshayman... Bolaga o'xshab qoldimmi?

— Sal...

— Sal emas. Rahmatli enam ham shunaqa bo'lgan edi. Keyin o'lar chog'ida aytgan ediki...

— Nima degandilar?

— Odamzod hayoti oxirida... so'nish oldidagi shamga o'xshar emish. Odam o'lim ostonasida birdan kuch yig'adi ekan. Sham ham so'nish oldida birdan alanga olib yonadi-ku? Keyin so'nadi...

— Enajon.

— Men xiyla aljib qoldim-a? Esim bor... Keyin juda bo'shashib ketdim, jin urdi-qo'ydi. Xayriyat, hozir es-hushim joyida, bolalarni chaqir, vasiyat qilay.

* * *

— Bolalarim, mendan rozi bo'linglar. Yaxshiligim o'tgan bo'lsa, unutmanglar. Yomonligim o'tgan bo'lsa... esdan chiqaringlar. Men hayotimdan roziman, sizlardan roziman. Mendan ham rozi bo'linglar.

1975

PODACHI

Bo'lim idorasi yong'oq ostida. Imorat oldida kartoshkapoya yastangan. Undan narida soy. Soyning yoqalarini maymunjonlar va jiyda butalari qoplab olgan. Narigi sohilda, do'mpaygan sarg'ish tepalar etagida — bir necha o'tov, kapa, mol qo'ralari.

Idora yaqinda qurilgan bo'lsa-da, devorining pastlari nam tortib, ko'pchib ketgan, peshtoqiga "Agitpunkt-2" degan yozuvli alvon qoqib qo'yilgan. U bahordan qolgan, yomg'irda yuvilib, quyoshda rangi o'ngib ketgan.

Idoraning chap qo'ldagi xonasi — bo'lim boshlig'iniki. Kiraverishda kursi bor, uning ustida bir chelak suv, chelak bandiga alumin krujka ilig'liq. To'rda katta stol. Devorda bo'limning xaritasi.

Odatda idorada hech kim bo'lmaydi. Bo'limning kattalari uzzukun dalada, bo'sh vaqtda uyda, oqshomlari— bu yerdan o't-tiz kilometr g'arbdagi Sherobod daryosi bo'yida, sovxoz markazida. Bu kech idorada odam gavjum. Bo'lim mudiri ham, kassir, agronom, zootexnik va brigadirlar ham shu yerda. Ular Ostonaqul cholni muhokama qilishyapti. Chol eshik yaqinida boshini xam qilib, egilib turibdi. Og'irligini u oyog'idan bu oyog'iga soladi. Odob yuzasidanmi, hassasini dahlizda qoldirib kirgan.

— Xo'sh, ota, aybingizni bo'yningizga olasizmi?

Chol to'rda, stol ortida o'tirgan girdig'um, yelkador bo'lim boshlig'iga manglayi ostidan qaradi:

— Ha endi, aybdormiz-da, — dedi.

Jikkak, peshonasidan iyagiga qarab silaganda qo'l biron bir "burun" otli to'siqqa, yo "ko'z" degan chuqurchaga tushmay o'tadigan yapaloq zootexnik To'raboy irg'ib turdi:

— Aybdorman degani bilan qutilib ketmoqchimi? Men talab qilaman, ola ho'kizning pulini to'lasin! — To'raboy joyiga o'tirdi.

Bo'lim boshlig'i kir bo'lib ketgan kolominka kiteli yoqasidan qo'lini ichkariga solib, go'shtdor yuzi tirishganicha, gardanini qashidi:

— E, attang, — dedi keyin yelkasini qimirlatib.— Kuchdan qopsiz-da, otam? — cholga tikildi u.— Biz sizga ishongan edik. Axir, kasal ekanini kunduz kuni payqagan ekansiz, shartta so'ymaysizmi? Unda buncha gap-so'z ham yo'q edi.

— Kechasi o'lgan, kechasi! — dedi zootexnik. — O'zim jigarini yorib ko'rdim-ku, sovigan ekan. Boboy uxlab qolgan!

Ostonaqul chol jim, gapirgan kishining og'ziga qarar, so'ng bosh irg'ib "to'g'ri" deganday bo'lar edi.

Bo'lim boshlig'i inqillab o'rnidan turdi:

— Ota, gap tamom. Ho'kizning pulini to'laysiz! — U atrofdagi kishilarga ham bir-bir qarab oldi. — Qasddan o'ldirgan hisoblanadi... Kelishdikmi, ota?

Ostonaqul chol sekin boshini ko'tardi:

— Xo'p, o'g'lim, to'laymiz.

— Kechiktirmang faqat! Kambag'al emassiz, belingiz baquvvat, qarindosh-urug'laringiz bor. Kampiringizniyam yig'ib qo'ygani bordir? Shunday bo'lsin... Majlis tamom!

Chol chekinib, qo'l qovushtirdi. Ulardan keyin chiqmoqchi bo'ldi. Lekin brigadir uning kiftiga qoqib:

— Yuring, ota, yuring, — dedi. — Endi qolgan ho'kizlarga ehtiyot bo'ling! Yaxshilab semirtiring. Yo'g'asam, podachilikdan ham ayrilib qolasiz. Chol, "Ma'qul, ma'qul", deb jildi.

U tashqariga chiqqandan keyin ham, kattalar biron nima desa kerak, deb kutdi. Ular chiqib, boshqa mavzularda gaplasha-gaplasha idora ortidagi ikkita yuk mashinasiga qarab ketishdi. Ostonaqul chol kartoshkapoya yoqasidan yurib, soy bo'yiga yetdi. Oqshomdayoq to'lib, nur socha boshlagan oy porlab turar, uning yog'dusi toshlar oralab oqayotgan suvda "chil-chil" sinib yaltirar edi.

Nari sohildagi o'tovlar oldidan tutun ko'tarilyapti, tutun tagida buralib qizil o't ko'rinadi.

...Ostonaqul chol kecha kechki payt ho'kizlarni Oqtumshuq tepa o'ngirlaridan endirib, Ko'kbuloq adiridagi ovuliga haydab kelmoqda edi. O't-o'lanlar allaqachon quvrab qolgan bo'lsa-da, ho'kizlar labiga ilingudek. Oq, pushti gullarini ko'z-ko'z qilib xayrigullar ham tebranib turar, tuprog'i bo'sh betlarda kavrak, qushqo'nmas tikanlari ham mo'l, mollar o'shalarni ham qiyratib kelar edi.

Sayhonlikka tushganda ola ho'kiz orqada qolaverdi va birdan to'xtadi, uchi singan shoxi ham og'irlik qilayotganday boshini bir-ikki marta qimirlatdi. Keyin orqaga tislandi, oldinga intildi va yonboshiga ag'anab tushdi.

Chol alpang-talpang yurib, ho'kiz boshiga yetdi.

— Chuh! Bosh! — deb ho'kizni turg'izmoqchi bo'ldi.

Ho'kiz esa, qassob qo'lida pichoqni ko'rib itoatkorlik bilan bo'ynini cho'zgan qo'ydek, boshini tuproqqa qo'yib, olaygan ko'zlarini podachiga tikdi.

Chol ham parishon bo'lib, uning ko'ziga tikildi. So'ng ho'kizning oyoqlarini bir-bir ko'tarib, tuyog'i tagiga qaray boshladi: "Mix-pix kirdimi?" Yo'q. U tag'in ho'kizning bosh tomoniga o'tib, og'ziga tikildi, jag'ini ochib ko'rmoqchi bo'ldi-yu, fikridan qaytdi: "Zuluk yutgan bo'lsa, ko'pigi chiqardi!"

Ostonaqul bobo bir nafas gangib qoldi. Keyin hassasini ko'tarib, molning quymichiga qars etkazib urdi. Ho'kiz boshini ko'tardi, yana inqillab cho'zildi.

— E-bo-ye! Nima bo'ldi senga?.. Charchab qoldingmi? Tur joyingdan! Tur deyman! — Chol ho'kizning quyrug'iga o'tib, dumidan mahkam ushladi. Zarb bilan buragandi, ho'kiz hansirab o'mrovini ko'tardi va oldingi oyoqlariga bosdi. Chol dumini qo'yvormay hayqirdi:— Ha, jonivor!

Ho'kiz turib ketdi, badani dir-dir titradi. Dumini asta qimirlatdi.

Ko'kbuloqqa yetguncha ola ho'kiz og'zini xasga urmadi. Sheriklari shitirlatib cho'p-xaslarni yamlab yeb borar, bu esa xomush — boshini osiltirib olgan, ular yemishga andarmon bo'lganda, muhim bir narsaga quloq solayotgandek, taqqa to'xtab qolardi.

Buloqdan chiqayotgan suv nariroqda kattagina ko'lmak hosil qilgandi. Ho'kizlar tizzalarigacha suvga kirib, rosa simirishdi. So'ng olislarga angrayib, lablari, burunlarini yalashdi. Ola ho'kiz loyqa suvga bir nafas tumshug'ini tegizib turdi-da, chetga chiqdi. Yotmoqchi bo'luvdi, chol hay-haylab qo'ymadi.

— Kampir, ola ho'kizga bir kasal tekkan, — dedi Ostonaqul chol.

Boshidagi oq dona qiyig'ining uchini tishlab, kichkina ko'zlarini qisinqirab turgan Oysuluv kampir choliga o'ychan tikildi. So'ng cholini o'tkazib yuborib, qo'raga yo'l oldi. Engarak[1]ni ochib, kirdi. Boshqa ho'kizlar nariga ketgan — bir-biriga ishqalanar, go'ng-nishxo'rt aralash tuproqni hidlab, tumshuqlarini qimirlatar, ba'zisi chet-chetga borib, yonboshlab olgan edi.

Ola ho'kiz esa eshik yaqinida cho'zilib qolgan, qattiq charchagandek hansirar edi. Kampir ham mol boshiga engashib, tizzalariga qo'lini tiraganicha, unga bir muddat tikildi. So'ng ildamlab qo'radan chiqdi-da, o'choq boshidan xokandozni olib, kapaga o'tdi. Yog'ochga qistirib qo'yilgan isiriqdan bir changal solib chiqdi. Keyin uning tagiga laqqa cho'g'dan qalab, bir-ikki pufladi. O'tov eshigidan mo'raladi.

Chol xufton namozini o'qish uchun taxmondan joynamoz olib, namat ustiga to'shamoqda edi.

— Chol, ko'z tegdimi? Kim ko'rib edi? — dedi Oysuluv moma. — O'ziyam suvday kilkillab semirgan.

Ostonaqul chol xotiniga qaramay:

— Seni ko'zing tekkandir-da, — deb qo'ydi.

Kampir xokandozda tutay boshlagan isiriqni ko'tarib, qo'raga ketdi. Ola ho'kizning boshi ustida xokandozni ikki-uch marta aylantirib, tumshug'iga tutdi, tutunni aftiga qaratib pufladi.

Keyin xokandozni chetga qo'yib, isiriq tutab bo'lguncha cho'nqayib o'tirdi. Ostonaqul bobo namozini o'qib bo'lgandan keyin ham anchagacha joyidan qo'zg'almadi. Kampiri dasturxon yozayotganda birdan irg'ib turdi-da, belbog'iga osig'liq qindan pichoqni sug'urdi. Tosh tuz tuyiladigan o'g'ir ichidan uzun qayroqni olib, pichoqni qayray boshladi.

Kampir sopol tovoqda shavla ko'tarib kirdi:

— Avval bir nima yeb oling! Shuni so'yish qochmas... Kuni bitgan bo'lsa, nima qilasiz, — dedi.

Chol xo'rsindi:

— Yo zootexnikni olib kelsammi?

— Markazga tushasizmi? Qachon borib, qachon kelasiz. O'ttiz chaqirim — hazil yo'lmi. Ungacha... o'lib qolsa, nima bo'ladi?

[1] **Engarak** — qo'raning chetan eshigi.

— Bu gaping ham to'g'ri, — chol ko'rpachaga cho'kka tushdi. — Bo'limning idorasidayam telpon yo'q. Kattalar qachon jam bo'lsa, idorani songa solish kerak, deyishadi. Ertasi eslaridan chiqib ketadi.

Oysuluv moma nonni ushatdi, choyni qaytara boshladi:

— Yoki temir-pemir yutib qo'ydimi?

— Bilmadim... Ishqilib, illati ichida.

— Ovqatga qarang.

Bir ozdan keyin Ostonaqul chol tag'in ho'kiz yonida cho'nqayib o'tirar, kampiri ham qo'raning chetan devoriga suyanib turar edi.

— Chol, he, burnog'i yil bir hafta ho'p[1]dan chiqmagan ho'kiz shu-da, a?

Podachi xotiniga ko'zlari kirtayib boqdi, so'ng quruqshagan lablarini yalab, yiroqda qabarib turgan Oqtumshuq tepaligi tarafga qaradi.

O'tgan yilgacha sovxoz Oqtumshuqning ustiga bug'doy separ edi. U yer lalmikor hamda u tepaga na mashina, na kombayn chiqa olar, yerni qo'shda haydab, donni ham ho'kizlar tuyog'ida yanchib olishardi. Bo'lim idorasida majlis bo'lib qoldi. Bo'lim boshlig'i: "Endi Oqtumshuqqa don ekmaymiz. Qimmatga tushib ketar ekan, — dedi. — Qancha odam halak, qancha ho'kiz. Unisiga maosh to'laysan, bunisi allaqancha yem yeydi. Olgan hosilimiz ketgan mehnatiniyam qoplamas ekan".

Shundan keyin ho'kizlar bekor qoldi. Ularni semirtirib, go'shtga topshirishga qaror qilindi.

Xirmonchi-qo'shchi Ostonaqul bobo ho'kizboqar bo'lib qoldi.

Chol ayniqsa mana shu ola ho'kizga o'rgangan edi. Negaki ho'kizlarning qarisi ham shu, cholning xizmatida ko'p yurgani ham shu.

— Kampir, og'ziga qatiq quysakmi?

— Qo'ying-e, — uyalib kuldi Oysuluv moma. — Birov eshitsa, nima deydi.

Chol siniq iljayib qo'ydi.

— So'yasizmi endi? — davom etdi kampir. Qorong'i tushyapti, tezroq harakat qiling.

[1] **Ho'p** — ho'kizlarning don yanchishi.

Podachi bosh irg'adi. Oysuluv kampir o'tovga qaytib ketdi. yengini shimarib, sirli korsonni chiqarib yuvdi. Katta suprani yozib, o'tkir boltani ham kapadan olib chiqdi. Keyin ikki satilni ko'tarib, suv olib kelgani Ko'kbuloqqa ketdi.

Kampir qaytib keldi. Chol hamon o'sha alpozda o'tirardi.

— Hoy, bir nima bo'ldimi sizga? — dedi Oysuluv moma devordan qarab. — Yo ko'nglingiz bo'lmayaptimi?.. Qo'ying, chol! Harom o'lsa, tovoniga qolamiz. Agar juda qo'lingiz bormayotgan bo'lsa, mayli, o'zim o'qlov minib so'yib qo'ya qolaman... faqat keyin uyalib yotmasangiz bas.

— E! —Ostonaqul bobo turib ketdi. — O'ylamay gapirma! Ko'rmayapsanmi, joyidan turmaydi bu. Shu yerda so'ysam, anavilari qonning isini olib, bezovta bo'ladi.

Oysuluv moma kuldi:

— Umas-bumas, bahona qilyapman deng?

Chol shaxt bilan pichog'ini sug'urdi, ho'kizning boshiga o'tib, tumshug'idan ushladi. Keyin qo'li qaltirab, shoxidan ushladi va boshini qayirganda, ho'kizning gardaniga ko'zi tushdi: qoramtir junlar tagidan taqir teri ko'rinib turardi — bo'yinturuqning o'rni bu. Chol kampiriga chohga tushib ketayotgan kishining ayanchli ko'zi bilan qaradi, so'ng shoxni qo'yvorib, barini qoqa-qoqa chetga o'tdi-da, eski to'qim ustiga o'tirib oldi. Kampir qaytib ketdi.

Shunday qilib, ola ho'kiz o'ldi. Ostonaqul chol uning jon holatda oyoq qoqayotganida ham boshida edi. Lekin u molning sog'ayib ketishidan umidvor edi.

...Soy bo'yida turib qolgan podachi bir-bir bosib, pastga tushdi. Suv yuzasiga chiqib turgan toshlardan yurib, u qirg'oqqa o'tdi.

Chol o'tovlar, kapalar, qo'ralar orasidan yurib, ortidan ergashgan ovul itlariga parvo qilmay, tepalikka o'rladi. Undan oshib, so'qmoq yo'lga tushdi.

Yo'l oy nurida oqarib ko'rinadi.

Chol undan chiqmay, o'toviga yetib boradi. Kampiriga bo'lim rahbarlarining qarorini aytib beradi. Kampiri: "Aytmovdimmi, tovoniga qolasiz demabmidim?"— deydi. Chol nima deyishi mumkin? U har holda kampirining ko'nglini tinchitadi...

1975

QAYTISH

Qumrixon opa yetmish yoshdan oshib qoldi. U davlatdan pensiya oladi, epizodik rollarda chiqib turgani uchun teatr ham oylik to'laydi.

Umrining qirq ikki yili shu teatr dargohida kechdi. Bir zamonlar opa o'rta bo'y, to'lagina, gajak qo'ygan qizcha edi. O'sha kezlarda dong'i Dog'istonga ketib, shu kishi o'ynagani uchun ham teatrga tomoshabin yopirilib kelgan paytlar ko'p bo'lgan. Ayniqsa urush yillarida juda mashhur bo'lib ketgan edi.

Mana, yillar o'tdi. Aktrisa qaridi. Yoshlar yetishib chiqdi. Bir zamonlar u o'ynagan rollarni boshqalar o'ynay boshladi. Opa endi onda-sonda kampirlar rolida chiqadi, shunda ham kampirlar ishtirok etadigan pyesa bo'lsa. Boshqa vaqtlarda opa odati bo'yicha har kuni soat o'nda teatrga keladi. Qorovuldan tortib bosh rejissorgacha oldiga borib so'rashadi.

Qumrixon opani teatring yosh aktorlari hurmat qilishadi. Ehtimol, uni hurmat qilmaydiganlar ham bordir. Lekin teatrning yozilmagan qonun va axloq kodeksiga binoan opa bilan quyuq so'rashadilar. Albatta, opaga achinib qaraydiganlar ham yo'q emas, lekin ular ham bu holni bildirishmaydi unga.

Bir kun opa o'sha kenggina zalda o'tirgan edi, ro'parasida har xil mavzularda chug'urlashayotgan artistlar orasida teatrning yosh rejissori Botirxon Zokirxonov paydo bo'ldi-da:

— Hozir chitka bo'ladi... Sen, sen, siz, siz ham chitalniy zalga kiringlar! — dedi.

Opaning qulog'i ding bo'ldi. Qanaqa pyesani o'qisharkan? Unga ham bironta rol chiqib qolarmikan?

Botirxon eshikdan mo'raladi, tag'in kimnidir chaqirdi-da, shoshilinch sigareta tutatdi va burchakda o'rnidan turib, poldan sumkachasini olayotgan opaga qaradi:

— Siz ham boring!

Qumrixon ayaning yuragi gurs-gurs urib ketdi: men ham boraman ekan...

U kishi jilmayib, rejissorga yaqinlashdi. Lekin Botirxon sigaretani burqsitib, yo'lakka kirdi. Opa yo'lak eshigiga yetganda, rejissor chap tomondagi zinaning yarmisiga chiqib borgan edi. Qumrixon opa ham alpang-talpang yo'lakka o'tdi. Yon tomondagi baland toshoyna oldida to'xtab, yon-veriga zimdan qarab olgach, ro'molini tuzatdi. Qulog'iga osilib tushgan oppoq soch tolalarini ro'mol tagiga tiqib, qaddini allanechuk rostladi.

Opa pyesalar o'qiladigan zalga kirganida, rejissor to'rdagi duxoba sirilgan to'garak stol boshida oyoqlarini chalishtirib o'tirar, uning yonida tepakal yoshgina bir yigit ham bor edi. "Dramaturg o'sha bo'lsa kerak", deb o'yladi Qumrixon opa va o'tirgani joy izladi. Stullar band edi, opaning hurmati uchun ikkita yigitcha o'rnidan turdi. Shunda opa Botirxonning ovozini eshitib qoldi:

— Opa, buyoqqa o'ting!

Shunday deb u irg'ib turdi. Pianino yonida o'tirgan qizga egilib shivirladi: "Pastga o'ting. Opaning qulog'i og'ir, pyesani yaxshi eshitishi kerak". Qiz turdi. Qumrixon opa kelib, qizga rahmat aytdi. Yuragi hamon gup-gup urgani ko'yi stulga cho'kdi.

Rejissor o'rnidan turdi:

— Yangi pyesa o'qiymiz. Mana, yozuvchimiz... Bizga yaxshi pyesa olib kelganlar. Buning uchun rahmat. Xo'sh, sirasini aytganda, bu asar o'zimizning teatrda yetilgan. Diqqat bilan eshitaylik... Opa, yaqinroq o'tiring!

Yosh rejissorning Qumrixon opaga ortiqcha e'tibor qilayotgani o'zga artistlar nazaridan chetda qolmadi, albatta. Ularning aksariyati, "opaga rol beradi" deb o'ylashdi.

Odatda rejissorlar rollar taqsimotini sir tutishadi.

Pyesa o'qildi... Unda Ulug' Vatan urushi yillaridagi bitta o'zbek oilasida kechgan voqealar hikoya qilinar, eri harbiyga ketib, qoraxat olgan kelinchak qaynonasining qistovlariga ham qaramay, uydan ketmay o'tirar, oqibat — eri kirib kelar, ana shu jarayonda qahramonlar dunyosi ochilib qolar edi.

Asar Qumrixon opaga u qadar yangilik bo'lib tuyulmadi.

Uning o'zi asardagi qaynonaga o'xshab ketar, ittifoqo, o'zining o'g'lidan ham qoraxat kelgan edi. Farqi— Qumrixon opaning o'g'li urushdan qaytmagan, kelini ham undan izn kutmay ketib qolgan edi.

— Xo'p, qalay endi? Kim gapiradi? — dedi Botirxon. — Bemalol. Asar hali yana ishlanadi. Maslahatlaring foydasiz ketmas. Kim so'zlaydi?

Besh, oltita yoshi ulug' artistlar o'z fikrlarini bildirishdi. Dramaturg bilan rejissor ba'zi fikrlarni daftarga yozib olishdi.

— Xo'sh, endi rollar taqsimotini o'qiymiz. — Botirxon bir nafas sukut qildi-da, chiqib, o'rta yashar, oqsoch bosh rejissorni boshlab keldi. — So'z Qobil akamizga!

Qobil Qodirqulov jilmaygancha qo'ynidan ikki varaq qog'oz chiqarib, tavoze bilan rollar kimlarga berilganini o'qiy boshladi:

— Qaynona... Qumrixon A'loyevaga...

Shundan keyin Qumrixon opa nimalar deyilganini eshitmadi. Yuragi to'xtab qolgandek, o'zi parishon edi.

U besh yildan buyon yangi rol o'ynamagan edi! Besh yildan buyon armonda ediki, bu alam-o'kinch opani tobora qaritib bormoqda edi.

Aktorlarga javob berildi. Zal bo'shay boshladi. Rejissor Qumrixon opaning yoniga keldi:

— Xo'sh, opa, rolingiz qalay?

Qumrixon opa o'rnidan kalovlanib turib ketdi. Xuddi shoh huzuriga kirib qolgan kanizakday qo'llarini ko'ksiga qo'yib:

— Rahmat, bolam, rahmat, — dedi va qo'llari birdan qaltiradi, ko'zlari yiltiradi. — Bolam! — U titrab-qaqshab rejissorning yelkasini siladi. Rejissor engashdi. Opa uning peshonasidan o'pdi.

— Mingga kiring, bolam!

Botirxon opaning dardini yaxshi bilardi.

— Hechqisi yo'q... buyog'i o'zingizga! — dedi. — Ertadan repetitsiya!

— Xo'p, bolam, xo'p.

Ertasi Qumrixon opa to'qqizda teatrga yetib keldi. Hali rahbarlar ham kelishmagan, darvozaxonada qorovuldan bo'lak kishi yo'q edi.

— Assalom alaykum, — dedi opa.

— E, keling, opa! — dedi qorovul. — Choy qaynayapti.

— Rahma-at.

Opa ichkariga kirib, gaz plita yonidagi kursiga cho'kdi. Qo'llarini tizzasiga qo'yib, ochiq derazadan tashqariga razm soldi. Gulzordagi atirgullar barq urib ochilib turar, naridagi ishkomdan tok barglari uchib tushar edi.

Qumrixon opa uchun teatrning mana shu qorovulxonasi ham aziz! U kishi vaqt-bevaqt tengqur aktorlari bilan shu yerga kirib o'tiradi. Qari qorovul tayyorlagan ko'kchoydan ichadi.

— O'tiring, opa.

— Hozir kelaman.

Opa tashqariga chiqdi. Teatrning hovlisi keng. Odoqda bog'. O'ng tomonda teatr binosi, uning kichkina eshigi. Qumrixon opa ichkariga kirdi. Dimog'iga o'ta tanish hidlar — jihozlarga o'rnashib qolgan grim hidi, yog'och hidi urildi. Opa yo'lakka o'tdi. Yo'lakka qarab ochiladigan eshikdan supurib qo'yilgan aylana sahna va pastdagi keng zal-u undagi behisob stullar yarqirab ko'rinar edi.

Opa yo'lakning u boshiga borib keldi. Bu boshiga qarab yurdi, direktor kabineti eshigini ochmoqchi bo'ldi — hali berk ekan.

Opa tashqariga chiqdi. Teatrning yosh direktori yangi "Jiguli" mashinasidan tushmoqda edi. Ayni choqda rejissorlik qiladigan bu yigit teatr dargohida katta bo'lgan, opaning shogirdlaridan.

Ular ko'rishishdi.

Qumrixon opa tag'in qorovulxonaga bordi va bir ko'ngli o'ziga yangi rol berilganini aytgisi keldi. Biroq tomoshalarni ko'raverib, aktorlar o'yini-yu spektakl mazmuniga baho berishda mananman degan teatrshunos darajasida bo'lgan keksa qorovulga bu to'g'rida og'iz ochmadi.

Sal o'tmay, teatr hovlisi, yo'laklar gavjum bo'lib qoldi. Ko'rishishlar, quvnoq chehralar va albatta tashvishli shivir-shivir, allakimdan nolishlar...

— Asar mazmuni sizlarga ma'lum, — dedi Botirxon o'ynovchilarni pyesalar o'qiladigan va ko'pda repetitsiyalar o'tkaziladigan kichkina xonaga boshlab kirgach. — Jim, o'rtoqlar! Jim!

Vaqtimiz ziq... Pyesani pishiramiz deb ko'p vaqtni o'tkazib yubordik. Qumrixon opa, — opaga murojaat qildi u. — Yukning ko'pi sizga tushadi. Bildingizmi?

Qumrixon opa kecha uyiga borgandan keyin ham qo'yilajak asar mazmuni va o'z roli ustida ko'p o'ylagan, lekin asarga munosabati o'zgarmay qolgan — asar o'ziga tanish, o'z rolini o'ynash o'zidan ko'p mehnat talab qilmaydigandek edi.

— Ha, bolam. Juda mas'uliyatli rol, — dedi Qumrixon opa.

— Sobirjon, rollar tayyormi? Olib keling! Menga quloq solinglar! Asarning mazmunini aytib beraman, yana... Keyin har bitta obrazda to'xtalamiz. Bilasizlar-a? Ish prinsipi har galgiday. Kimki mashg'ulotga kechikadigan bo'lsa, aytilgan ishni vaqtida qila olmasa, hozir aytib qo'ya qolsin. Keyin janjallashib yurishga vaqtimiz bo'lmaydi! Qo'lidan rolni olib qo'ya qolamiz!

Aktor zoti borki, kuni teatrda kechar ekan, sahnaga chiqishni, rejissor rol berishini istaydi!

Teatrga borganingizda, birorta xafaqon artistni uchratib qolsangiz, surishtiring, uning dardi rol ustida bo'ladi — yo rejissordan noliydi, rejissor o'zini xushlamasligini aytadi, yoki teatr ma'muriyatidan norozi, hech bo'lmasa, o'z partnyoridan.

Rejissorning so'nggi gapidan keyin artistlar hushyor tortishdi, qiyshiqroq o'tirganlari ham unga o'nglanib yuzlariga jiddiy tus berishdi.

— Opa! — Rejissor asar mazmunini qisqacha qilib aytib bergach, tag'in Qumrixon opaga murojaat qildi.— Ko'rib turibsizki, rolingiz og'ir... a?

Endi Qumrixon opa o'z roli haqida gap ko'payib ketganidanmi, sezilarli xavotirga tushgan edi. Ko'zlarini pirpiratdi:

— Ha, ha, bolam.

— Uning mohiyati shundaki, opa, — Botirxon stuldan turib, pianino qoshida nari-beri yura boshladi,— bunda siz Ulug' Vatan urushi yillari front orqasida qolgan o'zbek ayollari siymosini yaratasiz! Mas'uliyati shunda... Buning ustiga, siz haqiqiy ona va haqiqiy qaynona siymosini yaratib berishingiz kerak. Bu asardagi voqealar sizga tanish bo'lsa kerak? Urush yillarini eslang-chi?

Artistlar duv o'girilib, Qumrixon opaga qarashdi. Opa negadir quti o'chib ro'molchasi bilan lablarini artdi.

— Juda tanish-da, bolam. Juda tanish, — dedi.

— Ana! Bu yaxshi... Demak, rol chiqadi. Lekin, — u yana stol qoshiga qaytdi, — siz juda irodali, bardoshli inson obrazini yaratishingiz kerak? Ana shu yog'iyam muhim!

Opa bosh irg'adi.

Rejissor yordamchisi Sobirjon kirib, ayrim-ayrim ko'chirilgan rollarni egalariga taqsim qildi. Aktorlar quvonishib olib, Botirxonni ham bir zum unutgan holda, oppoq qog'ozga mashinkada yozilgan so'zlarga diqqat qilishdi.

Rejissor ularni tag'in o'ziga qaratdi:

— Gapni kelindan boshlaymiz! — dedi va Sobirjonga choy buyurdi. So'ng charm portfelidan arablarning shippagiga o'xshash jez kuldon, "Rostov" sigaretasini chiqarib stolga qo'ydi. Kastumini yechib, stul suyanchig'iga ildi. O'rnashib o'tirib oldi. — Siz! — deya kelin rolini ijro etadigan aktrisaga qaradi. — Siz... rolni qo'ying! Hozir o'qimang!.. Kerak emas... Avval tushunib olishingiz kerak...

Har bir rejissorning o'ziga xos yo'li bo'ladi, ya'ni xoh asarni bo'lsin, xoh rolni bo'lsin, o'ziga xos tushuntirish usuli bor. Biroq hammasiga xos bitta jihat shundaki, ular voqeani bo'rttirib hikoya qilishadi. Maqsad — aktorlar yuragiga cho'g' solish, ularning tuyg'ularini uyg'otib yuborish, pirovardida, butun kollektivni asar atrofiga uyushtirish, bitta maqsad sari yo'naltirish bo'ladi.

Botirxon asar mazmuni va mohiyati to'g'risida yana bir bor izoh bergach, kelin obraziga o'tib, uni tushuntira ketdi:

— Mana! — Qumrixon opani unga ko'rsatdi u. — Bu kishi sizning jondan sevgan qaynonangiz... Aytaylik, bunday! Yo'q-yo'q. Shunday! Qaynonam deb biling... Qarabsizki, eringiz o'libdi! Ha, sevimli eringiz o'libdi, uni fashistlar chavaqlab tashlashibdi.

Artistlar kulimsirab kelin rolini o'ynovchi artistga qarashdi. Botirxonning jahli chiqdi:

— Jim, jim! Opa, siz ham gaplarimni eshityapsiz-a? Yaxshi... Kelin, quloq, soling! Siz shundan keyin to'rt yil kutdingiz. To'rt

yil! Urush tamom bo'ldi... Tamom! Eringiz yo'q! — U allanechuk bo'lib, Qumrixon opaga qaradi.

Opa endi obrazini tushunayotgani uchunmi yo o'g'li esiga tushib ketdimi, ko'zlarini artib piqillamoqda edi.

Botirxonga bu holat ma'qul bo'ldi va opaning bu kayfiyati kelinga ham yuqishini taxmin qilgani uchun voqeani yanayam bo'rttirib hikoya qila boshladi.

— Ana shunda... Tinchlik davrida, kelin, bitta g'arib kimsa sizga oshiq bo'ldi. Oshiq bo'ldi... Opani ham u odam juda hurmat qiladi. Opa ham uni izzatlaydi! Lekin siz unga tegishni istamaysiz. Ana shunda opa... qaynona nima qiladi. Sizga yolvoradi: shunga teg, deydi... Eshityapsizmi?

Botirxon shu mazmunda yana ko'p gapirdi, har bitta so'zini turli misollar bilan rosa chaynab gapirdi. Nihoyat, kelinga bir nafas tikilib turdi-da, yangi sigareta tutatib olib, opaga yuzlandi:

— Opa, gaplarim sizga yetdimi?

— Yetdi, bolam, — piqilladi Qumrixon opa.

— Yetgan bo'lsa, juda soz! Yig'lang... Mayli, yig'lang. O'rtoqlar, xalaqit bermanglar... Yig'layvering. Lekin mening so'zlarimga quloq soling. Xo'sh, gap bunday: sizning yagona o'g'lingiz bor edi. Uni ne-ne umidlarda urushga jo'natdingiz. Ne-ne umidlarda kutyapsiz! To'y qilmoqchisiz u kelsa! Siz nevara ko'rishni orzu qilasiz... Ana shunaqa! Shunda birdan qoraxat kelib qoldi... Shunda nima bo'lasiz! Butun dunyo siz uchun qorong'i bo'lib qoladi, a? Tamom! Bu sizning oxirgi umidlaringizni barbod qildi. Sizni ko'madigan kishingiz yo'q... Shunday! Bu narsa siz uchun bitta udar! Tushundingiz-a? Davom etamiz. Lekin siz mardona ayolsiz. Ha-ha, — iziga qaytib, stolning u boshiga o'tib oldi: — Siz juda chidamli ayolsiz! Yig'lab-siqtab o'tirganingiz bilan hech narsa bitmaydi, opa! Buyoqda ishlar oshib-toshib yotibdi. Qurilish ketyapti!

Kimdir bir nima degan edi, Botirxon eng zarur uchta aktorni olib qolib, boshqalarga javob berdi:

— Chiqib turinglar... Ketib qolmanglar... bitta-bitta chaqiraman. Xullas, opa, ana endi siz o'zingizni ko'rsatishingiz kerak! Axir, sizga o'xshagan — bolasidan ayrilgan onalar kammi? Buni

sizning obrazingiz yaxshi tushunadi... Shunday qilib, kunlar o'tyapti deylik!

Shunda Botirxonning yana jahli chiqa boshladi. Chunki opa mudom ko'zyoshlarini tiya olmas edi.

— Bas, bas! Buyog'ini eshiting, opa... Shunda sizga yana bitta udar tushadi! Kelinigiz... o'g'lingizning o'rnida qolgan qizingizni endi uzatish payti keldi! U — inson, hayotdan, bola ko'rishdan umidvor inson. To'g'rimi? Buni yaxshi bilasiz... Shunisi qiziqki, u sizni tashlab ketishni istamaydi... Siz esa, uni majbur qilasiz! Buning uchun kishiga qancha kuch, qancha iroda kerak? To'g'rimi? Inson sinaladigan daqiqalar bu.

Qumrixon opa endi o'ziga keldi. Botirxon yana so'zida davom etdi va: "Endi rolni o'qishingiz mumkin. Sizga javob!" dedi.

Opa chiqdi. Hovliga chiqdi. Ko'chaga chiqdi. Atrof jimjit. Bu, ro'paradagi yo'lda mashinalar ham kamqatnov.

Qumrixon opa uyiga yo'l oldi.

U mamnun edi: u katta rol o'ynaydi! Juda muhim rolni ijro etadi! Spektaklning yutug'i ko'proq ana shu rol ijrosiga bog'liq bo'ladi.

Rolni tushunib yetgan edi. U o'ynashiga ishonadi: o'sha voqealar naq o'zining boshidan kechgan-ku! Bunaqa paytda qaysi aktor "huzur" qilib o'ynamaydi? Qo'shimcha detallar, ishontiruvchi belgi topish uchun izlanmaydi ham. Bari o'zida bor. O'z yuragiga nazar tashlasa, kifoya!

Biroq obrazdagi bitta nuqta uni andak parishon qildi: u qaynona juda mardona ekan! Keliniga o'zi javob beribdi. O'g'lidan qoraxat kelgach, kuyipti-ku, lekin... o'tirib qolmapti.

Qumrixon opa o'shanda o'g'lining nobud bo'lgani haqidagi xabarni olib, o'zidan ketib qolgan, uch-to'rt oy davomida ham o'zini o'nglay olmagan edi. Buning ustiga, kelini undan so'roqsiz, o'tkinchi yigitga qo'shilib uydan chiqib ketgan...

Obrazning kelinga qiladigan murojaatlari qandoq chiqar ekan?

Odatda, manaman degan aktor ham rejissorga suyanadi, nafsilamri, aktor rejissor belgilagan yo'ldan boradi, uning qarashlarini ifodalaydi, faqat... o'ziniki qilib yetkazadi — ko'nglidan o'tkazgani uchun u narsalar jonli va mustaqil bo'lib maydonga chiqadi.

Shuning uchunmi, opa rolning davomi haqida ko'p ham bosh qotirmadi. Buning yana bir sababi shundaki, ba'zida rejissor asar tayyor bo'lgan paytdayam dramaturgga aytib, bitta sahna yozdiradi-da, shunga qarab, boshqa obrazlar talqinini ham o'zgartirib yuboradi.

Kunlar o'tdi.

...Opaning obrazi uch bera boshladi. Anavi, o'g'lidan, qoraxat kelish sahnalarini opa yaxshi ijro etar, uning tevaragida kichkina xonani to'ldirib o'tirgan aktorlar hali bu aktrisaning "hayot ekani, ko'p ishlarga qodir ekaniga" imon keltirishardi. Qumrixon opa yangitdan ijodkorga aylanayotgandek edi.

Biroq opa anchayin gapgayam yig'lab olar, anchagina o'zini bosa olmas ediki, bu hol yosh rejissorning goh jahlini chiqarsa, goho quvontirar edi.

Bir kuni u:

— Yo'q, opa! Endi yig'ini bas qilasiz! — dedi.

Qumrixon opa Botirxonga mo'ltirab qaradi:

— Axir, yaxshi bo'lmaydimi?

— Yo'q, — dedi rejissor. — Kechirasizlar, — u bitta chekib olib, opaning yoniga keldi. Stulini yoniga surib, o'tirib oldi. — Yaxshi bo'lmaydi, opa... Chunki qoraxat kelganda munchalik yig'lasangiz, kelinni chiqarayotganda nima qilasiz? Unda gap-so'zsiz qolishingiz kerak bo'ladi. Siz esa, o'g'lingiz armiyaga ketayotgani uchunoq shunaqayam ko'z yoshi to'kyapsizki, yo'q, opa... Siz juda kuchli, mardona onasiz! Shuni unutmang... Siz eng zo'r irodali ayollardan birisiz! Esdan chiqarmang, opa... Yig'loqilik ketmaydi! Men obrazga kirib oling deb indamay yurdim... Endi, yig'ini bas qiling.

Qumrixon opa rejissorning o'gitlarini tushundi. Lekin, lekin... o'sha-o'sha!

O'zini tuta olmaydi! Ko'zidan duv-duv yosh quyilaveradi.

Nega o'zini tuta olmaydi! Axir, o'shanda — o'g'li urushga ketgandayam bunchalik yig'lamagandir? Nima bo'lyapti o'zi?

Bir kuni Botirxon opaga ancha-muncha nasihat qilgach, unga o'ychan tikilib xo'rsindi:

— Opa, meni xafa qilmang.

— Voy, nahotki...

— Mening odatimni bilasiz-a?

— Ha, endi...

— Asar siz bilan tirik! — U irg'ib turdi. — Men yig'loqi kampirni sahnaga chiqara olmayman.

Qumrixon opa anqayib qoldi. Atrofdagi artistlar boshlarini egishdi. Botirxon bo'g'ilib, obraz mohiyati va asar mazmunini opaga qayta boshdan tushuntira boshladi.

— Uqdingizmi? — dedi. — Endi sizga bitta sirni aytaman: menga qolsa, siz yig'lamay o'ynang! Ha-ha,— stolga qo'llarini tirab engashib oldi u. — Yig'lamang... Yig'lash oson, yig'lamaslik qiyin! Kishi o'zini tutishi qiyin... — U odaticha nari-beri yurib, bir misol keltirdi: — Bitta og'aynimning otasi o'ldi. Ular aka-uka edi. Ukasi otasini yoqtirmas, darbadar, piyonista edi. Darvozadan kirib, shunday ho'ngradiki, yig'lagan ham yig'ladi, yig'lamagan ham. Keyin u nima qildi? Ko'chaga chiqib ketdi. O'sha kuni bitta tanishini to'yiga bordi. — Aktorlar shivir-shivir qilishdi. Rejissor qo'lini ko'tarib qo'ydi. — Anavi akasi-chi! U otasining vafotini eshitiboq, tildan qoldi. Hovlida jim yurdi. Odamlar nima deb ketdi? "E, kattasi bemehr ekan, ko'zidan yosh chiqmadi-ya!" deyishdi. Kichkinasini, piyonistani rosa maqtashdi... Hm, davomini aytaymi? Keyin "bemehr" o'g'il oilaga bosh bo'lib qoldi. Otasining barcha marosimlarini o'sha o'tkazdi. Kichkinasi qorasini ko'rsatmadi. Aytmoqchimanki, yig'lash-siqtash hali kishining bir narsadan qattiq kuyganini anglatmaydi!

Qumrixon opa bu so'zlarni mulohaza qilib, ichida qo'shilgan esa-da, jilmayib qo'ydi.

Rejissorning fig'oni chiqdi:

— Opa, men sizga sirayam yig'lamang deyayotganim yo'q. Lekin me'yorida bo'lsin deyapman! Siz o'zingizni... obrazning mohiyatini unutyapsiz!

Qumrixon opa asta o'rnidan turdi:

— Meni afv eting, ko'nglim bo'sh, bolam... Endi undoq qilmayman, — dedi.

Haqiqatan ham keyingi kunlarda opada o'zgarish bo'ldi: u yig'ini kamaytirdi, kamaytirdi-yu, obrazini buza boshladi — obrazdagi haqiqat yo'qola bordi.

Rejissor uchun bundan ortiq dahshat yo'q edi.

— Opa, sizni oxirgi marta ogohlantiraman, — dedi u navbatdagi mashg'ulotda. — Menga qarang, nahotki, yig'ini tiyish, jindek og'irroq bo'lish uchun o'zingizda kuch-qudrat sezmasangiz? Axir, asardagidek qaynonalar, ayollar bo'lganmi, yo'qmi? Yoki butun o'zbek xotin-qizlari erlari o'lgach, hayotini yig'i-sig'i bilan o'tkazganmi?

— Yo'g'-e, bolam.

Qumrixon opa shu kuni uyga borgach, rol ustida yana uzoq o'yladi va obrazini rejissor aytganidek yarata olmasligiga iqror bo'ldi: buning uchun opada allanarsa yetishmas, uning nima ekanini o'zi ham bilmas edi.

Aktor shundoq odamki, u rolga sira-sira yaramasligini bilsa ham, rejissorga: "Men bu rolni eplolmayman", demaydi.

Bunga avvalambor, g'ururi yo'l qo'ymaydi, so'ngra, axir shuning uchun teatrga keladi, bu yerda kunini o'tkazadi, pirovardida, aktor degan nomi borki, u hech qachon rejissorga "o'ynolmayman" demaydi.

Bundoq deyishi — uning uchun fojia.

Qumrixon opa ana shunday fojiani ochishga shaylanib teatrga kelgan edi. Hayhot, buni Botirxonning o'zi aytib qo'ydi:

— Opa, men sizdan rolni olishga majburman! — dedi. So'ng burilib deraza yoniga bordi. Chekib, biroz turdi. Yana shart o'girildi: — Siz ishonsangiz, bu rolni sizga mo'ljallab yozdirgan edim. Buni o'ynash uchun sizda quvvat bor deb o'ylagan edim... Yo'q ekan. Sizga javob!

Qumrixon opa o'zi oshkor aytmoqchi bo'lgan fojiani o'zi tushunib yetmagan ekan shekilli, hozir tushundi-yu... endi teatrda ortiqcha bo'lib qolganiga ishondi-qo'ydi. Opaning ruhi tushdi, u rejissorga bir so'z demay, xonadan chiqdi. Hovliga chiqdi. Ko'chaga chiqdi... va yig'lab yubordi. Bu tamom boshqacha yig'i edi. Opa, shunda xavotirlanib, yon-veriga qaradi-da, ariq yoqasidagi chinor panasiga o'tdi. Unga suyanib, bir nafas tek qotdi.

U qotib turar ekan, ko'p narsani his qilar edi: orqasida baland imorat bor, u teatr! Unda opaning yoshligi qoldi, hayoti qoldi. Opa, ehtimolki, shu dargohga kelib qatnab yurgani uchun ham

hayot edi! Endi bu yerdan ketadi... Qayerga?

Uning uchun yo'l ham, go'sha ham yo'q, uning bori-borlig'i shu yerda edi. Aktor bo'lsin, rejissor bo'lsin — bu ijodkor xalqning ruhini tushunish qiyin. Qiyinligi shundaki, ular ko'p fikr qiladi — ko'pincha o'z qilmishlari, holatlari haqida o'y suradi, uni tahlil qiladi, kimlarningdir holatlariga solishtirib, bularning barchasidan bitta ma'no topmoqchi bo'ladi.

Shunisi qiziqki, ijodkor bu narsalar ustida o'y surayotganida undan: "Nimani o'yladingiz?" — deb so'rang, javob bera olmaydi. Buni keyin... uning navbatdagi xatti-harakatidan tushunib olasiz, zeroki, o'zi ham keyin tushunib yetadi.

* * *

Qumrixon opa teatrga qaytib borganida hovlida artistlar gaplashib turishar, bir chetda teatrning yosh direktori, ikki yonida ikkita yoshi ulug' aktor — chamasi, ular Qumrixon opa to'g'risida suhbatlashar edilar. Eshikda ko'ringan bosh rejissor baqirdi:

— Botirxon!

Botirxon qorovulxona derazasi tagidagi skameykada choy ichib o'tirardi. U turishi bilan darvozadan kirib to'xtagan Qumrixon opani ko'rdi. Unga o'qrayib tikildi. Opa bir-bir bosib, rejissorga yaqinlashdi va g'ayritabiiy bir mardona ovoz bilan:

— O'g'lim, o'zimni yana bir sinasam bo'ladimi? — dedi.

Botirxon unga tikilib qoldi. U hozir opaning holatini tasavvur qilib o'tirar, nazarida, opa o'tkinchi mashinaga o'tirib, uyiga yetgan va yotib qolgan edi. Chunki u... Qumrixon opaning qandoq artist ekanini bilar, uning uchun teatrdan ketishdan ortiqroq jazo, fojia, baxtiqarolik yo'qligini yaxshi tushunar edi.

— Xo'pmi, bolam? Ruxsat eting!

Botirxon allanechuk tamshandi va qarshisida... mardona bir ayolni ko'rdi.

1976

CHO'LOQ TURNA

Cho'loq turna tuxumdan kech chiqdi. Chiqqanidan keyin ham o'ng oyog'ini ololmay ancha yotdi, tipirchiladi, tukdan iborat qanotchalarini qoqdi. O'zini paydo qilgan tuxum po'chog'iga tizzasidan pasti yopishib qolgan edi. Nihoyat, undan xalos bo'ldiyu, o'ng tomonga mayishib, atrofiga mayda shag'al toshlar terib qo'yilgan, qumga qattiqroq bosilgan tuya izidek uyasida bir-ikki aylandi. So'ng ma'yus, ojiz ovoz chiqarib, boshini zo'rg'a ko'tarib, anchagacha qaltirab turdi.

U nafas olar — yangi olam havosidan nafas olar, badaniga yangi olamning — iliq bahor quyoshining nurlari singar, shuning uchun qaltirar, hali bu hayotga ko'nikmagan edi.

Bir payt yon tomondagi qalin shuvoqlar ortidan qattiq va dahshatli "qaq-qaq" etgan tovush eshitildi. Turnacha qattiq qimirlab, yana shikastlangan oyog'i yoqqa yiqildi. Yana ancha tipirchilab yotdi. Endi, bu tipirchilashida o'zini o'nglab olishdan ko'ra qandaydir sirli xavfdan yashirinishga intilish bor, chunki jajji turnacha onasining ovozidan buni his etgan edi.

Haqiqatan ham Ona-turna qalin shuvoqlar ortida uchta jo'jasini ergashtirib, yerda sochilgan o't-o'lanlar urug'ini terib yeb yurar ekan, olisda makkor tulkini ko'rib, shunday shovqinli ovoz chiqargan edi.

Tulki cho'loq turnachaning isini olib yaqinlashgan, Ona-turna buning uchun emas, yo'q, — u endi tuxumdagi naslidan voz kechgan, — yonidagi jo'jalari va o'zini o'ylab shovqin ko'targandi.

Tulki dumini xoda qilib qochib qoldi. Ona-turna bolalarini ergashtirib, tag'in uyasi yonidan, g'oyat ustalik bilan "yasagan" uyasi yonidan o'tarkan, uyoqqa beixtiyor qarab, Cho'loq turnachani ko'rdi. Bo'ynini g'oz cho'zib, ko'ksidagi echki soqoldek osilgan qora patlarini selkillatib, uning qoshiga keldi. Tumshug'i bilan turtgan bo'ldi. Ixcham, ingichka oyoqlarini ildam ko'tarib, ustidan o'tdi. So'ng bo'ynini gajak qilib, bolasiga

birpas tepadan qarab turdi-da, tag'in uning ustidan hatlab, narida alang-jalang bo'lib, har tarafga talpinayotgan sog' jo'jalari yoniga ketdi.

Cho'loq turna daf'atan ustida paydo bo'lgan soyadan najot kutib unga intilgancha qolaverdi.

Bu holni kuzatgan inson hayron qoladi: Ona-turnani shafqatsizlik qildi, deb o'ylaydi. Aslida bunday emas: illo, bu tur qushlarning ham o'ziga yarasha mehr-shafqati bo'ladi. Bo'ladi-yu, lekin o'zga qonun bu hisdan ham ustun turadi. Bu — yashamoq qonuni, zurriyot qoldirish va uning sog'lom kamol topib, o'zining ushbu ishini istiqbolda takrorlashiga bo'lgan tabiiy va tug'ma ehtiyoj qonunidir. Shuning uchun ular zurriyotni buzadigan va istiqbolda yashashi og'ir bo'lgan farzandlaridan osongina voz kechishadi.

Cho'loq turnaning mayda shag'al toshchalar ustidan o'tishi ham mashaqqatli bo'ldi. Shundan keyin ham anchagacha yoniga ag'anab yotdi. Nihoyat, o'zini o'nglab, ne bir his-sezgi bilan quruq yerga tumshug'ini urdi.

U ovqatga muhtoj — yangi olamda xo'rak topish shu tarzda sodir bo'lishini tuyg'u bilan tuygan edi.

Ona-turna bolalarini hamon ergashtirib, ba'zan g'ut-g'ut ovoz chiqarib don yeyishga undar, ular donlashar ekan, u benihoya uzun bo'ynini cho'zib, atrof-tevarakka qarab turardi. Nihoyat, olislarga chigirtka va kamyob o't barglarini izlab ketgan Ota-turna ham uchib keldi. Keng qanotlarini yoniga tap-tap urib, uzun oyoqlarini cho'zib yerga qo'ndi. U qo'nishi bilan Ona-turna parvoz qildi. Ota-turna esa bolalari o'rtasiga kirib, g'ut-g'ut deya yerga qusdi. Turnachalar ota jig'ildonida hazm bo'lmagan, ho'l, yutumli xo'rakni cho'qib-cho'qib yemoqqa tutindilar.

Nihoyat, u jo'jalarni ergashtirib, atrofiga toshchalar terilgan uyasiga keldi va Cho'loq turnachani ko'rib, bo'ynini cho'zdi. Keyin, uni oyog'ida turtib ko'rgan bo'ldi. Keyin, parvo qilmay, uyaga o'tdi-da, qanotlarini yoyib, asta pasaya boshladi. Turnachalar chiychiylashib, otaning issiq patlari ostiga kirib olishdi.

Cho'loq turna otasi sharpasidan ham o'ziga yaqinlik, boshpana hissini tuygan, aka va opalari ovozidan ham asti hayiqmagan edi.

U ham ne bir issiq talpinish ila uyaga intildi. Bir amallab toshchalardan o'tdi. Va dumalab-turib, issiq qanot tagiga suqildi.

Ehtimol, Cho'loq turna uyaga kirolmaganda, Ota-turna unga parvosiz qolaverar edi. Biroq, endi uning harakatda ekanini sezib, qanoti ostiga kirishga qarshilik qilmadi.

Otaning bag'ri — tashqaridagi iliq oftobdan ham yoqimli edi. Eng muhimi — Cho'loq turnachaning qaltirashi bosilgan, uning vujudiga bir bexavotirlik va ishonch kirgan edi.

Ona-turna kelganda, Ota-turna tag'in bolalarini qanoti ostidan chiqardi. Cho'loq turnacha onasi jig'ildonidan tushgan xo'rakni ko'rib, unga intildi. Aka-opalari qatori yeb oldi. Keyin, albatta, qorni to'ymay, uzoq chiychiyladi. Keyin onasining ham bag'riga kirdi. Ona-turna ham boya e'tibor etmagan jo'jasini endi e'tibor bilan yumshoq patlari ila bekitib oldi.

Kun botishi oldidan Ona-turna yana oyoqqa turdi. Yana bolalarini yantoqzor ortiga boshladi. Endi Cho'loq turnacha ham ulardan ortda qolmay ergashdi. Endi Ona-turna ikki marta to'xtab, uning yetib kelishini kutdi. Nihoyat, Cho'loq turnacha ham onasi g'utg'utlab chaqirgan yerdan don terib yedi.

So'ng Ona-turna kattakon yovshanning kungay tomoniga yonboshlab, yumshoq, iliqqina qum-tuproqni qanotlari va oyoqlari ila tita boshladi, keyin unga bag'rini berib yotdi. Cho'loq turnacha ham aka va opalariga o'xshab qum-tuproqqa yotdi. Tuproq iliq, yoqimli — bunda quyosh tafti-yu ona-ota bag'ridagi haroratdan ham ziyodroq bir nima bor edi.

Ota-turna tevarakda mag'rur kezib, atrof-olislarga ko'z tashlab yurar, goho o'z-o'zicha "qaq-qaq" etib yangroq tovush chiqarib qo'yar edi. U har tovush chiqarganda Ona-turna boshini bir ko'tarib qarar, so'ng yana xotirjam bo'lardi.

Turnalar bir xil tovush chiqargani bilan ma'nosi ko'p bo'ladi, zero ularning inson qulog'iga bir xil bo'lib eshitiladigan ovozlarida turfa ohanglar bor.

Yovshan va yantoqlar to'p-to'p bo'lib o'sgan, ulardan xoli maydonlar tap-taqir bo'lgan bu keng makonda ko'p marta quyosh chiqib, ko'p marta botdi. Havo tobora isib, o't-o'lanlar sarg'aydi. yerlar tors-tors yorildi.

Bu turnalar bola ochib, kuz shamollari esa boshlaguncha turishadigan makon edi. Zero bunda Cho'loq turnachaning ota-onasi va aka-opalaridan ham o'zga turnalar oilasi ko'p va ularning har biriga tegishli, o'zlariga xos tug'ma qonunlariga ko'ra chegaralangan yerlari bor edi. Bu makonda albatta ularning g'animlari, kushanda va do'stlari ham bor edi. Masalan, eng ashaddiy dushmanlari tulki ila shaqol. Lekin bu ajoyib qushlar yashash uchun shunday kurash tarziga bo'ysunar edilarki, ular g'animlariga qarshi o'z qurollari bilan kurashishni ham bilishar edi. Birgina "qaqqaq" etgan tovush manaman degan tulkining esxonasini chiqarib yuboradi. Shaqol ham toqat qilolmaydi bu tovushga va bu yirtqichlarning har ikkisi ham bu ovozlarning egasi g'oyatda nozik, mutlaqo beozor qushlar ekanini sira aqlga "sig'dirolmaydi", chunki bu yirtqichlarni qadim-qadimdan xuddi mana shunday tovushlar dahshatga solib kelgan, bu tovushlar chiqqan joydan qochish — ular uchun yashash uchun kurash edi.

Tabiat naqadar dono!

Turnalarning uyalari nima uchun bu qadar sodda-ibtidoiy: qumga qattiq bosilgan tuya izining o'zi. Tag'in ochiq yerga qo'yishadi. Atrofi nega kichik toshlar bilan qurshaladi? Bu uyalarda yana bir g'aroyibotni ko'rish mumkin: qaysi turna tuxum qo'ysa, tuxumlari bilan yonma-yon ikki-uchta ot tezagini ham keltirib qo'yadi. Ular nega kerak?

Turna o't-o'lan orasiga in qo'ysa — dahshat! Chunki aksar yirtqichlar o'zlariga yemishni o'sha o't-o'lanlar orasidan izlashadi. Xolis, tekis yerdan-chi? Yo'q. Lekin birda-yarim yo'lakay turna uyasi ustidan o'tib qolishi mumkin. Shunda ular Ona-turnalar qo'ygan tuxumlarni ko'radimi? Ko'radi. Lekin nega chaqib yeb ketishmaydi? Chunki tuxumlarning rangi ot tezagidan farq qilmaydi. Ot tezagida nima bor ularga! Uya atrofidagi toshchalar nega kerak? Cho'l shamollari tuxumlarni dumalatib ketmasligi uchun kerak. Yashash sharoitining o'zi jonli-jonivorlarni ham qanday yashamoqni o'rganib yaratgan.

Kuz shamollari...

Turnalar bezovta bo'lib yig'ila boshladi. Olis-olislardagi turnalar oilalari ham sayhonlik ustida parvoz qila-qila pastda ko'rin-

gan bu to'plarga kelib qo'shilar edi. So'ng qanotlarini tap-tap urib yugurishgan, bir-birini quvlashgan, oyoqlarini ko'tarib, qanotlarini silkitishgan.

Yosh turnachalar ham ularga taqlid qilishadi. Lekin ular ko'proq uchishadi, illo ularni ko'proq uchishga ota-onalari majbur etishadi: yerda uzoq qolishsa, ayamay cho'qishadi. Goho bu sahro turnalarning "qaq-qaq" ovozlaridan larzaga keladi. Ovozlar uzoq-uzoqlarga ketadi va kunora yiroqlardan yangi-yangi turnalar oilasi kelib qo'shiladi.

Goho bu olatasir to'p ufqlar ortiga — olis Janubga, ulargina sezishi mumkin bo'lgan iliq taft kelayotgan yoqlarga qarab turishadi. Shunda shimoldan esadigan shamol ularning yollari, soqollari va qanotlarini hurpaytiradi.

Bir safar turnalar galasi taqir maydonda uzoq yo'rg'alab qaqillashdi. So'ngra shunday tapir-tupur qanot qoqib havoga ko'tarilishdiki, taqir yer changib, yovshan-u shuvoqlar boshi shamol esgandek egildi. Talato'pda yerga talay patlar uchib tushdi. So'ng qushlar havoda "gilamcha" bo'lib aylana-aylana ko'tarila boshladi. Osmoni falakka chiqqanda ham aylanishar, bu aziz sahro ustida parvona bo'lgandek aylanishar, endi ularning ovozlari tamom o'zgacha: qandaydir mungli va porloq, endi ovozlar bir-biriga jo'r bo'lib chiqar edi: qur-ey, qur-ey.

Ovozlar elas-elas eshitila, turnalar nuqtalar misol ko'rina boshladi. Keyin birpas parokanda bo'lishdi-da, uzun saf tortishdi va asta Janubga qayrilishdi.

Cho'zilgan ipga tizilgandek bo'lib, sahro osmonidan uzoqlashib ketishdi.

Turnalar!...

Ularning yaralishlari, yashash tarzlaridan kelib chiqqan alohida uchishlar bor: yerga qo'nish yoki yerdan ko'tarilish paytida "gilamcha" bo'lishadi, olislarga parvozda "arg'amchi"ga aylanishadi.

Zero olis parvoz paytlarida ipga tizilgandek uchishmasa, mingming chaqirim yiroqdagi manzillariga emas, uning yuzdan biriga ham yetishlari gumon, ular yo'llarda qolib yoxud nomaqbul joylarga qo'nib, halok bo'lishar edi. Holbuki unday bo'lmaydi hech: tabiatning o'zi ularni shunday uzoq masofalarga uchishga qodir

qilib, qanotlarini katta va qamrovli, a'zolarini g'oyat kichkina va yengil qilib yaratgani ustiga uchish tarzlarini ham shunga xos holda ijod etgan.

Turnalarda ham, albatta, yo'lboshchi bo'ladi. Biroq u ham olis safarda hamma vaqt safning oldida bora olmaydi. Chunki ro'paradan esuvchi shamol, dovullar, hatto havoning muallaq holati qarshiligi ham uning kuchini kesib qo'yadi. Shuning uchun yo'lboshchi turna ham yo'lakay "dam oladi", ya'ni ortidagi turnaga o'rnini bo'shatib, eng orqaga o'tib turadi. Bu tur uchishda hikmat bor: ro'paradan esgan shamol-u havo oqimi safda eng ko'p oldingi turnaga ta'sir etadi. Orqadagilar... bu qarshilikni juda oz sezib, go'yo havo qarshiligi "yo'q" bo'lgan bir bo'sh quvurda ketayotgandek bo'lishadi. Turnalarning olislarga ucha olishlari siri shunda.

So'ngra ularning uzun, ingichka tumshuqlari ham havo oqimini kesish va uning ta'sirini kamaytirishga qo'l keladi. Ingichka oyoqlari dumlari tomonga cho'zilib, go'yo bir juft dum patiga aylanib qoladi.

Pastga tushayotganda bu xil uchmoqqa hojat qolmaydi.

U ancha ochko'z, ammo baribir zaif bo'lib o'sdi. Aka-opalari parvoz mashqini olayotganda, u ham albatta safga qo'shilar, lekin, birlamchi, tez charchar, so'ngra yerga qo'nish ham uning uchun xiyla azob edi: qiyshayib qolgan oyoq yerga to'g'ri tushmay, Cho'loq goho yiqilib ketar, parvoz oldidan ham tez yugurib olishda shu oyoq xalal berardiki, shuning uchun u ko'pincha yerda bo'lishni afzal ko'rardi. Shuning uchun o'zga turnalardan zaif-u ularga qaraganda xiyla etli bo'lib o'sdi. Biroq "qabilasi" udumi, yashash sharoiti talabi bilan ular xulqida paydo bo'ladigan o'zgarishlarni bexato o'zlashtirdi. Unda barcha turnalarda bo'lguvchi tug'ma hislar kamol topdi: u ham tulki uchraydimi, shaqol uchraydimi, dahshatli "qaq-qaq" tovush bilan ura qochiradigan bo'ldi; olis ko'llarga borib suv ichib kelish va foydali o'tlarni ota-onasi yordamida topishni o'rgandi, ba'zan o'zi ham ichki — tabiiy hissi bilan topib yedi.

Ba'zan safdan ortda qolgan paytlarida — qorong'i tushgan, yulduzli kechalarda ham o'z qarorgohini adashmay topib kelardi. Bu xususda u o'tkir edi: eng yaqin yo'llarni kashf etar edi.

Mana, u ham Janub sari, xuddi ohanrabodek o'ziga tortayotgan sirli manzil sari "qabilasi" safida uchib bormoqda. Oldindagi turnalarning yon-veridan esayotgan shamol unga ham oz-moz ta'sir etadi, patlarini yalab o'tadi. Pastlik!.. U hech qachon bunchalar balandda parvoz etmagan edi. Lekin bu uchishning gashti bo'lak ekan... Buning ustiga, olisda sirli makon bor. O'shanga yetishlari kerak.

U makonning juda ham azizligini hoziroq sezmoqda!

Shu alpozda borar ekan, o'ng-u so'lidan oppoq bulutlarning suzib o'tayotganini ko'rdi. Bulutlar unga tanish edi. Bahor chog'laridan tanish... Biroq o'shanda ular yuksaklikdan patlarni yumshatib ho'l qiladigan yomg'ir yog'dirib o'tishgan edi. Cho'loq turna aka-opalari bilan qunishib, ularni pastdan kuzatishgan, so'ng oftob charaqlab chiqqanda, patlarini uzoq titib-to'zg'itgan edi. Ular goho suvloqqa borib cho'milgandan keyin ham iliq qumloqda turib, patlarini shu xilda quritishar edi. Endi esa Cho'loq turna o'z safdoshlari bilan o'sha bulutlar ichidan suzib o'tmoqda. Lekin u bundan vahimaga tushayotgani yo'q, aksincha — bu g'aroyib makonda erkin-erkin quloch otmoqda.

Bir payt yaydoq, bulutsiz, niliy bo'shliqqa chiqib olishdi. Turnalar kiftiga iliq oftob nurlari tegdi. Ammo olg'a uchganlari sari Cho'loq turna havoning keskin sovib borayotganini payqadi. Pastda... pastlikda oppoq tog'lar ko'rinar, ular ham Cho'loqqa tanish edi: bir vaqtlar ularni yonlab uchgan, lekin o'shanda hech ham bunchalik sovuqni sezmagandi. Havo sovigandan sovidi. Turnalar esa tobora tezroq uchishar, chamasi mana shu tez harakat ularni sovqotishdan saqlamoqda, ba'zilarining qanotlariga qirov ham qo'ngan edi.

Havo tag'in asta-sekin ilidi. Tog'lar orqada qoldi.

Shu tarzda borishar ekan, Cho'loq turna safning ancha oldiga o'tib qolgan edi. Endi shamolning ta'siri kuchaya boshladi. Chunki yo'lboshchi turnagina emas, uning ketidagi bir necha turnalar ham "yo'lboshchilik" vazifalarini ado etib, hordiq uchun safning quyrug'iga o'tishgan, shunga ko'ra Cho'loq turna karvonning o'rtasidan oshib qolgan edi.

Cho'loq pastlikda qandaydir tanish yirik qushlarni ko'rdi. Ular o'z sahrolarida ham ba'zan uchrab qolar, biroq makonlariga yaqin

yo'lamas edi. Yo'lamas edi-yu, Cho'loqning o'zi ham bu qushlardan ehtiyot bo'lishni tuyar edi.

Ular — burgutlar edi.

Karvon tag'in yuksala boshladi. Cho'loq turna bir necha marta quyiga qaradi. Ne bir tuyg'u ila safdan ajralgisi ham keldi-yu, xuddi safga ko'zga ko'rinmas zanjir bilan bog'langandek, uchishda davom etdi. U uchishi kerak edi. U uchishi kerak!

Faqat olg'a uchishi! Sirli, ohanrabo manzil tomon uchishi kerak! Nima bo'lmasin, qanday to'siqlar uchramasin, baribir uchishi shart! Uchishi...

Etakda daraxtzor qishloqlar ko'zga tashlana boshladi va bir mahal Cho'loq turna shundoq biqinlarida gala-gala qaldirg'ochlarning ham parvoz etib borayotganlarini ko'rib qoldi. Keyin esa bir necha qaldirg'och lip-lip eta olg'a o'tdi-da, g'oyib bo'ldi.

Cho'loq turna tag'in ham safning oldiga chiqib qoldi.

Qaldirg'ochlar ham yashash qonunlari, avlodlari udumi hukmida ayni shu pallada janub sari yo'lga chiqishgan edi. Turnalar karvoni oldiga o'tib olgan uch-to'rtta qaldirg'och esa dam olmoqchi, ya'ni karvonboshilar kiftiga qo'nishgan, shu sabab ular tezroq charchab orqaga o'tishgan edi. Qishloqlar ham ortda qolib ketdi. Cho'loq turna endi safning boshida uchmoqda. Oldindan shovullab esayotgan shamol daf'atan ta'sir etib, uning bor quvvatini so'rib olmoqda edi. Cho'loqning ko'zlari tinib keta boshladi. Lekin uchmoqda. Qayerga... O'sha sirli makonga! Cho'loq turna u aziz makonni umrida ko'rmagan esa-da, uni biladi: u oldinda!

Karvon bir maromda ketayotgan edi. Cho'loqning parvozi susaygani sari orqadagi turnalar bir-biriga juda yaqin kelib qola boshladi. O'rtadan yo'lboshchi turnaning "quvq" etgan tovushi Cho'loqqa yetib, u ixtiyorsiz bir tarzda o'rnini ketidagi turnaga bo'shatdi-da, chetlanib, safning orqasiga o'tdi. Saf yana olg'a intildi. Cho'loq dumda turib uchar edi endi...

Ular shu alpozda uchib, tunni ham o'tkazishdi.

Cho'loq turna karaxt bo'lib qolgan, u bir necha marta karvonning boshiga chiqib, shu zahotiyoq orqaga o'tib olgan, bu orada yo'lboshchi turna bir necha marta "quvq-quvq" deb ovoz chiqargan, endi bu xil ovoz o'zga turnalardan ham eshitila boshlagan edi.

Cho'loq orqada... orqada qola boshladi. U bor kuch-quvvati ila qanot qoqadi. Lekin tobora orqada qoladi.

Karvon olg'a ketmoqda! Turnalar karvonining qonuni qat'iy: ular ortga burilishmaydi: ular ortda qolayotgan safdoshlariga yordam ko'rsatisholmaydi ham— bu hol ularga shunchalar aniqki, hayot tarzlariga aylanib ketgan.

Safga yaroqsiz turna ham taqdirga tan bermog'i kerak. Lekin o'jar, qaysar Cho'loq buni his etsa-da, o'zini dahshat qo'yniga — yolg'izlik qo'yniga tashlagisi kelmaydi: butun bori-borlig'i bunga qarshilik qiladi. Ammo kuch-quvvat bunga imkon bermaydi: cho'loq turna bu holidan hayratlangan kabi tag'in qanot qoqadi.

Karvon olislab ketdi. Cho'loq yolg'iz qoldi. Endi uning oldida havo qarshiligini kesguvchi kuch yo'q, hozirgi mo'tadil havo oqimi ham unga kuchli dovuldek ta'sir etar edi. Cho'loqning tezligi battar kesilib, pastlay boshladi. U nolali ovoz chiqarar, karvon esa uzoqlashgani ustiga, tag'in balandlab uchmoqda edi.

Cho'loq pastlab borayotgan esa-da, o'sha sirli yurtga qarab uchardi. Pastlab-pastlab ham uchaverdi. Lekin kuch-quvvat uni tark eta borishi, shamol uni orqaga suraverishi oqibatida u deyarli harakatsiz bir holga tushdi.

Unda yashashga intilish hissi o'zga bir tarzda junbishga keldi. U qo'nishi kerak. Qandaydir sahroga o'xshash yerga, yovshanyantoqlar o'sgan yerga qo'nishi kerak... Lekin oldindagi vatan!.. O'sha vatan uning uchun hayot edi: asl hayot o'shanda edi!.. Endi esa u hayot Cho'loqni inkor etdi. Cho'loq boshqa hayotga ko'nikishi kerak. U qo'nishi kerak, qo'nishi... Cho'loq turna endi temirqanot bo'lgan palapondek hamon olg'a intilib, past-past yashil daraxtlar ustidan uchib o'tdi. Keng o'tloqlar ham ketinda qoldi. Yiroqda taqir bir maydon ko'rindi. Turna unga intilib borarkan, qarshisida saf tortgan teraklarga yetganda, tag'in o'z-o'zidan pasayib ketdi-yu, ularga shatir-shutur etib urildi. Qanoti qiyshayib, xazonlar ustiga tushdi. Yana o'ng tomoniga yiqilib, shu bo'yi tek qoldi.

Bir mahal uning tingan ko'zlari atrofni ko'rdi. Turna apil-tapil qanotini o'nglab oldi va atrof manzarasidan dahshatga kelib, "qaq-qaq!" deb ovoz chiqardi. U endi o'zga hayot qo'ynida edi...

1978

KIMSASIZ HOVLI

— Oy borib, omon kel, bolam. Sendan boshqa suyanchig'im yo'q... — Umar aka o'g'li Ummatning ko'ksiga peshanasini ishqab-ishqab yig'lar, Hosila opa uning yelkalarini silab-siypar edi.

— Ena! Ota deyman! Urushga ketayotganim yo'q-ku, kelaman! — derdi Ummat g'ashlanib va allanechuk quvonib.

— O, bolam, meni!..

— Tez-tez xat yoz!

Mashinalarga chiqishga buyruq berildi. Ota-onaning gaplari ado bo'lmay og'izlarida qoldi. Ummat ularning bag'ridan chiqib, mashina kuzoviga intildi. Askar yigitlar allaqachon o'tirib olishgan edi. Mashina ham Ummatning chiqishini kutib turgandek jildi.

Umar aka bilan Hosila opa ham boshqa ota-onalar qatori orqaga qaytishdi. Umar aka shalog'i chiqqan "Volga"siga kirib o'tirdi. Hosila opa ham joylashgach, sekin, qo'llari qaltiragan holda haydab ketdi.

Shu kuni ular ishga chiqmadilar. Ummatjon harbiyga ketmas bo'lsa, turgan gapki, magazinda bo'lishardi. Er-xotin dam olish kuni nimaligini bilmasdi: birlamchi, ishni sevganlaridan. Ikkilamchi, omborda, magazin ortidagi omborda qancha mol bor! Uni Barbosga ham ishonib bo'lmaydi. Nima, bir itni bir narsa berib o'ldirish qiyinmi?

Qorovul Qadambek piyonista bo'lsayam sergak, lekin baribir... ichuvchiga ishonib bo'lar ekanmi!

Xullas, bugun Umar aka bilan Hosila opaning necha-necha yillar davomida birinchi marta dam olishga chiqqan kuni edi. Ummatjonning ketishi kerak bo'lib qoldi-da. Yo'g'asam-ku...

Ular hovliga yetishdi. Hosila opa temir darvozani ochib kirdi. Ichkaridan o'tib, g'ishtin garaj eshigini ochdi. Umar aka mashinani ichkariga qo'yib chiqdi. Hovlidagi g'arq pishib turgan bir tup xurmo tagiga — eski chipta kresloga o'tirib, boshini egdi.

Hosila opa garajni yopib, erining qarshisida turgan boshqa kresloga xo'rsinib cho'kkan ham edi, ancha narida — Ummatjon bilan Qadambek yasagan yog'och katak oldida cho'zilib, o'zlariga loqayd tikilib yotgan Jekka ko'zi tushdi-yu:

— Voy-voy! — deb chayqaldi. — Siz-da, o'zingiz-da! — dedi eriga. — Shuni opqolsa bo'lardi...

— E, aljima, — dedi Umar aka ijirg'anib. — Haliyam aqling kirmadi-kirmadi-da. Raykom sekretarining o'g'li ketayotganda, hazilmi senga...

— Hoy! — Hosila opa kreslo suyanchig'iga musht urdi. — Nega meni nuqul aqlsiz deysiz? A! Axir, o'ylab ko'ring o'zingiz...

— Uf! Yana o'sha gap... E, men o'lay!.. — Umar aka o'rnidan turib ketdi.

— Sizniyam topganingiz shu.

— Bo'ldi-bo'ldi-i! Hozir shu gaplarning vaqtimi?

Hosila opa jimidi. Yana ko'zi Jekka tushdi.

— Uni yotishini ko'ring! Voy...

Umar aka itga gangib tikildi. So'ng qoshiga borib cho'nqaydi. Boshini siladi. It tumshug'ini yerga cho'zib ko'zlarini xiyol yumdi.

— Shuyam xafa-ya! — dedi Umar aka.

— Xafa bo'ladi-da! Egasi ketdi!

— Bunga bir nima berish kerak... Tashvish bilan bo'lib, itni och qoldirdik.

— E-e... O'zingiz bering.

Umar aka ko'ksini uqalab o'rnidan turdi.

— Unday dema, xotin. Zamon tinch.

Hosila opa tag'in yig'lay boshladi:

— Baribir-da...

Umar aka, nihoyat, qaddini rost tutib, temir panjarali derazalar tagidan eshik tomon ketdi. Yo'l-yo'lakay axlat paqir ichida tikka turgan supurgini olib, yotqizib qo'ydi. Uvalangan raxlari chaplab yamalgan sement zinadan ko'tarilib, yomg'ir suvidan bo'yog'i ko'chib ketgan eshikni qo'sh kalitda ochib kirdi.

Yo'lakda o'zini ancha bardam sezdi. Qandil chirog'i yoqig'li qolgan ekan. Yon devorlarning zarhal rangda tovlanishi, to'rdagi

eshikka tutilgan yapon ajdahosi og'zini ochib turgan harir pardaning jimjimalari, poldagi cho'g'dek gilam uning ko'ngliga allaqanday tasalli bergan bo'ldi.

Keyin, u nimaga kirganini eslagandek, shoshib tuflisini yechdi-da, devorga o'rnatilgan qizil telefon apparatini ko'tarib, tagidan bir juft kalit oldi. To'rdagi eshikka yaqin chap eshikni ochdi.

Birpasdan keyin u parqu to'shakda, chetlari chetlariga moslab buklangan yashil, silliq, yaltiroq ellik so'mlikdan bir talayini kaftida silab o'tirar, lekin ko'zlari yoshli edi.

Allanarsani taqir-tuqir tushirib-tepib, Hosila opa kirib keldi.

— O'tiribsiz.

Umar aka behol bosh irg'adi. Hosila opa erining qo'lidagi yashil pullarni ko'rib, tilla tishlarini shimib o'ylandi.

— Shu pul tuzuk, — dedi. — O'ntaliklaringiz yaramaydi. O'tgan oqshom sandiqni ochsam, ichida mita yuripti. Kim biladi hali...

Umar aka xotiniga olayib tikildi.

— Rostmi? — dedi asta.

— Ko'ring o'zingiz!!

— Uf-f.

Pullarda mitti-mitti hasharotdek dog'lar ko'rinar, ular juda bezordek edi. Umar aka sandiqqa engashdi-yu, xotiniga ma'noli qarab: "Bor!" dedi. Hosila opa tashqariga chiqdi. G'uborli osmonga, temir darvozaga tutash devorga qo'shilib o'sgan tolning sap-sariq barglariga ko'zlari qadalib o'tgancha, shippagini oyog'iga ilib-ilmay yo'lkaga tushdi.

Xonaga qaytib kirib:

— Hech kim yo'q, — dedi. — Lekin shu tolni kesish kerak. Ko'chadan bir sakrasa, qo'li yetadi kishining...

Umar akaning qulog'iga gap kirmas edi: u yumshoq tumbada — oyoqlari orasida uyulgan dasta-dasta pulga termilib o'tirardi.

— Shular, bir qarasang, oddiy qog'oz-a. Gugurt chaqsang, yonib ketadi, — dedi, nihoyat.

— Aljimang. Aljib qopsiz.

— He-e, xotin! — Umar aka qo'llarini tizzasiga tiradi. — Ha, aytmoqchi...

— Nima, "aytmoqchi?"

— Bir nima demoqchi edim.

— It! — deb yubordi Hosila opa. — Shuning boriga shukr.

— Ha... Vey, nimaga ovqat bermayapsan haliyam? Yana esli deydi o'zini.

— Xo'p, bularni... — Hosila opa pul uyumiga tikildi-da, birdan titkilay ketdi: pachkalarni olib, o'ng-u so'liga qaraydi. Negadir hidlab ham ko'radi. Ba'zi dog'li, ezilganlariga ko'zi tushsa, burnini jiyiradi.— Baribir, — dedi keyin, — elliktalikka aylantirish kerak.

— Ahmoq, o'ntalikda gap ko'p! — dedi Umar aka. — Bor. Itga qara.

— Sob qo'ying joyiga.

Umar aka bosh irg'ab, tag'in engashib oldi.

Bu pullar unga... ularga osonlik bilan kelmagan.

Odamlarni aldashning o'zi bo'lmaydi, har daqiqada yuragingni hovuchlab turasan; OBXSS bor, militsiya, jurnalist degan bir balolariyam bor... To'g'ri, ayrimining tomog'iga tashlasang, labini yalab chiqib ketadi. Lekin shundayam qo'rqib turasan: ko'nglida nima bor — kim biladi.

Oddiy xaridorlarning ichidayam olasi uchrab turadi.

Bu pullar o'z-o'zidan kelmagan, shuni deb er-xotinning umri sovurildi hisob...

Qurib ketgur ayrim baza boshliqlari yomon-da!

E-e, hammasining og'ziga bir narsa tutishingga to'g'ri keladi, hatto yuk ortuvchisi ham umidvor.

— Hoy, Jek ovqat yemayapti.

— Nimaga?

— Men qaydan bilay! — Hosila opa shunday deb, yana ko'ziga yosh oldi. — Ummatjon bo'lsa...

Umar aka shosha-pisha pullarni sandiqqa tashladi.

— Shubangni ol! — dedi jahl bilan. — O'shani chiqarganing uchun bunga haligilar tushgan!

— Qish kelyapti deb...

— Baribir kiymaysan-ku?

— Uyda kiyaman!

Umar aka miyig'ida iljayib, chiqib ketdi. Hosila opa yoshligida o'yinchi bo'lgan. O'shanda rosa kiyinib yurardi. Umar akayam uni o'sha kezlar rosa o'ynatgan o'z doyrasiga...

O'shanda u kishi... yosh yigit — doyrachi edi. Odam boshda tutgan kasbini unutolmas ekan. Hosila opa ba'zan hushi kelganda, ya'niki, mo'may pul qo'lga kirganda: "Bitta cherting-e, yigit!" deb qoladi. Umar aka childirmani tizzasiga tirab qo'yib, bilagidan chiqqancha qotib qolgan qiyshiq qo'li bilan chaladi.

Otasi doyra chalib, onasi o'yin tushganda Ummatjon yotib-yotib kulardi. Bular xafa bo'lishmasdi. Ummatjonning kulgisi beg'ubor edi. Uning kulgisi sabab bularning zavqi oshardi. "Cherting-e, yigit!" — derdi Hosila opa battar avjlanib.

Jek hamon tumshug'ini cho'zib, ko'zlari mo'ltirab yotar, oldidagi sirli kosada turgan kolbasa kesimlariga qaramasdi. Umar aka tag'in uning boshini siladi. It quloqlarini bo'yni tomon pasaytirib, ko'zlarini xiyol yumdi, xolos.

— Tavba! — Umar aka inqillab o'rnidan turdi. — E, xotin! Qorni ochsa, yeydi.

— Ha, men ham shuni o'ylab turibman.

Yo'q, Jek boshqa qaytib ovqat yemadi. Hafta oxirida o'ldi.

Umar aka bilan Hosila opa Jekning o'limidan qattiq qayg'urishdi. Ummatjon Jekni yaxshi ko'rardi. Ketar oldidan iti bilan rosa yalashib-yulqashgan, hattoki katagini ham yangilab bergan edi.

Bu fojiani unga sirayam bildirmasliklari kerak: xafa bo'ladi, tag'in xafachilikda biror ishkal chiqarmasin.

Har qalay, bu ahvolning ham tabiiy chorasi topildi: magazin omboridagi Barbosning bir bolasini Qadambek orqali topib keltirdilar. Ajab! U Barbosdan ham ko'ra Jekka ko'proq o'xshab ketardi.

Hosila opa hovli devori ustini aylantirib tikanli sim bilan o'ratdi. Bu ancha xunuk edi; nimasi bilandir qamoqxona devorlarini eslatardi.

Biroq... olam hodis, bir nima deb bo'lmaydi.

Ichkarida ancha mol bor...

Sandiqdagi pullar — ularning bir ulushi.

...Endi bular tarixidan ikki shingil so'zlash ham mumkindir. Umar aka o'n olti yoshida otasini poyezd bosib ketgach, undan meros qolgan doyrachilikni kasb qilgan — rayondagi xalq teatrida biroz ishlab, keyin sayoq otarchilarga qo'shilib ketgan edi. Ko'p yurdi, ko'p topdi, topganini sovurdi. Albatta, u pullar suyuq ayollar yo'liga ketdi.

Bu orada Farhod kanali qurilishida ham bo'ldi. U yerda do'konchilik qilib yurganida, bor molini bir kavkazlik oshnasi urib ketib, o'zi u sovg'a qilgan bir paypog'-u bir xanjar bilan qoldi. Xayriyat, sog' chiqdi.

Keyin yana doyrachilik...

Ittifoqo bir qish muzda sirg'alib yiqilib, qo'li bilagidan chiqib ketdi. Tabibga soldirgan edi, qiyshiq bitdi. Keyin to'g'rilataman deb nogiron qilib qo'ydi.

Bu uning uchun fojia bo'ldi: doyrani ilgarigidek zo'r chalolmas edi...

O'shanda bir o'yinchi qizga ko'ngil berib, u — "tegarman", bu — "olarman" bo'lib yurgan edi. O'yinchini topish osonmi! To'y ko'p mahali edi. Izlab-izlab ma'shuqasi xizmat qiladigan otarchilarni topdi. Lekin qiz ketib qolgan ekan.

Tavakkal qilib, uyiga borgan edi, bir po'rim bilan o'tirgan ekan. Uni "erim" deb tanishtirdi.

Umar indamay chiqib ketdi.

Tentirab yurib, shu rayonga kelib qoldi-da, ochning ko'ngli holvaga ketibdi degandek, qo'g'irchoqlar do'koniga kirib qoldi.

Qarasa, mudira ko'ziga tanishday. Bir zamonlar o'z doyrasiga o'ynatib yurgan Hosilaxon...

So'rashdilar. Umar unga ahvolini aytdi. U do'kon ichkarisiga kiritib, oldiga ul-bul qo'ydi. Ishdan keyin, biroz-birozdan ichishdi.

Keyin Hosila dangaliga shunday dedi:

— Menga uylanasanmi?

Umar o'ylandi.

— Odaming yo'qmi?

— Aftimga qara.

Ertasiga Umar unga uylanar bo'lib shart qo'ydi:

— Oyog'ingni qiyshiq bossang o'lasan!.. Keyin, meni "siz"-laysan.

Hosila yig'gan bisotini sarflab ancha tuzuk to'y qildi. Umar uning bir xolasidan qolgan hovliga "yig'ilib" bordi. Keyin, Hosila to'yda bosh bo'lgan magazin direktoridan iltimos qilib, erini ham qo'shni non do'koniga ishga oldirdi.

Umar savdo ishidan xabardor edi, eplab ketdi.

Oydan oy, kundan kun o'tib, bular bir magazinda ishlay boshladilar.

...Ummatjon besh yoshga kirganda, Hosilaga hozir ishlayotgan magazin direktorligi tegdi. Saldan keyin direktorlikni erining nomiga o'tkazib, boshqa hamma ishni o'z qo'liga oldi. Magazin katta. Uchta bo'limi bor: birida mebel sotiladi, birida — gazmol, yana birida — ro'zg'or buyumlari.

Qo'llarida o'zlaridan bo'lak yana uchta qizcha ishlaydi.

To'g'ri, bu magazinni olish oson bo'lmadi. Hosila bultur urilib ketgan shahar savdo boshlig'iga ko'p narsa va'da qilgan edi: uni uzguncha bo'lari bo'ldi.

Lekin, keyin...

Ular ishga pishiq-puxta edilar: ikki savdo xodimining tili bir bo'lsa, ko'p ish qilsa bo'larkan.

...Qisqasi, ularning imoni ham, umrlari ma'nosi ham pul bo'lib qoldi. Planni bajarish — birinchi o'rinda, albatta. Biroq magazinga borishdan maqsad — bugun nima tushadi, degan talabni qondirish, xolos.

Biroq ular kamtar, ko'rinishda kamsuqum, ko'pchilik o'rtasida ko'zga tashlanmasdi ham.

Qadambekni aldab-suldab hayhotdek hovlisini sotib olishgach, endi orzu-havas ko'yiga tushdilar: pishiq reja bilan imorat boshlashdi. Darhol uning atrofi xom g'isht bilan o'ralib, ichki tomon sement suvoq qilindi. Imorat bitgach, derazalariga ichkaridan temir panjaralar o'rnatildi.

Bunga ancha xarajatga tushdilar.

...Bu yoqda Ummatjon o'sib kelardi.

Endi ular boshlashdi.

Pul, pul, pul...

Uning yo'lida vijdon, andisha, odamiylik — sariq chaqa.

Agar ularning moli tekshirilsa, shu rayonda emas, qo'shni rayonlarda ham "yomonotliq" bo'lib, bir "Jiguli"ni varillatib yurgan manaman degan olifta magazinchining molidan o'n chandon ko'p chiqadi.

Lekin bular kamtar — faqir: xaridorlar bilan yetimchadek muomala qiladilar.

Ular kulgini yaxshi ko'rishadi. Kunduzlari ishlab, tunlari totli suhbat asnosida, kimni qanday "tushirganlari", kimga chap berganlarini aytib, xaridorlarning ustidan kulishadi. O'zlari dono, aqlli. Chunki ular pul topish yo'lini bilishadi. Ularning pullari bor!

Keyin... istiqbol haqida shirin xayol surish boshlanadi.

Ummatjon! Ummatjon!..

Mana, Ummatjon harbiyga ketdi. Uning iti ham o'ldi. O'rniga keltirilgan kichik Jek gurillab o'syapti... Er-xotin esa magazinda: xaridorlarni aldashyapti, ular ustidan kulishyapti... o'zlariga ola qaragan bitta-yarimta shubhali "xit"ning ko'nglini ham ovlab, keyin shubhalari qiynog'ida ham qolishyapti. Endi ularning ashaddiy dushmanlari — OBXSS odamlari yo militsionerlar yoki jurnalist, yoki shubhali shaxslargina emas...

Ular hammadan qo'rqishadi.

...Ummatjon ketgandan beri bir yil o'tdi. Undan xat kelib turipti. Xizmati chegarada. "Sizlarni sog'inaman. Lekin bu yerda qolib ketishim ham mumkin", deb yozadi. Keyin, albatta: "Mahallaga salom, Qadambek boboga salom... Jekka salom!" deydi.

Umar aka bilan Hosila opaning quvonchlari!.. Keyin uning "qolib ketishim ham mumkin" degan gapidan g'oyat hayron bo'lishib, bir-biriga tikilib qolishadi.

Holbuki, Ummatjon bolalikdan ota-onasini hayron qoldirishni yaxshi ko'rardi. Ba'zan shkafga kirib olib, ularni kunlar sarson qilar, keyin chiqib, qah-qah urib kulardi.

E'tirof etish kerak: u sodda, qing'irlikdan yiroq yigit edi.

Bular kabi ota-onaning bolasi unday bo'lmaydi, deb o'ylash mumkin. Lekin gap shundaki, Umar aka bilan Hosila opa ko'pchilikda qoldirib yurgan "yaxshi" taassurotlarini o'g'illariga qoldi-

rishni istamaganlaridanmi, o'z qing'irliklarini Ummatjondan zinhor yashirishar, bolaning nazarida, ota-onasi sutdek oq, musichadek beozor edi.

Ha, ular qanday kamtar, kamsuqum.

Ishdan boshqa narsani bilishmaydi...

Bir kuni kechqurun "subbotnik"dan qaytib, barg yozib qolgan xurmo tagida, kreslolarda horg'inlikdan mast bo'lib o'tirishar, Hosila opaning ovqat qilishga hushi yo'q, o'rtadagi uchoyoqli stolchada taomning "qurug'i"dan kolbasa, yaxna go'sht, ikra bor edi.

— Qarang, shu xurmo "odam" bo'ldi-ya!

— E! Hozir Toshkentdayam o'syapti.

— Yeng endi!

...Taomlardan cho'qinib, qorinlarini "aldashgach", iliq ko'klam oftobida mizg'igilari kelib turarkan, o'rtada beozor suhbat davom etdi:

— Bahor ham o'tib ketyapti!.. Biz magazinga qamalib yotibmiz.

Umar aka javob bermadi: u temir darvoza tagida qulog'ini ding qilib yotgan Kichik Jekni ko'rsatkich barmog'i bilan imlardi. Nihoyat, amr ohangida:

— Je-ek! — degan edi, avlodi bo'rilardan aynigan, biroq egasiga benihoya sodiq ovcharka uchib keldi va Umar akaning tizzasiga suykalib, unga porlab turgan ko'zlarini bir muddat tikdi-da, asta yerga bag'rini berib yotdi. Umar aka uni silab-siypadi. — Xotin, xuddi Katta Jekning o'zi-ya! Yo qudratingdan!

— Ummatjon kelsa taniyolmaydi, — dedi Hosila opa.

— Lekin otpuskaga kelsa, baribir biladi...

— Unda mayli!

— A-a... ungacha buyam to'pposday bo'lib qolar.

— Eshshakday bo'ladi, deng... Vey-vey hoziroq... aftiga qarang. Undan ham ziyrak!

— Barbosdan tarbiya olgan-da.

...Bundan to'rt oycha muqaddam Qadambekning maslahati bilan Barbosni o'n kun kunduzi uyga keltirib qo'yib, undan go'yo hadis oldirishgan edi: Barbos hovli sahniga qo'ngan musichani ham qo'ymas, nari ko'chadan bir sharpa eshitilsa ham darvoza tagiga borib pisib yotardi.

O‘zi, ajoyib hayvon-da, bu zot! Itni o‘zimizda odamlar hurksin, hovlini qo‘risin, ovozi chiqsa, o‘g‘ri ham qochadi, deb saqlashadi ko‘pincha.

Bu jonivor esa — xuddi bo‘rining o‘zi: na huradi, na odamni qo‘rqitadi. Indamay yotsa-da, vajohatini ko‘rgan odamning imoni qirq gaz uchadi.

— Hoy, siz bir narsani o‘ylaysizmi hech? — so‘rab qoldi Hosila opa. — Ummatjon armiyadan kelsa...

— Nimani o‘ylashim kerak? — dedi Umar aka. — Kelishi sharofatiga restoranda ziyofat qilib berasiz...

— Restoranda?

— Res-toran-da! — uqtirdi Umar aka. — Hali hammani shu yerda to‘playmiz, deb ham qolarsiz?

— Yo‘g‘-e...

— Sen menga shuni ayt, uni qaysi o‘qishga joylab qo‘yishimiz kerak? O‘g‘ling ancha sodda...

— A-a, uni bilaman.

...Ummatjonning soddaligi mahalla odamlariga ham besh qo‘lday ayon, uni ko‘plar maqtashar edi. O‘zi ham katta-kichik demas, bemalol aralashib ketaverardi.

Ummatjon Qadambekka ham yoqardi. Yigitcha unga uylaridan gazak o‘g‘irlab oborib berar, uning alkash-chalkash gurunglarini g‘oyat qiziqish bilan tinglardi.

Umar aka irg‘ib turdi.

— O‘zi kelsin!.. Diydoriga bir to‘yay! Bas... Keyin aytganini qilamiz! Borimiz o‘shaniki-da!

— O‘shaniki!

— Ey, uch-to‘rt yildan keyin magazinni topshirsak...

— Unday demang! — dedi Hosila opa ko‘zlari ola-kula bo‘lib. — Keyin nima qilamiz?

— Aqlliman deysan-u o‘ylamaysan...

— Xo‘sh?

Umar aka turdi-turdi-da, kulib yubordi.

— O‘zim ham bilmayman.

...Shundan keyin ular bugungi hashar haqida, rayon prokurorining nemischa mebel kerak, deb iltimos qilgani, unday me-

beldan bir emas, bir nechtasi do'kon ortidagi omborda turgani holda, unga "yo'q" deganlari va unday mebel kelishi hamon u kishining uyiga telefon qilishlarini aytganlarini. Eslashib kulib o'tirishdi.

— Lekin o'zi yaxshi odam-a, — deb qoldi Hosila opa.

Umar aka xotiniga ola qaradi:

— Ha, yoshgina yigit...

— Tavba! Qarisangiz ham quyilmaysiz-da!

— Yo'q, o'zingizga boqing...

— Xo'p. U yomon odam!

— Bu boshqa gap.

— Bir kelib qolgandi-da.

Umar aka itni yana biroz siladi-da, chuqur xo'rsindi.

— Odamning-ku, yaxshisiyam ko'p, — dedi asta. — Lekin sen, men shunday joydamizki..

— Tushunaman-e!

— O'tmishimizni esla...

Hosila opa erining gapini o'zicha tushundi:

— Yana boshlayapsizmi?

— Obbo! — Umar aka yana kulib yubordi. — Hali aytdim-ku, ishdan chiqsak deb...

— Xo'sh?

U miyig'ida kuldi.

— Ilgarigidek... yashab ketaolamizmi? — Keyin darhol xotiniga qaradi. — Yo'q, — dedi. — Hozir, shukr, obro'yimiz ham bor. He, ilgariyam...

— Ko'ryapsizmi, davlatning, xalqning savdosini deb, yeyish-ichishimizda halovat yo'q dedim, Xushbekovga.

— Sen boplaysan ammo-lekin!..

...Oradan yana bir yil o'tdi. Umar aka bilan Hosila opaning yurish-turishida ilgari ko'rilmagan bir shoshqaloqlik paydo bo'lgan, bunga faqat Ummatjonning kelish muddati yaqinlashgani sabab, deb bo'lmas, undan kattaroq pinhoniy sabablar ham borga o'xshardi.

To'g'ri, Ummatjon chegarada xizmat qilayotgani uchunmi, yo'l uzoq, bir yo'la bitirib boraman, deb otpuskaga kemadi. Shu

bois Umar aka bilan Hosila opa toza diqqat bo'lishdi, sal narsaga bir-biri bilan aytishib qolgan paytlari ham bo'ldi. Bu — bir. Keyin buyog'i — savdoning ham mazasi qochdi. Mol ko'p, xaridor ko'p, lekin kimdan olaringni bilmaysan. Tekshir-tekshir... Xaridorlarning ham tilginasi chiqib qolgan, bir tiyinning ustida ming marta o'lib-tiriladi. Savdoda ikki xil baraka bor, biri — davlat-u xalqniki, ikkinchisi — eplagan sotuvchiniki. Shu ikkinchisiga putur yetdi-yu, vahimasi ham er-xotinni tentiratib, asabiy qilib qo'ydi. Endi uncha-muncha tanishga ham "aka-uka" deb o'tirishmas, mabodo magazinga gumonli kirib qolsa, ikkisi bir og'izdan "talab berishardi".

— Gap bormi? Ayting... Yo'q, biz siz o'ylaganlardan emas!.. Ishonmasang, ana OBXSSga bor, melisaga bor!.. Bizlar bir oylikxo'r odamlarmiz! Savdodan yomonlar, ustiga qo'yib sotarlar chiqqan bo'lsa, chiqqan! Bizga nima!..

— Mana, bizning turish-turmush!..

Haligi odam bunday gapni eshitgandan keyin izza bo'lib chiqib ketardi.

Er-xotin esa, shu asno o'zlarini yanada dono va uddaburro sezishardi. Aqchalari ko'paygandan ko'paymoqda: o'ntalik qizil pullar yashil elliktaliklarga aylangan, endi o'n qator dasta bilan bir qator dastaning bo'yi tenglashib qolgan edi.

Er-xotinning pulga mukkalari bilan ketishiga sabablardan yana biri — vaqtning ziqligi, harna, ularni bu yerga bog'lab qo'yishgani yo'q, bir kunmas-bir kun ishdan ketishlari tayin. Boshqa sabablarini bilgich odamlar bunday ta'riflashadi: pul — baloyi azimki, domiga tushgan kimsa o'zini to'xtatolmaydi.

...Bir kuz kechasi. Yo'laklarda daraxtlardan to'kilgan yaproqlar shildirab yugurishar, esayotgan shabada juda yoqimli edi. Kichkina shahar ahli uyquga ketib qolgan. Faqat ko'cha soqchilari, mast-alastlar hamda vokzallardagi avtobus va poyezd kutayotgan yo'lovchilar uyg'oq.

Toshkent poyezdidan bir necha askar bolalar ham tushishdi. Aksarini kutgani chiqqanlar bor ekan — ular to'xtab qolishdi-yu, bir yigit chamadonini yengil silkitib, perronga chiqdi. Atrofga qaradi. Bekatga bordi. Odam ko'p. Xiyobon oralab piyoda ketdi.

U rayondagi eng yirik magazin oldidan o'tayotib to'xtadi-da, gulzor chetida, cho'tkachilarning boshpanasiga o'xshab turgan yog'och uychaga qaradi. Unda chiroq bor edi.

U ildam o'tib bordi.

— Qadambek bobo!

Buklama karavotda engashgan ko'yi uxlayotgan qariya cho'chib boshini ko'tardi. Qo'li yonboshida yotqizib qo'yilgan miltiqqa yugurdi.

— Tanimayapsizmi? Ummatjonman-ku, men! — dedi yigit. — E, yashang-e! Toza mast bo'psiz... Bermayman endi! Sizga deb "Persovka" olib edim.

Chol turib, ko'ziga yosh oldi.

— Afv et, bo'talog'im! — U qattiq intilib, Ummatjonni quchdi. U beti, bu betidan o'pdi. — O'tir, o'tir, bo'taloq... — O'zi o'tira solib, gap boshladi. — Seni sog'inar edim! Meni hurmat qilarding, bilaman...

— Albatta hurmat qilaman!

— Kam bo'lma! — Chol shunday deb, boshini egib bir zum jim qoldi-yu, birdan xurrak torta boshladi.

...Ummatjon birpas jilmayib turdi. Keyin tislana-tislana uzoqlashdi. Ummat yaxshi xizmat qilib, ko'p narsani ko'rib, yetilib, ko'p narsaga fahmi yetar bo'lib qolgandi-ku, biroq haligacha soddalik, beg'uborlik va bolalarcha sho'xlik uni tark etmagan edi...

U uylariga yetib, darvoza tirqishidan qaradi. Hech narsa ko'rinmadi. Ota-onasi yo darvozada tirqish ham qoldirishmagan, yoki hovli chirog'i o'chiqligi uchun shunday "ko'rindi".

"Nima qilay? — deb o'yladi. Qo'li elektr qo'ng'iroqqa cho'zildi-yu, ortga tortildi. — Surpriz qilaman!"

So'ng darvoza tagiga engashib qaragan edi, nimaningdir pishpish etgani eshitilib, yuragi qinidan chiqqudek bo'lib ketdi.

— Jek, Jek! — dedi.

Darvoza g'alati tirnaldi-yu, jimidi.

— E, Jek og'ayni! — dedi-da, devordan oshib tushish uchun tislanib qaradi. Ko'cha chirog'i nurida harbiylikdan tanish tikanli sim ko'rindi. — Obbo!.. Otam ham, onam ham qiziq-da! — dedi-da, qo'ng'iroq tugmachasini bosdi.

Bolalikdan tanish qo'ng'iroq ohista jiringladi. U kuta boshladi; boshqa sas eshitilmadi.

"Qattiq uxlashipti-da", dedi-yu, hayrat bilan esladi: oldin ham bir necha shunday ovora bo'lgan edi.

Umar aka bilan Hosila opa kechasi eshik ochishni allaqachon tark etishgan edi.

...Ummatjon yana devor boshlariga qaray ketdi-yu, birdan ko'zi tolga tushdi. "O'-o'!" deb yubordi. So'ng o'ylanib, chamadonini garaj ustiga otdi: hali oladi. Olmasa... bir hisobda olmagani ham tuzuk. "O'g'ri tunadi", deydi, ularni biroz qo'rqitadi, keyin...

Qah-qah otib kuladi.

U shaxt bilan tolga tirmashdi-ku, lekin bo'lmadi— etiklari tiyg'ondi. So'ng yugurib kelib, bir sakradi-da, shoxga osilib oldi.

U devor ustida!

Ana, hamma yoq barala ko'rinyapti.

...U pastga qaradi; hovlilari. Sekin simdan o'tib, bir qo'li tol butog'idan tutdi-da, pastga sakradi. Shu... bir balo gardanidan bosdi.. Tipirchilab ag'darilgan edi, bo'yniga yopishdi.

Hosila opa, odatda, vaqtli uyg'onib, hovlini bir kezib chiqar, keyin, choy qo'yib, Umar akani uyg'otardi.

Bugun ham barvaqt tashqariga chiqdi-yu, hovli yuzida yotgan, chaynalgan askarcha shapkani ko'rib qoldi. Gangib borib, egilmoqchi bo'lib turganida, xuddi birov unga: "U yoqqa qara!" deganday bo'ldi.

Qarab...

...Xotinining bo'g'iq ovozidan uyg'onib ketgan Umar aka ham shoshib tashqariga chiqdi. Zinadan tushganda, ko'zi uyqudan arimagan edi.

Nihoyat u ham...

— O, bolam!.. O, men!.. — deya oldi.

Kichik Jek, zo'r ish qilgan-u egasidan siylov-siypalash va yana allanimalardan umidvordek xurmo tagida cho'nqayib o'tirardi. U Umar akaning ham yiqilganini ko'rib, qo'zg'aldi. Asta yurib kelib u kishini, so'ng Hosila opani hidlab ko'rdi. Keyin, tol tagiga qarab qo'yib, yana xurmo ostiga bordi-da, cho'nqayib o'tirdi.

1984

BODOM QISHDA GULLADI

Men burchakda, karavotimda chalqancha yotardim, behol. Ko'kragimda Stendalning "Qizil va qora" romani. Eshikdan oq xalatli, semiz Polina, uning ketidan pakana, qora patli xalatining etagi yerga tegib turgan bir yigitcha kirdi. Uning iyagi oldinga turtib chiqqan, ko'zi chuqur, peshanasi botiq edi.

— Sizlarga yangi mehmon olib keldim, — dedi Polina hammamizga tegishli qilib. So'ng men tomonda yotgan jo'raboshimiz Ziganshinga qaradi: — Qabul qiling, o'rtoq starosta. Bu kishining ismi... — U yigitchadan so'radi: — Ismingiz nimaydi?

— Nosir, Nosirjon! — dedi mehmon hozirjavoblik bilan.

— Ana, Nosirjon ekan, — dedi Polina. — Palataning tartib-qoidasini o'rgating. — So'ng elektr choynak qoshida turgan kursini unga ko'rsatdi: — O'tiring, Nosirjon. Men hozir kelaman.

Nosirjon onasi ish buyurgan yosh boladek kursiga o'tirib, kalta qo'llarini tizzasiga qo'ydi. So'ng birdan irg'ib turib, dam u, dam bu tomonga qarab:

— Assalomalaykum, assalomalaykum! — dedi.

— Vaalaykum, — dedi Ziganshin. — Endi tanishib olamiz-da. Qani, o'zlari nima ish qiladilar?

— Kuryer, — dedi Nosirjon o'rnidan turib.

— O'tiring... Kuryer? Qayerda?

— Aptobus parkida.

— A, nima bo'lib... siz ham jigar kasalmi?

— Jigar! — Nosirjon o'ng biqiniga kaftini bosib qo'ydi. — Hech munaqa kasalim yo'q edi. Ertalab parkka kelsam, bitta tanish shopir: "Ko'zing sarg'ayipti, medpunktga kir", deb qoldi. Medpunktga kirsam, jigar kasali, deb aytishdi. Keyin "skoriy pomosh"ga o'tqazib, buyoqqa yuborishdi. Pastda tekshirishdi. Cho'miltirib, mana bularni kiydirishdi. Keyin bu yerga... o'zingiz nima ish qilasiz, aka?

Ziganshin g'urur bilan kuldi:

— Karavotsozlik fabrikasida injenerman!

Nosirjon juda ulug' odamga duch kelganday o'rnidan turib ketayozdi. So'ng boshqa bemorlarga ham hurmat va sezilarli qo'rquv bilan bir-bir qaradi.

— Bu yerda yotgan boshqalar ham... chakana odamlarmas! — dedi Ziganshin. — Anavi odam yozuvchi! — deb meni ko'rsatdi.

Nosirjon menga tikildi. Men unga "shunaqa aybim bor", degandek siniq iljaydim. Lekin uning ko'zlari katta ochilib ketgan edi. Jo'raboshimizning so'zi davomiga quloq solmay:

— Men shoir Rafiqiyni ko'rganman! — dedi u hayajon bilan. — Apisha zakaz qilish uchun bosmaxonaga boramiz-da! He, ko'cha devorlariga, avtobuslarga yopishtiriladi-ku apisha? O'sha uchun... O'shanda ko'rganman. Oq sochli kishi ekan.

Dam hajviyanamo, dam qasidanamo she'rlar yozib yuradigan, qalam ahli orasida obro'siz, menga yoqmaydigan bir tizmakash edi Rafiqiy. Men horg'in bosh irg'agan bo'lib:

— Taniyman... Yaxshi, — dedim.

Ziganshin hamxonalarini tanishtirishda davom etdi: bu kishi — tilshunos, institutning ilmiy xodimi; bu kishi — mashhur montyor, ushbu kasalxonaga ikkinchi bor tushishlari: u kishi — Qodir etikdo'z, ammo zo'r kitobxon; anavi yigit — buxorolik. Gazli zilzilalarini ko'rgan, xolalarining uyiga kelganda shu kasalga yo'liqib, bu yerga tushib qolganlar; narigi kishi — militsiya kapitani, yoshliklarida lo'li qizga oshiq bo'lganlar...

Polina kirdi. Qo'ltig'idagi choyshab va adyollarni burchakdagi bo'sh karavot ustiga qo'yib, birin-ketin yozdi. Qappaytirilgan oppoq yostiqning yon-veriga tap-tap urib, sochiqni karavot boshiga tashladi. Tumbani ochib, bir pachka qog'ozni g'ijimlab oldi-da,

Nosirga jilmayb, ta'zim qildi:

— Marhamat, Nosirjon!

Nosir sakrab turdi. U ham beo'xshov ta'zim qilgan bo'ldi.

— Shumi mening karavotim, shumi? — deya tumba qoshiga o'tdi.

— Shu, shu! — dedi Polina faxr bilan.

Nosirni bir men emas, boshqalar ham kuzatib yotishardi. U jilmaygancha oppoq choyshabni silab ko'rdi. Yostiqqa qo'l tegizdi. So'ng to'shak chetini qatlab, karavot qirg'og'iga o'tirdi.

Polina kulib:

— Xo'p. Tezroq tuzalib keting. Tartib-intizomga rioya qiling... Ko'p harakat qilmang. Hoziroq yoting! — deb chiqib ketdi.

Nosir shosha-pisha xalatini yechdi. Qidirinib, eshik yaqinidagi ilgichga ildi. Keyin zimdan bizning qanday yotganimizni ko'zdan kechirib, asta adyolni ko'tardi. Tovoni qiyshayib ketgan eski tuflisidan kichkina oyoqlarini chiqarib, karavotga tizzalab chiqdi. Asta cho'zildi. Adyolni ko'ksigacha tortdi.

— Xo'p, gurung bering endi, Nosirjon! — dedi Ziganshin.

Chindan ham palatada aytilmagan gap kam qolgan, ko'p latifalar ikki-uch marotalab aytilgan, kimning nima to'g'risida gapirishi ham taxminan ma'lum edi.

Bunday vaqtda kishi ermakka muhtoj bo'ladi.

Nosirjon Ziganshinga o'xshab karavotining boshi tomon surilib o'tirdi.

— Shu bizning ishimiz qiziq-da, — dedi.

— Nimasi qiziq?

— Deylik, o'zim... — Nosir bu tomonga o'ngarilib oldi. Birdan hayajonlanib: — Odamlarga hayronman! — deb xitob qildi. — O'zlari aptovusga chiqadigan bekatning nomini bilishmaydi, aka! Uni bilsa, narigi bekatni bilishmaydi. Uni bilsa, qanday aptovuslar to'xtab o'tishini bilishmaydi!

— O'shalarni bilish juda shartmi?

— E, qiziq ekansiz-ku, siz ham! Bilmasa adashadi-da!.. Adashadi! — deb ta'kidladi u zo'r qanoat bilan. So'ng o'zicha maza qilib davom etdi: — Desangiz, bizga... menga har oy bepul abonement qog'oz berishadi. Bo'sh vaqtim bo'ldimi, duch kelgan aptovusga tushaman. Shaharni aylanaman... Misol uchun, aptovusda ketyapman. Ko'rib qolamanki, bekatda bir chol alanglab turipti. Sezaman: yo'lni bilmaydi, adashgan... Shartta aptovusdan tushaman. "Salomalaykum, otaxon! Yo'l bo'lsin?" "E, bolam, adashib qoldim. Falon joyga bormoqchi edim". Men darrov u kishiga tushuntiraman: shundoq aptovus keladi, o'shanga o'tirib, falon

bekatda tushasiz... Vassalom. Chol bizni duo qiladi. Men yana aptovuzga tushib ketaveraman. Yana bir bekatda...

— O‘, siz juda oliyjanob ekansiz! — dedi tilshunos qo‘shnim ovozida sezilarli kinoya va quvlik bilan.

Nosirjon yayrab ketdi.

— E, unchalik emas, aka!

— Nosirjon, uylanganmisiz? — deya yotgan joyidan turib o‘tirarkan, so‘radi Eshim montyor.

Hamma kulib yubordi: Eshim ayollar haqida, nuqul o‘shalar haqida suhbatni yoqtiradi va o‘zi ham shundan so‘zlab charchamaydi. Bu borada behayo gaplarni ham aytib yuboraveradi.

Nosir Eshimga tikilib qoldi-da, duv qizardi.

— E, qo‘ying-e! — dedi yosh boladek.

— Iya, nega qo‘yar ekanman! — deya avj qila boshladi montyor. — Hayot — o‘shalar bilan hayot, uka! Bizni bor qiladigan ham, yo‘q qiladigan ham o‘shalar, sizga aytsam! Masalan, o‘zim! Uylanganman. Ikkita bolam bor... — U davomini aytishdan o‘zini tiyib, Nosirga tikildi. — Hali... yaxshi ko‘rganingiz ham yo‘qmi?

Nosirjon battar qizarib, boshini egdi. So‘ng qandaydir titrab...

— Odamdan kulmang-da, aka, — dedi.

— Nega kular ekan? Siz yigit kishisiz! — deya luqma tashladi buxorolik Aminjon.

Nosirjon o‘zining yigit kishi ekanini ilk bor eshitgandek, Aminjonga hayrat aralash o‘qraydi. Keyin o‘zicha jiddiy tortib, bemalol shiftga boqdi. O‘ylandi.

— Yo‘q, — dedi.

Uning jiddiyati ham kulgili, ham yoqimli edi.

— A, bolapaqir-a! — deya xitob qildi Ziganshin.— Dunyoning lazzatidan benasib yurgan ekansan-ku, uka! O, muhabbat! — Yana bir parda ko‘tarildi: — San’atsiz turmush — vahshiylik, deymiz. Lekin muhabbatsiz turmush-chi?!..

Nosir “Rosti bilanmi?” degandek jo‘raboshiga uzoq tikilib qoldi-da, so‘ng birdan menga qaradi. O‘rnidan qo‘zg‘almoqchi ham bo‘ldi. Polinaning gapini esladi shekilli, yana yotdi.

Men bunday sodda yigitni ko‘rmagan edim.

Osma ukollarni olib kelishdi. Odam boshiga bittadan. Sepoya ustiga shisha idish o'rnatilgan, idishning biqinida — qizil rezina ichak. Ichak uchida — igna. Shu igna bilak tomiriga sanchib qo'yiladi. Idishdagi qonni tozalovchi suyuqlik shu orqali tomirga o'tadi. Qon suyulib, badan sovib ketadi.

Navbat Nosirjonga yetganda Polinaning ishi o'ngidan kelmadi. Palatamizga qarovchi vrach — Qobil doktorni chaqirdi. Qobil doktor, odatdagicha — labida sigaret, Nosirning boshida xo'b kuymandi. Oxiri:

— Siz dorili suv ichasiz. Stakanga quyib bering, Polina! — dedi-da, mening yonimga keldi. — Qalaysiz, shoir? — U qo'llarini xalati kissalarini yirtgudek qilib tirab, menga tikildi. Yonboshimdan Stendalning kitobini oldi. — A, — dedi. — Buyam she'r yozganmi?

— Men she'r yozmayman, — dedim.

— Baribir, — dedi u. — Eski zamonda hammalaringni shoir deb atashgan.

U tabobatdan ham o'sha zamonlar muolajasini ko'proq tan oladi. Ota-bobosi tabib o'tgan.

— Bu gapingiz to'g'ri, doktor, — dedim.

— Oqshom bir she'r olib kiraman. Ko'rib berasiz.

U nuqul Usmon Nosirning she'rlaridan ko'chirib kelib, menga ko'rsatadi. Men unga "Yaxshi she'r yozibsiz", deyman. U: "Men baribir shoir bo'lmayman. Shunchaki ko'ngil uchun..." deb qo'yadi. O'zining ahvoli-ku, ma'lum, mening yolg'on gapirishimni ham bilsa kerak. Mayli-da. Vaqtni ayamay bir shoirdan she'r ko'chiribdimi... yaxshi ko'rganidan ko'chirgan. Rafiqiyga o'xshash da'vogarlardan shular tuzuk-da.

— Nosirga... ichishni buyurdingizmi?.. — deb so'radim.

— Tomiri et orasida qolib ketgan. Yoshligida raxit bo'lgan. Nichevo, — dedi u. Keyin sigaretini bemalol buruqsatib chiqib ketdi. Polina havoda suzayotgan pag'a-pag'a tutunni sochiq bilan yelpigan bo'lib, zorlandi:

— Qobil aka hammani hayron qiladi, tavba!

— Lekin qo'llari yengil-a? — dedi montyor.

Polina ko'zlarini katta ochib:

— Voy, asta so'ramang! ToshMIgayam chaqirib turishadi! — dedi.

Idishdagi suyuqlikning kamayishi, tamom bo'lishini kutib yotish kerak. Kishi zerikadi. Qo'l uvishadi.

Polina chiqib ketgach, Nosirjon tumba ustiga olib qo'yilgan idishdagi suyuqlikni birpasda ichib bo'ldi. Keyin, o'ziga favqulodda bir yengillik berilgan-u, biz bechoralar atay mashaqqatga solingandek, mamnuniyat bilan jilmayib karavoti qoshida biroz turdi. So'ng qo'shnisi — Aminjonning yoniga asta o'tdi. Engashib uning bilagiga qaradi.

— O', qon chiqyapti-ku, yana!

— Bor ekan, chiqadi-da, — dedi Aminjon.

Nosirjon bosh chayqab kuldi.

— Mening tomirimni topisholmadi, — dedi quvonch bilan. — Ilgariyam topisholmagan. Keyin oyog'imga ukol qilishgan.

Bemorlar tomirlaridan igna chiqib ketmasligi uchun ohista kulishdi. Nosirjon har bir bemor yonida bir to'xtab, mening qoshimga yetib keldi. Stulni olib o'tirganida Ziganshin toqat qilib turolmadi:

— Mulla yigit, hamshira nima dedi sizga?.. Nega yuribsiz? Jigar kasal deydilar buni! Jimgina yotish kerak!

— Rost, — dedim men ham. — Sizni bu ahvolda ko'rsa, urishadi.

Nosirjon sapchib stuldan turdi-yu, nochorlik bilan eshikka qarab, bir zum tek qoldi. Keyin:

— Sizdan bir-ikkita gap so'rayman, — deb shivirladi menga...

Polina sepoyalarni ikkitadan-uchtadan qilib ko'tarib chiqib ketgach, eshikdan Qobil doktor ko'rindi. Menga ko'z qisib, xotinim kelganini, hozir kirishini aytdi.

Uyga qishloqdagi bir do'stimdan xat kelgan ekan. Sadaf shuni olib kelibdi. Xatga bir baxshi shoirning to'rt qator she'ri ham qistirilgan ekan. Menga yoqdi. Shoir osmondan turnalar karvoni o'tayotgani, allaqayerdan sumalak hidi kelayotgani, havolar ipakdek mayin bo'layotganini aytib: "Enajon, bilmadim, navro'z keldimi", deb she'rni yakunlaydi. Ayniqsa, shu satri yoqdi.

— "Enajon, bilmadim, navro'z keldimi..." Yaxshi-ya? — dedim xotinimga.

U ham yig'lamsirab, ham kulimsirab:

— Tashqarida esa qish! — dedi.

— Qor qalinmi?

— Hamma yoqni qoplab yotibdi. Sirpanchiq... Anavi vrach yaxshi. Meni kiritvordi.

— Yaxshi. Bo'pti. Jigar kasal ham yuqumli. Qaytaver endi.

Nosirjon karavot qoshiga kelib turgan ekan.

— Assalomalaykum, kennoyi! — dedi.

Sadaf alik oldi.

— Tuzalyapsizlarmi? Tezroq tuzalib chiqinglar-e.

— E, hademay otday bo'lib ketamiz! — dedi quvonib Nosir. — Bu yerning sharoiti!.. Jannatda topilmaydi! Qarang, kennoyi, hamma yoq oppoq, ozoda... Hozir osma ukol qilishdi! Shu deng, men dorini ichdim. Baribir foydasi bo'lar ekan!

Turgan gap, Sadafga uning xunuk qiyofasi yoqmadi. Lekin u andishali ayol — bildirmadi:

— Doktorlar tanishingiz bo'lsa kerak-da, — deya kulib qo'ydi.

Hamisha hammaning gapiga qulog'i ding Eshim montyor gap otdi:

— Bu ukamiz ustasi farang ekan, kelin!

Tushlik ovqatni ahvoli og'irroq bemorlar to'shagida o'tirib yeydi. Bu yerga oldinroq tushganlar, ya'ni tuzalib qolayozganlar esa o'rtadagi stolda tamaddi qilishadi. Kastrul va boshqa idishlar qalangan aravachani ham ko'pincha Polinaning o'zi g'ildiratib kiradi.

Polina asli yahudiy bo'lsa ham, juda o'zbeklashib ketgan, nuqul "O'zimizning o'zbeklar-da...", deb gap boshlaydi. Kasallarga mehribon. Ichida Qobil doktorni yaxshi ko'rsa kerak. Ayniqsa, zond yutgan paytlarimizda unga suyanib qolamiz. Zond — yarim gazdan oshadigan rezina ichak. Bir uchidan asta-sekin yuta boshlaysan. Tomog'ing qichimsirab ketaveradi. O'qchisang, bo'g'ilib qolasan. Polina dalda berib: "Oz qoldi. Yigitsiz-ku! Ha, bo'ling!" deb turadi. Zondni sug'urib olish o'zingning qo'lingdan kelmaydi. Boyoqish hamshira ikkinchi uchidan sochiq bilan ushlaydi-yu ko'z ochib yumguncha chiqarib oladi. Juda yengil tortib ketasan.

Tushki ovqatdan keyin bir muddat gangir-gungur suhbat; so'ng uyqu elitadi. Jigari og'rigan bemorlar juda zaif, madorsiz bo'larkan. Ovqatning ham mazasi yo'q. Kuchli taomni esa doktorlar yo'latmaydi.

Tush ko'ribman shu kuni. Tomda turgan emishman. Ko'kdan turnalar karvoni o'tayotganmish. Osmonning u yer-bu yerida pag'a-pag'a, quchoq-quchoq oppoq bulutlar. Yosh bola emishman. "Enajon, navro'z keldi!" deb baqirarmishman.

Biz uyg'onganda Nosirjon uxlab yotardi. Uning g'iybati boshlandi. Tilshunos qo'shnim yonboshlab:

— Kechirasiz-u men shu yigitchani... maymunga o'xshatdim, — dedi.

Men kulib qo'ydim. Tilshunos shivirlab gapirgan bo'lsa ham, qo'shni — Qodir etikdo'z eshitgan ekan.

— Abdulla Qahhorning "Sinchalagi"da Eshon bor-ku, xuddi o'shaning o'zi! — dedi.

Aminjon ham uni Eshonga o'xshatgan ekan. Jo'raboshimiz Ziganshin:

— Kelinglar, uni Eshon deb ataymiz! — dedi.

Militsiya kapitani jilmayib:

— Har qaysilaringning bittadan-ikkitadan bolalaring bor-u o'zlaring bolaga o'xshaysizlar-a! — dedi.

Oshpaz uyg'ur yigit:

— E Tangrim, o'zing kechir, — deb qo'ydi.

Bu yigit ellik beshinchi yillarda Qashqardan buyoqqa o'tgan, ko'p xudojo'y, ko'p kuygan banda edi.

— Jim! Qimirladi! — Eshim montyorning shu gapidan keyin g'iybat to'xtadi.

Nosirjon uyg'onib, birdan turib o'tirdi. Bir daqiqa bizga begona nazar bilan qaragach, oppoq pishiq tishlarini ko'rsatib jilmaydi:

— Yaxshi uxlab turdilaringmi, akalar?

— O'zingizdan so'rasak? — dedi Ziganshin.

Nosirjon jilmayib, tizzasidagi adyolni ikki tomonga qaratib siladi. Oppoq devorlarga quvonch bilan boqdi. Uning ancha faqir

oilada o'sgani ko'rinib turardi. U jilmayishini qo'ymay birpas o'tirdi-da, karavotdan tushdi. Sochiqni olib:

— Betni yuvish kerak, betni yuvish kerak, — deb chiqib ketdi.

— Ichimizda yolg'iz musulmonimiz shu ekan! — deb xitob qildi uyg'ur yigit.

Uning gapida jon bor: uyqudan keyin istaganlar chiqib bet-qo'lini chayib kelar, istamaganlar turiboq turpmi, olmami kavshashga tushar edi. Sirasi, hadeb yo'lakka chiqaverishimizni vrachlar, hamshiralar ham xushlamasdi. Ayniqsa, endi tushgan kasallarning chiqishini... Shu kuni Nosirning qilig'imi, oshpazning gapimi ta'sir qilib, hammamiz yuvinib keldik.

Nosir mening yonimga keldi.

— Aka, muhabbat nima?

Men horg'in kulimsiradim.

— Uni boshidan kechirmagan odam bilmaydi... U yurakda sodir bo'ladi, Nosirboy. Uni ko'rsatib ham bo'lmaydi. Jahlingiz chiqqanda, birovni urasiz. Quvonganda — suyasiz... Muhabbat ham shunga o'xshash narsa... Lekin u nodir his. Boyagi hislar ham, kezi kelganda, unga bo'ysunadi, ukam. — "Qizil va qora"ni qo'lga oldim. — Mana shu kitobni yozgan odam, hayotning asl ma'nosi muhabbatda, deydi...

— O'-o'!

Men ham zerikkan edim, shunday mavzularda uzoqroq gapirishni istardim-u, lekin hamxonalarning diqqatini ortiqcha jalb etish, ularga mahmadana bo'lib ko'rinishdan cho'chirdim.

— Shunaqa, — deb qo'ya qoldim. — Ha, siz chindan ham biron qizni...

— Qo'ysangiz-chi, aka.

— Ota-onangiz bordir, Nosirjon?

— Otamiz hayot...

— Aka-ukalar?

— Yo'q. Yolg'iz farzandmiz.

— Nechanchi sinfni bitirgansiz?

— E! — dedi u kulib. — Beshinchidan o'qishni tashlab ketganmiz, aka! — So'ng shod-xurramlik bilan davom etdi: — Sho'x

bo‘lganmiz-da, yoshlikda! Lekin bir bola uzun temirni boshi ustida aylantiraman deb bizning boshni yorib qo‘ygan. Shunda o‘zimdan ketib qolgan ekanman... Olti oy kasalxonada yotdim. Tuzalishga tuzaldim-u, harfni tanimay qoldim, aka. Keyin javob berishdi. Lekin “o‘qima”, deyishadi. Bu qanaqasi, dedim. Maktabga chopdim. Sinfga kirib o‘tirdim. Lekin, aka, doktorlar rost aytgan ekan, salga boshim og‘rib qolaverdi. Boshim og‘risa muallimga aytaman. U kishi menga javob beradi. Oxiri: “Boshing og‘risa, bemalol chiqib ketaver”, dedilar. Keyin, istagan paytimda darsga kirib, istamaganimda chiqib yuraverdim. Bolalarning menga havasi kelardi... Bitta fizika o‘qituvchimiz bor edi. He, yettinchiga o‘tganda! Yettigacha maktabga qatnadim-da. — Nosirjon qah-qah otib kuldi. — Lekin meni sinf jurnaliga yozishmagan ekan. Beshinchi sinfda qolavergan ekanman... O‘sha fizika o‘qituvchimizni yaxshi ko‘rardim... Ba’zan o‘zlari: “Endi bor!” der edilar. Men chiqib, boqchadan u kishining bolasini uylariga oborardim. Hovlisida ishlardim. Gul kesardim, meva terardim...

Polina kirdi. Nosirjon karavotiga qochib bordi. Hamshira bizga bittadan harorat o‘lchagich berib, Nosirga barmog‘i bilan po‘pisa qildi-da, tag‘in chiqib ketdi.

Jigar kasalining tuzalayotgani haroratda ham ko‘rinadi. Biroq, eng ishonchli belgisi — ko‘z bilan badandan sariqning ketishi, kishi o‘zini tetik tuta boshlashi. Yana biri — jigardagi shishning pasayishi, yo‘qolishi. Nihoyat, qonning tozalanishi.

Oldinroq tushgan kasallar jigarining usti qichiy boshlasa, shish qaytyapti, deb quvonishardi.

Shu kuni harorat o‘lchagichni olgani qaytib kirgan Polina shivirlab, militsiya kapitaniga ikki kundan keyin javob berilishini aytdi. Hammamiz quvonib ketdik, u kishiga havas bilan boqdik.

Kechki ovqatga biroz vaqt bor, har kim o‘z ishi bilan mashg‘ul. Birov kavshanadi, uyg‘ur o‘rtog‘imiz karavoti tagiga yashirib qo‘ygan bankadagi baliqqa tikilib o‘tiradi. Aminjonning ikki ko‘zi derazadan tashqarida. Men “Qizil va qora”ni o‘qiyman. Ziganshin bilan Eshim o‘zaro shivirlashib, piq-piq kuladi. Men onda-sonda ularga qarab qo‘yaman. Aniq esimda: Nosirjon karavotda qo‘llarini tizzasiga qo‘yib, jiddiy, allanarsani o‘ylab yotardi.

Xubbijamol kirib keldi. Xonamiz to'lib, go'yo hammamiz tuzalib qolganday bo'ldik. U TashMIning to'rtinchi kurs studenti. Bizning nomi xunuk kasalxonamizda praktikasini o'tar, haftada ikki-uch kun navbatchilik ham qilar edi. Uni hali vrach deb bo'lmasdi, albatta. Biroq, ko'zlari xiyol qiyiq, xipchagina bu qizda kishining ruhini daf'atan ko'taradigan, uni olis kengliklarga undaydigan va yaxshi kunlarini yodga soladigan bir o'ktamlik, hayotbaxshlik bor edi.

— Assalomu alaykum, akajonlar!

Nosir o'rnidan turib ketib, hammamizdan oldin alik oldi:

— Vaalaykum. Keling, opa!

Xubbijamol Nosirga qiziqish bilan tikildi. Chehrasida kinoya ham, istehzo ham, yigitchaning maymunga o'xshash qiyofasidan hayronlik alomati ham ko'rinmadi. Ichimda qizdan minnatdor bo'ldim.

— Siz... qachon keldingiz? — deb so'radi qiz.

— Bugun, bugun! — dedi Nosirjon hovliqib. — Hali... tushdan oldin. Shu deng, opa, hech munaqa kasalim yo'q edi. Ertalab garajga kelsam, bitta shopir: "Ko'zing sarg'ayipti, medpunktga kir", deb qoldi. Medpunktga kirsam, sen "jeltuxa" deb, mana... — U mung'ayib yelkasini qisdi. — Hozir...

Xubbijamol allaqanday suyib yigitchaning kiftiga qoqdi.

— O'tiring. Yoting... Ismingiz nima?

— Nosirjon! — dedi Ziganshin.

— Yo'q. Eshon... Eshonjon! — dedi Qodir etikdo'z.

Eshim ham kulib, uning so'zini ma'qulladi.

— Yo tavba. Qulog'iga azon aytib qo'yilgan oti bor-ku! — deya xitob qildi uyg'ur yigit.

Xubbijamol qah-qah otib kulib, Nosirga:

— Qaysi ism yoqadi sizga? — dedi.

— Menga.. o'zimniki-da! Bizda eshon o'tmagan, — dedi Nosirjon.

— Bo'pti. Bo'lmasa, sizni Nosir eshon deymiz. Yoqadimi?

Nosirjon "Bu kishiga nima deyin?" deganday, biz tomonga ko'zlarini kattartirib qaradi.

— Rozi bo'lmaysanmi? Rozi bo'l! Shunday qiz... seni eshon deb tursa-ya! E, Xubbijamol, menga aytmaysizmi, haqingizga duo qilardim!

Nosirjon endi Xubbijamolga qaradi.

— Ixtiyor o'zingizda, — dedi qiz.

— Yo'q. Mayli! — dedi Nosirjon birdan hayajon bilan. — Xohlasangiz, Nosir eshon deyavering, opa! Mayli!

— Hah, yoqmay qolsin, — deya qiyqirib kuldi Eshim.

Xubbijamol ham kulib:

— Bo'pti! — dedi.— Siz bugundan e'tiboran — Nosir eshonsiz!

— Ura! — dedi etikdo'z.

Xona kulgiga to'ldi.

— Bo'lmasa, Nosir eshonim, siz ham bu akalaringizga o'xshab yotasiz! — dedi Xubbijamol va nihoyat biz tomon burildi. Biroq uning "eshonim" degani yangidan kulgi uyg'otgan edi. Har kim Nosirga har yoqdan gap otadi. Eshim esa, hammaning so'zidan xulosa chiqargandek, men tomon kelayotgan Xubbijamolga sirli ovozda:

— Bu, juda g'alati bo'ldi-ku! — dedi. — A, singlim? Eshonim dedilar... Hoy, Nosirboy, nima balo qilib qo'ydingiz hozir? Xubbijamolning so'zini eshitdingizmi?

— Nimani eshitdim? — dedi Nosirjon gap nimadaligini uqolmay.

— Axir, sizni "eshonim" deb, o'zlariniki qilib gapirdilar-ku?

Nosirjon yalt etib, hatto ko'zlari olayib qizga qaradi. Xubbijamol kula-kula:

— Ha, nega endi o'zimniki qilib gapirmas ekanman! — dedi. — Balki...

Xona yana qiyqiriqqa to'ldi.

— Balki... balki-ya! — deb oh chekdi Eshim. — O', eshon! Baxting bor ekan, uka! Yoki bo'lmasa... o'lgudek uxajur ekansan, uka! Birpasda shunday qizning boshini aylantirib tashlading-a!

Nosirjon qo'rqib, ammo ishshaygancha dam unga, dam bunga boqar edi. Xubbijamol karavotim oldiga kelib, uni to'sib qo'ydi. Qiz shu kungacha bizning har birimizni o'rganib bo'lgan, har

birimizga tegishli gapni allaqanday ichki sezgi bilan his qilib aytar edi.

— Kitob... Haliyam kitob! Zerikmaganingizga hayronman! — dedi menga. — Kennoyimning o'rnida bo'lganimda, kitobdan boshqa narsalar ham bor, der edim...

— Xuddi xotinimning gapini aytdingiz, singlim,— dedim.

Qurmag'ur yigitlar shu gapdan ham qiyiq topib kulishdi.

Xubbijamol tilshunosga uning tuzalib qolgani, vrachlar nima uchun javob berishmayotganiga hayron ekanini aytdi: holbuki, uning ko'zidan hali sarig'i ketmagan edi. Montyorga:

— Kasalxona sizga yoqipti. Bu gal ham chiqqandan keyin tuxumdan ko'proq yeng. O'zimiz opkelamiz! — deb hazillashdi.

Yana qiyqiriq, yana kulgi bo'ldi. Eshimboy o'tgan gal tuzalib chiqqach, xotiniga bozordan o'nta tuxum keltirtirib, o'novini ham paqqos yutib, ertasi kechga qolmay yana kasalxonaga kelib tushgan ekan.

Xubbijamol Ziganshinga kasalxonadan chiqqach, ko'proq ichishni "maslahat" berib, Aminjondan:

— Gazlini sog'inmayapsizmi? — deb so'radi. So'ng shunday barvasta yigitga kasal bo'lib yotish yarashmasligini aytib, kapitan bilan so'rashdi. Oshpazga yetganda karavot tagiga qarab olib: — Rahmingiz kelsin-a? — dedi.

Yana Nosirjonning yoniga qaytib, unga qandaydir ham achinish, ham mehr bilan boqdi. So'ng yana hammamizga tegishli qilib:

— Akajonlar, bugundan boshlab yana xizmatingizdamiz! — deb chiqib ketdi.

Nosirjonning Xubbijamol bilan uchrashuvi shunday bo'lgan edi. Buning davomi... Davomini kim o'ylabdi deysiz!

O'sha kuni Xubbijamolning Nosirga "eshonim" deganini eslatib, men ham qandaydir ilmoqli gaplar qildim. Eshim-ku tinmadi. Hatto militsiya kapitani ham Nosirjonga: "Sizga juda boshqacha qaradi", — dedi. Keyin, qizning xonaga kiriboq Nosirga qiziqqani yana ancha gap bo'ldi...

Oqibatda Nosirjon o'ylanib qoldi. Odamzod qiziq-da: uning jiddiy o'ylanishi ham yoqimli, qiziq; ham kulgibop, ermakbop edi.

Agar bu gap-so'zlar oqibati Nosirni qanday ko'ylarga solishini bilganimizda... Yo'q. Aksincha, unga hazil qilish, qizni eslatish bizga yoqar, bunga sari Nosirjonning Xubbijamolga qiziqishi ortar edi. Buni ko'rib, biz xuddi yolg'on-yashiq gaplar bilan bir muhim natijaga erishayotgandek tuyardik o'zimizni.

Bular — keyingi gaplar. Lekin o'sha kunning ertasi Xubbijamol Polina bilan xonaga kirganda Eshim:

— Singlim, eshoningiz tuni bilan kiprik qoqmay chiqdi! Oshiqi beqaror bo'lib qolganga o'xshaydi! — dedi.

Qiz qah-qah otib, ukasining yelkasini silagandek, Nosirjondan:

— Shundaymi? — deb so'radi engashib.

Nosirjon, ko'zlari katta ochilib, asta karavotdan tusha boshlagan edi, qiz uning tizzasiga shap-shap urib: "Yoting, qimirlamay yoting!" — dedi. Nosirjon yotdi-yu, lekin qizdan ko'z uzmadi.

Ha, Xubbijamol o'ziga xos go'zal, barno qiz edi. Bo'yi Nosirjondan bir yarim qarichcha baland.

— Agar shu gap rost bo'lsa, bo'ldi! — dedi Xubbijamol qaddini ko'tarib. — G'animlar kuysin! To'g'rimi, eshonim?

— Sevgilim, dengda-ye! — dedi Eshim.

Qiz qo'llarini orqasiga qilib, qaddini ko'tardi.

— Sevgilim, desam, nima qipti!

— Ura! — dedi Qodir etikdo'z.

— Ura-a! — dedi Ziganshin.

— Aytmovdimmi, siz... zo'r yigitsiz! — dedi Aminjon.

Nosirjon bir uning og'ziga, bir buning og'ziga qarar, ko'zlari yana ham kattarib ketgan, ko'rinib turibdi, ichidan qattiq hayajonlanar edi. Polina, odatdagicha, yana bittadan harorat o'lchagich ulashdi. Harorat o'lchagichni qo'ltig'imizga qisib, uyoq-buyoqdan gaplashib yotdik: tashqari qor... O'zga xonalardagi kasallar. Kimdir Polinadan: "Qobil doktor qayerda?" deb tagdor qilib so'radi. U qizarib ketib: "Eng yomon palata, shu, Jamol... Tag'in siz shu xonaga kirasiz-a!" — dedi. Bu gap yana yigitlarning jag'ini ochib yubordi.

— Nega kirmasinlar? Bu yerda sevikli eshonlari yotipti-ku!

— Obbo eshon-e! Usta ekansiz, pirim!

— Ura!..

Yarim soatlardan keyin Qobil doktor sigaret tutatib kirdi. Har bir bemorning qornini ochib, jigari ustini chertib ko'rdi. Tiliga, ko'ziga tikildi. U aytgan gaplarni, odatdagicha, Polina yozib oldi. Chiqa turib:

— Shoir, kecha ish chiqib qoldi, bugun kiraman, — dedi menga.

Ovqatlandik. Gurung. Kimlardir uxladi. Men ham biroz mizg'ib, kitobni qo'lga olgan edim, Nosirjon bir-bir bosib qoshimga keldi.

Tumba oldidagi stulga o'tirdi. U ancha horg'in edi. Kulgim qistadi.

— Kecha yaxshi uxlamaganingiz rostmi? — deb so'radim.

— Men? Yo'q... Uxladim, — dedi u nimadandir hayiqqandek. So'ng eshikka qarab oldi-da, qizarib, asta shivirladi: — O'zlari chiroyli-ya opaning?

Tilshunos eshitib yotgan ekan:

— Nega opa deysiz? Nega? — dedi birdan do'q qilib. Uyg'oqlar kulib yuborishdi. Nosirjon endi oqarib:

— Opa-da! U kishi mendan katta! — dedi.

— Vey-vey, o'laman! — deb nido qildi Eshim montyor. — Shu kattami? Xo'p, katta bo'lsa bo'pti-da... Mening xotinim ham o'zimdan besh yosh katta. Bo'yi ikki qarich baland!

Yana kulgi bo'ldi. Uyg'ur yigit:

— Yo oblo! Buzildinglar, jo'ralar! — dedi. Kapitan ham uni quvvatladi:

— Bularning gapiga ishonmang, Nosirjon.

Nosirjon menga tikilib turdi-turdi-da:

— Shundaymi, aka? — dedi.

U mening "Shunday emas", deyishimni kutardi. "Nega buning ko'nglini cho'ktiray?" deb o'yladim-da:

— Kim biladi, — deya yelka qisgan bo'ldim. Nosirjonning chiroyi ochildi. Tag'in eshikka qarab qo'ydi. Shunda men bir adib sifatida... odamda bo'layotgan o'zgarishni ko'rdim; uni kuzatish ahdim bo'lib qoldi. Yozuvchilik kasbi ba'zan shafqatsizlikni talab etadi. Deylik, aybdorni so'roq qilishyapti. Uning qarindoshlari yig'layapti, tomoshabinlar hayratda. Tergovchi esa pinak buz-

maydi. Yozuvchi ham ba'zan shunday holga tushadi. Biroq, sizni ishontirib aytaman, uning tergovchidan farqi bor — u qiynalib, o'rtanib kuzatadi, "so'roq qiladi". Ammo, tabiiy, buni sirtiga chiqarmaydi. To'g'ri, u ham odam, ba'zan sirtiga tepib ham qoladi.

— Rahmat, rahmat, aka, — deb shivirladi Nosirjon va joyiga qaytib ketdi.

Yana osma ukol kirdi. Nosirjon shisha idishdagi dorili suvni stakanga quyib yana ichib oldi. Keyin lablarini yalab:

— Menga yoqdi. Men tuzalyapman, akalar! — dedi.

Polina sepoyalarni yig'ib chiqarkan, Nosirjon unga bir nima demoqchi bo'lib ko'p shaylandi. Nihoyat, uning orqasidan chiqdi. Eshim montyorning ham ketishiga sanoqli kunlar qolgan, qoni tozalanayotgan edi. Endi o'ziga ehtiyotkor bo'lib qolgan. Shunga qaramay, karavotdan shoshib tushib, eshikdan mo'raladi. Anchadan keyin qornini ushlagancha qaytib joyiga keldi. Piq-piq kulib:

— Priyomniy pokoygacha bordi, — dedi. — Qobil quvib soldi... Xubbijamolni so'ramoqchi edi!

Kulgi ko'tarildi. Nosirjon shumshayib kirib, joyiga o'tdi.

— Bor ekanmi? Gaplashdingizmi? — dedi Eshim.

— Kim? — deya talmovsiradi Nosir.

— Kim bo'lardi, jonon-da.

Nosirjon sovuq o'qraydi. Menga qarab:

— Aka, jonon degani yaxshimi, yomon? — dedi.

— Qanday aytilishiga bog'liq, — dedim men. — Menimcha, Eshim akangiz beg'araz...

Nosirjon Eshimga ishonchsizlik bilan qarab qo'ydi. Keyin to'shagiga chiqib yotdi. Shu bo'yi tushki ovqatgacha gap qotmadi. Turib-turib mening unga rahmim kelar, lekin uni ko'nglida kechayotgan xayollaridan ayirishga ko'zim qiymas edi. Buning ustiga, bu holatlarning davomi menga qiziq tuyular, nazarimda, shunchaki o'yin bo'lyapti-yu, Nosirjon buni payqagach, kulib yuboradigandek... edi!

Ovqatdan keyin ham Xubbijamol ko'rinmadi. Kechki uyqudan uyg'onsam, u eshik og'zida qo'llarini qovushtirib turibdi. Hamma uyg'oq. Chamasi, men kitobga berilib, kech uxlagan edim.

— Mening qadrimga yetmadinglar, endi ketaman...— deyayotgan ekan u. Ovozidan shirin bir sho'xlikni, beozorlikni uqdim. Ilgarilari ham ketayotganida, chamasi, shunday der edi. — Yo'q, imtihonlarimiz boshlanib qoldi, — deya davom etdi Ziganshinga qarab. So'ng yonida tik turgan Nosirjonga uqtirdi: — Har imtihonni topshirgandan keyin kelib sizni... mana bularni ko'rib ketaman!

— Voy-voy, chidolmayman! — deb baqirdi Eshim.— Sizni... dedingiz-a, Xubbijamol?!

Xona yana kulgiga to'ldi. Bir qarashda, shirinsuxan hamshiralar bilan bunday hazil-huzul o'zga xonalarda ham bo'lishi mumkin edi. Lekin ulardan farqi... bizning xonadagi hazil "cheti"da titrab-qaltirab Nosirjon turar, chamasi, Xubbijamolning ketayotganidan u qattiq iztirobda edi.

— Xo'p, eshonim, hozircha xayrlashamiz, — dedi qiz nihoyat. Keyin bizlarga ham bir-bir qarab, bir og'iz-yarim og'iz gap otib, yana Nosirjonga boqdi. Unga qattiq tikildi-da, kulib yubordi. Kulgisida qandaydir achinishni aniq sezdim. — Nega mundoq turibsiz? — dedi. — O'tiring!.. Yoting. Ha-ha, yoting, darrov yoting! Xafa bo'laman!

Nosirjon "Rosti bilanmi?" deganday, unga xo'mrayib boqdida, shosha-pisha karavotiga chiqib o'tirib oldi. Xubbijamol qo'lini orqasiga qilib xiyol egildi.

— Muvaffaqiyat! Faqat "besh" bo'lsin! "Besh", — deya tilak tiladi yigitlar.

— Lekin, — dedi qiz birdan qovoq solib, — men "besh" olib kelganimda, sizlar ham bemalol yuradigan bo'lmasalaring, bilasizlarmi, xafa qilaman!

U eshikdan chiqar ekan, Nosirjonga tag'in iliq, xayrixoh tabassum hadya qildi.

Men Nosirjonni kuzatar edim. U bir nafas qotgancha o'tirdi. Keyin qovog'ini uyib karavotdan tushdi. Tuflisini oyog'iga ilib, kichkinagina bo'lib, eshikdan chiqdi. U chiqqan zahoti Qobilning shovqini eshitildi. Nosirjon qochib kirib, shu bo'yi yotib oldi.

Keyin Qobil kirib:

— Nima ish qilsang, qil, lekin hozir yotishing kerak, bola! — dedi... — Qadimdayam tabiblar yotqizib davolagan!.. O'zing dori ichib yotibsan. Tomirlaring... haligiday! Koridorda nima bor?!

— Nima, nima... yo'qmi? — deya to'ng'illadi Nosirjon.

— A?

Nosirjon teskari qarab yotdi. Qobil shoshilmay kelib, karavotim yonidagi stulga o'tirdi. Katak daftar varag'iga yozilgan she'rni uzatdi. Ilk jumlasini o'qib, kulimsiradim. Bu ham Usmon Nosirning she'ri edi.

Sevgi, Sening shirin tilingdan
Kim o'pmagan, kim tishlamagan...

Uning hurmati uchun she'rni oxirigacha o'qidim, ichimda maza qilib o'qidim. U bemalol sigaret tutatar, mening hukmimni kutar edi.

— A'lo she'r! — dedim.

— Shunaqa. Bo'sh vaqtda yozamiz, — dedi u. — Men bostirishga qiziqmayman... Sizda qolishi mumkin.

— Rahmat! — dedim. U chiqib ketdi. Tilshunos qo'shnim varaqni so'rab olib, biroz tikildi-da, baland ovozda o'qiy boshladi:

Sevgi! Sening shirin tilingdan
Kim o'pmagan, kim tishlamagan...

Men bu she'rni ilk marta o'qigan chog'larimni, erta bahor sobiq omborxonani darsxonaga aylantirib, lampachiroq shu'lasida o'tirgan kezlarimni eslab, ko'zimni yumdim.

Yigitlar she'rni o'zlaricha muhokama qilishdi, qo'ldan qo'lga o'tkazib o'qishdi. Qattiq kulgidan ko'zimni ochdim. Varaq Nosirjonning qo'lida, u titrabgina turardi. "Ajabo, yigitlar uni aldayapti-ku! — deb o'yladim. — Chakki bo'ldi, Xubbijamol ham uni aldadi. Yoki hazillashdi, balki ko'nglini ko'tarmoqchi bo'ldi... Umuman, u har birimizga ham shu taxlit hazillar qilishi mumkin...".

— Nimaga kulasizlar? — dedi Nosirjon. — O'qishni bilmayman, vassalom... ana, yozuvchi domlaga aytdim, yoshlikda kasal

bo'lganman. Odamdan kuladi bular! — U karavotga tappa o'tirdi-da, Aminjonga favqulodda hayajon bilan so'zlay ketdi: — Lekin kinoapishalarni birov o'qisa, darrov yodimda qoladi...

Aminjon xo'rsindi.

— Ishqilib, kuryerlikdan xursandmisiz, uka?

— Juda! — dedi Nosirjon ishonch bilan. Garajni shunday yaxshi ko'raman! Bir kun bormasam, benzin hidigacha sog'inib qolaman. — U yana yayrab hikoya qila boshladi: — Meni butun shopirlar taniydi... Ish buyuradi. O'zinikiday... Direktorga bozordan somsa opkelishga chiqsam, ulargayam opkelaman.

Hayotda kim nochor kimsalarni ko'rib, ularga achinmagan? Ha, achinish mumkin, xolos... Biroq Nosirjon achinishdan "baland" yigit edi. U o'z ishini yaxshi ko'rardi, unda odamiylik ham mo'l-ko'l edi. Eng muhimi — soddadillik, ishonuvchanlik...

Bunday kishini hurmat qilmay bo'ladimi? Lekin bunday mo'rt kishilarni har ko'yga solish ham odamlarning qo'lida. Ayniqsa, zerikkan, ermakka zor kimsalar qo'liga tushsa...

— Xullas, bu she'r siz uchun bitilgan, Nosirjon eshon! — dedi Eshim.

Nosirjon bu gapdan hayron bo'lib, varaqqa qarab oldi. Keyin yana asta yurib, qoshimga keldi. Varaqni uzatib, iltimos qildi:

— O'qib bering, aka.

— Yodlaysizmi? — dedim.

— Ha! — dedi u hayajonlanib. — Mening xotiram yaxshi!

— Mayli... — she'rni o'qimoqchi bo'ldim-u undagi Otello, Shekspir, Dezdemona kabi nomlarni Nosirjonga qanday tushuntirsam ekan deya o'yladim. Keyin, bu she'r faqat sevgi haqida ham emas, zero unda:

...Qanday qabohat,
Ki odamning o'ziginamas,
Hissini ham xarob qilsa davr! —

degan gaplar bor.

— Nosirboy, siz shu qatorni yaxshi bilib, tushunib olsangiz yetar, — dedim. — Shoir bu satrlarda: "Sevgi zahmatini chekmagan,

sevgi uchun qonlar yutmagan odam bormi?" deyapti... Menimcha, shoir o'zi bilgan odamlarni ko'zda tutyapti. Holbuki, sevgi nimaligini bilmay o'tib ketadiganlar ham bo'ladi...

— Sevgi nima? — deya shivirladi Nosirjon yana.

— Kecha aytdim, shekilli.

— Sevgi... sizning Xubbijamolga bo'lgan munosabatingiz! — deya uqtirib qoldi tilshunos. — Bildingizmi? Uni ko'rgingiz kelyaptimi? Rostini ayting!..

— Ayting-da, endi! — dedi Eshim ham.

— O', ko'rgisi kelganda qandoq! — dedi Ziganshin.

— Ana o'sha his — sevgi... sevgining boshi! — deb xulosa yasadi tilshunos.

Uyalib, qimtinib turgan Nosirjon ko'zlarini yirib menga tikildi. So'ng varaqni olib o'rnidan turdi.

— Menda tursin-a? — dedi. Keyin bir-bir bosib kelib, qulog'imga shipshidi: — U kishiga beraman... opaga.

Men kulib:

— Mayli, — dedim. — Lekin opa demang-da.

— A, shundaymi?

— Uyat bo'lar.

— Ha, rost aytasiz.

Nosirjon karavotiga borib yotgach, varaqqa uzoq tikildi. Allanarsalar deb pichirladi. Chog'imda, o'sha ikki satrni takrorladi.

Kechki ovqatdan keyin yana suhbat boshlandi. Aminjon bilan kapitan qarta o'ynamoqqa tushdi. Uyg'ur o'rtog'imiz karavot tagidan baliqli bankani oldi. Eshim Ziganshinga o'zining ishqiy sarguzashtlaridan hikoya qila ketdi. Nosirjon dam yo'lakka chiqadi, dam xonaga kirib, polga to'kilgan tarvuz urug'larini teradi; kapitanning kichkina qo'l priyomnigini qulog'iga tutib, qo'shiq eshitadi, dam mening yonimga kelib, sevgi haqida bir nimani so'raydi.

Polina kirib, yana haroratimizni o'lchadi.

Men "Qizil va qora"ni o'qishda davom etdim: Sadaf bilan qanday tanishganimiz, sovuq qish kezlarida kimsasiz, qor bosgan istirohat bog'ida yurgan chog'larimiz bir-bir ko'z oldimdan o'tdi.

Chiroq o'chirilgach, Eshim montyor kapitandan lo'li qiz bilan yana qanday sarguzashtlar bo'lganini so'radi. Kapitan:

— Ertaga ketaman, uka, — dedi. — Unaqa gaplarni erkak odam ko'p eslamasligi kerak. Tajribadan-da, bu... Xotinning oldidayam og'izdan chiqib ketsa bormi, barcha toat-ibodat bir pul bo'ladi!

Aminjon uning gapini ma'qullab, Gazlida tanishgan qizini mast holda xotinining nomi bilan chaqirganini aytib berdi. Ziganshin qaysidir yoz kuni ikki o'rtog'i bilan butun boshli bir tovuqni yeb qo'yganlarini hikoya qildi. Uyg'ur yigit xo'rsinib Qashqarni esladi...

Kechasi shamol turib, derazalarni zirillatdi. Men bu ko'klam shamoli bo'lgani uchun qorlarni tezda eritib yuborishi, havo mayin tortib qolishini o'yladim. Tilimga xotinim keltirgan xatdagi satr tushdi: "Enajon, bilmadim, navro'z keldimi...".

Nazarimda, Nosirjonning o'zgarishi asosan shu kunning ertasidan boshlandi. U ruhan tetik bo'lib uyg'ondi. Ha, kasalga sira o'xshamasdi. Shisha idishdagi dorili suvni ichib bo'lgach, sepoyalarni olib chiqishda Polinaga ko'maklashdi. U harchand do'q qilib, yotishni buyurmasin, Nosirjon bilganidan qolmadi. Polina ikki-uch sepoya ko'tarib ketishi hamon yana bittasini yo'lakka chiqarib qo'ydi.

Tushki ovqat mahali Polina taqsimchani qo'limga berarkan:

— Domla, Nosirga nima bo'ldi? — deb shivirladi.— Nuqul Xubbini so'raydi. Telefon qilsalar, salom ayting, deydi.

Men yelka qisib qo'ydim:

— Parvo qilmang, opa... Balki sevib qolgandir? Bo'lishi mumkin-ku?

— Hay-hay, unday demang-a!.. Xubbining bir yigiti bor, havasingiz keladi!

Buni bilmas edim.

— A-a? — dedim. — Unga arzisa, yaxshi.

— Bir-biriga munosib!

Shu kuni tushdan keyin militsiya kapitaniga javob berildi. Biz u kishini havas bilan kuzatib qoldik. Boshqa joylarda, salomatlikda uchrashaylik, dedik, niyat qildik. Ko'pincha bir xonada yot-

gan bemorlar, sog'ayib chiqqach, tez-tez uchrashib turaylik, deb bir-birlariga adres beradilar. Ammo keyin juda ozchiligi bordi-keldi qiladi.

Kapitan Nosirjon bilan xo'shlashayotib:

— Nosir eshon, bularning gapiga ishonmang, inim. Amakingiz lo'li qizning gapiga ishonib lo'li bo'lib ketishiga oz qolgan, — dedi.

Nosirjon kulib, zavqlanib xayrlashdi: kapitanning gapi unga, chamasi hech narsa bermadi.

Tungi shamol ko'klam shamoli esa-da, qish qishligini qildi. Kechga tomon qor yog'a boshladi. Qor derazamiz ko'ziga shitirlab uriladi. Xonamiz iliqqina. Men "Qizil va qora"ni yarimdan oshirib qo'ydim. Unda mashhur youvchining hayot qatlamlarini naqadar mahorat bilan bera olgani haqida o'ylayman. Xayolim o'z asarlarimga og'adi; ministrlar, davlat arboblari haqida asar yozishni istayman. Istayman-u baribir yoza olmasligim, ular qalbini ochadigan kalitim yo'qligiga iqror bo'laman.

Kunlar tez o'tar edi. Men ham vujudim bir yengillik sezadigan, yo'lakka chiqib chekib keladigan bo'ldim. Ana shunday kunlarning birida Eshim montyor ham xonani tark etdi. U bilan ajralish ancha og'ir bo'ldi. U ketgach, ikki-uch kun aziz bir narsamizni yo'qotgandek bo'lib yurdik.

Eshim har birimiz bilan o'pishib xo'shlashdi. Nosirjonni o'par ekan:

— Xubbiga aytib qo'y, rashk qilmasin. Ha-ha-ha! — deb kuldi. Keyin uning kiftidan quchib: — Hazil, hazil, — dedi. — Hazilni tushunasan-ku, uka!

Eshim bu gapi bilan nimani ko'zda tutganini tusmollash mumkin. Biroq, Nosirjon bu gapni ham o'zicha tushundi:

— E, nega rashk qilar ekan! — deb qo'ydi.

Nosirjon Xubbijamol haqida xuddi bir-biri bilan allaqachon oila qurishni ham kelishib qo'ygandek gapirar, o'qtin-o'qtin uning bo'yi balandligini aytib, "ko'chada uyalsalar kerak", der edi. Ba'zan shaharda kvartira olishning mashaqqatlariga qiziqar, lekin shu ondayoq o'zining ko'pincha garajda — buzuq avtobusda yotib qolishini zavq-shavq bilan hikoya qilar edi: "Qorovul

menga ishonib qolgan. Shuning uchun u kishi uyga ketsalar, o'zim qorovullik qilaman... E, menga hamma ishonadi, aka... Ammolekin garajni sog'indim. Benzinning hidini bilasizmi! O'!.." Ba'zan Xubbijamolning qiyofasini o'zicha tahlil qilib ketadi: "Chiroyli, a?.."

Unga faqat uyg'ur oshpaz dakki berar, qizni eslamaslikka undar edi. Shunda Nosirjon unga sovuq tikilar, gapi ado bo'lgach: "Oxun aka, siz ovqatni biling... Muhabbat boshqa narsa!.." deb yo'lakka chiqib ketar edi.

Asta-sekin biz Nosirjonning Xubbijamol haqidagi gaplariga parvo qilmaydigan bo'lib qoldik. Bu holga ko'nikdik. Shundoq gapirar ediki, ular chindan ham bir-biri bilan oshiq-ma'shuq... Nosirjon kasalxonadan chiqqach, Xubbijamol uni kutib oladi... Keyin u Xubbijamolga uylanadi. Ha, darvoqe, u yaqinda imtihonlarini topshirib bo'lib, qaytib keladi. Lekin Xubbijamol imtihonlarining bir-ikkitasini allaqachon topshirib bo'lganiga shubhamiz yo'q edi, shunga qaramay, kelmayotgani uchun parvo ham qilmas edik.

Qiziq bo'ldi: bir kuni hammamizdan qon olishdi. Ertasi natijasini bilsak, Nosirjonning qoni top-toza chiqdi! Uni Qobil doktor ham tabrikladi. Polina quvonib: "Hammadan oldin siz ketadigan bo'ldingiz!" — dedi. Nosirjon o'sha kuni talay vaqt hech kimga gap qotmadi.

Aminjonga javob berildi. Bu novcha, qirraburun, yosh esa-da, ko'p sarguzashtlarni boshidan kechirgan yigit bizni Buxoroga chin dildan taklif etdi. Adresini qoldirdi. Nosirjon bilan xo'shlashar ekan, unga negadir o'ychan boqib:

— Siz havas qilsa arziydigan yigitsiz. Biz... bo'lgancha bo'lganmiz, uka, — dedi.

Ziganshindan keyin Qodir etikdo'z bilan uyg'ur oshpaz ham ketdi. Xonada tilshunos, Nosirjon va men qoldik. Xona, bizlar chiqqach remont qilinishi kerak edi, shuning uchun odam qo'yilmadi. Xonamiz huvillab qoldi. Ko'p karavotlar bo'sh. To'shaklari buklanib qoshiga suyab qo'yilgan. Xonaning issig'i ham odamlarning tafti bilan ekan. Isitgich batareyalar kecha-yu kunduz qizib tursa-da, endi sovuq tuyular edi.

Polina kirib, men bilan tilshunosga harorat o'lchagich berdi-da, Nosirjonning yoniga borib:

— O'ynang, o'ynab bering, eshonim! Keyin bir gap aytaman! — dedi.

Nosirjon hayajonlanib, hatto sal qo'rqib:

— Nima gap? — dedi.

Shu tobda u nimani o'yladi, kim biladi. Otasi-yu qarindosh-urug'ini o'yladi, ular hayotida biron bir yangilik sodir bo'lganini gumon qildi, deyish qiyin: shu paytgacha uni so'roqlab birov kelmagan edi. Nosirjonning o'zi ham birov kelishini, chamasi kutmas, shunga qaramay o'sha birovlar haqida yaxshi so'zlar edi. Nojoiz bo'lsa-da, aytib qo'yish lozim: jigar kasaliga doktorlar, ayniqsa, ho'l meva va sabzavot yeyishni buyurishadi. Albatta, bunda yotib ketgan yigitlarga shunday yemaklardan kelib turardi. O'z-o'zidan ma'lum, qishda bunday tarmevalarni topish mahol... Biz, albatta, o'zimizga kelgan mevadan Nosirjonga ham berardik. Dastlab men: "Olmas, uyalar", deb o'ylagan edim. Yo'q, u ikkilanmay, biroq siniq jilmayib oldi. Keyinchalik kim qog'oz xalta ko'tarib kelsa, u kirishi hamono o'rnidan dast turib borib, xaltani qo'lidan olar, eltib tegishli yigitning tumbasi ustiga qo'yar, kelgan kishiga kursi qo'yib berar edi. Albatta, uning bu harakatlarini kuzatish kishini allaqanday azoblaydi. Biroq, o'ylab qaralsa... bunga ham ko'nikish mumkin. Xullas, Polina harorat o'lchagichni orqasiga qilib: "O'ynab bering, bir gap aytaman", deganda Nosirjon nima uchun qo'rqdi, nima uchun qattiq hayajonlandi — bilmayman. Faqat, g'ira-shira tusmol qilish mumkin: bunda Xubbijamolga aloqador bir nima bo'lishi kerak.

— Nima u? Oldin ayting. Ayta qoling! — deb birdan yig'lamsiradi Nosirjon.

— Xubbijamol sizga salom aytdi!

— Menga?

— Sizga... "Eshonimga, sevgilimga!" dedi.

Xiyol enkayib turgan Nosirjonning qo'l-oyog'i titrab ketganini tilshunos ham ko'rgan ekan. Tilshunos:

— Hoy, Polinaxon, yotig'i bilan ayting-da. O'zini tashlavordi-ku! — dedi.

Nosir tilshunosga yeb qo'ygudek bo'lib qarab:

— Ishingiz bo'lmasin! — dedi. So'ng Polinaga yaltoqlandi. — Salom dedilarmi?

— Ha.

— A, eshonimga... yana... hm...

— Ha-ha.

— O'ynab beraymi?

Polina bizga qaradi. Chehrasida ayanch bor edi. Boshini sarak-sarak qildi-da:

— Keyin, keyin, — deya harorat o'lchagichni berib chiqib ketdi.

Ajoyib ayol bu Polina!

Nosirjon karavot chetiga o'tirdi. So'ng tura solib yostiqni ko'tardi. Tumbani ochib qaradi. Hamxonalar bergan mevalarni u tumbaga solib, asrab yer edi. Barini chiqarib qo'yib, tortmaning to'ridan bir qog'oz oldi. Ko'ziga tutib qaradi. Tanidim. Usmon Nosirning she'ri bitilgan o'sha qog'oz. U birdan shoshib lapanglab mening qoshimga keldi. Qog'ozni ko'rsatib kuldi.

— Qarang, — dedi. — Salom aytiptilar.

— Sevgilimga salom ayting, deptilar, — deya qo'shimcha qildi tilshunos.

Nosirjon unga yana o'qraydi-da:

— Ha, — dedi. — Alam qilsin!

— Obbo!

U yana menga yuzlandi.

— Qiziq-a?

Mening unga bo'lgan butun achinishim, u haqdagi o'ylarim, ikkilanishlarim — baribir zumda qaytadan yangilandi. Unga aytgan gaplarimizning bari yolg'onligi, buning esa o'ta ishonuvchanligi yana miyamga sanchildi. Shu tobda o'zimizni ham, ishoning, Nosirjonni ham bir zumga yomon ko'rib ketdim. Keyin xayolim Xubbijamolga og'di... O'ylanib qoldim: unda nima ayb? Ehtimol, Nosirjonning tez tuzalib ketishiga uning o'sha hazillari sabab bo'lgandir? Biroq, bu... Nosirjonning hozirgi qiliqlari... g'ashni keltiradi-da.

O'zimni bir amallab bosib, ichimda: "Mayli, quvonsin. Uyam quvonsin, deb salom aytgan-ku", dedim-da:

— Ha, qiziq, — deb uni ma'qullagan bo'ldim.

— Muhabbat haqiqatan qiziq bo'larkan! — deya davom etdi Nosirjon hayajon bilan. — Men, men... tez-tez tush ko'raman, aka... siz yozuvchi, bilasiz-ku? Tushimda hu bola paytlarimni ko'raman. Uyimiz oldida chuchmomalar o'sardi. Biz ularni bo'ta-ko'z deb terar edik. Qo'ziqorinning sigirquyruq degani bo'ladi. Oppoq!.. — U tilshunosga qarab olib, gapdan qoldi.

Xonaga gurs-gurs yurib kirgan Qobil doktor:

— Nosir eshon, veshmeshokni hozirlang, ketasiz! — dedi. — Haliyam biz gumonsirab sizni besh kun tutib turdik.

Nosir sekin o'rnidan turdi.

— Qayerga?

— Qayerga?.. Uy bormi, uy?

— Uy... bor.

— Ana o'sha uyga-da! — U Nosirjonni chetga surib, stulga cho'kdi. — Qalaysiz, shoir?

Men o'rtadagi vaziyatni yumshatish uchun:

— Haliyam meni shoir deysiz-a? — dedim.

— Baribir. Mana... yana bitta yozgan edim. Bu Polinaga bag'ishlanadi.

— O', zo'r-ku! — Uning qo'lidan o'shandoq katak daftar varag'iga bitilgan she'rni oldim. — Polinani, a?

— Sevamiz-da, — dedi Qobil doktor.

Men varaqqa ko'z yugurtirdim:

Yaxshi qol, Oq dengiz, yaxshi qol, shimol,
To'lqinlar, qo'ynimga qizdek kirdingiz...

Bu ham Usmon Nosirning navbatdagi she'ri edi.

— Nima, siz ham biron yoqqa ketmoqchimisiz? — dedim.

— Ha, ilmiy-tekshirish institutiga chaqirishyapti. O'qing... Qalay?

She'rni o'qib chiqdim: xayolimda oppoq ko'piklangan to'lqinlar o'rmalayotgan dengiz jonlandi. Bu orada Nosirjonning tashqariga chiqib ketganini payqagan-u, lekin o'zimni payqamaganga solgan edim. She'rni maqtab, tilshunosga uzatdim.

— Shunaqa, — deb o'rnidan turdi Qobil doktor. — Yozib turamiz... Bu bola qayerga ketdi? O'zi ul-buli bormi? — U tumbochkani ochib qarayotganda Nosirjon kirdi. Aftiga qarab hayron bo'ldim. Rangida rang yo'q, boshi sochiq bilan bog'langan. Og'zini qo'li bilan to'sgancha karavotga hansirab o'tirdi-da, birdan turib, o'rtadagi stol tagidan korsonni oldi. Engashib og'zini ochishi bilan yarim paqircha suv otildi... Bu yerdan ketgisi yo'q. Shuning uchun vodoprovoddan suv ichib kelgan. O'zini kasallikka solmoqchi.

Haqiqatan ham u qusib bo'lgach, Qobil doktorga qaramay karavotiga borib cho'zildi. Ustiga adyolni tortdi. So'ng qizargan ko'zlarini katta ochib:

— Men hali tuzalganim yo'q! — dedi.

— E! E! — Qobil doktor kelib, korsonga tikildi. Hidlab ko'rdi. — Suv-ku bu!

— Suv bo'lsa, suv! — dedi Nosir.

— Tavba! Ha, bu yer yoqib qoldimi?

— Yoqib qoldi!

— Hey, bola... odamlar bu yerdan tezroq ketishni istaydi. Sen bo'lsang...

— Men kasal!

Qobil doktor shoshilmay sigaret tutatdi. Bizga qarab yelkasini qisdi. Chiqib ketdi. U chiqishi bilan Nosirjon o'rnidan turib o'tirdi. Ovozi xirillab:

— Akalar, men qolishim kerak!.. Xubbijamol keladilar. U kishini ko'rishim kerak! — dedi va bo'g'ilib davom etdi: — Axir, o'ylab ko'ringlar, men qanday qilib ketaman? Uyat bo'ladi-ku? Mana, salom aytiptilar... Keladilar. Sevgilimga, deptilar! Axir, men ham yigit kishiman! Axir, muhabbat nimaligini bilasizlar... Ko'nglimda orzularim bor... Men u kishini o'shandan beri kutaman, axir! Kecha-kunduz kutaman!..

Polina kirdi.

— Eshonim?

— Yo'q, opa! Men ketmayman! — dedi Nosirjon va tag'in yotib oldi. — Ko'rib turibsiz, yotibman. Kasalman. Ana, qusdim!..

Polina turib-turib xo'rsindi.

— Xubbijamolni chaqiraymi?

Nosirjon boshini ko'tardi. So'ng yarim turib o'tirdi. Qo'llarini oldida qovushtirib:

— Jon opa, jon Polina opa!.. — dedi. — Men, vaqti kelsa, ishingizni qilaman. Adresingizni ayting. Bog'changiz bormi? Mening qo'limdan ul-bulni tuzatish ham keladi, opa...

Tushdan keyin tilshunosga ham javob bo'ldi. Men uni "tilshunos" deb atadim. O'zining gapi bu. Ammo uning o'z sohasi to'g'risida bir og'iz ham eshitganim yo'q. Onda-sonda uzr so'rab, bir og'iz-yarim og'iz qitmir gap qilardi, xolos. Menga o'zining adresini yozib berib, Nosirjonga:

— Do'stim, jo'raboshimiz Ziganshin bir yaxshi gap aytgan edi... Bizdan o'tgan bo'lsa, uzr. Ko'nglimizda tirnoqcha g'ayirlik yo'q. Men sizni hurmat qilaman, — dedi.

Bir necha marta do'q qilgan, yovuz ko'z bilan qaragan Nosirjon juda xijolat chekkandek karavotdan tushib, unga qo'l berdi.

— Siz kechiring, aka. Biz yosh, biz yosh, — dedi.

Ha, Nosirjon kekni bilmaydigan yigit edi.

Nosirjon bilan ikkimiz qoldik. Xona nihoyatda kengayib ketgandek tuyuldi. Mening ham erta-indin ketishim aniq; ikki tekshirishda ham qonim toza chiqdi. Nosirjonning esa bu yerda yolg'iz qolishini tasavvur qilolmayman. Nazarimda, Xubbijamol kelsa, ular o'zaro nimadir deb gaplashishadi-da, keyin Nosirjon ham taqdirga tan berib, avtobus parkiga yo'l oladi...

Tushki ovqatdan keyin deyarli uxlamadim. Nosirjon karavotda mushtdek bo'lib o'tirar, o'qtin-o'qtin yostig'i orasidan Usmon Nosirning she'rini olib qarab qo'yar va menga kutilmagan savollar berar, o'zicha jiddiy mulohazalar yuritar edi.

— Aka, bir yaxshi ishlar qilgim kelyapti! — deb qoldi endi ko'zim ilinganda. — O'sha kishi uchun!.. — deya so'lg'in davom etdi. — U kishi bir joyda adashib qolgan bo'lsalar-u men aptovusdan tushib ko'rsam-da, kulib, yo'lga solsam... — U birdan quvnab, hatto jilmayib menga tikildi. — A, yaxshi-ya! — dedi hayajonlanib. — Men bilaman, u kishiyam shaharning hamma yo'llarini bilmaydilar... Hech kim bilmaydi, menchalik! E, qancha odamlarni...

Yo'lakdan do'q-do'q qadam tovushlari eshitildi. Nosirjon dong qotdi. Qadam tovushlari o'tib ketdi.

— Ammo-lekin havo iliyapti, — deya Nosirjon karavotdan tushdi. Yaxlit oynali deraza qoshiga bordi. Deraza baland. Oyog'i uchida ko'tarilib pastga qaradi.— Iya, gulzor bor ekan, aka! Ana, u yer-bu yeridan qor ketipti! Qarang-a, ko'rmagan ekanman!... Aka deyman, shu o'zimizning pushti gul bor-ku, o'sha so'liy boshlaganda tagini kovlab shamollatish kerak ekan. Mana shu barmoqday-barmoqday qurt tushar ekan-da, tomirini yer ekan... Ko'rganman...

Nosirjon mening yonimga hali yetib kelmagan edi, eshik ishonch bilan tortilib, ochildi. Bir jonon kirdi. Egnida belgiya paltosi. Yoqasida oppoq mo'yna. Oyog'ida poshnasi baland qizil etik. Qo'lida tasmasi uzun sumka. Men Xubbijamolni faqat oq xalatda va shippakda ko'rar edim. Bu parizodning, ziyoli ko'rinishli qizning o'sha Xubbijamol ekaniga daf'atan ishonmadim. Lekin bu kulcha yuzli, yonoqlari xiyol chiqiq, ko'zlari xiyol qisiq, oppoqqina, chehrasida sho'xlik va hayotbaxsh bir nur yog'ilib turgan qiz Xubbijamol edi.

— Vey, nima bo'ldi sizlarga? Yo, bu xonaga kasal kirmasin, deb ketishdimi yigitlar? Huvillab qopti-ku! — Xubbijamol tez-tez gapirar, biroq ichdan hayajonlanayotgani sezilib turar edi.

— Ha, yigitlar nomardlik qilib bizni tashlab ketishdi, — dedim.

— Yo'q! Sizlar nomardlik qilib yotibsizlar! — dedi u. So'ng Nosirjonga boqdi. — Eshonim, sizni allaqachon tuzalib ketdi, deyishgan edi.

— Men tuzaldim... Men... allaqachon tuzalib ketdim! — dedi Nosirjon hapriqib.

— Bo'lmasam...

— Siz bilan...

— Xayrlashay deb yotibsiz? — U qah-qah otib kuldi. — Hurmatli yozuvchi, mana, eshonimdan o'rnak olinglar! Sadoqatni qarang! Rahmat sizga, Nosirjon... — So'ng ovozidagi hayajon bosilmagani holda, qandaydir hisob berayotgandek davom etdi: — Imtihonlar og'ir... So'nggi imtihonlar... Qiyin bo'ldi! — U yana kuldi. — Lekin telefonda so'rab turdim... Hammangizni... Voy-

voy! — Xubbijamol uning yelkasini silamoqchidek ikki qadam bosdi-yu, ikkilanib to'xtadi. — Albatta so'rayman-da! — dedi. — Busiz bo'ladimi? Ammo-lekin xursandman. Hammalaring otday bo'lib ketibsizlar... Yozuvchi aka, siz ham ertaga chiqarkansiz!

— Shunday gap bor.

— Kennoyimga telefon qilib qo'yaymi?

— O'zim...

Xubbijamol taraddudlanib, soatiga qaradi. Unga bu chiroyli ust-boshigina emas, shu holatda soatiga qarash ham yarashardi.

— Bo'lmasa, eshonim, qo'lni bering, — deb u Nosirjonning qoshiga dadil keldi. Nosirjon kalovlanib, qo'lini uzatdi, so'ng darhol tortib, kaftiga qaradi, yana uzatdi. Xubbijamol o'zining barmoqlari uzun, oppoq qo'liga Nosirjonning barmoqlari kalta-kalta, biqqigina qo'lini olib silkitdi. — Omon bo'ling, Nosirjon... Bir-birimizdan sira xafa bo'lmaslïgimiz kerak. Bir-birimizni tushunishimiz kerak. Biz tabib edik, siz bemor edingiz. To'g'rimi? Sizning vazifangiz bo'lak edi, bizning vazifamiz bo'lak. To'g'rimi?

— Ha. Albatta! Sizdan minnatdormiz, — dedi Nosirjon. So'ng xayolidan chalg'idi. — O'rtoqlar ham keta turib, sizga rahmat aytishni tayinlashdi. A, domla! Menga aytishdi...

— Salomat bo'lishsin! — Xubbijamol shunday deb qo'lini tortdi. Men tomon ikki qadam bosib: — Yotib o'qish — ziyon, — dedi. — Siz hali ko'p o'qishingiz kerak-ku, ko'z jonivor kerak bo'ladi... — Tabassum qildi. — Xayr.

Men o'rnimdan turdim-u qo'l uzatmadim, uning ham qo'l berishiga harakat ko'rsatmadim.

— Rahmat, — dedim.

Xubbijamol shoshib sumkasidan charm qo'lqop oldi. Bittasini kiya-kiya eshikka yo'naldi. Yetganda burilib, Nosirjonga tikildi.

— Nosirjon, ortiqcha hazil-huzul qilgan bo'lsam, ko'ngilga olmaysiz, — dedi. — Maylimi?

Nosirjon hovliqib:

— E, nega?! — dedi. — Rahmat, opa!

Xubbijamol tez burilib chiqdi. Eshikni zichlab yopdi. Nosirjon eshikka tikilgancha bir on turdi. Keyin "nega unday?" degan kabi menga hayrat bilan boqdi. So'ng oshig'ich eshikka bordi. Lang

ochib, qaradi-da, darrov boshini tortdi. Qobil doktorni ko'rdi, shekilli. Birpas turgach, yana ochib qaradi. Yana yopdi. So'ng shoshib deraza qoshiga keldi. Men endi bu yerda chekish mumkin deb o'yladimmi, sigaret chiqardim. Tutatib, Nosirjon qatori derazadan qaradim. Biz uchinchi qavatda edik. Pastga qarayapmiz. Past — oppoq. Gulzordagi qorga ko'milgan ba'zi gullarning yuzi ochiq — qori yo erigan, yo shamol uchirgan. Yiroqda baland darvoza — kasalxona darvozasi. Undan beriroqda "Tez yordam" mashinasi turibdi. Orqasidan tutun chiqyapti. Nosirjon deraza rafiga qo'lini tirab, o'sha tomonlarga ham bir-ikki qaradi-da, yana chopib eshik og'ziga bordi.

— Nosirjon, nima gap? — dedim.

— E, qiziqmisiz! — dedi u va ilgichdan patli xalatini olmoqchi bo'ldi-yu, chiqara olmadi. Oq ko'ylak, oq lozimda yo'lakka chiqdi. Men borib, ortidan qaradim. Boshyalang, "Priyomniy pokoy" tomon ketib borardi. O'sha yerdagi oq parda bilan to'silgan joyda kimgadir duch keldi. Gaplashdi. So'ng burila solib, zinadan pastlab ketdi.

Izimga qaytdim. Deraza oldiga keldim. Xona chindan ham huvillab qolgan, nazdimda, o'zim yolg'iz bo'lib qoladigandek edim.

Derazadan pastga qarab turardim. Qora paltoli... Xubbijamolni ko'rdim. U mashina tomon borayotgan, mashina oldida esa novcha, timqora qunduz telpak kiygan yigit turar edi. Xubbijamol unga yetay deganda sal toygan edi, yigit chaqqonlik bilan uni bilagidan tutib qoldi. Shunda Xubbijamolning ortidan xuddi kasalxonadan qochgan jinnidek oq ko'ylak, oq lozimda oppoq qor kechib borayotgan Nosirjonga ko'zim tushdi. Derazaga intildim. Nosirjon kaltabaqay qo'lini qimirlatib nimadir der edi. Xubbijamol to'xtadi. Nosirjon qizga yetib oldi. Qizning oldida u yosh boladek edi. Shunda bu yoqdan ularga qarab lapanglab borayotgan Polinani ko'rdim. Nosirjon Xubbijamolga allanimalar dedi. Xubbijamol kuldi, chog'i. Keyin, u Nosirjonning kiftiga qo'l qo'yib, bu yoqqa qaratdi. Polina yetib borib, Nosirjonning bilagidan ushlab tortdi. Qunduz telpakli yigit Xubbijamolning tirsagidan olib mashina tomon jildi. Nosirjon Polinaning qo'lidan chiqib chetlandi. Ular orqasidan qaradi. Polina tag'in uni sudradi. Telpakli

yigit mashina kabinasini ochdi. Xubbijamol Nosirjonga qarab qo'l silkitdi-da, ichkariga kirdi. Ortidan yigit ham kirdi. Tutun taratib turgan mashina jildi. Darvoza qiya ochiq edi, katta ochildi. Mashina chiqib ketdi.

Polina hamon Nosirjonning qo'lidan tortar, u tislanib chiranar edi. Nihoyat, unga bo'ysungandek yurdi-da, gulzor yoqasida qaqqaygan bir tup daraxtdan ancha o'tganda to'xtab qoldi. Yana Polinaning qo'lidan chiqib, daraxt tagiga bordi. Qori supurilmagan skameykaga o'tirdi. Daraxt shoxlariga qaradi.

Bu manzara mening yodimdan chiqmas bo'lib qoldi.

Nosirjonni olib kelishgach, uni o'rab yotqizishdi. U hech kimga qarshilik ko'rsatmadi. Qobil doktorning do'q-po'pisalariga ham miq etmadi. Ular chiqib ketishgach, yoniga bordim. U bo'g'riqib ketgan, naq yonar edi.

Menga siniq iljayib:

— Ketdilar, — dedi. — Meni, eshonim, dedilar. Hamisha eshonim bo'lib qolasiz, dedilar. Lekin bir yigit bilan ketdilar...

— Hayot shunaqa, do'stim, — dedim men.

— Hayot... — deya o'yga cho'mdi u. — Qiziq... Ammo-lekin muhabbat ham qiziq ekan!

— Siz uni chindan ham...

— E, g'alatimisiz, domla! Siz o'zingiz kennoyimni sevganmisiz?..

U jiddiy gapirar, biroq rangi qizarib bormoqda, peshanasiga, chakkasiga parcha-parcha jigarrang dog' tushgan edi. Badanim uvishib, yo'lakka chiqdim.

Nosirjonning darhol issig'i chiqdi. Alahsiray boshladi... Bir amallab tunni o'tkazdim. Hamxonalarning bu sodda yigitchaga qilgan muomalalarini eslab, juda-juda o'kindim. O'zimni ham so'kdim. Biroq, tag'in nimadir menga tasalli berar, nimaligini bilmas edim.

Ertalab tursam, Nosirjon olti oylik kasaldek. Ko'zlari sapsariq, bir holatda. Lekin u menga jilmaydi.

— Aka, muhabbat qiziq... Muhabbatni bilmabsiz, bu dunyoga kelmabsiz... Ha! — U qandaydir ichki faxr bilan qimirlab qo'ydi. — Men buni... garajga borsam, aytib beraman. Direktorgayam

aytaman!.. — U siniq jilmaydi. — Otam yo'q... Aldagan edim sizlarni. Bo'ladi-ku! U kishiyam qazo qilganlar. Lekin hovli-joyimiz bor! — deya hayajonlanib davom etdi. — Gulzorimiz bor! — So'ng bir zum ko'zlarini yumib qoldi-da, yana charaqlatib ochdi. — Pastdagi daraxt bodom ekan! Gullapti! — O'rnidan turmoqchi bo'ldi. — Ana, qarang! Ana... Gullapti... — So'ng bo'shashdi. — Lekin sovuq uradi.

— Ha, bevaqt gullagan daraxtni sovuq uradi, — dedim. Dedim-u bu gapimdan ramziy bir ma'no chiqmasligi uchun, demakki, Nosirjonni chalg'itish uchun deraza yoniga borib qaradim. Bodom gullari menga ko'rinmadi.

Tushga yaqin menga ham javob berildi. Uyga telefon qilib, xonaga qaytdim. Polina kiyim-boshimni chiqarib berdi. Kiyinib, xotinimning kelishini kuta boshladim.

Nosirjon uxlab yotar, biroq hamon ahyon-ahyonda baqirar, alahlar edi.

Polina ohista kirib, Nosirjonga qaradi. Boshini sarak-sarak qildi. Labini qimtib kelib:

— Tushavering endi, — dedi.

— Rahmat, Qobiljon shu yerdami?

— Institutga ketdilar. Shoshilinch chaqirishdi. U kishini bilasiz-ku, zig'ircha odamgarchiligi yo'q.

— Unday emas. Sizni... yaxshi ko'radi.

— E-e!

Men Nosirjonning tepasiga bordim. U terga botib yotardi. O'zi odatda shunday bo'ladi: ba'zan uxlab yotganingda ustingga birov kelsa, darhol sezasan. Nosirjon ham sezdimi, bir qimirlab ko'zini ochdi. Menga yovuzlarcha tikildi. Keyin shosha-pisha tagiga qo'l suqdi. G'ijimlangan she'rni oldi. Varaqqa bir qaradi-da:

— Unutibman. Bermoqchiydim, qarang. Mang, — deb menga uzatdi.

— Qolaversin. Sizga, — dedim.

U g'amgin jilmayib, qog'ozni o'ziga qaratdi. Shunda men bir mo'jizani ko'rdim... Uning ko'zlari qinidan chiqqudek bo'lib ketdi. Ko'kragi ko'tarilib tushadi. Lablari pichirlaydi. Birdan menga boqdi. Xuddi men — men emas, o'zi ham — o'zi emasdek boq-

di. Yana qog'ozga tikildi. Lablari pichirlaydi. Tag'in menga tikildi-da:

— Aka, — dedi behollik bilan. — Men o'qiyapman-ku... O'qiyapman. Mana, qarang... "Sevgi, sening shirin tilingdan..." O'qiyapman! — U bo'g'iq, yovvoyi ovozda chinqirib yubordi-da, yuzini yostiqqa bosib ho'ngradi. So'ng o'rnidan turmoqchi bo'ldi, madori yetmadi.

Men hayron edim: ha, u harfni tanimay qolgan ekan... Ajab! Nahot bu kutilmagan to'lg'oq uning ongida o'zgarish yasadi! Eshitganman: qo'rquv yo hayajon asnosi tildan qolganlarning, tag'in qattiq qo'rquv ta'sirida tilga kirganlarini... Ammo bu holni... Endi men Nosirjonni tanimagandek unga tikildim.

— Unday bo'lsa, juda yaxshi.

U shart burildi.

— Yaxshi-da, yaxshi-da!.. Men ham odam... Yarimtaman deb yurardim. Muni qarang, aka... Mana, mana... "Tilingdan... kim o'pma...". O'qiyapman, Polina opa!

Polina yig'lar edi.

— Men juda xursandman, — dedi va "to'g'ri gapirdimmi?" degandek menga qarab qo'ydi: u Nosirjonning o'tmishini bilmasdi. Men "to'g'ri" deganday bosh irg'adim.

Keyin sezdimki... juda xursandman. Xursand ekanman! Sezdimki, o'sha yigitlarning sho'xligi, o'zlari bilib-bilmay ermak qilganlari... o'shalardan ham xursandman. Boringki, "Oliyjanob bo'laman", deb buni yo'ldan qaytarishga urinmaganim uchun o'zimdan ham xursandman... To'g'ri aytadilar: hayotning har bir ko'rinishi o'z natijasini beradi. Uni sun'iy ravishda buzmaslik kerak.

Deraza pastida taksi signal berdi.

— Nosirjon, endi men ham ketaman, — dedim.

— Rahmat... — Nosir qo'llariga tiralib o'rnidan turmoqchi bo'ldi. Polina uni bosib yotqizdi. — Ha-ha, yotishim kerak, — deya boshini yostiqqa qo'ydi. So'ng qo'lini uzatdi. Qisdim. Barmoqlari lov-lov yonardi.— Aka, qarang, o'qidim... O'! — U behol kuldi. — O'sha... haligining kuchi-da buyam?

— Rost aytasiz, — dedim. Nimaga ishora qilgani, chamasi, Polinaga ham tushunarli edi. — Endi tezroq tuzalish payida bo'ling.

— E, men tuzalaman! — dedi u. — Albatta... — Keyin menga yana siniq tikildi. — Ketdilar-a?

— Ketdilar.

— Ha-ha... o'zim ham... Ha, mayli! Lekin, — deb jilmaydi u, — men unutmayman... U kishiyam aytdilar. "Eshonim, sizni unutmayman", dedilar...

— Men ham sizni unutmayman.

— Kennoyimni so'rang...

Shundan keyin men Nosirjonni ko'rmadim. Qaysidir kuni avtobus bekatida ko'zlari yoshli bolakay bilan cho'nqayib turib gaplashayotgan yigitchaga ko'zim tushdi. Mashinada edim. U Nosirjonmidi, boshqamidi — bilolmay qoldim.

1984

TABASSUM

Jalil aka deraza tagida yotardi. To'shakda. Bolishi baland. Unga suyanib, boshini ko'tarsa, bog'ni ko'radi. O'zi obod qilgan bog' u. Eng qari yong'oq "oltmish"ga kirdi. U bilan bir vaqtda ekilgan tut kesilib ketdi. Kallaklanaverib quridi. Keyin yiqitib, g'o'la qilib olishdi.

Jalil akaning o'zi ham ketish oldida. O'sma bilan og'rigan. Biladi. Doktorlar ko'p vaqt yashirib yurishdi. Lekin Jalil aka ovqatdan qolayotgani, ozib ketayotganidan qo'rqib yurardi. Bir kuni sevimli nevarasi — yolg'iz o'g'lining yagona qizi Sadafdan so'radi: "Bolam, dardni kasal odam bilsa, o'ziyam tuzalishiga ko'shish ko'rsatar ekan. Eshitganim bor. Sen begona doktorlardan so'ra, bolam. Dardim nima ekan? Faqat rostini aytasan, xo'pmi?" "Xo'p, bobojon", dedi Sadaf. Oradan bir kun o'tmay Sadaf quti o'chib keldi. Bobosi yoniga cho'kkalab xo'p yig'ladi. Keyin: "Bobojon, aytishga tilim bormaydi-da", — dedi. "Nevaram, men seni o'zim katta qildim... ko'tarib. Meni... bobongni yaxshi ko'rsang, hurmatlasang, borini ayt". "Bobojon, o'zingiz ham unga qarshi... ish qilasiz-a?" "Albatta-da! Nima deb edim senga?". "Bobojon, kasalingiz — rak ekan". Sadaf yana izillab yig'lay boshladi.

Jalil aka, odamlar aytishicha, Jalil ota karaxt tortib qoldi: qayoqdan paydo bo'ldi bu dard? Ko'p-a, hozir... Qariya ancha sukutga tolib yotgach, xo'rsindi. Bu dard — bedavo ekanini eshitgan va chamasi o'zining "kasalligi" ham shunga yaqinroqmikan degan xayollarga ham borgan edi.

"Qismat ekan-da, — dedi. — Vo darig'. Yo'g'-e... O'ksish bekor. Birniki o'tdan, birniki suvdan... Meniki shundan ekan. O'zi bir hisobda yoshimniyam yashab bo'ldim. Men tengi qurdoshlarimdan kimlar qoldi? Ha-a, Mo'min... bor. U mendan ikki-uch yosh katta-ya. Yuragi butun ekan-da! Ha, uning yuragi butun. — Jalil ota g'ashlanib o'ylay boshladi. — U boshqacha... Yomonga,

nomardga... o'lim yo'q deydilar-ku! Ha-e, mayli... Uyam yashasin. Baribir dunyoga ustun bo'lmaydi. Birovga o'lim tilagandan...".

U o'zining rak ekani, ya'ni o'sma kasaliga mubtalo bo'lganini eslab ayanch jilmaydi.

Kunlar o'tdi, oy o'tdi.

Qariya ba'zan tongga yetishi gumondek sezardi o'zini, ba'zan shu yotishda ming yil yashaydigandek edi. Lekin keyin-keyin o'g'lining ham, kelinining ham o'ziga tikilib-tikilib qarashidan angladiki, kasali nimaligi ularga ham ma'lum. Biroq miq etmadi. Ular... ular otaning hademay turib ketishini bashorat qilishardi.

Bir kuni hovlida yugur-yugur ko'p bo'ldi. Kimlardir kelishdi. Jalil ota kechasi uxlolmagani, o'ylanib chiqqani uchun kunduzi uyqu bosib yotgan edi.

"Ha, birontasi kelgandir-da", deb qo'ydi.

Biroq, kechga tomon hovlida tag'in yugur-yugur bo'lib qoldi-da, keyin hamma yoq tinchidi. Keyin qosh qorayganda, o'g'li Shokir novcha qomatini egib, eshikdan kirdi.

— Salom alaykum, ota.

— Ke, o'g'lim, o'tir.

— E, bir-ikki odam keldi. Sizni bezovta qilmasin, deb bu yerga kiritmadim.

— Kim ekan ular?

— Sovchilar-da! Nevarangizga.

— A-a, Sadafning ham bo'yi yetib qoldi. Shuning to'yini... tinchiganini ko'rsam, armonim yo'q edi.

— E, hali chevarayam ko'rasiz, ota.

— Yo'-o'q, bolam... o'lim — haq. Bir yerda gurung bo'lib edi. He, yosh edim o'shanda. Lekin esimda qolgan. Bir komandirimiz bo'lgich edi.

Shokir kulimsiradi.

— Komandir...

— Ha, endi, mullayam bilganini o'qiydi-da, bolam... Bizning yoshlik o'z yo'liga o'tdi. Jang-jadal...

Jalil otaning umri chindan ham "jang-jadallar"da o'tgan. Inqilob g'alaba qilganda o'n besh yoshlarda edi. Yigirmanchi yillarda ko'ngilli bo'lib qizil askarlar safiga qo'shildi: ular xizmatini

qilib, otlariga yem tashib, tagini kurab yurdi. Yetimcha qiyofasida bosmachilar qarorgohlariga necha marta borib keldi. Ammo-lekin bir gal...

O'shanda...

Keyin "Qizil kaltakchalar" safiga qo'shildi. Keyin quloqlarni tugatish...

Vatan urushi...

Shunisi qiziqki, Jalil... Jalil aka o'sha qilgan xizmatlari haqiga ittifoqo bitta ham nishon taqmadi. Nishon qayda, bir parcha yorliq ham olmadi.

Lekin bu narsalarni orzu qilmagan ham edi: u qilishim lozim degan ishni qilar, aksini qilmas, yo'q: o'zligiga qarshi bormas, bunga kuchi yetmas edi.

Shuning uchun ba'zi o'rinlarda "tirsaklandi" ham.

Zero, oddiy ish... xushomad qilish, kattalarga ta'zimda bo'lish, kezi kelganda, bir gapdan qolish ham... qo'lidan kelmadi. Aksincha, shunday qilib, obro' topgan, martabaga mingan kishilardan nafratlanadi hamon...

Uning bori — shu ekan.

— Ha, yaxshi gapmidi o'sha gap?

— U-u, dono gap. — Jalil ota shiftga tikildi. — Rahmatli komandirimiz o'zi xo'jalardan chiqqan edi. Lekin yangi hukumatga... sovetga sodiq edi. Nomardlik yomon...

— Uni aytgansiz, — dedi Shokir. — Xo'jasan deb qamashgan.

— Ha, o'z jo'rasi qamadi.

— Haligi gap...

"Shoshilyapti" deb o'yladi Jalil ota va gapni qisqa qildi:

— Shu kishi rahmatli aytgich edi-da: "O'limdan qochish kerak! Lekin o'limniyam bo'yinga olib yurish kerak!"

— Qo'ying, ota, o'limdan gapirmang.

— E, bolam, men ko'rdim...

— Yana...

— Sen ishingdan qolma... Mening dori-darmonim bor. Ishtaham yaxshi... Faqat sizlarga juda qarab qolganimdan xijolatman, o'g'lim. Yo'-yo'q, sen gapirma...

Shokir jim qoldi.

— Shunday. Endi, na chora!

— Omonatini olguncha kutaman-da.

Shokir iliqqina kuldi.

— Yoshingiz o'tib, judayam taqvodor bo'lib qoldingiz.

Jalil ota ham kuldi.

— O'zimam hayronman.

— Ota deyman... Haligi...

— Labbay, gapiraver.

— Sadafingiz bu yil o'nni bitiradi. Keyin o'qishga bormoqchi.

— A-a.

— Mayli. Mening qarshiligim yo'q. Lekin unga yordam ham berolmayman.

— Ha-a.

— Lekin qayerga ketsayam boshi bog'liq bo'lib ketsa degandim. Keyin o'qishini sirtqiga o'tkazish mumkin. Qisqasi, qiz bolaning bir shaharga ketishi...

Jalil ota yana kulimsiradi.

— Sen ham mendan qolishmaysan.

— Nimada?

— E...

Shokir o'rnidan turdi.

— Mayli.

Bir haftadan keyin yana hovlida yugur-yugur bo'lib qoldi. Jalil ota hushyor edi. Biroq, bu gal ham mehmonlarni bu xonaga kiritishmadi. Bu gal ham ular ketib bo'lishgach, Shokir kelin bilan kirdi. Otaga qo'sh salom berib, chetga o'tirishdi. Keyin Shokir gap boshladi:

— Ota, siz jang-jadal, urush, komandir... deb bejiz gapirmaysiz, — dedi. — O'sha yillarni siz juda yaxshi bilasiz. Yoshlikdan ko'p narsa boshingizdan o'tgan...

Chol tetiklanib yotgan joyida bosh qimirlatdi.

— Haqiqat, rost.

— O'sha davrdagi tengdosh jo'ralaringiz ham sanoqli qolgan-a?

— Ha, bolam.

— Shu, Mo'min ota bilan qalaysiz?

Chol o‘g‘liga tikilib qoldi. Keyin, ijirg‘anib, ko‘zini pastga oldi.

— Nimaga so‘rayapsan?

— Endi... sizlarning munday non-qatiq bo‘lib o‘tirganlaringni hech ko‘rmadik-da.

— Ha, ko‘rmaysan ham.

Shokir sovuq tikildi.

— Nima uchun?

Chol yana birpas sukutga tolib qoldi-da:

— So‘rama, — dedi. Keyin yuzi tirishib ketdi. — So‘rama... Ont ichganman.

— A?

— Qasam ichganman.

— Tavba!

— Qo‘y uni.

— Endi...

— Bolam, ovora bo‘lma.

— Qiziq odatlaringiz bor-da.

— Shu-shu.

— Ha. Oqshom yana kiraman.

— Xo‘p.

Shu bilan ota-bolaning orasi soviy boshladi. Shokir kelib, Mo‘min aka haqida gap boshlaydi. Jalil ota ko‘zini yumib oladi. O‘rtada boshqa gap qolmagandek. Shokir chiqib ketadi, chol xayol surib, ijirg‘anib yotadi.

Keyin-keyin tusmollay boshladi. Mo‘minda ham ikki-uchta nevara bor. Eng kichigi Sadaf bilan tengdosh, yo undan bir-ikki yosh katta.

O‘sha odam qo‘yayaptimi Sadafga?

Chol titrab ketdi.

U Mo‘min aka bilan bir umrga ajralishgan. To‘g‘ri, joyi kelganda u bilan so‘rashgan bo‘ladi. Bir davrada o‘tiradi ham. Biroq, begonalardek.

Biroq uning orqasidan... bir og‘iz so‘z demagan, demas ham.

Uni eslasa bormi, darrov ko‘z oldiga Bobotog‘ yo‘llari, Yolg‘izkapa o‘rkachidagi ovchilarning pistirmasi, qilich, miltiq, o‘q-

dori, sovuq tunlar, yulduzli osmonlar gavdalanib ketadi. O'ksib jimib qoladi.

O'shanda, tog'dan qaytib tushayotganda, Mo'minga bergan va'dasini eslaydi.

Keyin: "Ha-ye, shundayi ham bo'lar ekan-da", deb qo'yadi. Shu, xolos.

...Gap shundaki, Jalil aka Jalilbek bo'lib, Orzixo'ja komandirning otryadida yurganda, bir tun uni o'choq boshiga chaqirib, Orzixo'ja shunday dedi:

— Quyun qo'rboshini bilasan-a?

— Ha, — dedi Jalil.

— Uning ishlarini?

— Eshitganman.

— Bizga topshiriq keldi. Uni tiriklay qo'lga olish kerak.

— Bu qiyin.

— Quloq sol. Qiyinligini men ham bilaman. Lekin uning to'pida Mo'min degan yigitimiz bor...

— Tanimayman.

— Ko'rsang, tanirsan.

— Boramanmi?

— Ha. Quyunning yigitlari ozayib qolgan. Shu kunlarda Bobotog'ning Yolg'izkapa degan dovonida emish. Bir cho'pon ko'ripti. Xabar berdi.

— Uni tutish kerakmi?

— Ha.

Ertasi kuni Jalil janda kiyib, qo'liga tayoq olib, hech qanday qurolsiz holda yo'lga chiqdi. Yo'lakay cho'ponlarning ovulida tunab, o'z kunini ko'rib, Bobotog'ga yetdi.

Nihoyat, Yolg'izkapaga ro'para bo'ldi.

Shunda oldidan bir kiyik chiqib qoldi. Keyin bir ovchi ko'rindi. Kiyik Jalildan hurkib, ovchiga burildi. U otib oldi. Jalil chopib borib, kiyikning oyog'ini bosib turdi. Ovchi so'yib halolladi.

Keyin Jalil:

— Og'a, bizdan hurkib sizga yo'liqdi, tanimizni bermaysizmi? — dedi.

— Kimsan o'zing?

— Bu dunyoda otasi o'lmagan kim bor, onasi o'lmagan kim bor?

— Kimsan? Kimlardan bo'lasan? Nima qilib yuribsan?

— Tagi yetimman, og'a... Lekin otamiz beli baquvvat odam o'tgan. Undan besh-o'nta ushoq mol bir cho'ponning qo'lida qolgan deb eshitar edim... Mana, fursati yetdi deb shuni qidirib chiqdim. Topsam, insof qilsa...

— Bosmachilar yeb ketgan bo'lsa-chi?

— Teshib chiqsin.

— Qizillar yegan bo'lsa-chi?

— Og'a, yetimning haqiga kim ko'z olaytirsa, topadi...

— Oti nima ekan u cho'ponning?

— Shuni bilmayman-da... Bir cho'pon deyishdi. Otam o'lim oldida tildan qolgan edi.

— Shuni izlab yuribsan?

— Ha, qayerda ovul ko'rsam, boraman. Bir kecha yotaman. Cho'ponlarni gapga solaman...

— Bu yoqda ovul yo'q.

— He, tepalikda bir didbon ko'rinadi.

— A, umi? Qani, yur-chi.

— U yerda odam yashaydimi?

— Bilmadim.

— Esa, qaytsam...

— Ha, yur-chi.

Ovchi kiyikning oyoqlarini kuliklab, dast ko'tardi. U baland bo'yli, sariq chakmon kiygan, barvasta yigit. Lekin ko'zlari hor-g'in, zerikkandek edi.

Jalil uning kimligini bilolmay, biroq bosmachilarga aloqasi borligiga ishongan holda ergashdi. Saldan keyin, kiyikni men ko'taray, dedi. Yigit qaramadi. Pistirma qora suvuq qilingan, tosh-qalama devorli uycha edi. Atrofda xas-cho'p, suyaklar yotibdi. Nariroqda bir ko'lmak suv. Lekin rangi qora hamda undan sassiq hid kelar edi. Pistirmaning ichi shinamgina. Biroq uch tomonda to'rt-besh qavat qilib ko'rpachalar solingan, ular eskirib ketgan va moy to'kilgan. To'r devoriga uchta pilta miltiq va ikkita qiyshiq qilich osig'liq turardi. O'rtada o'choq.

Quyun qo'rboshi shu ovchining o'zi ekan.

— Uka, balki sen qizillarning odamidirsan, — dedi u kiyikning bir sonini qovurib, o'rtaga qo'ygach. — Mayli... men Quyun qo'rboshi bo'laman. Eshitgan bo'lsang...

Jalil qo'rqib ketib, yoqasini ushladi.

— Agar...

— Qasam ichma. Men dunyoda qasamdan qo'rqaman, uka... Bir vaqtlar qasam ichib edim... Shuncha qizilni o'ldiryapman. Shuncha musulmonni qiyratdim. Shuncha uyga o't qo'ydim. Shuncha suruv molni afg'onga o'tkazib, "qurolga almashdim...".

— O'-o'! — dedi Jalil.

— Yurt ozod bo'lmasa, uka... biz yengilsak, o'zim pastga enib boraman deb qasam ichib edim... Qaytar dunyo deydilar. Odam mard bo'lib o'lishi kerak, uka...

— Him...

— Shuytib o'tiribmiz.

— Bir o'zingiz?

— Yo'q.

Mo'min ham ovga ketgan ekan. Ikkita quyonni yelkasiga tashlab keldi. U o'rta bo'y, ko'zlari kichkina va chag'ir, sergak va jonsarak yigit edi.

— Bu kim? Senga nima bor? — deb do'q qildi Jalilga.

Quyun qo'rboshi oraga tushdi.

— Qo'y, tegma... Buyam senga o'xshagan bir darvish-da, Mo'min. Sen ham qalandar bo'lib kelib eding-ku! Tegma bunga... o'tir.

Mo'min Jalilga o'qraya-o'qraya o'tirdi.

— Mening jo'ram, — dedi Quyun qo'rboshi Mo'minni ko'rsatib. — Otgan o'qi tegmaydi-yu, o'zi menga sodiq... Uka, qovurdoqdan ol. Bu halol go'sht... — U g'amgin kuldi. — O'zing ko'rding-ku, o'g'irlikdan kelgan emas...

— Ha, og'a.

Qovurdoqni yeb bo'lib, choy ichishdi. Keyin tashqarida gulxan yoqib o'tirishdi. Anavi qora ko'lmakda yermoyi[1] bor ekan. Bir archa shoxini botirib olib, o'tga qo'yilsa, talay vaqt yonib turadi.

[1] **Yermoyi** — neft.

Bir mahal tog'dan sovuq shamol esdi.

— Turaylik, — dedi Mo'min. — Lekin shu yerda gulxan yoqishimiz ham chakki ish, begim.

Quyun hech narsa demay uyga kirdi. Yechinmasdan to'rga o'tib yotdi.

— Sen bu yoqda yot, — deb oyoq tomonidagi to'shakni ko'rsatdi Jalilga. Keyin Mo'minga dedi: — Eshikni yopma, jo'ra. Havo kirib tursin.

Kechasi allamahal. Jalil bezovta. Qo'rqadi. Quyundan qo'rqadi. U ho'kizdek kuchli. Eng yomoni — o'zining kimligini sezgandek: juda mayin gapirdi.

Gulxan ham yoqtirdi...

Bir payt Mo'min uyqusirab turib ketdi-da, so'kinib bir muddat o'tirdi. Keyin inqillab tashqariga chiqdi. Eshik og'zida biroz serraygach, yon tomonga o'tdi.

Jalil turmoqchi. Lekin Quyundan qo'rqadi. Oxiri Mo'min bilan gaplashish uchun bundan qulay payt bo'lmasligiga ishonib, sekin qo'zg'aldi.

Tog'dan izg'irin esardi.

— Ha, qayoqqa? — deb baqirdi Mo'min va lapanglab yurib, Jalilga yaqinlashdi.

— Orzixo'ja aka yubordi meni... — shivirladi Jalil. — Tiriklay tutib borar ekanmiz.

— Jim.

Ular uyga qaytib kirishdi. Mo'min o'z joyiga, Jalil o'z joyiga yotdi.

Jalil endi Mo'mindan qo'rqa boshladi... Biroq, sal vaqt o'tmay uning o'z odami ekaniga ishondi. Lekin u nima qilmoqchi? Bilolmasdi. Quyun qo'rboshini esa, o'ldirmasdan qo'lga olishga ikkisining ham kuchi yetmasligi aniq.

Balki kelishib, birdan ustiga tashlanishsa...

Yo'q...

Eshikdan osmon etagidagi yulduzlar ko'rinar, ular ham bu izg'irinda sovqotib, shuning uchun zo'rg'a miltillayotganga o'xshar edi. Quyun qo'rboshi bir tekis nafas olib uxlayapti. Qorong'ida Mo'minning qimirlab qo'ygani ko'rinadi.

Bir payt Jalil uyqu aralash tepasida bir soyani ko'rdi. Ko'zlarini ochdi. Yo'q: tepasida emas. Nariroqda. Mo'min!.. Qo'lida qilich. U xiyla tislanib, Quyun qo'rboshiga tikildi. Engashdi. Qilichni ko'tardi-yu:

— Vo-o! — deb yubordi.

Jalil turib o'tirdi.

Quyun qo'rboshi yonboshlab:

— He, Mo'minboy-ye, — dedi.

Jalilni sovuq ter bosib, qalt-qalt titray boshladi.

— Begim, meni afv eting! — Mo'min tiz cho'kkancha boshini yerga urib oldi.

Quyun elan-qaran qo'zg'alib, chordana qurdi.

— Ayt, ayt, — dedi. — To'qi endi bir narsa.

— Yo'q, men...

— Nima?

— Manavi bola... — Mo'min burila solib, Jalilga o'qtaldi. — Chopib tashlayman. Bu ayg'oqchi, begim... Meni yo'ldan urdi...

Quyun qo'rboshi kulib, yonidan miltiqni oldi. Qo'ndog'i bilan shiftga qadalib-sollanib turgan qilichni turtdi. Qilich yerga tushdi.

— E, Mo'minboy-ey! — dedi. — Tashqarida nari borsa, ikki og'iz gaplashdilaring, shunda aldab oldimi?

— Begim, begim!

— Ha, mayli. Yotinglar... Yo yana o't yoqamizmi? Tong ham bo'zarib qoldi.

Jalil eng orqada chiqdi. Har narsaga tayyor: jumladan, qochishga ham. Biroq qochib qutila oladimi? Quyun qo'rboshi pastroqqa tushib kerishdi. Keyin yermoyli ko'lmak boshidan qumg'onni olib, pastga endi.

Mo'min burila solib, Jalilga shivirladi.

— Miltiqni opchiq!

— Tiriklay tutish kerak.

— Tur-e!

Mo'min o'zi chopib, uychaga kirdi. Miltiqni olib chiqdi. Lekin pilta miltiqni otish oson emas. Paxtani tutatish uchun chaqmoqni toshga urar ekan, Quyun asta-sekin qaytib chiqdi.

— Nima qilyapsan?

— Shu... tongda ov...

— Ha-ha-ha!

— E-e!

— Shoshilma.

U miltiqni olib, o'q-dorini to'kdi, devorga suyab qo'ydi.

— O't yoqamiz.

Kiyikning yana bir sonini kabob qilishdi. Og'iz-burunlari, qo'llari qorakuya va moy bo'lib, choy ichisharkan, quyosh ham chiqdi.

— Yigitlar, endi gap munday, — dedi. — Meni Denov bozoriga olib borasizlar.

— Begim?

— Bek yo'q... — kulimsiradi Quyun qo'rboshi. — Qarshingda bir sayoq bevatan turipti.

— Begim...

Quyun qo'rboshi uyga qaradi. Shimolga — tog'larga, cho'qqilarga qaradi. Suyaklar sochilib yotgan yerga qaradi. Chakmonini kiyib, o'rnidan turdi.

— Bog'langlar.

U qo'lini orqasiga qildi.

Mo'min Jalilga qaradi, Jalil... Quyun qo'rboshiga qaradi va negadir yig'lagisi keldi. Mo'min ham Quyun qo'rboshiga tikildi-da, asta tislandi.

— E, yigitlar-e, — dedi Quyun qo'rboshi. — Joylaringda men bo'lmadim-da!..

— Endi...

— Rost, — dedi u o'ychanlik bilan. — Vatan qo'ldan ketganiga oldinroq ishonganimda, oldinroq o'zim tushib borar edim. Shahid ketishga nima yetsin.

Mo'min bir qadam chetga bosdi.

— Qo'rqma, — dedi Quyun qo'rboshi. — Bog'la, uka. Lekin tag'in bir narsaga ishonishni istayman.

— Ayting, begim!

— Meni sud qilishsin.

— A?

— Bozorda.

Birpasdan keyin Quyun qo'rboshi — oldinda, qo'llari ortida bog'liq holda, xotirjam ketib borar, uning orqasida — Mo'min, qo'lida bir miltiq, yelkasida bir miltiq, shaxdam odim otar, Jalil — eng orqada, kiyikning qolgan go'shti va bir bo'g'cha shol ro'mol ko'tarib olgan edi.

Bobotog'dan enaverishda Mo'min ancha o'zgardi. Ovozi ham balandlab, Quyun qo'rboshiga:

— Buyoqdan, uyoqdan yuring! — deydigan bo'ldi. Keyin uni senlashga o'tdi.

Ilk qishloqqa yaqinlashganda, Jalilga qarab:

— Ko'rdingmi, bosmachini ushlash qanday bo'ladi?— dedi.

Jalil garangsib:

— Siz ushlaganingiz yo'q, — dedi.

Mo'min taqqa to'xtadi.

— Esa senmi?

— Bog'lashga bog'ladingiz.

Shunda Quyun qo'rboshi o'girildi.

— Bola ekansan-ku, Jalil, — dedi. — Buni men bilaman... Bu seniyam otib qo'yishi mumkin.

— Bas!

— Shuning uchun, uka, bunga xo'p de... Sendan nima ketdi? Yo sen ham Quyun qo'rboshini tutdim deb...

— Nega?

— Unday bo'lsa, mayli, de.

— O't oldinga! — baqirib yubordi Mo'min.

Jalil qo'rqa-pisa o'tarkan, Quyun Mo'minga o'girilib:

— Bolaga tegma, — dedi.

— Ishing bo'lmasin!

— Sen bola, qasam ich, — dedi u Jalilga. — Meni bu qo'lga tushirib bog'ladi.

— Nimaga?

Mo'min asta miltiqni unga to'g'riladi.

— Ana, — dedi Quyun qo'rboshi. — Ko'rdingmi? Senga baribir-ku. To'g'rimi?

— Ha.

— Bo'ldi-da.

— Nima qilay?

— Mo'min aka Quyun qo'rboshini qo'lga tushirdi de.

— Axir...

— Deysan!

Jalil ko'zlari do'layib:

— Xo'p, — dedi.

— U yoqdagi gap-so'zni unut.

— Xo'p.

... Uni to'g'ri qizilkaltakchilarning qurollangan otryadlari qarorgohiga olib bordilar. Orzixo'ja Quyun bilan bemalol gaplashdi. Keyin uni Denovga olib jo'nadi. Sud bo'ladigan kun jar chaqirtirildi. Olomon atrofda devor bo'lib turar ekan, revkom, ChK va qishloq sho'rolari nomidan Orzixo'ja Quyun qo'rboshiga ikkita savol berdi.

— Nima uchun kurashding?

— Din uchun... — dedi Quyun bosmachi.

Orzixo'ja vakillar yonida saf tortib turgan domla, so'fi va masjid imomlariga qaradi.

— Quyun qo'rboshi nima jazoga loyiq?

— O'lim! O'lim! — deyishdi ular qo'rqa-pisa.

Orzixo'ja yana Quyundan so'radi:

— Tag'in nima uchun kurashding?

Quyun qo'rboshi:

— Ozodlik... uchun, — dedi.

— Xalq! — xitob qildi Orzixo'ja, — Quyun qo'rboshi nima jazoga loyiq?

— O'lim, o'lim...

Quyun qo'rboshi shu yerda otildi.

Jalil ota Mo'min aka haqida o'ylaganda, mana shular ko'z o'ngidan...

Shokir kirdi.

— Ota, — dedi bir tizzasida cho'kkalab. — Biz shoshishimiz kerak...

Chol yonboshlab unga tikildi.

— Mo'minning nevarasigami?

— Ha.

— Yo'q.

— Ota...

— Yo‘q.

Shokir bir nafas lunjlari tirishib turdi-da:

— Axir, uni yomon ko‘rsangiz — o‘zingizga, — dedi.— Lekin bizga ma’qul.

— Nimasi?

— Mo‘min bobo... grajdan urushining qahramoni... Orden-medallari bor. Respublika ahamiyatiga ega... pensioner. Gapi har yerda o‘tadi...

— Ha. Mengayam yordami tegadi de?

— Odam sal... orqali bo‘lishi kerak-ku!

— O‘, bechora bolam.

— Qo‘ying, kulmang... Siz o‘shanday bo‘lmagan bo‘lsangiz, biz aybdor emas.

— Attang.

— To‘g‘ri-da... Hozir qaysi qariya bilan gaplashmang, o‘zidan sal obro‘li tengqurini g‘iybat qiladi...

— Men hech narsa demadim-ku!

— Baribir-da!

Chol to‘shakda chalqancha bo‘lib yotdi. Uning xo‘rligi kelar, lekin allaqanday jirkanchli narsa atrofida bor-u... xo‘rlandim desa, u maraz yopishadigandek edi.

Kunlar o‘tdi.

Bir kuni yana hovlida yugur-yugur bo‘lib qoldi-yu, Sadaf cholning hujrasiga kirdi. Yonida tiz cho‘kib, choynakni ushlab ko‘rdi. Issiqqina. Qopqog‘ini ochib ko‘rdi.

— Bobojon, ichmabsiz-ku!

— Ishtaham yo‘q.

— Bobo!

— Gapir.

— Meni...

— Ayt.

— Mo‘min boboning kichik nevarasiga...

Chol ko‘zini ochdi.

— O‘zingni ko‘ngling bormi?

— Voy, men uni tanimayman ham.

Chol birdan yayrab, tabassum qildi.

— Esa...

— Xo'sh?

Chol ko'zini yumdi.

— Bobojon...

— Mendan domangir bo'lmanglar... O'zlaring bilasizlar.

Shu oqshom uyda, hovlida janjal bo'ldi. Shokir baqirib xotinini so'kdi. Xotini itni tesha bilan urib vangillatdi. Sadaf o'zicha yig'ladi.

Tag'in bir oycha vaqt o'tdi.

Jalil chol favqulodda sezib qoldiki, o'g'li bilan kelini behad shoshilyapti.

Sadaf ovqat olib kirganda Jalil ota:

— Biroz o'tir, — dedi. — Sen menga yolg'on gapirmagansan...

— Ha, bobojon.

— Ota-onang nimaga shoshyapti?

— Aytolmayman...

— Yo'q, aytasan... Men xafa bo'lmayman-ku! Boshga tushganini ko'z ko'radi...

— Sizni...

— Nima?

— Termizga yuborishmoqchi.

— Ha-a! — chol hiqillab kulib yubordi. — Ko'zdan panada tursin deb-a?

— Yo'q.

— Ha?

— U yoqda katta doktorlarga ko'rsatishadi.

— He, ona qizim-e, baribir-da!

Sadaf yig'lab yubordi.

— Baribir emas.

Chol boshini ko'tardi.

— Nima?

— Sizni... o'lib qolsa...

Jalil ota tushundi.

— To'y orqaga suriladi?

— Ha.

— U yigitni ko'rmadingmi?

— Yo'q.

Sadaf zira solingan shovlani cholga surib qo'ydi. Qariya ovqat hididan ishtahasi ochilib burildi-yu, shovladan ko'z uzmay qoldi.

Keyin yana chalqancha bo'ldi.

...Ertalab doktorlar kelishdi. Cholni Termizga jo'natishlarini aytishdi. Jalil ota:

— Men tuzalib qoldim, — dedi.

Doktorlar cholni tekshirib bir-biriga qarashdi.

— Rostdan ham! — dedi biri ostonada turgan Shokirga.

— O'zgarish bor...

— A, unday bo'lsa... — U ikki qadam bosib, otasi qoshiga yetdi.

Chol mayin jilmaydi.

— Nimaga kecha ovqat yemadingiz?

— Qornim to'q edi.

— Bekor gap!

Doktorlar chiqishdi.

Chol bugungi kun ham ovqat yemadi. Keyingi kun ham. Undan keyin...

O'rmalab borib, obrezga to'kadi. Qo'lini yuvgan bo'lib, ustidan suv quyadi.

U... holdan toyib, o'rnidan qimirlolmay qoldi. Shunda ham tuz totmadi. Endi, kelgan ovqatni to'shagi yonida nos tupurish uchun qazib qo'yilgan chuqurchaga ag'daradi.

U karaxt bo'lib qoldi.

Keyin o'g'li, kelini va Sadaf tepasida ko'zyoshi qilib turganda, ketdi.

Hammani dahshatga solgan narsa — uning yuzida qotib qolgan tabassum bo'ldi.

To'y qoldi.

1984

YASHIL "NIVA"

Avvalo, shuni aytishim kerakki, biz tomonning odamlari ancha serandisha keladi. Buning tarixiy ildizlari bor: biz kattalarga — xususan, yoshi ulug'lar-u lavozimli shaxslarga ta'zim qilib o'rganganmiz. Yo'g'asam zamonga qaramaysanmi deng. Sotsializmdan putur ketgani aniq. Pribaltikada Mustaqillik uchun namoyishlar bo'lyapti. Toshkent ham tinchini yo'qotgan...

Bizda esa Bag'doddagidek osoyishtalik.

To'g'ri bizdayam "diktator arbob"larga qarshi chiqishlar bo'p turardi: shundayam azob-u kamsitishlar jonidan o'tib suyagiga yetganlar...

Qurbaqani bossang ham, "vaq" deydi-ku?

Biroq, ont ichib aytamanki, gap bunda ham emas.

Nimagaki, shaxsan menga o'xshaydigan ziyoli hamma yerda bor. Va men tilga olmoqchi bo'lgan (sadqayi tilga olish ketsin!) "diktator amaldor" ham boshqa oblastlarimizdan topiladi. Pirovardi, yashil "Niva"ning ham urug'i serob. Qolaversa, o'sha baland — Oqdovonga o'xshash dovonlar ham respublikamizda ko'p.

Xullas, ...ga borayotib edik — yurtga, shahrimizga. Mana shu qizil "Jiguli"damiz: xotinim, o'g'lim, qizim.

O'zim ruldaman.

Yo'limiz Oqdovondan o'tishi kerak.

Dovon esa, haligiday bir "diktator"ning sovxoziga qaraydi.

Ilgarilari bu yoqqa yo'lim tushsa ham, qaytishda ham dovonni chetlab, cho'l orqali ketardim: u yoq tinch, yo'li tekis, eng muhimi — "diktator" yo'q.

Bu gal juda shoshib turgandik: soat 12 da institutda bo'lishim kerak: darsim bor. So'ngra ne bir xayol bilan: "Bahor-ku? Bolalar ham bir yayrasin, tomosha qilsin", deb ularniyam olvolgandim.

Ha-ha, dovonning yo'li yaqin-da!

Xullas, shahardan chiqdik.

Tog‘ etagida kabob pishiradigan bitta kafe bor. O‘sha yerda to‘xtab, ikki sixdan kabob yedik. Bir piyoladan choy ichdik. Keyin yana yo‘lga tushdik.

Yo‘l deng, tog‘ bag‘irlab ketadi.

Hamma yoq yashnagan. Do‘lanalar oppoq gullagan. Na’mataklar ham rosa ochilgan. Butun dunyoning bulbuli shu yerlarga yig‘ilib kelganday: har shoxda chag‘-chag‘laydi.

Etakda soy bor, nari betlarda — qor.

Shunday qilib, atrofni tomoshalab, juda xushnud kayfiyatda ketayotib edik. Mashinaning tezligi o‘rtacha— soatiga ellik-oltmish kilometr. Ketayapmiz-u, ko‘nglimning ostida bir taxlika paydo bo‘ldi. “Diktator” uchrab qolmassin-da”.

To‘g‘ri, u bizni yeb qo‘ymasdi. Ammo uning qilmishlari — dahshat! Anchayin salom bermay o‘tgan o‘smirni oyog‘idan ostirgan...

Xullas, burilishdan o‘tayotib edik, shunday qiyg‘os gullagan olmalar ichidan bitta yashil “Niva” lop etib chiqdi-yu, oldimizga tushib, sekin keta boshladi. Ne ko‘z bilan ko‘ray-ki, xuddi o‘shaning mashinasi! Mashhur mashina!.. “Diktator direktor” deyapman-u, iltimos, uni jindak eslashib olaylik. Xo‘sh, u kimsa — o‘sha raykom sekretarlarini almashtirib yurganlardan biri... O‘z bilganingizni tasavvur qilavering. Ularning baribir-biriga o‘xshaydi. Pul bilan mansabga chiqib olgan. Keyin davlat planlarini xalqni qulday ishlatib, tag‘in pripis-mripis bilan oshirib bajarib, geroy bo‘lgan. Keyin Markazqo‘mdan himoyachi — “aka” topgan. Balki o‘sha “aka” tufayli “geroy” bo‘lgan. Xullas, akaning “ochil dasturxon”iga aylangan, bu yoqda o‘zlariga xon — o‘zlariga bek bo‘lgan kishi...

Bizga o‘xshagan odam — institutning oddiy o‘qituvchilari ham u kishim uchun bir chigirtka: chertsa, uchib ketamiz.

Darvoqe, bu odamning zulmi institutni ham zabt etgan, rektorimiz, — bechora bir yaxshi odam, — uning nomini eshitsa zirillar edi: uning qishlog‘idan yoki qarindoshlaridan birorta bola o‘qiyotgan bo‘lsa, avvalo o‘shaning ko‘nglini olish payida, o‘rgulib-o‘rtanib yurardi.

Lekin uning ustidan yoza-yoz ham ko'paygan, qayerlardadir g'alayonlar bo'lgani haqidayam eshitardik.

Shunday qilib, yashil "Niva" yo'lga tushib oldi-da, juda sekinlab keta boshladi. Albatta o'shaning mashinasi bu. Yon-veridan antennalar chiqarilgan, demak, ichida ratsiyasi ham bor. Mashinaning o'zi deng, yap-yangi. Lekin yon-bag'irdan chiqib keldi-ku, orqa oynasi loy edi, shuning uchun ichkarida necha kishi o'tirgani ko'rinmasdi.

Juda imillab ketyapti.

Men ham tezlikni kamaytirdim. Nima qilay? O'tib ketaymi? Be, o'sha kuni institutdan dumimni tugdiradi: bunaqa voqealar bo'lgan-da, ayrimlar ehtiyotsizlik qilib o'tib ketib baloga yo'liqqanlar.

O'zi, men sizga aytsam, bundaqa o'ziga xon — o'ziga bek arzandalar ilgari hamma jamiyatlarda bo'lgan va, qizig'i shundaki, ular baribir-biriga o'xshagan. Biroq bizning jamiyatimizda ularning paydo bo'lishi... istisno holdirki, bu kishini juda o'ylatadi...

Biz ham "Niva"ning oyog'iga qarab ketyapmiz.

Bir mahal o'g'lim injiqlik qila boshladi: "Ada, o'taylik. O'tib ketaylik!" Narigi tekis yo'lda yurishimga o'rgangan-da. Bu yerdagi bahor manzaralari uni yana ko'tardi. "Xo'p, — deyman. — Hozir o'tamiz", deyman. Keyin xotinimiz ham xarxasha qila boshladi: "Nima bo'ldi sizga? Munday imillab qoldingiz? Yo'l kengku, abgon qila qoling, adasi".

Mening ham dardim ichimda: institutga tezroq yetib olishim kerak. Bu yurishda, kim biladi...

Xullas, ketyapmiz. Tavba, deyman. Goho "Niva" to'xtab-to'xtab qoladi. Go'yo "o't, o'taver", deganday. O'tib bo'pman: men ham "Jiguli"ni to'xtatib qolaman.

Ketaverdik, ketaverdik.

Tabiatdan zavq olishning ham rasvosi chiqdi. O'g'il tag'in xarxasha qiladi, xotin ming'irlaydi. Qizaloq ham onasining gapini takrorlay boshladi.

Ana tomosha!

He, gapning qisqasini aytsam, bir yarim yoki ikki soatlar uning orqasidan ergashib yurdim: sal tezlasa-tezlayman, sekinlasa-sekinlataman, to'xtasa-to'xtab qolaman.

Barimiz bo'lganimizcha bo'ldik: o'g'il yig'lay boshladi, xotin biz bilan gaplashmay qo'ydi, qizaloq xo'mraygan. O'zim-chi? Menga zaril keptimi shu yurish?

Institutdagi dars ham barbod bo'ldi: dovondan oshgandan keyin ham kamida ikki soat yurishim kerak.

Soat o'n ikkiga yaqinlashganda, qo'llarim qaltirab, mashinayam qizib ketib, dovonga chiqishimizga bir chaqirimlar qolgan edi, "Niva" birdan burilib, chap tarafga o'tdi-da, shunday tik qirga zing'illab chiqib ketdi. Xayol qildim: samolyotning motori o'rnatilgan. Qirdan oshib g'oyib bo'ldi.

Shukr qilib, yoqalarga "tuf-tuf"lab tezlikni oshirdim. Dovonga chiqdik.

Shunday chetda DAN posti bor. Qarasam, tanish inspektor yo'lga chiqib kelyapti. Ola tayog'ini shunday cho'zdi. To'xtadim. Xursand bo'lgan chog'da yana yurak urishini ko'ring. "Yo'lda biron nojo'ya harakat qildimmi?" deb o'ylayman. Inspektor ham — "diktator"ga qarashli odam-da! Ratsiya orqali bir nima degan bo'lsa, pravaning o'n joyidan teshadi. Bu yo'lni bir umr orzu qilmaydigan bo'laman.

Hujjatlarni olib chiqdim.

— Assalom alaykum.

Serjant chest berdi-da:

— Bularni joyiga sop qo'ying, domla. Xo'jayin "juda odobli bola ekan" dedilar, — dedi kulimsirab.

Karaxt bo'lib qoldim.

Biz bolakay "odob yuzasidan" u kishini yo'lda qoldirib o'tib ketmagan ekanmiz!

Voy, muttaham-e...

Ha, undan qutulganimizga ming bor shukr qilib, yo'lda davom etdik. Hademay xotinning ham chehrasi ochildi, o'g'ilchamiz ham otasini taniganday bo'ldi, qizaloq ham yig'idan to'xtadi. Lekin bizning ishimiz rasvo bo'lgan edi: dars o'tilmay qoldi...

Oradan ikki kun o'tgan edi deng, bu yoqdan telefon bo'lib qoldi. Ha? "Tezda yetib keling, Vilnusga jo'naysiz, o'zbek san'ati tarixidan ma'ruza o'qib kelasiz".

Bizning institut bilan ularning instituti orasida shunday — o'qituvchilarni ayribosh qilish, bir-birining san'ati haqida ma'ruza o'qish an'anasi bor edi.

Yana yo'lga tushdik. Endi dovondan tushadigan bo'ldik. Birinchidan, vaqtli yetib borishim kerak. Ikkinchidan, biz xo'jayinga xiyla yoqib qolgan "odobli bola"miz. Bu gal o'tgan galgidek qiynalmasmiz. Keyin, "xo'jayin" har kuni shu yo'ldan qatnayvermas...

Ko'ngilga taskin berib dovonga yetib keldim. Qarasam, DAN posti berk. Inspektor yo'q. Ha, "chaqirib olgandir-da", deb o'yladim. Axir, melisalar ham u kishining yugurdagi edi-da!

Nishab yo'l. Anchagina tezlik bilan tushib ketyapman. Lekin butun vujudim ko'z-quloq: tag'in bir burilishda chiqib qolsa, bilasiz-ku, unday odam yeb turgan taomiga ham tupuradi...

Tushib ketyapman, ketyapman. Tinchlik. Bahor avjida. Yana bulbullar sayrab yotishibdi.

Yo'lda imoratlari toshdan yasalgan kichkina bir qishloq bor edi, undan o'tgach, kabob pishiriladigan kafe keladi. Shu qishloqqa yetdim deganda, o'sha inspektorni ko'rib qoldim. U meni ancha narida ekanimda ko'rgan shekilli, tayog'ini cho'zib turibdi.

Mashinani to'xtatdim. Har ehtimolga hujjatlarni olib chiqdim. Inspektor o'rnidan jilmadi.

— Assalom alaykum, — deb oldiga bordim.

— Nega tez kelyapsiz? — dedi u. Chest berish qayoqda! Meni tanimaganday.

— Yo'g'-e, ana spidometrni ko'ring, — dedim.

— Ko'rib turibman. Uch so'm, — dedi.

— Xo'p-xo'p.

Pulni to'lab:

— Xo'jayin yaxshi yuriptilarmi? — dedim.

U aftimga ensasi qotgandek qarab turdi-da:

— Xo'jayin ke-etdi, — dedi.

— Qayoqqa?

— Ketadigan joyiga... Tushundingizmi? Kecha partiyadan o'chirildi. Bugun ishdan olindi.

— Sabab?

— Xalq... Hamma sizga o'xshagan "odobli bola"mi?

Shu gap menga ta'sir etib ketdi deng: xuddi o'sha kungi odobli ekanimni ta'na qilgan edi.

— O'zlariyam odob masalasida kaminadan qolishmas ekanlar, — dedim. Va yana so'radim: Nahotki?

— "Aka"lari ketgan odam ketadi-da, — dedi u. — Boshqa "aka"larga yoqmay qoptilar. Bu yoqda xalq turibdi, tishini qayrab... Go'yo xalqning yonini olishdi ular... Endi yo'ldan qolmang, domla. Yo'g'asam, odobda sizdan qolishmasligimni...

U bir nima deb po'ng'illadi.

Men mashinani minib jo'nadim. Yo'lda kelyapman. Ham xursandman, ham kulaman deng: "O'l, — deyman o'zimga. — Kuni bitgan ekan-ku? Nega o'sha kuni muncha qo'rqding? Xotining, bolalaring oldida sharmanda bo'lding? Qancha asabing ketdi? Vang'illatib o'tib ketmaysanmi, nomard!" deyman.

Ul odamning partiyadan o'chgani, ishdan olib, qamalganini eshitgandirsiz? Eshitmagan bo'lsangiz, o'zingiz bilgan shunday "diktator"ni eslang: ularning ham boshiga shunday kun tushadi? Balli... O'zi bu hol — jamiyatimiz uchun istisno hol edi-da. Ammo bundan keyin ham o'ylatadigan hol...

Endi bu yog'ini eshiting: o'zimni so'kib, nomarddan nomardga solib, tabiiy ravishda endi o'zimni mard chog'lab ketayotsam, ishonasizmi, kafedan o'tgan joydagi burilishdan shunday qayrilgan edim, shunday chap tarafdan — suv sizib oqayotgan qir oralig'idan bitta... yashil "Niva" g'uv etib tushdi-da, yo'lning cheti bilan sekin keta boshladi.

Shunday tormoz beribmanki, boshim oynaga urildi.

"Xudo urdi, inspektor meni aldagan bo'lsa-chi?", deb o'yladim. Yana "Jiguli"mni sekin haydab, u bilan izma-iz keta boshladim. Boyagi mardligim qayoqqa ketdi deng?

Tezroq yursa — tezlashaman, sekinlashsa-sekin. Qadamiga qarab, ichimni mushuk tatalab, "Yana kechikadigan bo'ldim-da!"

deb borayotib edim, "Niva" birdan to'xtadi-da, eshigi ochilib, bitta rus bolasi boshini chiqardi.

— Ha? — dedim. Mashinamni sal ilgari haydab, bu tomonning oynasini tushirdim.

— Chyo ti presleduish? — deydi.

Qotib qoldim.

— Izvenite, izvenite, — deb mashinasiga zehn solsam, ancha eski mashina.

O'tib ketdim. Yana kulaman: "O'l sen vahimachi! — deyman. — Qo'rqqanga qo'shaloq ko'rinadi, degani shu ekan-da... Dadil bo'l-e! Odamsan-ku, anavi "diktator"lar paydo bo'lishidan oldin ham bor eding-ku? Xalqdan ibrat olmaysanmi? Xalq uyg'onayotir-ku...".

Ana shunday qilib, yo'lda davom etdim. Shaharga kirib keldim.

Lekin bir narsani yashirmay aytaman: hali-hamon shahar ko'chalaridami, ovloq joylardami — yashil "Niva"ni ko'rsam, yuragim orqamga tortib ketadi.

Nega bunday? Aqlim yetmaydi. Balki buyam o'ylab ko'riladigan holdir.

1987

XUMOR

Assalomu alaykum!.. Rahmat. Yo'lda tushaman. Termizga yetmasdan. Statsionarga boryapman. Rangimni ko'rib, hayron bo'ldingizmi? Kasalim yuqumli emas. Ishonavering... Rahmat-e. Avtobusga yetib borgunimcha jo'nab qoldi... Kuz tushib qoldi-ya. Ah, qanday yaxshi fasl. Shoirlarning sevgan fasli. Abdulla Oripovni yaxshi ko'rasizmi? Menga juda yoqadi. Eslaysizmi, kuz turkumi bor:

"Ochiq ayvon ostin maskan etgan dam
Xazon davrasida kutaman seni...".

Yaxshi-i.

Paxta tergansiz-a? E, nima deyapman. Paxta termagan o'zbek bolasi bor ekanmi!

Ammo-lekin boshqalarni bilmayman-ku, men... paxta terimi desa, jonim qolmasdi: qanot bog'lab uchgim kelardi. O'ziyam yaxshi-da, a?

Shunday ochilib, charv moyday oqib yotgan bo'lsa! Etakni emas, qopni sudrab ketaversang-u, og'zini ochib, tergan paxtangni ichiga otaversang. Men shunaqa qilib terardim. Yaxshi terimchi edim. O, ilg'or edik. Texnikumdayam alohida brigadada terardim... Sizga xalaqit bermayapmanmi? Yo'q, chalg'itmayapmanmi demoqchiman?.. Rahmat. Juda zerikdim... Bir kishi bilan gaplashgim keldi. Qarasam, yap-yangi mashina yaltirab kelyapti. Kel-e, deb tavakkal qilib qo'l ko'targandim. To'xtadingiz. Baraka toping. O'zi bu yerning odamiga o'xshamaysiz? A-a, o'zimam sezdim-ov! Tomosha yaxshi-da, birodar! Ayniqsa, kuzda!..

Men "kuz-kuz" deyapman, hayron bo'lmang. Mana shu dardim ham kuz bilan bog'liq, aka. Shunday... E-e, kuz! Ha-ha-ha! Siz she'r yozganmisiz? Men yozganman. "Kuz" deb... "Ku-uz!"

deb, yo‘g‘on undovni qo‘yganman-u, tamom! Nimani yozishni bilmayman. Bir kecha oy haqida yozmoqchi bo‘ldim. Undayam shu ahvol: “Oy!” deb sarlavha qo‘ydim-u, qoldim. Deraza oldida o‘tirgandim. Oyga tikilaman deng. U ham shahar osmonida xira bo‘lib ko‘rinadi.

Texnikumda o‘qib yurganimda... Xadradagi “Gorkiy texnikum”ni bilasizmi? Imoratning nomi shu. Biz qurilish texnikumida o‘qirdik, yotog‘imiz ham o‘sha yerda edi.

Men to‘rtinchi qavatda turardim. Pastda — fontan. Qizlarning kokillaridek...

Yaxshi vaqtlar edi.

Ba’zan texnikumga shoirlarni chaqirardik. O‘zim to‘garak boshlig‘i edim. Haligi ashula, raqs to‘garagimiz bor edi. Rubobniyam o‘shanda durust chertardik.

Ajoyib vaqtlar edi.

Lekin bizni biron qiz ham yaxshi ko‘rmas edi-da!.. Mana, aftimga qarang... Kechirasiz, qaramasangiz ham mayli. Juda badbasharaman-da. Tag‘in, garmon bezlari taraqqiy etganmi, qarang, mirzaterakday bo‘lib ketganman. Mana, kallada soch ham yo‘q... Soch-ku keyin to‘kildi... Lekin bitta marg‘ilonlik qiz sal mayl bildirgan edi. Yolg‘onchi bo‘lmay. O‘zlariyam juda novcha, xipcha qiz edilar. Yonimizda filfakda o‘qirdilar. Yaxshi ashula aytardilar. Biz rubobda jo‘r bo‘lardik... Goho filfak bilan kelishib, konsert qo‘yardik-da. Shunda repititsiyada uchrashardik. Bir marta... xonamga kelganlar. E, aytishga uyalaman: xonani ozoda qilib o‘tirsang, o‘lasanmi deng! O‘zing shoirtabiat-u, ahvoling bu... Xonaga kirishing bilan achigan non-u yuvilmagan paypoqning hidi anqirdi.

O, u kishi o‘shanda mening bir maykamni yuvib bergan edilar. Begona qiz-a! Voy, qanday oliyjanob edi!.. Men bo‘lsam, uyatdan o‘lib qo‘ya qolay derdim. Rostini aytsam, keyinini o‘ylamasam, to‘rtinchi qavatdan o‘zimni tashlardim...

U kishimi?

Bitta domlasiga tegib ketdi.

Ular Bo‘ka rayonida paxta terishardi-da. Biz Oqoltinda. Borib turardim. Qovun-tarvuz olib... Bir ajoyib yigit bor edi. Tarixdan

juda zo'r edi. Ularning brigadasiga yetgandan keyin, o'sha yigitni topardim. U Nasibaxonni chaqirib chiqardi.

He, ba'zan kechasi yetib borardim. Biz ham paxta teramiz-da! Keyin u yoqqa jo'nardim... Keyin u kishi shiyponga ketardi. Men Oqoltinga qaytardim. Yo'li anchagina bor. Ba'zan xo'rozlar ikki qichqirganda yetib kelardim... Lekin sira xafa emasman. Xafalik qayda! Chopib-chopqillab o'sha yo'lni bosib o'tardim.

E, u tunlar!

Kechirasiz, bu juda laqqi bola ekan demang... Rahmat. Endi odam xijolat bo'ladi-da.

Biz borganda, ya'ni, men borganda, Nasibaxon chiqqandan keyin xirmonjoyga o'tardik-da, yashirinib, paxtaning ichiga kirib olardik. Yosh bolakaylardek-a! Keyin yonma-yon cho'zilib yotib, gurung qilardik. Haligi paxtaning chigitini qirs-qirs chaqib... G'alati ta'mi bo'ladi, bilarsiz?

Nima to'g'risida gaplashganimiz esimda yo'q. Romantik ekanmiz-da! U kishiyam g'irt romantik ekan!

Ana shunda uchinchi yili paxtaga chiqqanda, Nasibaxon aytdilar. "Men erga tegaman", dedilar. Lekin, "Siz xafa bo'lmang, hamisha yuragimda qolasiz", dedilar.

Ana!

Sentimentallikmi? Ha. Lekin bo'lgan gap — shu. Men indamadim. Keyin, ishonasizmi, yig'labman: "Siz ham mening yuragimda qolasiz", debman.

Endi o'sha gaplarni eslasam, uyalaman.

Lekin, o'shanda... qiziq-da, shunday deyish, hatto yig'lash ham menga yoqqan edi.

Shunday holatga tushganmisiz?

G'alati ekanmiz-da...

Keyin biz o'qishni bitirib vatanga qaytdik. Nasibaxonni burnog'i yili televizorda ko'rdim. Vodiyning qaysidir bir rayoni havaskorlarimi, folklor ansamblimi — chiqish qildi. Shunda xorda ko'rdim. Kim biladi, balki, o'xshatgandirman. Nima?.. Uylandim, uylandim. Xotinimdan roziman. Juda xursandman.

Rayonga kelgandan keyin qurilishda ishlay boshladik. Injener yordamchisi. Pul bor... Lekin bu yerdayam bitta qiz qarama-

sa bo‘ladimi! Tavba qildim: mendan xunuklar uylanib ketyapti. Men — so‘qqabosh. Bitta kampir onamiz bor. Kimning uyiga borsa, rad javobi olib keldi.

Sababini keyin eshitaman: sochim kammish, yuzim bujirmish... Yuzga donacha chiqqandan keyin buziladi-da...

Bor-e, o‘zbek topilmasa, boshqasiga uylanaman, dedim. Qo‘l ostimda qizlar ko‘p edi: biri — betonchi, biri g‘isht teradi. Bechoralar qora mehnatdan qochmaydi-da. Bizda, masalan, rus qizlari paxta terishni bilmaydi, og‘ir mehnatdan qochadi, deyishadi. He, bekor gap. Qaysi o‘zbek qizingiz qurilishga borib, g‘isht terib yuripti? Qaysi biri bo‘yoqchilik qilyapti? Kombinizonni kiyib olib... To‘g‘ri, boshqa joylarda bunaqa ishlarda o‘zbechkalar ham bordir, albatta. Lekin bizda yo‘q edi. Bu — fakt.

Shunday qilib, bittasiga uylanib oldim. Meni tushunadi. Shundan ortiq baxt bormi?

Men savolni dangal qo‘yganman: “Xunukman. Kalman... Mana, arvohga o‘xshayman”, deganman. Anisa: “Seni shu xunukligingni, arvohga o‘xshashligingni yaxshi ko‘raman”, degan.

E, sevishib qolganmiz!

Oldin haligiday uzoq-uzoqdan qarash, keyin salom-alik... Keyin qo‘lim bo‘sh bo‘ldimi, unga qo‘shilib g‘isht tera boshlardim: nima uyati bor?

Shunday qilib... Yo‘q, bola yo‘q, aka. Ikki marta yetti oylik, sakkiz oylik bo‘lib tushdi. Hayronman, lekin endi-endi buning sababini tushunyapman...

Aka, siz paxtaga sepiladigan dorini hidlaganmisiz? O, unda gapimiz qovushmaydi...

E, qiziqmisiz! Hidlash ham gapmi!.. Men sizga qanday tushuntirsam ekan?

O‘ylab ko‘ring: oltinchi sinf bolasisiz. Endi o‘n ikki-o‘n uchga kirgansiz. Lekin, bizning rayondasiz... Bizda paxta ekilmaydi-da. Tog‘lik. Ammo paxta terishga orzumand bo‘lib yuribsiz. Yo‘q narsa — hamisha qiziq bo‘ladi. Buning ustiga, paxta — o‘zbek xalqining boyligi, g‘ururi deb tursalar!

Kitoblarda — uning rasmi! Pioner jurnallari, gazetalarida yosh terimchilarni to‘xtovsiz maqtashadi deng.

Eslang: paxta naq ochilganda, dalaga kirganingizda, dastlab dimog'ingizga nimaning hidi urilgan?

Do-ri-ning, balli!

Endi, aka, har kim — har xil bo'ladi. Men o'zi go'daklikdan ta'sirchan, har narsaga beriluvchi bo'lsam kerak-da. Ishoning-ishonmang: ilk bor paxtazorga kirdim-u, dimog'imga o'shaning qo'lansa hidi urildi. Sal boshim aylanib ketdi.

Keyin o'zimga keldim. Keyin, yana ishonmasangiz o'zingiz bilasiz, paxtaning hidi deganda — men o'sha dorining hidini tasavvur qiladigan bo'lib qoldim.

O'ziyam shunday-da.

Ayniqsa, o'sha yillarda...

Yo'q-yo'q, siz uning hidini hidlab, ochig'ini aytaman, menday rohatlanib ko'rmagansiz.

Nega kulasiz?

Tasavvur qiling: keng paxtazor! Orzu qilgan paxtazoringiz! Oppoq ochilib yotibdi. G'ururingiz, faxringiz... Xo'sh, uning hidi sal qo'lansa ekan, nima bo'pti?

Buning ustiga, o'shanda uni hech kim "ximikat-yomon" demasdi. Bemalolchilik... Shiyponimiz anavi yerda-yu, bu yoqdagi ikkinchi terimdan chiqqan dalaga samolyotdan dori sepishardi. Sal sasirdi-yu, baribir-da: u sepilishi kerak, g'o'zaning bargi to'kilishi kerak. Aks holda mashina kirolmaydi. Terim kechikadi.

Keyin sharmandalik!

Men uning hidini yomon degan kishi bilan o'shanda ham... bo'g'ishardim-ov.

Ishoning, u mening... o'sha hid mening eng aziz taassurotlarim bilan bog'liq!

Bundan tashqari, men sizga ochig'ini aytishim kerak, kishi o'sha hidga o'rganar ekan! Mana, sigareta chekasiz, yaxshi. Birovlar nos otadi, nasha chekadiganlaram yo'q emas... Xullas, dastlab chekishganda, boshlari sal aylanadi, ko'ngil bezovta bo'ladi, hatto qusadi. Lekin keyin-chi?

Men bu doriga ana shunday xumori bo'lib qolgandim desam, hayron bo'lmang.

E, aka!

Bu dunyoda yaxshilab, o'ynab-kulib, zavqlanib yashash kerak... Endi o'zingiz o'ylang, mening butun zavqim-yashash tarzim o'sha hid bilan bog'liq-da! Hali men "dardim kuz bilan bog'liq" dedim shekilli. Qarang, to'g'risini aytib qo'ya qolgan ekanman.

Bolalik ham, he, texnikum, Nasibaxon bilan xirmonda gurung... O'sha xirmondan ham men rohatlanardim-da: nima, chigitni qirs-qirs sindirib — tishingizda sindirib yotganingizda, o'sha hidni sezmaysizmi?

Siz sezmagansiz-da, xolos.

Biroq, o'shaning nash'asi sizning tomirlaringizdayam bor!

E, nimalar deyapsiz?

Kechirasiz...

Nima? Paxtadami?

E, o'n yilcha ishladik-da!

Qurilishda ishlab yuribman deng. Keyin... Turib-turib yuragim siqilardi. Bir narsalarning xumori tutadi. Nasibami deyman. Aylanaman, izg'iyman... Ittifoqo kuz kelib qoldi-yu, bizdan ham besh-o'n kishini qo'shni rayonga paxta terimiga olib chiqishdi.

Bordim. Xirmonjoydan o'tdim. Dalaning yoqasida turibman. Ishonasizmi, aka, xuddi begona joyga kelib qolgan musofirdekman. Paxtayam paxta emasday.

Bilsam, bu dalaga ancha kunlar oldin bir marta dori sepilgan ekan-u, havoga uchib ketgan ekan.

Ta'bim xira bo'lib, orqaga qaytdim: dalaga kirgim kelmaydi. Tentirab yurib, bir garajga borib qoldim. Ko'p tunuka banka, temir bochkalar qalashib yotgan ekan.

Shunda dimog'imga go'yoki atirning hidi kelib qoldi-ku! Chopib bordim. Xuddi ovcharkaga o'xshab iskalanib ketdim. Bular butifosdan bo'shagan idishlar ekan.

Shu hidlayman-e!

Ko'pdan beri hidlamaganim uchun bo'lsa kerak, bir mahal boshim aylandi, ko'zim tindi, o'xchib chiqib ketdim. Ariq bo'yiga borib o'tirdim. Biron soatdan keyin o'zimga keldim.

Keyin... shunday roha-at!

Bilaman, siz menga qarshi gapirasiz hozir: bu fikrlarimga mutlaqo qo'shilmasligingiz mumkin. Mayli. Men sizga "Nega chekyapsiz? Sigareta ziyon?" demayman ammo.

Mensiz ham, ana, qutisiga yozib qo'yipti.

Endi-endi paxta dorisi ham zararli degan gaplar chiqa boshladi.

Inkor etmayman: bo'lishi kerak!

Ammo... paxta-chi? U davlatga kerakmi, yo'qmi, aka? Axir, paxta davlatimizning tirgaklaridan, ustunlaridan-ku! Boyligimiz, faxr...

Biz uni yetkazishimiz kerak ekan, sal ziyon ko'rsak, nima qipti?

U yog'ini so'rasangiz, zararsiz narsaning o'zi yo'q!

Shu nafas olayotgan havoingizdayam zararli mikroblar bor. Mashinaning orqasidan chiqayotgan tutun ham — koni ziyon... E, hamma narsani o'ylab, har narsadan hadiksirab yashasang, yashashning qizig'i qolmaydi...

Hozirmi?

Yarim kilo selitram bor. Ustiga suv purkab turaman. Shuni iskab-iskab qo'yaman. Namiqqan tuzning hidi keladi-yu, harna-da...

Ha-da, chiqdim-da keyin ham...

Bultur Jindibuloqqa borib, sakkiz kun mexanizatorlarga qarashdik. U yerda ikkita dalaga samolyotdan butifos sepishayotgan ekan. Keyin men atay ularning xizmatiga o'tdim.

Yaxshi to'lasharkan. Shunga qaramay, u yerda ishlovchilar, talabgorlar kam ekan.

Qiladigan ishim — beton hovuzdan dorini paqirlab olish, oborib, samolyotning bakiga quyish. Ba'zan hovuzdagi doriga suv ozroq qo'shilgan bo'lsa, odamni juda tentiratib qo'yadi. Shunda hech kim ishlamay qo'yadi.

Men ishlardim...

Axir, kimdir ishlashi kerak-ku?

Keyin, ancha-muncha pul bilan, maza qilib qaytib keldim.

Nega menga munday tikilasiz?

Rangim...

Aytdim-ku, agar kasalligim bo'lsayam, yuqumli emas. Yuqumli bo'lganda, allaqachon Anisaga yuqib qolgan bo'lardi. U xotinim, axir...

A? Yo'q, bilmaydi. Aytmayman: nima qilaman aytib?

Bilaman: u qarshilik qiladi. Yaxshi bilaman: u mening aroq ichmaganimdan xursand. Sigareta chekmaganimdan xursand. Rus ayoliga nima kerak?

Kechirasiz, men endi... o'zimizning ayollarga qiyoslab gapir-yapman.

Labbay? Ha, ba'zan qon qusaman. "Tuberkulo'z bo'ldimmi?" deb do'xtirlarga uchrovdim... statsionarga jo'natishdi. Bir tekshiruvdan o'tishing kerak deyishdi...

Bugun rayonga qaytsam kerak.

Ha-ha, soch ham keyin, ayniqsa, bultur to'kilib ketdi. Og'izga qarang, o'zimning tishim emas. Yarmi sadaf, yarmi plasmassa...

Ha, quvvatim yo'q... juda oz, aka... Hali aytdim-ku, avtobusga yetolmadim.

O'zimizning doktorlar "malakrov" deyishdi. Jigar ham sal og'-rigan bo'lishi kerak.

E, issiq jon-da! Odamlar samolyotga tushishdan qo'rqadi. Mashinaga minishdan qo'rqadiganlari ham bor. Ammo o'shalar to'g'ri yo'lda bir qoqilib tushishsa, olamdan o'tib ketishi mumkin.

Ammo ertalab juda mazam qochdi. Ta'bim ancha xira bo'ldi...

Nima dedingiz?

Yot desa — yotamiz-da...

Kuz kelib qoldi-ya, aka!

Qarang, chug'urchiqlar ham kelibdi! He-e! Ku-uz!.. Shoirlarga yaxshi-da!

Bizlar... bizlar zavq olishni bilamiz, xolos.

A? Uzoqroq yotib qolsam, o'rmalab bo'lsayam chiqaman. Kuz kelibdi-yu, dalani ko'rmasam bo'ladimi?

Maqsad? Ham xumorni qondirish, ham hissa qo'shish.

Labbay?.. Siz bir narsani tushunmayapsiz: u dori— mening... Kayfim, mahbubam, Nasibam... Qolaversa, tarjimayi holimga singib ketgan, axir! Tushunyapsizmi? Mening butun... hayotimning

ma'nosi, Vatan oldidagi burch, ilk muhabbatim... o'shalar qatorida turadi.

Undan voz kechish...

... Ha-ha-ha! Siz sigaretani tashlab ko'ring-chi! Qayda! O'pkasi chirib ketayotganini apparatda ko'rganlarning ham chekishni tashlamaganini bilamiz.

Shunaqa bo'lar ekan-da hayot!

Amerikada taqiqlangan?

Iltimos, to'xtating... Anavinga qarang! Yo'l yoqasiga! Ajriq-zorgayam sepishipti-ku? Sap-sariq bo'lib yotipti!

Nima?

Yo'q-yo'q, bir kayf qilib olay... Boshqa mashinaga osilarman keyin. Bu yog'i yaqin qoldi.

1987

O'ZBEK XARAKTERI

Men bir voqeani aytib beray.

Ikkinchi kursda paxtaga bordik. O'sha Bo'ka rayoniga. Chetdagi bir kolxoziga. Mana shu o'zimizning Surxon vohasiga o'xshab ketadigan joylar ekan: har qadamda qiyoqlar o'sgan. Bog'-bog' yosh qamishning tagi bilan o'tqazib qo'yganday. Yeri jiqqa ajriqzor. Mol o'tlaydigan, bolalar chillak o'ynaydigan yer-da!

Qadrdon, men uning o'zimga, mana shu ko'ngil qurg'urga yoqqan joyini aytdim: bunaqa joylar yoqadi-da!

Xullas, ana shu ajriqzordan sal o'tgandan keyin qishloqcha boshlanadi. Yigirma-o'ttiz xonadon tursa kerak. Tomlari bari — loysuvoq, devorlari guvala. Biz borganda jami tomlarga pichan uyulgan,yomg'ir yog'ib o'tgan payt edi, pichanlar sap-sariq. Ba'zisining ustida yosh bolakaylar o'tirardi.

Bizni ko'rib qiyqirib yuborishdi. Bechoralar... Toshloq ko'chada mashinamiz to'xtadi. O'qituvchilar o'zaro kelishdilar. Bizni shu yerdan burib, pastlikka endirib ketishdi.

Bitta brigadirning bitmay qolgan peshayvonli imoratiga joylashadigan bo'ldik. Buyam shunchaki somon suvoq qilingan. Deraza-romlari yo'q. Yer zax. Odatdagi... baraklardan farqsiz edi. Farg'onalik, toshkentlik bolalar orasida mendan yoshi ulug'lari ko'p edi: birlari armiyani bitirib kelgan, birlari texnikumni... Biz endi, o'zingiz qatori o'nni bitiriboq, universitetga kira qolgan edik. Shuni aytish kerakki, savod masalasida ham ulardan kam emas, ba'zan balandlik ham qilib qolardik: harqalay o'nni bitirib, to'g'ri universitetga kirgan bolamiz. Bilimlar hali svejiy... Bundan tashqari, o'zingizga ma'lum, kamina kutubxonaning, ayniqsa, fundamental kutubxonaning faol o'quvchilaridan.

Lekin uyatchanligimiz ham bor. Baribir ularga — vodiylik, toshkentlik bolalarga nisbatan qishloqimiz-da, to'g'risi. Balki "uddalik" bobida ham ancha jo'n edik.

Yo‘q? E! Sizni o‘sha uyga joylab qo‘ysa, nima qilardingiz? Kolxoz idorasidagi bug‘altirning xonasidan pechni qo‘porib kelarmidingiz? Kelolarmidingiz? Yo‘q. Deraza o‘rniga nima tutar edingiz? To‘l... Uni qayerdan topardingiz? Ana shunday... Men endi “udda” deyapman, gap shundaki, o‘sha paytda ular menga hatto olg‘ir bo‘lib ko‘ringandi... Ha-da, uy isib qolgandan keyin albatta yoqadi!

O‘rmon degan bir kurskomimiz bor edi. Novcha, oriq yigit. Uch yil universitetga kirolmagan. Sibirga pomidor, piyoz oborib sotgan. Poyezddagi sarguzashtlarini eshitsangiz, hee... Pishiq bolalarda! Komsorgimiz ham Azimjon degan yigit edi. Nuqul Remark bilan Xemingueyni o‘qib: “Bizning yozuvchilarimiz yolg‘onchi”, deb yurardi. Men? Albatta unga qarshi turardim!..

Shunday qilib, joylashib oldik. Yerga poxol to‘shadik, ustiga chodir yoydik. Keyin, ko‘rpa-to‘shakni yozdik.

Choynak, chelak ham topib kelishdi.

Kech bo‘lib qolgan edi. Bilasiz, dastlabki kecha uxlash qiyin. Latifa aytishardi bolalar: “Siz ko‘rgan o‘sha afandi, siz bilgan o‘sha afandi...”.

Bolalar darhol to‘rni, yon tomonlarni egallab olishgani uchun menga eshik og‘zidagi joy tekkan edi, bilmadim, kechasi eshik ochilib ketganmi, sahar tursam, burun bitib qolgan.

Havoda zildek og‘ir, qoramtir bulutlar aylanar, lekin etakdagi paxtazor yaqqol ko‘zga tashlanar edi. Ikkinchi terimdan chiqqan. Ko‘p g‘o‘zalar barg to‘kib, sarg‘ayib qolgan.

Ayvon ustuniga suyanib, tomosha qila boshladim: paxtazor chetida tutlar. O‘sha tutlar... U yer-bu yerda chug‘urchuqlar galasi uchadi. Tutzorning narigi tomonida bo‘zrang bir uzun imorat ko‘rinardi. Uning oldida bakni qaynatishyapti shekilli, bak karnayidan qizil alanga chiqib qolardi.

Keyin, shundoq pastlikdagi — paxtazorni bizdan ajratib turgan ariq bo‘yidagi yolg‘iz kulbaga ko‘zim tushdi. Uning ham tomiga pichan bosilgan. Pichan ustida chumchuqlar g‘ujg‘on: chiriq-chiriq... Ariq bo‘yida esa bir qoraqalpoq kursdoshim, ha, o‘sha — Saparboy maykachan bo‘lib chopib yuribdi.

Bet-qo‘lni yuvgani pastga endim.

— Yechin. Yugur. Fizkultura qil! — dedi Sapar.

— E, piskulturam chiqib turibdi, — dedim.

Shunda qarasam, haligi kulba... odam yashaydigan uycha ekan. Men, bilmadim, uni bostirma deb o'ylabmidim, hayron qoldim. Kichkina derazasi bor.

Uychaning oldida esa, bilasizmi nima, o'rmak... o'rmak tikilgan. Bir ayol katta taroq bilan gursillatib urib, kalavani qatimlar orasidan u yoq-bu yoqqa otib, sholcha to'qiyapti. Sekin unga yaqin bordim: bu manzara ham bizning ko'ngilga yaqin-da, qadrdon!

Ayol sharpamni sezib, boshidagi gardi ro'molini peshonasiga tushirdi.

— Salom alaykum, hormang, opa? — dedim.

— Keling, uka, — dedi u. — Xush kepsizlar... Yaxshi joylashib oldinglarmi?

— Ha, rahmat. Juda-a yaxshi joylashdik... Shu uyda yashaysizlarmi?

— Ha, — dedi u. — Xo'jayin molga ketgan.

"Molga ketgan!"

— Mol ham boqasizlarmi? — dedim.

— Ha, kolxoz bir otar berib qo'ygan.

"Bir otar!" O, Toshkentda bu so'zlarni eshitmaysiz-da, mehribonim. Ana shunday qilib, bularga birdan ko'nglim ilidi.

— Echkimi, qo'ymi? — dedim.

— Aralash.

Qarasam, uychaning nari tomonida uzun qo'ra bor. Tevaragi shox-shabba bilan o'ralgan. Sekin o'tdim. Qiy hidi... Ha-ha-ha! Qo'raning engaragidan qaradim: yetmish-sakson mayda mol sig'arkan... Men nimagadir, bu yerlarda ham odamlar faqat paxtani biladi deb o'ylardim. Endi deng, mol tufayli paxtayam ko'zimga yuz chandon yaxshi ko'rinib ketdi.

Buning ustiga, havo yumshoq. G'o'zalar yuvilgan, namxush. Barglari, poyalari sariq. Ariqchada tiniq zilol suv oqyapti... O! O'sha paytlar Bo'kadayam suvlar toza bo'lgich edi. Ximikatlar ham kam sepilardi, nazarimda. Lekin men bu tomonlariga e'tibor qilmaganman... Chunki o'zimiz tarafdayam ximikat, suv notoza, ul-bul degan gaplar kam bo'lardi.

Xullas, men Surxonning bir burchagiga kelib qolgan edim.

Shu payt uydan — yotog'imizdan bolalar ham birin-ketin ko'zlarini uqalab, har yoqqa qarab tushib kela boshladi. Ba'zisi Saparga qo'shilib chopishga tushdi. Ba'zilari paxtazorga oralab ketishdi. O'rmon aka o'rmak to'qiyotgan ayolning qoshiga keldi.

— Qalaysiz, opa? Hormang!

— Bor bo'ling, uka... Kelib zap ish qildilaring-da...

— Ha, endi, sizlarga yordam bermasak bo'ladimi? Ko'k choy bormi? Qurug'idan.

— Bor, bor. — Ayol etagini apil-tapil tushirib, taroqni tashlab, kulbaga kirib ketdi. Oyog'ida eski kirza etik, uzun sochlari uchida sochbog'. Rangi o'ngib ketgan ko'ylagi g'ijim. Sal o'tmay bir banka bilan bir parcha gazeta ko'tarib chiqdi. Gazetani O'rmonga berib, ustiga bankani engashtirdi. Bir hovuchlar choy to'kildi.

O'rmon:

— Bo'lar, rahmat, — dedi.

— Kerak bo'lsa...

— Kerak bo'lsa, yana so'raymiz...

— Bemalol, og'ajon. He, paxta, paxta... Mana, sizlar ham o'qishlarni qoldirib, ota-onalaringni tashlab keldinglar. Baraka topinglar. Rahmat...

— Endi, terish kerak-da! — dedi O'rmon aka... — Ha, paxtaning kilogrami necha tiyindan?

— Shu, o'n tiyinmi, besh tiyinmi, men ko'pam farqiga bormayman.

— E! Unday bo'lmasa kerak! — dedi O'rmon aka. Keyin kuldi. — Yaznamiz[1] bilsalar kerak?

— Ha. U kishi biladilar.

— Yaxshi... Sizlar ham biron yoqdan kelganmisizlar deyman?

— Yo'-o'q, biz shu yerning odami.

— Bundan boshqa uchastkalaring ham bordir-da?

— Yo'q, og'ajon. Bori shu... Buyam yaxshi. O'zimiz uch jon. Jiyaningiz otasi bilan ketgan... Cho'pon bo'laman deydi. Halizamon kep qoladi. Choyni qayerda ichasizlar?

[1] **Yazna** — pochcha (sheva).

— Choyni? Hm, buguncha endi yotoqda. Keyin yana o'ylab ko'ramiz.

Men O'rmon akani hozir qitmir, suqatoy qilib ta'riflayotganga o'xshayman. Yo'q, bir hisobda u o'zicha haq edi: bizniyam o'ylardi, harqalay. Shundan keyin terimga jo'nadik.

Kun chiqib, uyam sarg'ayib nur sochyapti. Biz etaklarni bo'yinga ilib, xuddi oshhalolga borayotgan podachiday ketyapmiz. E, do'stim, menga mana shunday kun zarda berib chiqayotganda namxush so'qmoqlardan yurish ham yoqadi-da!

Tepangda chug'urchiqlar o'ynaydi. Oyog'ingga ho'l yaproqlar o'ralashadi. Unda-bunda xirmon joylardan bug' ko'tariladi. Ko'rganmisiz? G'o'zaning qavachog'i yonishga mahtal bo'ladi. Uzoq vaqt uyulib yotsa, tutun ham chiqib ketadi.

O'sha kuni terdik. Uyat o'limdan qattiq... El qatori terdim. Lekin burun ochilmadi.

Qaytayotganimizda haligi kulba biqinida qozon qaynayotgan ekan. Endi Azimjon aka qozonga yaqin borib, hidlab ko'rdi-da:

— Osh, — dedi bizga qarab.

— Hu, — dedi O'rmon aka, — qozoni kichik ekan-da.

— Yuring, yuring.

— Shoshmang. Ho, xo'jayin!

Uychadan kalovlanib, qotma, qora choponining tirsaklari yirtilib paxtasi oqqan, soqoli o'siq, chuvak yuzli yigit chiqdi. Xuddi o'ngirini bosib oladigandek surilib-shoshilib kelib, biz bilan birbir ko'rishdi.

— Xush kepsizlar, xush ko'rdik! Qani, uyga marhamat!

— Oldin yuvinib olaylik-chi, — dedi O'rmon aka.— Aytmoqchi, bir ukamizning tomog'i shamollab qopti. Burning ham bitgan-a? — deb so'radi mendan. — Shu, shu... Dori-pori topiladimi? Medpunktlaring markazda ekan, bu yer — Kamchatka.

— E, topiladi-da. Dori topiladi! — Yigit etigini qo'lantayoq kiyib chiqqan ekan, oyog'idan tushib qoladigandek talpanglab uyga kirdi.

Keyin bir bog' ituzum olib chiqdi.

— Shu bo'ladi, tomoqqa bog'lasalar, — dedi.

— Bo'ladi, bo'ladi! — dedim. — Ozginasi bo'ladi.

— E, ozginani nima qilasan? — dedi O'rmon aka.— Hali yana kerak bo'ladi.

Ituzumni olib yotoqqa keldim. Unga tikilaman: tanish-da bu o'simlik ham! Qadrdon, bizdayam bir momo bo'lgich edi. Bobomiz bosmachilarning otlariga xashak bergani uchun "xalq dushmani" deb otilib ketgan, undan qolgan o'n bir qursoqni boqaman deb umrini toq o'tkazgan kampir edi. Ularniyam birin-ketin yaratganiga topshirib, bizning maymoq ota bilan qolgan...

O'sha kampir davolardi shunaqa ituzumlar bilan... tomoqlarimizni. Tildan tersak chiqsa, oq gulbutani quritib-ezib, kukunini separdi. Hech narsa ko'rmagandek bo'lib ketardik.

Omborimizda mana shunday ituzum bog'laridan yog'och qoziqlarga osib qo'yardilar.

Biz ham devordagi bir mixga osib qo'ydik. Keyin mevasidan bir hovuch olib, bo'z etakning chetidan bir parchani yirtib, mevani ezib-ezib tomoqqa ko'tardik.

Ertasi ko'zimiz charaqlab ochilib, terimga chiqib ketdik.

Bizga choy qaynatiladigan bak ortidagi kulbalarning orqasida hududsiz dalalar bor, biz o'shayoqda paxta terardik. Har joyhar joyda mitti-mitti shiyponchalar qo'nqayib turardi. Yeri zax, devorlari qabarib ketgan, atrofida tuproq o'ynab yotar, unda sichqon-kalamushlarning izlari ko'p edi.

Biz goho o'shanday kulbachalarga kirib dam olardik.

Men, men o'zim o'shanaqa joylarda izg'ishni yaxshi ko'rardim. Shunday shiyponchalarning yaqinidan albatta biron ariq o'tgan bo'lar, uning qirg'oqlaridan qamishlar g'ovlab ko'tarilgan, qamishlar ichida turfa tikanlar qizil, sariq bo'lib gullagan, o'shalarning ham yolg'iz tomoshachisi biz edik.

Ba'zan egatlar ichida tarvuz, qovun palaklari chiqib qolardi. Albatta, bitta-ikkita burishgan, tirishgan tuynak bo'lardi. Ammo uni yorib yesangiz, mazasi... tilni yoradi. E, azizim, menga — bir faqir studentga shunday tuyulgan-da! Bo'lmasa ichi tushgan, ayniy boshlagan tarrakning nimasi shirin? Balli, odam degan munday injiq bo'lmaydi: boriga qanoat qilish kerak...

Terimda esa, hamma vaqt qorningiz to'ygan qo'zining qorniday bo'lmasligi o'zingizga ma'lum... Bir tuyur go'sht-u makaron

solinib qaynatilgan sho'lan-sho'rva mana shunday... joningizga tegib ketadi: rahmat.

Hozir paxtani yomonlash, uning mehnatini olamdagi eng og'ir mehnat deb atash modada. Bir hisobda, haqiqatdan ham, shunday. Biroq, terim paytidagi romantika!

Tonglarni eslang! Tuprog'i nam tortgan so'qmoqlarni. Yiroqda arava yo'ldan ko'tarilgan changni ufqdan endi bosh ko'tarayotgan quyosh yog'dulariga yo'g'rilib, zarrin bir to'zonga aylanib turishlarini eslang! Buning ustiga, o'sha paytda: "Eng ulug' ishni men qilyapman! O'zbekning milliy iftixori uchun kurashyapman!" deb o'ylab tursangiz. Bitta o'rtog'ingiz o'yinqaroqlik qilib, kamroq paxta tersa, ko'zingizga yov bo'lib ko'rinsa...

Bitta go'zal, nozik qiz ipakdek barmoqlari chanoqlarga tilinib, qoni chiqib, doka bilan bog'lab olib, endi zo'rg'a terayotganini ko'rsangiz: "E, shaharlik oyimqiz! Soyapar-da, soyapar!" deb ichdan haqorat qilar edingiz!

Ha-da, avvalo, o'zim haqimda gapiryapman! Yo hikoyamni tugatib qo'ya qolaymi?

Mayli...

Rasvo bo'lib, shalabbo bo'lib yotoqqa yetib keldim. Ertasi saharlab turish kerak, terimga chiqish kerak. Yomg'ir, qor — paxtaning oldida kapeyka!

Kiyim-boshni yuvib, pechga tutib sal-pal quritdim. Keyin bir dono o'rtoqning maslahati bilan: "To'shakda qurib qoladi", deb kiyib yotdik.

Ertasi rasvogarchilik.

— Juda nozik ekansiz-da, shoir, — dedi O'rmon aka.

Nozik, xayolparast odamlarni "shoir" deb atash o'shanda rasm bo'la boshlagan edi. Qandaydir redaksiya xodimidan chiqqan deyishadi bu gapni... Bizning tarix-arxeologiya gruppamizdagi studentlar orasidayam redaksiyalar bilan yaqin yigitlar bor edi. Kamina ham redaksiyalar bilan bog'liq gaplarga qiziqardim.

Men kecha "anavi qizlar" yotog'idan kelayotganimda loyga belanganimni ayta boshlagandim, Azimjon aka dakki berdi:

— Ayrilganni ayiq yer, bo'linganni — bo'ri! Siz ketvoribsiz! Biz rosa izladik.

— E, u joy o'zi...

Saparboy — haligi qoraqalpoq yigit menga yaqin edi. Kim biladi, Surxondagi ayrim elatlarni o'zlariga yaqin olishadimi, deb o'ylardim. Endi albatta bu narsani yaxshi bilamiz... O'shanda shunchaki do'st, hamfikr edik. Shu yigit:

— Qol, sen uchun ikki fartuk paxta terib beraman, — dedi.

Ikki fartuk paxta — bu olamjahon mehnat! Bu — kamida — ikki-uch ming marta egilib-ko'tarilish degani. Yana qancha mashaqqati bor... Ko'nglim buzilib, unga nima minnatdorchilik bildirishni bilmay qoldim. Boshim aylanar, ichim o'z-o'zidan yonib ketayotgandek edi. Azimjon aka ham peshonamga qo'l qo'yib:

— Qoling. Mumkin emas. Jon ham kerak, — dedi.

Qarang, odamlar qanday realist.

Qoldim. Bolalar ketishdi. Uyda yotib qolgan bemor uchun ham shart shu edi: u yoq-bu yoqni supurib, sidirib qo'yishi kerak. Birato'la qutulay deb uyni supurdim. Ayvonlarniyam tozaladim. Axlatni imorat orqasiga o'tkazib to'kib qaytayotgan edim, bir manzarani ko'rib qoldim.

Jo'xoripoya chetida, yovvoyi supurgi panasida bitta o'n-o'n bir yoshlardagi bolakay qo'lchalarini tizzasiga tirab nari tomonga qarayapti. U yoqda bo'lsa, paxsa devorga taqab to'kilgan somon ostida bir sariq it yotibdi.

Men ham qiziqib, bolaning yoniga bordim. Shunda it g'ingshib, sapchib turdi-da, devordan lippa oshib o'tdi. Saldan so'ng mushtdek kuchukvachchani tishlab, buyoqqa sakrab o'tdi. Yerga qo'yib yaladi. Yana yotdi.

— Qiziq-a? — dedim.

Bolakay cho'chib tushdi. Aft-basharasi kir, telpagining qulog'i peshonasiga tushgan edi.

— Ha, — dedi u tashvish bilan. — Bu yer ko'cha, opketishadi bolalar... Men bolasini hovliga o'tkazib qo'yaman, bu uyasiga olib o'tadi. U yoq yaxshi-ku?

Men xo'rsindim.

— Ming qilsayam o'zining uyi-da... Sen kimning o'g'lisan?

Odamzod qiziq-da, a? Uning kimga o'g'il bo'lishini menga nima ahamiyati bor deng?

— Botir cho‘ponni, — dedi.

— Ha-a, ordeni bormi?

— Yo‘q. — U g‘amgin tortib qoldi. — Eshimboyning ordeni bor. Lekin qo‘yi kam...

Ana, yosh bolalar ham o‘sha maxinatsiyalarni bilardi.

— Hechqisi yo‘q, — dedim. — Seni otang ham oladi. Botir-boy zo‘r cho‘pon! A, uylaring shu devor orqasidagimi?

— Ye-e! — dedi u ustimdan kulganday. — Ana-ku! Sizga otam ituzum berganda, men derazadan qarab turib edim... Yana kerakmi? Ko‘zingiz yoshlanib ketyapti!

— Yo‘q. Ituzum bor, — dedim. — Aka-ukalaring ham bormi?

— Ukam o‘ldi. Doya kampir chala tug‘ilgan, dedi. O‘ldi. Ko‘mib keldik. Kichkina edi.

— Attang, — dedim.

Shu yerga kelib joylashgandan beri haligi ayol bilan erining yashash sharoiti, yotish-turishini ham ko‘rib turardim: ayol tong otmasdan uyg‘onardi: sigir sog‘adi, erini kuzatadi, keyin o‘rmak to‘qiydi... Kun ko‘tarilaverganda, ariqning u betidagi paxtazorga tushadi: kechgacha bir qopni tikka qilib qo‘yadi. Kechasi ham allamahalgacha ularning kulbasidagi yolg‘iz derazadan ariq bo‘yiga nur tushib turardi.

O‘rmon aka bilan Azimjon aka, tag‘in uch-to‘rt bolalar ularning choyini ichib chiqqan, bir-ikki marta ovqatlarigayam sherik bo‘lgandi.

Shu narsalarni o‘ylab: “Ishi og‘ir, bola tashlagandir-da”, deb o‘yladim.

Bilasizmi, ey qadrdon, ko‘zimiz ochiq bo‘lgani bilan ojiz ekanmiz-da: siz ham shunday g‘arib kulbalarda yashayotgan dehqonni, paxtakorni ko‘rgansiz. Albatta... Lekin buni tan olmas edik-a? Qanday ablah ekanmiz!

Tavba, buni tan olishdan uyalar edik. Birovlardan ham yashirar edik.

Shoshmang-shoshmang, bu yerda gap bor: bu narsa — faqat qo‘rquvdan deb o‘ylaysizmi?

Gumonim bor. Bechora o‘zbekni bilasiz-ku: o‘zi yemasdan mehmonga tutadi...

Kambag'alligini yashiradi. Qiziq-a? Holbuki kambag'al odam o'z holatiga ko'nikkan bo'ladi. Yashirmaydi. Biznikilar negadir... Xuddi juda boy edi-yu, birdan kambag'al bo'lib qolganday: shuning uchun o'kinch bilan buni yashirishga intilayotganday tuyuladi menga... Balki boshqa — bizning aqlimiz yetmaydigan sabablar bordir?

Bolaning ismi Abduqodir ekan.

Birga-birga ayvonga keldik.

— Itga tegma, — dedim. — Senga o'zingning uying yaxshi, unga o'ziniki yaxshi.

— Bu yerdan yomon bolalar o'g'irlab ketadi. Sotadi,— dedi Abduqodir.

— Kimga sotadi?

— Sotadi-da... Bitta gektarchi karis oltita kuchukni sotib olib ketgandi.

— O'qiysanmi?

— Beshinchida... Tushdan keyin maktabga boramiz. Hey keyinroq ko'rak chuviymiz.

— O'qish nima bo'ladi?

— To'xtaydi! — deb kuldi u. — Kelasi yildan paxtaga chiqamiz!.. Men hozir ham paxta teraman. Opamga terishaman... Kitob? O'qiyman. "Robinzon Kruzo" bor. Bitta feldsher tashlab ketgan. O'tgan yili... Ukamni ko'rgani kelgandi... Men yig'ladim. Keyin shu kitobni berdi. Yaxshi kitob!

Azizim, men ham xuddi shu bolakayning yoshida o'qigan edim o'sha kitobni. Siz ham...

Biografiyamiz qanchalar yaqin-a?

Hikoyamni cho'zib yuboryapmanmi? Shoshib qayerga borasiz, qadrdon? Goho miriqib gaplashib, o'ylashib olish ham kerak-ku? O'sha damlarni qaytadan yashab, a? U xotiralar odamning yuragini tozalaydi. Shundoq ham fisq-u fujurga, keraksiz koni ziyon o'ylarga to'lib ketgan bu ko'krak... Sigaretdan cheking.

Shunday qilib, Abduqodir bilan jo'ra bo'lib qoldik.

Tutzor ortidagi barakda qizlarimiz ham turardi. Ulardan ham ikkitasi kasal bo'lgan ekan, doktor keldi. Meniyam ko'rib, analgin-panalgin deganlaridan berib ketdi.

Uch kun qattiq yotdim.

To'rtinchi kun edi, shekilli, ayvonga chiqayotsam, Botir cho'pon bitta tarvuzni qo'ltiqlab pastga tushib ketdi. Shu kuni tushdan keyin, havo ochilib, kun yana qizidi.

Kechga tomon yana uyni supurib bo'lib, ayvonda ustun tagida cho'nqayib o'tirgandim. Abduqodir yarim palla tarvuzni ko'tarib, pishnab chiqib kela boshladi.

O'zi bitta tarvuz olib tushishgan edi...

— Sizga. Yeng, — dedi. — Otam berdilar. Opam, yesin dedilar... Keyin kechqurun uyga kirar ekansiz.

— Yemayman. Rahmat. Qornim to'q, — dedim.

— Yo'q. Yeysiz! — dedi u men bilan urishadiganday. — Siz kasal. Bu tarvuz yaxshi ekan.

— Yemayman.

Abduqodir turdi-turdi-da, tarvuzni shartta yerga qo'yib, chopib tushib ketdi.

Bolalar terimdan qaytgach, haqiqatdan ham Botir cho'pon chiqib kelib, bizlarni uyiga aytdi:

— Kelinglar, ukalar. Bir osham osh qilgan edik. Sizlarga rahmat. Bu yerda ota-onalaring yo'q...

— E, uyingizga sig'maymiz-ku? — dedi O'rmon aka.

— Ko'ngil keng bo'lsa, bemalol sig'ishamiz, — dedi cho'pon. — Tushinglar.

— Biz axir yigirma kishi!

— Bo'lmasam, yigitlar, o'ntamiz bugun mehmon bo'lamiz. O'ntamiz keyin! — dedi O'rmon aka.

Meni qo'ymay olib bordilar.

To'rt kishi zo'rg'a sig'adigan xona edi. Burchakda g'ishtin pech. Oqlangan. Lekin choyning dog'i, yog' to'kilgan. Yerga ikki qavat palos solingan. To'rda bir taxmon yuk. Ensiz-ensiz ko'rpachalar solingan. Tiqilishib o'rnashdik.

Botir cho'pon iljayib, quvonib dasturxon yozdi. Qo'sh-qo'sh yopgan non qo'ydi. Bir taqsimcha oq qandni sochib tashladi. Keyin ikki hovuch jiyda bilan mayiz ham sochdi. Keyin kattakon xum choynakka ko'k choy damladi. Ikki tovoq palov hash-pash deguncha yo'q bo'ldi. Keyin bosib-bosib choy icha boshlashdi.

Men... qanday o'tirganimni bilmas edim. Kasallikdan tuzalmaganim, injiqlik ham sababdir... Lekin bir burda non yeyishga istihola qilardim.

Bu oila — kambag'al oila edi.

— Ha, paxtalar ham oyoqlab qoldi... Qani, bu yashash qalay endi? — dedi O'rmon aka. — Yig'ayapsizlar deyman-a? Ha-ha-ha! O'zbekning odati shu-da: bolamga bo'lsin deydi...

— Ha, endi bizning otalar ham qilgan-da, — dedi Botir cho'pon. — Opangizga uylantirib qo'yishdi. Elni oldidan o'tdik. To'y deganday, xarajati bor-da...

— Lekin bizni aldashyapti, cho'pon aka! Kunlik mehnatimiz ovqatimizni qoplamaydi. Bir kiloga o'n tiyin to'laydi. Hozir o'n kilo terish o'limdan qiyin.

— Ha, endi chidaymiz-da, og'ajon. O'zimizni paxta, o'zimizni hukumat.

— Hey, tushunmay qolaman-da, bu ishlarni!

Ayol meni kuzatib turgan ekan.

— Shu ukamiz hech narsa tatimadi-da, — deb qoldi.— Yo bizni pisand qilmayaptilarmi?

— E, nimaga... — Olovim chiqib ketdi. — O'zim shu...

— He, ishtahasi yo'qdir-da, — dedi O'rmonjon aka.— Bo'lmasa ovqatdan ham tortinadimi odam!

— Ha, ishtaham yo'qroq... — dedim.

Tezroq chiqib ketgim kelardi. O'rmon akaning gaplari, so'roqlari jonimga tekkan edi... Nima? E, qadrdon, meni nahot tushunmaydi deb o'ylaysiz? Ha-ha! O'rmonjon akayam o'zicha haq edi... Masalaning boshqa tomoni ham bor: biz o'zimiz ham qornimiz to'yib yashamasdik. Bittasi yarim kilo qand obkelgan bo'lsa, boshqa bittasi o'g'irlardi, birovning kosasidagi go'shtni birov... Aytishga til bormaydi. Tutab ketasan, kishi.

N-nima qilishim kerak bo'lmasa? Hadeb qo'l uzataveraymi? Qo'ying bu gaplarni.

Og'a! O'sha sharoitda siz ham mendan o'zgacha tutmasdingiz o'zingizni!

Shu-shu, bularning uyiga qayta kirmadim. Cho'pon gapiradi, xotini aytadi, o'g'li chaqiradi. "Xo'p" deyman. Paysalga solaman.

Ularning kulbasiga kun ora kirib chiqadigan, dasturxonini quritadigan bolalar ko'zimga yomon ko'rinib qoldi. Asta-sekin ular bilan ham hamdardlikni uza boshladim.

Shunda, siz tasavvur ham qilolmaydigan bir voqea sodir bo'ldi.

Surunkasiga yomg'ir quya boshladi. Ikki kun ovqatsiz qoldik. Shundoq ham ko'p bolalar qarzdor bo'lishgan edi. Asta-sekin elchilarimiz qishloq ko'chalarida izg'iydigan odat chiqarishdi: kechasi bir mahalda o'ntalab, o'n beshtalab qovun-tarvuz ko'tarib kelishadi.

Ertasi shtabda janjal: kimdir hovlisiga o'g'ri tushganini aytib shikoyat qilib kelgan...

Ana, o'g'rilikkayam o'rgana boshladik.

Ammo eng katta o'g'irlik... Kechasi dovul bo'ldi. Bir payt eshik qattiq ochilib, shalabbo bo'lgan Botir cho'pon ko'rindi.

— Mollar chiqib qochdi! Yordam beringlar!

Qo'y-echkilarni nima hurkitgan — bilmay qoldim. Boshqalar qatori chiqib, izlab ketdik. Qishloq ko'chalarda deng, it ko'p. Balki bo'ri oralagandir? Yomg'ir bo'lsa chelaklab quyayapti... E, ko'p izladik. Dabdalamiz chiqib, qo'y-echkilarning bir bo'lagini paxtazordan, besh-oltitasini ko'chadan, ayrim xonadonlardan topib keldik.

Cho'pon eshik og'zida fonar yoqib, ko'zlari javdirab turibdi. Nuqul rahmat deydi. Ayol alqaydi. O'g'ilchasi xursand... Lekin bitta qo'zi topilmagan edi.

— Uni o'zim topaman. Sizlar dam olinglar endi... Topsam, o'zimning ikki qo'yimdan bittasini so'yib, qovurib beraman sizlarga, — dedi Botir cho'pon.

— Shunday qiling-e, bir go'shtga to'yaylik, aka! — dedi O'rmon aka.

Biz yotoqqa qaytdik. Endi... yana burnim bitdi desam, siznivam g'ashingiz keladi.

Mayli, bunday deyin: shu kecha besh-oltita yigit ham qattiq shamollagan ekan.

Soat ikkimidi-uchmidi, nafasim qaytib, uyg'onib ketdim. Eshik qiya ochiq, g'uvillab shamol kirayotgan ekan. Tagidan tortdim, yana ochildi. Tob tashlaganmi, nima balo. Irg'ib turib tut-

qichdan ushlaganimni bilaman, birov eshikni naryoqqa tortdi. Men buyoqqa. Qo'rqdim. Keyin lang ochib yuborgandim, Azimjon aka turgan ekan.

— E-e! Baqqa ke. Ustingga bir narsa il, —dedi u kishi.

Choponni yelkaga tashlab chiqsam, ustun yonida O'rmon aka, Mirzag'olib degan polvon yigit ham turishibdi.

Mirzag'olibning ham yoshi mendan ulug', "Rais" degan laqabi bor, o'zi ehtiyotkor, "qirqoyoq kiradi", deb kechasi qulog'iga paxta tiqib yotadi.

Azimjon aka eshikni zichladi-da:

— Yur. Gap bor. Bo'lgan ish bo'ldi... Sen sho'rlik ham bir maza qil, — dedi.

— Lekin guldur-gup, — dedi O'rmonjon aka.

Ularga ergashib, yo'lga chiqdim. O'rmonjon aka oldinga tushdi. Yomg'ir tingan, ammo sovuq kunlardan darak beradigan shamol esar, u ust kiyimlarimiz o'ngirlarini ochar, bag'rimizga o'zini urar edi. Endi itlarning tovushi ham o'chgan.

Biz yo'l yoqasidan orqaga — qishloqqa bizni olib kelgan "tomon"ga ketardik.

Ancha yo'l yurib qo'ydik. Dimog'im ham ochildi ancha. Bir-ikki marta:

— Qayoqqa boryapmiz o'zi? — deb so'radim.

Ular aytishmadi. Keyin bo'lsa... Xursand bo'lib ketdim... ha, zimziyo tunda qandaydir sirli ish bilan qayoqqadir ildamlab ketishning ham zavqi bor-da!

He, qishloq orqada qolib ketdi... Boshda aytganim— qiyoqlar bog'-bog' qilib yerga o'tqazib qo'yilganday ajriqzorga yetib keldik. Bu tomonda bir-ikkita it uchradi, qochib ketishdi.

Biz O'rmonjon akaning orqasidan boryapmiz. Ayrim joylardagi qamishlar yondirilgan ekan: namiqqan kulning hidi anqiydi. Namchil yer g'ij-g'ij etadi.

Alqissa, qamishlar odam bo'yi o'sgan, jangalga o'xshash yerga borib qoldik. Shunda bir qo'zichoqning ojiz ma'raganini eshitdim. Ammo hali gap nimadaligini, bu safardan murod neligini bilmasdim. Oqibat, qamishlarga oraladik va O'rmonjon aka qo'l fonarini yoqdi. Zumdan keyin biz to'rtovlon oyoqlari kuliklab bog'lab,

yotqizib qo'yilgan qoragina, jiqqa ho'l bo'lgan, ko'zlari yiltirab zo'rg'a ovoz chiqarayotgan qo'zichoq tepasida turardik.

— Xayriyat, — dedi O'rmonjon aka. — Men daydi itlardan qo'rqqan edim... Ergashvoy, chorvani bilasan, it ham qo'zichoqlarni yeyishi mumkin-a?

— Shunday voqealar bo'ladi, — dedim. — Lekin, bu kimning qo'zisi?

— Bizniki... Bizniki endi. Mirzag'olib, boshlang endi! Mana, mening pichog'im o'tkir. Lekin suyakka urmang.

Juda jo'n ekanman deyman-da!

— Vey, shuni so'yasizlarmi? — depman.

— Bor. Hey u yerdan yo'lga qarab tur!

— Yo'q, axir bu kimniki? Balki kolxozniki, balki... E? Botir akaning yo'qolgan qo'zisi emasmi?

— Obbo, senga nima deyapman! — deya O'rmonjon aka yelkamdan ushlab orqaga burdi. — Bor-da endi! Kolxozning yonini oladiganni ko'rdik! Kolxoz... Padariga la'nat! Bizni ochdan o'ldiradi! Botir ham bir qo'zidan ayrilsa, ochdan o'ladigan kimsa emas!

— Axir, insoflaring...

Shu gap bilan bu yigitlar tarbiyalanib qolarmidi? Yo'q! Men o'shanda faqat nafratlanar, nochorlikdan fig'on chekar edim.

To'g'ri, qishloq tomonga bir-ikki qadam bosdim. Lekin chamasi, kursdoshlar orasida yolg'izlanib qolish, ming bir ta'nalarni eshitishdan ham qo'rqdim, shekilli.

Bundan tashqari, anglab olmagan esam-da, bu yigitlar to'qlikka sho'xlik qilmayotganlarini ham tushunib turardimki, garchi bu hol ularni oqlashga tirnoqcha asos bo'lmasa ham, ko'nglimga tasalli, o'z-o'zini aldash deysizmi — shularning biri edi.

Xullas, men o'sha qo'zining go'shtidan bir bo'lak yemagan esam-da, baribir o'g'irlikka sherik bo'lgan edim.

O'rmonjon akayam, Azimjon akayam bir haftalargacha mendan xavfsirab ola qarab yurishdi.

Men ular bilan gaplashmay qo'ygandim, xolos.

Nima dedingiz?

Ha, o'sha yerda so'yishdi, Mirzag'olib so'ydi. Hash-pash deguncha terisini shilib, kalla-pochasini otvorishdi. Keyin bir to'p qamishni yondirib, qo'riga jigarini pishirib yeyishdi.

Yemadim dedim-ku. O'zimni ishtahasi yo'qqa urdim-da... Juda bo'lmagandan keyin: "Hammalaringdan jirkanaman!" deb chetga chiqdim. Keyin kutdim.

Be-e, cho'ponga borib siz ham aytmasdingiz. Keyin ketdim. Yotoqqa kirib yotdim...

Nuqul yig'lagim keladi, ukkag'ar. Botir akaga, ayoliga achinardim. Keyin, yigitlarimizgayam achindim... Ha! Ular qachon kirib yotishganini bilmayman. Biroq uch-to'rt kun go'sht qovurib yeyishdi. Yo'q... Qizlar yotog'ida yeyishdi. Endi, ular ham jannatda emas edilar-da, qadrdon.

Siz yozuvchilar, injiq odamsizlar. Yaxshi odam deganda, albatta sutdek oq, musichadek beozor odamni tushunasizlar. Holbuki, unaqalar hayotda yo'q: undaylar, menimcha, g'oya... xolos. Ha-ha-ha. Sizning gapingiz ham "Kommunistik jamiyat odamining axloq kodeksi"ga o'xshab ketadi.

Kodeks chiqdimi, demak, bas, odamlar unga amal qiladi: risoladagidek bo'ladi, deb hisoblashadi ba'zilar. Bular — chipuxa gaplar.

Kunlar o'tdi.

Qor uchqunlay boshladi... Bizning, o'zingiz bilgan tog'larda bunday paytlar izg'ishlarimiz, sayr-u sayohatlar — endi ertak edi. Biz sovuqda tors-tors yorilgan ko'saklarning paxtasini suvga ivitib olgandek sug'urib olardik.

Ha, ikki kishi arqon bilan g'o'zalarning bir chetdan surib, qorini tushirardi. Keyin diqillab egatga kirardik. "Oq oltin"ni terardik. Bu qurmag'ur "oq oltin" etakka tushgach, tugilib, mushtdek bo'lib qolardi. Jiqqa ho'l-da.

A? Qanday qilib quritib topshirishlarini bilmayman. Lekin bir-ikki xonada uyulib, sasib yotganini ko'rganman.

Keyin ko'sak terish boshlandi.

Endi, bizning qadrdonlar — O'rmonjon aka, Azimjon aka, Mirzag'olib, tag'in ularning safdoshlari — bari sal sovuq o'tdi de-

guncha, yo vaqtida bak qaynamasa, Botir cho'ponning kulbasiga kirib tiqilib olishardi.

Cho'pon bilan xotini esa... xursand!

Biz endi yakkamoxov bo'lib qolgandik. Yo'q, sira kirmadim. Qanday qilib kiraman! Bu yog'iga quloq soling.

Qaytadigan bo'ldik. O'zingiz bilasiz, bunday kunni hech bir o'qituvchi, brigadir aytmaydi... Negaligini hamon tushunmayman. Balki terimdan sovub qoladi, deb o'ylashadimi.

Lekin, kulgili joyi shundaki, bolalar baribir bilishadi. Botir cho'pon ham bilgan ekan. Erta jo'naydigan kunimiz o'zlari xotinlari bilan kelib qoldilar. Yotoqqa... Men qandaydir xavotirga tushgan bo'lsam kerak, har holda.

— Assalom alaykum, kelinglar, mehmonlar! — deb yubordi O'rmon aka.

Azimjon akayam bolalarga to'shakcha solishni buyurdi. Botir cho'pon qulluq qilib, xuddi kirib o'tirmasa— biz u dunyo-bu dunyo yuz ko'rmas bo'ladigandek, ta'zimlar bilan yana uyiga aytdi:

— Shu, labz ekan, ukalar... Tilga olib qo'yib edik. Bitta qon chiqaramiz deb... Shunga qadam ranjida qilsangizlar. Mana, opalaring ham iltimos qilyapti, — dedi.

Men tamom bo'ldim.

— E, qandoq bo'larkan... — dedi O'rmonjon aka. — Qo'zingiz topilsa, boshqa gap edi...

— Ha, o'sha kecha biz ham yaxshi izlamagan ko'rinamiz, — dedi Azimjon aka ham. — Andak xijolatdamiz.

— E, og'alarim-ey, — deb kuldi cho'pon. — Biz xijolatda edik. Ishonasizlarmi, biz?.. Endi, gapni ko'p chuvaltirmaylik, ukalar. Qo'zi topildi hisob. A, xotin? He, Shodito'qaydan topdik. Ul-bulni... O'zimiz tusmollagan edik daydi itlarga yem bo'lganov, deb... Endi bizni xursand qilamiz desanglar, ketar jafosiga bir mehmonimiz bo'lasizlar...

Keyin, o'zlari ham endi terimga chiqmasliklarini, faqat g'o'zapoya yulishlari va uyda o'tirib, ko'sak chuvishlarini aytdi.

— Qishlog'imizda ikkita grek bor, — dedi xotini keyin. — Bir chelak haligiday suvdan ham oldik.

Hayronmisiz, qadrdon?

Men ham hayronman!

Albatta.

Shu kechasi bir mahalgacha kulbada o'yin-kulgi qilib o'tirishdilar. Tashqarida ham davom etdi. Men o'zimni uxlaganga solib yotar edim. Yigitlar kelib, chiroqni yoqishgach, men to'g'rimda to'ng'illay-to'ng'illay, o'tirishdi.

Ko'pchiligining kayfi bor edi. Kayfdagi odamning gapiga ishonish qiyin-u, lekin... ha-ha, o'sha, xuddi o'ylagan gapingiz bo'ldi: pushaymonlik... E, biri qo'yib, biri oladi, biri qo'yib, biri...

Chamasi, hammasining og'zi tekkan ekan o'sha go'shtga.

Azimjon akaning bir nidosi yodimda qoldi:

— Biz ablahmiz! — dedi ingrab. — Ko'ra-bila turib ablahlik qilamiz. Biz qanaqasiga o'zbekmiz-a? Ana ularni o'zbek desa bo'ladi. Nima deding, O'rmonjon?

— Biz ancha buzilganmiz, — deb po'ng'illadi O'rmon aka. — Lekin hayotning o'ziyam majbur qiladi-da, kishini.

— Ularni majbur qilmayapti-ku?

— Nimaga?

— Shu, endi... Balki pul yig'ib berarmiz-a?

— Bo'lsa!

Keyin yana men haqimda gapirishdi. Bittasi, ovozidan bilolmadim, tik turgancha:

— Shu Ergashvoyning ichiga tepsang-da! — dedi. — Ko'zimga itdan battar ko'rinyapti... Endi, bir umr kulib yuradi bizdan, yaramas. Yovvoyi...

— Parvo qilma, — dedi O'rmonjon aka. — Bunaqalar hayotda bo'ladi...

Men bu hikoyani o'zimni maqtash uchun aytmayapman. U yog'ini so'rasangiz, hozir ulardan ham beshbattar bo'lganman: haqqimni yedirmayman. Har qanaqa avtoritetni odam demayman... Shu-shu. Hozir hammamizning ko'zimiz ochilib qolgan...

Ha, ertasi... laylak qor yog'ib turardi. Xuddi tog'larda yog'adigandek!

Ko'chada avtobuslar tizilib ketgan. Yigitlarning boshi osmonda. Nihoyat, universitet auditoriyalariga qaytishadi! Ayvonda turgandim. Xaltam yonimda. Shu Botir cho'pon bilan xotiniga bir

yaxshi gap, minnatdorchilik bildirgim kelardi. Men ularni juda yaxshi ko'rib qolgandim-da!

Ha, kelib qolishdi.

— Xo'sh ko'rdik! Sizlarga ming-ming rahmat, O'rmonjon! — dedi Botir cho'pon. — Azimjon, sizgayam... Hammalaringizga. Qaranglar, bir mayizni qirq bo'lib yeganday yashadinglar... Sizlarning qadringizga yetolmadik biz.

U kishi hamma bilan qo'l berib xayrlashdi-da, menga qolganda, burilib ketdi. Shunda ayoli ham xo'shlasha boshladi. Qadoq qo'llarining uchini berib xo'shlasha-xo'shlasha menga yetganda, uyam burilib ketdi.

Men titrab-qaqshab ularning oldiga bordim.

— Botir aka, opa... men sizlarni juda yaxshi ko'raman, — dedim. — Xafa bo'lmangizlar.

— Yo'q, siz bizni yaxshi ko'rmaysiz, — dedi xotini. — Boshdan yomon ko'rib edingiz.

— Rost, uka. Pisand qilmadingiz bizni, — dedi shunda cho'pon ham. — Anavi yigitlar boshqacha...

— Axir men sizlarni juda-juda hurmat qilaman.

— Bekor gap, — dedi ayol.

— Ha, — dedi eri.

Abduqodir menga yotsirab qarab turardi.

— Shunaqa.

Xo'sh, bu yerda nimani ko'rding, nima xulosaga kelding, deb so'rarsiz? Men bu yerda... oddiy-jaydari, sodda o'zbekning kengligi, to'poriligini ko'rdim.

Ishonasizmi, avtobusga o'tirganimdan keyin sovuq oynadan laylakqorga qarab yig'lar edim: ana shu o'zbeklarning bag'ri kengligi uchun, ne-ne qiyinchiliklarga, faqirlikka qaramay, fe'li tor bo'lmagan, ajib-afsonaviy mehmondo'stligi instinkt kabi mavjud qolgani uchun... ichimda, ich-ichimdan quvonib yig'lardim.

Uzr, suhbatimiz "o'zbek xarakteri" haqida edi. Sizlar aytgan zo'r-zo'r hikoyalardayam haqiqat bor. Ammo mening bu jo'nginа, oddiygina hikoyam — ko'nglimdan o'tgan narsa edi, azizim. Shuning uchun buning menga ta'siri mutlaqo bo'lakcha.

1988

QADIMDA BO'LGAN EKAN...

O'sar ko'prikchadan shipillab o'tib ayvon chetidan choydishni oldi, ariq labiga cho'nqayib, qop-qora charmdek bo'lib ketgan kaftiga — hovuchiga suv quyayotgandi, ariqning u tomonida — supada urchuq yigirib o'tirgan rangpar xotini:

— Momongizga salom bermadingiz-a? — dedi.

O'sar yalt etib unga qaradi.

— Momom enangdi... — deb so'kib yubordi. Va shosha-pisha qo'lini yuva boshladi — Iloyi, shu kampirning yoshiga yetma... O'zing ham-ku bo'lganingcha bo'lgansan... — Keyin ulfati Nurqul nashavandan eshitgan gapini unga uqtirdi: — Hoy, birovga o'lim tilagandan ko'ra, o'ziga umr tilashi kerak kishi!

Hojar urchuqniyam, kalavaniyam ko'rpachaga tashlab, mushtlarini tizzalariga tiradi; eriga o'xshatib bir nimalar deyishga shaylandi-yu, behol tortib teskari qaradi.

— E, Xudo, nima gunoyim bor edi? Muncha meni ezadi bu erkak... Tentak! Suyulib ketgan miyasi... Huvv, sho'rim qursin. Terakka chiqib imlaganlariga uchippan... Sevadi, suyadi deb o'ylappan. Bu jallod ekan!

— He, enag'ar, — deb iljayib turdi O'sar. — Jallod ekan... Kim shu gapga ishonadi? Jallod amir zamonida bo'lgan, savodsiz!

— Siz savodli bo'ldingizmi? — xotin unga o'nglandi. — Siz-a? Alifni kaltak deysiz-u! Qizingiz xatongizni topib o'tiradi-yu! Gazeta o'qiyolmaysiz-u!

— Bo'ldi. Gazetangni osib qo'ydim! — O'sar ayvon oldini to'sib turgan sholcha tomonga jilarkan, Hojarga yana uqtirdi: — Gazetang bir pul hozir! Hech kim o'qimaydi... Faqat Nurqul bobo nay qilib, nasha chekadi! — U kulib, allanechuk quvonib, ustunga yetdi. Sholchaning chetini qaytarib, ichkariga qaradi.

Momosi Maqsad beva deraza tagida, shishib ketgan o'ng oyog'ini uqalab o'tirar, oppoq sochlari qo'qib ketgan — ajinadan farqi yo'q edi.

— Momojon, — dedi O'sar ayvon labiga asta o'tirib. — Salomalaykum... Azonda chiqib ketib edim. Uxlayotgan ekansiz. Hozir keldim. Moshina oldim, momo. Eski-yu, eplasa bo'ladi. Zavgar uch yuz so'mimni shilib qoldi, enasini...

Kampir nursiz ko'zlarini g'iltillatib va xiyol iljayib, qiziq bir narsani tomosha qilayotgandek qarab turardi.

— E, Asaljon? — dedi birdan. Va birdan yuzi tirishib, ko'ziga yosh keldi. — Tanimappan... Xayolim joyida emas. Anovu yerda bir xotin ming'irlagani ming'irlagan. Kim u o'zi?

O'sarning ham ko'ziga yosh keldi.

— Momojon, axir u — keliningiz-ku! — dedi. — Sizdi onasiday ko'radi...

— Uvv, men o'lay, — dedi kampir va qiqirlab kula boshladi. Ko'rpacha chetida yotgan kir qiyiqni olib boshiga yopdi, sochlarini bostirgan bo'ldi. Oyog'iga ko'zi tushib: — Bod, — deb shivirladi. — Bod bu... Meni opketadi...

"Opketsa, tezroq opketsin-e!" degan o'y kechdi O'sarning ko'nglidan. Ammo tag'in shu o'y dilidan o'tgani uchun o'z-o'zidan azoblanib ketdi.

— Yo'q, momojon, — dedi. — O'limni o'ylamaslik kerak. Kishi o'ziga umr tilashi kerak.

— Ho', umrdi sizlarga bersin, — dedi momo. — Bizdi ishimiz pishgan... Tushimga bobong kiradi. "Haliyam juribsanmi?" deydi. — Momo kulibgina qo'ydi. — "Ha, jurippan, deyman. Omonatini olmasa, nima qilay?" — So'ngra u O'sarga o'ychan tikilib qoldi. — Kenjaboy qayerda?

Nos otib olgan O'sar:

— Shahayda, — dedi. Va bir zum boshini burib, ho'mrayib qoldi. Keyin xo'rsinib yubordi. — Uniyam isi ko'p-da, momo. Jo'jalayi boy. Etajda tuyadi...

Kampir gap ma'nosini yaxshi uqmagan bo'lsa-da, bosh irg'adi.

— Omon bo'lsin, qayerda bo'lsayam... Meniki emas, davlattiki. Ha, o'zginang yaxshi juribsammi? Bolalaring... — Kam-

pir yana o'ylanib qoldi. — Bolam, men xayolati bo'p qoldim... Kelinimgayam ko'p azob beraman. Kecha kechasi darvozadan chiqib ketippan. Bechora ko'tarib olib keldi. "Uyga qama meni! Men o'lay!" dedim. Keyin u yig'ladi, men yig'ladim. Qarilik shu ekan... — Shunda birdan iliqqina jilmayib, nevarasiga boqdi.— Biron-biron joyga oborib adashtirib kelmaysanmi?

— Nima-a? — dedi O'sar va nosini yo'lakaga tuflab tashladi. — Esingiz joyidami?

— Endi, — kampir iljaygancha davom etdi: — bo'lgan ekanda qadimda...

— Qadimni qo'ying! Bir narsa yedingizmi?

— Jedim. Ekki bo'lak qand bilan non berdi kelinim. Iloyi, baraka topsin... Hoy, — dedi so'ngra mo'ltirab. — Urush-purush bo'ladimi yana, bolam?

— Nimaga? Urush yo'q endi, — dedi O'sar o'rnidan turmoqchi bo'lib. — Davlatlar yarashganiga ming yil bo'ldi.

— A, nimaga qimmatchilik bo'larmish?

— Kim aytdi? — O'sar sholcha chetini tutgancha qo'zg'aldi. — Tavba... Hojar aytdimi, enasini...

Kampir kuldi.

— Hazil... So'k, so'k. Tus bobongga o'xshaysan... Umring o'xshamasin, iloyi. Voy, men sonimdi ochib o'tirippan-ku, o'lay men... Bod bu... Bobong o'lgandan keyin qor kechib, cho'pchak yig'ib, tandir qizitaman deb... Huvv...

O'sar sholcha chetini tashlavorib, kerishdi.

— Hojar, nimang bor? — deya ko'prikchadan o'tib, yarim gaz baland supaga sakrab chiqdi.

Hojar urchug'i bilan eshilmagan kalavasini chetga qo'yib, ihrab o'rnidan turdi.

— Nima dedi momongiz? Yana kim yomon — men yomon... Kechasi uyqu yo'q, kunduzi — tinim. Uf, shu qizingiz ham odam bo'lsin, joyini topib ketsin, men ham ketaman...

— Ha, ketasan... O'liging chiqadi bu vatandan, — dedi O'sar. U ko'rpachaga chordona qurib o'tirdi. Keyin, bugun bir necha marta tomiri tortgan oyoqlarini yoniga uzatib yuborib, lo'la bo-

lishni qo'ltig'iga oldi. — Xudoga shukur, o'ziga shukur, — dedi mamnun tortib. — Kampir! Buyog'iga yaxshi bo'p ketadi!..

Maqsad momo eridan qolgan uychada yashar, uycha peshayvoni haligi sholcha bilan to'silgan edi: kampir hadeganda chiqib ketavermasin hamda... birov-yarim kelganda unga ko'zi tushmasin uchun. Momo shishgan, yuzida oqish dog'lar paydo bo'lgan, buning ustiga, chindan ham xayoli kirdi-chiqdi ediki, uni birovlarga ko'rsatishdan or qilardi kelin, zero kelinning bu tadbiri O'sarboygayam oxiri ma'qul tushgandi. Biroq kampir baribir kechasi bir necha marta pastga tushadi...

Kunduzi uxlaydi-da, kechasi uyg'oq: goho o'zidan o'zi (balki qo'rqqanidan) hassasi bilan eshik-derazani urib, kimlarnidir so'kadi va go'yo allakimlar bilan gaplashadi...

O'sar Hojarga uylangach (uylanganigayam yigirma yildan oshdi), ana shu eski uychaga taqab bir dahliz va bir mehmonxona-yotoqdan iborat boshpana qurib olgan edi: hamon shu boshpana — bularning qo'rg'oni.

Hojar ana shu "qo'rg'on" ayvonchasiga chiqarkan:

— Yaxshi bo'p ketadi? Nima yaxshi bo'p ketadi? — deb burildi. — Yana nashani urib avariya qilasiz...

— Bo'ldi-i! — bo'kirib yubordi O'sar. — He, enangdi... Men nima g'amda-yu, bu nima deydi! Og'zingdan chiqib yoqangga yopishsin, silkasal! Ha?

— Siz meni sil qildingiz.

— Vey, enang nima kasal bilan o'lib ketdi?.. Bo'l, bo'l! Qorin och...

Hojar uh tortib, chayqalib dahlizga kirib ketdi. O'sar yana kerishib: "Ah, qo'l chiqib ketgan ekan-da, — deb o'yladi: u moshina pedallarini bosishdan "oyog'i chiqib ketgani"ni ko'zda tutardi. — Mayli. Ana endi bir moshina tosh — o'n so'm... Yo'q, hademay yigirma-o'ttiz so'm bo'ladi, — deya o'yini davom ettirdi. — Xo'sh, kechasi tashiyman... Zavgarga yana berish kerak. Yo'g'asam, moshinani chiqartirmaydi garajdan. He, enag'ar...".

Uning baribir kayfi joyida edi.

Hojar inqillab-sinqillab bir kosa dimlama olib keldi. Chetda chetlari qatlab qo'yilgan dasturxonga ishora qilib, yana iziga qayt-

di. O'sar dasturxonni uzalib tortib, ochdi. Qora-qora go'shtlaridan sarg'ish-sarg'ish kartoshka va bo'kkan non burdalari ko'p dimlamani qo'li bilan olib tushirarkan, chodir-sholcha qimirlayotganiga e'tibor qildi-yu: "Momomgayam ovqat berdingmi? — deya so'ramoqchi bo'ldi. Xotini yana ayvonga yetgan edi, tilini tiydi: kampir eshitadi. — Lekin baribir hidini sezdi", dedi ichida va ta'bi xira bo'lib, battar jahli chiqa boshladi.

— Hoy!

— Choy qo'ydim, — dedi xotini.

— Choying... — "Bo'lmaydi. Bu ishni biryoqli qilmasam bo'lmaydi! — deb o'yladi-da, qo'lidagi kartoshkani kosaga tashlab, bunga sari fig'oni chiqib (yegisi kelyapti!), irg'ib turdi. Shunda charchoq ham o'zini bildirib va bir alami o'n bo'lib, supadan sakrab tushdi.

Yalangoyoq yugurib borib dahlizga kirgandi, ikki otashxonali gaz-plita yonida turgan Hojar tappa o'tirib oldi.

— Urmang-urmang, otasi.

Bu gapni eshitib, O'sarning urgisi kelib ketdi. Hatto qo'liniyam ko'tardi-yu, so'ngra o'ziyam shilq etib, kigizga o'tira qoldi.

— Hoy, menga qara, — dedi xirillab. — Urmayman. Ursam, qo'lim sinsin.

— Nima?

— Kampir, menga ayt, — dedi O'sar boshini egib. — Shu momom ortiqchalik qilyaptimi, a? — Bu gapni ilk bor tilidan chiqargani va, demak, qulog'iyam eshitgani uchunmi butun vujudi titrab ketdi. — Ayt, xotin, — dedi yig'lamsirab. — Ayt... Enasini uray bu dunyoni, birim ikki bo'lmadi. Ertadan kechgacha ishlaysan, qizingga bir tupli oberolmaysan. Bu nima... — Keyin o'ng qo'lini choynakday musht qilib, o'zining chakkasiga bir tushirdi. — Bu kallayam vaqtida ishlamagan. Kenja o'qisin, shu odam bo'lsin deb rabochilik qilib ketdim. Mana, uyam o'z kunini ko'rib ketdi...

— Bachadan nolimang, — dedi shunda Hojar. — Chorbog'di tashlab ketdi-ku?

— Gapti bo'lma! — O'sar endi kigizni mushtladi. Kigizdan ko'tarilgan chang dimog'iga urib, negadir nasha chekkisi keldi. Biroq bir tutun olsayam to'pig'iga suv chiqmay qolishini yaxshi

bilgani uchun, yo'q, momosi yo'rig'idagi "ish"ni, nihoyat, "bir yoqli" qilish ahdida turishni va "bir yoqli qilish"ni shart deb bilib:
— Ayt! — deya yana xirilladi. — Aytmasang, yo seni, yo o'zimni bir balo qilaman.

Xotin devorga tiqildi.

— Mening u kishiga yomonligim bormi?

— Yomonliging yo'q... Bilaman. Kampir ham sendan rozi... Lekin seni o'ylaganing bor... — O'sar xotiniga ko'zlari qonsirab tikildi. — Men sezib yurippan... Ha, meni ahmoq dema! He, sen ushlagan tovuqning dum-patini uzib qo'yganman!

— Axir...

— Gapir. Ichimdi yeb ketyapti... Ochman. Seniyam yeb qo'yaman, enag'ar.

— Enamdi so'kmang.

— Bo'pti, so'kmayman.

— U rahmatli men baxtsizni tug'ganki, sizdi uyingizda cho'rilik qip jurippan...

— Uh! — O'sarning yuragi ezilib ketdi: Hojarni yaxshi ko'radi, Hojarni yaxshi ko'rib olgan... — Meni kechir, — deb yubordi birdan. — Seni chertishga qo'lim bormaydi, shunday yaxshi ko'raman! Lekin... tiling yomon...

— Men ham sizga... azob beray deb gapiramanmi...— Hojar piq-piq yig'lab yubordi.

Uni ko'rib O'sarning ham ko'ngli buzildi.

— Gapir, — dedi hiqillab. — Muddaoni ayt... Bo'ldi, yig'lama. Yig'lama deyappan! — deya baqirib yubordi. — Yana piq etsang, aylantirib solaman, enang... Astag'furillo! Odamni kopir qilib yuborasan-a!

— Men, men sizga... — Chaynalib gapira boshladi Hojar. — Sizga momongizni u qiling-bu qiling deganim yo'q. U kishi — meniyam momom... — Uning ko'zidan yana yosh quyila boshladi. — Qizingiz texnikumiga ketadi. O'zim kasal...

— Endi seni do'xtirga ko'rsataman. Boshingni ko'rsataman! Toshkentga oboraman! — deb yubordi O'sar va ayolining siniq jilmayganini ko'rib, endi chap mushti bilan o'zining bu chakkasiga soldi. — O'lay agar, qasam ichaman!

— Mayli, rahmat. O‘zingizni urmang, — dedi Hojar. — O‘zi siz kallaga urishni odat qipsiz.

— Bas! Xumori tutayotgan bo‘lsa...

— Voy, Xudo.

— Ayt!

— Uf, endi bir marta og‘zimdan chiqib ketib edi-da.

— Ha, balli!

— Axir, tuzuk-tuzuk kishilar ham...

— Ha-ha.

— Anavi... — Ayol tag‘in ingrab yig‘lashga tushdi. — O‘lay agar, men o‘ylab topgan bo‘lsam...

— O‘ylagansan. O‘ylamagan bo‘lsang, o‘sha gapti aytmas eding! Xo‘sh, nima edi u?

— Axir, bilasiz-ku? — Battar ho‘ngrab yubordi ayol. — Bosh-da... o‘zingiz topib kelgan edingiz o‘sha gapti!

— A-aa, o‘zimmi?

— Ha!

— Malades. Keyin siz nima deb edingiz? A? — Tag‘in hayqirib qoldi O‘sar.

— Astaroq gapiring, e, — yolvordi kelin. — Qulog‘im ochiq axir. Menga qarang, choljon... Ovqatingizni jeng. Qorningiz och, jahlingiz chiqyapti.

— Yo‘q, Hojar, — dedi O‘sar. — Pichoq borib suyakka qadalgan. Endi bu ishni orqaga surib bo‘lmaydi... Bugun hal qilamiz, bugun! Eshityapsanmi? Hozir...

— A, yana nima deyin?

— Hali aytdingmi gapingni?

— Uh... — Ayol birdan eriga baqrayib qoldi-da:— Ha, — dedi so‘ngra ovoziyam o‘zgarib. — Shu momongizdi... shu qariyalar detdomiga oborsangiz... nima bo‘ladi deb edim. Siz nashani urib olgan edingiz, xo‘p kuldingiz. Ertasi urho-ur... Mana, chakkamdi yordingiz.

— Ha-a, xo‘b ish qilgan ekanman-da. Qani, qaysi chakkangdi yoribman ekan? Endi sog‘ini ko‘rsat... — Shunday dedi-da, ikki qo‘llab kigizni mushtladi. Yana gup etib ko‘tarilgan chang aftiga urildi. — He, enasini... bu hayotti...

U sapchib turib eshikdan tashqariga qaradi, beixtiyor ko'zi katta yong'oqning bargi to'kilib so'ppayib qolgan shoxlariga tushdi. Bir shoxga qo'nib turgan chug'urchuqlar duv ko'tarildi. O'sar mahzun tortib: "He-e ketdi... Momoyam ketadi. Shu, shu yong'oqniyam ekib o'stirgan-a! — dedi. — Ha-ha, anavi o'riklarniyam, behi, qizil olma, loyxonadagi olchalar... Bu daraxtlar ham kampirning bolalari. O'zi shunday der edi... Ajab, daraxtlar odamzoddan erta qarir ekan-a? Yo'q, bular teng qartayibdi, chamamda. Biroq baribir momom o'lgandan keyin ham bu daraxtlar hosil beraveradi: bizga..."

— Chol, — dedi Hojar.

— Nima? Ko'r bo'lgir! — dedi O'sar. — Qara, biz uchun o'stirgan bu bog'ni! Se-ening bolalaring uchun, g'alcha! Mevasiga nevaralarimning og'zi tegadi deb... E-e, falak! — O'sar titrab-qaqshab, bir nimalarni ostin-ustin qilib yuboradigandek shishinib ketdi. So'ngra ming'irlayotgan xotiniga qarab: — Hoy, nokas, oborib... oborib tashlab kelolmaymanmi? — deb yubordi birdan. Bu gapidan o'zi hayron qolib hamda nihoyat, topolmayotgan nimarsasini topgandek bo'lib avj qildi: — Yo'q, men hazillashayotganim yo'q.

— Voy, bas, — dedi kelin. — Yaxshisi, meni oborib tashlang o'sha g'aribxonaga.

— Seni? Seni bo'kirtirib ishlatadi-ku u yerda! — Hayqirib kuldi yigit. — Nodon! Buning topgan gapini qarang!

— Bo'-o'ldi, boshqa gapirsam, o'lay.

— Sen o'lmaysan, ming gapirsang ham o'lmaysan. — G'udirlagan ko'yi boz otashin bo'la boshladi O'sar. — Shu kecha... Yo'q, ertagayoq ming'ir-ming'irni boshlaysan yana.

Shunda Hojar yana eriga boqib qoldi-da, sekin turib eshikka yo'l oldi.

— Ha? — dedi O'sar uzalib.

— Torting qo'lingizni...

— Yana nima bo'ldi? — Shunda yigitning yuragi qattiq siqilib ketdi: nimaga buncha gapiryapti? Mayda-chuyda gaplar... Axir, muddao aniq-ku.

"Shoshma, biron haptaga oborib qo'ysam-chi o'sha yetimxonaga?" — degan o'y keldi xayoliga. Va bu "reja" unga shunchalik ma'qul tushib ketdiki, bu o'yning ilgariroq kelmaganidan hatto hayron qoldi: axir, bir haftada kampirning qadri o'tadi, pushaymon yeydi bu... Buning ustiga, qo'ni-qo'shnilarning ta'nasiga chidolmaydi... Yoki, ularga bildirmaydimi? "Ukalari Kenjanikiga oborib qo'ydilar. Sog'ingan ekanlar", deydi. Lekin Kenja bu "ish"ni bilsa, rosa yig'laydi... Balki kampirni o'z uyiga olib ketadi...".

Bu orada xotini Hojarning g'oyat iztirobga tushishi — o'zini ming bor la'natlashi va, demak, O'sar "tantana" qilishi — xotini ustidan mardona kulishini o'ylab:

— Bo'ldi! — dedi. — Momomning uyiga kir. Ul-bulini yig'ishtir... — Xotini unga baqrayib qoldi.— Senga aytyapman, ko'zing o'yilgir! — o'dag'ayladi O'sar.— Bo'ldi, muddaongga yetding... En-nasini... bu dunyoni!

— Keyin o'zining gaplari o'ziga kor qilib, ko'zlariga yosh to'ldi. — Bu hukumat nomard ekan, enag'ar... Kampirni ishlatib-ishlatib, oxiri pensiya ham bermadi... Xayriyat, otam urushda o'lgani uchun o'ttiz so'm beradi...

— Bo'ldi qiling, shaxtingizdan tushing, — erining yelkasigami-yoqasigami qo'l uzatgan edi, O'sar tislanib ketdi.

— Yo'qol! Bor, aytganimni qil!

Hojar iziga qaytdi-da, gazni shartta o'chirib, boyagi joyiga o'tirib oldi.

O'sar uni tepadigandek xezlandi.

— Turmaysanmi?

— Yo'q.

O'sar bir zumda uni sulaytirib tashlashni o'yladi, ammo o'zi kasalvand, o'lib qolsa...

"Yo'q" deyapti-ku? Pushaymon yeya boshladi hozirdan. To'xta, bir ish qilamanki, o'zi yugurib qoladi"...

Ana shunda O'sar shodon qahqaha otadi.

2

U ildam yurib ayvonga chiqdi-da, ayvonchani bu yoqdan ham to'sib turgan sholchani shart tortib yuborgandi, sholchaning supa-

ga qaragan tomoniyam shalop etib yerga tushdi. Ayvonga quyosh nuri yopirildi.

Maqsad momo tag'in ochilib qolgan boshiga qiyig'ini yopmoqchidek paypaslanib, oxiri kaftlari bilan tepasini pana qilgan bo'ldi.

— Momo! — dedi nevara ovozi xirillab va tuyqus yig'lamoqdan beri bo'lib baqirdi: — Kenjangiz chaqiryapti ekan sizni! Kenjaboy!.. Bittasi aytib ketdi...

— Kim? — deb pichirladi kampir va yuzi yorishib, ko'zlari yolqinlanib ketdi. — Kenja?

— Ha! Sizni mehmonga aytipti! — dedi O'sar bir tabaqali, zanjiri tepaga ilinadigan eshik tomon yurib. — Munday odamga o'xshab borishingiz kerak. Boshqa kiyim-bosh bordir... — Keyin narigi uyga qarab baqirib yubordi: — Hojar! Baqqa ke!

Hojar eshik og'ziga kelib turgan ekan, darrov qaradi.

— Ni-ma?

O'sar ko'zlarini ola-kula qilib, kampirga ishora qildi.

— Kiyintir momomdi! Axir, axir... aytdim-ku. Kenja uyiga chaqiripti deb! — So'ng jilmaydi. — Yoki...

Er-xotin uzoq muddat birga yashasa, bir-birining vajohatidan nima demoqchi bo'layotganiniyam so'zsiz bilib ketishadi. Shundayki Hojar angladi: eri "Yoki... hazar qilasanmi?" demoqchi.

Hojar kalovlanib buyoqqa yo'naldi.

— Qani, tez bo'l! Him, yana ul-buli bo'lsa, uniyam ol... Bo'g'cha qil!

O'sar shunday deb ayvondan tushdi. Ko'prikchaga yetganda supadagi dasturxonga qaradi-da, jadal borib uning chetidan tortdi. Dimlamani apil-tapil yeb olib, barmoqlarini yalay-yalay darvozaga qarab ketdi.

Uning ko'ngli xiyla tinchib qolgan edi. Momoni Kenjaning uyiga obormasligi aniq. Lekin yetimxonagayam obormaydi-yu...

3

Biron o'n daqiqadan keyin O'sar bodomgulli chit ko'ylak kiyib, boshiga doka ro'molini o'ragan kampirni ko'tarib yuk mashinasining kabinasiga o'tqazmoqda edi.

Kampir o'rnashib olgach, qo'llarini ko'ksida tutib, ko'zida halqa-halqa yosh bilan oyoqqo'ygich qoshiga kelgan Hojarga:

— Men sal kunda qaytaman, kelinjon. Bu bog'dan, sizlardan ajralib yasholmayman, — dedi. — Ke, bir o'pay... Oh!

— Momojon, tez kelmasangiz, o'zim borib opkelaman, — dedi Hojar.

— Be, mana moshina... Asaljonimdan aylanay! G'ir etib boradi-yu, obkeladi-da momosini. Selsovetdan telefon qilib tur. Ovozingni eshitib turay... Kelinjon, nevaralarimga ena suti bermagan bo'lsam ham, ena bo'lib boqqanman... Huv, u kunlarni Xudo ko'rsatmasin!

O'sar xotinini tirsagi bilan turtib yuborib, eshikni yopdi.

— Qolganini menga aytasiz!

Momo qiyqillab kulib, mashina derazasidan qo'lini chiqarmoqchi bo'ldi: barmoqlari oynaga tegib qaytdi. Va keliniga: "Buning gapiga parvo qilma. Hazilkash-da" deganday jilmayib, har ikkala ko'ziniyam qisib qo'ydi.

Kampir behad shod edi. Shodligi shunchalikki, esiyam butkul o'ziga kelganday...

Hojar ro'molning uchi bilan ko'zini artdi, so'ng uni og'ziga bosib tislandi.

O'sar mashinani tar-tarlatib va birdan silkitib haydab ketarkan, negadir cho'zib-cho'zib bubuplatdi.

— Momo!

— Labbay, jonim.

— Anavi yerdan ushlang. Ushlang deyapman... He, enag'ardi momosi! — O'zi o'ng qo'li bilan kampirning dast-panjasini olib, g'aladonning tutqichiga qo'ydi.

— Ha, mundaychikisiyam bor ekan-da... Aylanay mehribonimdan... Sizlarni halol yedirdim, halol kiydirdim. Xudoga shukur. Eshitgansan, bobongdi "virak narot" deb otishganda, bizdan yetti chaqirim nariga qochib edi qarindoshlar ham. Ha, "xalq dushmani"ning bevasi edim-da.

— Xalq dushmani emish...

— A? Ha, uning nimasi dushman edi? Ekita qo'sh ho'kizi bor edi bor-yo'g'i. Otang bilan lalmikorda yer haydar edi...

— Bobom hukumatga bermaganmi o'sha ho'kizlarni?

— Saman otini berib edi. Nuqra juganlari bilan... Huv, opto'ymas, yebto'ymas ekan bu hukumat. Oxiri ho'kizlargayam ko'z...

— Davlat deb gapiring!

— Ha-ye... Lekin davlat baribir adolatli ekan. Bobongdi oqladi-ku oqibat.

— Ha. O'ldirib bo'lib keyin oqladi.

— Hammasi Xudodan... Shukur qil, bolam, shukur qil. Urushdan keyingi ocharchilikda beshtalab bolasi o'lganlar bo'ldi. Bir kechada. Xudoyo, tavba qildim...

— Tavba qiling, tavba qilavering... — O'sar mashinani surib tor ko'chadan chiqararkan, chambarakka shap-shap urib: — Dod! — deb qo'ydi. — Urdim nashani, surdim pashani degan ekan bir Nurqul degan avliyo!

Mashina katta ko'chaga tushgach, to'g'riga yo'l oldi. O'sar tezlikni oshirib va har qadamda signal berib, go'yoki o'zining qandaydir "Borsa qaytmas"ga borayotganidan o'tkinchilarni ogoh etayotgan kabi ko'zi ilg'agan tanish-bilishlarga beixtiyor bosh irg'ab, qishloqdan chiqa boshladi. Nihoyat, qishloq soyi qirg'og'iga — qizg'ish tovatoshlardan iborat qir bag'riga ilonizi bo'lib o'rlagan yo'lga tirmashtirib, hademay o'rkachga chiqardi mashinani va u yog'i — adirga tushirdi.

Bepoyon tekis dasht. Asfalt buzilmagan, biroq yozda erigani bo'yi qat-qat bo'lib qolgan. Yo'lning o'ng tomonida — yiroqda Qoratog' tizmalari tuman ichida mudrab yotardi. Cho'qqilarda bulut karvonlari sudraladi.

— Momo!

— Ha. Jon... Voy, qo'llaringdan! Bir haydayapsan, belanchakda yotganday maza qilyapman... Hi-hi-hi. Qarilikka yo'rg'alik... — Keyin O'sarga angrayib qaradi.— Sen Asaljon-a?

— He, enag'ar... Boshladingizmi yana?

— Nimani?

— Talmovsiramang.

— Voy... — Kampir jimib qoldi. — Kenjaning uyiga oboryapsan-a meni? Nechta bolasi bor uning? Uf, esar bo'p qoldim, bolam.

— Borganda, sanab bilasiz, — dedi O'sar, — Sanaysiz... — Shunda jigarbag'ri bo'g'ziga sapchigandek bo'lib entikib ketdi: "Kenjanikiga oborsam mabodo... Nima deb topshiraman buni? O'zi to'rtta bolasi bilan domda siqilib... Gap shu! Momomni biron joyda bir-ikki soatga qoldirib, qaytaman! Shuning o'zi Hojarga yetadi...".

So'ngra kampirni shu atrofda... biron yerda qoldirishga joy izlab, oldinga va yon-atroflarga ko'z sola boshladi: anavi yulg'unzordagi oq tug' ko'tarib yotgan qabr — Xotin shahid... Yo'lto'sarlar o'ldirib ketishgan bechorani. Him, xavfli joy...

Buyoqdagi soylikda pana joy yo'q: toshloqda o'tirgan kampirga o'tkinchilarning ko'zi tushadi, qiziqishadi.

Shunda olisda — yo'lning ikki chetida ikkita pakana g'ujumdek bo'p ko'rinayotgan daraxtlarga — qo'sh tutga ko'zi tushdi-yu tuyqus shodlanib ketdi.

Qo'sh tutni shofyorlar "darvoza" deyishar, u qandaydir darajada bekat ham edi. O'sar esini tanigandan beri biladiki, shu tutlar bor: bundan o'n-yigirma yillar burun ham ular — qari, tomirlari yer bag'irlab-bukchayib o'sgan, quchoqqa sig'mas tanasida po'stloqlari kam qolgan, doimo chakalak-kallaklangan shoxlari orasida mitti jiblajibonlar chuv-chuvlab yurishar edi; hamma vaqt otlieshakli yo'lovchilar tuman markaziga kelishayotgandayam, chiqib ketishayotgandayam shu tutlar tagiga qo'nib, biroz hordiq olishar, ulovlarini sug'orish uchun yo'ldan sal narida qoq[1] bor ediki, yozning jaziramasida ham unda suv bo'lardi.

O'sarning "GAZ-157" mashinasi ana shu "darvoza"ga yetgan chog'da birdan tormoz berdi-da, sapchib ketgan kampirni bir qo'lida quchganicha ulovni yo'ldan chiqarib to'xtatdi.

— Voy, nima bo'ldi, bolam?

— Hech nima, hech nima... — dedi O'sar va xuddi o'g'riliqqa tushayotgan singari allanechuk qo'rquv-hadik ila: — Tushaylik, momo, tushaylik, — deya eshiklarni lang ochdi. — Men radiatorga suv quyib olay!

[1] **Qoq** — yomg'ir suvlari yig'ilib qoladigan ko'l.

Buyoqdan aylanib kelib, qo'lini cho'zdi va birdan kampirni ko'tarib olib, tut ostiga eltdi. Oyoqqa qo'yib: — Suyaning! O'tirmang, — degancha iziga qaytdi.

Kampirning bo'g'chasiniyam keltirgach:

— Buning ustiga o'tiring!.. — deb qandaydir dag'dag'a qildi-da, tislanib, yo'lning uyog'i va buyog'iga boqdi: hech qora ko'rinmasdi.

Maqsad kampir tuguniga o'tirib-o'rnashib, tutning tanasini siypaladi.

— Voy, qabig'ini mol g'ajigan, a? — dedi. Keyin O'sarga qarab kuldi. — Nashaga cho'g' bo'ladi deb olishgan.. Sen nasha chekmaysan-a, Asaljon?

— Chekaman! Bilasiz-ku! — dedi O'sar. — Xo'sh... — U o'zi anglamagan holda ko'zlarida boyagi qo'rquv, tag'in hayajon-xijolat va o'ta sergaklik bilan kampirning qoshiga keldi. Unga qattiq tikildi-da: — Qimirlamay o'tiring, eshittingizmi? — dedi.

— O'tirippan-ku, Asaljon.

— Ana, qoqti suvi qurigan ekan. Ana... Orqaga qaytmasam bo'lmaydi. O'n minutda kelaman.

— A, qayerga borasan?

— Aytdim-ku, suvga!

— Mayli-mayli. Bor, bolam. Men o'tiraman... Moshinang ko'p lo'xshidi[1]. Damimdi olaman... Aylanay sendan. Muni qara, dunyo keng-a, tavba...

— Dunyo — torga tor, kengga keng ekan, momo! — O'sar ixtiyorsiz bir holda Nurqul nashavandning hikmatlaridan yana birini aytib yubordi va bu gap ittifoqo o'ziga ta'sir etib: "Biz — tor, men — tor... — deb o'yladi. — Kenjayam biladi meni. Bekorga "injiqsiz" demaydi. Bu hayot nervinniy qilib qo'ygan bo'lsa, nima qilay? Axir, Hojarniyam yaxshi gap bilan ovutsam bo'lardi. Nuqul unga achchiqma-achchiq gapiraman. Qo'lim ham...

— Besh minut! — deb barmog'ini o'qtaldi kampirga. — Xo'p, yarim soat... Tushundingizmi? Birov gap so'rasa, javob bermang!

Kampir shunda qiqillab kula boshladi.

[1] **Lo'xshidi** — sapchidi, irg'ishladi.

— Nimaga kulyapsiz? — deb birdaniga do‘q qildi O‘sar. Va yana ko‘ngli buzilib ketdi. — Momojon...

— He, o‘zim... Qadimda bo‘lar ekan-da, — dedi momo ko‘rsatkich barmog‘ini bukib, ko‘zlarini artib. — Shu-shu... qarigan chol-kampirlardi oborib-adashtirib...

— Aljimang!

— Xayolimga keldi-da.

— Bo‘lmasa siz ana shunday xayol suri-ib, o‘zingizni aldab o‘tiring, men tezda qaytib kelaman.

— Xo‘p-xo‘p, otajon, — dedi kampir va gangib qo‘lini fotihaga ochdi. — Iloyim, eson-omon borib kel. Yo‘ling oq...

— Hey-hey! Nimalar deyapsiz? Hozir kelaman deyapman-ku, enag‘ar!

— Yana xayol...

— Xayoldi joyiga qo‘yib... a? — O‘sar yana tahdid qilgan bo‘lib tislandi-chetlandi va yana bir daqiqa bu yerda tursa, kampirni olib uyga jo‘naydigan kabi otilib mashina yoniga bordi. O‘toldirgich kalitini izlamoqchi bo‘ldi-yu, motor tir-tirlab turganidan vaqti xush bo‘lib, kabinaga kirib o‘tirdi.

Keyin shaloq mashinani gurillatib, “darvoza”dan to‘g‘riga o‘tkazib ketdi: kampirga qaragisi keldi — o‘zini tiydi. Biron yuz qadamlar olislagach, yana qarashni istadi: ammo qarasa, tag‘in bir kor-hol bo‘ladigan singari tezlikni oshirdi-yu, soylikka enaverib, taqqa to‘xtatdi: qayoqqa boryapti?

O‘ziyam xayolati bo‘lib qopdi.

Axir orqaga burib, tag‘in kampirning oldidan o‘tkazishi kerak-ku mashinani?

Tezroq uyga yetishi kerak!

Shunda uning yana yig‘lagisi kelib ketdi: “Butun hayotini bizlarga bag‘ishladi shu kampir. Bobomdan qolganida yosh bo‘lganku! Lekin er qilmagan... Enag‘ar enam bo‘lsa, otamdan kelgan izvishenini o‘qiboq fe’li aynigan. Ukam bilan meni tashlab, bir dizirtirga ergashib ketgan...

Momom chapak chalib qolavergan.

Kuygan banda bu... “Endi men ham mazax qilyapman!”

O‘sar shu alpozda yana mashinani to‘g‘riga haydab ketganini bilmay qoldi. Mashina toshloqda chindan ham uf-uflab to‘xtab qolganidan keyin o‘ziga keldi.

Ha, radiator ish ko‘rsatmoqda edi...

U yig‘lab yubordi-da, kopotni ochib qo‘yib, qaynoq bug‘ning ko‘tarilishini biroz tomosha qilgach, pachoq chelakni olib buloq izlab ketdi.

Alqissa, allaqancha vaqtdan keyin shaloq mashinani qaytarib qishloq yo‘liga tushirdi. Tutlar orasidan shitob bilan o‘tdi. Va qishloqqa yaqinlashganda...

...Qay ko‘z bilan ko‘rsinki, qarshisidan kelayotgan tanish yuk mashinasi ustida...

Hojar tik turgancha kabina tomiga qo‘llarini tirab kelmoqda, ro‘moli uchlarini tishlab olgan edi.

O‘sar mashinani yo‘l o‘rtasiga burib to‘xtatdi.

4

Kabinadan boshini chiqargan tanish qariyaning salomiga ham alik olmay, oynadan qo‘liniyam chiqarib baqirdi:

— Hey! Baqqa tush, enag‘ar!

Hojar erini tanib, titroqli iljaydi-da, kuzov ortiga qarab ketdi. O‘sar uning yerga tushishi mushkul ekani uchun o‘zi kabinadan chiqdi, aylanib borib, xotinini ko‘tarib oldi. Yoshli ko‘zlariga tikilib:

— Ha? — dedi va... uning nega yo‘lga chiqqanini tusmollagani holda: — Gapir! Qayerga borayapsan, enag‘ar... a? — deb baqira boshladi.

— Sekin, sekin, — dedi xotin boshini egib va chap qo‘lini ko‘ksiga bosib.

Shunda narigi mashina g‘imirladi. Yo‘l yoqasiga chiqdi. O‘sar beixtiyor xotinining bilagidan ushlab, o‘z mashinasi tomon yo‘naldi. Anavi “ZIS” o‘tib ketgach, ikkisiyam changga belanib va qo‘llarini pashsha haydaganday qilib kabina qoshiga yetishdi.

— Xo‘sh? — dedi O‘sar. — Uyga qaytamiz-a? Momo qo-oldi... Yuraging sovudimi, haromi? Endi yaylov keng bo‘ladi senga! Bog‘da javlon urasan, silkasal!

Xotin uning qo‘llarini o‘pa boshladi.

— Unday demang... Yolg'on gapiryapsiz... Borsangiz, o'zingiz boring o'sha bog'ga... uf, o'laman. — Keyin Hojar chinqirib yubordi. — Qaytaring moshinani! He, nevara bo'lmay o'ling! Mashinani qaytaring!

O'sar qanoatlanib — tomoq qirib, kabinaga kirdi. Motori tag'in o'chiruvsiz qolgan ulovini yurgazib, aylantirib keldi. Hojar yo'lning bu tomoniga o'tib, ichkariga arang kirib o'tirdi-da, tutqichdan mahkam ushlab, boshini egdi.

— Ha? Pushaymon qilyapsizmi? — dedi O'sar mashinani haydab. Xotin miq etmadi. — Battar bo'l! — keyin mamnun bo'lib ketdi...

So'ng... momosini qo'sh tutda sarg'aytirib... qoldirib kelganidan...

Yigitning chunonam alami kelib ketdiki:

— Uh, — deb ihradi. — Nimaga tug'ildim men? Shu azoblarni chekish uchunmi?.. Birovlar tug'ilganidan shod, dimog'i chog'! Uyida tinch, qulog'i tinch... — Keyin, nosqovoqni tishlariga tiqtiq urib nos otdi.— Gapiy!

Xotin yana churq etmay oldinga boqdi. U qandaydir shishinqiragan, qovoqlari osilib ketgan, faqat ko'zlari g'iltillar edi. O'sarning ayoliga yana rahmi keldi-da, tuyqus uning egnidan o'ng qo'li bilan quchib qo'ydi.

— Bilardim.

Hojar ko'zini yo'ldan uzmay so'radi:

— Qayerga oborib tashladingiz u kishini?

— Qayerga, qayerga... Detdomga-da! Bildingmi? Xursanddirsan?

Xotin ming'irladi:

— Yo'q. Detdomga emas.

— Kenjaning uyiga! Bo'ldimi?

— Bekor gap. Uydan chiqqaningizga bir soat ham bo'lmadi.

O'sar o'ng qo'li bilan xotinining basharasiga urib yubordi.

— Anavi shopir bilar ekan, — dedi Hojar.

— Nimani? Nimani?

— Sizni, fe'lingizni!

— Hali unga aytib berdingmi, enag'ar?

— Ha.

— Voy, do-od!

O‘sar gazni bosdi-ya! Bosdi. Boyagi “ZIS” qaytib kelayotgan ekan, to‘qnashib ketishiga oz qoldi.

Nihoyat, juft tutlar ko‘rindi. Asta-sekin kattalasha boshladi. Keyin O‘sar og‘zini ochib, lablarini yalay boshladi: goh yutinadi, goh xotiniga yalt etib qarab qo‘yadi.

5

O‘sar mashinani sekinlatarkan, kampir suyanib o‘tirgan tutning tog‘ga qaragan yog‘igayam boqdi: hech narsa yo‘q. So‘ng mashinani sal nariga o‘tkazib to‘xtatdi-da, sakrab yerga tushdi. Chopib daraxt tagiga bordi, negadir tutning shoxlariga qaradi. Keyin esa tanani gir aylandi va kampir o‘tirgan yerga tikildi: chumolimidi — yerga kirib ketsa?..

Hojar kabina eshigini ochib, eriga qarab turardi.

— Nima qilyapsiz? — deb so‘radi.

— E!.. E, Xu-do, enag‘ar... — O‘sar og‘zini kappa-kappa ochib nafas olgancha, qoq tarafga ko‘z otdi-yu, ko‘lning u sohilida uyulib yotgan toshlar, bodomcha va yantoqlarga tikilib qolib, chuqur xo‘rsindi. — Tush endi... yetib keldik! — dedi. — He, po‘kka[1]... Senga kim qo‘yib edi yo‘lga chiqishni!

Hojar o‘rdak yurish qilib keldi.

— N-nima gap o‘zi?

— Nima, nima... — O‘sar tag‘in tosh uyumlari yoqqa boqdi. Va yana xo‘rsinib yubordi. — Xudo urgan badbaxtlarmiz... O‘, u kampirning biz uchun qilgan ishlari! Hisobi yo‘q... — Shunda ko‘ngliga boz xavotir tusha boshladi. — Ey, bo‘g‘chasiyam yo‘q-ku!

— Nima? Shu yerda qoldirib edingizmi?

— Momo-a! — deb chinqirib yubordi O‘sar. So‘ng yugurgilab qoqning beri tomonidagi tosh uyumlari ustiga chiqdi. — Momo-oo! Ho‘, enag‘ar, momo-o! — Shunda payqab qoldiki, nariyoqdagi qalama toshlar orti baralla ko‘rinib turibdi: hech zog‘

[1] **Po‘kka** — ichi bo‘sh, xomsemiz.

yo'q. — E, enangdi... yerga kirdimi, osmonga chiqdimi? — Oyog'i ostiga va ko'kka qarab olib, hovliqib pastga tushdi.

Tut tagiga kelib, yo'lning u boshiga ko'z tikdi, keyin bu boshiga. So'ng kampirni o'tqazgan yeriga.

— E, Xudo! Bu nima ko'rgulik? Mana shu yerga...

Bukri tomirga endi Hojar o'tirib qoldi. O'sar yo'lning u betiga o'tdi. Keyin to'g'ridagi soylik tomonga chopib ketdi. Yetdi. Buloq suvi toshchalar oralab oqar, qandaydir o'troq qushchalar chiychiylashar edi.

O'sar dodlab, yana orqaga qarab chopdi. Tut ostidan o'tib, yana toshlar ustiga chiqdi.

— Momo-o... — dedi endi ovozi bo'g'ilib. — Axir...— Shunda kampirning boya (O'sar ketayotganda) kulgani, "Qadimda bo'lgan ekan-da..." deganini eslab: "Tag'in birov-yarimga aljigan bo'lsa..." deb o'yladi. Va o'zini — O'sarniyam tanimay qolishi yodiga tushib, holsiz shivirladi:

— Obketishibdi.

Yigit xotinining yoniga keldi.

— Balki anavu shopir obketgandir, — dedi xotini.

— Ha, enag'ar-a, sharmanda qilding-ku!

Yuqolgan kampir "topildi". Ammo, u yog'ini yozib o'tirish shartmi?

1990

KO'K DENGIZ

— Nedin ne tatu?
— Suu tatu[1].
Oltoy topishmog'i

1

N. viloyatidagi "Drujba" degan sovxozda rasm chizib, bo'yoqchilik ham qilardim. Tirikchilik-da, aka.

Qishloqning bir chetida muzey bor edi: xo'jalikning tarixi, ya'ni yutuqlari aks ettirilgan. O'shaning bir hujrasida yotib turardim. Manzara yaxshi, lekin yonimizda bir xavfli tepalik bor, uning bir yoni kuyib ketgan — o't o'smas edi. Tepalikning uyog'ida dahshatli bir ko'l yastanib yotibdi. Qadimda Ko'k ko'l deyilgan, hozir esa Qora ko'l deyishadi. Tog' etagidagi kimyo zavodidan chiqqan oqava-yuvindi suvlar qo'yib yuborilgan: ko'lda suv emas, eritilgan qora mum bordek yaltirab yotardi. O'lay agar, ustidan shundoq yurib ketish mumkinday. Qaysidir yili yog'in ko'p bo'lib ko'l toshganda, bir ariq suv oqib chiqqan-u haligi yonbag'irdan pastga engan. O'shaning o'rnidan giyoh unmas edi: kuyib ketgan-da! Keyin tuprog'ini har qancha qirtishlab tashlasalar ham o'nglanmagan. He, o'sha kezlar ko'p mollar ham qirilib ketgan ekan...

Xullas, bir kuni xo'jalik direktori chaqirib qoldi. Idorasiga. Yaxshi odam edi bechora. Keyin siniqibgina: "Uka, gap shunday-shunday..." dedi.

Qishloqda boshqa millat vakillariyam ko'p edi-da: o'ris, armani, kares...

Direktorning aytishicha, o'ttiz to'qqiz millat vakili yashardi. Nimagaki, har yili bir millat vakiliga ko'paytirish plani bor ekan... Kulmang, bilasiz-ku!

O'sha kishi iltimos qildi-da: "Uka, siz jahongashta odamsiz. Gaplashishni bilasiz... Bizda bir millat vakili yo'q ekan: oltoylik. Bir amallab bittasini opkelmasangiz, buyog'i chatoq bo'ladi. Mana, pul... Va'dani quyuq qiling: uy deydimi, ish deydimi — bor deng. Oilasi bilanmi, yolg'izmi — farqi yo'q...".

[1] **Olamda eng totli nima?** — Suv.

"Yo'q" deyolmadim. Buning ustiga, Oltoy — harqalay, bosh bobolarimiz yashagan yurtlardan.

Yo'lga chiqdim.

Barnaulga bordim. He, o'zimizning shaharlardan farq qilmaydi. Uni qandaydir o'rmon ichida, deb... Qayda! Xullas, aka, ko'chalarida qancha kezganim, kimlarning mendan hayiqib qochganlarini aytib o'tirishim ortiqcha. Qaysi biriga: "Payedish k nam v Uzbekistan?" desam, jinniga qaraganday tikiladi. Bittasi meni kim-nima deb o'yladi, urmoqchiyam bo'ldi. Bir-ikkitasi kulib qo'ydi. Endi, to'satdan so'rasang, hayron bo'lar ekan-da. O'z ixtiyori bilan kelsa, boshqa gap: ana, harqayoqdan kelib yotipti.

Qisqasi, o'zidan qolgan bironta darvishi-piyonistasi bo'lsayam opketaman deb bir kechasi ko'chaga chiqdim. Yetti qavat-to'qqiz qavatli imoratlar orasida yurgan edim, bir imoratning yerto'lasidan chiqib kelayotgan yoshgina — o'n bir-o'n ikki yashar bolani ko'rib qoldim. Ikkita bo'sh shishani bag'riga bosib olgan. Meni ko'rdi-yu, qochib qoldi. Asta zinapoya boshiga bordim. Pastdan nur ko'rindi. Bilasiz-ku, katta shaharlarda, o'zimizdayam shunday binolarning yerto'lasini har xil qalang'i-qasang'i bangilar makon qilgan... Shoyad bironta yovvoshiga yo'liqamanmi deb sekin zinalardan pastlay boshladim. Pastdan g'udir-g'udir ovoz kelyapti. Bir yoqdan qo'rqaman deng: chiqib, aylantirib solib qolsa...

Oxirgi pillapoyadan munday sahnchaga tushdim. Yerto'la eshigi shu yerga ochiladi. Eshik abgor, tirqishlaridan nur tushayotgan ekan. Asta ochdim. Pastga yana uch-to'rtta zina ketgan, uyog'i — keng maydonchaday joy. Shu maydonchaning o'ng tomonida o'tirishgan ekan: uch-to'rtta bola taglariga quti qo'yib, kimningdir so'zini tinglayapti. So'zlayotgan kishi ko'rinmasdi. O'rtada sham yoniq... Endi deng, yomonam badbo'y joy ekan.

Shunda bolalar birdan meni ko'rib qolishdi-da, sapchib-sapchib turib ketishdi.

— Assalom alaykum! — deya zinadan tushdim. Shunda so'zlayotgan kishini ko'rdim. Egnida qora-isqirt paxtalik, boshyalang, siyrak soqoli o'siq, yoshini bilib bo'lmas edi.

— O‘-o‘, k nam ko‘nak pojaloval! — deb u o‘rnidan turdi-da, kalta hassasiga suyanib chetga chiqdi.

— Da, ya qo‘naq, qo‘naq, — dedim. — Iz Uzbekistan!

— O‘-o‘, ozbek? — dedi u. — Kakimi sudbami?

— Seychas skaju, — dedim. Borib, u bilan ko‘rishdim. Qo‘li toshdek. Haligi hid ungayam o‘rnab qolgan ekan. Keyin u menga o‘tirgani joy ko‘rsatdi, ya’ni, o‘zi o‘tirgan yog‘och katga ishora qildi. Karavotga eski to‘shak solingan, ustidan yopilgan choyshabga qarab bo‘lmas edi. Qutilardan biriga o‘tirib, fotiha o‘qidim. — O‘tiringlar sizlar ham, — dedim bolalarga.

— Otur, otur, — dedi u kishiyam. — Ozbek-da turk...— Keyin o‘ziyam joyiga cho‘kib, sham qoshidagi yorliqsiz shishasini chetga surib qo‘ydi.

— Gap shunday, — dedim. — O‘zbekistonga bormaysizmi?

U gangib qoldi. Keyin:

— A, pochemu? Chto ya vam delal? — dedi.

Gapini qarang.

— Vi mne nichego ni delali. Vi ponravilis mne,— dedim. O‘rischani eplolmayman, buyog‘ini o‘zbekcha qildim: — Gap shundaki, og‘a, biz o‘zbeklar mehmondo‘st xalqmiz. Bizga boshqa millat vakillari qancha ko‘p borsa, shuncha xursand bo‘lamiz!

— Ne ushun? — deb so‘radi u yonidan uzun trubka olib.

Kechirasiz, men “trubka” dedim. Oltoychada “qangza” deyisharkan mushtukni.

— Drujba, do‘stlikni yaxshi ko‘ramiz-da! — deb uqtirdim. — Mana, davlatimiz ham shuni talab qiladi... Bizning sovxozning nomiyam — “Drujba”, u yerda o‘rislar...

— Ponyatno, — dedi u. — A, pochemu imenno ya...

— E, menga baribir! — dedim. — Borasizmi? Rozi bo‘lsangiz, hozir vokzalga chiqamiz.

— Interesno.

— Interesno emas... Ya proshu, sapxoz prosit... Tushunyapsizmi?

— Ha-ya, men tushunyat, — dedi u. Keyin haligi vinoni olib, og‘zidan qulqillatib ichdi-da, tirjayib so‘radi: — Araqi bor po?

— Bor, bor! — dedim. — Xohlagancha ichasiz! Tekinga, ha, tekinga!

— Vot tak prosto?

— Ha-da!

— Nu-u. — U mushtlarini tizzasiga tirab, boshini sarak-sarak qildi. — A, kvartira?... O'chak, o'chak?

— He, kvartira sizni kutib turipti!

— O'-o', tengerim! — deb u shiftga qaradi. — Bu kiji kam, kamanlayt.

Bu gapi — "Bu kishi shaman, meni shamanlayapti", ya'ni, avrayapti degani ekan.

— Ishonmayapsizmi?

U kishi o'yga tolib qoldi-da, keyin bolalarga nimadir degandi, bittasi katning bosh tomonidan baldoqli piyola olib berdi. Kishi vinodan piyolaga quydi va chayqalib o'rnidan turdi. So'ng hassasini biqiniga tirab qo'yib, kir barmoqlarini ichimlikka tiqdi, so'ngra ro'parasiga qaratib chertdi.

— Ko'k tegreime! — Keyin yana barmoqlarini ho'llab o'ng tomoniga chertdi, ya'ni, vino yuqini sachratdi. — Suu tengerime! — Keyin chap tomoni va orqasiga qaratib chertdi. — Tuu tengerime, Chol tengerime! — So'ngra vinoni ichib qo'ydi.

"Tuu"" degani — tog', "chol" degani — yo'l ekan. Ularning nazarida, bularning, shu — osmon, suv, yo'l yoki tog'ning ham tangrisi bo'larkan.

Balki shularning o'zini — tangri deb o'ylashar? Aniq aytolmayman, tarixni yaxshi bilmayman.

Lekin shu ishlarni qilayotganida bolalar hayajonga tushib, u qaragan tomonga yalt etib qarashar, qiyofalaridan qandaydir ilohiyotga bo'lgan hurmat-ehtiromlari shundoqqina bilinib turardi.

To'g'risi, meni ham qandaydir hayajon chulg'ab olgandi.

Kishi, nihoyat, piyolaga yana quyib, menga tutdi.

— Kechirasiz, men ichmayman, — dedim. — Rahmat, o'zingiz olavering.

U o'ychan bosh irg'ab:

— Tak, znachit... men sizlara ko'nak bo'lam? — dedi.

— E, yashaysiz! — dedim men. — Bir umr yashaysiz! Kechirasiz, bola-chaqa bormi?

U birdan boshini egdi.

— Pala yok, xatun yok, — deb g'uldiradi-da, inqillab yubordi. — Yo'rt yok!

Hoziroq aytsam tuzuk: u kishining xotiniyam, qiziyam bor ekan. Aniqrog'i, bo'lgan ekan. Xotinining ismi— Tarloon, qizining oti — Sirg(g')a ekan.

O'zi... Oltoy muallimlar tayyorlov institutida — dorilmuallliminda o'qituvchi, xalq og'zaki ijodidan dars berarkan. Oltmishinchi yillarning boshida, umuman, Oltoy o'lkasida yerli xalq maktablaridayam darslar o'ris tiliga ko'chiriladi va Umrzoq aka (u kishining ismlari shunday) Maskovga arznomalar yoza boshlaydi. Javob kelavermagach, alamini "araqi"dan olishga tushadi. Shunday kunlarning birida bitta o'ris yigit bilan aytishib qolib qamaladi. Ishi sudga oshirilgach, unga g'alati ayblar qo'yiladi: "Millatchi... Nikompetentniy... xuligan" va hokazo.

Nima deysizki, domla o'n yilga kesiladi. Qamoqdan chiqqach, tabiiy, uni ishga qabul qilmaydilar. Va, eng yomoni... uyiga — o'z uyiga ham "propiska" bo'la olmaydi: buniyam taqiqlab qo'yishgan bo'ladilar...

Xotini Tarloon va qizi Sirg(g')a bilan xo'shlashib, shahar chetidagi mahallada (kvartirada, aniqrog'i, "ko'y"da) farroshlik qila boshlaydi.

Bu vaqtda, endi, u odamgarchilikdan chiqqan bo'ladi: maqsad — kun o'tkazish va ko'ngil yaralariga "araqi"dan malham qo'yish, aniqrog'i, bu dunyoni unutish...

Biroq, u bir narsaga sodiq qoladiki, uni keyinroq aytaman.

Shunday qilib, uning "Pala yok, yo'rt yok" deganidan keyin men:

— E, bizning yurt ham sizning yurtingiz-ku! — dedim. — Boraylik, bola-chaqayam bo'ladi, uy-joy ham!

U bir nafas angrayib qoldi-da, keyin menga qo'l uzatdi.

— Umrzak Ivan Ivanovich.

— Yo'lchiboy, — deb uning qo'lini oldim... Kim biladi, tilimga shu nom keldi-da. Keyin so'radim: — Nimaga "Ivan Ivanovich?" Ota-bobolaringizni o'risga yaqinligi bormi?

— Ay! — deb qo'l siltadi u. — Yok. Biz — shaman, kam... Altay. Turk... No bizim kijilar az... Vsego shestdesyat tisyacha ostalis! O'-o'! I to oni o'rus tilinda so'zlayat... Biz yok olamiz. Mi vimirayushiy narod...

Men bu tomonlarini bilmas edim. Ko'nglim buzilib:

— Yo'q, — dedim. — Siz o'lmaysiz! Bizning yurt — sizningda yurtingiz!

Umrzoq aka g'amgin jilmayib, shishani ko'tardi, tag'in og'zidan bir-ikki qultum ichdi. So'ng menga sinovchan tikilib qolib, qutilarda ko'zlarini lo'q qilib o'tirgan bolakaylarga bir nima degandi, ulardan biri menga qarab:

— Achu, achu, ne achu? — dedi.

G'ira-shira tushundim: bizning o'lkada "achchiq" so'zi shevada albatta: "achuv" deb talaffuz qilinadi. Shuni aniqlashtirib olmoqchiydim, Umrzoq aka o'zi anglatdi:

— Chto gorko v jizni?

Men yelka qisdim. Bolalar bo'lsa quvonishib-kulishib:

— O'(o)lum, o'lum, o'lum, — deyishdi.

Shunda menga topishmoq berganini fahmladim-da:

— Bizdayam topishmoq aytishadi, — dedim. — Topishmoq ko'p. Borsangiz eshitasiz.

Umrzoq aka bu gapimdan qanoatlanib va chamasi ilhomlanib, bolalarga tag'in bir nimalar degandi, ulardan yana biri chuldiradi:

— Erten tura — to'rt buttu, tushte — eki buttu, engirde — uch buttu. Bu ne, tap?

Etlarim jimirlashib ketdi.

— "But" — oyoqmi? — deb so'radim.

— O, da! — deb xitob qildi yerto'la sohibi.

— Odam, — dedim.

Bolalar "odam" so'zini tushunmadi, Umrzoq aka esa:

— Taptu! — dedi. — Hi-ya, kiji, kiji.

Ilgariyam eshitib yurardim-u, bu yerda yana ishondimki, oltoyliklar tilida arab, fors so'zlari juda-juda oz ekan. Islom u yerlarga yetmagan, tojik bilan aloqasi yo'q. Bilasiz-ku?.. So'ngra ular "yapti, yotir" degan qo'shimchalarniyam qo'llashmas ekan.

Ana shunda men Umrzoq akadan bir amallab so'radim:

— Nega menga topishmoq aytyapsiz? Yosh bola bo'lmasam... Tushunolmadim?

Umrzoq aka mening savolimga javoban butun boshli bir ma'ruza o'qidi.

Uning aytishicha, topishmoq, ya'ni, "tabishkak" — Oltoy xalq og'zaki ijodining "kaliti" ekan. Chunki topishmoqlarda Oltoy elining, ya'ni, qadimdan to yaqin-yaqinlargacha ovchilik va chorvachilik bilan shug'ullanib kelgan elning eng ibtidoiy — "yashirin tili" to'la-to'kis aks etarkan. Illo, oltoyliklar atrof-muhit — o'rmon, suv, hayvonlar va parrandalarning shubhasiz Ruhi bor, lekin Ruhlar ko'zga ko'rinmaydi, ularni sira-sira g'azablantirmaslik kerak. Ruhlar ranjisa — xalq och qoladi, ya'ni, ov baror olmaydi, ro'zg'ordan — "o'choq"dan fayz-baraka ko'tariladi deb ishonishar ekan. Ana shuning uchun ular qadim-qadimdan tabiat bobida "ezop tili"ga o'xshash — yashirin lahjada gapirishib kelishar ekan, buning ma'nosi shulki, bironta jonivorniyam asl nomi bilan atashmas ekan... Masalan, "ilon-yilon"ni — "qamchi, qayish", "bo'ri-boru"ni — "ko'k it, uzun quyruq", deyisharkan.

Umrzoq aka shunday misollarni aytar ekan, mening yuragim gurs-gurs urib, juda to'lqinlanib ketdim: he, yoshligimizni eslayman.

"Bo'ri"ni — "jondor" deb atashardi bizda. "Ilon"— "arg'amchi", "ayiq"ni — "polvon"...

Ayniqsa, tunlari bulardan birining ham nomi tilga olinmas edi.

Topishmoqlarning, umuman, topishmoq aytish va topishning boshqa buyuk hikmatlariyam aytildi: jumladan, topishmoqni topish — naq zukkolik, donolik belgisi sanalajagi, ayrim hollarda, deylik, qonli janglarning ham oldi olinajagi. Eslang-e, bor-ku, yana: poshsho uchta topishmoq aytipti. Kim topsa, o'shanga qizini berarmish... Yoki bo'lmasam...

Esladim: kuyovlarning ham aql-farosatini shu tariqa sinovdan o'tkazisharkan...

Darvoqe, Oltoyda yaqingacha kelinlar kuyovdan tortib, uning qarindosh-urug'larigacha — birini ham nomi bilan chaqirmas ekan...

Voy, ular bilan o'zimizning oramizda qanday yaqinlik-qarindoshlik bor-a!

Turkiy deganlariyam shudir.

Xullas, Umrzoq akaning ma'ruzasidan keyin shunday fikrga keldim: bu odamning menga topishmoq berdirishdan murodi — meni sinab ko'rish, pirovardi, o'zimiz tomonni oz bo'lsa-da bilish ekan. Shundan so'ng o'zim ham unga oltoyliklar tabishkagi bilan balki uyg'un keladigan o'zbek topishmoqlaridan ham aytdim.

Oqibat, u kishi:

— Men boram, — deb vinodan tag'in xo'pladi-da, g'iltillagan ko'zlarini menga tikdi. — Sizda kok kol bar po?

Ko'z oldimga qishloq ustidagi tepalik, uning ortidagi — haligi ko'l keldi.

— Bor, bor! — deb yubordim. — A, nimaydi?

— Ochunda uch kol bar! — dedi ko'zlari qandaydir jovdirab. — Oq kol, Qora kol, Ko'k kol... Toyes: tengis, tengis. Ponyal? Beloye more, Chyornoye more, Sineye more.

Qayerdadir o'qiganimni eslab qoldim: qadimda Orol dengizini — Ko'k dengiz yoki Ko'k ko'l deb atashgan... Shunchalar zilol bo'lgan u!

— Rost aytasiz, og'a, — dedim. — O'sha Ko'k dengiz ham biz tomonda.

U bolalarga shodon chuldirab bir nimalarni tushuntirdi. So'ng:

— Kok kol-da uchta! — deb xitob qildi. — Biri bizda olgan... — Umrzoq aka tag'in g'amgin tortib qoldi. — Ul talay, talay, — dedi. — Talay-da — kol, tengis... Ondagi o'rtoliqde, toyes v ostrove jil odin shaman. Stariy-stariy! Suuda balik kop o'lgan. Ulus, kursak to'k... Narod jil xorosho! Ketin o'rus... nu, Altay albati Rossiyaga kirgen tujunda... Nu, kogda Rossiya zavoyeval nashu rodinu, shaman vidit son. Son eto — kijining uyqudagi o'yi... On vidit, chto v ozere ne ostalos balik. Ostalos! No ochen malo i im nichego yest.

— Xo'sh? — dedim.

— Sonra ul shaman o'zini suuge bergen.

— Tushida?

— Da, vo sne! Uyquda... Potom on ushyol ot etix mest! V Ulusay! I destvitelno seychas Ko'k kol myortv. Balik az. Shaman yok. Bu uluschun olum...

Men uning fojiasini, xalqining fojiasini tushundim-da, ko'nglini ko'targim keldi.

Biroq qanday qilib?

Qangzasini tutatib, bir muddat o'ylanib qolgan Umrzoq aka birdan:

— Nukerlarim! — deb, ko'zlari ola-kula bo'lib turgan bolalarga qaradi. — Men ketyat... Ozbekistana! — Keyingi gaplaridan angladimki, "U yoqda Ko'k ko'l bor! U o'lkada — o'z yurtimiz! Men u ko'lning bo'yida shaman bo'lib yashayman!.." dedi.

Shunda bolalar tag'in chuldirashib qolishdi. Bittasi ko'ziga yosh ham oldi.

Bu orada yerto'laga tag'in bir bola — chamamda, boya meni ko'rib qochib ketgan bola tushib keldi. Qo'ltig'ida bir shisha "Chashma" bor ekan, Umrzoq akaga berdi. So'ngra bolalar uni o'zlarining hayajonli gap-so'zlariga tortishdi.

Umrzoq aka esa, endi bu shishani ochib va oz-ozdan yutib, meni hayron qoldirgan ba'zi bir savollarga javob berdi: anavi bolaning mendan qochishiga sabab — meni haligiday mahkamaning odami deb o'ylagan ekan... Qolaversa, bu yerdagi boshqa bolakaylar ham, hatto Umrzoq akaning o'ziyam meni "o'shanaqa" deb o'ylapti oldin. Umuman, buning hayron qoladigan joyi yo'q. Qandaydir bir isqirt, piyonista, qamoqdan chiqqan kimsa yashaydigan sassiq yerto'laga kim ham o'z farzandining kirib, o'sha sondan chiqqan, demak, ishonchsiz-xavfli odam bilan o'tirishi, uning maza-bemaza gaplarini eshitishga qarab turardi?

Buning ustiga, o'sha kimsa mirshablar hisobida turishini mahalla-ko'ydagi ota-onalar yaxshi bilishsa: axir, ular Umrzoq akaga farroshligi va qorovulligi uchun oyiga bir so'mdan yig'ib berisharkan. Demak, ularning ba'zilari "shundoq-shundoq ish" bo'lay-otganidan ko'ydagi soqchiboshisini ogoh qilgan bo'lishi kerak.

Men "bo'lishi kerak" dedim. Aslida, bo'lgan ekan: ha, ayrim ota-onalar hatto bolalarini izlab, badbo'y yerto'laga ham tushishgan va farroshga yaxshigina tanbeh berib ham chiqishgan ekan.

Na ilojki, bolalar Umrzoq akaning gurungiga o'rganib qolishgan ekan.

Endi, "gurung" — Umrzoq akaning "maza-bemaza" gaplariga kelsak, u gaplar bolalarga aytiladigan qadim Oltoy rivoyatlari, ertaklari va... topishmoqlari bo'lib, xususan, topishmoq birinchi o'rinda ekan.

Men pastroq pardada aytdim bu gapni. Aslida, bu mash-g'ulot — yoshlarga olis tarixdan so'zlab berish, yurtga, elga bog'liq tomirlarini mustahkamlash, bu narsani o'yin-aytishuvlar orqali-da singdirish sobiq olimning umr g'oyasi ekan desam bo'ladi.

Shunisi ham borki, mening nazarimda, Umrzoq akaning o'ziyam o'sha olis-toptalgan o'tmish bilan yashardi: bugungi kun haqida biron-bir mulohazasini eshitmadim...

Ruxsat etsangiz, shu o'rinda men bir mulohaza aytsam: Umrzoq aka men bilan jo'nadi — qangzasi, muqovalangan qandaydir qo'lyozmasi (uningcha, bichik), bitta cho'ltoq qalami (karandash-qara tash), besh tiyinlik uch quti tamaki va igna (iyne), ip hamda bir-ikki hovuch kedr yong'og'i (myoshting tobogosi) solingan xaltasini (qapini) ko'tarib jilarkan, "nukerlarim, nukerlarim", deya ko'zi yoshlanganini ko'rib: "Demak, bu odamni haligi mashg'ulotidan ham ko'proq o'ziga tortdi-da biz tomon, — deb o'yladim. — U Ko'k ko'lmikan?" Unday desam, bu mashg'ulot uning umr g'oyasiday edi.

Balki bizda ham o'z qondoshlarining yashashi qiziqtirgandir? Balki, balki u aytmish... "kvartira — o'chak" va odamlar hisobiga kirib, odamga o'xshab yashash...

Xullas, vokzalga jo'nadik.

2

Poyezdda Umrzoq akaning qilgan xarxashalarini aytib o'tirmayman.

Shisha... unga go'dakning so'rg'ichiday bo'p qolgan ekan. Vino sassiq, tamakining badbo'y hidigayam toqatim yo'q...". "Jindak ichmang, dam oling" desam, qovog'ini solib qoladi. Bir gal qattiq mast bo'lganda: "Altayga ketem!" deb turib oldi. Yalinaman-aldayman. Meni tag'in xijolat qilgani — bir-ikki mar-

ta yo'lakka chiqarib qo'yilgan bo'sh shishalarni terib yurgani bo'ldi.

Bir amallab tumanimiz markaziga yetkazib keldim. Poyezddan tushiboq kiyimlar do'koniga opkirdim. O'zi tanlagan kastumshim, poyabzal xarid qildim. Arzimagan narsalar... Soqolini oldirib, gazakxonadan yarim stakan ichirdim-da, bir taksini yollab "Drujba"ga haydatdim.

U kishining kayfi chog', yo'l chetida paxta terayotganlarga g'urur bilan qarar:

— O'-o', beloye zoloto! — deb qo'yardi. Keyin paxta haqida gap ketdi: uning mehnati og'irligi — ekish, begona o'tlardan tozalash va hokazolar haqida so'zlayotgandim, u qiziq bir gapni aytib qoldi. Ma'nosi shuki, Oltoyda "begona o't"larni "yerning o'lon"lari deyisharkan. "Yovvoyi hayvonlar"ni ham — "yerding (yerlik) tindular", uy hayvonlarini esa "asranda" deb atashar ekan.

Menimcha, ular haq.

Umrzoq aka soqol oldirayotgandayoq men "Drujba"ga qo'ng'iroq qilib, "qirqinchi vakil"ni olib borayotganimni va Ivan Ivanovichning fe'l-atvoridan tortib kasb-korigacha sal-pal axborot bergandim. Direktor xursand bo'lib, tomorqali uylar tushayotgan yangi mahallaga opkelishni aytgan edi.

To'g'ri o'sha joyga bordik.

...Shu o'zbeklarimiz qiziq-da: o'zi yemay mehmonga tutadi, deganiyam rost. Uyida aza bo'lsayam mehmonga bildirmaydi, degan gapdayam jon bor.

O'zingizdan qolar gap yo'q, uy-joy masalasi tupkanning tubidagi qishloqdayam muammo...

Mehmonlar esa tayyor uylarga bepo'sht-po'sht...

To'g'ri, o'sha vaqtlarda shundoq edi, ya'ni, uyidan haydab chiqarsang ham, "rahmat" deyishga majbur edi.

Xullas, borsak... eh-he, yaqinda pardozdan chiqqan uch xonali alohida imorat qoshida talay odam. Bolalar ham bor (Haligiday o'n bir-o'n ikki yashar bolalar). Hammaning labida kulgi. Faqat karnay-surnay yetishmaydi...

Uf, uyalib ketasan kishi.

Direktor bizga peshvoz chiqdi. Tantana bilan mashinadan tushdik. Keyin jindak yig'in bo'ldi.

Direktor — meni Oltoyga yuborayotganda o'shandoq gaplarni majruhlik bilan aytgan odam:

— Do'stlar! Mana, bu kishi haqiqiy Oltoy farzandi Ivan Ivanovich Umrzoq aka bo'ladilar! — deb go'yoki terisiga sig'may shodumonlik bilan so'z boshladi. — Elga el qo'shilsa, boylik deydilar: bizning boyligimiz — do'stlikda! Umrzoq aka, xush kelibsiz! Mana, shu uy sizniki!..

Va hokazo...

Shuni aytishim kerakki, bu "ish"lar komediya ekanini shu yerdagi har bir odam bilib turardi. Lekin buni bildirishmas, miyig'laridagi istehzoli tabassum ham samimiyat niqobi ostida edi. Tag'in ularning qarsak chalib yuborganlari...

Odam siyraklashgach, uyga kirib, xonalarni ko'zdan kechirdik: jihozlariyam binoyi.

Oshxonada — ikki otashxonali gaz-plita yonida bir quti sabzi, piyoz, kartoshka, karam ham bor ekan. Umrzoq aka gangib-garangsib qaytib chiqarkan:

— O, markop, kartop, kapusta! — dedi. So'ngra bizga qarab tushuntirdi: Oltoyga o'rislar bilan birga kirib kelgan yemakmi, narsa-predmetmi borki, ular o'z nomi bilan atalarkan. Masalan, "soat"niyam — "chas", "jo'xarini"yam — "kukuruza" deyisharkan... Shu quti boshida uning nima ish qilajagiyam tayin bo'ldi.

Umrzoq aka quti yonida yotgan yangi supurgiga tikilib qoldi-da, birdan uni olib:

— Sibirgi, sibirgi! — dedi qadrdonini topgandek. Keyin direktorga muddaosini aytdi: — Ya budu storojom! Karauul... — Keyin taxtapolni supurgandek qilib, qaddini ko'tardi-da, endi direktor boboni sinamoqchidek: — Yuz qo'ydi pir chivikla kajirdim. Bu ne, tap? — dedi. So'ng topishmog'ini o'rischaga ag'dardi.

Direktor xo'rsindi.

— Shu qishloqni berdim, o'zing ayt.

Umrzoq aka bu gapni eshitib, shunday rohatlanib kuldiki, oxiri ko'ksovdek yo'talib qoldi. So'ngra Oltoyda ham topishmoqni to-

polmagan kishi "shahar berishi"ni yoxud kulgili bir laqab bilan atalishga rozi bo'lishini aytdi. So'ng supurgini salmoqlab, tepaga ko'tardi.

— Sibirgi!

Biz tushundik.

Imoratning atrofida talay qari daraxtlar bor, taqir yerda ularning yaproqlari to'shalib yotar, tevarak hali biron to'siq bilan o'rab olinmagan edi.

Huv uzoq-yaqindagi ayrim uylarga odamlar ko'chib kirishgan, tabiiy, o'zlarining uylari oldini supurib-sidirishar, demoqchimanki, bu yangi mahallada farrosh uchun ish yo'q hisobi edi: chunki xonadon egalari asosan o'zbeklar va tojiklar ediki, o'zingiz bilasiz, supurish-sidirish ularning kelinlaridan ham ortmaydi.

Shu boisdan, direktor ketayotganida shu to'g'rida gap ochgandim, u kishi bu masalani biz kelguncha hal etib qo'yganday tuproq yo'l tutashgan asfalt ko'chaning narigi betidagi besh qavatli imoratlarni ko'rsatdi.

— Tushundim, — dedim.

Keyin direktor Umrzoq aka bilan xo'shlashdi.

— Hozircha xayr, o'rtoq Ivan Ivanovich... Bizning idora huv jilg'aning bo'yida. Tomiga qarang, qizil bayrog'i bor. Agar biron gap chiqib qolsa, marhamat! — Keyin kulib, mehmonning qo'lini siqdi... — Biz sizni uylantirish masalasiniyam o'ylab ko'ramiz... Xo'sh, nima bo'lsayam o'zimizdan, him, qavmlarimiz yurtidan kelgansiz... Lekin endi O'zbekiston ham sizning yurtingiz bo'ldi. Ha-ha, yashasin drujba! Hindi rus-u bxay-bxay...

Keyin menga qishloqning uyoq-buyog'ini ko'rsatishni, ichkilik zaril bo'lsa "Habib bupitchi"ga aytib qo'yganini tayinlab:

— Paxta terimiga hushi bo'lsa, ungayam xo'p, — dedi.

Men Umrzoq akani ergashtirib, o'sha imoratlar tomonga boshladim. Uch-to'rtta bolakay nari-berida turishgan edi, ular ham izimizdan tushdi. Ko'nglimdan har xil o'y o'tadi deng: bolalarni chaqirib, topishmoq aytsammi? Uni quvontirgan "beloye zoloto"ni terish, o, yarim soatda uni beldan qoldirishini tushuntirsammi?

Shunda Umrzoq aka birdan to'xtab, beton ariqqa engashdi. Ariqning iflos suvidan ho'l bir kalamush chiqib qochdi. Shunga engashdimi desam, u bo'yni chiqib turgan bir shishani olyapti. Shartta qo'lidan tortdim.

— Qo'ying uni! Bo'ldi endi... Bu yer sizga Barnaul emas! Aytdim-ku, bu yerda aroq ham tekin!

U dam xo'rsinib, dam tamshanib, biroz jim-parishon yurdi-da, tag'in birdan to'xtab, yo'l chetini ko'rsatdi.

— Ura! Ura!

Hayron bo'ldim: "Nimaga "ura!" deyapti?" E'tibor qilsam, bitta imoratning yerto'lasiga ishora qilyapti.

— H-a, podval esga tushdimi?

— Da-da! — dedi u ko'zlari o'ynab. — Ura u.

— E-e, ura... yo'q, — dedim. — Sizning uyingiz bor, Umrzoq og'a. O'chaq bor... Endi boshqacha yashaysiz. Tushunyapsizmi? Odamga o'xshab...

U kishi xuddi arog'ini olib qo'yganimdek qovog'ini solib oldi. So'ng atrofga boqib chuqur xo'rsindi-da, bolalarga ko'zi tushib, birdan tirjaydi.

— Kel, kel, — dedi ularni imlab. Va bemalol cho'nqayib, tag'in yerto'lani qo'li bilan ko'rsatdi. Bolalar ham yugurishib kelib, yerto'lada bir narsa bordek tikilishdi. So'ng Umrzoq aka menga jilmayib qo'yib:— Ko'lonqozi yok qara at. Bu ne, tap? — dedi. Keyin bolalarga bir-bir ko'z tikib, o'rnidan turdi.

— Rassom amaki, bu qozoq nima deyapti? — deb so'radi bolalardan biri.

— Topishmoq aytdi, — dedim. — Ko'lankasi yo'q qora ot. Nima? Topinglar!

— Vey, shunaqa ot ham bo'ladimi?

Bo'g'inlarim bo'shashib ketdi: bilardim, bizning hozirgi bolalar bunaqa topishmoq-mopishmoqlarga qiziqishmaydi... Nimaga, aka? Bunga ehtiyoj sezishmaydimi? Yoki muallimlar, maktab... Ha-ha, biz tabiatdan uzoqlashib ketganmiz... Lekin Barnauldagi bolakaylar bilishadi-ku? Holbuki, ular ham ona tabiatlaridan... Ana bu gapingiz ma'qul, Umrzoq akaday...

Topishmoqning javobini... men ham bilmasdim. Ana, rahmat. Siz ham bilmaysiz.

Umrzoq aka nihoyat:

— O'ra, o-ora, — dedi. — yertola... — Keyin menga ta'na nazari bilan boqdi.

Habibning "bupiti" bu imoratlarning adog'ida edi. Bizni ko'riboq peshtaxta oldiga chiqdi. Bir qo'lini ortidan olmay, birini ko'ksiga bosib salom berdi. Keyin:

— Dod! — deb xitob qildi. — Priyezjayte k nam v Uzbekistan! — So'ng anavi qo'lida bir shisha "Russkaya vodka" bor ekan, Umrzoq akaga dangal uzatdi. — Proshu, ne otkaji, ates! Yana nima xizmat bor, rassom aka?

Umrzoq aka ko'zlariga ishonmagandek birpas tek qotdi-da, keyin Habibga irshayib:

— Uni yarash ul ne, tap? — dedi.

Habib menga qoshini uchirdi.

— Topishmoq aytdi. Ichi to'lib ketgan topishmoqqa,— dedim. Keyin Umrzoq akadan "tabishkakti" o'rischaga ag'darib aytishini so'radim. U hozirjavoblik qildi:

— S prekrasnim golosom yunosha-krasavets!

Oltoylikning havosini ola boshlagan edim.

— Uni... ya'ni, tovushi yarashgan... o'ziga yarashgan ul, ya'ni o'g'il, — deb sharhladim.

Shunda Umrzoq aka shishani ko'rsatdi.

— Bu ne?

— Araq, — dedi Habib.

— Shu.

Habib kulib yubordi.

— O'-o', alkash!

Men toliqqan edim. Yo'ldangina emas, shu odam bilan muloqotdan ham: dam g'ashing keladi, dam rahming. Hurmat ham qilasan, siltab ketging ham keladi. Bundan tashqari, mening ishlarim o'lda-jo'lda qolib ketgan edi: tirikchilik...

Umrzoq akani uyiga kiritdim-da, xayrlashdim. Tez-tez kelib turishimni aytdim, u farroshlik qiladigan joyni eslatdim, juda zaril bo'lib qolsam, direktordan so'raysiz, dedim.

Buyurtmalar ham ko'payib qolgan ekan. Bayram yaqin. Ko'p shiorlar qaytadan yozilishi kerak.

Xullas, oradan o'n kunlar o'tdi. Qo'shni qishloqda edim, pochtaga chaqirib qolishdi. Telefonga. Dastakni olsam — direktor:

— He, uka, bu mehmoningiz hech o'xshamayapti. Bu boshqachasi ekan. Odam xijolat bo'lyapti... — dedi.

Men gap nimadaligini o'zimcha taxmin qildim. Va haqiqatan shunday bo'lib chiqdi: uyiga kelsam, eshik berk, kalit tutqichiga bog'lab qo'yilgan. Haligi imoratlar orasidan haryoqqa... yerto'lalarga-da... ha, kechasi... podvallarga ko'z solib boraverdim. "O'ra" deganimga yetganda to'xtab, zinapoya boshiga bordim. Shu-shu: pastdan chiroq shu'lasi ko'rindi.

Direktor bekorga shu yerlarni supurib-sidirib yursin demagandi. Ayniqsa, o'ris birodarlar yashaydigan uylarning atrofiga qarab bo'lmaydi. Bilmadim, bog'-rog', ekin-tekinga qiziqmaydimi bular... Xullas, bu yerto'laning oldida Barnauldagi "o'ra"ning "o'lsa o'ligi" ortiq edi.

Sham topolmaganmi — paxta moyli shishaning og'zini loylab, pilik eshib solingan: miltillab yonyapti. Har xil qutilarni bir-biriga taqab qo'yib, yotsa bo'ladigan kat yasabdi. Kat ustida eshakka jul bo'lmaydigan bir to'shak. O'tiripti Umrzoq aka. Soqoli yana o'sib ketgan. Egnida... O'sha isqirt paxtalik. Qo'lida qangzasi, butlari orasida bir shisha "Chashma". Meni ko'rib Umrzoq akaning kichkina ko'zlari kattarib ketdi. Hassasini olmayoq likonglab qoldi... Sasib-bijib ketgan, qandaydir shishgan.

Quchoqlab o'pmoqchi bo'layotgandi, bir amallab joyiga o't-qazdim. O'zim ham bir qutini opqo'yib o'tirdim.

— Xo'sh, Oltoyga qaytasizmi? — deb so'radim dabdurustdan.

Uning ko'zlari yaltillab ketdi-yu:

— O-o, yok... Ko'k kolga opor, — dedi. — Sen yaxshi kiji. Direktor-da yaxshi kiji...

— Bolalar-chi? — dedim. — Kep turishadimi?

U chuqur xo'rsinib:

— Olar tabishkak bilmayat... Olardi atazi, enezi qo'ymayat... Ya ne mogu jit. Vot vsyo! — dedi. — Pokaji mne Kok ko'l. Proshu tebya. Zdes nikto ne znayet...

Haqiqatan ham, ul qadimda Ko'k ko'l deyilgandir. Lekin buning maqsadini bilganlar ham oborishga eringandir... Qolaversa, u yerga borish taqiqlangan: shuning uchun ko'lning butun atrofi tikanli simdevor bilan o'rab qo'yilgan edi.

"E, mendan nima ketadi?"

— Yuring, Umrzoq aka!

U qopi bilan hassasini olib, menga ergashdi. Chiroqni o'chirib, gugurt chaqib, tepaga chiqib oldik. Havo sovub qolgan edi. Tuproq yo'lga tushib, keyin ko'chalarni kesib o'tib, muzeyga chiqib bordik. Tasavvur qilasizmi, bu odam xursand edi! O'z tilida bijillab bir nimalar der, so'ngra "tengerim, tengerim" deb qo'yardi. Topishmoq ham aytuvdi, o'zimni eshitmaganga oldim. Xafa edimda, aka. Dunyoning badkorliklaridan ko'nglim abgor edi: bu odam o'z yurtida, o'sha... Ulusoyga ketib qolgan kam-shaman ham o'sha Ko'k ko'ldagi orolda yashab qolaverishi mumkin edi-ku?

Ha-ha... Bu odamning axir xizmat joyi, uyi-o'chog'i, xotini Tarloon, qizi Sirg'a...

Kechasi u ikki-uch marta turib suv ichdi. Men buklama karavotda edim, u yerda yotgan bo'lsayam bilindi. Xurrakniyam otar ekan. Saharlab yana uyg'otdi.

— Yangmar yaaadi!

Tashqariga chiqsam, chindan ham yomg'ir savalayapti.

Umrzoq aka yana xaltasini ko'tarib oldi: xuddi bu yerga qaytmaydiganday!

Haligi — ko'l suvi oqib chiqqan joyga yetganimizda yana topishmoq aytib qoldi-ku:

— Qiziq elik yatgan yerdin o'lon chikpas! Tap!.. Nu, tam, gde lejala krasnaya kosulya, trava ne rastet.

— Ne znayu, — dedim.

— Ko'k koldi berding?

— Ko'k dengizniyam berdim.

U taqqa to'xtab qoldi-da, hassasi bilan xaltasini ko'tarib bir aylandi. Keyin:

— Eto je "sled ot pojara!" — dedi. — "Ortting orni!.. vot, smotri, zdes je bil pojar, da?

— Ha, — dedim. — Rost aytasiz... O'lmasak ko'ramiz, bu qishloqdayam bir kuni pojar bo'ladi.

Simto'siqning mayishib qolgan joyidan o'tib oldik. O'rkachga chiqqach, etakda ko'l ko'rindi: qop-qora, yaltiraydi, poyabzalga surtadigan qora moyning o'zi...

— Mana, Ko'kko'l!

U turgan yerida shilq etib o'tirib qoldi.

Keyin nari-beriga dumalay boshladi. So'ngra atrofimda o'rmalab:

— Chindik so'zing po? — dedi.

— Chin so'zim, — dedim.

Shunda u bo'riday uvlab yuborsa bo'ladimi! Taxta bo'lib qoldim. Tag'in javragani:

— O'lum, o'lum, o'lum...

— Rost, og'a.

— E, tengerim! — U boshiga mushtlay boshladi. — Kol yok, yo'rt yok, chol yok...

Meniyam ko'zimga yosh kelib o'tirib oldim. Lekin ko'l uchun u... mendan yuz chandon ortiq kuymoqda edi.

Ana shunda ishondimki, bu odam haqiqatan ham... avvalo, shu ko'l uchun kelgan ekan, shuni deb taklifimga unagan ekan. Demak, uni uy-joy, xotin, hatto tekin araq ham unchalik tortmagan ekan... Balki bu ko'l unga istiqbol chirog'i bo'lib ko'ringandir?

"Chashma"sidan uch-to'rt qultum olgach, bir mahal o'ziga keldi. Men uni chalg'itish uchun so'radim:

— Sizlar oldin ham aroq icharmidinglar?

— O, da! — dedi u. — Biyaning sudidan araqi qilyat... "Araqi" — biizdi so'z. Turk so'zi — Keyin:— Ey, yaxshi kiji, — deya xaltasini kavlab baldoqli piyolasini chiqardi, unga vinodan quyib, menga uzatdi. — Al ayaqti. Ich. Men tamada... — So'ng quvnabgina tushuntirdi: — Tamada — tama-ada. Tamaa — tamaq, atdazi — atasi. Tamaq ata — tamada.

Baribir icholmadim.

U miyig'ida kulimsirab, tog' bag'ridagi zavod tomonga — oq-sovuq tutunga boqib qoldi.

— Bu yo'rt Ozbekiston po?

— Albatta, — dedim.

— Yok, — dedi u kulimsirashini qo'ymay. — Bu yo'rt — Drujba... — So'ng hiqillab pichirlay boshladi: — Bizim Oltoy-da "drujba-drujba" deb yok oldu...

— Biz unday bo'lmaymiz, — dedim. — Chunki xalqimiz hamma narsani tushunib turipti.

— Ho'o' nukerim.

Uzr, birgina izoh: asl oltoylik oddiy odamniyam "nuker", ya'ni "navkar" deb atar ekan, nega bundayligini o'ylasang, xayoling moziylarga og'adi...

Keyin Umrzoq aka bo'shagan shishani Qora ko'lga otib yubordi. Shisha "suv"ga botdi-yu, qorayib yonboshlab qoldi. Aytmasam bo'lmas: bu ko'l ham juda sassiq, shuning uchunmi deyman, ustidan qushlar ham uchib o'tmas edi.

— Men Ko'k tengise ketiyam! — Umrzoq aka tuyqus shunday deb o'rnidan turdi.

— O'-o', u dengiz juda yiroqda! — dedim. Keyin qolganiniyam aytdim: — U Orol ko'li-ku?

U horg'in bosh irg'adi.

— Hi-ya, hi-ya... No, Ko'k tengiz — moya mechta! — deb xitob qildi keyin.

— A, vi znayete yeyo sostoyaniye? — so'radim undan. — Ko'k tengis quriyat. Balik yok.

— Bar! — dedi u jahl bilan. — Ko'k tengis paka tiri! Onda ortalktar bar... Tam budu jit i shamanit, aka Altayskiy shaman! Baliktar ach olsa, ozumni berem!

Men, harqalay, sovxoz direktorining oldidan o'tish lozimligini aytdim. Ammo...

...U kelmadi.

Ertasi eshitsak, Umrzoq akani "N" vokzalida ko'rishibdi tanishlar. Egnida "qap"i, likonglab yurganmish. Keyin "Toshkent-Qo'ng'irot" poyezdiga o'tirib ketibdi.

1991

CHILLAK O'YIN

Bolalar haqida...
Nafaqat bolalarga.
Muallif

Bahor. Men bog'imiz adog'idagi devorning u yog'ida yastangan yalanglikka chiqaman. Onam ishda — ertalab jiyron otimizni minib ketgan. Singlim Ra'no dugonalari bilan qo'g'irchoq o'ynaydi. Men nima qilay? Uyda o'tiraymi? Darslarim tayyor. Kechasi bajarib qo'yganman. Tushgacha kunni o'tkazish kerak.

Chillak, ya'ni onasop bilan bolasopni olib yo'ng'ichqapoyaga yo'rtaman. Rahmatlarning devori yoniga borib, bukri yong'oqning tanasiga onasop bilan bir-ikki uraman. Keyin yerga yiqilgan shoxlarni, butoqlarni savalayman. Ishqilib, ovoz chiqsin. Rahmat eshitsin. Bo'lmasa kim bilan o'ynayman. Guzardagi bari bola ertalabdan maktabga ketgan, birinchi smenada o'qishadi. Faqat Rahmat bilan men ikkinchi smenada. To'g'ri, u mendan bir sinf yuqori o'qiydi — yettinchida. Shunday qilib, uni qarsillataman, ashula aytaman. Kimnidir chaqirgan bo'laman. Oxiri "Rahmat go'ppon" chiqib keladi.

U semiz, yelkalari keng bola. Engashib yuradi, yerdan bir narsa topadigandek. Shuning uchunmi unga kimdir "go'ppon" deb laqab qo'ygan-u, uyam o'sha laqabga o'rganib qolgan. Lekin o'zi ho'kizdek kuchli. Bilaklari yo'g'on, chillakni ursa.. O! Chillakbolani ikki adir nariga o'tkazib yuboradi.

— Ha, Bo'rijon, nima qilyapsan? — deydi u devordan qarab.

— O'zim. Chillak o'ynayapman, — deyman. — Keling.

— Sen g'irromlik qilasan.

Men jim qolaman. G'irromlik qilaman unga. Masalan, chillak o'ynayapmiz deylik. O'yin oxirida kimdir zuvillashi kerak. Kimdir chillakni uzoqqa otishi kerak. Qurib ketkur, hamma vaqt Rahmat birinchi bo'lib tugallaydi. Ya'ni, men urgan chillakbola, qayerga tushmasin, u otganida naq onasopning yoniga kelib "yotardi". Shu bilan tamom. U urardi chillakbolani. Men uni onasiga yaqinlata olmasdim ham. Keyin nima bo'lardi? U qadamlab sanardi. Marra-

gacha. Keyin yana urardi. Yana boyagi ahvol. Bir vaqt qarabsizki, o'yin adoq bo'libdi. Navbat bizni zuvillatishga kelibdi.

Nima qilardim? Qarab turardim. U yenglarini shimarib, onasopni olib bolasopni tepaga otib, pastdan "Bir, ikki, uch, to'rt" deb, chillakbolani yerga tushirmay koptokdek sapchitib-urib sanayberardi. Bolasopni to'rt marta sakratib, onasopni unga tegizolgan bo'lsa, to'rt qo'l uradi. Bolasopni onasopning tumshug'idagi kemtikka qo'yib, bir sakratadi-da, onasop bilan shunday uradi — bolasop kamida oltmish-yetmish qadam nariga borib tushadi. Keyin u yerga borib, "ikkinchi chillakni" uradi. Keyin uchinchisini... To'g'ri, onasop bolasopga tegmay qolishi ham, bir uchiga "chirt" etib tegibgina ketishiyam mumkin. Lekin Rahmatda hech shunday bo'lmasdi.

Xo'sh, u urgan deylik, uch chillak masofani zuvillab kelish osonmi? Gap oson yo qiyinlikda emas. O'yinning tartibi shu: yutqazdingmi, zuvillashing kerak.

Lekin men... hali aytganimdek ish qilardimda. Ya'ni, u bolasopni sakratib sanay boshlar ekan, asta nari-beri qarab olardim-da, g'izillab qochib qolardim. Devorimizdan sakrab o'tib ketardim. Buyam yetmaganday to'g'ri uyga kirib, eshikni ichkaridan zanjirlab olardim-u, derazadan qarab turardim.

Rahmat bechora ba'zan devor kemtigidan oshib, uyimizga kelardi. Derazani taqillatardi. Keyin supa labiga o'tirib olardi. Men derazadan qarab turaman deng. U, zuvillab ber, deb yalinardi.

Xullas kalom, o'sha kuniyam Rahmat go'pponni bir amallab devordan bu yoqqa tushirdim.

— G'irromlik qilmaysanmi? — dedi u.

— G'irromlik qilsam, o'lay!

— Qasam ichding-a?

— Qasam ichdim.

O'ynay boshladik. Yana o'sha ahvol. Sal vaqt o'tmay Rahmat o'yinni tamom qildi. Demak, u meni zuvillatishi kerak. Keyin men uni zuvillatishim mumkin.

Jim turibman. Rahmat bolasopni irg'itib urdi. Zing'illab ketdi. Yetmish qadamlar nariga tushdi-yov. Sekin yurib bordik. U menga qarab-qarab qo'yadi. Men jim. Ikkinchi chillakniyam

urdi. Yana shuncha masofaga ketdi. Cho'tlab ko'rsam zuvillab kelolmayman.

Uchinchi chillakniyam urdi-ye! Meteostansiya degan joy bor edi. Ob-havoni tekshiradigan idora. O'shaning hovlisiga borib tushdi. O'la qolsam ham u yerdan marragacha zuvillab kelolmasdim. Rahmat chillakbola tushgan yergacha bilagimdan ushlab bordi.

Xo'p, chillakbolani oldim. Chuqur-chuqur nafas ham oldim. Nima uchundir kaftlarimgayam tufladim. So'ng xuddi o'ljaga otiladigan tozidek oyoqlarim bilan turgan yerimni depsinib "tirnab" ham ko'rdim. Nihoyat, chopdim.

Rahmat ham men bilan yonma-yon chopib kelyapti. Uning ahvoli og'ir. Chopgani ustiga tag'in mening og'zimga qarashiyam kerak. Chunki nafas olib qolishim mumkin. Unda... yana g'irromlik bo'ladi.

E, chopaverdim. Oxir... yo'q, bo'lmadi. Chamamda marraga yetar ham edik. Lekin erinchoqlikmi, nima balo bo'ldi-yu, yerga tikila boshladim. Bir yumronning iniga ko'zim tushdi. Yaqinda tuproq chiqargan. Sariqqina bo'lib turibdi. Shunga qarab burila boshladim. Boshiga yetganda, chilakbolaning uchiga tupurib, yumronning iniga tashlab yubordim.

Nazarimda, chillakbola chuqur ketmasligi kerak edi. Uning uchginasi ko'rinib qoldi. O'zi, o'yinning qonuni shu: marraga yetolmagan o'yinchi bolasopni biron teshikka tiqib yuborishi yoki do'ppisining ichiga tupurib, keyin uni do'ppida qisib turishi kerak. Raqib uni onasop bilan urib tushirishi lozim. Lekin Rahmat sho'rlik yumron iniga tushib ketgan bolasopni qanday urib chiqara oladi? Tag'in shunisi borki, urib chiqargach, havoda yana to'xtovsiz urib qolishi kerak. Keyin chillakbola borib tushgan yeridan yana zuvillash lozim.

Rahmat yumron iniga tikildi. Xo'p tikildi-da:

— Sen uyaga tupurmading, chillakbolaga tupurding,— dedi.

— E, chillakbolaga tupursam nima, — dedim. —Baribir tupugim yerga tegadi.

— G'irrom.

— O'zingiz g'irrom.

Rahmat bolasopni urib chiqarish uchun xo'p o'yladi. Iloji yo'q. Nihoyat, onasop bilan chillakbolaning uchiga bir turtdi-da, indamay ketib qoldi.

— Ho, — deb baqirdim. — Men zuvillayman!

— Zuvillasang, zuvillayver!

Bolasopni indan chiqarib olib, bir zuvilladim. Hademay marraga yetib bordim. Keyin onasopni o'nglab, Rahmatning yo'liga chiqdim.

— Qayoqqa?

— Sen bilan o'ynamayman.

— Zuvillaysiz.

Bechora biroz o'ylab turdi-da:

— Mayli. Lekin keyin o'ynamayman, — dedi.

— Bo'pti. — Ikki chillakkayam zuvillasa harna-da deb, onasopning kemtigiga bolasopni qo'ydim. Sakratib, tik-tik ura boshladim. Qarangki, beshta bo'ldi.

E, mening xursandligim! Buning ustiga, birinchi chillagimoq kamida oltmish qadam joyga borib tushdi. Ikkinchisi undan nariga. Xullas, men ham bolasopni meteostansiya binosidan oshirdim. Rahmat go'ppon eran-qaran borib, chillakbolani oldi. Marraga qarab yugurdi. Men u bilan yonma-yon boryapman. Terlab ketdi. Qizara boshladi. Chamamda, ko'kara boshlaganda, marraga yetib bolasop qo'yiladigan chiziqqa tupurdi-da, birpas dir-dir titrab turdi. Keyin "o'h-o'h" deya yo'talib, uyiga ketdi.

Men ham xursand bo'lib uyga qaytdim.

Oradan yana bir kun o'tdi.

Yana chillakni ko'tarib, hayatga o'tdim. Rahmatlarning devori tagiga yetdim. Bukri yong'oqdan tushgan shoxlarga qarsillatib soldim. Keyin yong'oqning tanasiga tushira boshladim. Qobiqlari ko'chib ketdi. Qani endi Rahmat chiqsa!

Keyin chillakbolani havoga irg'itib, har tarafga ura boshladim. Qurib ketgur deng, endi uchadi! Sakson qadamlar nariga borib tushdi. Shunaqangi qilib to'rtta chillak ursam, Rahmat go'ppon zuvillab kelguncha o'pkasi tamom bo'ladi. Shunday qilib, chillakni qarsillatib urayotgan edim, Rahmat devordan qaradi.

Uyam zerikadi, bechora. O'ynagisi keladi. To'g'ri, u o'rtacha o'qirdi. Lekin mening nima ishim bor?!

Maqtanish emas, aytib qo'yay, maktabda yaxshi o'qirdim. A'lochilardan edim. Lekin haligiday qitmirlik deysizmi... shundan ham oz-moz bor ekan-da.

— O'ynaymizmi? — so'radim.

— G'irromlik qilmaysanmi? — dedi.

Nimagadir bu gap menga og'ir botib ketdi.

— Agar o'ynamasangiz, sizni "go'ppon" deyman! — dedim.

Shunday kelishuvimiz bor edi. Bir kun u yalingandi-da: "Bo'rijon, shunday dema. Mayli, boshqalar aytsayam sen aytma. Qo'shnimiz-ku, uka".

Rahmat orqasiga burildi.

— Ra-mat aka, aka-a!

— Nima deysan?

— Hazillashdim. Keling aka, o'ynaylik... Endi g'irromlik qilmayman!

U biroz jim turdi. Keyin devordan oshib tushdi.

O'sha kuni bozor edi. Lekin, nima uchun Rahmatni so'rab chiqqanimni bilmayman. Boshqa bolalarniyam so'roqlasam bo'lardi. Kim biladi, unga o'rganib qolgan ekanmanmi...

O'ynay boshladik. Men endi jiddiy, ehtiyotkor edim. U bo'lsa har ikki gapning birida mening qachon qochib ketishim, qachon g'irromlik qilishimni aytar, kulimsirardi. Oh, mening joni-jonimdan o'tib keta boshladi, uning gaplari!..

Chillak o'yin odatdagicha tamom bo'ldi. U bolasopni sakratib, tagidan asta-sekin urar ekan, o'zim ham sanar edim: sakkizta bo'ldi.

"O'ldim!" deb o'yladim. Lekin negadir qochgim kelmas edi. Mug'ombirlik qilishniyam o'ylamasdim.

Nihoyat u ura boshladi. Birinchi chillak, ikkinchi chillak, uchinchi chillak...

Meteostansiyadan ham o'tib ketdi. "Ibrat" kolxozining hovuziga boradigan ariqqa yetdik.

Bolasop ariqning ichida.

Uni oldim. Oldim-u, nima jin urdi meni, shartta ariqqa tushdim. Muzdekkina. Loy.

— Zuvillaymi? — dedim.

— Zuvilla, — dedi Rahmat.

O'ylab turib, do'ppimni oldim-da, buklab tishladim. Sezib turibman Rahmat xursand bo'ldi. Bunaqada nafas olaman desang ham, ololmaysan.

Lekin marraga yetishim ham... e-he, bir soat nafas olmay yugursam ham, yetishim gumon. Birdan zuvillab jo'nadim. Rahmat yonimda. Og'zimga tikilib boryapti. Ko'zi menda bo'lgani uchun qoqilib ketadi. Bir-ikki yiqildi. Lekin men vaqtdan foydalanib, nafas olsam bo'lardi. Negadir ololmabman. U yana menga yetib oladi. Ketyapman. Sezdim. Qizara boshladim, qandaydir shishib ham ketdim. Keyin, yaqinda Rahmat ko'karganidek ko'karishgayam tushdim deyman. Lekin ketyapman.

Oxiri.. bo'lmadi-da! Nafas olmay bo'ladimi? Bora-bora tekisroq joyga yetganda, do'ppini og'zimga oldim-u, o't ustiga tupurdim. Rahmat mamnun bo'lib kulimsiradi.

— Tuzuk-tuzuk, — deb o'ziyam nafasini rostlab oldi. Keyin chillakbolani xuddi tupurgan yerimga qo'yib, uchiga shunday turtgan edi, u xuddi chigirtkadek dik etib sakrab ketdi. Shu paytning o'zida Rahmat ura qoldi.

Bilmadim, bolasopning qayeriga urdi. U uchgandan uchib, yolg'on emas, ko'rinmay ketdi.

Qarangki, xuddi hovuzning bo'yiga borib tushibdi. Rahmat chillakbolani olib, menga berdi. Men uni olib, tag'in do'ppimni buklab tishladim. Tag'in zuvillay ketdim. Ariqdan o'tayotganda toyib yiqildim. Lekin zuvillashdan to'xtamadim. To'xtasam, u yana chillak urishi kerak.

Tura solib, yana chopa ketdim. Boyagi yotgan yerimga yaqinlashish qayda... ancha berida holdan toyib, to'xtab qoldim. Do'ppini og'zimdan olib yerga tupurdim. Tupugim bir toshga tushgan ekan.

Rahmat chillakbolani shu toshga qo'yib tag'in sal urgandi, u sapchib ketdi. Endi, ishoning-ishonmang, chillakbola hovuzning naryog'idagi hammom hovlisiga borib tushdi. Saldan keyin qarab-

sizki, qishloqdan chiqdik. Pillachilarga mingbosh o'radigan dashtdamiz. Rahmatning o'ziyam holdan toygan ekanmi, endi chillak urishga shoshilmadi.

Birpas u yoq-bu yoqdan gaplashdik. Keyin men:

— Uring! Hozir kech bo'ladi! — dedim.

U jahl bilan yana urdi...

...Dashtning adog'ida Ko'kqiya boshlanadi. O'sha yerga yetdik. Menda qadam bosishga majol yo'q. Rahmat ham charchab bo'lganicha bo'lgan.

— Bo'rijon, ke, bo'ldi qilaylik, — dedi nihoyat.

— Nima deyapsiz? — baqirib yubordim. Qiziq! Odam shunaqa bo'lib qolishi mumkin ekan.

— Urasiz. Zuvillayman! — dedim.

— Bo'lmasa, zuvilla!

— Xo'p.

Mingbosh o'radigan dashtimizning yarmigayam yetolmadim. Ishoning-ishonmang, kun botib ketgan edi. Podalar qaytadigan paytdan ham osha boshladi.

Rahmatning chillagi endi Ko'kqiyaning soyiga tushib ketdi. Biz tepalik yoqasiga yetganda Rahmat mening bilagimdan ushladi.

— Bo'rijon, qo'y. O'zim senga chillakbola yasab beraman.

— Yo'q. Nima deyapsiz siz? — Endi chinqirib yubordim. Ko'zimga hech narsa ko'rinmasdi. — Yuring! — dedim. — Chillakbolani topamiz. Men zuvillab chiqaman.

Biz soyga endik. Chillakbola sho'rsuv oqayotgan jilg'aga tushgan ekan. Oldim. Rahmat menga qarab turibdi.

— Bo'rijon, — dedi. Tavba, ko'zi jiqqa yoshga to'lgan edi. — Men kechdim.

— Kechmaysiz. Biz o'ynayapmiz!

— Axir, charchading! — U o'tirib oldi. — Meniyam qornim ochib ketdi. Jo'yak olaman deb hech narsa yemagan edim.

— Menga baribir.

Rahmat irg'ib turdi.

Men yana zuvilladim. Ko'kqiyaning o'rkachiga chiqdim deganda yuztuban yiqilib qoldim. Rahmat kelib ko'tarmoqchi

bo‘lgandi, siltanib, o‘zim o‘tirib oldim. Lekin hadeb o‘tirish, dam olish ham tartibni buzish sanaladi. Entikib o‘rnimdan turdim-da, chillakbolani uning qo‘liga berdim.

U bir bolasopga qaradi, bir menga. Keyin uni yerga tashladi. Men shosha-pisha yerga tupurdim-da, chillakbolani qo‘ydim. Rahmat uzoq o‘ylandi. Keyin yengini shimarib, tag‘in bir turtgandi, chillakbola o‘ynab ketdi. Rahmat yana onasopni siltadi. Keyin chillakbola qayoqqa uchdi? Rahmat ham, men ham bilolmay qoldik.

— Yuring. Topamiz.

— Topolmaysan.

Jinni bo‘lgan ekanman-da!

Uning yengidan ushlab oldim. Ana shunda Rahmat birdan yerga o‘tirib oldi-da, uyalmay-netmay yig‘lab yubordi.

Men hayron.

— Ra-mat aka?

— E, bor-e, — u o‘rnidan turib keta boshladi. Men uning yo‘lini to‘sdim.

— Nima deysan axir? O‘ynamayman sen bilan, — deb baqirib yubordi.

Shunda sal-pal o‘zimga keldim, shekilli. Endi uni tutib turishdan foyda yo‘qligiga aqlim yetdi.

— Bo‘lmasa nima qilamiz?

— Ketamiz. Mayli, sen yutding! — dedi u.

— Yo‘q, siz yutdingiz.

— Bo‘lmasam, kel, ikkovimiz birga zuvillaymiz.

Bu g‘alati taklif edi.

— Mayli-yu, g‘irromlik bo‘ladi-da, — dedim.

— Nimasi g‘irromlik! Men roziman.

— Baribir, Ra-mat aka.

— Uf... Qornim ochdi! — U yana yig‘lay boshladi. Semiz odamlar tez ochqasa kerak-da.

— Bo‘lmasa qolganini ertaga zuvillab beraman.

— Mayli, mayli.

Shunda meni yana jin urdi.

— Yo‘q, ertaga kelmaysiz!

— Rost, kelaman, — dedi Rahmat. — Bugun bo'ldi. Ketaylik. Jon uka, sen g'irrom emassan. Bildingmi? Seni g'irrom desam, o'lay agar.

Men jim qoldim. Shu gapni eshitmoqchi edimmi? Bilmayman. Lekin ko'pdan beri aytilib yurilgan bu so'z, demak, yoqmas ekanda menga?

Shunchalik shumlik, shaytonlik qilib, uni o'zimga olmay yurar ekanmanmi? Balki qiynalib bo'lsayam g'irrom bo'lmaslikka aqlim yetdimi? Uniyam bilmayman.

... Lekin, bir narsani endi qayd etishim mumkin: o'sha kundan keyin Rahmat bilan yana o'yinimiz davom etishga etdi-yu, men qochmaydigan bo'ldim. Hatto u to'g'rida o'ylashdan uyalardim. Ko'kqiyaning boshigacha borganimiz, sho'rsuvli jilg'agayam tushganimizni eslasam, o'zimdan o'zim xursand bo'lib ketardim.

Qandaydir... g'irromlik boshqa, ha-ha, qandaydir juda katta, chidam, bardosh, hatto mardlik talab qiladigan ishlarga ham qodirdek sezardim o'zimni.

To'g'ri, keyinchalik u qadar mard bo'lib qololmadim. Biroq shu yo'ldagi ilk qadam o'sha kun qo'yilgan edi.

1992

OQTOSH

Biz Ulkan qishlog'iga ko'chib bordik. Onam — Sho'ro raisi, men — endi uchinchi sinfni bitirib ta'tilga chiqqan paytlarim edi.

Bizga atab katta bir o'rikzorning adog'ida o'tov tikib qo'yishgan ekan. Jihozlari ham bor: sholcha, bir taxmon ko'rpa-to'shak. Xo'sh, o'tov biqinida yer tandir, undan sal narida — katta ariq, uning bo'yida tollar. Tollarning, lof bo'lsayam, har bir butog'ida chumchuq uyasi bor. Chirq-chirq, chig'ir-chig'ir tovushlar tinmas edi.

Onam menga tushuntirdi:

— Biz Rais boboning uyiga qo'ndik. Bir-ikki yil turamiz. Keyin yana rayonga qaytib ketamiz. — Bu gaplarni tushunganimdan keyin u kishi davom etdi: — Rais bobongni Jo'ra degan o'g'li bor. Halizamon keladi. Kim bilan o'ynasang — o'yna-yu, o'sha bilan o'ynama!

— Nimaga?

— Ishing bo'lmasin.

Haqiqatan ham hademay Jo'ra keldi. Yonida ishtonini lipa urgan, shalpang quloq bir bola ham bor edi. Ularning bir-biriga munosabatidan kimliklarini bilib oldim... Jo'ra ariqning u betidagi pastak devorga minib o'tirdi-da, qo'lidagi palaxmon bilan tollar shoxiga tosh ota boshladi.

Onam bilan Rais bobo o'tovning chap tomonidagi supada bir-ikki kishiga nimalarnidir tushuntirishar, ulardan sal nariroqda Rais boboning to'riq oti bilan onamning jiyron oti o'tlab turardi.

Shuni aytishim kerakki, Rais boboni men ikki yillardan beri bilar edim. Tumanga — hovlimizga mana shu to'rig'ini minib borib qolar va mehmonxonada yotardi. Meni erkalar, qachon bo'lmasin, o'zining Ulkan qishlog'iga tomoshaga olib borishini aytar, so'ng u qishloqni maqtar edi: "Dayrosi bor. Cho'milasan. Meniyam senday ulim bor, do'st bo'lasan...".

Albatta, men bu taklifdan quvonardim hamda o'sha "qachon"-dir deyilgan muddat tezroq kelishini kutardim.

Mana, oqibat onam o'sha qishloqqa Sho'ro raisi etib tayinlandi-yu, biz keldik.

Rais bobo bilan onam anavi ikki kishiga bir nimalarni tayinlashdi-da, o'tovga qaytishdi.

Rais bobo Jo'rani ko'rib:

— E, nimaga o'ytib[1] o'tiribsan? Kelib, Sodiqboy bilan tanishmaysanmi? Senga aytar edim-ku? — dedi.

— Ha, Sodiqjon, kel. Akang bilan tanish, — dedi onam ham. Va mening yelkamdan quchib: — Gapim esing-da bo'lsin, — deb shivirladi.

Jo'ra devordan tushib, qiyshayib keldi. Men harqalay shaharlik edim: unga qo'l uzatdim. Uyam qo'lining uchini berdi-da, otasiga:

— Qurtni chumchuq jeb ketayapti, — dedi.

— He, ukkag'arlar! — Rais bobo etigini yechmoqchi bo'lib qo'njidan tutdi-yu, vaqtni boy beradigandek birdan alpang-talpang yurib borib, bitta tolga chiqib ketdi. Keyin ayrida turib olib shoxlarni shunday silkitdiki, chumchuq bolalari yomg'irdek to'kila boshladi. Jo'ra bilan Oqboyga ergashib men ham do'ppimni oldim-da, palaponlarni terib sola boshladim.

Rais bobo shoxma-shox yurib, boshqa tollargayam o'tdi. Ulardan ham son-sanoqsiz palaponlar to'kildi. Endi onam chumchuq bolalariga achinib, qoshini chimirib turar, nuqul:

— Bas endi, o'rtoq Boboyev! Bundan ko'ra qurtxonalarga qorovullarni ko'paytirish kerak, — der edi.

Shu payt deng, qaysi go'rdan bir maymoq it bilan ikkita mushuk paydo bo'ldi-yu, ular ham to'kilgan chumchuq bolalarini terib, haligiday oshqozonlariga joylay boshladi. It bilan mushuk — bir-biriga dushman: yaqin kelganda, tashlanishib, fishillashib qolishar, keyin tag'in tirik xo'rakka tashlanishar edi.

— Yuring-e, yarashmagan ishni qilib!.. — Onam jerkib shunday dedi-da, otlar tomonga yo'l oldi.

[1] **O'ytib** — unday qilib *(sheva)*.

Saldan keyin Rais boboyam daraxtdan tushib va ust-boshini qoqib:

— Esa biz g'allaning boshiga ketdik. Jo'raboy, ukangni o'ynat! Palaxmon qilib ber. Cho'milishga olib bor... Moltishni[1] o'rgat. Xo'pmi, bolam? — deb va mening kiftimga qoqib qo'yib, onamning izidan ketdi.

Hademay ular otlarini minib etakka enib ketisharkan, onam qayrilib qarab:

— Gapim esingdan chiqmasin, Sodiq! Haligi kitobingni o'qi! — dedi.

O'sha kuni o'rikzorning u yog'idagi bahaybat yong'oqlar ostida paqqa bo'lmagan yong'oqlarni toshga urib, po'stlog'ini archib o'tirganimizda, Oqboy menga qiziq gaplarni aytdi:

— Enang Rais boboga tegarmish... Jo'raning enasi maraz bo'lgan. Dayrodan norman[2]-kapada yashaydi.

Jo'ra yong'oq shoxida edi. Pastga tushgandan keyin:

— Jo'raka aka, — dedim unga. — Enangiz maraz bo'lganmi?

U boshini egib qoldi.

— Do'xtirga oborish kerak-ku?

— Davosi yo'q emish, — deb pichirladi u.

— Bi-ir o'zlari yashaydimi kapada?

U bosh irg'adi.

— Yuring, borib ko'ramiz.

Jo'ra menga tikildi. Oqboy bo'lsa:

— Bugun bordingmi? — deb so'radi undan. U boshini chayqadi.

— Kayvoni momo to'yga ketgan. Non yopmagan.

Biz tuman markazidagi uyimizda g'amimizni yeb, momom yopgan uch-to'rtta yog'li patir-non, kastrulga qovurdoq solib olgan edik. Hali kelib, qora uyga joylashganimizdan keyin ana shulardan biroz tamaddi qilgandik.

— Non bor. Go'sht ham bor, — dedim. — Uyda! Ana, ishonmasangiz, kirib ko'ring!

Jo'ra g'amgin jilmaydi. Oqboy bo'lsa:

---

[1] **Moltish** — suzishni (*sheva*).

[2] **Norman** — narida (*sheva*).

— Jur, — dedi. — Olamiz! Boramiz!.. Mana muniyam qidirtamiz[1]! Borasanmi, Sodiq?

— E, bo'lmasam-chi, — dedim.

Onam haligi gapni tayinlab ketgan bo'lsa-da, men Jo'raning yonidan jilmagan edim: axir, nima qilay? Kim bilan o'ynay? Ikkinchi tarafdan, Rais boboning tumanda — uyimizda aytgan gaplari yodimda: Jo'ra meni daryoga olib borishi kerak edi. Uchinchidan desangiz, ayniqsa onamning gapidan keyin bu yigitga qiziqib qolgandim. Bundan tashqari, bechoraning...

... onasi haligiday kasalga yo'liqqan, bitta o'zi bir kapada — daryoning u tomonida yashar ekan...

Shuni aytishim lozimki, o'shanda — urushdan keyingi, yo'g'-e, elliginchi yillarning o'rtalarida ham tirikchilik kechirish og'ir, yetimlar ko'p, anavinaqa kasallar ham serob edi. Va bizning tuman markazida ham pes, maraz bo'lgan kimsalarni jamoadan chiqarib qo'yish rasm edi.

Oqboyning gapidan keyin Jo'ra yelkasini qisib, menga mo'ltirab qaradi. Men uning qo'lidan tortdim.

— Yuring.

Onam o'shanday degani bilan men bu yigitdan negadir qo'rqmadim. O'zimga ishonarmidim — bilmayman. Harqalay, maktabda chopish, sakrash, mushtlashish — boks bo'yicha ilg'orlar qatorida edim. Ishqilib, birovdan tayoq yemasdim...

Patir nondan birini olib, orasiga qovurdoq qo'ydik. Bir qiyiqqa o'rab, yo'lga tushdik.

Rais bobo bilan onam otlarini yo'rttirib ketgan so'qmoq bilan borardik. O'riklar g'arq pishgan, yerga ko'rpa bo'lib to'kilib yotibdi deng. Ko'plari oyoq-tuyoq ostida ezilgan, achigan. Ular ustida arilar va pashshalar g'uj-g'uj. Ana shu — ezilgan o'riklar hidi anqiydi!

Qandaydir tashlandiq, yovvoyi o'lkaga kelib qolganday sezasan o'zingni.

Bu qishloqda o'zi xonadonlar siyrak ekan: huv unday yerda qora suvoq qilingan bir katalak ko'rinsa, undan ancha narida bir

[1] **Qidirtamiz** — tomosha qildiramiz (*sheva*).

kapa ko'zga tashlanadi. Undan ham narida o'tov... Keyin bilsam, bu yerliklarda chorva ham mo'l, qo'y-echkilarini yaylovlarga haydagan yoxud tog' o'tloqlariga chiqarib ketishgan ekan.

Ariq labidan bora-bora sholizor yoqasidan o'tdik. Va birdaniga bahaybat bir jarlik chetiga chiqib qoldik. Jarlik shunday kattaki, u qirg'og'i bilan bu qirg'og'ining orasi biron chaqirim keladi.

Biroq yonbag'irdan ilonizi bo'lib o'rmalab tushib ketgan so'qmoq ham borki, unda mol tuyoqlari va yalang-oyoqchalarning izlari qolgan.

— Ana, dayro, — dedi Jo'ra tubanlikni ko'rsatib.

Tubanda — jarlik tubida yaltirab suv oqar, sohillarni yulg'un bosib ketgan, qizarib gullagan bu yashil butalar orasida — qumda bo'lsa kerak, yarim yalang'och bolalar va lozim-ko'ylakli qizchalar har xil alpozda o'tirishar-yotishar edi.

Rais bobo "dayro" deganda, men kitoblarda o'qiganim kattakon nahrni ko'z oldimga keltirgan bo'lishim lozim — shuning uchun bu daryo menga soy bo'lib ko'rindi. Men unga bepisandlik bilan boqib:

— E, shumi? — dedim.

— Juringlar! Qaytishda cho'milamiz! — dedi Oqboy. Va biz unga ergashdik.

Qirg'oq bo'ylab sal yurganimizdan keyin shundoq qarshimizda jarlik qirg'oqlarini ulab turgan uzun osmako'prikka ko'zim tushdi. U ertaklardagi pulisirot ko'prigiday tuyuldi menga! Va yuragim gurs-gurs ura boshladi: "O'tayotganimizda, uzilib ketsa... Xudo urdi! Onam Jo'rani ayblaydi...".

Darvoqe, uzr etasiz, onamning bu yigitchaga ishonmasdan qarashining sababini g'ira-shira tushungandek edim: axir onam Rais boboga tegar emish...

Rais boboning esa xotini anavinaqa ahvolda: o'g'li bu... Demak, Jo'ra menga g'ayirlik bilan qarashi mumkin-da.

Lekin hozircha bu narsani sezmagan edim. Hoziroq aytib qo'yayki, keyinchalik ham sezmadim. Jo'ra taqdirga tan bergan, buning ustiga, u ham meni tezroq ko'rish va deylik, daryoni ko'rsatish, moltishni o'rgatishni o'ylab yurar ekan.

Ko'prikka qadam bosdik. Yo'ldan farqi yo'q. Ammo o'rtasiga yetganda, uning nari-beriga borib kelayotgani, ammo bu sezilmas darajada ekanini ko'rib, ha ko'rib qolib, kapalagim uchib ketdi. Jo'raning bilagidan ushlab oldim.

— Qo'rqma, uka. Uzilmaydi. Mahkam bu, — dedi u tirsagimdan qisib. — Poda-poda mol o'tadi bundan. Suruv-suruv qo'y... Bultur bir chol o'ldi. Uning tobuti ortidan minglab odam ergashib jo'nadi. Shuniyam ko'tardi bu...

Jo'raning onasi oxirgi kunlarini kechirayotgan kapa qabristondan berida, qo'ziqoringa o'xshash ulkan gujum ostida ekan. Unga yaqinlashganda, Jo'ra Oqboydan tugunni oldi.

— Qolamiz, — dedi Oqboy menga. — Borib bo'lmaydi.

— Nimaga?

— Bo'lmaydi-da.

— Mayli.

Jo'ra ketdi. Borib, kapaga kirdi. Biz har tomonga qarab, tomosha qilib turardik. Yaydoq, xas-xashak bosib ketgan kattakon qabristonda so'pito'rg'aylar ko'p, ular xush ovozda chuldirashib uchishar, qaysi biri uchmasin — tom bo'yi ko'tarilgach, havoda muallaq turib sayrab olar, keyin yerga-qovjiragan tikanlar, alaflar orasiga qo'nardi. Bir-ikkitasi atrofimizda pildirab yurardi.

— Bu qushni o'ldirib bo'lmaydi, — deb qoldi Oqboy. — Gunoh bo'ladi. Yomon bo'ladi.

— Qanday "yomon bo'ladi?"

— Yomon-da.

Keyin gujumga qarab dabdurustdan shu she'rni aytdi:

Mullato'rg'ay — otim bo'lg'ay.
Meni o'ldirgan
Yetti eshikda yetim bo'lg'ay.

— O'-o', — dedim. — Chumchuqni o'ldirsa bo'ladimi?

— Uning turgan-bitgani ziyon, — dedi Oqboy. — Haligi palaponlarni nima qildim, bilasanmi?

— Yo'q. Nima qilding?

— Bittalab it bilan pishakka jedirdim, — javob berdi u bamaylixotir. — Munday olib tepaga otaman. Yo it ilib oladi, yo pishak. Chumchuqning turgan-bitgani ziyon, — deb takrorladi yana. — G'allaniyam shu quritayapti. Rais bobo bizni mashoq terishgayam qo'ymaydi! Qamchilab uradi. Chumchuq bo'lsa, jeb ketayapti. Shuning uchun palaxmon bilan...

Jo'ra kapadan chiqdi. Ko'zlari nam edi. Yuzlarini kafti bilan arta-arta keldi-da:

— Seni alqadilar, — dedi menga.

— Meni?

— Ha. Ko'pga kirsin. Yaxshi bola ekan, dedilar...

— Rahmat, aka. Ertaga yana kelamiz-a?

Jo'ra kiftini uchirib so'qmoqqa tushdi.

U — mening o'lchovim bo'yicha — o'rtabo'y, yelkalari keng, yuzi ham keng va ko'zlari qiyiqroq edi. Rais boboning o'g'li bo'lishiga qaramasdan egnidagi surp ko'ylagi tirsaklariga yamoq tushgan, ishtonining bir pochasi uzun, do'ppisiyam hilvillab ketgan edi.

Men, harqalay, tik shimdaman, shohmot-nusxa ko'ylagimning yenglari kalta, oyog'imda keti. Soch o'sgan: to'g'rirog'i, soch qo'yganman.

Ko'prikka yetgan joyda quyiga enib ketgan eshak yo'li bor ekan. Anchagina keng. Aftidan, ko'prik qurilmasdan burun odamlar ana shu yo'ldan tushib chiqishgan.

Biz tubanga enishimiz bilan daryoning u qirg'og'i-yu bu qirg'og'idagi o'g'il hamda qiz bolalar tikka-tikka bo'lishib, bizni go'yo qarshi olishdi.

Yulg'unlarni oralab o'tarkanmiz, atrofga qiziqqanim uchunmi har bir narsaga diqqat bilan nazar solardim. Yulg'unlarning tanasiga har xil xas-cho'plar, ildizlar taqalib qolgan. Ayrimlarining shoxlarida qush uyalari bor, ammo bari bo'm-bo'sh edi.

Tepamizdan chiy-chiylab jarqaldirg'ochlar uchib o'tadi, ba'zisi yuzimizga tegay-tegay deb ketardi.

Bu yer, ya'ni jarlikning tubi ham hayhotdek makon ekan! Suv ham katta va tinimsiz shovullar, xuddi kuchli bir shamol esmoqda-yu, ko'zga ko'rinmas chinorlar silkinmoqda edi!

Aytganimdek, bolalarning ko'pchiligi yarim yalang'och, ya'ni ki ishtonda, qizlar esa lozim-ko'ylakda-yu, ammo kiyimlari badanlariga yopishib qolgan va u-bu yerlariga qum yuqqan, paxtaband qilib o'rilgan sochlari ham ho'l, yuzlari qoraygan, shu bilan birga kulib turishar edi.

— Qalaysizlar? — deb baqirdi Oqboy. — Qurtni chumchuq jeb ketayapti! G'allaniyam sho'ri quridi! Sizlar nima qip juribsizlar-a, bekorchilar?

Qotma, murti sabza urgan bir bola:

— O'zing-chi, o'zing? — dedi.

— Men... — Oqboy Jo'raga, keyin qirg'oqqa imo qilib qo'ydi-da, past tushmadi. — Jurippizda, mana Sho'ro opaning ulini qidirtib!

Hamma menga tikildi. Men ular bilan qo'l berib so'rashishtanishishga chog'landim. Biroq biri ham o'rnidan jilmadi: bolalar ust-boshimga qiziqib boqishar, qizlar o'zaro shivirlashar edi.

— Eshitdinglarmi, Ulkanga yangi Sho'ro keldi! Jo'ralarning o'toviga qo'ndi. Jiyron oti bor. Uli mana... Oti Sodiq! Hozir sizlarga moltishni ko'rsatib qo'yadi!

"Moltish" so'zining — suvda suzish ekanini tuman markazidayoq Rais bobodan so'rab-bilib olgan edim.

Ammo suzish bobida... Menimcha, tuman markazida yashaydigan-o'qiydigan tengqurlarimning eng katta nuqsoni — suzishni yaxshi bilmasliklari edi. To'g'ri, ikki hovlining birida hovuz bor. Unga suv quyilganda, barg-xazonlarni chiqarish uchun bolalar hovuzga tushishadi.

Shu tariqa men ham besh-o'n qadam suzishni o'rganib olgan edim. Ammo bunday vag'illagan daryoda cho'milish... Uyalganim ham shu — daryoga qaradim.

Shoshqin, oppoq-serko'pik suv toshdan toshga sakrab oqar, ba'zi joylarda oqayotgani bilinmas, ellik qadamlar etakda — daryo qirg'oq kamaridan aylanib o'tardiki, u tomonda suv umuman to'xtab qolganga o'xshar edi: rangiyam ko'm-ko'k.

— Moltishni bilasanmi? — deb so'radi Jo'ra.

— Sal-pal.

— Shunday ko'ringani bilan opketadi, — dedi u suvga termulib. — Oyog'ingdan chaladi... Lekin mana bular o'rgangan. Markazda dayro yo'g'-a?

— Yo'q. Rayonni chetlab o'tadi.

— Otam aytib edilar...

— Qani, bir-bir tashlab olaylik. Keyin ketamiz g'allaning boshiga! — deb qoldi shunda haligi — murti sabza urgan, qotma yigitcha. — Jo'ra aka, chechining-e! Kun isib ketdi!.. Ho', Sho'roning uli, sen ham cho'mil!

Shu gapdan keyin qizlar burilib, oqimga qarshi tomonga yo'l olishdi. Bolalar bo'lsa chopa-chopa suvga o'zlarini otib va umbaloq oshib, ko'karib turgan tomonga suza boshlashdi. Qarasam, Jo'ra ham ko'ylagini yechyapti.

Men ham shimim bilan ko'ilak-maykamni yechib, ustiga qo'ydim.

Biz suv bo'yiga yetganda, qizaloqlar — ko'ylak-lozimlarida qiyqirishib-kulishib va umbaloq otishib, oldimizdan o'tib ketishdi-da, ko'karib turgan joyga yaqinlashaverib, yulg'unlardan ushlab-ushlab qolishdi.

Jo'radan keyin Oqboy ham qulog'iga bir nimani tiqib suvga kirdi. Suv belidan oshganda, o'zini tashladi va goh ko'rinib-goh ko'rinmay keta boshladi. Men ham suvga kirdim. Muzdek. Ikki qadam bosganimni bilaman, oyog'im toyib ketib, chalqancha yiqildim-ku! Turaman deyman — dumalayman. Ichimga suv kiryapti. Biron narsadan ushlayin deyman — goh qo'lim yetmaydi, goh sirpanib ketadi.

Qandaydir vahimaga tushgan paytimda haligi ko'karib turgan joyga yaqinlashdim-u, oyog'im yerdan-suv tubidan uzildi! Uzilishi zamon cho'kib ketayotganimni anglab, apil-tapil tepaga intildim-da, qirg'oqqa qarab suzdim!

Bu yerda oqim sust edi: hademay yulg'unlardan ushlab, toshloqqa chiqib oldim.

Mening ahvolimni ko'rib havotirga tushishganmi — Jo'ra bilan qotma yigitcha izimdan quloch otib kelishayotgan ekan. Ular ham sohilga chiqishdi.

— Qashqa bo'lmadingmi? Aytdim-ku, tezoqar bu, — dedi Jo'ra hansiraab.

— Ha, yo'q, — dedim. — Toshlar sirg'anchiq ekan... Lekin rost, oyoqdan chalar ekan.

— Uf. Manavu iyrimga kirib ketadi-yov deb qo'rqib edim, — dedi murti sabza urgan. — Tagi chuqur. Uch-to'rt odam bo'yi keladi. Keyin oqim zo'r. Bir marta o'zimniyam chirpirak qilib opketgan Huv kechuvga borganda, zo'rg'a chiqib olganman. O'shanda o'n yoshda edim... Uch yil bo'pti!

— Sen yaxshi suzolmaysan, — dedi Jo'ra menga. — O'rgataman... Qo'rqmasang bo'ldi.

— Ha, qo'rqmasang bo'ldi, — dedi u yigit ham.

Shu palla suvning ko'm-ko'k sathida Oqboy paydo bo'ldi-da, qo'llarini yuqoriga ko'tarib sho'ng'idi. Zum o'tmay o'n qadamlar narida, suvning kamardan chiqayotgan joyida paydo bo'ldi boshi! Keyin bizga qarab moltib, ihrab-ihrab chiqib keldi.

Shu narsani aytishim shartki, biz o'tirgan joy juda-a ajoyib edi. Dumaloq ko'k, malla toshlar — kursimiz. Qizaloqlar ham tomoshadan quruq qoladiganday yetib kelishgan. Ular ikkita toshda cho'milib chiqqan kaklik jo'jalaridek g'uj bo'lib, go'yo o'zlarini oftobga toblab, patlarini quritishar edi.

Shundoq oyog'imiz ostida — o'sha ko'k iyrim. Ya'ni girdob! Biroq uning qirg'oq qo'ltig'iga urilib, o'rama hosil qilib o'tayotgani sezilmas, aytishlaricha, oqimning zo'ri suvning tubida edi. Sirti esa shunday sokin.

Tepamizda go'yo ayvon shifti bor. Ya'ni, metin qirtoq daryoga cho'zilib bag'rini tutib turar, biz uning soyasida o'tirardikki, haqiqatan ham ayvonda o'tirgandek edik.

Ustimizda qaldirg'ochlarning chiy-chiylab uchishi-e! Bizni bu yerdan quvib yuborishga ahd qilishgandek!

Xullas kalom, men xiyol mulzam bo'lgan holda, boshqalar g'olibona ko'rinishda edi, haligi murti chiqib qolgan yigitcha:

— Ey, jo'ralar! "Oqtosh" o'ynaylik, a? Jo'ra aka, xo'p deng, — dedi. — Keyin to'g'ri g'allaga ketamiz!

— O'ynanglar, o'ynanglar! — deb qolishdi qizlar ham.

"Qiziq, qanaqa o'yin ekan bu?" deb o'yladim-da, Jo'raga qarovdim, u:

— Oqboy, sen bakovul, — dedi. — Oldin tushuntirgin o'yinni. Sodiq ham bilsin!

— Men tushuntiraman, — deb toshdan turdi o'yinning tashabbuschisi va qo'lidagi oppoq, judayam oq — quyruqdek toshni menga ko'rsatdi.

...Ana shu toshni suvning eng chuqur joyiga otarkan. Otayotganida, hammaning ko'z yumib turishi shart ekan. Keyin bakovulning gapi bilan bolalar ko'zlarini ochisharkan-da, "Bir, ikki, uch!" deyilishi bilan o'zlarini suvga otisharkan.

Iyrimning tubidan ana o'sha toshni olib chiqish lozim ekan.

Kim topib-olib chiqsa, demak, o'sha — g'olib!

Daryoning eng chuqur yeridan u toshni qanaqa qilib topib chiqish mumkin?

Xayolingizga shu savol keldi, a?

Men ham shuni o'ylab, lol qolib turgan edim, bu yog'ini Jo'ra tushuntirdi:

— Suvning tagida ko'zni ochib yurish kerak. Bildingmi? Suv tiniq...

— Bildim, — dedim.

Suvning tagida ko'zni ochib, demak, tubidagi toshlarga tikilib yurish?!

Hovuzning loyqa suviga tushganingda hatto burningni, quloqlaringni ham iloji bo'lsa bekitib olasan-u, ajab, ko'zni ochish... Aqlga sig'adimi shu gap?

Lekin bu yerdagilar uchun bu — o'ta jo'n gap, oddiy o'yin ekan!

Oqboy:

— ...Uch! — deyishi bilan ishtonini lipa urib, pochalarini ham himarib olgan bolalar guv-guv etib suvga o'zlarini otishdi. Va hammasi g'oyib bo'lib ketdi.

Qizlar bilan men... sohilda qolgandim. Suvga tikilyapman. "Hozir chiqadi... Ana chiqdi. Yo'q! Nafasi qaytib ketmasmikan bularni?"

Yanoqlari turtib chiqqan va ko'p cho'milganidanmi sho'ralab ketgan, ammo quvligi shundoq bilinib turgan bir qizcha:

— Huv bola! Oting Sodiq-a? — deb so'radi.

— Sodiq, — dedim. Va beixtiyor kitoblarda yozilganidek: — Seniki-chi? — deb so'radim.

— Meni otimni nima qilasan? — U birdan sharaqlab kuldi. — Mayli, oqtoshni opchiqsang, otimni aytaman.

Dugonalari u bilan kelishib qo'yishgandek kulib-qiqillab yuborishdi.

Men o'z-o'zimdan qizib-qizarib ketdim. Va asta o'rnimdan turdim. Ammo suv tagida ko'zni ochib yurish... Buning ustiga, bunday oqar suvda suzishniyam bilmayman. Tag'in: daryo tubida oqim bor ekan. Shu narsalar miyadan g'uvillab o'tgancha suvga qarab jilayotganimni fahmlab qolganimda...

...suv yuzasiga sho'lp etib bir bosh chiqdi. Keyin yana bir kalla, so'ng tag'in bittasi...

Jo'ra ham chiqib keldi.

— Oqimga tushib qoldim. Arang qutildim.

Oqboy ham chiqdi, kelib kuldi.

— Oqim opketipti deyman!

— G'irrom, — deb to'ng'illadi Jo'ra. — Bakovul bo'lib o'tirmaysanmi?

— O'tirolmadim-da.

Nazarimda, ikki daqiqalar o'tdi. Hamma chiqib bo'ldi. Faqat haligi murti sabza urgan...

Xayriyat-e!

Boshidan oldin toshni tutgan qo'li chiqdi suvdan! Va bu yoqda qiyqiriq bo'lib ketdi!

Ayniqsa, qizlarning quvonishgani!

Shunda, ishonasizmi, o'sha boladek bo'lgim keldi-e! Axir, yaxshi-da.

...qizlar ham chuvvos solib, chapak chalib, olqishlab qarshi olishsa seni!

G'olibni!

Ammo unday bo'lishimga sira ko'zim yetmasdi; yo'q-yo'q, suv ostida, nari borsa, yarim daqiqa turarman.

Ko‘zni ochib...

Oqimga tushib qolsam...

Obbo, oldin shunchaki suzishni o‘rganishing kerak, xomtama bo‘lma, Sodiq!

Qizlar u bolani, o‘zlaricha olqishlab: “Jamol yutdi! Jutdi!” deganlaridan uning ismini bilib oldim. Va u bilan jo‘ra bo‘lish, undan uni-buni o‘rganishga qasd qildim.

Biroq hoziroq aytib qo‘ya qolay: u menigina emas, boshqa bolalarni ham pisand etmas ekan.

— Bo‘ldi qilinglar. Dalaga ketdik, — deb so‘qmoqqa tushdi. Aftidan u, umuman, ko‘ylak kiymas, shuning uchun badani temirdek yaltirab ketgan edi.

Jo‘ra menga:

— Hozir, hozir, — deb o‘zini suvga otdi-da, hash-pash deguncha narigi qirg‘oqqa chiqib va yulg‘unlar orasidan mening ham kiyimlarimni olib daryoga tushdi. Va bir qo‘llab suzib, chiqib ketdi.

Qoyil!

Kiyinib, Jamolning orqasidan tushdik. Qizlar kulib, gap otib qolishdi. Boyagi quv qizcha bo‘lsa;

— Jo‘ra aka! Sodiqni tashlab keting! Biz moltishni o‘rgatib qo‘yamiz, — dedi.

Jo‘ra unga qaramay:

— Yuraber. O‘rganasan. Qo‘rqmasang bo‘ldi, — dedi menga.

— Qo‘rqmayman. O‘rgating, aka, — dedim.

— Mayli.

— Ertaga yana kelamizmi? Onangizniyam ko‘rib ketamiz... Xo‘pmi?

U mening yelkamga qo‘l soldi-da:

— Xo‘p, — dedi. Picha yurganimizdan keyin... — Sodiq, ko‘nglinga olmasang, bir gap aytaman, — deb qoldi.

— Hech ham ko‘ngilga olmayman, — deb to‘xtadim.

U bilagimdan tortdi. Biz tuprog‘i qaynab yotgan so‘qmoqdan o‘rlab borardik.

— Ayting, — deb qistadim.

— Enang meni yomon ko‘radilar.

Qulog‘im chingillab ketdi.

— Yolg'on, — dedim.

— Rost.

— A, nimaga? Xo'p, yomon ko'radiyam deylik...

— Bultur, bultur, — deb ming'illadi u. — Kechqurun keldilar. Vakil bo'lib. Otam xursand bo'p ketdilar. Keyin enang o'tovda yotdilar. Men otam bilan tashqarida yotdik. Bir mahal uyg'onsam, otam yo'q. Xo'p o'tirdim. Keyin qo'rqdimmi: "Ota-a!" deb chaqirdim. Otam o'tovdan chiqib keldilar...

Meni o'shanda — "yosh bola" bu, hech narsani tushunmagan demang. Men tushungan edim...

O'zimni qandaydir aybdor sezib, miq etmay qoldim. Qirg'oq ustiga chiqqandan so'ng:

— Keyin nima bo'ldi? — dedim.

— Keyin enang menga yomon qaraydigan bo'ldilar... Keyin kelishlarida otam meni kayvoni xolaning uyiga jo'natadigan bo'ldilar. Bilaman, enang aytgan...

— Ha, — deb yubordim-da: — Jo'ra aka, meni kechirasiz, — deb yalindim.

— Nimaga-nimaga?

— Onam chindan ham sizni...

U asta bosh irg'adi. So'ng tag'in yelkamga qo'l soldi. Men uning bu harakatidan qandaydir mehr, og'aning inisiga bo'lgan mehrini his etdim. So'ngra...

...o'zim ham uning belidan bir qo'lim bilan quchib oldim.

Daryo jiyagidan, ya'ni qirtoq labidan ipga tizilgandek ketarkanmiz, beixtiyor ko'nglim buzilar, ammo ich-ichimda shod edim.

Xullas, bug'doyzor yoqasidagi tashlandiq kapada kunni kech qildik.

Jo'ra menga palaxmon yasab berdi. Palaxmon!.. Qildan eshilar ekan. Kapada kigiz parchalari ko'p edi, o'shalardan qilini sitib oldi. Oqboy bo'lsa, qayoqqadir chopib ketib, ikki changal jun topib keldi: o'tlab yurgan echkilardan yulib-yulib olibdi. Keyin ularni qo'shib, uzun-uzun pilta eshdik. So'ngra qizlarning mayda sochiga o'xshatib o'rishdi. Ikki qulochlar bo'ldi. Keyin bir uchini halqa qilib, bir uchini dumga o'xshatib, hatto tarab-tarab

qo'yishdi. Ana undan keyin bu g'alati chilvirning qoq o'rtasida yong'oqdek tosh sig'adigan chuqurcha to'qishdi.

Shu!

Keyin deng, o'sha chuqurchaga toshni joylar ekansiz-da, chilvir uchlarini juft qilib ushlab, tepada uch-to'rt marta aylantirar ekansiz. Chilvir qo'lingizdan chiqib ketay-ketay deganda, haligi dumli uchini qo'yvorar ekansiz!

Shu! Qarabsizki, haligi tosh zing'illab uchib ketayapti! Albatta mo'ljalga olishniyam bilish kerak...

Tumanda "rogatka" qilardik... Palaxmonning nomini bilardim, xolos. G'allani qo'ridik-da-e!

Kechqurun bolalar ajralib-ajralib ketishdi: ertaga falon vaqtda "dayro bo'yida" uchrashiladi!

Jo'ra ikkimiz o'rikzorga kirganda, u iymanib menga tikildi:

— Uka, ke bir ish qilamiz... — dedi.

— Xo'p bo'ladi, aka.

— Enangni oldida... bir-birimiz bilan gaplashmaymiz. Arazlashganday bo'p yuramiz.

— Nimaga?

U menga shunday siniq, ta'na bilan boqdiki, gap ma'nosiga darhol fahmim yetdi.

— Ho', onam dalaga ketgandan keyin...

— Aka-ukamiz, — dedi u. — Ertaga dayroning yuqori tomoniga oboraman seni. U yerdayam bir-ikkita iyrim joylar bor... Moltishni o'rgataman.

Men uning belidan quchib oldim.

Ay, bolalik-a!

Kechasi onam — ikkimiz o'tovda yotdik. Jo'ra bilan Rais bobo tashqarida — o'tov biqinidagi somon suvoq qilingan supada. Mening ancha paytgacha uyqum kelmadi: nazarimda, onammi — tashqariga chiqib ketadigan yoxud Rais bobomi — kirib keladigandek edi... Balki men uxlab qolganimdan keyin ular uchrashgandir...

Qiziq, keyinchalik men o'sha damlarni — kolxoz raisining o'tov sirtida, Sho'ro raisasining ichkarida — shundoq yaqin masofada yotishi va ularning pinhona aloqalaridan ayrim kishilar

boxabar ham ekanligi, biroq odamlarning bu holga panja orasidan qarashlari haqida o'ylab, o'zimcha shunday xulosaga keldim: o'sha vaqtlarda turmushning izmi shu ekan-da? Raislar xaloyiqning, deylik, malomatidan, qo'rqmas ekanlar-da!

O'zim ham sezardim: bular ikkovlon Ulkan qishlog'ining xonlari — beklari edi!

Shuning uchun ular oddiy odob-andisha deganlaridan ham ustun turishardi chog'i...

Haqiqatan ham xalq bulardan zirillardi. Oqboyning mashoq tergan, qorni uchun g'alla o'g'irlagan bolalarni ham Rais bobo-ning qamchilab urishi haqidagi gapi haq edi.

Bunday ish, men ishonamanki, onamning ham qo'lidan kelardi. Oddiy odamlarga shunaqayam do'q qilib yuborardiki...

Uzr, sal o'tlab ketdim.

...So'radilar, so'radilar kechasi. "Nima qilding? Kimlar bilan o'ynading? Daryoga borgansan...".

"Bordim. Uzoqdan tomosha qildim Oqboy bilan, — deb javob berdim onamga. — Lekin Jo'ra bilan gaplashganim yo'q. Oqshom dasturxon ustidayam ko'rdingiz-ku?"

— "Ha, senga ho'mrayib-ho'mrayib qaradi... — dedi onam. — Shundan ham bilaver. U senga dushman...".

Ertasi Raislar ishga ketishi zamon biz Jo'ra ikkimiz yana daryoga otlandik.

— Non-pon olamizmi onangizga?

— Tushdan keyin, — dedi Jo'ra. — Dayro yoqasida shotutlar bor. Yaqinda kallaklab ketishgan edi... Shu kunlar yana pishib qolgandir...

— O'shandan ham teramiz-a?

— Ha..

Kun biron terak bo'yi ko'tarilmasdan biz daryoning "yuqori" tomoniga borib qiyalikdan endik. Bu joydagi jarlik tomonga oqayotgan suv kichkina ko'prikning ostidan shovullab o'tar va yoyilib ketar, suv ostidagi barcha toshlar baralla ko'rinib turardi.

Gapning qisqasini aytsam, peshingacha suzishni ancha o'rganib oldim. Tag'in suv ostidagi silliq toshlarga oyoqni qo'yavermaslikni ham...

Daryo(cha)ni suzib-kesib o'tishga to'g'ri kelsa, albatta, oqimga qarshiroq yurish lozim ekan. Chunki oqim baribir seni surib, ko'zlangan joyingga yetkazmaydi. Shunchaki suvni kechib o'tayotganingda ham hadeb oqim bo'ylab qarayversang, boshing aylanar ekan...

Suv ostida ko'zni ochib yurish...

Daf'atan ko'zni ochganingda, qarshingdanmi, yon-veringdanmi ko'zingni nimadir bosar ekan: suv albatta! Keyin chakkalaring sal-pal og'rir ekan. So'ngra...

...qiziq, mavhum-xayoliy bir olamda seza boshlar ekansan o'zingni.

Asta-sekin oyog'ing ostidagi toshchalarni ham ko'rar ekan. Ular qandaydir yapasqidek! Qo'lingni uzatsang, barmoqlaring ham kalta-kalta bo'lib "qolarkan". Hatto oyoqlaring ham maymoqlanib ko'rinarkan.

Pakana-xunuk bir mahluqqa aylanar ekansan.

Oradan besh-olti kun o'tdi.

Kamina biron daqiqalar nafas olmay — suv ostida suzadigan bo'lib qoldi.

Ko'z deganingiz ham suv tagida narsalarni balodek ko'radi. Bu jarayonda haligiday hayratlanishlar ham yo'q bo'ldi; qiyofamga ko'nikdimgina emas, ko'zning o'ziyam haligi bosimga o'rgandi chog'i — chakkalarimning lo'qillashi ham qoldi.

Biz har kuni yo tushgacha, yo tushdan keyin lopillagan osma ko'prikdan o'tib, Jo'ra akaning onasidan xabar olgani borardik: ulbul yegulik bilan...

Keyin o'sha aylanma yo'ldan yulg'unzor sohilga tushardik. Tabiiy: bolalar-qizlar qatori o'zimizni "dayroga tashlardik", moltib yurardik...

Jamol o'qtin-o'qtin meni maqtab ham qo'yardi: "Qo'rqmasang bo'ldi. Dayro o'zimizniki...".

Qizaloqlar ham mendan kulishlarini bas qila boshlagan, ammo ko'zi suzuk, yanog'i chiqiq o'sha qizchagina quvligini tashlamas, turib-turib: "Otimni aytmayman!" deb qolardi.

Nimagaki, birodar, men hali o'sha iyrimning tagiga sho'ng'ib yetib borolmas edim!

Rost, bir-ikki marta yaqinlashgandek bo'ldim. Ammo nimadir bir kuch meni qayoqqadir surib ketayotganini sezib, apil-tapil tepaga chiqib oldim.

Oqtoshni esa, Jo'ra ham, Oqboy ham bir-ikki marta olib chiqishdi. Fahmimcha, bu topqirlik qandaydir darajada omadga ham bog'liq ekan: agar o'sha tosh tushgan yerga borib qolsang, marra seniki!

Biroq...

...yana bitta nozik joyi borki, bunaqa oqtoshlar suv ostida ming bitta!

Sen otilgan toshni topib chiqishing kerak!

U esa — quyruqdekkina yapaloq tosh. O'ta silliq. Bironta joyida kemtigi-cho'tiri yo'q.

Xo'sh desangiz, bu yerda cho'milib sho'ng'ib-moltib olishgach, yana g'allaning boshiga, keyin qurtxonalarga borardik: qorovullik-qo'riqchilik qilardik.

Oqshomlari onam meni tergab qolar, men albatta yolg'on gapirardim: "Jo'ra bilan gaplashmayman!" Ammo onalar o'zi shunaqa bo'ladimi, nazarimda, u sezar edi. Shuning uchun menga olayib-olayib qarardi-da: "Pushaymon bo'lasan, bola. Ana, meni aytdi dersan. U seni bir balo qiladi..." derdi.

Aytmoqchi, bu — "Oqtosh" o'yini juda qadim-qadim zamonlardan qolgan emish. Jamolning aytishicha, bir zamonlar bu yurtning odamlari yov bosganda, hatto haligiday iyrimlarga tushib, bemalol... nafas olmasdan o'tirisharkan.

Yov o'tib ketgandan keyin suvdan chiqisharkan.

Eshityapsizmi, birodar?

Axir, bu juda g'alati, g'irt foydali o'yin... ekan-da! Uning yoshlikdan bolalar, hatto qizaloqlar orasida ham urf bo'lgani shundan dalolat emasmi?

To'g'ri, tabiiy sharoit, ya'ni daryoning yaqinligi ham shunday o'yinning yaratilishiga turtki bo'lgan...

Biroq, o'lay agar, foydaning koni bu! Vujudni chiniqtirishini aytmaysizmi?

Bir kuni o'sha ko'm-ko'k iyrim yonida — kamar soyasida o'tirishgandik. Ustimizdan qaldirg'ochlar chiy-chiylab o'tar-aylanar, biz — beparvo, daryoning bosiq shovullashidan muloyim tortib

(qizlar ham shu yerda edi, odatdagicha), Jamolning hikoyasini tinglardik.

U sel kelganda, "Dayro"ning qutirishi — qora uylar, kapalarni olib kelishi, daraxtlarni tomiri bilan yulishi, sohillarning bahaybat toshlarga va ba'zan qo'y-qo'zilarning o'liklariga to'lib qolishi, qo'ying-chi, beshiklar ham topilishi haqida so'zlar ekan:

— Ey, men suvchi bo'laman-e! — deb qoldi. — Hozir Ulkanda bittayam suvchi qolmadi...

— O'qimaysanmi? — deb so'radi Oqboy.

— Mana, Sho'ro opaning uli o'qiydi... mening uchun ham, — deb qoldi-ku birdan. — Nimagaki bundan suvchi chiqmaydi. Shu oqtoshniyam topib chiqolmaydi...

Men shaxt bilan o'rnimdan turdim. Jo'ra qo'limdan ushladi.

— Yo'q. Hali erta, uka.

— Tushaman! Toshni tashlasin! — deb turib oldim. Ammo butun vujudim dir-dir titraydi: axir, suvning tubiga tushishim lozim! Tubiga!

Bular kamida uch-to'rt yillab moltigan, sho'ng'ib, ko'zni ochib yurishni mashq qilishgan! Jamol menga qarab qoldi-da:

— O'tir joyingga, — dedi. — Tegib ketdimi? Men bor gapni aytdim-ku? Men suvchi bo'laman. Sen o'qiysan.

O'ylab ko'rsam, gapi rost.

Biroq bularning yonida o'tirgim kelmay qoldi. Sekin chetlanib, chetdagi toshga borib o'tirdim.

Sezib turibman, qizlar ham menga achinishar edi. Anavi ko'zi suzuk quv bo'lsa, ishshayadi.

Hech kimga parvo qilmay, atrofni tomosha qila boshladim. Bir mahal qarasam, tepamizda parvoz qilayotgan qaldirg'ochlarning biri shuvillab kamarning shiftiga kirib ketgandek bo'ldi. Tikilib boqsam, huv unday qatning devorida chiporgina ini bor: undan bir-ikkita mallarang boshchalar sariq tumshuqlarini ochib tepaga talpinishar, uya labiga qo'nib olgan qaldirg'och ularga navbat bilan xo'rak yedirar edi. Tumshug'idan-a!

Og'zini katta ochib tutadi. Anavi jinqarchi bo'lsa, boshini suqib yuboradi. Naq jig'ildonidan oladi yemakni! Qiziq: tumshug'i onasining bo'g'zini tilmasmikan?

Jonivor, butun umr bo‘yi shu tariqa to‘ydiradi-ya bolalarini! Keyin bolalari ham...

Men chumchuq deganini tumandagi uyimiz-hovlimizdayam ko‘raverib ko‘zim pishib ketgan edi. Xo‘p, ana so‘pito‘rg‘aylarni ham bu yerda ko‘p ko‘rdim: ularni “Dasht bulbuli!” deyisharkan. Ular inini buzish yomon ekan...

Ammo jarqaldirg‘ochning bolasini ko‘rish... Yaqindan ko‘rish unga tikilish menga shunchalik qiziq tuyuldiki, o‘sha inga chiqib borish yo‘lini qidira boshladim.

Qidira boshladim-u, topdim! Ha... Shundoq yonimdan qatga o‘rmalasam, bemalol chiqib borar ekanman.

“Qat” degani — tog‘ bag‘rilarida bo‘ladigan ko‘ndalang kesim deyish mumkin: o‘sha kesimning tepasidan toshlar uvalanib to‘kiladi. Keyin unday joylardan mundayroq kishi engashib yurishi ham mumkin: aytishlaricha, ovchilar yurarmish...

... Axir, ushbu daryo oqib tushayotgan tog‘ tumanimizning shimolida-da!

Ha, tog‘gayam ko‘p chiqqanman.

Shoshmang-shoshmang, “ko‘rpaning qatiga qo‘ydim” degan gapni eshitganmisiz?

Ko‘z oldingizga kelgan bo‘lsa, bas.

Shunday qilib, qatga chiqishga qaror qilgan paytimda, Jamol Oqboyga baqirdi:

— Bakovul! Toshni ot!

Oqboy irg‘ib turib:

— Ko‘zni yuminglar! — deb hayqirdi. — Bir, ikki, uch!

Bolalar “gup-gup” etib, suvga sakrashdi. Girdobga yaqinlashganda sho‘ng‘ib-sho‘ng‘ib ketishdi.

Men angrayib turarkanman: “Jamol topib chiqmasin-da!” der edim. Negadir...

Qarangki, Jamol ham.. oqtoshni topib chiqolmadi! Jo‘ra ham, Oqboy toshni qayerga tashlaganini bilardi, albatta. Shuning uchun uyam o‘zini suvga otib, ikki marta sho‘ng‘ib chiqdi. Qo‘li bo‘sh... Bolalar hansirashib, yana joy-joylariga o‘tirishdi va toshning nima bo‘lganini o‘zlaricha taxminlay boshlashdi.

Qizlar bo'lsa endi bularga achingandek o'tirishar va odatdagicha shivirlashar edi.

— E, topmasam, shu yerdan ketmayman! Ketsam, shu yerning suvini ichmayman! — deb yubordi Jamol va tag'in o'zini suvga otdi. G'oyib bo'lib ketdi. Undan keyin boshqalar ham boz suvga sakrashdi: guv-guv-v...

Qizlar iyrim sathiga diqqat bilan tikilisharkan, mening xayolim tag'in qaldirg'och iniga og'di: endi katta qaldirg'och yo'q, uyachadan sarg'ish tumshuqlargina ko'rinardi.

Qatga o'rmalay ketdim. Yumshoq undek tuproq to'kilgan. Mitti qushchalarning panja izlari bor, xolos. Qatning ayrim joylari juda tor — ya'ni, shifti past bo'lib, u yerlardan boshimni xam qilib o'tardim.

Ayrim joylari keng, shift ham baland: bemalol chordana qurib o'tirsang bo'ladi.

Nihoyat, yetdim. Mana qarshimda: tomchi-tomchi loydan yasalgan hovuchdek in. Negadir chipor. Mitti-mitti somon qipiqlari ham qo'shib yuborilgan.

Tavba, imoratni suvashga, xususan, tom suvoqqa ishlatiladigan loyga somon qo'shishlarini bilardim: suvoq mustahkam bo'ladi... Nahot bu narsani qaldirg'och ham bilsa?

Darvoqe bu sho'rlik qush loyni ham.. tumshug'ida keltirgan-a?

Bolalari uchta ekan. Uchchalasi ham meni onalari deb o'ylashdimi, chiy-chiylab og'izlarini kappa-kappa ochishdi. Voy, og'izlari shunaqayam kattaki, biri ikkinchisining og'ziga boshini tiqsa, bemalol sig'adi. Lekin ko'zlari yumuq. Haqiqattan ham malla.

...Men hali uyaga qo'limni uzatmagan ham edim! Birdan tevaragim chiy-chiy ovozlarga to'lib qoldi va bir juft qaldirg'och zing'illab aylanayotganini ko'rdim. Ko'rdim-u, ular naq ko'zlarimni cho'qib oladigandek chovut solishdi!

Men boshimni egib qoldim. Ular naq tepamda charx urishar, quloqlarimga, bo'ynimga, hatto yuzimga ham qanotlarining shamoli urilardi. Tag'in ko'zimni ochgandim, tag'in...

...Yana boshimni egib qoldim-u, shu bosh o'lgur aylanayotgandek bo'ldi.

"Bas! Tushish kerak!"

Ya'ni, qochish kerak...

Men yuzimni bir qo'lim bilan to'sib, kelgan yo'limga qaradim-u, yuragim orqaga tortib ketdi. Yo'lak juda tik va juda tor bo'lib, uning shundoq pastida...

...ko'm-ko'k iyrim kilkillab, xuddi bir afsonaviy mahluqqa o'xshab turardi.

Uni ko'rdim-u, tamom bo'ldim.

— Tush! Pastga! Sodiq! — ana shunday chaqiriqlar kelayotganini ham shunda eshitdim. Va qirg'oqqa ko'z qirimni tashlasam, bolalar-u qizlar tik turishib, meni imlashayotibdi.

Tavba, ular juda yiroqda turishgandek, kichkina bo'lib ko'rinishdi.

Men tushish uchun bir amallab burildim-da, demak, to'g'ri tushishim lozimligini anglab lol qoldim: qanaqasiga to'g'ri tushaman? Yo'q: boyagidek bo'lib olib, demak, surilib-tislanib enishim mumkin, xolos! Bo'lar ish bo'ldi!

Tag'in uyaga o'nglanib olganimni bilaman, qaldirg'ochlarning endi qanotlari yuzimga tegib o'tdi. Va yana bosh o'lgur aylana ketdi. Shunda siljidim-u, u yog'i...

Qatdan quyiga uchdim!

Boshim bilan...

...suvga kirdim-ketdim: ketyapman, ketyapman. Bir narsani bilamanki, bunday paytda ma'lum bir joyga borganingdan so'ng tashlanishdagi zarbaning kuchi susayadi-da, beixtiyor to'xtaysan. Ana shunda tepaga intilasan: qo'l-oyoqlaringni qimirlatsang, bemalol chiqib ketasan.

Hozir esa... to'xtaydigan siyog'im yo'q edi. Birdan ko'zimni ochdim. Ochdim-u, sutdek oq narsani — suvni ko'rdim. Keyin u tiniqlashdi. Keyin baliqmi — bir narsa oldimdan suzib o'tdi. Undan keyin quyiga tikildim-da, beixtiyor yana...

...quyiroqqa tushish uchun intilganimni sezmay qoldim. Chunki turli-tuman oq-qora toshlar ko'rinib turardi.

Toshlarga qo'lim tekkan zamon menga tanish... haligi oqim zarb bilan surib yubordi. Alpang-talpang bir toshga yopishdim. Qo'lim chiqib ketgan edi, bir tomirni ushlab oldim. To'xtadim. Ammo butun tanam buralib qoldi.

Tomirni qo'yvorsam, ketaman...

Qo'yvormasam, hademay nafasim qaytadi.

Shu o'y-shu qaror menga quvvat bo'ldi chog'i, bir muddat ko'nglim tinchib qoldi va beixtiyor oq toshlarga tikila boshladim, Ishonasizmi...

...O'sha oqtosh shundoq ro'paramda — tomirning tagginasida chig'anoqdek bo'lib yotgan ekan!

Tomirdan bir qo'limni bo'shatib, toshni oldim.

Esimda: men butun dahshatni unutgan edim!

Endi, mayli, iloj qancha: bunaqada uzoq turolmayman. Bu yog'iga — suvosti oqimi qay manzilga oboradi noma'lum-u, agar biron joyda meni chiqarib tashlaydigan bo'lsa, ungacha ham, demak, nafas olmasligimga to'g'ri keladi.

Bu mulohazadan so'ng: "E, bolalar bor-ku, Jo'ra aka bor! Jamol bor!.." deb o'yladim. Va damim ichimga tushib ketayotganini payqadim-u, tomirni ushlab turgan barmoqlarim bo'shashdi va men oqimga tushib ketdim. Ketayapman. Ko'zim ochiq...

...Oqlik va tiniqlik olamidaman. Ammo bu olamning yashil giyohlari ham bor. Ular ham uzunasiga o'sgan: suv yo'li bo'ylab. Shuning uchun meni tutib qolisholmaydi. Men esam, ular orasidan sirg'alib o'taman.

Bu ajab bir olam edi: ha, ha! Bunday manzarani faqat tushda ko'rish mumkin! Tushdayam xuddi shunday bo'ladi: ixtiyoring go'yo birovning qo'lidadek.

Sen uning izmida: aqling-hushing o'zingda bo'lsa-da, hech ish qilolmaysan...

Kitoblarda yozishadi-ku, "ko'zimni ochganda, o'zimni kasalxonada ko'rdim", deb.

O'zimga kelibman chog'i, ko'zimni ochsam, chalqancha yotibman. Jo'ra belimga mingandek turib olib, qo'llarimni nari-beriga oborib-obkelyapti. Ko'zlarida... suv tomchisi emas: yosh.

Atrofimda — tepamda bolalar-u qizlar: birlari tik turishibdi, birlari cho'nqayib o'tirishibdi. Bilmadim, uyalganimdanmi, birdan hushyor tortib ketib, o'rnimdan turmoqchi bo'ldim. Ammo ko'nglim aynib, suv qusdim. So'ngra bir nafas egilib qolib, yana qo'zg'almoqchi bo'luvdim, barmoqlarim og'rib ketdi: qarasam, qo'limda, ya'ni, kaftimda o'sha... oqtosh!

Kaftni ochmoqchi bo'ldim-ochilmaydi: qarishib qolgan.

— Hozir uqalaymiz. Hozir... — dedi Jo'ra va mening turib o'tirishimga ko'maklashdi. So'ngra og'ib ketmasligim uchunmi Oqboy orqamga o'tib, kiftimga tiralib o'tirdi. Qizlardan kimlardir kuldi: xursand bo'lgandan albatta. Axir, bir narsa bo'lsam, men — Sho'ro opaning o'g'li... Tasavvur etasizmi... Tasavvur etasiz.

Xuddi shu vaqt... yiroqdan bir qiyqiriq eshitildi! Hamma alanglab qaradi.

Baland qirg'oq ustida — chamasi bizni quyiga olib tushadigan so'qmoqda bir jiyron otliq turar, ot negadir sapchir, chavandoz yuganni tortib o'rnida aylantirar edi.

Shak-shubhasiz u kishi — mening onam edi.

— Sho'ro opa! Sho'ro... — deyishib qoldi bolalar. Qizlar ham shivir-shivir qilishdi-da, otliq so'qmoqqa tushib va chang-to'zon ko'tarib enar ekan, hamma...

...Jo'radan bo'lak, hamma zim-g'oyib bo'lib ketishdi: qochishdi! Yulg'unlar tagiga, qabriston tarafdagi jarlik kamarlariga o'zlarini urishdi.

Ana shunda qirg'oq ustida to'riq otli ham ko'rindi. Va birpasdan so'ng u ham ena boshladi.

— Jo'ra aka, — dedim behol. — Meni... Sizdan iltimos, keting, aka...

— Yo'q, uka... Nimaga? Seni yaxshi ko'raman... Yaxshi bolasan...

— Meni kim opchiqdi?

— Kim bo'lardi.

— Siz-da?

Onam otdan tushib, meni bag'riga bosdi.

— Nima bo'ldi?... Nima?... Nima qilib qo'yding, hoy, dushman? Senimi? Uyga borib bo'psan...

— Ena, Jo'raka meni opchiqdi, — dedim. — Qaldirg'och bolasini ko'raman, deb...

...Rais bobo ham yetib keldi. Har yoqqa razm solib, chamasi bolalar va qizlarni ko'rib, o'g'liga ham razm solib, menga jilmaydi.

— Qalay, moltishni o'rgandingmi? Qo'lingdagi oqtosh-ku? O', opchiqqan bo'lsang...

— Gapirmang, o'rtoq Boboyev! O'lishga sal qolipti-ku buning. Xayriyat, Xudo bir asrapti...

— Yo'q. Meni Jo'rakam...

— Tashla u toshni! — deb do'q qilib qoldi onam. — Nimaga uni ushlab o'tiribsan?

Men barmog'imni ochmoqchi bo'luvdim... ochilib ketdi! Kulib, Jo'ra akaga qaradim. Uyam jilmaydi. Shunda onam:

— O'rtoq Boboyev, buni mingashtiring, — dedi-da, o'zi jiyronga mindi.

* * *

Oqtosh hamon mening xonamda turibdi. Suzish bo'yicha musobaqalarda olgan har xil sovg'a-kuboklarim safida.

Lekin bu tosh ularning hammasidan aziz.

Onamning Jo'raga munosabatini so'raysizmi?

Jilla o'zgarmadi: shunaqayam bo'larkan-da, birodar... Jo'ra hozir do'xtir.

Rais bobomdan uchta ukam bor. Onam ularni yaxshi ko'radi, albatta.

Ammo Jo'rani...

Mening esa tug'ishganlarim orasida ham... eng sirdoshim, suyganim Jo'ra aka.

1992

AROSAT

Zokir O'rin choyxonada o'tirgan edi, oyoqlarini so'ridan osiltirib, chalishtirib, uning qarshisidagi so'ridan joy olgan ermaktalab nashavand, farrosh va sartaroshga Eson do'xtir gap berardi, tik turgancha hovliqib:

— Sizlar ham yuribsizlar-da, jo'ralar, dunyodan bexabar... Xo'jamyor axir Maskovdagi xayriya pondlaridayam ishlab, ishbilarmon bo'lib keldi. Bu orada u ikki marta, yo'g'-e, uch marta Turkiyada bo'ldi! Bir marta Amriqoda!.. Biznes ishkolaniyam bitirgan u! Nima deyapsizlar... Yo'g'asam, mana — milyoner bo'lar edi!..

— Hov feldsher, qaysi Xo'jamyorni aytayapsan? — deb tuyqusdan so'rab qoldi Zokir O'rin.

— Domla, siz ham g'aplatda qolgan ekansiz-ku! — deb etsiz basharasini kuydirgan kalladay tirjaytirdi Eson. — Axir, o'zingizning o'quvchingiz-chi? Madiyor dallolning o'g'li! Surrayib yurardi-ku otasining izidan?.. Menimcha, bir-ikki yil sinpidayam qolgan edi.

— E, shunday demaysanmi, — deya jez tishlarini ko'rsatib iljaydi domla va xursandligi shunchaki, torgina ko'kragi qabarib ketdi. — Ha, uni o'zimiz o'qitganmiz. Sinfida qolganiyam rost. — Keyin o'ylanib, yelkasini qisdi. — Yaxshi, unda tijoratga qobiliyat bor ekan. Biz o'shanda tijorat ahlini o'g'ri-kazzob deb yomonlar edik.

— Endi o'zingizga keldingiz, domlajon, — deb bu kishiga gap uqtirmoqqa boshladi do'xtir. — Holbuki, o'sha vaqtlardayam "O'tgan kunlar"dagi Otabekni "milliy qahramonimiz", deb maqtar edingizlar.

— Rost, rost, — tan oldi Zokir O'rin jiddiy tortib. So'ng yana qalbaki tishlarini ko'rsatib: — Lekin savdogarchiligiga o'tmas edik-da... — dedi.

Eson do'xtir muallimni mot qilib bo'lganday tantanavor kulib yubordi. Unga qo'shilib domlaning o'ziyam siyrak sochli xumdek boshini irg'ab kularkan, boshqalar ham zo'r askiya eshitganday xaxolay boshladi.

Keyin domla xayolchanlik bilan choynak yoniga besh so'm tashlab oyog'ini yerga qo'ydi. Kichkina qorinchasidan pastga siljigan qayishini tirsaklari bilan qisib — ko'tarib olib, so'ri qoshiga kiygiziqlik sarg'ish shlapasini boshiga qo'ndirdi. So'ng jamoaga ziyolicha ta'zim qilib:

— Xush qolinglar. Rahmat, Esonboy, sizgayam, — deb burilib, xiyobonga chiqdi.

Ana shunda uning kallasiga bir xayol keldi: "Qara-ya, o'sha bola odam bo'pti. Milyoner tijoratchi bo'pti. Qandaydir korxona ochib, elgayam nafi tegayotganmish. Shunday kunlarda...".

Domla Zokir O'rin maktabda darslarini o'tib bo'lib uyiga ketayotganda, azbaroyi chanqaganidan choyxonaga kirgan edi. Binobarin, endi uyiga borishi kerak. Biroq... hozir nechuk choyni ichib tugatmasdan o'rnidan turgani-yu, xiyobonda to'xtagani sababini noxos anglab qoldi.

— Hov Esonboy, bu Xo'jamyorning korxonasi... ish-joyi qayerda? — deb so'radi ortiga qayrilib.

— Toza hayotdan ortda qop ketgan ekansiz-da, taqsir, — deb yana tantana qildi feldsher. — Axir maktabingizdan tubanda eski qurtxona bo'lardi-ku, Kalinin kolxozining sobiq idorasida. Hovuziyam bor...

Domla eslab:

— Bo'ldi. Rahmat, — dedi.

— O'shaqqa borasizmi? — so'rab qoldi Eson do'xtir.

— Borish kerak, — javob berdi muallim sobitlik bilan. — Bizning o'quvchimiz shunday kishi bo'pti-yu, biz bir og'iz tabriklamasak, uyat bo'ladi.

— He, otangizga rahmat! — dedi do'xtir. — Undaylar ko'paysin deb duo qiling. Endi zamon ularniki...

Zokir O'rin davraga tag'in yengil ta'zim qilib va kichkina, ixcham gavdasiga yarashmayroq turadigan salmoqli yurish bilan choyxona oldidan o'tdi.

Domla toliqqan edi. Ammo bu yangilik zavqidan va Xo'jamyorni ko'rish, ko'rishish va himmatli ishlariga baror tilash onlarining jozibasidan charchog'ini ham unutib, maktab qoshidan o'tib ketdi. U Xo'jamyorning bolalik qiyofasini ham, paxta terim mahallarida takasaltang yurishlari-yu, "kachegar bo'laman" deb o'choq boshida qolishlarini ham hisob formulalari kabi eslab borar, shu asno uning oqibat tijoratchi bo'lishida zamin izlar, chunki shu zaminni sharhlab uni shod etishni ham o'ylardi. Biroq harchand bosh qotirmasin, otasi dallolligidan o'zga sabab topa olmadi. Domla uchun tag'in achinarlisi shu ediki, Xo'jamyor naq hisobdan ham o'rtacha o'qir edi: ha, biron masala yoki misolni sharillatib, yechib tashlaganini eslolmaydi.

"Lekin qobiliyat keyin ham yuzaga chiqishi mumkin, — deb o'zicha to'ng'illadi Zokir O'rin nihoyat. — Buyam talantday gap...".

Domla ro'molchasi bilan manglayini artib jilarkan, yo'l bo'yidagi vodoprovod dastagini bosib chelagini suvga to'ldirayotgan kelinchakni ko'rdi va undan manzilni surishtirmoqchi ekanini fahmladi-yu, yetib kelganini bildi.

O'ng qo'ldagi yap-yangi temir darvozaning bir tabaqasi ochiq, u yerdan tomlar uzra yuksalgan balx tutining egik shoxlari ko'zga tashlanib turardi: ha, bu tut ham domlaga tanish. Bolaligida... hu yiroq zamonlarda uning kichkinaligini pesh qilib, daraxtning uchki novdalarini kesish uchun chiqarishar edi, Zokirboy odobli bola bo'lganidan barg kesish bahona tutga qorin to'ydirib tushishni ham o'ylamasdi.

"Bu yil kesishmaptimi?.. E, pilla terib bo'lindi-yu, "kesishmapti" emish...".

Domla shu o'ydan keyin Eson do'xtir aytganidek — chindan ham "hayotdan ortda qolgani", aniqrog'i, mamlakatdagi tashqi siyosat-u hayotdagi tovlanishlardan to'ygani uchunmi — turmushning boshqa yo'riqlariga xiyla loqayd bo'lib qolganini tan olgani holda, darvozadan kirdi. Katta chorkunj hovuzni ko'rishi lozimmidi — asfalt yotqizilgan yo'lkada turgan ko'k "Volga" bilan kumushrang xorijiy moshinaga ko'zi tushib, hayron bo'ldi. Keyin keng yo'lkaning so'lga burilgani va qari tutning egik shoxlarini ko'rib, mamnun tortdi: tut... o'zini kutib olayotganday tuyuldi.

Shu hisning quvvatida — bu yerda bemalol yurishga haqqi bor kabi moshinalar yonidan bemalol o'tdi-yu, bahaybat daraxtning tagida stol atrofida o'tirishgan uch-to'rtta kishiga ro'para bo'ldi. Ulardan bittasi tanish edi: yaqindagi do'kon qorovuli.

— Assalom alaykum! — dedi domla qo'ng'iroqdek ovozda.

Tanimol o'rnidan sapchib turib, mehmonga peshvoz chiqdi.

— Valekum assalom. Keling, Zokir O'rinovich!

Domla salmoqli yurishda borib, u bilan ko'rishdi.

— Him, rahmat... Xo'sh, o'zingiz qalaysiz? — deb so'radi xuddi shu qorovulning ahvolini bilgani kelgandek.

— Shu Xo'jamyor akaning apcharkasi bo'lib yurippiz, domlajon, — deb javob berdi u iljayib. — Ha, xush ko'rdik... Xo'jayin kerakmi?

Domla tek qoldi.

— Kerag-u... — dedi domla. — Lekin nega "xo'jayin" deysiz? Nega Xo'jamyor sizga "aka" bo'lar ekan?.. Shoshmang-da! Tag'in "afcharkasi bo'lib yuribman" emish... Bu nimasi?

— Endi... — "Apcharka" qiynalib-qipsinib, lo'msa yuzini siniq iljayish qoplagan holda, xo'rsinib yubordi. — Boriyam shuda, domlajon.

Zokir O'rinning astoydil jahli chiqib:

— Ajabo, men bilmay yurgan ekanman. Qoching yo'ldan, — dedi. — Hov, Xo'jamboy Madiyorov!

Tutning orqasida — tomiga yaltiroq tunuka qoplangan binoning o'ng tarafidagi gulzorga ochilgan derazalarining biridan Xo'jamyor... ha, o'sha ot yuzli yigitchaning yirik nusxasi qarab turgan ekan.

— Marhamat, domla. Biz shu yerdamiz... Abdiboy, eshikni ko'rsating! — dedi.

Zokir O'rin Abdining ishora-iltifotini qo'l harakati bilan keskin rad etib, eshikka yo'naldi. Peshtoqdagi yozuvga boqmay, ammo ho'l to'shanchaga poshnasi allaqachon qiyshayib ketgan tuflisini artib, chog'roq xonaga kirdi. Ro'parada yaltiroq stol ortida o'tirgan xushbichim qiz o'rnidan turar-turmas, so'l yondagi o'ymakor eshik ochilib, jigarrang tufli, malla kastum kiygan novcha yigit chetga tortildi.

— Kiravering.

Domla ostonaga qoqinib, cho‘g‘dek gilamga oyoq bosdi va bo‘sag‘adanmi, gilamdanmi uzr so‘ragan kabi g‘o‘ng‘illab, Xo‘jamyorga talpindi.

Xo‘jamyor uni bag‘riga olib va kiftiga asta-asta qoqib:

— Domlam-e, Zokir O‘rinovich-e, bormisiz-e, — der ekan, domla Zokir O‘rinning ko‘zlari g‘ilq yoshga to‘ldi: dami qaytib, yiroq zamonlar bilangina emas, o‘zining yoshligi bilan ham uchrashgandek piqilladi va tabiiy, u kishi ham qo‘lini tepaga uzatib, shogirdining yelkasini silar edi. Nihoyat, Xo‘jamyor domlani bo‘shatib, yon yoqda saf tortgan o‘rindiqlarga ishora qildi.

— O‘tiring, domla. — O‘zi esa uzun stolning boshida o‘qida aylanguvchi, suyanchig‘i baland — taxtsimon kursiga borib o‘tirdi. Va selektr tugmasini bosdi. — Asal, choy, — dedi. Keyin likopchadek hovuchini ochdi. — Potiha qilib qo‘yamiz-da, domla? Har holda musulmonmiz, buning ustiga, din modaga kirdi.

Zokir O‘rin ko‘zlarini artgan ro‘molchasini shosha-pisha cho‘ntagiga solarkan:

— Ha, albatta... Lekin din hech vaqt modadan chiqmagan, — deya qo‘llarini fotihaga ko‘tardi.

— Omin. — Xo‘jamyor jilmayib yuziga fotiha tortgach, stol chetidagi xorijiy sigaretdan birini chiqardi. — Haliyam munozaraga o‘chsiz-a, domla?

— Gap munozarada emas, — deya Zokir O‘rin ham kissasidan “Astra”sini oldi. — Din hamma vaqt odamlarning qalbida bo‘lgan, Xo‘jamboy. Lekin bechoralar tazyiq ostida...

Xo‘jamyor xorij sigaret qutisini domlaning oldiga surib yubordi.

— Mundan cheking.

— Men shunga o‘rganganman... Qur’oni karimda ham aytilar ekanki, e’tiqod zohiran va botinan bo‘lishi mumkin... — Zokir O‘rin sigaretni o‘zi chaqqan gugurt o‘tida tutatib, “munozaraga” kirisharkan, Xo‘jamyor uning so‘zini yana bo‘ldi:

— Ha, dinni dinchilarga qo‘yaylik, domla... O‘zingizdan so‘rasak? Uy ichlari, kayfiyatingiz qalay? Jiyanlar... Jiyanlar ko‘payib qolishgandir?

Zokir O‘rinning ko‘zlari birdan quvnab:

— Juda! — dedi va kuldi. — Qilgan ishimiz shu bo'ldiki, o'zbek xalqining ko'payishiga hissa qo'shdik, xolos. Boshqa — na ilmga, na amalga deganday... qiziqishlar so'nib ketdi. Biroq bola tarbiyalash ham oson ish emas... — Boshini ko'tarib, tag'in sun'iy tishlarini ko'rsatib jilmaydi. — Mana, o'zlaringiz ham o'zimizning maktabdan chiqqansizlar. Bevosita tarbiya berolmagan bo'lsak ham, bilvosita ta'sirimiz o'tgan bo'lishi mumkin. Shundayki, men sizning, Xo'jamboy, bunday zamonaviy biznes boshliqlaridan biri bo'lib kelishingizni o'ylamagan bo'lsam ham, buni ko'rib, ham eshitiboq g'oyat xursand bo'ldim. — So'ng o'ylanib, izoh berdi: — Kechirasiz meni, g'aflat bosib deng, vaqtliroq kelmadim qutlagani...

Xo'jamyor sigaret kulini billur kuldonga qoqib, endi kuldonni domlaga surib qo'ydi.

— Parvo qilmang, domla... — So'ng yana selektr tugmasini bosib. — Asal? — dedi. Va u yoqdan darhol javob qaytdi: "Labbay, Xo'jaka!" — Sen anavilarga ayt, bizga naturalniy teri kerak, xo'pmi? Qancha bo'lsayam olamiz aytilgan narxda. Uni Turkiya chegarasiga oborish ham bizning bo'ynimizda... Ular bilan ortiqcha savdolashib o'tirishga vaqtim yo'q... Aziz mehmonim bor!

Zokir O'rin bu gaplarni eshitayotgan esa-da, ma'nosini uqishga harakat qilmay turardi. "Aziz mehmonim..." so'zini eshitgach, ma'no anglash qobiliyati ishlab ketgandek chehrasi yana ham yorishib:

— Rahmat, — deb qo'ydi.

— Shunaqa... ish, ish, ish, — dedi Xo'jamyor va xo'rsinib nafas oldi. Keyin: — Xo'sh, domla... — deya Zokir O'ringa tikilib qaradi-da, miyig'ida iljaydi. — Sal qartayibsizmi deyman?

Zokir O'rin sergak tortib:

— Ha, shu endi, eskilar aytganidek, olma bilan o'rik bo'larmidik, Xo'jamboy, — dedi.

Xo'jamyor bemalol hiringlab:

— Rost aytasiz, — dedi. — Mana, biz ham... Sochlarni qarang. Ha, lekin, domla, dunyoni ko'rish kerak ekan. — Shiftlarga qaradi. — Turkiya, Olmoniya, Amriqo... Bularni ko'rmasdan yashashni men endi tasavvur qilolmayman. — So'ngra domlaga

hasrat qilgandek dedi: — Bu mamlakatlarning har biridayam o'zbeklar bor ekan, qarang-a!

— Albatta, bor, — dedi Zokir O'rin jiddiy bosh irg'ab. — Hatto, Avstraliyada ham bor emish...

— Lekin hammasi tijorat bilan shug'ullanarkan, — go'yo domlaning gapini davom ettirdi Xo'jamyor. — Yashashlarini ko'rsangiz! Shunday ofislari borki!.. Masalan, Istanbulda shunday bir markazga kirib qoldim, boyoqishlar biram xursand bo'lib deng, "Buyriniz", deb turishipti. Darrov kofe... — U o'z so'zini bo'lib, boz selektrni bosdi. — Asal, choy nima bo'ldi? — "Tok kelmay qoldi" degan javob qaytdi uskunadan. — Ana shuda ahvolimiz, — go'yo so'zlariga yakun yasadi Xo'jamyor. — Biz shu qadar orqada qolib ketganmizki, domla... — U boshini og'ir chayqadi. Keyin bu holni, o'ylayverib boshog'riqqa yo'liqqandek chakkalarini qisdi.

— Ha, rost. Na chora, biz uchun ibrat — boshqalar edi... — deb hamsuhbatining fikrini ma'qulladi Zokir O'rin. — Dunyodan uzilib vakuumda yashaganmiz-da.

— Oh-oh, ot-tangizga rahmat! — dedi Xo'jamyor. — Vakumda yashagan ekanmiz, vakumda... — So'ng elan-qaran o'rnidan turdi va sigaretni avaylab tutgancha stolni yonlab kelarkan, domla kuldonni unga surib qo'ydi-yu, u sigaretni idishga bosganicha Zokir O'ringa qiyalab tikildi. — Ahvol qalay, domla?

— Ahvol yaxshi, — dedi domla. Keyin siniq jilmaydi. — El qatori. Elga kelgan to'y-da, bu kunlar ham...

— Himm, sizlarning maoshlaring ko'payib qoldi-ya? — Xo'jamyor burilib, joyiga qaytdi.

— Ancha! — darhol javob qaytardi Zokir O'rin va boz jilmaydi. — To'g'ri, pulning qadri tushib ketayotgan paytda bu unchalik bilinmaydi. Ammo yashasa bo'ladi... Chidaymiz-da, Xo'jamboy! Chidash kerak. — So'ngra ilhomi tosha boshladi. — Mustaqil bo'lishni shuncha yil kutdik. Uni deb kuyib-kul bo'lib o'tdi ulug'larimiz, allomalarimiz...

Xo'jamyor tag'in domlaning so'zini bo'ldi:

— Menga bir gapingiz nash'a qilib ketdi, rostini aytsam. Xo'sh, "yashasa bo'ladi" deganingiz. — So'ng derazaga ma'noli termilib

qoldi. — Yashasa bo'ladi... — Shu tobda undan teran ma'noli, hayotiy mulohazalarga to'la hikmatlarni kutish mumkindek edi. U esa: — Umuman, aytganda, shunday, rost, — deb joyiga o'tirdi. — Demak, hali ahvol yomonmas ekan.

— Yomonmas, — dedi Zokir O'rin. — Biroq, Xo'jamboy uka, kimga qanday? Gap mana shunda... Mamlakatimiz ahvolini tushunib, boriga qanoat qilib yashayotganlar ham bor. Tushunishni istamay, kechagi kunni qo'msayotganlar ham bor. Ammo ularniyam tushunish mumkin: har kimning ham yaxshi yashagisi keladi.

— Uh, ana bu — dono gap! — deb yubordi Xo'jamyor. — Har kim ham yaxshi yashashni istaydi! Xo'sh, biz singari biznesmenlarning vazifamiz esa xuddi mana shu ahvolni baholi qudrat yengillatish... Fikrimni tushuntiroldimmi, domla?

— Juda! — dedi Zokir O'rin hayajonlanib. — Lekin rahmat siz... sizlarga! Ana, choyxonadan keldim hozir. O'sha yerdayam sizlarni... E, rahmat-e! Keling, qo'lingizni bitta qisib qo'yay, iltimos. Yurakdan!

— He, domlaginam-e.

Xo'jamyor qo'lini qistirib, joyiga ketgach, domla battar ta'sirlanib, bosh egib qoldi-yu, ko'zi soatiga tushib, birdan hushyor tortib ketdi.

— Demak, him, gapimning xulosasi shulki, — dedi,— seni... ko'rib, ko'p xursand bo'ldim, Xo'jamboy. Yo'lda... yo'lakay huv o'quvchilik davrlaring esimga tushib ketdi: ajib bir davrlar ekan! — deya birdan xitob qildi. — Paxta terimida yosh bolalar azob chekardi, bu hol ularni ekspluatatsiya qilish bilan teng edi, deb qancha va'zxonlik qilmaylik, o'sha davrlar — bizning kechagi kunimiz, yaqin tariximiz, yoshligimiz bo'lib qoladi. — So'ng uh tortib yubordi. — Bolalik bizga hamma vaqt ajib, jozibali tuyuladi... Ana shuning uchun aytamanki, kechagi yillar — yoshligimiz ham — biz uchun shubhasiz azizdir!

Xo'jamyor boshini qiyshaytirib, domlani tinglarkan:

— Ha, albatta... O'sha bolalik bo'lmasa, bugungi kunga yetarmidik, — deb qo'ydi.

Zokir O'rin chalg'iganini fahmlab, endi soatiga bemalol qarab oldi-da:

— Endi bizga javob berasiz, — dedi.

Xo'jamyor tomog'ini ohista qirib:

— Yo'g'asam, bizga bo'larini aytasiz, — dedi. — Bizga nima xizmat bor?

Zokir O'rin yelkasini qisdi.

— Xizmat... Sog'-salomat bo'ling, shu.

— Yo'q, unday emas, domla.

— Yana nima deyishim mumkin?

Xo'jamyor yangi sigaret olib, barmoqlari orasida siypalar ekan:

— Domla, uyalmang, iltimos, — dedi. — Men umuman... ahvolni tushunaman. Bizga kundek ravshan. Maskov ko'chalarini ko'rsangiz bir! Qaysi kuni ertalab mehmonxonadan chiqib ketayotsam, axlat yashikni ag'darib ko'rishayapti. Ikkita xotin. Durust kiyingan, intellegentga o'xshaydi... Meni ko'rib deng, biri biriga nima deydi: "Moya koshka lyubit vot etu kostochku". Ikkinchisi suyakni ko'rsatib: "Mening itim bunaqasini yaxshi ko'radi", deydi. Tushundingizmi? Zokir O'rin og'zini ochib qarab turardi.

— Yo tavba!

— Xo'sh, domla?

— Nima, "xo'sh?" Tushundim: bechoralar bir-biridan ham uyalishsa kerak...

— Men sizdan boshqa narsani so'radim, domla. Bu gap shunchaki daromad gap.

— Nimani so'radingiz?

— Nimani istihola qilyapsiz, domla?

— Tushunolmadim?

Xo'jamyor bilagidagi oltin soatiga ko'z tashlab oldi.

— Mana, salkam chorak soat o'tiribmiz... Him, siz istihola qilib aytmagandan keyin men nima qilay?

— Nimani-nimani? — zo'riqib so'radi Zokir O'rin. — Men hech narsani istihola qilayotganim yo'q. Mutlaqo!.. Istiholani o'ylasam, hatto...

— Nima?

— Bu yerga kelmas edim.

— Kepsizmi, so'rang-da endi, — dedi Xo'jamyor undan ko'z uzmay. — Axir, men sizga begonamasman, — davom etdi qan-

daydir ranjinib. — Hali o'zingiz aytdingiz, bizga bevosita ta'sir o'tkazmagan bo'lsangiz ham, bilvosita... Albatta, tarbiyangiz o'tgan. — U sigaretni so'rib, jahl bilan pufladi. — Bilaman, ahvolingiz yomonmas... Umuman, O'zbekistonda yashasa bo'ladi. Mayli-da!

— Inshoolloh, yaxshi bo'ladi, — deb qo'ydi domla.

— Ha, endi, inson orzu-istak bilan yashaydi, deydilar... Buyam dono gap.

— Bu — haqiqat, — dedi Zokir O'rin va endi o'zi Xo'jamyorga tikildi. — Uka, nima demoqchisiz? Ayting, eshitay. Vaqtingizni oldim. Ketaman.

— Yo'q, siz uchun vaqt bemalol.

— Rahmat.

— Xo'-o'sh, — Xo'jamyor suyanchiqqa yastanib, sigaretni rohatlanib so'rdi-da, g'alati kulib yubordi: kulgisi tomog'idan chiqdi, chunki hissiz edi.

Zokir O'rinning esa nafsoniyati og'rinib ketdi. O'zini ermak qilinayotgandek tuyib:

— Bo'pti, bizga javob, — deya o'rnidan turdi. — Samimiy suhbat uchun rahmat. — Xo'jamyor so'zini bo'ladigandek shoshib davom etdi: — Him, Turkiya, Amriqo safarlaringiz haqidayam eshitdim... Ha-ha, ularda hayot boshqacha! Bizlar qoloq...

O'rnida miq etmay qolgan Xo'jamyor:

— Domla, — deya uning kursisini ko'rsatdi. — O'tiring joyingizga!

— Rahmat. Lekin, lekin... inson yo'l topadi! Hukumat ham! Har qancha qiynalib bo'lsayam. Axir, yangi yo'lga tushgan chaqaloq ham qoqiladi-ku?

— Uf, agar xafa qilib qo'ygan bo'lsam, uzr so'rayman, — dedi Xo'jamyor va asta qo'zg'alib, stol yonidan yurib kelarkan, Zokir O'rin tislandi. — Obbo!

Domla behol tortib ketdi. Keyin:

— Xo'jam, men konkret gapni yaxshi ko'raman. Bilasan-a? — deb so'radi.

— Bilaman. Shuning uchun hayron bo'lyapman-da, — dedi Xo'jam.

— Qiziq. Nimani konkret gapirmadim?

— Gapirish... — Xo'jamyor so'zini chala qoldirib, Zokir O'ringa tepadan tikildi. — Domla, siz rosti bilan meni tabriklagani, shunchaki qutlagani bu yerga keldingizmi?

Domla unga angrayib qoldi.

— Bu qanaqa savol? — dedi shivirlab. — Yo'q, bunga ishonmaslikka senda.. ha, senda qanday asos bor?

— Hamma gap shundaki... — Xo'jamyor iyagini kafti bilan ishqab chaynaldi.

— Xo'sh?

— Endi... — Xo'jamyor keskin burilib ketdi. Taxt-kursi qoshiga borib, yana qayrildi. — Bu yerga biznesga aloqasiz odamlar nima uchun kelishadi? Bilarsiz-a?

— Biznesga aloqasiz... — Zokir O'rin ittifoqo choyxonada Eson do'xtirdan eshitgan gaplarini eslab qoldi: "Undaylar ko'paysin... Endi zamon ularniki". So'ngra Xo'jamyorning Maskovda qandaydir xayriya idorasida ishlagani, ha-ha, o'zining, ya'ni Zokir O'rinning-da "Elgayam nafi tegayapti" degani yodiga tushib ketdi. — Ha, endi, nochorlikdan ham kelishar...

— Ana bu boshqa gap! — dedi Xo'jamyor, nihoyat, yengil tortib. — Har kuni kelishadi muhtojlar... Barining hojatini chiqarayapman, domla. Minnat emas bu! — Keyin mayin kulimsiradi. — To'g'ri, u bechoralar ham, albatta, meni tabriklagani kelishadi...

— Lekin men... — dedi domla, — Ont ichaman, uka... — Keyin birdan ko'zi charaqlab ochildi-yu, portladi: — Hov, hali shuning uchun boyanadan beri savolga tutayotgan ekansan-da?

— Axir, bu tabiiy-ku, — dedi Xo'jamyor. — Siz ziyoli odamsiz. Madaniyatli...

— Nima, "ziyoli, madaniyatli" odam faqat... tabriklagani kelmaydi deb o'ylaysanmi? Xo'jamyor chuqur xo'rsinib, kursiga cho'kdi.

— Sizga javob, — dedi.

— E, meni haydaganingmi bu?

Xo'jamyor shartta selektr tugmasini bosdi.

— Asal! Abdini ayt!

Zokir O'rin kalovlanib, "Astra"ni cho'ntagiga soldi, so'ng gardishi hilviragan shlapasini boshiga qo'ndirdi.

Shu payt pakana, tuksiz lo'msa yuzi osilgan Abdi kirib keldi.

— Bu kishini kuzatib qo'y, — dedi Xo'jamyor va derazaga qaradi.

Abdi Zokir O'ringa iljayib, ta'zim bilan eshikni ko'rsatdi. Zokir O'rin tamshanib:

— Bu nima qiliq? — dedi go'yo o'ziga o'zi. — Hov, Xo'jam? Meni haydab chiqarayapsizmi?

— Bu kishi Xo'jam emas, Xo'jamyor Madyorov, — dedi Abdi va domlaning tirsagidan ushladi. Domla:

— Qo'lingni ol! Afcharka, — deya chetlanib ketdi.

Abdi intilib domlaning bilagidan tutdi va buriliboq tortgandi, Zokir O'rin o'ymakor eshik og'ziga borib qoldi.

— Marhamat, domla.

— Hov, Xo'jam?

Xo'jamyor qaramadi.

— Abdi!

Shunda Asal eshikni ochdi va Abdi Zokir O'rinni quchib ko'tarib tashqariga chiqardi:

— Domla, darvozadan ham chiqarib qo'yaymi?

— Qo'yvor, ablah! — dedi Zokir O'rin. — O'zimning... oyog'im bor! Hozircha bor! — deya eshikka qarab baqirdi. — Hoy, biznesmen! Tilanchi emasman, Xudoga shukur. Seni o'quvchim deb... Bema'ni, odobsiz!.. Odamlarga bunday qarash uchun kishi naqadar tuban bo'lishi kerak...

Abdi jila boshlagan Zokir O'rinni yana dast ko'tarib oldi-da, g'izillab ketdi. Ko'chaga chiqarib qo'yib, darvozaning ochiq tabaqasini berkitdi.

... Xo'jamyor yumshoq kursida so'lg'in tortib o'tirarkan, Asal kirdi. Xo'jayinga termilib biroz sassiz turgach, so'radi:

— Nima bo'ldi, Xo'jaka?

Xo'jamyor ham kotibaga biroz sassiz tikilgach:

— O'zim ham tushunmay qoldim, — dedi.

— Nimani?

— E, so'rama.

1993

OZODLIK

Nabijon Boqiyga bag'ishlayman

1

Tashqarida shamol uvullar, burchakdagi tunuka pech otashxonasidan lop-lop etib alanga chiqar, shunda otashxona o't purkovchi afsonaviy ajdarning komiga o'xshab ketardi. Ammo shiftga o'rlab, tomni teshib chiqqan karnayning chirsillashi va uning ulama joylaridan tutun silqishi ko'ngilni tinchitardi, chunki tom uzra esayotgan shamol tutunni qaytarib ichkariga urgani, shuning zarbida otashxonadan olov nafasi chiqib qaytganini unsiz anglatardi.

Issiqqina mehmonxona do'st-yorlarning nafasi-yu chekkan tamakilari tutuni, yuzlarining tafti-yu qizg'in suhbat-kulgidan fayziyob, go'yo olamni burkagan qor-u bo'ron ichida shu kichik uycha-yu shu yerda jam bo'lganlargina bor edi.

Mansur bu xonaga serqatnov: kirib poygakda cho'kar va eshitmagan askiyaga ham qo'shilib kular, unga-bunga, "dasturxonga qarang" deb iltifot qilar, kimlarningdir oldini tozalar, so'ng eshik taqillashi zamon o'qdek uchib chiqardi.

U xursand edi.

Faqat o'qtin-o'qtin loy, qor parchalari titilib yotgan ayvonda xotiniga nimadir uqtirgani holda turib qolar, etaklarni chulg'agan oqlikka, ro'parasidan buralib-shoshib o'tayotgan qor suruviga qiynalib boqar, "Tinsa edi-e, bas endi-e" deb pichirlar, so'ng o'n qadam enishda esa-da ko'rinmayotgan og'il-qo'raga ko'z tikib, quloq berardi: mollar tinchmi?

Ana shu alpozda qorong'i tushdi. Mehmonlar g'ala-g'ovur, o'yin-kulgi bilan uylariga otlanishdi: zumda og'il-qo'ra poyidagi yalanglikda turli mashinalar gurulladi, chiroqlari lovullab, tina boshlagan qor saflariga sanchildi. It hurdi. Mansur "Gazik" ichiga suqilib, do'sti Omonni quchib: "Rahmat, jo'rajon. Siz bo'lmasangiz, bu o'tirish ham bo'lmas edi", deya minnatdorchilik bildirgach, bu mashina ham jildi-da, Mansur

qorong'ilikda bir zum qo'lini qovushtirib, etakka sho'ng'ib tushib ketayotgan odamlar ortidan qarab turganidan keyin jadallab iziga qaytdi.

O'ziga bir yarimta keladigan xotini mehmonxonani yig'ishtirar edi.

— A, balli, kampir! — dedi u eshikdan mo'ralagancha. — Rahmat senga. Otangga rahmat, enangga rahmat... Xo'sh, Polvon uxlab qolgandir?

Kampiri enkaygan ko'yi bosh irg'adi. Va Mansur halpillab ayvonning u boshiga bordi. Tob tashlagan eshikni avaylab ochib, ichkariga kirdi. O'rtaga surib qo'yilgan qo'lbola elektr-plitaning zanjiri qip-qizarib turar, burchaklardan zax va zang hidi kelar, baland to'siqli karavotchada Polvon uxlab yotardi.

Mansur karavot qoshiga suyanib:

— He, bulbulidan! Uxlang, otam, uxlang! — deya birpas tirjayib turdi-da, yon-verini bosib qo'yib, kaftlarini bir-biriga ishqadi. — Yaxshi, yaxshi bo'ldi...

Elning oldidan o'tdi hisob, ya'ni, yuzi yorug' bo'ldi-da. O'ziyam ezilib yurardi. Ayniqsa to'y-hashamga borgan, ziyofatlarga tushib qolgan chog'larida: axir, o'n yil yotib keldi — to'rtta kishini chaqirib oldiga dasturxon yozolmadi: "Ey musulmonlar, umrdan bergan ekan, nasiba uzilmagan ekan. Mana, saflaringga qo'shildik. Bir duo beringlar", deb. Buyam — ko'nglida armon edi. Otadan qolgan kulbani epaqaga keltirib, hovliga to'rt-besh tup ko'chat o'tqazib, tomorqani sotdi; puliga besh-olti bosh sovliq olib, mana shu qirga chiqib keldi: qumtoshdan kesib g'isht o'rniga ishlatdi, tog' daralarida qurib qolgan daraxtlardan vassa-poya kesib yurganida, tashlandiq bir xaroba uchradiki, uning to'sini-yu sinchlarini — Xudo berganday bo'ldi; umrida hech kamlik ko'rmasin, Omon do'sti asqatib, ikki uy-bir dahlizli imoratni tikka qildi; shundayam to'rt-beshta qariyani chaqirib, duo ololmadi.

Omadni qarangki, qo'ylarini boqib yurganida Qora qo'tonda qiy supurayotgan bir g'arib qizni uchratdi va ikki og'iz gap asnosi uning o'zini sirtdan kuzatib yurishini bilgach: "Ey, g'arib! Men ham g'arib. Menga tegmaysanmi?" deganda, u jilmayib yelka qisdi. Mansur darhol viloyat markaziga hovliqib borib, go'sht

kombinatiga kirdi, qassoblar boshlig'i Omon jo'rasiga, gap shunday-shunday, dedi. Omon bir haftadan keyin kelib, Mansurni qiz yashaydigan qishloqqa olib bordi va Xudoning yo'l berganini ko'ringki, yetim qizini o'sha kuni Mansurga nikohlatib, uning somonsuvoq kulbasiga keltirdi, he, qo'l kaltaligi qursin: shundayam hamqishloqlariga osh berolmadi.

To'g'ri, o'shanda u odamlardan sovub yurgan kezlar edi, zotan, hamyurtlari ham unga qiyo boqishmas, ayrim rahbarlar unga ish berishmas — u qamalib kelgan "turemshik" edi.

Kelinning oyog'i qutli chiqdimi, sovliqlari egiz tug'ishi barobarida o'zi ham salkam to'rt kilolik Polvonni tug'ib berdiki, Mansur o'zini, nihoyat, odam sifatida tuydi. Uning qaddi ko'tarilgan kunlarning birida qirlik poyidan bir zamonlar tortilgan telefon kabellarini yangilayotgan brigadaga yollanib ishga tushdi-yu, ular safida qoldi: bu — kamsuqum, mehnatdan bosh ko'tarmaydigan yigit ularga chunon qo'l kelganidan to'qson chaqirimlik masofadagi kabellarni nazorat qilib yuruvchilik amalini berishdi: endi tagida almisoqdan qolgan "Gaz-51", yonida shofyor, bortda bitta ishchisi bor — vaqt-bevaqt otlanib qoladi: haftalab kabellarni tekshiradi.

Kuni kecha ana shunday tekshiruvdan qaytdi, ammo-lekin ona suti og'zidan keldi: qor qalin, tunlar — izg'irin, ayoz; kabel jonivor uch chaqirim masofada to'rt joyidan uzilgan ekan, ya'ni, qor betiga chiqsa, darhol tulki-yu sor qushlarga yem bo'ladigan, demak, qor ostidan yemish topishga majbur bo'lgan ko'rsichqonlar simlarni kemirib tashlagan ekan.

Ana shu mashaqqatli safardan qaytayotib, karantin postda Omon jo'rasini uchratib qoldi: uyam milisalarning choyidan bir piyola ichgali vagon-uychaga kirgan ekan. Ko'pdan ko'rishmagan kabi quchoqlashib ketishdi. Keyin elektr-plitaga isinib ahvollashishar ekan, gurungga milisalar ham qo'shildi va mavzu bozor iqtisodiga oralab, Mustaqillikka taqaldi: qarabsizki, nosqovoqdek shisha idishda spirt topildi, unga suv qo'shib ichdilar.

Omon bu kunlarning o'tkinchi ekani, pirovard, odamlar uchun sinov kunlari ekani — demak, bir-biriga mehri-oqibat-u el-yurtga sadoqat ayni shu zamonda bilinishi haqida pishillab so'zlar ekan, Mansurning og'zidan nogoh chiqib ketdi: "Jo'ra, bir o'tirish

qilsam, nima deysiz? Axir, o'zingizdan qolar gap yo'q, men qamoqdan ozodlikka chiqqan kunimdayam sizday birodarlarni aytib, bir piyola choy tutolmaganman...".

"Uch yildan beri shu gapni kutar edim sizdan, — dedi Omon iymanib. — Qiling. Bir yonini o'zim ko'taraman..." "Yo'q, hammasi o'zimdan, — kesib ta'kidladi Mansur. — Armonim shu edi, jo'ra. Shu kunlarga nasib etgan ekan. Omin deng!".

Shunday qilib, Omon Mansurga qo'shilib qishloqqa keldi. Mehmon aytishni ham o'z bo'yniga olib, kunduzi kelgan mo'ysafidlardan tortib, oqshom kelishgan ko'ngil yaqin teng-to'sh-u shotirvachchalargacha kutib oldi.

To'rt yashar bir qo'chqor bilan semiz serka so'yildi. Quyruqning yarmi bilan serkaning buzilmagan ikkita sonini, kelishuvga ko'ra, qassob sotib berdiki, uning puliga ho'l-u quruq meva-cheva xarid qilindi, tag'in besh-o'nta shisha... Ovqatdan — sho'rva, palov... Ishqilib, bir kichik mavlud o'tdi hisob: he, qariyalar: "Shu uyda to'ylar bo'lsin!" deb duo berishdi. Tengqurlar Polvonning sog'lig'i uchun ham qadah ko'tarishdi. Vo ajab, Mansurga ba'zan shunday tuyuldiki, uni hamma qadrlar, hurmatlar ekan-u, o'zi bilmay yurarkan. Buyam oz: u saxiy, uyparvar, xotinparvar, mehnatsevar va o'ta kamtar yigit ekanki, ko'plar zimdan havas qilarkan.

Turemshik bo'lganini birov ham eslatmaydi-ya!

2

Mansur kaftlarini ishqagancha tag'in ayvonga chiqdi. Eshikni zichlabgina yopti-da, nazdida, mehmonlardan biri kakligini o'g'irlab ketganday tuyuldi. Garchi bunday bo'lishiga u qadar ishonmasa ham, zanjiri shunday ilib qo'yiladigan o'rta eshikka halloslab borib, apil-tapil ochdi. G'adir-budir devorni siypalab, chiroqni yoqdi. Muzxonadek ombordagi qop-qop un, labi uchgan xum, eski tancha-yu arra, poytesha va uyulib yotgan eski-tuskilar charaqlab ko'rinishi zamon kaklikning churqillagani va qafas ichida tipirchilaganini eshitdi. Rom o'rnatishga ehtiyoj yo'qligidan tosh qalab, suvab qo'yilgan "deraza" pastiga jadal borib, qafasga yopib qo'yilgan uvada choponini shilib ko'tardi.

Karsondagi tuproqni changitib, gir aylanayotgan yirik, go'zal qush quralay ko'zlarini chaqnatib, egasiga chaqchayib tikildi-da, endi dik-dik sakrab, qafasning yulg'un chiviqlariga tumshug'ini ura boshladi.

— He-he, jonidan, — deb chayqaldi Mansur. — Nima bo'ldi? Doningiz bor, suvingiz bor... Sog'indingizmi egangizni? Yo uyga begonalar kelganini sezib, bezovta bo'ldingizmi?.. Ketishdi. O'zimiz qoldik.

So'ngra qafasni halqasidan ko'tarib va chiroqni o'chirib chiqdi. Sovuq, sovuq. Lekin qor tinipti. Ammo kechasi ayoz bo'lsa, o, charsillaydi.

Mansur to'g'ri mehmonxonaga kirib, qafasni pechka yoniga qo'ydi.

— Sal isinib olsin, jonivor.

Ko'rpachalarni qayta to'shayotgan xotini:

— Chang qiladi-da, — dedi.

— Ustini yopib qo'yamiz. — Mansur yopinchiq omborda qolganini eslab, pechka biqinidagi yolg'iz echki terisiga — po'stakka o'tirdi. Qo'llarini issiqqa tutarkan, birdan irg'ib turib ketdi.

U qo'ra chirog'ini yoqib, qo'y-echkilarini sanagudek — ko'zdan kechirdi, oxur ichlarini paypaslab, vaqtliroq tug'ishini mo'ljallagan ikki sovlig'ining qornini-yelinini ushlab ko'rdi, so'ng ularni qanday-dir doyalik mehri bilan silab-siypab va erkalab, sigiri qoshiga bordi.

Nihoyat, eshikni tambalab, suyak g'ajib yotgan itiga bir nimalarni tayinlagan bo'lib hamda atay yo'talib — tomoq qirib, uyga kirganida xotini o'rin solib bo'lgan, Polvonni ham yotqizib, kiftiga asta-asta urgancha g'ung'illar edi:

— Alla-yo, al-la.

— Ha-a, yaxshi, — deya yana po'stak tomonga o'tdi Mansur. — Lekin, kampir, shu uyni tuzab qo'yish kerak. Mehmonxona-ku bu... O'zimizga kichkina uy ham bo'laveradi.

— U uy zax, — dedi xotini. — Alla-yo, alla... Bir-ikkita bo'yra bo'lganda kigizni ostidan to'shar edik.

— Sen chiy to'qishni bilasan-a? Ey, kampir, kaklikka qara. Ko'zini yumibgina qolipti. Ana, ochdi... He, Qalamqosh... Shuyam tush ko'rsa kerak-a?

— Pechkaga chalmidan sob qo'ying. Alla-yo'o'... Kulxonasini bekiting.

Mansur nos otdi.

— Mehmonlay xuysan bo'p ketdi-ya?.. Ey, kampiy, meni yo'g'imda qiynalib qomadingmi? Tuzuk gaplasmadik ham... Lekin men ko'p azob chekdim. Aytmoqchi, shopiy bilan yabochi ettalab keladi. Yaxshilab meymon qilish keyak.

Xotini iymanibgina jilmaydi.

— Nosingizni tupuring.

Mansur qix-qixlab kulib, nosni axlat chelakka tashladi. Pechka ustidagi choynak jo'mragidan bir qult olib, og'zini chaydi. Keyin xo'rsinib:

— Ha, Xudoga shukur, — deya o'rnidan turdi. — Aytmoqchi, seni qishlog'ingdan ham bormidi? O'lay agar, men ba'zilarni, umuman, tanimadim.

— Kaklikning ustini yopib qo'ying, tinchroq yotadi... Lekin shuni ko'p erkalatasiz-da, chol. Buning sheriklari hozir tog'larda, e-he, donsiz, boshpanasiz yurishipti...

— Nega boshpanasiz bo'larkan? Kamarlar, g'orlar... Qiziq gapirasan. Donniyam topib yeyishadi! — Mansur yechina boshladi. — Ular sharoitga ko'nikib qolishgan. Ko'nikmaganda, ming yil burun qirilib ketardi.

— Be, odamlarning ahvoli shu bo'lsa, shunday ham qirib yuborishadi, — dedi xotini ham ko'rpaga kirarkan.

— Ovchilarni aytyapsan-da?

— Ovchisiyam, boshqasiyam.

Mansur chiroqni o'chirdi. Avaylab kelib, o'ringa kirdi-yu xotinini quchoqlab oldi.

— Uxlaylik. Siz ham charchadingiz, — dedi xotini.— Ko'rasiz, anavi kakligingiz soat to'rt bo'lmay uyg'otib yuboradi. Nari xonadan ham sayrashi...

— Ko'p gapirma.

Haqiqatan ham, kaklik sayrab va patir-putir qilib, Mansurni uyg'otib yuborganida deraza orti hali ko'roydin edi. Polvon g'ashlanib g'ing'illar ekan, Mansur xuddi qo'rasiga bo'ri oralaganday hovliqib turib ketdi.

— Aytmovdimmi! — deb injiqlandi xotini.

— Nimani, nimani? — Mansur apil-tapil kiyinib va choponini yelkasiga tashlab, ayvonga chiqdi. Sovu-uq. It ayvonga chiqib yotgan ekan, kerishib-g'ingshib, egasining yoniga keldi. — He, o'l! Joyini bilmagan! Tush pastga! Xurmagan itni urib o'ldirsang arziydi-da! — Mansur to'ng'illab nari-beriga va atrofiga qarandi. Shu qirni makon tutgandan berimi, yo qishloqdan chetdaligi, demak, yolg'izligi, buning ustiga, besh-o'n bosh tilsiz mollari borligi-yu ularning omonligi o'zlarining hushyorligiga bog'liq ekaniga tom ishonch tufaylimi — o'ta sezgir bo'lib ketgan Mansur atrofida qandaydir o'zgarishmi-sharpami borligini his etgan, tabiiyki, xonaki kakligining bemahal qichqirgan xo'rozday qilig'i bunga turtki bo'lgan edi.

Qo'ra bilan mehmonxona orasidan, ya'ni, usti yopiq o'choqlar tomonidan pir-pir etgan tovush eshitildi-yu Mansur ilkis qarab, bir-ikkita qora tovuqlarni... yo'q, yirik-yirik qushlarni ko'rdi. Va tumshug'ini bemalol ko'tarib turgani hamda dumlari yo'q darajada ekaniga diqqati og'di-yu:

— E, kaklik-ku? — deb shivirladi. U shoshib qoldi: nima qilish kerak?

Shunda ular yaqinlashib borayotgan itdan cho'chishdi chog'i, pir-pirr uchishdi, shundoq ro'parada uyub qo'yilgan — qor bosgan yantoq to'pining poyiga borib qo'nishdi.

— E, ketadi-ku? Jipak! — deb yubordi Mansur. — Miltiqni opchiq!

Kakliklar birdan vahimali chig'illab hamda qars-qars qanot qoqib, tom osha uchib ketishdi. Mansur dir-dir titragan holda luqmasini og'zidan oldirgan mahluqday yutinib-tamshanib qoldi.

Eshikdan mo'ralagan xotini:

— Nima? Kaklik ko'rdingizmi? Endi ko'rishingizmi? — dedi.

— Eh, uyga kepti-ya? — quvonib va ayolini kalaka qilganday kulimsirab uqtirdi Mansur. — Shu yerda, o'choqboshida ekan... Voy, buni qara-ya! Voy, jonivorlar-a... Qo'rqmaganini qara. Mana bu it ham sezmapti...

— Balki o'rganib qolgandir, tovug'imiz deb o'ylar,— deya Ipak ichkariga tortildi.

— Hoy-hoy, kampir, bu juda qiziq-ku, a? — Mansur ham xotiniga ergashdi-yu, tag'in birontasi pisib qolgan bo'lsa degan o'yda to'xtab, yana nari-beriga zehn soldi. So'ngra uyga kirdi-da, ajab alomatni ko'rdi: usti qoplovli qafasning pastlaridan chang buriqsib chiqar, qafas titrar-silkinar, makiyon to'lib-toshib sayrar edi.

— E, jinni bo'ldimi u? — Mansur shunday deboq behol tortib ketdi. Xotiniga jilmayib: — Tushunarli, — dedi.

— Shu-da, — deb qo'ydi xotini.

— Qachondan beri kakliklar kep turadi?

— Sovuq zo'rayganda...

— Bechoralar.

— Siz esa ularni otmoqchi bo'ldingiz.

— Endi, kim biladi... — U uyalib, yelkasini qisdi. Keyin to'rga o'tib, qafasning ustini ochdi. Changga belanib, oqarib qolgan kaklik shunda xo'rpayib bir silkindi. — Mansurning aft-basharasi ham oqarib qoldi. — He, Xoyin! — deb zarda qildi yigit. Va yo'talib, yuzini yengi bilan artgan bo'lib, davom etdi:— Jela ovning xumori tutdimi, beka? Balki tog'-toshni qo'msab qolgandirsiz? Hozir yaxlab qolgan kamarlarni, g'orlarni, a? Menga rahmat deng, sizni opkelib, uyimning to'riga o'tqazib qo'yibman. Sheriklaringiz, ana, bir cho'qim donga, ushoqqa zor bo'lib, ostonamizga kelipti... He, o'ling siz! — Birdan zarda qildi. — Shularni tutishim kerak-da, a? Yo uyning atrofini tuzoq bilan o'rab qo'yaymi? Keyin siz ayvonda vaqqillab sayrasangiz, qarindoshlaringiz part-part etib, tuzoqqa tushsa. Siz xursand bo'lasiz-da, a?

— Qo'ying endi. Uniyam ovga o'zingiz o'rgatgansiz,— dedi xotini Polvonga guppisini kiydirarkan... — Undan ko'ra mollarga qarang. Suv berish kerak.

Mansur bir muddat tek qoldi-da:

— To'g'ri aytasan, — deb pechkaga burildi. Choynakni gilamga opqo'yib, qopqoqni ochdi. Miltillab turgan cho'g'ni sim bilan kavlab yashnatdi-da, chalmadan sindirib tashladi.

Shu asno tog'da — qaysidir archa panasida o'chgan gulxan qo'rini qo'zg'agani, atrofdan kakliklarning sayrashi eshitilib turgani xayolida jonlanib:

— Ha-a, — dedi birdan. — Demak, kaklik qirg'ini boshlanipti-da, kampir... Tog'da yem bo'lmasa, sovuq — hammasi pastga enadi-da! E, attang... — So'ng birdan xotiniga yuzlandi. — Piyoda ov bo'lyaptimi?

— Vey, har kuni — ov-ku, — dedi kampiri. — Ana, Bo'rijarga tushing. Choshgohgacha tomosha ko'rasiz... Vey, odamlar-e, ayov nimaligini bilmaydi-ya.

— Tushunarli, — dedi Mansur g'ijinib.

3

Mansur uyi ortidagi odambo'yi ko'tarib yasalgan beton "hovuz"dan suv tashib, ushoq mollarini sug'ordi. Sigir bilan bo'g'oz sovliqlarga chelakda suv ilitib berdi. Keyin uzun oxurga somon solib, qiy-tappilarni kurayotgan edi, moshinasi signal berib kepqoldi. Mansur haydovchi bilan ishchisini ochiq yuz-la qarshi olib va ularning "qorda qolgan izlariga qaraganda, to'y bo'pti" degan gaplariga kamtarona jilmayib, mehmonxonaga taklif etdi.

Ularning izzatini joyiga qo'yib: "Uch kun ozodsizlar-ye!" deb jo'natgandan keyin, kirza etigini kiydi. Sariq-baroq junli telpagini boshiga bostirib, yiltirab qolgan dag'al sharfini bo'yniga o'radi va zarang tayog'ini olib, ayvondan tushdi.

— Kampir. Men bir aylanib kelay!

Qalingina tuman tushgan, shuning uchun sovuq emas, borliq kechagi shamol-u qor-u izg'irindan qutulib, endi sokin-muallaq bir holatda mizg'iyotgandek edi. Ammo odamlar... qayerlardandir odamlarning baqirgan-chaqirgani tushdagidek eshitilar, o'qtin-o'qtin otilgan miltiq sadosidan Mansurning yuragi jiz-jiz etib ketardi: "Otdi, yiqitdi. O, olomonning bu ovi dahshat...".

U piyoda ovni qachon ko'rganini eslolmas, biroq qish shunday qattiq kelib, qor ham qalin tushgan paytlarda gala-gala kakliklarni u qirdan bu qirga quvib, to's-to'polon ko'tarib yugurganlarini eslar, o'shandan keyin bozorda qoplab kaklik sotilganiga ham guvoh bo'lgan edi.

Lekin u paytlar — aftidan, ilgari zamonlar edi va tabiatni muhofaza qilish haqidagi o'yning o'zi kishilarning xayolida yo'q

edi — shuning uchunkim, o'sha vaqtlarda shimoldagi tog' o'ngirlarida kiyiklar ham bo'lar, ularning falon buloqdan suv ichganini ko'rganlar ham ko'p edi.

Keyin kakliklar ham kamayib ketdi va ular sonining qisqarishida Mansurning ham oz bo'lsa-da ulushi bor...

O'tgan yilning o'zidayam avji bahor Qalamqoshni qafasi bilan Qiziljarga opchiqib, bir butaning tagiga qo'ygan va atrofini tuzoq-jela bilan o'rab, yarim soat orasida to'rtta xo'roz kaklikni so'yib olgan edi. Qalamqosh, ya'ni Xoyinbeka xuddi ozodlikka chiqqanday shaqillab sayray boshladi, uning ovozini eshitgan xo'roz kakliklar: "Kimsan o'zing? Bu yoqqa chiq!" deganday vajohat bilan uchib kelib, o'zlarini tuzoqqa urishdi, qarabsizki, biri bo'ynidan, biri oyog'idan jelaga tushgan.

Mansur esa bir zum kechiksa, unisi bo'g'ilib harom o'ladi-yu bunisi qutulib ketadigandek, shoshilib-hansirab borib...

Ha, ovchilik ham nosning xumoriga o'xshaydi chamasi: nosvoy otganingni bilmay qolganingdek, ovga jo'navorganing-u qo'lga tushirgan o'ljani bo'g'izlaganingni ham bilmay qolasan... To'g'ri, keyin murdaning patlarini silab, ochiq qolgan nursiz ko'zlariga tikilib, rahming keladi. Keyin o'zingni hechqursa shunday ovutasan: "Bular — xo'roz-ku? Makiyonlari yuripti-ku...".

Darhaqiqat, bundan roppa-rosa uch yil burun Mansur bir shafyor tanishi bilan jela oviga chiqqanda, yoshgina bir makiyon tuzoqqa tushgan va ov sohibi: "Shuni boqing, jo'ra. O'zi urg'ochi bo'lsayam mening xo'rozim bilan urishgani keldi. Bir balosi bor", deb Mansurga bergan, o'sha makiyon — ana uyda qolgan jinqarchaning o'zi, aytilganiday, balo chiqdi: o'taketgan hushyor, qo'rqmas, sayroqi, ovoziyam xiyla yo'g'on...

Yiroq bir manzilga yo'l olgan qalandarday bemalol qor kechib Bo'rijarga enayotgan Mansur tuman ichida tuyqus odamlarga duch kelganday bo'ldi: shundoq qarshisida — yerdan o'sib chiqqandek qabariq qoya ostida tumanni qalinlatib tutun o'rlar, tutun ostida ivirsib nimadir qilayotgan uch kimsa bor edi.

Yigit beixtiyor tayog'ini mahkam qisib, bir on to'xtadi-yu, ko'zi ravshan tortdimi — ularni tanidi: cho'kkalab olib, ho'l bodomcha shoxlari tagiga puflayotgan sarg'ish, uzun soqolli qa-

riya — pochtaning qorovuli, yulg'un butog'iga et o'tkazayotgan, uzun burni qip-qizil, boshyalang kishi — musiqa o'qituvchisi, qo'llarini tizzasiga tiraganicha u yon-bu yonga chayqalib, tutunga chap berayotgan yosh yigit — texnikum direktorining muovini.

Mansur ularni tanigach, vujudini tarang tutib kelayotgan asablari bo'shashib ketdi.

— E, assalomu alaykum, birodarlar! — deb baqirdi.

Uchchovlon ham unga ko'z otishdi-yu, chol o'tni puflashda davom etdi. Direktor o'rinbosari ko'zini mushtumida uqalab orqaga surildi. Burni qizil muallim:

— Keling, boy ota, — dedi.

— E, mayishat katta-ku!

— Ha, ozodlik gashtini suryapmiz, — yana pinak buzmay dedi muallim.

Bu gap Mansurga nash'a qilib, qix-qixlab kuldi. Va borib, ular bilan alohida-alohida ko'risha boshladi. Muallim unga tirsagini ushlatib:

— Anavi toshlardan birini dumalatib keling, boy ota, — dedi. — Quruq keldingizmi? Kechagi savillardan qolmadimi?.. Bor, sizda bor. Yashashni siz bilar ekansiz, Mansurboy.

Mansur kulib, qor bosgan toshlardan birini qo'zg'atarkan:

— He, turmaga dushmaningiz ham tushmasin, — dedi. — Bu yopishib qolgan-ku...

Shu payt etakdan — tuman ichidan miltiq tovushi keldi. Ro'-molchasi bilan ko'zlarini artayotgan direktor o'rinbosari:

— Bekor qilyapti-da, birovga tegishi mumkin, — dedi xolisona, mag'rur bir tarzda.

— Go'rniyam otolmaydi shu milisa, — deb to'ng'illadi muallim. — Butilkani urolmagan-u... Qo'ying, bittasiga o'qi tegsin. To'g'rimi, boy ota? Sal oshirib gapirsangiz, qamataman, yo'qotaman deb karillaydi.

— He, yaxshi niyat qilaylik-e, — deya, dumalatib kelgani xarsangga o'tirdi Mansur. — Ha, omin... Alloh akbar! — Keyin kuldi. — Shoto'ra aka, nimaga bizni munday "boy"ga chiqarib qo'ydingiz? To'rt-beshta tirraqi sovliq bilan boy bo'lar ekanmi kishi?

— Albatta, — deb javob berdi Shoto'ra muallim. — Nimagaki, masalan, bizda to'rtta tovuq ham yo'q... Holbuki, qush go'shti parhez taom hisoblanadi. Organizmning ana shunga bo'lgan talabini qondirish uchun, mana, ota-bobomiz qilmagan ishni qilib o'tiribmiz.

— Ilgari ovga hech chiqmagansizmi?

— Hech qachon!... He, ukam, senikiga o'xshagan shallaqi kakligim bo'lsaki, butalarning ostiga qo'yib, babaqlarni zamanit qilib, so'yib-so'yib olsam...

— He, menam yilda chiqsam, bir-ikki marta chiqaman.

— Biz yarim martayam chiqmagan edik... Mana, ozodlikdan bahramand bo'lib, a, to'rvasoqol? — deya qorovulga nuqib so'zladi. — Sen nima deding, kurra? — Texnikum boshlig'i muoviniga ham achitib dedi. — Xullas, uchta oshna bir bo'ldi, og'zi-burni kir bo'ldi, deganlariday, bitta kul kabob qilaylik deb chiqdik-da.

Direktor o'rinbosari g'ijinib:

— Odamni kamsitmay gapiring, aka, — dedi. So'ng Mansurga murojaat qildi: — Ha, ziyofatingiz yaxshi o'tipti, Mansur aka. Biz chaqirilmagan bo'lsak ham, xursand bo'ldik. Mana bu boboy tongdan beri sizni alqagani-alqagan.

— Ho', ko'p savobga qoldingiz, inim, — dedi qorovul ko'rsatkich va boshmaldog'ida burnini siqib tashlagach. — Otangiz hayot bo'lganda bo'yi bir qarich o'sardi.

— O'ling siz, — deb kuldi musiqa o'qituvchisi. — Yaqin-yaqingacha piyonistalik qilib, kechalari vino sotardi. Endi machitga qatnaydigan bo'ldi bu kishi. Qarang, tekin tamoq yoqar ekan. Xo'rozday qip-qizil.

— He, uyingiz bug'doyga to'lsin, — deb iljaydi qariya. — Mansurjon, bular meni ajuv qiladi-da, kechirasiz. Men ham indamayman, mayli, kulsin... Rostini aytsam, shular kuladimi, chehrasi ochiladimi, deb ergashib chiqdim...

— Sizning tushunmasligingiz — tabiiy, — dedi direktor muovini. — Siz kechagi odamsiz... Lekin namozingizni bemalol o'qiydigan bo'ldingiz, machitlar ochilib. Shoto'ra akam aytganlariday,

saxiy biznesmenlar ham qarashyapti. Buning ustiga, hey boboy, ko'rnamaklik qilmang.

— Ha, endi, pensiyamiz...

— Sizning pensiyangiz bizning maoshimizdan katta, — dedi Shoto'ra kaklikning oyog'i-to'shi sanchilgan yulg'un butog'ini cho'g'ga qo'yib.

— Unday demang-e, og'ajon.

Shu payt olislardan eshitilib turgan shovqin-u baqiriq-chaqiriqlar daf'atan yaqinlashib kela boshladi-yu churillagan va shuvillagan tovush — kakliklar ovozi va qanotlarining sasi tuman ichidan o'q kabi chiqib, naq bulardan pastroqdagi qor kurtugiga uchta kaklik boshi bilan sanchilib qo'ndi. Tepalaridan o'tgan sham-oldanoq o'rinlaridan tura ketgan piyoda ovchilar turfa xil yovvoyi chinqiriqlar ila kakliklarga otilishdi.

Shoto'ra birining dumidan ushlagan chog' — qush bir necha patini qoldirib, o'zini orqaga — qabariq xarsangga urdi. Qorovul bobo burila solib, qorda yotgan kaltagini oldi-yu qushga sermadi. Kaklik tipirchilab, qoyaning orqasiga o'tdi. Chol uning izidan halpillab yugurdi. Bu vaqtda kakliklardan birini tutgan direktor o'rinbosari "voh-voh", dedi-yu hovuchini ochvordimi — jonivor uchib ketdi. Muovin so'kinib, qorni changitib kavlayotgan muallimning yoniga cho'k tushdi-da, uyam qor ichiga qo'llarini suqib-paypaslab jila boshladi.

Aft-basharasi tegirmondan chiqqandek bo'lib qolgan Shoberdi muallim:

— Oldinga o'ting! Oldini to'sing! — deya boshi bilan kurtikka sho'ng'idi-yu u yoqdan bir nima yiltillaganday "part" etgan tovush eshitildi. Va shunga barobar vahima ichra qanot qoqqan kaklikning qorasigina ko'rinib g'oyib bo'ldi, ya'ni, etakdagi tumanga yutilib ketdi.

Shoto'ra tiz cho'kkanicha qo'llarini fotihaga ochganday turib qoldi. Apil-tapil o'rnidan turgan direktor o'rinbosari birdan depsinib:

— Ketdi-i, — dedi.

Shunda botiq qoya ortidan kelgan bo'g'iq tovush musiqa muallimini ham o'rnidan turg'izdi.

— Kaltak! Kaltakni olinglar! Bu sizlarga tovuqmi... Sizlarga o'tdi!

Bu ikkisiga ham nafaqat jon, balki aql ham kirgan kabi har qaysi hali o'tirgan joylarida yotgan tayoqlarini olib, qoldan oshib tushgan kaklikka tashlanishdi.

Kaklik u yoqqa qochadi-bu yoqqa qochadi qanotini sudrab, uning ustiga sermalgan va otilgan kaltaklar esa qorga sanchiladi, nariga uchib ketadi.

Nihoyat, uchovlonning qurshoviga tushgan kaklik o'z o'rnida gir-gir aylana boshladi-yu, endi ovchilar kaltaklarigayam qaramay, o'zlarini tappa-tappa tashlay berishdi qushning ustiga. Jonivor shunda ham jon holatda qutulib-qutulib qolar ekan, qoya biqinidan hansirab chiqqan qariya ustalik qildi: choponining barlarini ochib, uni yopib tushdi. He, jonli jonzot! Kaklik uning butlari orasidan o'rmalab chiqdi. Ana shunda direktor o'rinbosari kaltaklardan birini olib jahl bilan urgandi, qushning bo'yni sinib yotib qoldi.

Musiqa muallimi bo'lsa qushni shartta ko'tarib oldi-da, boshini burab tortdi — bosh uzilmadi. Keyin birdan tishi bilan kekirdagini uzdi va, nihoyat, kallasini ajratib otib yubordi. Cho'ltoq bo'yindan qon oqar, ammo hamon joni bor ekan, oyog'i tipirchilar, sog' qanoti qorniga urilardi.

— Uf, — dedi Shoto'ra qon va pat yopishgan lablarini kafti bilan artib. — Charchatdi-e.

— Tezroq terisini shilish kerak, menga bering, — dedi qariya. — Ichidagi qoniyam oqsin, yo'g'asam uyushib qoladi. Mana, yelkasigayam bir-ikki urgan edim.

U turgan yerida cho'nqayib, boshmaldog'ining qiyshiq tirnoqlari bilan qushning ketini ikki yonga yirtdi-da, qolgan barmoqlarini terining ostiga yubordi. Keyin bir tortgandi, qushning qip-qizil eti-jasadi chiqdi. Terisini bo'yindan chiqarib uzib tashladi va qanotlarini yelka-yelkasidan, oyoqlarini tizzadan qirs-qirs sindirib hamda burab-uzib tashlagach, o'sha boshmaldog'ida qornini yordi — ichak-chavoqni ham olib tashlagandan keyin mushtdek qizil go'shtni qor bilan ishqab yuva boshladi.

4

— He, yirtqich ekansizlar-e, — dedi Mansur bu manzarani karaxt holda kuzatib turarkan, yoqasini ushlab. — Qoyil bo'ldim sizlarga.

Direktor muovini unga qiya qarab:

— Biz har holda odam o'ldirmadik-ku? — dedi. — Yirtqich deysiz... — So'ng o'z joyiga o'tirib, kabobni ag'darib qo'ydi. — O'ylab gapirish kerak.

— Ho'v, menga qara, jiblajibon! — Mansur esini yig'ib olib, unga tikildi. — Sen hali o'ylab gapiradigan bo'ldingmi? He, izzat qilsa, o'zingdan ketasan-a?

Direktor o'rinbosari hayrat bilan qoshlarini kerib, anavilarga qarab oldi.

— Shoto'ra aka, nimalar deyapti bu odam? Hey, — sekin o'rnidan qo'zg'aldi. — Kim-kimni izzat qilib turibdi shu tobda? Biz siznimi, siz biznimi? — Keyin ko'zlari yiltirab kulimsiradi. — Siz axir odam o'ldirgan turemshik-ku? Xo'p, aka, besh-to'rtta mol qilibsiz, ba'zilarni aytib, is chiqaribsiz. Nima bo'pti?.. Bu bilan siz o'zgarib qolganingiz yo'q.

Mansur boshini egib turdi-turdi-da, birdan intilib, uning iyagi ustiga chunon urdiki, muovin baayni sakrab tushib, qoyaga suyanib qoldi.

Mansur yana olg'a bosgandi, Shoto'ra uni quchib ushladi.

— Ho'v, ho'v, esingni yig', uka... Mast-past emasmisan? Yo'q, og'zingdan hidi kelmayapti.

Mansur endi Shoto'raga tikilib qoldi-da, basharasiga tuflab yubordi.

Shoto'ra birdan tislanib ketib, qo'llarini osiltirgancha tek qoldi. So'ng chuqur ho'rsindi-da:

— Ha, rahmat, uka, — dedi. Keyin bir changal qor olib, yuzini ishqay boshladi.

Bir necha marta qon tupurgan direktor muovini:

— Ketamiz, boboy, — dedi. — Yig'ishtiring bularni...

Mansur chayqalib ketdi, ya'ni, uni yana urish, to'g'rirog'i, dabdala qilishdan, o'zini tiyib qoldi-da, xirillab:

— Hey, munday tur, — dedi. — Shoto'ra aka, siz ham keling. Bir minut o'tiring... Ho'v, boboy, siz ham cho'king. Taysallamang. Soqolingizni ushlamang. Shu soqoldan echkidayam bor. O'tiringlar deyapman. Bir minut gapimga quloq solmasanglar, aka, unda nima demang, deyveringlar meni... Xo'pmi? — U bir on o'ylanib, hali beixtiyor tashlavorgan zarang tayog'ini qo'liga oldi.— Qani, marhamat qilinglar!

Direktor o'rinbosari Shoto'ra muallimga zimdan tikilib turardi. Shoto'ra:

— Mayli, — dedi. — Chol, o'tiring. Kabobni joyiga qo'ying... Kurra, sen ham o'tir.

Har kim o'z joyiga o'tirdi. Mansur ham toshga cho'kdi-da, boshini egib qoldi: u nima deyishni bilmas, ammo gaplari ko'p, juda ko'p ekanini bilar, buning ustiga, xo'rligi kelar va endi yig'lamoqdan o'zini zo'rg'a tutib turardi.

— Ha, uka, boshla, — dedi musiqa muallimi.

— Hozir, — dedi Mansur.

Chol tomoq qirdi va kabobni kaftida yelpigan bo'ldi-da, haligi kaklikning etini salmoqlab:

— Semizgina ekan, — dedi. — Men bari ozib-to'zib qolgan deb o'ylagan edim. — So'ng dam unga, dam bunga qaradi. Hech kimdan sado chiqmagach, davom etdi: — Tog'da don qolmagan-da, boriyam qor ostida... Lekin bu semiz bo'lgani uchun ancha harakat qildi. Kuchi bor ekan-da, bachchag'ar.

— Aljimang! — dedi direktor muovini cholga va yonidan bir dona sigaret chiqarib, chalada tutatdi. — Eshitamiz, Mansur aka... Lekin esdan chiqarmang: bu mushtumzo'rligingiz, haqoratlaringiz bejiz ketmaydi.

Mansur endi cho'g'ni changallab unga otadigandek panjalarini yoyib, qo'rga qo'lini yubordi-yu tortdi. "Og'ir bo'l, foydasi yo'q", dedi ichida, ammo barmoqlari titrab, til kalimaga kelmaganda uning ishini qilib o'rgangan qo'li, o, o'ziga erk tilardi: zotan, qalbi bilan sezardiki, bunga haqqi bor: axir, u yana tahqirlandi, kamsitildi, yo'q aybi — tuhmat yana bo'yniga tushdi...

Ha, bular — odamlar, ayniqsa, mana bu "jiblajibon" — quruqvoylar unutishmas ekan.

Tag'in uning qo'rqitishini ko'ring... Ha-ha, shundan boshqa quroli yo'q.

Ajabo, shu gaplarning g'irt bema'nilik ekanini, anchayin qo'rqoqlikni takabburlik bilan yashirish va shu tariqa o'zini oppoq qilib olish ekanini tushunar-a?

Tushunadi-biladi. Ammo boshqacha yo'l tuta olmaydi: axir, mushtga musht bilan javob berish — buning aqliga sig'masa kerak. Buning uchun kishi erkak bo'lishi lozim: bu esa oddiy bir so'tak, quruqvoy.

Mana bu musiqa muallimi esa — makkor. Va buyam o'lgudek qo'rqoq.

Tavba, yuziga tupursang-u, "rahmat" desa... Bu bilan o'zini madaniyatli, vazmin, odobli kishi qilib ko'rsatadi-da? Bo'lmagan gap: buyam o'zining nochorligini shu yo'l bilan xaspo'shladi va, aftidan, oxirigacha o'zini shu tariqa tutmoqchi...

Bu chol — galvars, ammo tulkilik ham qo'lidan keladi. Bunda imon-e'tiqod degan narsalarning urug'i ham yo'q. Biroq o'rgangan besh-o'n kalimasi borki, ularni ham tirikchilik jo'nida ishlatadi va lozim paytda o'ziga qalqon qiladi...

Mansur erinib tutayotgan chalalarga jilmayib tikilgancha shu o'ylarni dilidan o'tkazarkan, direktor muovini endi ancha g'olibona ovozda:

— Eshitamiz, aka, — dedi va kichkina cho'pni barmoqlari uchida ushlab, qo'rni kavlagan bo'ldi-yu, Shoto'raga ham ish topilgandek, birdan chalalarni barmoqlari bilan bemalol turtib-turtib, bir-biriga qaladi va:

— Qani, oqsoqol, bir dam bering, — dedi.

Qorovul chol shuni kutib turgandek shart engashib puflamoqchi bo'lgandi, muovin:

— Hay-hay, — dedi. — Changib ketadi-ku? He-e, tegmang, shunisi yaxshi. Kabob singib pishadi... Xo'sh, Mansur aka, gapingiz bo'lmasa, kechirasiz, bizni xoli qoldirishingiz ham mumkin. Rost aytyapman: biz sizni taklif etmaganmiz. O'z oyog'ingiz bilan keldingiz. Biz sizni qabul qildik.

— Bo'ldi. Bo'ldi qil, — dedi Mansur. — Bo'lmasa, gap munday... Sizlar, seni rahbarligingda men haqimda nimani yozsang,

yozinglar. Urdi deysizlarmi, surdi deysizlarmi — bemalol. Hatto kaltak bilan soldi desang ham, men bo'ynimga olaman. Nimagaki, hali shunday niyatim ham yo'q emas edi.

— Xudo-ya, tavba, — deb to'nining yoqasini tutamlab ushladi qorovul.

— Shunday... Sizni serkaga o'xshatganimniyam bo'ynimga olaman. Hoy, muallim, basharangizga tupurganim ham bo'ynimda. He, sizlar...

— Rahmat. Bu — mardlikdan nishona, — deb qo'ydi direktor o'rinbosari.

— Lekin sizlar g'irt nomardning ishini qilganlaringniyam yozasizlar.

— Nima-nima?

— Sen nomardsan, — ta'kidladi Mansur. — Iljayma... Og'zingni yana qonga to'ldiraman. Ana shunday... Quloq sol, so'tak. Quloq beringlar! — Mansur barmog'i uchida qorda yotgan go'shtni ko'rsatdi. — Shu, shu jonivor och qolib, majbur bo'lganidan kelgan edi. To'g'rimi? To'g'ri...

— Mansurjon, kechirasiz-u, aytib qo'yishim kerak, — deb gap qildi chol. — Olamda neki bor, barchasi inson uchun yaratilgan. Hadisi sharifda ham shunday deyilgan.

— O'ldir, yut, kaltakla... Rahm-shafqat senga yot. Seni yirtqich hayvondan farqing yo'q, deyilmaganmi, otaxon? He, soqolingiz to'kilsin! Siz Xudogayam chap berasiz.

— Voy-voy, eshityapsizlarmi?

— Eshityapti... Bular ham siz aytgan Xudoning bir bandalari. Alhamdulillo, men ham musulmonman... — Mansur muovinning piq etib kulganini sezdi. Va birdan ikkala qo'lini ham teppasiga ko'tardi. — Xato qildim. Bu yerda bittamiz ham komil musulmon emasmiz.

— "Miz" deb gapirmasang ham bo'laveradi, — deb qo'ydi musiqa muallimi. — Ha-ha, ukaboy, nimagaki, odam o'ldirish bilan, xo'sh, Ollo taolo bandalarimning rizqi deb yaratgan bir parrandani halol qilishning farqi bor.

— Vo', siz ham juda-a usta bo'p ketibsiz-ku, og'a? — deb iljaydi Mansur. — Ha, endi, ustozingiz shu qariya bo'lganidan keyin...

— Bas-e! — deb yubordi shunda Shoto'ra. — Bo'larini ayt. Muddaoing nima?

— Ha, biz kutyapmiz, — deb uni ma'qulladi direktor o'rinbosari.

Mansur yana ichida ezilib ketdi: ha, sal maydalashdi. Bular esa sezgir. Mansur qo'llarini tizzasiga tirab gapirmoqqa shaylandi-yu, tag'in tek qoldi: asosiy gapni aytdi, shekilli... Ha, bular, mana bu "kurra"yam savoliga javob bermadi-ku? Yo'q-yo'q: talabini inobatga olmadi.

— Xo'sh, nimaga hayron qolding, bu yovuzlikni ham qo'shib yoz, deganimga-da? — Mansur fikri ravshan tortib va tazyiqli jilmayib, unga tikildi.

— Yovuzlik? — Muovin sheriklariga yalt-yalt etib qarab oldi. — Qanaqa yovuzlik?.. E-ha, mana, boboy ham aytdi-ku hadisni... Qolaversa, nima qipti ovga chiqqan bo'lsak? Ana, tumanda ko'rinmayapti, hokimning yordamchisi ham bor!

— Yo'g'-e? — Mansur chindan ham hayratlanib-ajablanib so'radi. Va chimirilib, devordek oqlikka tikilib qoldi. — Tavba, — dedi keyin.

— Shunaqa, ukaboy, — sherigining so'zini o'zicha davom ettirdi musiqa muallimi. — Buning hayron qoladigan joyi yo'q. — U hatto yelkasini qisib qo'ydi.— Nima bo'pti? Qor qalin tushipti. Bunday qish bo'lmagan sira. Bo'lgan-u, o'tmishda... Xullas, piyoda ov sezoni kepti...

— Yo'q, endi, bu gapingiz to'g'ri, — dedi Mansur qiynalib va so'zlamoqqa so'z qidirib. — Lekin, lekin... kakliklar kamayib qolgan-ku? — Ularni birdan chuv tushirgandek tabassum qildi. — Juda sanoqli qolgan, birodarlar... — So'ng chiranib tushuntira ketdi: — Men ko'p yuraman. Bilasizlar. To'qson kilometr— u yoq, to'qson kilometr — bu yoq. Orada jar ham bor. Tog' ham, archazor ham, tekislik ham...

— Qishloqlar ham.

— Balli! — davom etdi Mansur: — Ko'rib yuribmanki, kaklik ozayib qolgan. Oldinlari kiyiklar...

— Bilamiz, bilamiz, — dedi muallim hozirjavoblik bilan. — Qoplonlar, ayiqlar ham bor edi!

— Yashang.

— Xo'sh, kaklik ozayipti, deb tanchaga kirib o'tiraylikmi shunday kundayam? — U dumaloq ko'zlarini lo'q qilib Mansurga qadaldi. — O'zing ayt. Insof bilan... Bu yoqda odamlar ovlasin. Xo'p de. Hammasi shu atrofda! Bir haftadan beri kaklik qirg'ini ketyapti... Bunday ov o'n yilda bir bo'ladi.

— Shoshmang-shoshmang. Meni chalg'itib tashlamang, aka... Men... Shuncha odam... rayonning egalari, yana, mana bunday mo'ysafidlar ham ovga chiqqan bo'lsa, kaltak ko'tarib... To'g'rimi gapim? Rahmat. Bu axir qirg'in keltirish-ku? Yo'q, siz meni tushuning, aka!.. — Keyin xo'rsinib yubordi. — Hammang tushunib turibsan. Talmovsirashning nima keragi bor.

— Nima, ovlamaslik kerak, deysanmi? — Muallim yana ko'zlarini qadab so'radi.

— Ha. Yo'q... Ovlash kerag-u, lekin bunday... Voy, kakliklar ertan-mertan yo'q bo'ladi-ku? Qirilib bitsa! To'g'rimi gapim? Shuni o'ylash mumkinmi-yo'qmi?

Direktor o'rinbosari tag'in qoshlarini kerib:

— Umuman, bu gapingizda jon bor, — dedi. — Kaklik zoti qirilib ketsa, o'zimizga yomon: tabiatimiz kambag'allashib qoladi. Bu yaxshi emas.

— Yomon! Bu — fojia! — dedi Mansur. — Ey, Xudoyim-e, bularning hammasi esli-hushli odamlar. Baloga aqli yetadi... Lekin bilib turib, shuning aksini qilishadi.

— Nima, bizning birovlardan ortiq joyimiz bormi? — Qabariq qoyaga qarab so'zladi Shoto'ra muallim. — Yo'q, el nima bo'lsa, biz ham o'shamiz.

— Voy, elni qo'ying! — chiyillamoqdan beri bo'lib dedi Mansur. — Avom xalq endi... Lekin sizlar — o'qigan, muallim, rahbar kishisizlar-ku, a? Mana bu qariya bo'lsa, hozir ham kalimasini o'girib o'tiripti.

— Kechirasiz, Mansur aka, bizni dapros qilyapsiz shekilli? — dedi direktor o'rinbosari. — Yo'q, bunaqa huquqni sizga hech kim bergani yo'q, menimcha.

— E, "menimcha"ngni... Shuning uchun ham huquqli bo'lish kerakmi?

— Shak-shubhasiz, — dedi musiqa muallimi pinak buzmay. — Ha-ha, ukajon, xo'p de... Ko'rib turibsan, eshityapsan, aytyapmiz hamki, tuman kattalari ham atrofimizda yurishipti. Ovlashib. Chopqillashib! Otishib... Shunaqa! Tavba deging keladi! Anavilar so'roq qilsayam bir navi edi.

— Ha, o'g'lim, — deya salmoq bilan bosh irg'adi chol.

— "O'g'lim" demang meni. Hammalaring buzilgan odamsizlar, — deya o'rnidan turdi Mansur va yana asta-horg'in o'tirdi. — E, Xudoyim. Kabob kuyayapti... — Keyin qorga yopishib yotgan go'shtni olib, u yoq-bu yog'iga boqdi. Ko'ngli buzilib: — Haligina jon holatda tipirchilab qochayotgan edi, — dedi.

— Ha, — tomog'ini qirib, kulmasdan dedi muallim. — Qani, echkisoqol, bir tilovat qilib yuborasizmi?

Mansur gangib unga boqdi, so'ng miyig'ida tirjaya boshlagan cholga boqdi. Keyin muovinga — u nimadandir jirkangan kabi ortga tortilib turardi.

— Meni mazax qilyapsiz, a, Shoto'ra aka? — so'radi Mansur ovozi titrab.

— Seni? Nima uchun?

— Bilmasam.

— Bilmaysan, — deb ta'kidladi Shoto'ra va gangib tepadagi oqlikka boqdi. — To'g'risini aytsam, men ham bilmayman... Bilmaysizlar sizlar ham! — deya birdan hamrohlariga bir-bir ko'z tikdi. — Kurra, yo senda bir mantiqli gap bormi? Yo'q bo'lsa kerak... Boboyda hech qachon bo'lmagan.

Mansurning ko'zlari sezilarli quvonch-la yiltirab, muallim qaragan kishiga qarar ekan, nihoyat:

— Qiziq, — dedi.

— Hech ham qizig'i yo'q, — ta'kidladi muallim.— Seniyam qo'lingdan kelsa, qirar eding.. Yo'q dema, uka. He, qirgansan sen ham! Jela bilan ovlab, a? Qorning to'ygan. Hafsalang pir bo'lgan... Xo'p deyver.

— Yo'q, aka, — dedi Mansur va o'ylanib qoldi. — Ha, umuman, meniyam ko'nglim tusadi-yu, o'yladim-da... Ana, gap qayerda! Biz, bizlar buni himoya qilmasak, saqlab qolmasak, u tamom bo'ladi... Hamma narsa o'zimizga bog'liq.

— To‘g‘ri aytasan, o‘zimizga bog‘liq.

— Axir shunday bo‘lsa ham, sizlar...

— ...O‘ylaymiz, xo‘p deyver. Bitta menda kalla bor, deb o‘ylama. Bizdayam bor...

Direktor o‘rinbosari birdan xo‘rsinib yubordi.

— Ovniyam tatitmadinglar... padariga la’nat! Ba’zan nima ish qilayotganingni bilmay qolasan... Keyin mana bunday akalardan musht yeyishing ham mumkin ekan.. Lekin, Mansur aka, men sizning samimiyligingizga ishonmayman.

— Nima? Qanaqa samimiy... O‘lay agar, men borini, ko‘nglimdagini aytayotibman.

— Rahmat, — dedi musiqa o‘qituvchisi. — Qani, qariya, savilni oling... Kabob pishibtimi o‘zi? Bo‘ladi. Bu — parhez go‘sht. — So‘ng kulib qo‘ydi. — Buni qanday ovlaganimizni ko‘rganingda, a, tayoqlab o‘ldirarkansan-da?

— Menga aytayapsizmi? — dedi Mansur va o‘ziyam iljaydi. — Qo‘pollik qilgan bo‘lsam, kechirim so‘rayman... Xudo haqqi. Boboy, ko‘ngilga olmang... E, olsangiz ham o‘zingiz bilasiz. Ko‘p qilsangiz, bir qarg‘aysizda.

— Endi bas. Munozara-gap tamom, — dedi muallim. — Navbat undan ham muhimroq narsaga keldi...

— Mayli, men ham ichaman, — deb yubordi direktor o‘rinbosari. — Aytmoqchi, Mansur aka, siz ichmas emishsiz, a?

— He, bir paytlar... — So‘ng sakrab turdi. Mansur. — Opkelaymi? Uyda qolgani bo‘lsa kerak.

— O, duo qilamiz-ku! — dedi muallim. — Choping, ukajon. Bo‘lsa, bir kosa qatiqmi, chakkimi — teshib chiqmas edi. Choping, he, bo‘yidan!

5

Mansur qaytib kelganida, ularning ko‘zlari mastona yiltillar, ichdan bir begona nur urib chiqqandek edi. Harakatlariyam tez. Mansurga ilkis burilib qarab va me’yoridan ortiq iljayish bilan kutib oldilar.

— Bo‘yi pastidan qolgan ekan! — deya Mansur kamariga ichidan qistirib kelgani bir juft “Russkaya vodka”ni chiqarib, cholning

oldiga qo'ydi. — Qurut bor ekan... Sigir sutdan qolgan-da. Hademay bir-ikkita sovlig'im qo'zilaydi. Unda og'iz ichgali bemalol tashrif buyurishlaring mumkin.

— He, tilingdan o'rgilay! O'tir, boyvachcha ukam, — deb kursitoshni ko'rsatdi muallim. — Saxiysan... Kecha bizni uyingga aytmaganinggayam xafa bo'lmaymiz. Hovliqibgina qolib eding... Qani, starik, buyoqning nasibasini uzating.

— O, yo'q. Men ichmayman, boshim og'riydi, — dedi Mansur. — O'zlariga osh bo'lsin.

— Ichmayman emish. Ichmaydigan odamning aroq opkelishini ko'rdinglar-ku? Ashaddiy alkashlar mana shu yeriga tiqib yuradi butilkani.

— He, bir zamonlar ichganmiz, aka.

— Ha, sen ko'p ish qilgansan... — Muallim aroqqa yarimlatgan piyolani uzatdi. — Muni otgin-da, xo'sh, qanday qilib, masalan, odam o'ldirganingni aytib ber-chi.

— Obbo, — dedi Mansur chindan-da g'ashlanib. — Yana o'sha gap! Odam o'ldirgan bo'lsam, shu yerda o'tirarmidim, o'rtoq pedagog? Tushunasiz-ku o'zingiz.

— Tushunmayman. Men g'alcha bo'p qolganman... Ol endi-e! — deb baqirib yubordi u. — Senga zahar beryaptimi? Obi jamshid-ku bu? O'zingni eski ulfating... Ol! Tarang qilma... Vaabshe-ku, sen bilan gaplashmaslik kerak edi. Tupurding, urding, so'kding...Bitta kishi endi...

— Yo'q, — dedi shunda direktor o'rinbosari. — Biz... Insonni kechirish yaxshi. O'tiring, aka. Ammo kishi o'z qadrini, ya'ni o'z o'rnini bilishi kerak.

Mansur o'tirarkan:

— Men bilaman, — dedi.

— Yo'q, sizda atklaneniya bor, — deb uqtirdi o'rinbosar. — Sizga muhit... qamoqdagi muhit ta'sir qilgan. Bo'yningizga oling. Bu — fakt.

— Xo'p, ta'sir qilgan bo'lsa, qilgandir, — rozi bo'ldi Mansur. — Lekin men u yerda juda ko'p mard yigitlarni ko'rdim... — Boshini egib qoldi-da, nihoyat, siniqib ularga boqdi. — Mana, meni odamxo'r dedinglar. Yo'-o'q, og'alar, men o'shanda hatto

chertmagan edim. Axir, Xudo bo'lsa, shu gapimniyam eshitib turipti-ku! Yolg'on gap — gunoh... Xullas, "gruppavoy"ga qo'shilib qoldim. Ke-yeyin eshitdim — jilmaydi u, — oramizdagi eng qo'rqoq, ojiz bola pichoq tiqib yuborgan ekan bitta oliftaga...

— Kim edi u — o'lgan?

— Bilmayman... Restoranda o'tirib edik, yelkamizga qoqib o'taverdi-da o'ziyam. Kamsityapti. Bilyapmiz. Keyin, bir forishlik jo'ramiz bor edi, shu bir alkashni chaqirdi. Hey burchakda uyqusirab o'tirgan ekan. "Budish pit?" dedi. "Budu!" dedi. "Na" deb shishani uzatdi-da shart quydi: "Naley i padnimi tost. I skaji: "Dazdrastvuyet uzbekskiy narod!" — Tinglovchilar angrayib turisharkan, Mansur piq etib kulgach, qariya ishshaydi, muallim boshini qiyshaytirib, "Bor ekan-ku shunday yigitlar!" deganday bo'ldi, direktor o'rinbosari chimirilgancha qolaverdi. — Xullas, alkash o'sha gapni aytdi. O'rnidan turib, baqirib aytdi. Keyin tashqariga chiqqanda urush bo'p qoldi. Yelkamizni silab o'tirganning sheriklari qasdlashgan ekan, ori kelib... Savolingizga javob shu... Lekin men bu narsani aytmoqchi emas edim.

— Xo'sh-xo'sh?

— Aka, mard odam mard bo'lib qolar ekan-da... Qamoqda bir chol bor edi. Mana bu kishidan qariroq, he, soqoli oqarib qolgan. Nimaga tushganini aytmas edi. Bir kuni haligi — mard jo'raboshimiz bilipti. Soqoling to'kulgur o'zining nevarasini buzib qo'ygan ekan. To'qqiz yashar nevarasini...

— Voh! — deb yubordi Shoto'ra muallim.

— Xudo-yo, tavba qildim, — deb yana yoqasini tutamlab ushladi qorovul chol.

— Xo'sh, keyin... nima bo'ldi? Nima qildinglar? — deb so'radi direktor muovini.

— Nima qilardik, jo'raboshimiz urib o'ldirib, tualetga tashlab yubordi, — xotirjamgina dedi Mansur. — Ana shu... — Boshini ozod ko'tardi. — Shu ishni — odam o'ldirish deysizlarmi, qotillik deysizlarmi, menga baribir, lekin hukmni ma'qullaganman. Aybim shu..

— Tushunarli, — dedi muovin. — Umuman, him, to'g'ri ish qilibsizlar.

— Ana shuning uchun ichaylik! — tagida ozgina aroq qolgan shishani ko'tardi muallim. — Ol endi, qotil... Sendan qo'rqqulik! Ho'v, qariya, eshitdingizmi?

— Xudo-ya, tavba qildim. O'zing kechir...

— O'zbek edi, — dedi Mansur va piyolani shart ko'tardi-yu, bir qultum olgach, manglayi tirishib, soqiyga qaytardi. — Bo'ldi. O'tmadi. Rahmat.

— Qurutdan shimi. Hechqisi yo'q. Yo'li ochildi. Bu yog'iga Xudo poshsho.

— Da-a, — dedi o'rinbosar Shoto'ra quyib uzatgan piyolani olib, — Xo'sh, endi ishlar qalay ketyapti, ishlar, Mansur aka? Bu uyingizgayam kabel tortib kelgandirsiz?

Mansur kuldi.

— Yo'q. Telefonni xushlamayman. Kabelning ham hisobi bor... Kechirasizlar, men sizlardan bir narsani so'rasam.

— Bemalol! — Direktor muovini piyolani quritib, chol ta'zim ila tutgan kabobdan bir jaz oldi. — Rahmat, otaxon. Mansur aka, eshitamiz.

— Shu-u... — Mansur o'ylanib so'radi: — Mana, yaqin-yaqingacha, masalan, yoz oylarida ovga chiqqan ovchining miltig'ini olishardi. Chunki, — tabassum ila davom etdi, — yozda jonivorlar tuxum bosgan, tuxumini ochib chiqqan bo'lardi. Makiyonlarning ham bolalari yosh — otish mumkin emas... Xo'sh, men yaxshi bilamanki, bitta ayiq otgan odamga falon ming so'm jarima bor... — dedi Mansur dam unga-dam bunga mo'ltirab. — Axir, bemavrid kaklik otgangayam jarima bor edi-ku? Masalan...

— Maqsad nima, uka?

— Demoqchimanki, mana... ana, milisalar ham, hokimlikdan ham yurishipti...

— Ha-a, tartib-intizom egalarining o'zi qonunni buzyapti, demoqchimisan?

— Shunday deyish ham mumkin, — ma'qulladi Mansur. — Chunki kaklikni otish uchun ham limit bo'lishi kerak. Masalan, beshta-to'rtta otish uchun...

— Marhamat, — muallim ikki barmog'i orasidan uchinchisini chiqardi. — Limit-a... Limit qoldimi! Oblo akbar! — dabdurust-

dan fotiha o'qidi. — Astag'furillo. Kechirasiz, starik. Iching-da o'zingiz ham. Nuqul yeysiz... Uyalmang. Oling. Xudo o'zi kechiradi. Ozodlik zamonidasiz. Mustaqillik! Oling. Imomga aytaman ammo, olmasangiz...

— Xo'p-xo'p, lekin biz...

— Sizning gunohlaringiz shunchalar ko'pki, mana shu tumanday o'rab turadi sizni. Jannatning eshigini ko'rsatmaydi. Agar o'shandayam jindak otib olgan bo'lsangiz, munkar-nakirniyam mana bu mushtumzo'rga o'xshab raz-raz solasiz-da, o'rtasidan o'tib ketasiz. Qarabsizki, to'g'ri do'zaxga tushib, mana bu kaklikday kabob bo'lyapsiz! — Muallim maza qilib kulib yubordi. — Sizni hech kim yemaydi. Chandir bo'p ketgansiz.

Direktor o'rinbosari ham bukillab kuldi-da, keyin jiddiy tortib:

— Shoto'ra aka, bu kishi savol berdilar, — dedi.— Menimcha, seryozni savol.

— O'zbekcha gapir... E, nimaga o'qrayasan? O'zbekiston mustaqil bo'pti. O'zbek tili Davlat tili bo'pti-yu haliyam o'rischa ishlatadi. Ayniqsa, ichiga yuz gramm tushsa...

— Bas qiling! — deb yubordi muovin. — Shu yuz gramm sizning ichingizga tushsa, mana shunday laqillab qolasiz. Gapni gapga qo'shing... Akamiz savol berdilar. Him, bu kishi molning ketidan yurgan bir cho'ponday gap...

— To'g'ri, ba'zi masalalarni tushunishda cho'pondan ham battarman, — dedi Mansur va chiranib portladi:— Bu boshboshdoqlik nega? Hamma tartibni buzsa! Hamma birakoner bo'lsa. Hech kim o'ylamasa tabiatni...

— Juda to'g'ri gaplarni aytyapsiz, — uni rag'batlantirdi o'rinbosar.

— Hatto sizlar ham...

— Bizga tegma. Bizlar — vintiklarmiz, xolos. Vintiklar. Yo xato qildimmi? Yo'q, bizlar kichkina odamlarmiz.

Muovin Mansurga burilib o'tirdi.

— Bu kishi tamom bo'ldi. O'zimiz gaplashamiz, aka... Xo'sh, muddaongiz nimaydi?

Mansur xo'rsindi.

— Men aytib bo'ldim.

— Yo‘q, chalasi bordek.

— Sizlar meni qotil deyapsizlar... Axir, eng katta qotil — sizlar ham-ku? Anavilar ham-ku?

— O‘x, qattiq ketding, uka. — Yo‘talib oldi musiqa o‘qituvchisi. — Yaxshi emas. Bu, bu ko‘pga kelgan to‘y.

— Nima?

— Kemaga tushganning joni bir. Joni birning — noni bir.

— Hammamiz ham bir go‘r demoqchimisiz?

— Albatta. Sen ham shu go‘rlardan biri... O‘zingni oqlama. Harakat qilma, ukajon, foydasi yo‘q... Men hozir seni, sening ashaddiy... tabiatning ashaddiy dushmanlaridan biri ekanligingni isbotlab beraman!

— E, hovliqmang, aka.

— Ey, birodarlar, bu devona nima deyapti o‘zi? — Muallim xarsangda engashib o‘tirib va qo‘llarini sermab-sermab gapira ketdi: — Uyingda kakliging bormi? Bor. Bo‘lgandayam — Xudoning g‘azabi! Voy, unday makiyonni tarix ko‘rmagan. O‘zi “pass!” desa yotadigan xilidan-u, archazorga borsa, babaq kaklikni qochiradi. Ya’ni, sen bilan urishaman deb turadi. Shunday sayraydi — shunday sayraydi, o‘lay agar, yetti chaqirim naridagi murruk jo‘janiyam o‘rnidan qo‘zg‘atadi! Bilmayman, u nar-modami, bir balo... Ana shu bilan,— Shoto‘ra irshayib Mansurni ko‘rsatdi, — ovga chiqadilar akam. Yonlarida jela, kamida o‘ttiz-qirqta tuzog‘i bor... Endi, u yog‘ini tasavvur qilaveringlar. O‘lay agar, shu tog‘ning o‘ndan bir hissa kakligini shu yo‘qotdi desam, lof bo‘lmaydi... — So‘ng qih-qihlab kuldi. — O‘zing ayt, yolg‘on de.

Siniqib-jilmayib turgan Mansur:

— Albatta yolg‘on, — dedi. — Hali aytdim-ku, yilida bir-ikki marta... — So‘ng baqirib berdi: — Eshitingda-e!

— Qulog‘im senda, ukajon.

— O‘lay agar, qilichni qindan chiqarasiz... — U o‘zini bosish uchun jimib, chuqur-chuqur nafas oldi. So‘ng: — Kakligim shunday, — dedi. — Yashirmayman, aytganingizday...

— Rahmat, uka.

— Lekin tog‘dagi kakliklarning mingdan birini ham olganim yo‘q.

— Balki men hisobdan adashgan bo'lishim mumkin. Deylik, milyonta kaklikning yuzdan biri olinsayam...

— Shoto'ra aka! — qichqirib berdi direktor o'rinbosari. — Sal bosib o'tiring, Xudo xayringizni bersin...

— Rost, To'rajon, jindek sabr qiling, — dedi qorovul chol ham.

— E, men ham bir misol aytdim-da! — baqirib yubordi Shoto'rajon. — Bu nuqul bizni ayblaydi. O'zi oppoqmi? Be-e!.. Ana, yalang qirda turadi. Har tong yuzlab kaklik enadi tog'dan. Buning hovlisiga qo'nmaydimi? Qo'-na-di. Chunki kaklik qayerda don bo'lishini biladi. Biladi.

— Shu bugun tongda ikkita kaklik ko'rdim, xolos, — deb bo'yniga oldi Mansur.

— Tegmading-a? "Yashasin ozodlik!" deb qo'yib yubording? Shundaymi? Balki don sochgandirsan oldiga? A?.. Bo-or shunaqa voqealar, bo'lyapti ham. Tog'ga bir to'rva yem opchiqib, biron kamarga sochadi-da, poylab turadi. Jonivor och kakliklar kelib qo'nadi. Chug'ur-chug'ur qilib yeya boshlaganda paq etadi. Qarabsizki, besh-o'ntasi dumalab, tipirchilab yotipti. Bo-or, shunday qilib ovlayotgan iploslar ham bo-or.

Mansur hayrat-la boshini sarak-sarak qildi. Qorovul chol esa dabdurustdan qarg'adi:

— Undaylarga boqqan balo bor.

Mansur endi hayrat va ich-tubida nurli bir sevinch bilan ularga bir-bir qarab chiqdi. Keyin:

— Qiziq, — dedi. — Sizlar, umuman, qiziq odamsizlar... — So'ng o'ylanib, davom etdi: — Men hech qachon bunday gaplarni... Umuman, sizlarni bir qarashda — shafqatsiz deyish mumkin. Keyin, mana bu gaplaringni eshitib...

— Shunaqa, — dedi muallim. — Bizlar hardamxayol bo'p qolganmiz. Hey, qariya, buniyam sixga torting... Pichoq qani? Bo'laklang. Jigidan ajrating. Mana buning tuzi pastroq bo'lgan ekan... Shunaqa, mulla Mansur! Bu yerdagi... bu yerda o'tirganlargina emas, umuman, odamlar haligiday bo'p qolgan.. To'g'rimi? Ko'p qarama menga... Undan ko'ra, xulosangni ayt. Hali boshlab eding-ku bir nimalarni?

— Da, — dedi direktor o'rinbosari. — Mansur aka, davom eting... Buning ustiga, o'zimiz ham qiziqayotibmiz.

— Kaltaroq qil, — dashnom berdi muallim. — Shu Mansur akangniyam yelkasidagi qovoqning oti — kalla, bosh. Baloni tushunadi buyam.

— Siz yana xalaqit bersangiz, — dedi muovin, — men ham o'zimning gapimni tushuntirolmay qolaman... Jim! Otaxon, g'o'ng'illamay ishni qiling. Bo'lmasam, texnikumning qorovulligidan umidni uzavering.

— Voy, men bir narsa dedimmi? Muni maydalayapman, duo o'qidim..

— Ichingizda o'qing... Xo'sh, Mansur aka, mana, siz ham, harqalay, uncha-muncha narsani ko'rgansiz. — So'ngra birdan boshini xam qilib qoldi, ko'zlari sho'x charaqlab, Mansurga termilib qoldi. — Aka, xulosadan oldin... Sizga bir savol bersam.

6

— Marhamat, — dedi Mansur.

— Ayting-chi, qamoqdan chiqqandan keyin, ya'ni, ozod bo'lganingizdan keyin o'zingizni qanday his qilgansiz?

Mansur buning javobi ancha muhim ekanini uqib, illo, musiqa muallimi ham o'ziga diqqat bilan tikilib turganini ko'rib, o'ylanib qoldi.

— Xo'sh, chiqqanimdan keyin... shu, qo'limga picha pul, yo'l xarjini berishdi... Shu, qayerga borishimni bilmay qoldim. Holbuki, men bilar edim: institutga olishmaydi. O'qish tamom bo'lgan. Uchinchi kursdan ketgan edim-da...

Keyin, meni biron ishga olishlariyam mahol buniyam bilar edim. So'ngra, uka, ko'p tanish-bilishlarning mendan yuz o'girganlarigayam ishongan edim.

— Tushunarli.

— Shunday. Nimaga desangiz, qamoqqa qayta tushgan birikkita yigitlarning gaplarini eshitgan edim. E, ular juda xafa edi...

— Ular alamzadalikdan gunoh qilib qayta tushishganmi?

— Sababi ko'p... Ammo ba'zilar borki, qamoqqa o'rganib qolishgan. Menga ishoning, ularni bugun ozod qiling, ertaga albatta qaytib borishadi.

Muovin muallimga ma'noli jilmaydi.

— Sabab?

— Endi, sababi shu-da: qo'li o'rganib qolgan o'g'irlikka.

— Ha-a, siz esa ko'nikib ketdingiz-a ozodlikka?

— E, uka-e! — Mansur mayin-yoqimtoy jilmayib chayqaldi. — Ozodlikka nima yetsin... Uning qadriga, masalan, siz ham yetmaysiz. Siz ham, Shoto'ra aka. Boboy ham... Axir, tabib — tabib emas, boshidan kechirgan tabib, deydilar-ku.

— Bu maqolni biz ham bilamiz, — dedi Shoto'ra.— Lekin he-ech qaytib borging kelmadimi?

— Nimalar deyapsiz!

— Da, sizning yo'rig'ingiz boshqa ekan, — fikrini xulosaladi direktor o'rinbosari. — Siz, demak, aql bilan, tadbirkorlik bilan ish tutgansiz. Qolaversa, turmaga o'rganmagansiz... Kechirasiz, o'n yil yotdingiz. Nahotki, sal bo'lsayam o'rganmadingiz? Kechirasiz, bu sinchkovligim uchun.

— Yo'q, yaxshi savol, — tasdiqladi Mansur. — O'rganib qolganlar, ya'ni, ust-ustiga srok olib qolaveradiganlar ham bor... Lekin men kutar edim. Ayniqsa, keyingi besh-olti oyning o'tishi og'ir bo'ldi. Sal narsada toyib ketish mumkin-da... Uf-f. Him, kutubxonasi bor edi, kitob o'qirdim. Televizor bor. Ish, ish...

— Tushunarli. — Muovin yana bir xulosa yasadi: — Siz, demak, nisbatan yaxshi muhitda bo'lgansiz.

— E, eslamaslik kerak... — So'ng nigohi siniqib jilmaydi. — Kelganimdan keyin, to'rt oydan so'ng bir xat oldim. Tuhmat bilan tushgan domladan.

"Mansurjon, sen ketding, ko'zda yosh qoldi,
Orqangdan otilgan parcha tosh qoldi".

— Yaxshi-ya? — Mansurning ko'zlari g'ilq yoshga to'ldi.— Menga ta'sir qildi. O'zimizdayam shu odat bor-ku, bir kishining uyga kirishini, kelishini istamasangiz, orqasidan tosh otib qolasiz.

— Bor, bor, — deb tasdiqladi qorovul chol. — Oldi-ortingga qora tosh, yag'riningga yalpoq tosh. Bora-bora umbaloq osh... —

Chol hiringlab kuldi. — Yomonga aytiladi... Shu-shu, turmaga qaytib kelma, deganlari-da?

— Durustsiz-ku, — dedi musiqa o'qituvchisi.— Bekorga yashamagan ko'rinasiz.

Chol rag'batdan mamnun bo'lib:

— Afv etasizlar, bizlar omi odam, — dedi. — Lekin ruxsat bersalaring, yana bir gapni aytsam... Hali qamoqqa o'rganganlar haqida gapirganlaringda esimga tushib ketdi... Shu, yoshlikda paxtani omoch qo'shilgan ot bilan kultivatsiya qilar edik-da. U paytlar traktorlar kam...

— Bilamiz.

— Shu ot jonivor o'rganib qolgan ekan. Paykalning boshiga boradi — buriladi. Bu yoqqa kelib, yana buriladi. Shunday qilaverib, juvozning otiga o'xshab qolgan ekan.

— Xo'sh-xo'sh?

— Keyin traktor keldi... Ot to'g'ri yo'lda yurolmay qoldi-da. Sal yuradi-yu, aylanib ketadi. Ba'zida boshqa tomonga ketib qoladi. Boshqa otlarga o'xshab yurolmaydigan bo'p qolgan edi. Shu bilan o'lib ketdi.

Chol aytib bo'lib, eshituvchilarga boqdi. Hammaning boshi egik, qattiq hayajonda ediki, ayniqsa, Mansurning hayajoni shoshqin va hayratli, nazdida, direktor o'rinbosarining-u o'zining-da halidan beri qiziqtirgan savoliga qariyaning jo'ngina misoli eng jo'yali javob bo'lganday edi.

Direktor muovini chuqur xo'rsinib olib:

— Ozodlik haqida o'ylab qoldim, — dedi. — To'g'rimi, Shoto'ra aka?

— Kaneshna, to'g'ri, — dedi Shoto'ra.

Mansur unga yalt etib qaradi.

— Nima-nima?.. Ha-ha, tushundim. — So'ng munglanib qoldi-da, bir muddatdan keyin hamsuhbatlariga yorqin tabassum bilan boqdi. Zo'r ish bo'ldi-ya!

— Ozodlikmi? — gurs etkazib so'radi direktor muovini.

— Shundan... Axir, O'zbekiston mustaqil bo'lishidan oldin Rusiyaning plugida edimi?

— Albatta, — dedi muallim.

— Biz masalaning mohiyatiga yetdik, — tag'in bir xulosa yasadi direktor o'rinbosari. — Otaxon, sizga rahmat. O'rinli misol aytdingiz. Boshqa o'rtoqlar ham, umuman, to'g'ri fikr yuritishyapti... A, Shoto'ra aka?

— O'zlari-chi? — Muallim yangi shishani ocharkan, cholga "yelping" ma'nosida kabobga ishora qildi. — He, kurrasi tushmagur, oliftasan-da, uka... Lekin savollaring jo'yali bo'ldi. Ayrim fikr va mulohazalaring ham ma'noli...

Mansur shoyon mamnun jilmayib bosh irg'adi-yu:

— Qiziq, — dedi. — Juda qiziq... Endi, shuni bilar ekanmiz, he, bilaturib, buning aksini qilamiz-a?

— Balli. "Miz" deb gapirganing uchun endi rahmat aytaman senga.

Direktor muovini allanechuk kerishdi.

— Balki shuni ichmasmiz, — dedi. — Ko'plik qiladi... Mansur akam ichmaydilar... — Shunday deb tuyqus iyagini siypaladi. Va xo'mraydi. — Starik ham tarang qilyaptilar. Texnikumda yordamchi xo'jalik bor. — Mollar morayotgandir...

— Eshityapsizmi, qariya? — so'radi muallim. — Safdan qolaversangiz, qolgan umringizni pochtaning beton zalida o'tkazasiz. U yerda sigir ham yo'q, sut ham...

Mansur tuyqus zerika boshladi. Bular yana ichishga majbur qilishini, "yo'q" desa, balki ichishmasligini taxminladi va: "Qaytamga yaxshi", dedi ichida.

Shunda qayerdadir miltiq otildi, odamlarning shovqini eshitildi.

— Kechirasizlar, men ketsam, — dedi birdan. — Uyda ishlar bor edi. Mol-hol deganday... — Keyin yasama iljaydi. — O'zi, bir haftadan beri uyda bo'lmagan edim.

— Borasiz, — dedi musiqa o'qituvchisi.

— Yo'q, rostini aytyapman.

— Kurra, javob beramizmi? Bu baribir ichida bizni so'kib-so'kib ketadi.

— Axir, ahvolni tushundilar-ku? — dedi muovin jiddiylik bilan.

— Bu yil tog'da kaklik qolmaydi.

— Qolmasa senikini yeymiz, — xotirjamgina dedi muallim. — Nar-moda kakligingni... To'g'rimi? Semiribgina turipti. Ana shu

bilan tog'da qolgan-qutgan kakliklarniyam saqlab qolamiz. Uning avrashidan...

Mansur xayolan uning jag'iga tushirdi: jag'i qiyshayib, og'zi qonga to'ldi.

Keyin xo'rsinib yubordi-da:

— Umuman, men o'sha kaklikni shartta chiqarib, otib tashlashim mumkin, — dedi. — O'lay agar-a... — Ammo ich-ichida bir joyi og'rib ketdi: kaklik hayron qolib o'ladigandek bo'ldi-yu boyagi kaklikning nursiz ko'zlari ko'rindi.

— Otasan. Otishing mumkin. Seni qo'lingdan keladi, — dedi muallim. — Qani, piyolani ol!

— Yo'q.

— O-ol. Kemaga tushganmiz. Jonimiz ham bir, nonimiz ham... Go'rimiz ham. Xo'p de, romantik! Kulma... O'n yil yotib kelganing bilan ba'zi gaplaring o'n yashar bolani eslatadi.

— Bo'lishi mumkin. — Mansur piyolani olganini anglamay qoldi. Keyin anglab: — Lekin men sizlarday bo'lolmayman, — dedi. — Vabshe, bo'lgim ham kelmaydi.

— Hay-hay!

— Chunki sizlarda til boshqa, dil boshqa... Sizlar aqlli, hamma narsani tushunasizlar. Lekin...

— Uh, xom sut emgan bandamiz-da, og'ajon. Dod! Qo'shiq aytgim kep ketdi!

— Eshitamiz.

— Sen buni qurit. Mard bo'l, ustozlaringday... Cholni o'ldirganlaringni hech kim bilmadimi?

— Bildirmadik-da... Lekin nachaylik sezganini keyin eshitdik. Yo bizdan qo'rqqan, yo o'ziyam yomon ko'rarkan uni...

— Ha, iloyi joyi do'zaxda bo'lsin. Ol, inim. Sog'lig'imiz uchun! Qolgan kunlarimiz ham... e, yillarimiz ham mana shunday o'tsin! Xursandchilik bilan.

— Vey, icholmayman.

— Sen mardsan — ichasan, — dedi muallim. — Taning sog', jigaring kasal emas biznikiga o'xshab... Mana bu kurraning ham buyragi ishdan chiqqan. Cholda quruq jasad bor... Ol, uka. Sipqor-ye, dunyo o'tdi-ku.

— Birgalashib tabiatni quritishimiz uchun-a? — kulimsirab so'ragan bo'ldi Mansur.

— Ha, endi, qismat shu bo'lsa, nima qilardik... O'lganimizdan keyin hu-u... O'-o', Olloh shunday yaratibdur! — xitob qildi Shoto'ra. — Qo'limdan nima keladi?

— Qo'lingizdan... Uh, prativni odamsiz. — Mansur piyoladagi aroqni uning basharasiga sepib yuborib, o'rnidan turdi. — Sizda Xudoyam yo'q, vijdon ham... Sadqayi odam keting! — Chetlanib, tayog'ini oldi. — Xayr, kurra, saniyam gapingda turuming yo'q. Mana bu maddohdan qolishmaysiz... — Cholga ham jirkanib tikildi-da, qo'lini siltab burildi.

Shoto'ra muallim pishnab ko'zlarini pir-piratar, yengi bilan ko'z jiyaklarini artar va boshqa qo'li qorni tirnab paypaslar, aftidan, kaltagini qidirar edi.

Mansur uch-to'rt qadam qo'yiboq tumanga kirib ketdi va yoshovrab qolgan ko'zlari uni-buni ko'rar darajaga yetganda Shoto'ra muallim tayog'ini olasolib uning orqasidan yugurdi. Muovin bilan cholning hay-haylashiga jilla parvo qilmadi.

7

Muallim Mansurga yetishi zamon yelkasiga kaltak urdi. Mansur burilgandi, kaltak ko'kragiga tushdi va u dovdirab qoldi. So'ng orqasiga chekinarkan:

— Jinni bo'ldingizmi? Hozir yomon qilaman...— dedi. Shunda u chuqurga oyog'i tushib ketib, o'tirib qoldi-yu, sermalangan tayoqni shappa ushladi, ushlab tortdi. O'qituvchi bu yoqqa tortdi. Mansur kaltakni bo'shatgan bo'lib, zarb bilan tortgandi u enkayib ketib, yarog' qo'lidan chiqdi. Va Mansurning biqiniga bir tepdi. Mansur yana epchillik qildi: uning to'pig'idan ushlab oldi-yu muallim keti bilan qorga tushdi, o'tirib qoldi va birdan boshini egib, ho'ngrab boshladi.

Mansur tayoqni ko'targancha tek qoldi-da, keyin uni chetga otib yubordi.

— Jinni. Quturdingizmi?

Muallim unga yoshli ko'zlarini chaqchaytirib:

— Quturdim! — deya changalini ochib siljigan edi, Mansur uning bilaklariga bir urdi. U "voy-voy"lab, qo'lini uqalab qoldi. — Quturdim, — dedi yana xirillab. — Sen... He, ko'zing o'yilsin, boyqush! Turemshik! Boy...

Mansur piqillab kuldi. Shunda bularga yaqin kelib to'xtagan qorovul bilan direktor o'rinbosari o'zaro yo'talishib va nimalarnidir po'ng'illashib, Shoto'raning qoshiga kelishdi.

— Turing o'rningizdan, To'raboy, — deb qorovul qo'lini uzatgandi, To'raboy itarib yubordi.

— Bor, yo'qol. He, soqol... — So'ng direktor o'rinbosariga do'q qildi: — Sen nimaga ishshayasan?

— Tavba, qachon ishshaydim? Aksincha, sizni tanimay turibman, Shoto'ra aka.

— Tanimaysan... Ha, meni hech kim tanimaydi. Bilmaydi. Ichimga qaysing kirib chiqibsan?

Mansur o'ylanib:

— Albatta men ham bilmayman, — dedi. — Yuring, o'tni boshiga boraylik. Shamollab qolasiz.

— Shamollayin. O'tib ketsin... O'layin men! Butun umrim yolg'onchilikda o'tgan ekan... — Keyin baqirib yubordi. — Aldanib yurgan ekanman!

— Endi, hammamiz ham aldanganmiz, — dedi direktor muovini. — O'rningizdan turing, aka. Juda xunuk...

— O'lmapsiz sizday xushro'y. — Shoto'ra inqillab o'rnidan turdi. Mansurga tashlanmoqchidek bir xezlandi-yu, keskin qo'l siltadi.

— Kelinglar. Eshitinglar... — Tag'in baqirib yubordi. — Keyin meni tushunasizlar!

— Xo'p-xo'p, — dedi muovin. Chol ildamlab oldinga tushdi. Mansur qidirinib tayoqni topti-da, suyana-suyana jila boshladi. Qoya oldiga yetishganida, qariya chalalarni qalab va cho'kkalab, tagiga puflar edi.

Har kim o'z joyiga o'tirdi. Shoto'ra muallim shishaga tikilib qoldi-da, shart olib, orqasiga otgandi, shisha bir aylanib, tagi bilan qorga kirib qoldi.

— Yaxshi emas, bu pulga kelgan, — deya Munsur turib borib, aroqni oldi.

— To‘g‘ri aytasiz. Menga bering shuni, — deya qo‘lini cho‘zdi direktor muovini va Shoto‘raga tikildi. — Xo‘sh, nima degandi o‘sha shogirdingiz?

— U meni o‘ldirdi. Mansur, eshit! — Muallim tutab, alanga olayotgan chalalarga qarab turdi-da boshini chayqatib, tag‘in piq-piq yig‘ladi. — Urug‘lik kartishga olaman deb anavi... do‘konga kirsam, mudir: “Domla, bu qimmat, tijorat bahosida”, dedi. “Omborga kiring, o‘zingizning o‘quvchingiz — mudir. Arzonga beradi. Tanlab olasiz”, dedi. Men galvars omborga bordim. Qarasam, haqiqatan ham o‘zimning o‘quvchim... So‘rashdim. Maqsadni aytdim. Shunday — “bir qop kartishka kerak, — dedim. — Bahor kelyapti. Uch-to‘rt sotix joyim bor, bilasan. Shuni eksam, jiyanlaringga, kunimizga yaraydi. Kim biladi, bahorda narx-navo qanday bo‘p ketadi”, dedim. U nima deydi deng? “Do‘kondan oling, domla. Men sizga kartishka bermayman”, deydi. “Nimaga? — dedim. — Bu davlatning ombori bo‘lsa, kartishkang arzon...” dedim. “Yo‘q, hammaga bersam ham sizga bermayman”, dedi. “Nimaga?” “Chunki siz menga nuqul ikki baho qo‘yardingiz. Har kuni, sendan odam chiqmaydi, der edingiz. Mana, men odam bo‘ldim. Siz kim bo‘ldingiz?” Shunday dedi. Bemalol. Pinak buzmay aytdi.

— O‘, ablah! Kim u o‘zi? Kimning o‘g‘li? — so‘radi Mansur.

— E, nima farqi bor.

— Da-da, ba’zi yoshlar ham buzildi.

— Kim buzdi?

— He, qirilib ketsin hammasi! Quy anavindan... Ichim yonib ketyapti. — So‘ng Mansurga o‘ychan xo‘mrayib boqdi. — Ana shunaqa, boyvachcha. Men chidab yuribman, o‘lmasman... Holbuki, o‘zimni o‘ldirishim kerak edi. U — mening o‘quvchim edi! Inson... Xudo-ya tavba, bu ko‘rguliklar yetti uxlab tushimgayam kirmagan edi... Vabshe, men keraksiz odamman! — deb tuyqus baqirib qoldi. — Ularga o‘g‘rilikni o‘rgatadigan kimsa kerak ekan...

— Albatta. Undaylar bor, — deya muovin piyolani yarimlatib uzatdi. — Xafa bo‘lmang, bir kun keladi unday yoshlar ham...

Qorovul yulg‘un sixni olib tutdi.

— Iching, gazak qiling, To'rajon... Kuyinmang.

— Aljimang, — deya kabobdan bir bo'lak oldi Shoto'ra. — U vaqtlarda dushman aniq edi, yo'l ham aniq edi... Hamma bilardi buni.

— Unday emas, — dedi direktor muovini. — Biz bozor iqtisodiga, ya'ni eng tabiiy rivojlanish yo'liga tushdik. Tarix guvohlik berishicha, insoniyat jamiyati paydo bo'lgandan buyon — shu amalda bo'lgan.

— Siz o'lgandan keyin bolalaringiz qoladi, — deb gap qo'shdi Mansur. — Balki ular yaxshi yashab ketishar... Agar aql, tadbir bilan ish tutishsa...

— Senga o'xshab, a?

— Nima, mening yo'lim yomonmi? Nabarot... Ana, Olimboy jo'ram aytganiday, eng tabiiy yo'ldaman. Xudo ursin-a... O'z-o'zimdan shu yo'lni tutdim.

— Qo'y, seniki menga namuna bo'la olmaydi. Sen endi bir chiqib qolding-da.

— Ixtiyoringiz, aka.

— Bo'pti. Shu zahri qotil, iloyi, zig'ircha bo'lsayam shifo bo'lsin. Iloyi, oh, odamlarga shu qadar ishongim keladi! Shunchaki yaxshilik tilayman... Lekin buning bo'lgan-turgani, nima desam ekan, juda ojiz, xudbin maxluq ekan-da bu odamzod. Uka, bu gapim — aqlli gap.

— Ammo-lekin "inson — ojiz" deganingizga men ham qo'shilaman, — dedi muovin. — Bundan shunday xulosa chiqadiki, demak, inson o'zini o'zi tarbiyalashi kerak... Bu yo'rig'da din ham unga qo'l keladi.

— Xudo haqqi, to'g'ri gapiryapsiz, — dedi Mansur jilmayib. — Bitta ariston bor edi. Erta-yu kech namoz o'qir, tilovat qilar edi. O'sha odam semirib, qip-qizil bo'lib qamoqdan chiqib ketdi. Hech narsa mana shu tirnoqchayam ta'sir etmadi unga.

— He, islomiyatda hikmat ko'p, — deb mulohaza aytdi qorovul bobo. — G'irt bezorilar, takasaltang, bekorchilar ham machitga qatnab, bir mehnatsevar, odamshavanda bo'lib ketishdi... O'zim guvohman, yigitlar. Oqshomlari amri ma'ruf bo'lganda ta'sirlanib ketib, o'zim ham yig'lab-yig'lab olaman. Dunyoning haqiqati bu

yoqda ekan-ku, deyman. Kecha hazrati imom mashvarat qilib: "Xudodan qo'rqmagandan qo'rqingiz", deb aytdilar. Biz buni ko'p muhokama qildik. Xulosa shu bo'ldiki, jamiyatdagi barcha nuqsonlar, buzuqchiliklar — bari...

— Xudodan qo'rqmaslik orqasidan! — titrab dedi Shoto'ra... — O'zingiz qo'rqasizmi?

— O', albatta. Nauzan billohi minazoliman...

— Rahmat.

— Kabob sovudi.

— Bu boshqa gap. — Musiqa muallimi piyolani bo'shatib, cholga qaytardi. — Rahmat. — Chol tag'in quyar, muallim kaklik oyog'ini etdan tozalar ekan: — Men achinmaymanmi shunga? — dedi birdan qo'lidagini Mansurga ko'rsatib. — Juda achinaman-da, akasi bo'yidan... Lekin nochorlikdan desang ham haqsan, anavi bolaxo'rlarga achchiqdan-alamdan shunday yovuzlik qildi, desang ham sen haqsan... Ammo men ham achindim. Hali kaltak bilan solganimda, ichimda bir nimalar uzilib ketganday bo'ldi. Unga sari alamim kelib, kallasini uzib tashladim...

Mansur unga tikilib qolib:

— Qiziq, — dedi-da, yelkasi qimirlab kuldi. — Meni kaltaklayotganda-chi, rahmingiz kelmadimi?

— Yo'q! — keskin dedi muallim. — Indamasang, uka, ont ichaman, kechgacha seni urishim, urib o'ldirishim mumkin. Ishonasanmi? Hali ko'zimga balo-qazoday ko'rinding... Men, umuman, senda, sening ayrim gaplaringda — o'zimni ko'rdim-da. Tushundingmi? O'zim ham shu fikrda edim-da!

— O'quvchilargayam shunday saboq bergansiz-da? — so'rov maqomida dedi direktor muovini.

— Albatta. Boshqa nima der edim? — U chayqalib kulimsiradi. — Ana, natijasi, eshitdinglar...

— Kimligini ayting, — so'radi Mansur. — Men bir ko'ray. Panada ushlab, hiqildog'idan olaman. "O'qituvchini yerga urishni kim o'rgatdi senga?" deyman...

— Xay-xay! — deb kuldi muovin. — Esdan chiqmasin: ustingizdan akt tuzmagan bo'lsak ham, qilgan qiliqlaringiz esimizda turibdi. Masalan, haliyam mening jag'im og'riyapti...

Mansur yelkasini uchirdi-yu qimirlab, hiringladi.

— Meniyam yelkam og'riyapti.

Chol mastona kuldi.

— Ajoyib odamsizlar-da... Qani, xo'jayinjon, piyolani olasizmi? Yo bo'ldimi?

— Nimasi bo'ladi? Oladi! — Buyurgandek dedi Shoto'ra. — Ol, kurra!

— To'ra aka, yana bir marta shu so'zni tilga olsangiz, turib ketaman. Siz bilan hech gaplashmayman.

— Gaplashasan. Gaplashmasang, siringni ochaman. Rayonda bosh ko'tarolmay qolasan... Ich, uka! E, hazil-e! Boringlarga shukur! Sizlar bo'lmaganda bilmadim... — Keyin Mansurga yuzlandi. — Nimaga meni urmading? Rosa tushirdim-ku? Xudo ursin, nima qilayotganimni bilmay qoldim.

— Ana shuning uchun, — Mansur yonida yotgan tayoqni olib unga berdi, — marhamat... — Keyin nosqovog'ini olib, tizzasiga urdi. — Umuman, rashot bo'ldik.

— Menimchayam, shunday, — tasdiqladi direktor muovini.

— Ba'zan sendan ham aqlli gaplar chiqib qoladi, a? — dedi Shoto'ra Mansurga. — Turmada mulla bo'lib olgansan-da! Haqiqatan ham ko'p gaplaringda ma'no bor.

— Qulluq, aka.

— Xo'y, chinovnik, olsang-chi uni? Sovub ketdi... O'zi ichkisi kelib turibdi-yu, noz qiladi... Menga qara, bu ketishda sendan rahbar chiqmaydi. Sababini aytaymi? Marhamat. Sen soddasan — bir. Fikr yuritishing kechagi odamniki — bu ikki. Tijoratni bilmaysan, ya'ni, iqtisodiy savoding yo'q, qolaversa, poraxo'r emassan, ya'ni, studentlardan bir nima undirolmaysan. O'qishga kirayotgandayam, imtihon topshirayotgandayam... — Shoto'ra kissasidan "Prima" sigaretini pachkasi bilan olib cho'g'ga yaqin qo'ydi. — Direktoring — geniy...

— Men odamning orqasidan gapirmayman, — dedi muovin. — Biroq "geniy" so'zini asrab qo'yish kerak... — O'shangachayam yashab turamiz, — davom etdi direktor muovini chaynalib. — Ammo ideologiya yaratilishi kerak. — Din — million

yilning mahsuli. Sotsializm ideologiyasi ham — eski edi: boy bilan kambag'al teng bo'lishi kerak degan gap edi-da. Ertaklarimizdayam bor-ku?.. Shuning uchun odamlar unga ergashdi.

— Oh! — Shoto'ra chindan ham hayrat ila tek qoldi. — Shu gaping ko'p dono gap bo'ldi, uka. Him, rahma-at... Shuning uchun ichsang arziydi. Ichmasang, menga ber... E, mana, yosh biznesmen gijinglab turibdi.

— Olaberinglar. Endi menga javob berasizlar, — dedi Mansur. — Lekin suhbatimizning oxiri yaxshi bo'ldi...

— Hm, hammamiz ham bir ochildik, — dedi Shoto'ra muallim. — Sen kelganing tufayli. Kakliging...

— Kakligimni yemayman-u... — deb yubordi Mansur. Ammo qanday yo'qotishni bilmas edi. Shuning uchun nochor xo'rsinib, egilganda...

"E, chiqarib qo'yvorsam-chi? — degan o'y keldi ko'ngliga. Biroq shu zahoti rad etdi: — Odamlar tutib yeb qo'yishadi. Qo'lga tushadi, uzoqqa ucholmaydi...".

Musiqa muallimi g'amgin jilmaydi.

— Yo'qotma, uka. Bilib turibmiz hammamiz, tog'da kaklik barmoq bilan sanarli qoldi hisob. Agar ob-havo o'zgarmasa, qolgan qutganiyam enasining...

— Shunday so'zlarni kamroq aytsangiz, — deb qo'rni kavladi qorovul.

— Kechirasiz, ota, — dedi Shoto'ra tezgina. — Bu til buzilib ketgan... Ha, Mansurjon, — endi ovozi ham o'zgarib va g'ayritabiiy samimiyat kasb etib, davom etdi: — Hademay bahor keladi. Sening sovliqlaring qo'zilaydi. Kunlar ochila-di, qushlar tuxum bosadi. Ammo tog'larimizda kakliklar ovozi...

— ...

— Eshitilsayam — kam, ahyon-ahyonda, xolos. Bu bilinib qoldi. Bizga o'xshagan yovuzlar kammi? Ho'-o'... Xullas, aytmoqchimanki, makiyoning hali kerak bo'lib qoladi.

— Rahmat, aka, — deb uning tizzasiga kaftini qo'ydi Mansur. — Men nimanidir tushundim.

— Qulluq.

— Endi ichaman, — dedi direktor o'rinbosari va piyolani dast ko'tardi.

— Xudoga shukur, — dedi qariya endi xo'jayinga kabobni uzatib. — Shunday yaxshi gaplar yaxshi-da. He-e, odam bir iliq so'zning gadosi bo'lib qolipti.

Chol "plug oti" haqida aytgan paytdagidek ulfatlar yana o'ychan va mulzam tortib qolishdi. Ammo shak-shubhasiz, har birining ko'ngli tubida iliq hislar, qadr-qimmatnimi, mehr-dildorliknimi eslatadigan, balki bu hislar omuxtasiga yaqin tuyg'ular bosh ko'tarib turardiki, bu hol ularning chehrasiga ham tepib, nurli nigohlar ila bir-biriga ko'z solardi.

8

Shundan keyin ham gurung davom etdi. Ammo endi g'idibidi bo'lmadi: bir-birining yarim gapidan fikrini anglar, bular o'rtasida qandaydir totuvlik hamda maslaklari bir-biriga yaqin odamlarga xos vazmin bir ahillik paydo bo'lgan ediki, birontasining og'zidan bu holga rahna soluvchi bir so'z chiqsa ham, boshqasi uni eshitmaganga solar yo o'sha damning o'zida uni bostirib yuborardi.

Ha, bu davrda qandaydir fikrlar davrasiga aylangan ediki, buni har biri ham sezar va beixtiyor qadrlar, uning buzilishi, aftidan, dahshatli tuyulardi.

Ana shu kayfiyat tufaylimi yoki kunning sovuqligidanmi, ikkinchi shisha ham bo'shadiki, kayfi deyarli sezilmadi.

Nihoyat, qariya:

— Birligimiz buzilmasin, mehrli-oqibatli bo'laylik. Quruq tuhmat, bemahal o'limdan asrasin. Yurtimiz obod bo'lib, odamlarga insof bersin! — deb fotiha o'qigandan keyin qo'zg'alishdi.

Bu vaqtda kun allaqayerga ko'tarilib qolgan, atrofdagi shovqin, miltiq otishlar ham tingan, tabiat sokin bir osoyishtalik og'ushida edi.

— Ha, esa Mansurboy, kelinni so'rang. Kecha ko'p xizmat qilgan, ota-onasiga rahmat. U yetim qiz-a?.. Ha. Og'irlikni ko'targan-da, oilaning qadriga yetadi, — deb Mansurga qo'l berdi Shoto'ra muallim.

— Rahmat, aka, — dedi Mansur chin ko'ngildan. Illo, xotini haqidagi iliq gap uning ko'nglini yana-da ko'tarib yuborgan edi. — O'zingiz ham yangamizni so'rang.

Muovin Mansurning qo'lini qattiq qisib:

— Sizga omad yor bo'lsin! — dedi. — Fe'lingiz shaxsan menga juda yoqdi. Biz bir-birimizni bilmas ekanmiz-da. Him, aftidan, buning uchun mana shunday sharoitlar kerak bo'lar ekan... Xo'sh, akaboy, bilib qo'yganingiz yaxshi, biz ham shaytonlik qilmay o'rtahol yashaymiz. Chunki qanoat qilamiz, yaxshi kunlar kelishiga ishonamiz.

— Albatta keladi, — dedi Mansur. — Vapshe, bu o'zimizga bog'liq.

— Ha, Mansurjon, omon bo'ling, — deya qo'sh qo'llab uning barmoqlarini tutdi qorovul chol. — Nevarani o'pib qo'ying... Bobosiga ketipti. Rahmatli padaringiz podachilikdan boshqa narsani bilmas edi. Esimda "Oshalo-ol!" deb kelganlari...

— "Oshalol" emas, "oshi halol!" — deb tuzatdi musiqa muallimi. — Yolingiz oqarib ketipti-yu, shu so'zniyam to'g'ri aytolmaysiz.

— Biz endi eski odam.

Bular bari yoshlikdan tog'i-toshning ushog'ini sanab, archazorlarda yotib — gulxanlarda pishiriq qilib-yeb o'sgan odamlar ediki, bu yer yalanglik, o't ketsa yonadigan bir tup moyli giyoh bo'lmasa-da, beixtiyor gulxan chalalarini tepkilab o'chirishdi. Kulga oyoqlari bilan qorni surib bosishdi.

Shunday qilib, ajrashdilar.

Mansurning dimog'i chog' edi. Ammo yarim yo'lda: "Boshim og'rib qolmasin tag'in" deb, barmog'i bilan tomog'ini qitiqlab, qayt qildi. Yuzini qor bilan ishqab, qip-qizil bo'lib, hovli engaridan kirdi-yu og'il og'zida to'kilgan somonni titkilab, qaqolab yurgan tovuqlariga ko'zi tushishi zamon tonggi kakliklarni esladi. Keyin Qoraqoshni ko'rgisi keldi va mana shu hovli-yu molhol tashvishi hamda kaklik bilan bog'liq o'ylar omuxtaligida ishga tushib ketdi.

Kurakni olib, supa pastlaridagi qorni kuradi, engarakkacha yo'l ochdi. Keyin havo iliyotgani va tuman tobora siyraklashayot-

gani uchun darrov narvonni tomga qo'yib, chiqdi. Eskichasiga — tuproq to'shab somonli-tuzli loy bilan suvalgan tomni orqa tomoniga qorini kurab tashlab, xotini pastdan otgani supurgi ila supurib tashlagach, qor kurtugiga sakrab tushdi. Uning kayfiyati yana-da ko'tarilgan, yuz-ko'zidan hovur taralar, o'zi issiqlab ketgan edi.

Pechka biqinida omonat o'tirganicha issiq choy ho'plar ekan, o'ziga o'ychan-o'ychan qarab qo'yib, karsonda xamir mushtlayotgan xotiniga:

— Ha? — dedi. — Jindak ichgan edim, sezdingmi?

Xotin kulimsiradi.

— Shuning uchun xo'rozday qizarib kelgan ekansiz-da? Kimlar uchray qoldi?

— E, so'rama! — Mansur jilmayib, yoniga o'rmalab kelgan o'g'lini tizzasiga oldi. — Anavi muallim bor-ku? E, kecha shu yerda bo'lishmagan. Sen ularni bilmaysan... Ammo-lekin, kampir, kaklik qirildi-da! Ho', sen ham rost aytgan ekansan, odamlar juda-a boshqacha... Qalamqosh u xonadami?

— Ha.

— He, Polvon o'g'lim.. Odamlarning yovuzligini siz ko'rmang. Xafa bo'lasiz. Nasib bo'lsa, ko'rmaysiz ham!.. Kampir, shu odamzod ham shu qo'y-echkilarga o'xshash zot bo'lar ekanmi, deb qoldim. Bularning ham qorni ochsa, ma'rab olamni buzadi. It och qolsa, uyga kirib kelishi mumkin. Rost, o'g'irlikni o'rganadi. Hatto ba'zan ovchi tozilar egasi o'q otib, o'ljani toshiravermasa, egasiga tashlanar ekan... Ha, ishonmaysanmi?

— Nimaga, ishonaman. Lekin odamni hayvonga o'xshatmang.

— Ha-a, malades... Eshitdingmi enangni gapini? Bu — inson! Buning gapiyam, qalbiyam boshqacha.

— Ha, kimlar edi ular?

— E-e! — Mansur xayollanib, davom etdi: — Umuman, shu odamning yomoni bo'lmaydi, deb qoldim. Katlavandan bir qirg'iyning jo'jasini opkelishgan edi turmaga. Jo'raboshi uni tarbiya qila boshladi. Qush katta bo'ldi. Paxanga o'rganib qoldi. Hushtak chalsa, kelib yelkasiga qo'nadi. Bir kuni bir kavkazlik yigit qirg'iyni qoshiq bilan uripti. Nonini cho'qilagan ekan. Qurg'ur,

qanoti cho'rt sinipti. Paxan kelib qoldi. Haligi yigit turib qochdi. Paxan o'shani quvib, qo'lini sindirdi.

— Voy, bechora.

— Qo'y, unga achinma. Ya garyachiy krov deb mengayam ko'p tegajog'lik qilardi. Ovqatning go'shtini opqo'yardi. Bir kuni "ya toje garyachi krov" deb shunday miskadagi issiq ovqatni yuziga... yoptim. — Mansur maza qilib kuldi. — Chiyillab qoldi. — So'ng yana o'g'liga murojaat etdi: — Katta bo'lsang, o'zingni himoya qilishing kerak, Polvon. Bo'lmasam...

— Shunga bir kurra olib bering, — dedi xotini.— Eshakni ko'rdi, minaman deb talpinadi.

— O, zo'r taklif! O'zim ham yoshligimda eshak minishni yaxshi ko'rardim. Yantoqqa borganda. Ey, kampir, qo'ylarni bir jadratib-aylantirib kelaymi?

— Soz bo'lardi, — dedi xotini. — Bo'g'oz sovliqlarning biri yotaloq bo'p qolgan. Unda bolasi shamollaydi, o'pkasi shamollaydi. O'zi-ku, molni sira yotqizmaslik kerak.

Mansur o'g'lini po'stakka tushirib:

— Biz ishga! — deb o'rnidan turdi. Va xotini uzayotgan zuvalalarga tikilib qoldi. — Hey, uch-to'rtta patir qil. Yog' qo'shib. Gap bor. Him, go'shtdan qoldimi?

— Serkaning bir soni bor.

— Yaxshi.

Saldan keyin Mansur uyi ortidagi o'rkach tutashgan qirlar osha kattagina to'p bo'lib qolgan qo'y-echkilarini haydab, qor kechib borar, jonivorlar qordan chiqib turgan yantoq va jang-shox butoqlarini kemirar, tog'dan esa boshlagan sovuqqina shamol ularning o'siq junlarini o'tqizar, ayrimlari pishqirar, dik-dik sakrab ketardi.

Qirning u tarafida qor yupqa — kechagi shamol yalab-uchirib ketgan, bulturgi o't-o'lanlarning qoldiqlari shunday ochilib qolgan ekanki, mollar juda yayrab-yoyilib ketishdi.

Mansur bitta nos otib olib, tayog'iga qo'ltig'i ila suyangancha tevarak-atrofni-yu qo'y-echkilarni ko'zdan kechirarkan, bultur chamasi shu mahallar edimikan, shu yerdan bir-ikkita kaklik uchib ketganini xotirladi.

Jonivorlar qor ketgan joylarga qo'nishadi-da, unday yerlarda giyohlarning urug'lari to'kilgan bo'ladi, tag'in ular yeydigan alanimabalolar bor.

"Qayoqqa? — dedi munglanib, go'yo o'sha manzarani boya ko'rgandek. — Odamlar o'ldirishdi yoki zada bo'lib, janublarga enib ketishdi...".

So'ng turgan yerida janub tomonga — ya'ni, qishloq yoyilib yotgan etakka boqib, tuman tarqab bo'lganiga ishonch hosil qildi va janub ufqining o'ta oq ekani, quyosh esa tikkadan enayotgani — uning nursiz gardishi alohida ajralib-oqarib turganini ko'rib: "Ha, bahor yaqin", dedi.

Keyin esa, hash-pash deguncha qorlar erib ketib, yomg'irli kunlar kelibdi: shar-shur etib tarnovdan suv to'kiladi, ko'klam shamoli tunlari tom ustida izg'ib yurib, tag'in karnay tutunini ichkariga qaytaradi.

Qarabsizki, yer-u ko'kni larzaga solib va o'z qudrati ila ko'ngillarda sirli hayajonlar uyg'otib momoguldiraklar guldirayotir: go'yo osmoni falakning qandaydir bosqichlarida afsonaviy ag'darma moshinalar tosh to'kishmoqdaki, u toshlar, qayoq nishob bo'lsa, o'sha yoqqa dumalab ketishmoqda.

So'ng esa chaqmoqlarning o'tkir xanjar-la tilgandek oqish chiziqlari ko'kka singib yo'qola boshladi. Va kun otli oq gulxan o'z yo'lida muallaq to'xtab qolgandek porlamoqqa tushdi. Uning atrofidagi moviylikda qora-qadrdon nuqtalar, qay bir shoir aytganidek, samoviy qush — turnalar ko'rindi.

Yerda — adirlarda yashillik unib chiqayotir: maysalar, shuvoqlar, qo'zigullar...

Hur-hur shabada... Shabada qiyalikdagi charsillab tutayotgan gulxanni egadi, yer bag'irlatib tagidagi alangani lovullatadi. Atrof o'tkir va sog'ingan qalbni yig'latar darajada xushbo'y hidlarga to'lib ketadi.

Gulxandan chaproqda — nishobda qiyshayib o'sgan va hali qurib qolgandek sarg'ish butoqlaridan kurtakchalar nish otmagan bo'ritikan ostidan qorin junlari osilgan va ho'l qora sovliq o'rnidan turishga intilayotgan mo'jaz qo'zichoqni yalamoqda; shunday

shoshib yalaydiki, ko'zlari to'ymayotganidan kattarib ketganday, tag'in qisqa-qaltiroq ovoz chiqarib — ma'rab ham qo'yadi.

Beriroqda-teparoqda qo'yning eshini, ya'ni qo'zichoqni o'rab tushgan pardani qo'lida osiltirib turgan Mansur uy tomondan — so'qmoqdan guppi kiygan Polvonni yetaklab, boshqa qo'lidagi kichkina chelakni oldinroqda tutib kelayotgan qizil ko'ylak xotiniga:

— Tezroq-e! Manovu quzg'unni ko'rmaysanmi! — deya chiranib baqiradi.

Chindan ham, tepada bir juft qarg'a aylanmoqda va beton hovuzning qirg'og'iga qo'nib turgan zag'izg'on jon holatda chag'illab, go'yo u ham kelinga: "Joning bormi? Chop!" deganday bo'lardi.

Nihoyat, kelin o'g'lini qo'yvordi-da, chelakni bu qo'liga olib ildamladi.

Buni ko'rib, tavba, Mansur ularga peshvoz yugurdi.

Xotiniga yetdim deganda yo'ldoshni tashlab:

— Yuv, — deya o'tdi va bolasini ko'tarib, ko'ksiga oldi. — Aylanib ketay... Ana, qo'ylari tug'di. Hozir qag'anoq pishiramiz. Ana, quzg'unlarni ko'ring. A-na! Uchayapti! Yeymiz deydi. Qo'zichog'ingni yeymiz, deydi. Bular — juda ablah. Ko'zini o'yadi, bildingmi? To'g'ri kelsa, otish kerak bularni.

Xotini shilliq pardani chimdib ko'targancha sovliqning boshiga bordi va o'sha yerda cho'nqayib, qo'zichoqqa jilmayib-jilmayib qaragancha va nimalar deya erkalagan holda, yo'ldoshni yuvarkan:

— Otasiga ketipti. Kallasini qarang, — dedi. — Yaxshi qo'chqor bo'ladi.

— Bo'ladi-i. Bizga qo'chqor ham bo'laveradi, — deya o'g'lini tushirib, Mansur ham qo'zichoq qoshida cho'nqaydi. — He, jonivor. Yala, yala... Kampir, ajoyib-a, yalamasa bo'lmaydi... Bilasanmi, tovushqon ham bolasini yalab, anavinday qitiqlab ichni ketkizmasa, ichi qotib qolarkan.

— Hammasi shu, — dedi Ipak va kulimsiradi.— Nimaga uyda ochilgan kakliklar o'ladi?

— Ha-ye, o'ladi, kampir. Mushtday bo'ladi-yu o'ladi,— hayron bo'ldi Mansur.

— Siz bilmaysiz, — dedi xotini. — Mening eshitganim bor. Yovvoyi kakliklar tog'da qandaydir tosh yer ekan. Balki giyohdir. Ishqilib, bir narsa yer ekanki, u ichini surib turar ekan.

— O-o, buni qara-ya!

9

Mansur sovliqning boshini ushlab turar, xotini uning ortiga o'tib, hayvonning orqa oyoqlarini kerib qo'ygancha, paqirga sog'ar ekan:

— Hoy, chol, qag'anoq qilgandan ko'ra, shu og'izsutdan haligi jo'ralaringizni uyiga bir-bir piyola yuborsak-chi? — dedi. — Bolalarining og'zi tegadi.

Mansur bir dam angrayib qoldi-da:

— Ey, to'g'ri aytasan, — dedi. — Ha. Shu narsaning meni xayolimga kelmaganini qara... O'zi, ming yildan beri og'izni tatib ko'rishmagandir.

— Bir-bir kosa sut ham beraman, — davom etdi kelin. — Quruq og'izdan nima qilardi ular? Sigirni sutiga qo'shib qaynatsa, gelagay bo'ladi.

— Ha! — deb yubordi Mansur yana hovliqib. — Juda ma'qul o'ylading-da. — Shu payt yonida qo'zichoqning bo'ynidan quchib o'tirgan Polvon ingrab qoldi: qo'zichoq yiqilib, oyoqlarini tipirchilatar edi. Buni ko'rib, sovliq ham intildi. Va Mansur qo'zini tagidan ko'tarib, turg'izdi. — Bo'-o'ldi. Mana, bolangiz. Yalang... Sutda haqi bor deyapsizmi? Bilamiz. Lekin bizniyam haqimiz bor. Sizni bekorga boqib, parvarish qilmayapmiz. So'ysak, allaqachon hazm bo'lib ketar edingiz... Polvon, tur! Yer zax, zax, bildingmi? Ana shunday... Sen ham qo'zichoqdan qolishmaysan. — Mansur zavqlanib kuldi. — Ikkisiyam endi toy-toy bo'layapti-da.

— He, qo'zichoq hademay dikillab ketadi... Shu hayvonlar juda moslashgan-da yashashga. Qo'zining ham oyog'i chiqmay yotaversa, nima bo'lardi.

— Rost. Tabiat dono, dono... — Keyin kulimsiradi Mansur. — Muovinning xotini juda uyatchan ekan, kampir. Huv, patir yopib bergan eding-ku?.. Shunday-shunday, opangiz yo'qladilar. To-

moqlaridan o'tmay shuni yubordilar, desam, turgan yerida aylanib qoldi. — U xaxolab kuldi. — Keyin bechora yig'lagudek bo'lib oldi: "Biz bo'lkaga o'rganib qolganmiz, aka", dedi... E, qoyil emasman shu yigitga. O'zi zamdirektor. Kulturni kishi. O'zbek. Tandiri yo'q ekan-a! Shuyam oila bo'ldi-yu!

— Non yopishni bilmasdir-da.

— Bilar ekan! Kurraning o'zi aytdi. Keyin... Uchrashganimizda. Bu qanaqasi, dedim. Ana, tegirmonlar ishlay boshladi. Don topiladi, dedim... O'zlari yalqov bo'lib qolishgan. Dangasa... Vabshe, odam o'ziga ishonishi kerak.

— Bolasini emizing. Iysin... Vuy, ko'z tegmasin, qarang, qanday quyuq.

— Jindak qag'anoq ham qilamiz. Mana, Polvon ko'rishi kerak, yeyishi kerak.

— Mayli. Moshina signal berayapti... Rabochilar kelishdi. Bu gal necha kunga ketasiz?

— Bilmadim, kampirjon. — Mansur qo'zichoqni onasi tagiga kiritib, og'zini emchakka tutdi. Va u yutoqib so'ra boshlagach, o'rnidan turarkan, biryo'la Polvonni ko'tarib oldi. Uy tarafga qaragancha: — Tez qaytishga harakat qilamiz, — dedi. — Sel kelgandir, ba'zi joylarni olgandir. Kabelga ziyon yetgan bo'lsa, ovoragarchilik-da, kampir.

— Haligining xotini kechga qolmay kelsin.

— Keladi. O'zi o'sha qaynonasidan bezor... Farzand ko'rsa-ku, o'ralashib qolardi.

— Miltiqni o'qlab keting.

— Albatta. Lekin xalastoydan joylayman. Dorisi bor, o'qi yo'q. Odamni qo'rqitsa, bo'ldi-da... Qara, — yonbag'irda shiddat-la o'tlayotgan qo'y-echkilarga yuzlandi, — og'zi ko'kka tegdi jonivorlarning. Endi muttasil ko'k yedirish kerak. Somon bersang, ichi ketadi... — Menga aytayapsizmi shu gaplarni?

— He-he-he. O'zimga o'zimcha... Gapirgim kelyapti-da, kampir. Ey, eshit, Xoyinbeka sayrayapti! Ayvonda edi...

— Moshinangizni tanigan-da.

— Vey, vey. To'g'ri aytasan! O'zinikiday bilib qolgan!

— Qaysi kuni ayvonda jurib edi, moshina kelishi bilan kuzovga chiqib oldi.

— He-e, yaramas. Tog'ga boramiz deganida bu?

Mansur yonbag'irda so'ppayib-so'ppayib turgan olma nihollarini chetlab va simto'r devorni ko'zdan o'tkazganicha ildamlab borarkan, bir yelkasi tushib ketgan, taqamo'ylov, malla kishi qiyshayib chiqib kelardi.

— Assalom alaykum! — deb ko'rishdi Mansur u bilan. — Qalay?

— Shu, keldik, — dedi u. — Kelinингiz ham keldi.

— Voy, siz avliyo-ku, og'a!

— Endi, shu-da.

Ayvon pastida og'irligini dam u-dam bu oyog'iga solib, sollanib turgancha papiros chekayotgan shofyor Abulqosim qomatini tiklab:

— Keling, shef, — dedi va barmoqlari changandek qo'lini uzatdi. Mansur bilan ham qo'sh qo'llab ko'rishib, jinsi shimi-yu kurtkasiga zavqlanib boqib:

— Zo'r-zo'r, — dedi.

— Kecha mishig'i oqib yurganlar kiyganda, biz kiysak, nima qipti. — Kulib qo'ydi u. — Tijoratchiman, deydi. Ishbilarmon... Mana, ish biladi! Davlatning magazinidan olib, o'zining do'konida o'n baravariga pullaydi, aroqniyam...

— Hay-hay, hozir shunday zamonki, azizim, ko'p odamlar juvozdan chiqqan otday aylanib qolishgan, — dedi Mansur. — Tushundingmi gapimni?

— E, o'tgan safar ham aytgansiz... Mine ot etovo ne legchi! Yaramaslar.

— Yo'lga shaymisan?

— Kaneshna.

— Bu, fason bo'lib olibsan?

— Jo'rttaga kiydim... Qani, ustimdan yechib olsin-chi... Kecha restoranda bittasidan tortib oldim. Chetga chaqirib: "yechin, davay, — dedim. — Hozir tiqib olaman. Keyin biznesing ham qoladi, do'koning ham. Sen tovlamachisan, shuni bo'yningga ol", dedim. Nima der edi?

— Eh, — Mansur bosh chayqadi, — yaxshi emas... — So'ng o'ylanib, birdan qo'l siltadi. — Vobshe, to'g'ri qipsan. Tovlamachi deganing rost... Ularga baribir— xalq qanday yashaydi, mayishati tushib ketayotganiyam...

— Ular parazit! — xitob qildi Abulqosim.

— Endi shaytonga hay ber, ukajon. Yana shu ishni qilsang, o'zing eng buyuk tovlamachiga aylanasan. Undan keyin: "Esiz Abulqosim!" deb fotiha o'qishga to'g'ri keladi.

— Bandaligini bajo keltirdi, deb, a?

Uchovlon chag'-chag'lab kulishdi.

Shunda mehmonxonadan chiqqan qotma, dumaloq ko'zlarida qichiq yashirin, qo'ng'iroq soch tolalari kulcha yuzini baayni o'rab olgan kelinchak:

— Salom alaykum, Mansur aka, — dedi.

Zinaga qadam bosgan Mansur unga yalt etib qarab:

— A-a, singlim. Xush kepsiz, — dedi. — Anavi adirda opangiz qo'y sog'ayapti, boring... It tegmaydi. Bilasiz-ku?

— Rahmat. Xo'jayin, xo'sh-da bo'lmasam?

— Ha. Shu, — dedi taqamo'ylov xo'jayin.

— Aytmoqchi, Mansur aka, — deya uni to'xtatdi Abulqosim. Va juvon uy orqasiga o'tgach, davom etdi:— O'tbosar aka aytdiki, qo'ylaringizni Qiziljar tomonga haydamas ekansiz. O'sha joylarni archa-parchasi bilan sotib opti. Fermer... Dam olish uyi qilaman, deydimi-e. Giyohlar, qushlar haqidayam bir nimalarni gapirdi. Uncha tushunmadim-u, lekin u yigit qiladi.

— Voy, o'shancha joyni sotib optimi? — hayrat bilan so'radi Mansur.

— Ha. Kimning puli bo'lsa, kim haqiqiy ishbilarmon bo'lsa, oladi. O'tbosar aka huv bekatdagi choyxonani sotib olganini bilarsiz?

— Eshituvdim. Ammo shu-uncha joyni... Necha gektar yer u! Voy bo'-o'y! Demak, o'sha joylarning egasi — O'tbosar-da, a? Endi unikida?

— Uniki. Shuning uchun, kattangga ayt, molini boshqa yerdan o'tlatsin, dedi-da.

— O, hozirdanoq... Puxta ekan. Men turib-turib, shu joyimni tortib olmasmikan, deb o'ylab qolardim. Tarixda shunday ishlar bo'lgan-da.

— U tarix o'ldi. — Shofyor papiros qoldig'ini tashlab, tovonida ezdi. — Yeringizdan ko'nglingiz to'q bo'lsin. Kimning kallasiga kelgan edi — shu yerga chiqib, tom-tosh solish, yashash, a, G'iljaygan do'stim? — ishchiga qarab oldi. — Keyin, siz bu yerga egalik qilganda bu gaplar yo'q edi.

— Bo'pti. Jo'naymiz! Eh! — Mansur zinadan qaytib tushdi. — Bir iltimos bor...

Bu iltimosi bajarilib, yo'lga chiqqanlaridan keyin ham Mansur iltimoslar qildi:

— Pochtaga hayda, Qosimjon.

Pochta oldidagi atirgullar tagini yumshatayotgan qorovul cholga krujka opchiqishini buyurib, so'ngra kastrulchadagi og'iz-sutdan quyarkan: "Texnikumga qachon o'tasiz?", deb so'radi. Chol qiyshanglab: "Tungi storojlikka-da, — dedi. — Maoshni ikki karra oshirib qo'yishdi. Olimboy yaxshiligini ko'rsin...".

— Endi anavi maktabga haydang, Qosimbek, — dedi Mansur. Va maktab darvozasi og'zida to'xtab surishtirsalar, Shoto'ra muallim shamollab qolgan, uyida ekan. Uyiga bordilar. Darvozaga chiqqan qizining qo'liga idishni tutqazib: "Zam direktor Olimboy bilan baham ko'rar ekanmiz, de. Men shoshib turibman..." dedi. Qizaloq: "Otam sizni yo'qlayotuvdi. Zerikkanlar..." dedi.

Mansur kallasiga kelgan o'yni dangal aytib yubordi: "Mansur amakim yo'ldan kelsalar, tog'ga taklif etmoqchi, de. Uch-to'rt kishi bo'lib, bir aylanib kelar ekansizlar, de...".

Nihoyat, katta yo'lga qaytib chiqib, odatdagi marshrut bo'yicha ketdilar.

10

Hademay tog'ga safar muddati yetib, kelishilib, ushbu yukmoshinga tushib, ya'ni, Qorovul chol— shofyorning yonida, qolgan ulfatlar kuzovda, tog'ga jo'nadilar. Ertalab yomg'ir sevalab o'tgan, bahor ko'rki ila uyg'ongan, o'sgan-yashillangan va yuvi-

lib — chiroyi ochilgan tabiat, ya'ni, archazorlar-u yonbag'irlar, so'qmoqlar-u yo'llar, soylar va ular bag'ridan chiqib kelayotgan g'uborli tog'lar quchog'ini ochib-yoyilib, bularni qarshi olmoqda edi.

Moviy osmon ham artilgandek tiniq, quyosh nuri yoqimli, ro'paradan tog'larning telba shabadasi esar, sayohattalablar issiq kiyinib olgan bo'lishlariga qaramay — burun uchlari qizargan, ayrimining ko'zidan yosh oqqan holda, kabina tomiga taqalib ko'tarilgan yog'och to'siqdan tutib borisharkan, kayfiyatlarida ham bir umumiylik bor edi.

Mansur to'ng-xo'mrayib olgan, atroflarga manglayi ostidan sinovchan-o'qrayib qarar, qulog'i esa ding — kaklik sayrashini shabadaning g'uv-g'uvidan ham ilg'amoqqa shay edi: axir, u necha kunlardan buyon uyi atrofidan u — tog'lar ko'rkining sasini eshitmadi, eng alamlisi — telefon kabellarini tekshirish vaqtlarida ham kaklik sayrashini ikki-uch marta eshitdi, xolos.

Bir zamonlar bashang kiyinganidan nishona — guli to'kilib-taqirlanib qolgan qorako'l yoqali paltosiga o'ranib olgan Shoto'ra muallim g'oyat jiddiy tortib, sumraygancha yiroqlarga boqar, goho g'udranib so'kinib qo'yar — illo, uning ham quloqlari kaklik qo'shig'iga mahtal edi.

Texnikum direktorining muovini esa, lablari ko'kargancha qaqqayib borarkan, ikki gapning birida: "Shilakbaum ko'rinmayapti-ku?" deb qo'yardi.

Kuzov burchagida yana bir hamroh bor, u qafasdagi Qalamqosh yoxud Xoyinbeka ediki, ustiga ko'rpacha tashlab qo'yilgani uchun sasi chiqmas, faqat boshpanasi ila nari-beriga surilib-surilib ketardi.

Ichaksoyga tushib-chiqib, yerdan qaynab chiqqancha qotib va tors-tors yorilib qolgandek uzungina tizma ostidan biroz yurganlaridan so'ng yo'lni bemalol to'sib-ko'ndalang turgan olayog'ochga duch kelib to'xtadilar. Yo'lning chap tarafi — tik enish bo'lib, pastda bo'tana suv oqar, faqat olg'a jilish uchun tayoq ko'tarilishi lozim ediki, uning ayri qoziqqa tushib turgan uchida shapaloqdek qulf osilib turar, qulf ochilmasa, orqaga qaytishga majbur edilar: yog'ochni sindirib, birovning mulkiga kirib bo'ladimi?

G‘ashlanib, to‘ng‘illashib, “Kim bor-oo!” deyishib, Abdulqosim esa bosib-bosib signal bergancha atrofga qaranib turisharkan, shundoq qarshidagi burilishdan tar-tarlab pag‘a-pag‘a tutun otgancha kichkina traktor chiqdi. Va kela-kela chetlanib to‘xtadi-da, kabinadan bozorning pattachisi — barvasta, ko‘ziga qarasang vahima bosadigan Eshquvvat tushdi.

O, egnida banoras chopon-u ichida — montana yozuvli yaltiroq ko‘ylak-ishton, oyog‘ida qo‘nji uzun rezina etik, shahardan endi chiqib kelgan tijoratchiga o‘xshar va ko‘z o‘rganmaganidanmi, tog‘ manzarasiga yopishmas edi.

— Salom berdik, akalar! — dedi u.

— E, o‘zimizning Eshquvvat ekansan-ku! — dedi Shoto‘ra muallim. — Qullug‘ bo‘lsin.

— Nimasi, aka? — Yigit olatayoqning tizmaga tegib turgan joyidan o‘tib keldi.

— He, shilagbaum o‘rnatibsiz? — Muallim birdan engashib u bilan ko‘rishdi.

— Shunday qilmasak, hamma oyoqosti bo‘lib ketadi, aka, — deya Eshquvvat Olimboy bilan ham ko‘rishdi. Keyin Mansurga qo‘l uchini berib: — O‘zlari-ku, boy bobo? — dedi.

— Boy deb sizlarni aytsa bo‘ladi, — dedi Mansur uyalib-g‘ijinib. — Shu-uncha yerni opsizlar. Qoyil... O‘tbosar qani?

— Shef u yoqda. — Eshquvvat kelgan yo‘lining davomi burilib-o‘ralib ketgan archazor ichida oqarib turgan uycha bilan chodirni ko‘rsatdi. — Qurilish bo‘lyapti... U kishi sizlarni tanib ham bo‘ldi. Durbini bor. Ha, yo‘l bo‘lsin, akalar? — Eshquvvat shunday deb, kuzov labidan ushlagancha g‘ildirakka oyoq qo‘yib ko‘tarildi. Bularning oyoq ostilariga qarab: — U nima? Kaklik-ov, — dedi. — Olimboy aka, xizmat bo‘lmasa, shu ko‘rpachani ko‘taring.

— Kaklik u, — dedi Mansur. — Lekin ovga kelmadik, uka.

— Baribir, aka. Shefdan ruxsat bo‘lmasa, o‘tkazmayman. — Eshquvvat yerga tushdi.

— Bo‘lmasa, chaqir shefingni! — do‘q qildi musiqa muallimi. — Tomosha qilish ham mumkin emasmi tog‘larimizni? Ho‘, Abulqosim, signal ber!

Kabinada miq etmay o'tirgan haydovchi boshini chiqardi.

— Ho', polvon, o'taylik. Shepingni oldiga boramiz... Mehmonmiz, tushundingmi?

— Qosim aka, men aytilgan ishni qilaman, — dedi Eshquvvat va istar-istamas unga qo'l uzatdi. — Yaxshimisiz? — Shofyor ham unga qo'l uchini berdi. — Esa, kutib turasizlar. Men borib kelaman... E, ana! O'zlari enyapti. Huv, mataseklda... Kechirasizlar, ayniqsa miltiqli, kaklikli odamni o'tkazmaymiz. Mana buni ko'ringlar! — U olatayoqda osilib turgan qandaydir pachoq uskunani ko'rsatdi. — Shu — mikrafon. Tuban qishloqdan bir bolakay lentaga kaklikning sayrashini yozib opkelib, buta tagiga qo'ygan ekan. Shef eshitib, xursand bo'pti. Shu yerning kakligi deb o'ylagan-da. Keyin asta poylab kelsa, ahvol shu. Ovchi archaning tagida o'tirganmish. Shef miltiqni opkelib, mikrofonni otipti. Mana shu... Ibrat bo'lsin deb osib qo'ydilar. — Eshquvvat shundan keyin qorovul chol bilan so'rashdi. — E, siz nima qilib yuribsiz, boboy?

— Qarilikka yo'rg'alik, — deb kuldi chol. — O'laylikmi endi, otam? U yoq-bu yoqni ko'rib qolish ham g'animat-da... Qalay, kaklik ko'pmi tog'da?

— Kaklik, — deb to'ng'illadi Eshquvvat, — to'lib yotipti. Quloq soling, barmatuxa ichib, mast bo'lganday sayrayapti! — Yigit tayoqdan hatlab nariga o'tdi. Mototsikl yetib kelib to'xtadi, undan oyog'ida krassovka, egnida qop-qora tivit jempir, boshiga soyavoni uzun, qizil shapka kiygan malla yigit — O'tbosar tushdi.

U yaqin yillarga qadar matlubot jamiyatida ekspeditor bo'lib ishlar, otasi shu jamiyatning eski raisi edi; yoshligidan katta yeb, yaxshi kiyinib hamda uncha-muncha yigitga gap bermay o'sgan o'g'lon favqulodda Afg'onistonga, ya'ni, urushga ketgan va uch yil deganda kapitan bo'lib qaytgan, keyin aroqqa berilgan otasi bilan aytishib qolib mehmonxonada istiqomat qilgani holda harbiy komissariatda ishlar edi.

Ota o'ldi-yu uyiga yig'lab bordi va beixtiyor uning, balki o'zining eski kasbini tutdi.

Tabiiy, uning boyvachcha, badavlat ekanini hamma bilar va tumandagi eng katta oshxonani sotib olganida hech kim hayron qolmagan edi.

— Kelinglar, mehmonlar! — deb hayqirdi u o'ziga to'q, mamnun kishining ovozi bilan. Va tinimsiz so'zlab, so'rashib kela boshladi: — O'-o', Abulqosim tantiboy, qalaysan, uka? Bilib qo'y, baribir seni ishga olaman. Mansur akaga mundayroq shopir ham bo'laveradi... Eshquvvat, ko'rishdingmi bu bilan? Yarashinglar endi. Baribir bir-biringni yengolmaysan. Sizlar emas, aroq aybdor... E, Ibn Xattabich? Tushmang, o'tiravering. Baribir qaytarib yuboraman sizni. Konkurentga toqatim yo'q: o'zimiz ham aroq sotishni bilamiz... Qani, Shoto'ra domla, xush kepsiz. Shu yoqangizni yo sotib olaman, yo tortib olaman. Keyin muzeyimga qo'yaman. Mana shunday qorako'l yoqali paltolar kiyishardi... O', texnikumning boshqoniga salomlar. Siz ham chiqar ekansiz-da, a? Durust, chopon ham yarashipti.

Bu gaplar davomida kuzovdagilar birin-ketin yerga tushishgan edi.

— Omin! — dedi birdan musiqa muallimi hovuchini ochib. — Ishingizga qut-baraka bersin. Bekorchilar siz tufayli ishli bo'lib qolsin!

— Rahmat, aka, — dedi O'tbosar ham fotiha o'qib.— Yaxshi duo berdingiz. Men buni qadrlayman.

— Qadrlasangiz, qani, siz ham bir duo bering, — dedi muallim. — Bi-ir tomosha qilib, gullar terib kakliklaringizni sayrashini eshitib ketaylik.

— Marhamat... O'-o', kaklikning sayrashini dedingizmi? — Uning manglayi tirishib va g'ijinib davom etdi: — Biz ham sizga qo'shilib eshitar ekanmiz-da?

— Ey, O'tbosar uka, eshitilmayapti-ya lekin? — dedi Mansur beixtiyor shivirlab.

— Uning sababini siz ham bilarsiz? — istehzoli jilmaydi fermer. Va Eshquvvat:

— Kuzovda kaklik bor, — dedi. — Ov kakligi... Eshitganman. Juda olag'on emish.

— O‘-o‘, shundaymi? — dedi O‘tbosar. — Marhamat, marhamat, Mansur aka.

— Biz ovga kelmadik, — dedi Mansur g‘ashlanib.— Shunchaki tomoshalab keldik... Shu Qiziljar bo‘yida bir-ikki soat o‘tirsak. To‘rtta kabob qib yesak. Kaklik... Bu kaklik shunchaki... qancha kaklik omon qolganini sal-pal bilish uchun kerak. — U birdan asablanib ketdi. — Bu yerda g‘arazli o‘y yo‘q! Shunchaki... Axir, qishda qirildi-ku? Balki o‘zingiz ham...

— Nima, ovlading demoqchimisiz?

— Balki.

O‘tbosar labini qimtib siniq iljaydi.

— Tushunaman... Shunaqa. — So‘ng birdan Eshquvvatga buyurdi: — Ko‘tar buni, polvon! Och yo‘lni!.. Biz Qiziljarning ustida bo‘lamiz. Ko‘rasan... Tushunarlimi? Traktirni qo‘y. Mataseklni haydab jo‘na! Men bular bilan ketdim!

Yerdagilar beixtiyor kabinaga, kuzovga chiqa boshladi. Olatayoq ko‘tarilishi zamon moshinani g‘ing‘illatib turgan Abulqosim shaxt bilan haydab ketdi.

11

Qiziljar — etakdagi loyqa suvli soyning yalang cho‘qqiga tutashgan yerida, chaproqda bo‘lib, u g‘oyat buzuq, sero‘yiq joy; bu yerda alohida bir zilzila bo‘lgandek sohillardan surilmalar ko‘p tushgan, qanchalab archalarning ildizi ochilib yotar va bir talayi uy baravari palaxsalarning tagida qolganki, uch-uchlari mo‘ralab chiqib turardi. Jarlik tubida kamsuvli buloqlar ham bor va ularni atrofida g‘uj-g‘uj o‘sgan qiyoqlarga qarab bilish mumkin edi.

Jarlikning tuprog‘i qizil, shu jihati bilan ham u atrofdan farqlanib turadi.

Mashina o‘rlab borgan qirda archalar past bo‘yli esa-da, tig‘iz va o‘ta yashil ediki, lof bo‘lsayam ko‘ngilga bir gap kelardi: shu archalarning ostidan bir yashil nur taralib tursa kerak-ov.

Bu jarlikning Mansurga yoqishiga yana bir sabab— shu yerda tubjoy tulkilarning tez-tez uchrashi va terisining-da juda qizg‘ish ekani edi. Hamda o‘ta shaytonligi ediki, uning nazdida, bu yerning tulkisini otib olish mumkin emasdek edi: shundoq nosvoy

otib o'tiribsan-u, uch-to'rt qadam naridagi tosh yo buta biqinidan tulkivoyning mo'ralab, kiprik qoqmay turganini ko'rmaysan. Ko'rganingdan keyin hayron qolasan-u, yoningda miltiq bo'lsa, unga qo'ling asta uzaladi. Ammo miltiqni olishing hamon hayvon turgan yeridan g'oyib bo'lib qoladi.

Mashinadan tapir-tupir tushisharkan, Mansur qafasini ko'rpachaga o'rab ko'tarib, Abulqosimga uzatdi.

— Ochma ustini... Bir joyga qo'ygandan keyin sayrashini ko'rasan.

— Bilaman.

Mansur ham pastga tushgach:

— Fermer janoblari, endi ruxsat etasiz-da, Qoraqoshni bir sayratamiz, — dedi.

— Xohlagan butangizning tagiga qo'ying... Anavi yolg'iz archa tuzuk, atrofga ko'rinib turibdi, — dedi O'tbosar. — Biz mana bu ayri archaning tagida o'tiramiz... E, qayerda o'tirishning farqi yo'q-ku!

— Ha, ha, — dedi Mansur. — Yovvoyilarning sayrashini eshitsak bo'ldi-da.

— Ana, ko'kalamda o'tiramiz, — taklif qildi Shoto'ra muallim. — Kursitoshlari ham bor ekan. He, kul ham bor-ku? Mansur, o'tirganmisan deyman shu yerda?

— E aka, bizning makkamiz mana shu yer edi, — deya endi qafasni halqasidan ko'tarib, O'tbosar ko'rsatgan yosh archa tomon yo'naldi Mansur. — Tavba! O'tbosar, aytgan archangni qara! O'lay agar, o'zim ham qachon kelsam, Xoyinbekani shuning ostiga qo'yardim. Qanday bilding-a? Qoyilman. — Ikki qadam bosgach, taqqa to'xtadi. — Birodarlar, ont ichamanki, shu jonivor jo'jaligida shu yerda tuzoqqa tushirilgan. Kechagiday esimda... — U chindan ham hayratlanib hamrohlariga bir-bir qaradi.

Uning bu qadar hayratga tushishining boisi shu ediki, uni o'zidan ham yashirmoqchi bo'lar, shuning uchun eslashni ham istamas, go'yo sharoitga qarab tavakkal ish tutadigandek edi.

— Shoshma, shuningni bir tomosha qilay, — deya yirik-yirik qadam tashlab yaqinlashdi musiqa muallimi. Va ko'rpasini ko'tardi. — Voy, gijinglagan toyga o'xshaydi-ya! Uning tipirchila-

shini ko'ringlar... He, ablah, Xoyin... — Mansurga tikildi. — Nominiyam topib qo'ygansan. Xoyinbeka. — Keyin qaddini tiklab, xayolchan kulimsiradi. — Shu o'zining xoinligini bilarmikan-a? Sotqinligini?.. Sayrab, yovvoyi sheriklarini tuzoqqa tushirib...

— Bilmaydi, — deya O'tbosar ham qafas qoshiga keldi. — Bultur melkachka bilan ikkita kaklikni otdim. Birini urdim, tipirchilab qoldi. Ikkinchisi unga sal qarab turdi-da, tag'in donlayverdi. "O'l sen ham!" deb uniyam otdim... — Keyin hiringlab kulib, jamoaga boqdi. — Bruler tovuqlari yarador bo'lgan, biron joyi qonagan sheriklarini cho'qib yeb qo'yishadi-a?

— Ha, ularning organizmiga qandaydir modda yetishmas ekan, — dedi direktor muovini. — O'sha sheriklarining qoni bilan etidan olarmish o'sha moddani.

— He, ularni gapirmanglar, — deb chekindi muallim. — Na otasining tayini bor, na onasining. Kishtniyam bilmaydi, pishtniyam... Inkubatordan chiqqan manqurt-da! Holbuki, holbuki, jo'ralar, masalan, ochib chiqishiga yaqin qolgan jo'jalar tuxumning ichida turib, qirg'iydan qo'rqadi. Amerikaliklar aniqlagan: qirg'iy qiyqillasa, jo'ja pisib qolar ekan. Chunki, onasining haligiday tovushidan xavfni sezarkan.

— Lekin men bir narsani kuzatganmanki, — deya qo'llarini beliga tirab so'zladi O'tbosar. — Qayerda bir gala kaklik qo'nib turgan bo'lsa-yu, noxos ustiga borib qolsangiz, uchgani shunday qanot qoqadiki, cho'chib tushasiz. Nimaga?

— Birinchidan, sizni qo'rqitish uchun, — deb jilmaydi Abulqosim. — Yo'q, aka... Birinchidan, o'zi qo'rqib ketgani uchun. Ikkinchidan, sheriklarini ogohlantirish uchun.

— Bilar ekansan, — dedi O'tbosar. — Demak, kaklik qirg'inlarida bo'lgansan?

— Siz ham bo'lgansiz.

— O'rtoqlar, birodarlar! — deb qoldi Mansur hovliqib. — Gapimiz nima to'g'rida edi? Qushlar rahm-shafqatni biladimiyo'qmi? Shu haqda edi-ya?

— Bilmaydi, — dedi O'tbosar. — Ular tabiiy harakat qiladilar, xolos. Bu harakatda yashash uchun kurash ham bor, boshqa narsalar ham...

— Yo'q, biladi, — deb ta'kidladi Mansur. — Men safarda yurganimda bir qirg'iy bolasini boqqanmiz. O'sha kunlar ona qirg'iy o'sha joyning ustida ko'p aylanardi... Bu nimani ko'rsatadi, fermer janoblari?— Keyin yayrab kuldi. — O'sha qirg'iy tovush chiqarsa, qaysi tovuq jo'jalarini qanoti ostiga olmaydi? Hozirgina Shoto'ra akayam aytdilar-ku, tuxum ichida turib ham ko'p narsani sezarkan jo'jalar...

— Siz uloqib ketdingiz, — dedi O'tbosar. — Ota-ona o'rtasidagi munosabat — boshqa masala. Buyam o'sha— tabiiy yashash, yashash uchun kurash, xo'sh, zuryod qoldirish qonuniga amal qiladi... — Keyin birdan g'ijinib so'radi: — Agar kakliklar rahm-shafqatni, deylik, ongli ravishda bilsalar, nega bu Xoyinbekangiz shafqatsizlik qiladi? Xo'sh, sheriklarini pichoqqa tutib berib?

— Men ana shuni aytmoqchi edim, — dedi Mansur shodlanib. — To'g'rirog'i, shuni tushungan edim... Mana, qaranglar-da, mana shu kaklik qafasda zerikadi. Uyda, ayniqsa... Xo'sh, dalaga chiqarganingizdan keyin to'lib-toshib sayrab ketadi. Nima uchun? Birinchidan, to'liqib ketgani uchun sayraydi. Balki shu asnoda dodlar, balki quvonar. Ishqilib...

— Xo'sh? Maqsadni ayting, sayrashi kerakligi uchun sayraydimi?

— Balli! Otangizga rahmat... Endi deng, azizlarim, — Mansur nihoyat qafasni o'tga qo'ydi. — Biz, o'zimiz, ya'ni insonlar bu jonivorning ana shu jihatini bilib olib, o'z maqsadimiz yo'lida foydalanamiz-da.

— Him, o'sibsiz, aka, — deb qo'ydi O'tbosar. Va kuldi. — Unday bo'lsa, bu sho'rlikka nima uchun Xoyinbeka deb ot qo'ydingiz?

Boshqalar qatori Mansur ham kulib yubordi. So'ngra:

— Xom sut emgan bandamiz-da, — dedi qiyshayib. — O'z qarichimiz bilan o'lchaymiz... Tulkiniyam ayyor deymiz. Holbuki, uyam, siz aytganday, yashash uchun kurashadi.

— Tushunarli! — O'tbosar o'ng qo'lini keskin ko'tardi. — Siz buni oborib qo'ying joyiga. Ayting, tuzoqqa tushgan damlarini eslab, bir faryod qilsin. Bizlar... — U qurdoshlarga qarab, kursitosh-

lar tomonga surpga o'ralgan karsonni ko'tarib borayotgan qorovul cholga e'tibor qildi. — Tirikchilikmi u? Go'sht marinavat qilinganmi? Qilingan bo'lmasa, bizda tayyori bor, — deya makkorona kuldi. — Faqat soqqasini to'laysizlar.

— Tovuq semirsa, keti torayar emish, — dedi muallim. — Obro'yingiz ketadi. Xudoga shukr, ko'rgan odamlarning farzandisiz... Bu gaplardan ko'ra, bizni, masalan, yaxshilab siylang, mehmon qiling. Biz sizga duo beraylik. Boylik olma, duo ol deydilar... Ana shundan keyin ishingiz yanayam rivoj topib ketadi... Eng muhimi, eshitib oling: haqiqiy ishbilarmon, xo'o'sh, milliy biznesmen, el-xalqiniyam manfaatini ko'zlaydigan savdogar chiqipti, deb mashhur bo'lasiz!

O'tbosar miyig'ida jilmaydi.

— Men tushunaman. Hazillashdim. — Keyin Mansurga baqirib yubordi: — Oborib qo'ying endi bu ayg'oqchini! Eshitaylik munday... — So'ng bug'lanibmi, siyrak tuman bosibmi mudrab turgan tog'larga qaradi va birdan siniqib: — Kaklik bo'lmasa bir pul ekan bu tabiat! — dedi.

— Kaklik kamayib qolgan bo'lsa, uni ko'paytirishga to'g'ri keladi, — deb nihoyat gapga aralashdi direktor o'rinbosari. — Ko'p mamlakatlarda shunday qilishyapti: masalan, tuyaqush-u tustovuqlarniyam ko'paytirishyapti-ku!

Mansur o'ychan tortib, qafasni ko'tardi va butaga yo'nalarkan, Qoraqosh taqir taxta ustida gir aylanib, qisqa-qisqa sayray boshladi. Mansur jadalladi.

— Boshlandi-i!

12

U pakar archa ostiga — ko'rpa bo'lib to'kilgan ninabarglar ustiga qafasini qo'yib, atrofini shox-shabba bilan o'ray boshlashi zamonoq Qoraqosh murvati buralgan mikrofondek chunonam kakillay ketdiki, Mansur shoshib qoldi: go'yo gala-gala kakliklar uchib kelib, o'ziga uriladigandek.

Keyin buta tagidan pasayib chiqib, anavilarning qoshiga yo'naldi. Ular ham o'tirgan joylaridan bu yoqqa hayrat va hayajon ila qarab turishardi.

— O‘, qoyil, — dedi O‘tbosar va o‘rnidan dik etib turdi. — O‘rtoqlar, bunday qilaylik. Ana, archalar... Har bittamiz bittasining ostiga kirib yotaylik. Xudo haqqi, men shuni istayman! Bu nima o‘tirish? Maqsad— kakliklarning uchib kelishini kuzatish-ku, a, Mansur aka?

Mansur mamnuniyat bilan ma’qulladi.

— Albatta shunday qilish kerak.

Abulqosim:

— Men anavini tanladim, — deya o‘rkach biqinida qiyshayib o‘sgan pakana archaga yo‘l olishi bilan jamoaga ma’lum bo‘ldiki, uning tanlagan joyi — naq pistirmaning o‘zi: u yerdan Qoraqosh yashirilgan archa tugul, nariyoq, ya’ni, quyidagi Qiziljar ham burchak-burchagigacha baralla ko‘rinib turadi, demak, o‘yiqdagi qoyatoshlarga chiqib sayray boshlagan xo‘roz kakliklarni ham bemalol ko‘rish mumkin.

Alqissa, har kim bir archani tanlab, uning tagiga pisinib borisharkan, rezina etigi qo‘njigacha loyga belangan Eshquvvat ham tubandan bir kaltakka suyana-suyana chiqib keldi. Mansur uning bo‘ynida sollanib turgan durbinni ko‘rdi-yu:

— Ukajon, shuningni ber, — deb oldiga bordi.

Eshquvvat durbinni berib, yelkasidagi osmaxaltani toshkursiga qo‘ydi.

Mansur hansirab:

— Mana, durbin. Mana, uka... — deya yurt egasining ortidan archa tagiga kirdi. Va jarlikka qaraboq uning kiftiga qoqdi. — Yaxshi. Joyiniyam topibsiz.

O‘tbosar olisko‘rgichni olib, ko‘ziga tutdi.

— Sizlayapsizmi?

— Ha endi, hurmat qilamiz-da... — Uning yoniga cho‘kkalab va o‘ychan tortib davom etdi: — Ishbilarmon, korchalonlar kam deysizmi — chiqyapti. Hamma joyda shunday... Lekin, — boz uning kiftini silab qo‘ydi,— sandaqalarni bilmadim, nechta ekan... Qara, uje territoriyangni qo‘riqlayapsan... Him, ammo-lekin Eshquvvat bizni to‘xtatganda, sal malol kelgandi. Hozir o‘ylab qarasam, sizlar haqsizlar... — So‘ng: — Axir, axir, — deya miyasining qat-qatidan qiynalib chiqqan fikrni ayta boshladi: —

Bilamiz-ku o'zimiz: ilgari hamma yer — davlatniki der edik. To'g'rirog'i, Rusiyaniki edi... Keyin ham mulk davlatniki bo'lib qoldi. Biroz vaqt... So'ngra, mana, kishilarga bo'lib berila boshlandi... Hoy, O'tbosar, — u birdan hayajonlanib ketdi: — Tarixdan o'zing ham bilasanki...

O'tbosar durbinni yotqizib qo'ydi-da, yonidan "Malboro" sigareti chiqarib:

— Cheking. Gapiring, gapiring, — dedi. — Alahsimang...

— Shu-da, — dedi Mansur shunday boyvachcha fermerning diqqatini o'ziga og'dirgani uchun ichdan shodlanib, hamda uyalib.

— Tushundim. — O'tbosar yana durbinni olib, ko'ziga tutdi va quyiga qaratdi.

Mansur yana muddaosi haqida o'ylanib qolib:

— Ammo-lekin shu mulkni, yerni, mana, tog'-toshlar, o'rmonlarni unga qayishadigan kishilarga...

— Jim! — dedi O'tbosar. — Bittasi chiqdi. Chil emas-ov... — Darhol durbinni Mansurga berdi. — Yorilgan qoyaga qarang. Chaproqda. — So'ng xo'rsinib yubordi.

Mansur durbindan birinchi bor qarashi edi: ulkan, yalang cho'qqi ko'rindi. Keyin kattakon archa va birdagina ayri qoya labida qanotlarini silkitayotgan yerrang qushga ko'zi tushdi. Tikildi: u hurpayib olib, o'zini oftobga toblay boshladi.

— Chil-ku, — dedi. — Ukaboy, u chil. Menimcha, kurk bo'lgan. — Durbinni O'tbosarga uzatdi-yu, uning malla qoshlari azobli chimirilganini ko'rib, aytganiga pushaymon yedi: kaklik desayam bo'lardi... — Menimcha,— deb chaynaldi. — Lekin durbinni birinchi marta ushlashim. Armiyada ham...

Shunda yonlaridagi archa panasini makon tutgan Abulqosim:

— Bitta chil chiqdi, — dedi.

— Kaklik! — alam bilan dedi O'tbosar durbinni yana ko'ziga tutib.

— Kaklik bo'lsa, sayramas xilidan ekan-da, — to'ng'illadi shofyor.

O'tbosar durbinni ko'zidan oldi.

— Rost. Chil ekan... — So'ng ne bir ilinj ila dedi: — Chilni dala kakligi deyishadimi?

— Ha, ha, — darrov tasdiqladi Mansur. — Kaklikning ukasi-da u! — So'ngra o'zining yuragi siqilib ketdi va dunyo ko'ziga tor ko'rinib qoldi: "Kaklik yo'q-ku? Nimaga sayramayapti? — Keyin qishki piyoda ov esiga tushib, ko'ngli buzildi. — Yeb bitirdik. Quritdik o'zimiz. Yo'q, biz emas...".

U beixtiyor yuragi ustiga kaftini bosgandi, undan ko'z uzmay, xo'mraygancha sigaret tutatayotgan O'tbosar:

— Ha? — dedi. — Pushaymon qilayapsizmi... ovlagan kakliklaringizga? — So'ng baqirib yubordi: — Eshquvva-at!

— Labbay, aka!

— Miltiqniyam obkeldingmi?

— Yo'q. Opkelaymi?

— Ha.

— Nima qilasiz? — qandaydir xavfsirab so'radi Mansur. — O'sha chilni otasizmi?

— Yo'q, men anavi shallaqi kakligingizni otaman,— dedi fermer va joyidan irg'ib turib, archa shoxlarini nari-beri surgancha bu yoqqa chiqdi.

Mansur ham uning ortidan intildi-yu, tag'in durbinni ko'ziga tutib, jarlikka qaray boshladi: u ich-ichidan bitta kaklik ko'rishni va baqirib ma'lum qilishni istar, shuning uchun: "E, Xudojon, — deb shivirlar edi. — Nahotki, a?

Ko'rsat bittasini... Axir butunlay qirilib ketgan bo'lishi mumkin emas! Bu — tog'... Albatta bor. Hozir chiqadi...". Shu payt uninggina emas, balki barchaning ko'ngliga hayajon, zavq, surur va allaqanday vahima solib, bular sira kutmagan tarafdan, ya'ni, chapdagi Ichaksoy yoqdan churr-chuvv etgan qadrdon-tanish tovush eshitilib, naq tepalariga yetganda pasayishdi bir juft kaklik. Ammo parokanda bo'lib, pisinishni unutgan to'pdan kimnidir ko'rishdimi — yerga qo'ndim deganda, qiyalab jarlikka quyilib ketishdi. Ana endi Qoraqoshning sayrashini ko'ring!

Pisinib o'tirganlar ham ixtiyorsiz bir tarzda ishshayishib va hovliqishib, xoli yerga chiqishdi.

— Tabriklayman, fermer bobo, — dedi Abulqosim. — Bor ekan. Mulkingiz bo'shab qolmagan.

— Uf-f, — deya kursitoshga o'tirdi Shoto'ra muallim va qandaydir cho'kkan ko'zlarida nurli bir iztirob ila unga-bunga boqib: — O'lay agar, yomon qo'rqqan edim, — dedi-da, keyin dabdurustdan munglanib qoldi. — He, qirilib ketaylik biz... Odampodam emasmiz... Nimaga munday, a?

— Eshquv-vaat! — shunda chopib-enib ketayotgan yigitning orqasidan chaqirdi O'tbosar. — Qayt!

Mansur yolg'ondakam shodumonlik ila:

— Rahmat-e, — dedi. — Boy bobosi, ana, Xoyinbekaning sayrashlari bekor ketmadi.

— Baribir shuningizni yeyman, — dedi O'tbosar.— Nimagaki, bu baribir bir kuni go'sht bo'ladi yo harom o'ladi...

— Uning-ku bo'ladigani shu, — dedi musiqa muallimi og'ir xayollarini esdan chiqargandek, azalgi quv-sho'xchan ovozda. Keyin birdan hayqirib yubordi: — Kelinglar, biroz o'tiraylik! Ho'v, starik Xattabich, qani, sizni sharafli mehnat kutyapti! Shu yerda o'tirib ham tomosha qilaveramiz.

Davradan chetda qandaydir giyohni barmoqlari orasida ezib hidlayotgan Qorovul chol:

— Zira. Zira ekan, — deya jildi. — O'tbosar, zirangiz ko'p ekan. Ehtiyot bo'ling, xomligida o'rib ketishadi... Keyingi vaqtlarda jo'gilar ham bunga o'ch bo'lib qolishgan. Qayergaki qo'sh tashlasa, bilingki, o'sha yerda zira bor.

— Eshitdingmi, Quvvat? — deb qo'ydi O'tbosar hansirab turgan yigitga va o'sha tasmali xaltaning zamogini chizillatib ochib qaradi-da, ichidagilarni birin-ketin chiqarib, kursitoshlardan biriga qo'ya boshladi: non, olma, aroq...

Chol ham karsonni ochib qo'ydi-da:

— Shopir o'g'lim, to'rtta cho'pchak teraylik, — dedi. — Archaning cho'g'i soz bo'ladi-da.

Shu payt Qiziljar ichida ovozi o'ta yo'g'on, pircha kaklik voqvoqlab sayradi-yu, boyadan beri ko'ksini paypaslab turgan Mansur taltayib ketib:

— Men makiyonni mana shu xo'rozga olib kelgan edim, — dedi. Degach, bu gapning zamirida pishgan o'y-qaror yotsa-da, bunchalik tez aytvorganidan hayron qolib hamda endi o'z so'zida

turadigan yigit ekanini darhol isbotlaydigan kabi Qoraqosh sayrayotgan butaga yo'rta ketdi.

— Ho'v, — dedi O'tbosar parishon tortib. — Siz chini bilan qo'yvorasizmi?

— Albatta! — Orqasiga bir qarab qo'ydi Mansur va bu ishni tezlikda amalga oshirmasa, aynib qoladigandek battar jadalladi. Buta ostiga enkayib kirdi. Qafasning taxtaga bog'liq joylarini timirskilab tugunni izlarkan, barmoqlari titrar, tomog'idan hiq-hiq etgan tovush chiqardi.

Nihoyat, qafasini ko'tarib va "kisht-kisht"lab kaklikni yerga tushirdi-da, uni ko'rishga ortiq toqati qolmagandek shoshib burildi. Ko'nglining tag-tagida Qoraqoshning bu boshpanadan chiqmasligiga umid uyg'ongani holda, uning qafasini ko'tarib, bu yoqqa chiqdi.

Ba'zilari kursitoshlarda o'tirgan, ayrimlar tik turgan holda o'ziga qarab turishgan ekan.

— Bo'ldi, — deb pichirladi-yu bo'lmadi: o'zicha kuldi, keyin qafasni tashlavorib, qo'llarini yozdi va: — Yo'-o'q! Obosh bo'ldi! — dedi. — Xursandmisizlar? A?— Endi qandaydir alamini qurdoshlardan oladigan singari ikki qadam bosdi. — Ho'v, Shoto'ra aka, ko'rdingizmi, ana, uyam ozod bo'ldi... — So'ngra bu sirli so'z og'ziga ta'm berib, takrorladi: — Ozodlikka chiqdi! O'zimizga o'xshab...

Keyin Mansurning yig'lagisi keldi-yu churq-churq etgancha ortidan ergashib kelgan kaklikka qarab qotib qoldi. U boshini bemalol ko'tarib, o'ziga boqdi. So'ngra qattiq silkinib, qoqindi va oyoqlarini beo'xshov, kerib-kerib bosib, yerga tumshug'ini urgan bo'ldi. O'zicha donladi.

13

Qo'shxonadagi tomoshatalablar ham qushga sumrayib qolishgan, uning har bir xatti-harakatini diqqat bilan kuzatishar va aksari o'zicha bosh qimirlatib ishshayib qo'yar, ayni chog'da parrandaning hoziroq qanot silkitib uchib ketishidan qo'rquv hissi ham yo'q emas edi.

Nega? Undan ayrilib qolishdan achinishmi, yo undan keyingi xavotirlanishmi, balki chin bir xudbinlik sabab edi bu holga...

— Yo qudratingdan! Tovuqdan farqi yo'g'-a, — dedi negadir cho'nqayib olib, tergan archa butoqlariga kaftini bosib turgan Qorovul chol.

— Bu, bu baribir hech qayoqqa ketmaydi, — dedi Abulqosim sezilarli hayajon bilan. — Ilgariyam qafasdan ko'p chiqqan. Hovlida aylanib yurib, yana qaytib kirgan.

— Bu safar ketadi, — deb pishilladi Mansur birdan. — Ketadi! — dedi keyin zo'riqib va kaklikni kisht-kishtlab hayday boshladi. — Jo'na! Makoningga kelding-ku, yaramas! Kisht... Vey, qanaqa surbetsan! Bu yerda odamlar o'tiripti. Sening dushmanlaring... Ana, jarlikka uch!

U shu alpozda qo'llarini sermab va chapak chalib kaklikni quvlar, demak, haydar ekan, u dikkillab chopar, aylanar — go'yo egasi bilan o'ynar edi.

— Hoy, tek turing, Mansur aka, — deb qoldi O'tbosar. — Sal tomosha qilaylik.

— Ana, seni kushandang tomosha qilaylik deyapti. Qayda! So'yib yemoqchi!

— Obbo! Mansur aka! — Endi baqirib yubordi O'tbosar. — Ketsa, o'zi ketadi!

— Ketadi. Ketkizaman! Bas!.. Shuncha malomatga qoldirdi... He, senday Qoraqoshni qara-yu... — So'ngra birdan to'xtab, baralla yig'lab yubordi-da, shart qayrilib, bularning yoniga keldi. Eshquvvat keltirgan yemishlar qoshidagi toshga tappa o'tirib olib, etaklarga tikila boshladi.

Shoto'ra o'tirgan toshini unga yaqinroq surib, tizzasiga qo'l qo'ydi.

— Xafa bo'lma, uka. O'zi, shunday qilishingni sezar edim... Rahmat. Niyating yaxshi. Him, hammaga saboq. — Keyin yonveridagilarga jahl bilan tikilib-tikilib qaradi-da, ko'zi O'tbosarga qadalib: — Ana, permer bobo! — dedi. — Siz bo'lsangiz, bizni ovga keldi deb o'yladingiz... Sen ham Eshquvvat! — Keyin direktor o'rinbosariga boqdi. — Ho'v, rahbar, sen nega gapirmaysan? Bu sinoning bahosini ber endi!

— Aka, xalaqit bermang, — dedi kelganidan beri deyarli gap qotmagan va buta ostiga kirgandagina sal cho'nqaygan Olimboy muovin.

— Uni qarang. Tabiiy hayotdagi harakatlarini kuzatish kerak, axir. Masalan, Anderson xonim yovvoyi tabiat bag'rida xonaki yirtqichlarni o'rgataman deb... o'rganishga butun hayotini sarflagan ekan. Bu, masalan, yigirmanchi asrning...

— Shef, — deb qoldi shunda etiklarini bir-biriga ishqab loyini tushirgancha qushni kuzatayotgan Eshquvvat hali o'zi chiqib kelgan enishga tuyqus boqib.

Bu oddiygina so'zning aytilishidagi xavf sasi barchani u qaragan tomonga qaratdi va Mansur ham asta boshini burarkan, ellik qadamlar pastda chaman bo'lib ochilgan na'matak panasida pisinib turgan qip-qizil tulkini ko'rdi. Ko'rdi-yu sapchib turdi.

— Yemoqchi!

— Rost, — dedi Shoto'ra. — Ovozini eshitib kelgan... — U ham asta qo'zg'alarkan, tulki g'oyib bo'ldi.

Eshquvvat uni quvadigandek tayog'ini ko'tarib jilgandi, O'tbosar to'xtatdi.

— Nima qilmoqchisan?

— Shu, u yomon... — chaynaldi barvasta yigit xo'mrayib. — Kecha yo'qolib qolgan jo'jaxo'rozniyam shu yegan deyman... Mazaxo'rak bo'lib qoladi.

O'tbosar bosh irg'ab, sigaret tutatdi.

— Hu, archa ostida durbin qopti, opke. — Keyin o'ychan tortib so'zlandi: — Tulki ko'payib ketipti. Bari och. Tovushqon ham. Kakliklar pastlab ketgan...

Keyin hammaning diqqati makiyonga og'di. U qorovul cholning karsoni yoniga kelgan, sixbop jazlarga boshini goh u yonga, goh bu yonga burib qarar edi. Shoto'ra muallim nondan sindirib, ushog'idan tashladi. Qalamqosh sal tislandi-yu uvoqni cho'qidi. Tumshug'iga olib, chetga otdi.

— Bunga nima berarding, Mansur? — so'radi muallim. — Nonni pisand qilmayapti.

Mansur bir muddatdan keyin:

— No‘xat, — dedi. — Qaynatib, ezib... Tuxumning sarig‘ini ushatib... — deya xo‘rsinib yubordi. — Endi toshni yeysan, — dedi qushga. Tag‘in do‘q qildi: — Ye! Topib ye endi... O‘rtoqlar, bu nimani yeydi endi?

— Aytganingizdek, toshni yeydi, — dedi papirosning tamakisini ezib kaftiga to‘kayotgan Abulqosim.— Yemasa, anavi sarivoyga yem bo‘ladi.

— Eshitdingmi? Ochdan o‘lasan, — zug‘um qildi Mansur kaklikka. Va hiringlab kuldi. — Endi senga issiq uy qani? Ho‘o‘... Boshpanang ham yo‘q. — Keyin jinninamo ishshayib, tepasidagilarga qarab oldi. — Haqiqatan ham, turmadan chiqqan mahbusga o‘xshaydi, a? Ozod bo‘lgan. Endi nonini topib yeyishi kerak... — Yana qushga boqdi. — Topib yeyalasanmi?

— Bu, qo‘yib yuborishdan burun sal o‘rgatish kerak edi, — deb mulohaza bildirdi muallim. — Ozod yashashga... — So‘ng xayollanib siniq jilmaydi. — Axir, o‘zimizdan qiyos-da: mana, ozodlikka erishdik...

— Men tushundim fikringizni, — dedi O‘tbosar birdan. — Siz judayam yaxshi aytyapsiz, aka... — Unga tan berganini bosh irg‘ashi bilan ham tasdiqladi. So‘ng xo‘rsinib yubordi. — Lekin bizlar odamlarmiz. Har holda, aqlimiz bor... Bundayam aql bor-u, ammo odamzod yashovchan...

— Da, — dedi shunda direktor o‘rinbosari. — Shuning uchun ham odamzod aqlli, tadbirliki, uni qushlar, hayvonlar emas, u hayvonot-u parranda zotini qo‘lga o‘rgata oladi. Him, o‘z izmiga soladi. Sirk arenalariga chiqaradi.

— O‘, hammalaring faylasup ekansizlar, — dedi Abulqosim. — To‘g‘ri gapirayapsizlar-e, Xudo ursin... Nima deding, Eshquvvat?

— Akalar bilishadi-da, — dedi u va paytdan foydalanib durbinni shefiga berdi.

14

Mansur beixtiyor haligi tulki ko‘ringan na’matak tagiga qaradi-yu, olapar itini esladi: “O‘shancha bor ekan, uyam kichik, — deya dilidan kechirdi. Keyin birdan hayron bo‘ldi: — Axir, tulki

jonivor ham tabiatga moslashishi kerak-ku? Mana, bahor bo'ldi... Nega uning terisi jilla o'zgarmaydi?"

So'ngra Qiziljarning tulkisi shunday bo'lishi yodiga tushib: "Ha, bu o'troq-a", degach, qurdoshlarning jimib qolganini sezdi, hayratlanib burilgandi, o'zining ham ko'zi — ular hayajon-la qarab qolishgan tomonga, ya'ni, hali Qoraqosh yashirib qo'yilgan butaga tushdi-yu, boyagi beor tulki endi o'sha buta biqinidan mo'ralab turganini ko'rdi. Endi o'rnidan sapchib ketmadi. Balki unga qiziqish ila tikilarkan, Qorovulning yonida chuq-chuqlab yurgan kaklik birdaniga yo'rg'alab qoldi. Tulkiga qarab!

— Hoy, kisht! Qayt! — deb baqirdi O'tbosar va Eshquvvatga: — Joning bormi? — deya uni qo'zg'atib, Mansurga yuzlangan chog'ida tulki bir sakradi-yu Qalamqoshning naq bo'ynidan tishlab oldi. Ammo Qalamqosh shunday vahima bilan chinqirib-qig'illab yubordiki, tulki uni qo'yvordimi yo o'zi qutulib chiqdimi, qarsillatib qanot qoqqancha tepaga ko'tarildi. Keyin negadir bir yoniga mayishib ketdi-yu shu bo'yi Qiziljar tomonga pastlab ketdi. Ochko'z tulki esa shuncha odamning oldidan o'tib, uning orqasidan tushdi.

— Tamom, — deb pichirladi Mansur. Keyin titrab-qaqshab va ma'nosiz iljayib O'tbosarga qaradi. — Obosh bo'ldi, fermer bobo. Go'sht bo'ldi hisob. Armonda qoldingiz... — Fermer bobo dong qotib turardi. Mansur kalovlanib uning yonidan o'tdi-da, jarlik tomonga ikki-uch qadam bosdi. Keyin yuragi og'rib ketganday ko'ksiga qo'l qo'yib, to'xtadi. Keyin boshini ko'tarmay iziga qaytdi.

So'ngra angrayib turgan cholning yonidagi toshkursiga o'tirdi.

— E, bu nima gap? — dedi endi O'tbosar barchaga tegishli qilib. — Oldimizdan olib ketsa... U kaklik o'zi... Tavba!

— Bizning shefni iti deb o'yladi-da, — dedi Abulqosim alamini beparvolik bilan pardalab. — Shunaqa it... uyam. Munday pakana. Dumiyam kesilmagan. O'zi malla.

— A-a, — dedi qariya. — O'sha it deb o'yladimi?

— Ha! — keskin dedi Abulqosim. Keyin Mansurga dashnom berdi: — Shef, atay qildingizmi? Yo shunday bo'lishini bilarmidingiz? Tavba, bu odam sal g'alati bo'p qoldi.

— Menimcha, bu odamga hech narsa bo'lgani yo'q, — dedi musiqa muallimi.

— Ha-ha, yo'q, — dedi Mansur tag'in gangib. Keyin muallimga siniq-dilkash jilmaydi. — Rost, shunday bo'lishi kerak edi... E, yo'q. Men buni bilmas edim, aka. Anig'i, o'ylamagan edim. Ammo Abulqosim rost aytdi, Xoyinbeka itimdan hayiqmas edi. Itim ham buni begonasiramas edi. — Shunda hayrat-hayajon ichra o'tgan qish, bo'ronli tunda, mehmonlarni jo'natgandan keyin... tongda itining yovvoyi kakliklarga ham befarq qaraganini eslab qoldi-yu, uning sababini endi anglagani uchunmi, allaqanday shodlanib kuldi.— Shunday, Shoto'ra aka!

Shoto'ra aftidan nimadir deyish uchun:

— Buni aytish kerak edi-da, — deya tansiq sigaretdan bitta oldi. — Esiz.. — deb pichirladi. Pichirladi-yu, daf'atan ko'zlari yog'du sochib, hammaga qarab chiqdi. — Tushundinglarmi? — Mansur unga boqdi. — O'sha tumanli kundagi gurungimiz esingdami, uka? U bema'ni gap edi. Shunchaki, o'zimizning qilig'imizni, vahshiyligimizni yashirish uchun aytgan edim. Lekin,— u o'ylanib qoldi, — lekin shu gapning tilimga kelganini qara... Xudo haqqi, men o'shanda sidqidildan ovga chiqqandim, manavu shotirlar bilan. Gapim to'g'rimi, kurra? E, kechirasan... O'shanda hammamizning dardimiz ichimizda edi. To'g'rirog'i, o'ylamas, o'ylamagan edik. Barcha harakatlarimiz alamdan, achchiqdan... — U cholning qo'lidagi gugurtni tortib olib, sigaretni tutatdi. — Uzr, chalg'ib ketdim. O'tbosar, kechirasan, sigaretingdan...

O'tbosar uning so'nggi gapiga parvo qilmay:

— Ishonasizlarmi, — dedi ovozini qo'yib. — Men nimagadir xursand bo'ldim hozir... Ont ichishim mumkin! To'g'ri, kaklikdan ayrilib qoldik...

— Uni eslamang endi, — dedi Mansur. — U qurbon bo'ldi... Him, uni biz, ya'ni men qurbon, qildim. Qafasda saqlab...

— Yashang! — deb yubordi shunda Olim muovin. — Mening ko'nglimdayam shu gap endi pishayotgan edi. — So'ng O'tbosarga qaradi. — Siz nima deysiz, aka? Shu tobda, menimcha, Man-

sur akamdan uzr so'rayman, o'zlarini, aytaylik, totalitar rejimga o'xshatdilar... Gaplaridan shunday xulosa chiqadi.

— Ha-ha! — dedi Mansur hovliqib. — Shunday xulosa chiqadi. Lekin men munchalik chuqur ketmagan edim. Umuman, men beixtiyor yashadim, yashayapman... Kechirasizlar, men ham chalg'idim. O'zlaring gapiringlar, Qosim?

— He, nima der edim! — dedi u. — Kaklik ketdi. Fakt shu. Lekin baribir o'lar edi. Don topib yeyolmasdi-ku? Ochdan ham o'lib ketardi. Hozirgi ba'zi ishbilmas, dangasalarga o'xshab, to'g'rirog'i...

— O'lay agar, sen zo'rsan, — dedi Mansur. — Menimcha, eng tushunarli gap shu.

O'tbosar kursitoshga o'tirib, Abulqosimni imladi.

— Cho'k bu yerga... Hoy, Xattabich, bermasning ovqati pishmas ekan. Hozir Eshquvvat kelsin, o'zi qiladi... Qani, Olimboy jo'ra, o'tiring siz ham. Toshni suring... Ana bu boshqa gap! Shoto'ra aka, nimani o'ylayapsiz? Rostini aytsam, sal o'zgarib qopsiz. Bir qop yong'oqdek dali-g'uli edingiz... Ro'zg'or tashvishlari bosib tashladimi?

— Uyam bor, — dedi muallim. — Lekin o'ylab-cho'ylab yashaydigan zamon keldi-da... Vabshe, u yog'ini so'rasangiz, men hayotdan roziman. Him, biz o'zimiz ming yildan buyon ozodlikni orzu qilardik. Shu yo'lda ne-ne aziz odamlarimiz qurbon bo'lib ketishdi. Xalq dushmani deb, tavba!

— Rahmat, — dedi direktor o'rinbosari.

— Senga shunaqa gap bo'lsa... Bu gaplarim qanchalik rost bo'lsa, shunchalik tasalli-ku, kur...

— Davom eting! — O'tbosar shishaning og'zini ocharkan, safarxaltaning ichiga qaradi-da: — E, bor ekan-ku! — deya mushtdek qog'ozga o'ralgan narsani chiqarib ochdi: yaxna et ekan. — Qosim, buni maydala.

— Uchinchidan, — deya o'ylanib qoldi musiqa o'qituvchisi, — yashash kerak. Iloji boricha halol...

— Juda to'g'ri, — deb qo'ydi Mansur. — Keyin mehnat qilish kerak. Ishlagan — tishlaydi degan gap endi ma'qul keladi. Ilgari ishlamagan ham...

Har kim o'z joyiga o'tirib, gulxan ham gurillab— archaning xushbo'y tutuni tarala boshlaganda, Eshquvvat hansirab, yiqilgan bo'lsa kerak — tizzalari ham loy bo'lib, enishdan chiqib keldi. Kaltakka tayanib:

— Ketdi. Halollab ketdi, — dedi. — Keyin bir tulki oldimdan chiqib qoldi. O'shami deb quvsam, og'zida kaklik yo'q. Meni chalg'itdi shekilli.

— Albatta! — dedi O'tbosar. — Ulargayam jon kerak, yashash uchun kurashadi. Makkor... Ammo, ko'rdingmi, sherigini qutqarib yuborish uchun seni chalg'itgan. Ma'lum bo'ldiki, ularning bolalari bor. Menimcha, Xoyinbekani opqochgani — urg'ochisi. Bo'rining ham qanchig'i olg'ir bo'ladi. Bilasizlarmi, qo'raga ko'pincha qanchiq bo'ri oldin kiradi.

Eshquvvat ham bir palaxsa toshni dumalatib kelib, davraga qo'shilgach, O'tbosar unga-da piyolani uzatib:

— Bo'lmasam, men bir tost aytay, — dedi. — Xo'sh, birinchidan, xush kelibsizlar... Endi kelib turasizlar. O'ylashimcha, sho'rlik Qoraqoshning qismati hammamizni yanayam yaqin qildi. Shu bahonada ancha gaplashib, bir-birimizni tushunib oldik... Umuman, hamma yerda shu xil gaplar...

— Shunday, — deb tasdiqladi Shoto'ra.

—Biz ham gaplashdik. Hammasi tabiiy... Endi, o'rtoqlar, gap shundan iboratki, yurtimiz mustaqil bo'libdi ekan, ozod bo'libmiz ekan, shuning qadriga yetaylik... Tushunaman ahvolni! Juda yaxshi bilaman. Ammo-lekin mening gaplarim ham fakt... Nima dedingiz, Olimboy? Rahmat... Xo'sh, aytganimizdek, eng tabiiy yashash yo'liga tushgan ekanmiz, shu yo'lga ham sodiq bo'laylik, ya'ni, buning o'z qonunlariga bo'ysunaylik. Chunki buning qonunlari, mana bu yerimizda!— U bo'sh qo'li bilan ko'kragini nuqib, davom etdi:— Bunga quloq solsak, bas.

— Ha, balli. Hamma narsa o'sha yerda, — dedi Xattabich. — Alloh taolo ko'ngilda, ha.

— Rahmat senga, starik!.. Xo'sh, o'rtoqlar, e'tirof etish kerakki, bu yo'rig'da machitlarimiz, din arboblariyam, umuman, yaxshi ish oborishyapti.

— Matbuot, radio kamchiliklarni tanqid qilyapti,— deb gap qistirdi direktor muovini. — Adabiyot ahli esa jim.

— Keyingi gapingiz to'g'riroq, — dedi O'tbosar. — A, tanqidga kelsak, bulturgi kaklik qirg'inini kim tanqid qildi? Tanqid qiladiganlarning o'zlari ovga chiqishdi-ku?

— Shunday, — dedi Shoto'ra.

— Xo'sh, gapni qisqa qilsam, munday: kelinglar, hechqursa o'zimiz, mana shu torgina davramiz ahli aql bilan, insof bilan qadam bosaylik. Him, sabr-toqat bilan... Nimagaki, bu boy, qadimiy o'lkamiz-mamlakatimiz va shunday qadimiy xalqimiz ming-ming yillardan buyon yashab kelayotgan ekan, hamda ne-ne og'irliklarni yengib kelayotgan ekan, bu tangchilik kunlarniyam ortda qoldiradi-qoldiramiz: buyam — hayotning qonuni.

— Bu tostmi, leksiyami? — dedi Abulqosim.

— Quloq sol. Bo'lajak shefingman, — deya o'ylanib qoldi O'tbosar va boshini dangal ko'tardi. — Mansur aka aytganidek, eng tushunarli gap shulki, shu-u ozodlikka erishdik. Shu saboq bizga hamisha yo'ldosh bo'lsin!

— Ko'p rahmat, — dedi Shoto'ra. — Ammo tulkilar asosan bizneschilardan chiqadi. To'g'ri, kechagacha o'zimiz ham...

— Men tushundim. Shu yo'lga sodiqmiz, chunki boshqa yo'l yo'q.

Mansur ham ichdi-yu, saldan keyin uzr so'rab turdi. Tanish butaning orqasiga o'tib, qayt qildi. Keyin izlanib, jarlik labidagi yoriqdan yumshab qolgan qor olib, betiga surtdi. Keyin toshga o'tirib nos otdi. Havo salqin, ammo peshinga og'ayotgan quyosh nurida Qiziljar tubidagi novvotdek qoyalarning rangi ochilib jozibali ko'rinar, ular orqasidagi archalarning yashil rangi alohida ko'zga tashlanar, qo'ltiqlarda uzun-uzun kesilgan quyruqdek qor yiltirar va qayerdadir kaklik sayrab qo'yardi. Yigitning oyog'i ostidagi o't-o'lan g'oyat tig'iz, unda mitti-mitti chumchuqko'zdan tortib qo'ng'ir qo'zigullar-u oq-sariq boychechaklar ham ochilib yotardi.

— Yaxshi, — deb shivirladi Mansur va boz ko'ngli negadir buzildi, boz yig'lagisi keldi: nega? Kakligi uchunmi? Yo'q, boshqa nimalarningdir ta'siri ham bor ediki, ularni tushunib-anglab

olayotgani va o'zining ko'nglida mavjud qandaydir tabiiy qanoatlariga bu mulohazali "narsalar"ning ajabtovur mos kelayotgani va bundan pinhona quvonayotgani bunga bois edi.

Shuning uchunmikan, endi uning nazarida, bu tog'-u toshlar-u archazorlar, soylar, ko'katlar, keng osmon-u yorqin quyosh nurlari o'zgacha yaqin-u azizlikda ko'rinar, bu holni shunday izohlash ham mumkin edi: uning, huv, qishloq chetidagi yalang qirda uyi bor, qo'rasi bor, bog'chasi bor, biroq bular — bu kengliklar-da uniki, demak, uning mehriga sherik, qaroviga umidvor, demak, bular ham o'zinikidirki, buncha "narsa"ni qalbga sig'dirish uchun endi boshqacharoq bo'lishi, boshqacharoq o'ylashi lozim.

... Nihoyat, qariyaning fotihasi, ya'ni:

— Omin, murod-maqsadlaringga yetinglar. Yurtimiz tinch, boy-badavlat bo'lsin, iloyi. Ozodlikning nashidasini, sizlar aytgandek, surib yuraylik bizlar ham... — deganidan keyin sayohatchilar qo'zg'alishdi.

Gulxanni o'chirib, mashina yoniga tushisharkan, Mansur qafasni O'tbosarga berdi.

— Esdalik.

— O'-o', zo'r gap, — dedi O'tbosar. — Eshquvvat, muni bo'lajak muzeyga qo'yamiz.

Ularning gurungi mashina ustidayam davom etdi: O'tbosar Shoto'ra muallimning machit-pachitga borish-bormasligini so'ragach: "Men ham uchramoqchiman imomga,— dedi. — Shu atrofda to'rtta qabriston bor ekan. Mol oralab yuradi... Atrofini simto'r bilan o'rab qo'ymoqchiman. Eshquvvat surpga yozdirib keldi: "Ey, inson! Keladigan joying shu yer ekan-ku oqibat. Toptama!" Axir, bu qarovsizliklar ham kecha ateist bo'lib yurgan kunlarimizdan meros...".

Shoto'ra muallim vazmin bosh irg'ab, uning qarorini ma'qulladi.

Keyin maktabda milliy sozlar-asboblar yetishmasligi, xarid qilishga kuch yo'qligini hasrat qilgandi, yosh biznesmen uning belidan quchib qo'ydi: "Bo'ladi. Bir-ikkita jo'ralarim bor. Mard yigitlar. "Tuman gazetasini otaliqqa olamiz", deb yurishipti. Ularga aytaman... Aka, hamjihatlik, o'zaro ishonch kerak, xolos".

— Hamjihatlik...

— Mana, bizam hamjihat bo'ldik, — deb Eshquvvatning biqiniga tirsagi bilan turtdi Abulqosim. Eshquvvat esa:

— O'h, — dedi. — Yana bir turt. Bortdan uchib tushasan!

Tengqurlar kulishdi.

— Ey, yurtimiz keng-a! — deb qoldi Olimboy. — Muni qaranglar!.. O'tbosar, shu-u amerikaliklar demakratmiz deydi. Qayerda bir urish chiqsa, hozir-u nozir — chijchijlaydi. Otaday... Ammo o'zlarining shiori bor: "Prejde vsego — Amerika!"

— Ha, — dedi O'tbosar manglayi ostidan tevarakka boqib. — Biz ham shunday bo'lishimiz kerak. Axir, har birimiz ham, avvalo, Mansur akaga o'xshab uyim-joyim deymiz-ku? Bu tabiiy yo'l. Demak, hammamiz uchun O'zbekiston yagona vatan. Prejde vsego... Boshqasi — keyin.

— Yunonlarning Lukian degan yozuvchisi o'tgan. Eramizdan avval. Uning "Vatan sha'niga" degan asari bor. Undagi birinchi jumla shunday ekan: "O'z ona-otasini sevmagan farzand o'zga ota-onalarni hurmat qila bilmaydi. Va o'z vatanini sevmagan kishi o'zgalar vatanini hurmat qila olmaydi!"

— Uh, zo'r aytgan ekan. Yozib olaman. Shior qilib, qoqib qo'yaman, — dedi O'tbosar.

Mansur o'z-o'zicha tamshanar, yutinar, ichki-azobli bir shodlikdan ko'ngli to'liqib-to'lishib ketarkan:

— Ey, birodarlar, — dedi ovozi birdan xira tortib. — O'g'ri o'g'rining qo'liga suv quyar ekan. Ular bir-birini qorong'ida topar ekan. Axir, bizlar to'g'ri odamlarmiz-ku? Nimaga o'shalarday do'st, hamfikr, hamjihat bo'lmasligimiz kerak? Yo'q, kechirasizlar, shunday bo'lyapmiz-u...

— Bu o'zimizga bog'liq, O'tbosar. Ammo, aka, siz ham o'tkir gap qildingiz.

— Bugun o'zi faqat aqlli gaplar aytiladigan kun ekan, — deb to'ng'illadi Abulqosim. — Lekin bir kishidan aqlli gap chiqmadi-da, a, Eshquvvat?

Eshquvvat uni qisib-quchoqlab oldi.

— Otvoraman!

Mashina sekinladi.

Shunda mutlaqo kutilmagan mo'jiza sodir bo'ldi: mashina ortidan uchib, ammo bir soniya ham to'xtamasdan churillab kelayotgan bir kaklik (kakliklar odatda sheriklarini ham xavfdan ogoh etish uchun, ayniqsa, yerdan ko'tarilganda juda qattiq ovoz chiqarishadi va qanotlarini ham behad qattiq qarsillatishadi) mashinadagilarni o'ziga qaratgani holda keldi, keldi, keldi-yu... bortga pasaydi. Qo'ndim deganda surilib ketib, naq qafasga urildi. Uning bo'ynidan qon oqar, u — Qoraqosh edi. Buni qarangki, qush urilganda, qafas dumalab ketib, jonivor yonboshlab qolgan ...qafasiga kirib oldi. Ko'kragiga tuf-tuflayotgan chol asta qo'l uzatib, qafasni tikka qilib qo'ydi. Butun pat-u parlari tik turib ketgan, nafas olishi shundoq bilinayotgan qush bag'rini bortga berib, yotib oldi.

Nihoyat, hamma Mansurga qaradi. Mansurning ko'zlari g'ilq yoshga to'lgan edi. U astagina cho'nqayib, qafasni siladi. Keyin qafasni ko'tarib, kaklikning o'zini silamoqchi bo'luvdi, jonivor bir sapchib, egasining tizzasiga chiqib oldi-da, yana pisib qoldi.

— E, seni qara-yu, qadrdon, — deya Mansur uning boshini siladi. Keyin ro'molchasini chiqarib, qushning bo'ynini artdi. So'ng tulkining tishi kirgan joylarini ochib boqdi. Va: — Mo'jiza, a, birodarlar?— dedi hamrohlarining bu gapni ma'qullashlarini istab.

— Undan ham badtar, — dedi O'tbosar qushdan ko'z olmay. — Ishonasizlarmi, mening hurmatim oshib ketdi bu kaklikka... — Keyin kaklikka tikilgancha soqolini chimdib tortayotgan Qorovulga do'q qildi:

— Bu sir-u sinoga nima deysiz endi, qariya?

— Og'ajon, mening yodimga plugdan chiqqan cho'bir ot tushdi, — dedi chol. — O'rgatish yomon bo'lar ekan-da. Endi xayol qilamanki, bu jonivorni ham erkinlikka o'rganishi qiyin bo'ladi...

— Men nima deb edim?! — deya kuchanib po'pisa qilgandek bo'ldi musiqa muallimi. — Sen o'zing ayt ey turemshik?

— Men tushundim, — dedi Mansur. — Buniyam ozodlikka o'rgatish kerak ekan. Jonivor, mengayam, qafasgayam judayam...

— Ana bu boshqa gap! — dedi Omonboy. — Anderson xonim bir qoplonni erkinlikka o'rgataman deb...

— Bas, jindak gapirmay turaylik, — deb qoldi shunda O'tbosar. — Hey, hayda moshinangni! Fermaga hayda... Muni davolaylik. Keyin o'ylashib ko'ramiz... Mansur aka, shuni baribir ozodlikka o'rgatasiz-a?

— O'rgatmasam har narsa bo'lay! — dedi Mansur.— Shunday kaklikning tor qafasda yashashi uvol... Men aybdorman. Men... Lekin erkinlikka o'rgataman. — Keyin birdan hayajonlanib ketdi. — Endi, endi kelishida tulkiga hazir bo'ladi...

— Bu tabiiy hol, — dedi muallim. — Demak, erkinlikka o'rgatish mumkin. — Keyin hammaga bir-bir qarab chiqdi. — Bizlar axir, odam bo'laturib, arang o'rganyapmiz-u ozodlikka... To'g'rimi, Xattabich? Ey, o'sha cho'bir otingiz keyinchalik to'g'ri yurishni o'rganib ketganmidi?

— Ha, asta-sekin, — dedi chol. — Keyin jarga uchib...

— Gap tamom.

Shunda Mansur O'tbosarga yalindi:

— Ukajon, to'g'ri uyga ketaylik. Buni o'zim davolayman. Giyohlar bilan...

O'tbosar boshini qiyshaytirib, yelkasini uchirib qo'ydi.

— Mayli, unchalik bo'lsa.

Yo'lni to'sgan olatayoqdan narida Eshquvvat bilan O'tbosar qoldi. Boshqalar moshinga chiqisharkan, har ikki tomon ham tezda yana uchrashishlariga ko'z tutib, go'yo shunday qilmasalar — nimagadir xiyonat etadigandek kabi xo'shlashar edi.

Ichaksoyning u qirg'og'iga chiqqan moshina enishga shitob bilan tushib ketdi.

Abulqosim — Abulqosim-da: moshinani tobora tezlatib, lo'killatib ketarkan, tepadagilar beixtiyor bir-birlarining bellari, yelkalaridan quchishar edi: aks holda... Mansur esa Qoraqoshni bag'riga bosib o'tirar, unga nimalarnidir shivirlar edi.

1994

BULUT TO'SGAN OY

To'xtasin og'aga bag'ishlayman

1

Yomg'ir shunday kuch bilan quya boshladiki, bekat ayvonida turishning iloji qolmadi. Buning ustiga, g'uvillab shamol esar, yomg'irni bukib-qayirib ayvon ostiga ham urar ediki, ustunlar orqasiga yashirinish ham foyda bermadi. Men plashning yoqasini ko'tarib, shlapa gardishini pasaytirib, restoranga qarab chopdim. Restoranga kiraverishdagi ayvoncha ostida ham yomg'irdan qochganlar ko'p edi. "Ke, shamollab-netib qolmayin. Baribir kechki ovqatga yetolmayman", deb oynavand, zalvorli eshikni ochib, ichkariga kirdim. Tabiiy, dimog'imga ichimlik, sigaret hidi urildi, qulog'imga jazavali g'arb musiqasi eshitildi. Men shlapamni silkitib, yoqamni tushirib, ustki kiyimlarimni olib qoladigan kishi tomon borayotgan edim, shundoq ro'paramdan — aftidan, qo'lyuvgich xonadan chiqib kelishayotgan novcha, norg'ul yigit bilan etagi yerga tekkudek uzun, qora barqut ko'ylakli juvonga ko'zim tushdi.

Yigit... menga tanish, hatto "aka" darajasidagi qadrdonim. Tavakkal edi. Egnida to'yga kiyib borsa arziydigan tim qora kastumshim, oyog'ida poshnasi baland, uchli tufli (shuning uchun bo'yi tag'in ham baland ko'rinar), xiyla siyraklashib qolgan jingalak sochlari yaltirar (nam qo'li bilan siypagan bo'lsa kerak), tilla tishlari yarqiragancha kulib kelar, juvonning tirsagidan tutish yoxud unga biron dildorlik ko'rsatish, chamasi, xayoliga kelmas, juvon esa, boshini xiyol egib va kulimsirab kelardi.

Men teskari qaramoqchi bo'ldim-u, ulgurolmadim.

— O', pisatel! — deb baqirib yubordi Tavakkal. Men tabassum qilib, chetlandim. U keliboq, meni bag'riga oldi, o'pishdik. Og'zidan aroq hidi kelar, yuzi shishinqiragan, ko'zlari g'iltillar edi.

— Bu kishi — bizning zemlyak! — deb ayolga qaradi "zemlyag"im, keyin uni unutgandek, menga tikilib, davom etdi: —

Qalay endi? Kelin yaxshim-a? Kichkinalar ko'payib qoldim-a?.. Ko'rinishingiz durust. Klass! Ey, bu odam — yaxshi yozuvchi! — dedi yana ayolga ko'zi tushib. — Mening yurtdoshim!

Men ham ayolga qaradim, u siniqqina kulimsirab bosh irg'adi. Kaminayam bosh irg'adi. Shunda Tavakkal:

— E, tanishmaysizlarmi? — deb kuldi. — Bu kishi bizning xonim. Otingiz... nimaydi?

— Guli, — dedi juvon (uning qizarib ketganini taxmin qildim), — Gulsara.

— A-aa, Gulsara, Gulsara, — deb tag'in baralla kuldi Tavakkal. — Qani, zalga marhamat, Quvvatjon!

Men ust-boshimga ishora qilgan bo'lib:

— Shunchaki kiruvdim, yomg'irdan qochib, — dedim.— Dachaga ketishim kerak.

— Dachaga? O'-o', o'zimiz oborib qo'yamiz!.. Qani, plashti yeching! Ho', shveysar, baqa qara! — Tavakkal shlapamni oldi. Men noiloj yomg'irpo'shimni yecha boshladim. — Obbo, Quvvatjon-ye, uchrashganimizni qarang. Xudo bor... Qarshidan jo'nayotganimda sizni eslab edim. Chestni aytaman...

— Men ham sizni eslab turaman, — dedim.

— Yolg'on! Bitta telefon qilmaysiz. Qarshining chegarasidan o'tib ketasiz.

— Yaqin-orada yurtga borganim ham yo'q.

— Men kecha keldim. Geyalogiya vazirligiga chaqirishgan edi... Ey, Gulsara, Mustaqillikkacha o'zimizda geyalogiya ministrligi yo'q ekan! Bor-u, Moskovga bo'ysunar ekan. O'zbekistonga bo'ysunmas ekan. Vey, qistaloqlar-e.

— Haliyam karyerdamisiz? — deb so'radim, shunchaki gapgapga qovushsin uchun.

— Ha-a, — deya yana oltin tishlarini yaraqlatib kuldi. — Kattasi bo'p ketdik marmar karyerining... — U plashni ham shveysarga berdi-da, kiftimdan olib, ikkinchi qavatga o'rlagan zinapoyaga boshladi. — Gul, Gulsara, ortda qolmang... E, siz oldinga o'ting! O'ting, xonim.

Ayol og'rinib to'xtadi.

— Yuraversangiz-chi.

— Shundaymi? Mayli. — U kulib qo'yib, ikki zinapoyani bitta qilib bosdi. — Ishlarim avj, ukaboy. Marmar qimmat bo'p ketdi. Ha-ha-ha. Kroshkasi— kapeyka edi.

2

Ularning stoli o'ng tomondagi oyna-devor ostida, zal baralla ko'rinadigan joyda ekan. Dasturxon to'kin, stol chetida — vazada lola ham bor ekan.

Men stolning beri yog'idagi pichog'-u sanchqisi ishlatilmagan joyga o'tira qoldim. Bilaman, ular bu joyga nisbatan to'rga, ya'ni, stolning u yog'iga o'tkazmoqchi bo'lishadi.

Haqiqatan ham shunday harakatlar qilib, natija chiqarisholmagach, ayol o'z joyiga — oynaga yaqin kursiga, Tavakkal uning yoniga o'tirib:

— Xo'p, yigit o'lmaylik, balo ko'rmaylik, — deya ishshaygancha fotiha o'qivordi-da, birdan o'ng-u so'liga qarab, xuddiki to'yxona bakovulidek baqirib yubordi:— O'y, apisanka! O'-o', jonidan, baqa bir kel. Davay, zajivo... Nakroy! Eto — moy gost! Nima dedingiz, xonim?

Xonim qisinib, yelkasini qisdi. Men esam (chin ko'ngildan):

— Shu bo'ladi-ku, — dedim. — E, alomat yigitsiz-da, Tavakkal aka.

— Mendan nima ketyapti? — xaxolab kuldi u. — Ikki moshin kroshka, xolos! Otamdan qolgan bo'lmasa... To'g'ri, lekin Temur bobomdan qolgan. — Keyin jiddiy tortib, davom etdi: — Ey Quvvatjon, o'zimizdagi marmar konlarining to'qson poyizi Temur bobo zamonida ochilgan ekan. — Keyin yana kuldi. — Hozir bo'lsa, shundoq, yo'lning yoqasiga bir ketmon uring, qars etib marmarga tegadi. Ochilib yotibdi-e.

Gulsara "qoyil" deganday boshini saraklatdi. Men ham qoshlarimni ko'tarib:

— Zo'r, zo'r, — dedim.

— Gulsara, borasizmi? — Tavakkal, aftidan ilgari boshlangan suhbatni davom ettirib, so'radi: — Xo'p deng, xonim... Bir aylantiray! Taxtaqorachaga opchiqaman! Qalamqosh gullar ochilib

yotipti! Sapsarga o'xshaydi-yu, kichkina... — Keyin menga qarab, bemalol kuldi. — Bular bilmaydi, shaharlik-da... Da, kechirasiz, bivshiy qishloqisiz! Turkiston ham qishloq-da endi, Toshkanga nisbatan? Shu-shu... O'x, malades, marja xonim! — U stolni tozalayotgan ofitsiant juvonning belidan ushlab qo'ydi.

U esa:

— Vsegda mi radi vam obslujivat, — dedi tabassum qilib.

— Tavakkal aka, kelsangiz, faqat shu mehmonxonaga qo'nasizmi? — deb so'radim yana yo'liga.

— Ha. Bu yer — markaz, — dedi Tavakkal. — Bechoralar yaxshi kutib olishadi. Besh-o'n so'm ustiga bersang, bas-da, o'rtoq yozuvchi... — Keyin yana kuldi-da, o'ychan tortib so'radi: — Uy ichlari tinchma, Quvvatjon? Yozgan asarlaringizni o'qiy olmayapmiz. Ish ko'p-da, uka. Lekin eshitib turamiz. Men so'rab turaman, chestni...

— So'rab turasiz-ku, bu yerga kelganda unutasiz? — deb qoldi xonim.

— O'o', bir-u no'l, — dedi u. — Lekin shu gal baribir sizni topmoqchi edim, Quvvat. Bitta maslahatlik gap chiqib qoldi...

— Marhamat, — dedim.

— Keyin... Pirnisi, konyak! Ladna, pust "Napaliyon!" Slishish? Vot ta-ak...

Men nima qilishni bilmasdan sigaret tutatdim. Endi ikki kishilashib stol tuzayotgan ofitsiantkalardan biri darhol kuldon opkelib qo'ydi.

Shu payt zalning to'ridagi sahnada musiqachilar (kirganimizda, dam olishayotgan edi, shekilli) gumbir-gumbir qilib, sozlarini chala ketishdi.

— O-oh, yana boshladi bu ablahlar, — dedi Tavakkal. — Borib tinchitib kelaymi?

— Nega? — dedi Gulsara. — Birovlarga yoqadi, zakaz qilishvotdi-da.

— E-e, Mustaqil bo'pmizam o'zbekcha qo'shiq aytishmaydi bu xumparlar!

— Aytishmasa, chalishar.

— Chaladi, — dedim men ham. — Hechqursa, "Tanovar"ni bilishadi. Tag'in "Chingizxon" deganiyam bor.

— Temur degani-chi, Temur? — pixillab kuldi Tavakkal. — To'xtanglar, hozir zakaz qilaman. Adin moment! Bir jinnisini chiqaray shularni. "Chingizxon"ni bilasan, uning dabdalasini chiqargan "Temur"ni bilmaysanmi, deyman.

— Chingizxonnimi yo chingiziylarnimi? — mayingina kulimsirab so'radi xonim. Sezdimki, bu gapni munozara uchun emas, shunchaki, gapirish uchun aytdi.

O'zi, umuman, bunday joylarda shunaqa gapirish ma'qul. Chunki maqsad o'zi — ma'nili-bema'ni bo'lsada, valaqlashib o'tirish, qolaversa, ichish-da.

— O'-o', yana bir-u no'l! — dedi Tavakkal. Keyin: — Shtrapni to'laymiz, — deb kuldi. — Aytmoqchi, Quvvatjon, bu kishini men Qarshiga taklif etayapman. To'g'rirog'i, Shahrisabzga... — Keyin birdan g'amgin tortib kulimsiradi. — Xotin yo'q, tug'uruqxonada ke-etdi, uka. Olti bola bilan qoldim. — Keyin yana kuldi. — E, kun o'tayapti... U yog'ini aytsam, men ham qariyb yetimlikda katta bo'lganman. To'g'ri, qarindoshlar ko'p edi, bobo-oydan meros qolgan mol bor edi... Tak shto, xonim, bemalol kirib borishingiz mumkin uyga... Kimsiz? Marmar konini tekshirishga borgan — revizor! — U yana qah-qah otib kuldi-da, stolni bezab bo'lgan ofitsiantkaning kiftini silab qo'ydi. — O'lma, akang aylansin! — So'ng nimanidir eslagandek birdan buyurdi: — Davay, naley ti sama!

— Konishno, konishno, — dedi u tumbochka ustidan oppoq-qina sochiq olib, o'sha bilan konyak shishasini o'radi. So'ng uni ochib, Gulsaraning rumkasiga engashtirgan edi, u chiyillagan kabi:

— Net-net, — dedi. — Yaj vam skazala?

— Ax, da, izvinite.

Tavakkal xonimga chimirilib boqdi.

— Nimaga konyak ichmaysiz-a?

— Menga to'g'ri kelmaydi.

— A-a, mayli... Davay nam konyak! Quvvatjon, bi-ir o'tiraylik!

— Rahmat.

3

Shundan keyin suhbatimiz sho'x irmoqning oqish maqomida davom etdi. Irmoq nishablardan tez ensa, o'rlarga asta ko'tariladi, cho'nqirlarni to'ldirar ekan, sekinlab ham qoladi. Gurungimiz ham shunga o'xshab,— gapga gap ulanib, ammo ravon bir izga tushmasdan davom etarkan, qadah so'ziga yetganda, konchi do'stimiz:

— Qani, bir tos ayting, Quvvatjon! Zo'r bir gap ayting! Biz shuni qoldirmay olaylik! — dedi.

Men xijolat bo'lib, qadahini (unga yahudiy arog'idan quyilgan edi) joyida asta aylantirayotgan Gulsaraga qarab oldim, undan uzr so'ragandek.

Keyin yana qiynalib qoldim: nima deyman, axir? Qurib ketsin bu yozuvchilik ham... Ana shuning uchun ko'pincha to'ylarga borishdan ham tiyilaman yoxud borsam ham panada o'tirib, chiqib ketaman. So'z berishadi-da, tantanali qilib. Shunda to'ychi "aka" "yaqining" bo'lsaki, xo'p-xo'p. Aks holda oyog'ing tortmay, urfni oyoqosti qilmayin, deb kelgan to'yingni egasida yo'q sifatlarini ham to'qib chiqarib aytishga to'g'ri keladi.

— Qani, eshitovuz, — dedi Gulsara musiqa tinishi bilan. Va Tavakkal (endi) uning kiftini silab qo'ydi.

— Sizlarning shunday chiroyli bo'lib o'tirishlaringni ko'rib, xursand bo'ldim, avvalo shuni aytishim kerak, — dedim. — Tavakkal akani o'rta hisobda yigirma yillardan buyon bilaman, garchi kam uchrashib tursak-da... Gulsaraxon, bu inson — bir qop yong'oq misolidir. Dali-g'uli, mard. Xullas, Temur bobo yurtining vallamat yigitlaridan...

Tavakkal hazilakam bir quvlik bilan ko'zlarini do'laytirib:

— Ana shunaqamiz, xonim, — dedi. — Ayting, Quvvatjon. Sizning yozganlaringizam rost... Yo'q, chestni aytayapman. Xonim, ko'proq o'rischa kitob o'qigansiz-da, bilmaysiz... Kitoblaridan beraman...

— Ha, endi, baribir "to'quvchi"miz-da, — dedim men. — Aytmoqchi, o'ris yozuvchilari ham yaqin-yaqingacha, masalan "asarlar" deb emas, "sochineniye" deb aytishardi... Xo'p, — qadahni sal ko'tardim. — Ana shu ahilliklaring davom etsin. Xo'sh,

meni dasturxonlaringga taklif etganlaring uchun minnatdorchilik bildirish bilan birga, aytmoqchimanki, mana shu — o'zaro hurmat, mehr-oqibat oramizdan hech qachon ko'tarilmasin.

— Voh! — deb yubordi Tavakkal. — Bu tosdan keyin pujerni to'ldirib ichsayam arziydi!

— Rahmat, — dedi Gulsara menga. Ichib bo'lib, qazi-qartadan gazak qilganimizdan keyin xonim so'radi: — Kechirasiz, pisatel aka, o'ziyiz shunaqa kamtarmisiz yoki kamtar bo'lib ko'rinishni yaxshi ko'rasizmi?

Menga hech kim bunday savol bermagan, qolaversa, bu savolda harqalay, takabburlik bor edi.

— Xonim, men piyesalar ham yozganman, — dedim. — Tabiiyki, o'sha jarayonda ro'l o'ynayman. Aytishlaricha, obrazlarim rostmi-yolg'onmi — o'z gaplarini gapirishar emish.

— Tak-tak?

— Qozonda bori cho'michga chiqadi, deganlaridek, inoningki, men qandoq bo'lsam, obrazlarim ham shundoq chiqadi, deb o'ylayman, ya'ni, rosti ham, yolg'oni ham o'ziniki, o'zligidan kelib chiqqan bo'ladiki, ularni, jumladan, meni ham riyokor, deb aytish qiyin... — shunday deb, daf'atan toliqqanimni tuydim. Keyin dangaliga ko'chdim: — Siz qanday tushunsangiz, ixtiyor o'zingizda.

— Bravo, — dedi u.

— Ha, malades, Quvvatjon, — dedi Tavakkal ham.— Qiziq gaplar... Ey, yana boshlashdi-ku bugi-vugini! Shoshmang, pul to'lab bo'lsayam tinchitaman.

— Undan ko'ra, o'zbekcha muzika zakaz qila qoling,— dedi Gulsara boyagi tabassumida.

Tavakkal o'rnidan irg'ib turdi.

— Yest! — Keyin birdan xonimga tepadan o'tkir tikilib so'radi: — O'ynaysizmi?

Gulsara yelkasini qisdi.

— O'-o', adin moment! — deb yubordi Tavakkal. — Ana bu boshqa gap! Kecha o'zim ham sezib edim... Kuxnaga kirib chiqayotganingizda oyoq olishingiz g'alati bo'lib ketib edi. "Jigarpora"ni eshitayotganda.

Gulsara boshini egib kuldi. Tavakkal qatorlar orasidan lo'killab yurib, sahna tomonga ketdi.

— Kecha tanishdik okayiz bilan, — dedi Gulsara "akam"ning orqasidan sezilarli faxr bilan qarab olgach. — Mani bezorilardan qutqardilar... — Keyin kulib hamda g'ijinib, davom etdi: — Shundoq ketivossam, ro'paramdan ikkita davangi kevotti. Trotuarda edim. To'g'ri kelishaverdi. Man chetlanib, yo'l berdim. O'tishdi-yu, vay, sezmiy qoldim, qo'lim bir silkindi. Qarasam, sumkam yo'q. Bittasining qo'lida, hech narsa ko'rmaganday ketishvotti. "Hoy, shu kuningdan o'lganing yaxshimasmi?" deb baqirdim. Chopib borishga qo'rqaman. — U yana boshini egib kuldi. — Vaysovurdim. "Bo'yingga qara, iplos! Kelib-kelib xotin kishini tunaysanmi?" — Shu payt Tavakkal kaftlarini bir-biriga ishqagan holda qaytib keldi. "yest, gatop!" deb o'tirarkan Gulsaraning oxirgi so'zlarini eshitganda, birdan tilla tishlarini ko'rsatib ishshaygancha, uni rag'batlantirib, bosh irg'adi. — O'sha paytda ko'rinib qoldilar... Bu yog'ini o'zingiz ayta qoling, — dedi Gulsara.

— Ha, — deya sezilarli mamnuniyat bilan davom etdi Tavakkal. — Taksidan tushib, mehmonxonaga borayotsam... bir ayol kishi pirtavolda qarg'anayapti. Polvonlar menga yaqinlashib qolgan. — U mazza qilib, ammo yolg'ondakam kuldi. — Xonimning ovozlari juda-a yoqib ketdi-da!

— Rahmat, — deb qo'ydi Gulsara.

— Bezbet... Keyin, ukaboy, akangizni bilasiz, yoshlik davrlari esga tushib ketdi. O'zi, ko'pdan beri qo'l qichib, qayerga ishqashni bilmay yurgan edim...

Men bosh irg'adim. Gulsara tag'in ovozida faxr bilan:

— O, yomon ekanlar bu kishi, — dedi. — Nu, paren... Qaytamga man qo'rqib qoldim.

— E, xonim, yoshsiz-da, — deb taltaydi Tavakkal.— Undaylarning uchta-to'rttasiga bas kelolmasak, munday qilib yurmas edik. Bittasi — o'rismi, tatarmi, bilmayman. Ammo bittasi — o'zbek edi, ana shundan boshladik.

— Voy, man o'ldirib qo'yadilar, deb qo'rqdim, — deya yana luqma tashladi Gulsara.

— Yo‘-o‘q, — deb tag‘in kuldi konchi. — Och biqiniga uramiz-da... Yo‘g‘asam, tovon to‘lash bor. Xa-xa-xa... Tovon to‘laganmiz ham, a, Quvvatjon?

— Juda, — dedim. — Qimmat to‘lagansiz... — Gulsara eshitishga ishtiyoqi borligini anglatadigan nazar bilan boqdi. — O‘zingiz aytib berarsiz, — dedim Tavakkalga.

— He, eski gap u, — dedi Tavakkal. — Keling, eslamaylik!

— Yo‘q, nega endi? — ozorlandi Gulsara.

— Bo‘pti, aytib beraman, — dedi Tavakkal. — Oldin yana bittadan olaylik. Hozir “Tanovar” bo‘ladi...— U uzun qo‘llarini bemalol uzatib, shishalardan quyarkan, men asta so‘radim:

— Keyin nima bo‘ldi? Haligi davangilar bilan... mushtlashuvingiz?

— E, biz mushtlashmadik. Ularda kuch qayda? Aroq yengib tashlagan alkashlar ekan. Bitta-bitta bilan cho‘ziltirib qo‘ydim. Keyin o‘zbek bolaga: “Sumkani ko‘tar”, dedim.

— Ha, bu kishiga qolsa, sumkani ko‘tartirib, uyimga obkirardilar.

— Kechiradilar, xonim.

— “Qo‘ying, yo‘liga ketsin”, — dedim.

— Lekin, keyin nomardlik qildingiz-a? — deb chindan ham achinish va xijolatli nigoh bilan unga boqdi Tavakkal. — O‘pkalasam arziydi! — degach, yana asliga — sho‘xchanligiga qaytdi. — Meni uylariga taklif qildilar, rahmat. Choy, kofe damlab berdilar, rahmat, Ammo...

— Tavakkal aka, — dedi Gulsara og‘rinib.

— Yo‘q, to‘g‘risini aytishim kerak-da.

— Xo‘p. Ayting-ayting.

Tavakkal qo‘llarini yozib, juda hayron qolganini bildirdi:

— Yotishga qo‘ymadilar... Men bechora musopirdi. Gastinsaga haydadilar. “Voy, musulmon, tegmayman sizga”, deyman. Ishonmaydilar... Shunaqa bo‘ldi, Quvvatjon.

Men bunday gaplarga hayron qolmaslik lozimligini tushunsam-da, uyaldim va Tavakkalning “o‘ziga ishonchi” anchagina oshib ketganini dilimda qayd etdim.

Keyin bu "ochiq gaplar" xonimga qanday ta'sir etganini bilish uchun unga qaradim...

E'tirof etamanki, ilk bor tikilib qaradim. Zero odatim shu: bundoq davralarda yigitlar ayollari bilan o'tiradimi, boshqa tanish juvonlar bilanmi — erkaklar bilan gaplashardim-u, ayollarning savollariga javob berardim, xolos.

Ammo xotinlarga tikilib qarash... yo'q. Bu — o'zbeki odatdanmi, tabiiy andishadanmi — bilmayman.

Gulsaraga tikilib qarasam, u qandaydir asabiy, nimanidir kutayotganday, o'sha kutgani sodir bo'lsa, shartta turib ketvoradiganga o'xshardi.

— Qani, oldik-e! — deb yubordi shunda Tavakkal — Mayli, bu yog'iga Xudo poshsho!.. Aytmoqchi, men Gulsara uchun ichaman... Quvvat, siz ham xonim uchun iching. — Nihoyat, iymanib jilmaydi. — Men "nomard" dedim bu kishini. Aslida xursandman, Xudo urinsin-a... Zo'r ayol ekansiz. Chesni aytayapman. Gul, siz uchun!

— Qulluq-qulluq, — dedi u.

Men ham erkin nafas oldim.

— Rahmat sizga, Tavakkal aka, — dedim. — Gulsaraxon, omon bo'ling. Bizning yozuvchilar orasida bir gap bor: "Fe'ling o'zgarmasin", deydilar. O'rischasiga: "Nado bit samim soboy". Shundoq.

— Tushunolmadim, — deb yana yolg'ondakam ishshaydi Tavakkal. — Akamni ostonadan hatlatmang, demoqchimisiz?

Mendan oldin Gulsara e'tiroz qildi:

— Yo'g'-e.

— O, rahmat sizga, — dedim. — O'zi, odatda, buning aksi bo'ladi.

— Ana! — dedi Tavakkal yana taltayib. — Demak, men indamaygina chiqib ketib, to'g'ri ish qilgan ekanman-da?

— Juda, — dedi Gulsara va hammamiz kulib yubordik. Xonimning hurmati uchun o'rnimizdan turdik. Gulsara ham o'rnidan qo'zg'oldi-yu, "Tanovar"ga quloq tutib, tek qoldi.

Zal o'zbekcha gumbir-gumbirga to'lib, u-bu stoldan, xuddi o'zlari buyurtma qilgandek o'zbek yigitlar-u ayollar qo'zg'ala boshlagan edi.

Tavakkal shoyon xursand bo'lib:

— Oldik! Keyin — o'yin! — deya qadahni shartta bo'shatdi-da, kursisini orqasiga qitirlatib surib, chetga chiqdi. Gulsara idishini labiga tegizib, joyiga qo'ydi.

4

Gulsarani musiqachilar o'tirishgan sahnaning pastidagi bo'sh joyga boradi, deb o'ylagandim. Chunki, odatda o'sha yerda o'yin tushilar, zero stollaridan turishganlar ham o'sha tomonga borishmoqda edi.

U esa shundoq yonimizda, qatorlar orasida turib oldi-da, eni atigi bir-bir yarim gaz keladigan oraliqda birdan shox tashlay ketdi. Xayolimda Mukarram opaning raqsi jonlanib, "undan o'rgangan", degan fikr keldi.

Biroq dastlabki harakatlaridanoq o'zicha o'ynay boshlaganiga iqror bo'ldim. Ma'lumingiz, "Tanovar"— tantanali, sho'x, ustiga yana — jo'shqinlikni talab etadigan va bular jamisining namoyishidan iborat bir kuydirki, buning ifodasi o'laroq o'sha mashhur raqqosamizning o'yinlari mukammal bir namuna sifatida qolgan... Gulsara o'yin mazmunini o'zicha talqin qila boshlagan, ya'ni tantanalar ichida g'amnok va g'arib bir kimsaning qalbini-da ifodalar, yuzi-yu lablaridagi siniq tabassum ham bu mazmunga bag'oyat mos tushmoqda, qora barqut kiygan xonimning raqs etayotgan joyi ham — kutilmagan joy bo'lgani sababmi — zaldagi nigohlarni o'ziga qaratmoqda edi.

Ajabo, ba'zan shunday to'liqib, to'lg'anib-to'lg'anib aylanib ketardiki, stollardan biriga urilib ketar-a, deb qo'rqib ham qolardim. Yo'q, u xuddi shunday tor joyda o'ynayverib o'rganib ketgandek edi. Asta-sekin zalda chapak chalina boshladi. Keyin raqsga mos juft qarsakka o'tildi.

Tavakkal angrayib qolgan, ko'zlari o'qrayib boqar, aftidan xonimni taniy olmas edi.

Bir mahal yelkamga birov turtdi. Qarasam, zalning boshlig'i, bu yerga kiradigan kishi borki — taniydigani, novcha, kelishgan, qo'ng'iroq sochli yigit Husanbek ekan. U: "Jim, o'rtog'ingizga halal bermang" dedi-da, imlab chekindi. Men Tavakkalga qa-

radim, uning ko'zlari hamon Gulsarada edi. Shunda juvonning savol alomatli nigohiga ko'zim tushdi va birgina barmog'imni ko'rsatib "bir minut" ma'nosini anglatdim. U o'yinga mos holda bosh irg'ab, aylanib ketdi.

Qatorlar adog'iga yetib, Husan bilan ko'rishdim. U, odatdagicha, mening uzatgan qo'limni tirsagidan ham ushlab:

— Bu ko'rinmay ketdingiz? — dedi. — Yozuvchilar soyuzingiz ko'chib ketgani uchunmi yo bozor iqtisodi ta'sir qildimi?

— Keyingi gapingiz to'g'ri, — dedim.

— Bu kommersant bilan ko'pdan tanishmisiz?

— Yurtdoshim.

— Ja bayevoy yigitga o'xshaydi.

— Ha, tanishmasmisiz?

— Yo'q. Nuqul mening dejurligimda kelmaydi. Keyin eshitib qolaman... Ammo anavi juvonni bir marta ko'rganman. Ho', stenkaning orqasida o'tirishgan. Ja kazo-kazolar bilan... Singlisiningmi, jiyaniningmi tug'ilgan kuniydi. O'shanda yig'lab o'ynovdi... Ja ta'sir qiluvdi menga. Ikkita yapon o'n minut suratini olishgan...

— Arzir ekan, — dedim. — Yuring, tanishtiraman. Do'stimiz bilan ham...

— Yo'q, bir vaqti keladi... Kechirasiz, aktrisamasmi u?

— O', bilmayman, Husanjon.

— Qoyil... Ayting, tez-tez kelib turishsin. Bizga yaxshi bo'ladi.

Shunda kuy tugadi-yu, Gulsara stolga burildi. Chapak chalvorib o'rnidan turgan Tavakkal, bilhol meni esladimi, alanglab qarab, qo'lini cho'zgan holda:

— Hu, Quvvat, nima qilib turibsiz u yerda? — dedi-da, dasturxonni ko'rsatdi. Gulsara ham mening borishimni kutgan kabi o'rniga o'tirmasdan qarab turardi. Zal guvillagan chapakka to'lib ketgan, musiqachilar esa yana "Tanovar"ni chalishga tushishgan, u yer-bu yerdan "raqqosa"ni o'yinga taklif etgan ovozlar ham eshitilar edi.

Men Husanning qo'lini qisib:

— Uzr, — dedim.

— Kechirasiz, bezovta qildim, — dedi u. — Lekin men u yigit bilan tanishaman.

— Arziydi.

— Hoy, vaqt bo'lganda, kirib turing. Hechqursa, nasiyaga mehmon qilarmiz.

— Rahmat.

5

Men qaytib borganimda, Gulsarani yo'tal tutgan, oynadevorga yuzlanib, kursi qoshiga ilig'lik turgan charm sumkasini kavlar edi. Ro'molcha olib, og'ziga bosgancha joyiga o'tirdi.

— K-kechirasizlar.

— Nichevo, — dedi Tavakkal. — Men sizday o'ynaganimda, cho'zilib qolardim. — U shunchaki shod emas, juda ham mag'rur ko'rinar, illo restoran ahlining yarmisi desam ham bo'lar, bu — barvasta, bo'yinbog'ining tuguni pastlab — yoqasi xiyla ochilib ketgan va egasiga qandaydir erkin tus bergan hamda har bir harakatidan kuch-quvvat-u yovqurlik yog'ilib turgan yigitga havas-u hasad bilan tikilishar, shubha yo'qki, Tavakkal bu nigohlarni-yu mazmunlarini uqib turar edi.

— Suv, hoy musulmon, suvdan bering...

Ont ichaman: Gulsaraga suv uzatishni stolga kelgan paytida-yoq o'ylagandim-u, istihola qilgandim, bilasiz-ku, sof qishloqi yigit (o'zim ham qishloqdan chiqqanman) bu kabi tabiiy dildorlikni o'zicha — "qishloq darajasida" tushunishi mumkin...

— A?.. E, suvdan boshqa nima bor! — deya hovliqib, "koka kola"dan fujerni to'ldirib uzatdi Tavakkal.

Gulsara entikib-entikib bir necha qultum ichdi. Juvonning ahvolini ko'rib tushunishdi shekilli, uni raqsga taklif etayotganlar ham, chapak chalayotganlar ham dasturxonga o'nglanishdi. Musiqachilar ham bir pasdan keyin boshqa kuyni chala ketishdi... Gulsaraning o'yini-yu "Tanovar"ning bir necha daqiqa davom etgan sehri-jodusi totli shirinlik ta'mi kabi og'izlarda va ko'ngillarda qoldi, ha, juda baxtli onlar o'tib ketdiki, men hamon "Tanovar" kuyini eshitsam, Mukarrama opaga taqlid qiladigan xiromon emas, azador kabi qora barqut kiygan Gulsaraning raqsi ko'z oldimga keladi: u tug'ma bir iste'dod ekan.

Gulsara vishillayotgan ichimlikni oynaga qaragan holda kalta-kalta sipqorib tugatdi-da, bizga, keyin atrofdagilarga shoshib ko'z tashladi. So'ng birdaniga:

— Ketsak-chi? — dedi Tavakkalga. — E, uzr, Quvvatjon... Man sal xijolat...

— Gap yo'q, — dedi Tavakkal. — Uyingizga boramizmi?

Ayol qizg'in tabassum qildi.

— Dacha esiyzdan chiqdimi?

— A-aa! Iskeliroz! Vsyo... Dachaga! Quvvatjon, qarshilik yo'qmi, uka?

— Voy, nega... Faqat yo'l uzoq, qaytib kelishlaring bor... Lekin yotib qolishlaring ham mumkin, — dedim. — Hozir bizning bog'imizda yozuvchilardan ko'ra kammersant ko'proq... Shunaqa bo'p qoldi. Ularsiz dacha o'zini boqolmaydi...

— Ha, — dedi kesib Tavakkal. — Yozuvchilarning ahvoli yaxshimas hozir. Bilamiz.

— Bilar ekansiz, yordam qilmaysizmi? — deb qoldi shunda Gulsara. — Pul — siz uchun xazon-ku.

U yayrab kulib yubordi.

— Soddamiz-da, jo'nmiz-da, xonim. Kechagi kun bilan bugungi kunning farqiga bormaymiz! Gap bitta!.. Quvvatjon, siz dachaning ishotini berasiz menga.

— Rahmat, Tavakkal aka, — dedim. — Gulsaraxon, sizga-yam rahmat. Mening kunim o'tayapti... Uyushmamiz, xo'sh, Adabiy jamg'armamiz rahbariyati uch-to'rtta adibga muruvvat qilib, putyovka narxini ko'tarishmagan.

— A-a, durust, durust... Xo'p, turdikmi?

— Ha, — dedi Gulsara va yana entikib nafas oldiki, bu yerda unga havo yetishmayotganiyam ayon bo'ldi. Keyin qandaydir g'ijinib, qo'shimcha qildi: — Ofitsiantkaga ayting, stoldagi taomlardan olib, tugun qilsin.

— O, mumkin emas! — deb yubordi Tavakkal. — Meni uyaltirmang, xonim. Biz svejiysidan zakaz qilamiz... A-a, dachada o'tiramiz. Do'rmonda, a?.. Ha, eshitganman... Hoy, marja xonim, a nu-ka kamne! Ke, akang aylansin.

Men bunday isrofgarchilikni hazm qilolmasdim, bunaqa "tantiboyvachchalik" ham yoqmasdi. Adiblarga tekkan kasallikmi bu: bunaqa to'kin dasturxonni ko'rsang, xursand bo'lasan-u, keyin bir buxanka non uchun do'konlar qoshida navbatda turgan xotin-xalaj, chol-kampirlar ko'z oldingga keladi. Ba'zan tomog'ingdan hech narsa o'tmay ham qoladi...

Men plashim bilan shlapamni kiyib, pastda kutajagimni aytdim va ulardan ruxsatini so'ramasdan jildim. Oynaband eshikdan chiqayotganimda, yana Husanjon bilan to'qnash keldim. U mening tirsagimdan ushlab:

— Ketasizlarmi? — dedi.

— Ha. Dachaga boradigan bo'ldik.

— Chyort poberi, o'shanda o'ynagandan keyin ham shunaqa yo'talib qoluvdi.

— O'ynaganda, o'pka pishadi.

— Da-da.

6

Yomg'ir hamon tinay demasdi. Shamol esa shashtidan tushganga o'xshar, biroq turib-turib avj qilib qolar, shunda beixtiyor teskari qarab olardi, kishi.

Qunishib-yo'rtishib bekatga yetdik. Bir zamonlar "taksi" to'xtashi gumon bo'lgan maydonchada ko'zini "ko'kartirgan" moshinalar ham, "shaxsiy"lar ham endi yo'lovchi kutishar, biroq narxi osmondaligi bois, ularga yaqinlashish mushkul edi.

— Taksi, taksi! — deb baqirdi Tavakkal, xuddi "Eshmat! Toshmat!" deb chaqirganday. Shunday ro'paramizda turgan "Jiguli"ning eshigi ochilib, bir yigitcha chiqib keldi. — Bo'shmisan? — so'radi Tavakkal sensirab.

— Bo'sh-bo'sh. O'tiringlar... — deya yo'l boshladi haydovchi. So'ng, yaqinlashib kelgan taksichiga o'shqirdi. — Ani moi klienti!.. Kelinglar.

Men orqa eshikni ochib qo'yib, oldingi o'rindiqqa o'tirib oldim. Tavakkal bilan Gulsara orqada joylashishdi. Shofyor mashinani jildirib, so'radi.

— Qatga borasizlar?

Mendan avval Tavakkal (shang'illab) javob qildi:

— Dacha pisatelga!

— O'-o'o', okaxon, tuda-suda to'laysiz-da.

— Haydayver. Mana shu — yoningda o'tirgan odam...

— Tavakkal aka, — dedim.

— Xo'p... Xo'sh, xonim, endi qalay? Oynani ochib qo'yaymi biroz?

— Ha.

— Siz, albatta Qashqadaryoga borishingiz kerak! — dedi Tavakkal qat'iyat bilan. — Uning tog'larida havo shunday tozaki, bir qo'yning go'shtini bir kunda yeb qo'yasiz... Ha-ha-ha! Biz yeymiz-a, Quvvatjon!

— Ha, unday havoda ishtaha ochilib ketadi, — dedim. — Lekin Gulsaraxon, borsangiz ziyon qilmaysiz... Tavakkal akaga bemalol suyanish mumkin.

— Nega "mumkin?" Shart! — dedi Tavakkal. — Hozir kakraz shirvoz qo'zilar so'yilyapti... Quvvatjon, bultur ham o'tmadingizmi-a, Qarshidan?

— O'tdim-u, poyezd bilan, — dedim. — Avtobus ham yomonmas ekan.

— Moshina nima bo'ldi, moshina?.. A, benzin qimmatlashib ketdi!

— Moshina sotildi.

— Kechirasiz, Quvvatjon aka, qanaqa kitoblaringiz bor? — so'rab qoldi shunda Gulsara.

— Bor, — dedim.

— Dachada bormi? Bittasiga avtograf yozib berasiz... O'qiyman, albatta. Kitobni yaxshi ko'raman. Mana, okangiz ko'rdilar, uyimda kichkina kutubxonam bor. Lekin ko'pi o'rischa... Him, tarbiyamiz shundoq bo'lgan-de.

— Nichavo! — dedi Tavakkal. — Endi, qolganini o'zbekchalashtirib yuboramiz. Ha-ha-ha!

— Rahmat.

— Lekin o'yiningizga besh ketdim, Gulsara. Restoranni rom qilib oldingiz ammo... E-ey, Tangrim, kunlarimiz qanday maz-

munsiz o'tadi, Quvvatjon. Yeysan, ichasan, birovni urishasan, birovining boshini silaysan.

— Birovini aldaysan, — deb qo'shdi Gulsara.

Tavakkal tag'in xoxolab yubordi.

— Albatta! Aldamasa bo'ladimi?.. Umuman, "raqobat" degani o'zi aldashga yo'l ochar ekan. Kim ayyor bo'lsa — marra o'shaniki.

— Esiz, aldanganlar.

— E, achinmang, xonim! Hayotning o'zi shu ekan... Shundaymasmi, Quvvatjon?

— Shundaymasligini o'zingiz ham yaxshi bilasiz,— dedim mumkin qadar beozor ohangda.

Tavakkal bir soniya jimib, tag'in qahqaha otdi.

— Lekin hamma bir-birini alday boshlagandan keyin... Nima dedingiz, xonim?

— Nima deyin?

— Siznikiyam to'g'ri.

— Kechirasiz, Quvvatjon, — deb yana gap qotdi Gulsara. — Pisatellarning dachasi bor, deb eshitardim. Shu yoqda — tog'ga yaqinliginiyam bilaman... Lekin, u qanaqa dacha o'zi? "Dam olish uyi"ga o'xshiydimi? Boya biznesmenlar ham ko'p dediyiz. Demak, sanatoriy tipida?

— Farq qiladi, — dedim. — Uning nomi to'lasicha: "Yozuvchilarning ijod va istirohat bog'i" deyiladi. Uch qavatli imorat... Hali ko'rasiz. Yaxshi. Ko'pchilik xonalari bir kishilik. Yashash, ishlash uchun sharoit bor... Hm, uch-to'rt gektarlik bog'imiz ham bor. Yozda salqin bo'ladi. Toshkentda harorat qirqqa chiqqanda, u yerda o'ttiz besh-o'ttiz oltidan oshmaydi.

— O, yaxshi ekan. Yozda Toshkentda nafas obo'miy qoladi... Bilasiz-ku, o'ziyiz?

— Ha.

— U yerda, endi, faqat yozasizlarmi? — so'radi Tavakkal. — Yo boshqa ish ham bo'ladimi?

— Yozadigan —yozadi, yozmaydigan — hordiq oladi. Ilgari yaxshi edi: bir yilda bir oy tekin yo'llanma berilardi yozuvchiga... Hozir yo'q.

— Ponyatno, — deb qo'ydi Gulsara. Keyin yana so'radi: — Bizni begona deb...

— O'-o', yo'q. Unaqangi temir qoidalar bizda yo'q... Umuman, Uyushmamizdayam ilgaritdan qandaydir demokratiya bor edi. Muhim gaplar kitob sahifalariga chiqmasayam, u yerda aytilardi... O'ylashimcha, sotsializmdan bizga qolgan eng durus meros — shu bog' bilan bugungi Uyushma bo'lsa kerak...

— E-e, yozuvchilaringiz ham bir-birini juda qamatishgan ekan, — dedi Tavakkal.

— Ha, — dedim. — Afsuski, shunday bo'lgan... Davr, siyosat taqozo qilsa, har qanday jamiyatda ham shunday bo'lar ekan, Tavakkal aka.

— Hozir qalay, hozir?

— Hozir, yaxshi... Lekin yaxshi asarlar yaratilmayapti hisob. Yangi turmush tarziga tushish mushkul. Uning mohiyatini bilib, adabiyotning maqsadi bilan uyg'unlashtirish qiyin kechayapti... Kelinglar, boshqa mavzuda gaplashaylik. Bu — injiq mavzu... Yomg'ir tindi deyman?

— O'zi-ku yog'gani tuzuk, — dedi shofyor. — Bu yil qish bo'lmadi hisob.

So'ngra suhbatimiz ob-havo mavzuyiga o'tib, sayr-sayohatlarga borib taqalganda, biz ham ijod bog'iga yetib bordik. Darvoza ochiq, ammo moshina chiroqlarini yiroqdan ko'rgan qorovul chiqib turgan ekan, meni tanib chetlandi.

O'tib ketdik.

7

Imorat oldidagi maydonchada "Deu" tamg'ali avtobus turardi. Undan kimlardir tushayotgan ekan, "sportchilar" deb o'ylagandim, o'xshashmadi. Lekin ularning rahbarlari dacha ma'muriyati bilan kelishgani, demak, tunash uchun tushishayotgani aniq ediki, men:

— Tavakkal aka, sizlarga nomer olish qiyinga o'xshab qoldi, — dedim.

— O, biz qolmaymiz... Man ketaman, — dedi Gulsara. Tavakkal ham shoshilinch:

— Unday bo'lsa, albatta ketamiz, — dedi-da, haydovchining yelkasiga qo'lini qo'ydi. — Ukaboy, kutasiz endi... Biz biroz o'tirib chiqamiz.

— Oka, unaqa vaqtim yo'q, — dedi shofyor. — Nochorlikdan chiqovuz-de, bir-ikki soat ishlab qolaylik, deb. Taksi zakaz qilishlaring mumkin.

— Eh-he... Mana, senga ikki yuz so'm... Zakalad. Bir soatdan keyin qaytib kelasan. Agar biz seni aldasak, mana shu yozuvchi akangni ushlaysan.

— Ha, — dedim.

Shofyor g'udranib qoldi.

— Men endi qatga bordim... Bo'pti. Qaysi nomerdasiz, domla? Men rovno bir soatdan keyin sho'tta bo'laman.

— 37-nomer, — dedim. — Uchinchi qavat, o'ngda. Bemalol kiravering.

Mehmonlar qaysidir viloyatdan kelgan havaskor ansambli ekan, ularning g'ala-g'ovuri, childirma-yu rubobning birov noxos tegib ketgandek sas-sadolari orasidan, o'shalarning sheriklari kabi o'tib, yuqori qavatga ko'tarildik.

Men: "Xonam qay ahvolda ekan? Yig'ishtirilganmikan?" — deb bezovta bo'lgan holda yo'l boshladim.

Umuman-ku, mening xonam — tuzuk nomerlardan biri. Ayvonchasi-yu derazalari nari tomonga — olmazor bog'ga qaragan. Hozir bahor emasmi, tongda bulbullar sayraydi bog'da. To'g'ri, qishda bu tomonning xonalari ancha salqin bo'ladi, shuning uchun ko'proq muddatga turuvchilar kungay tarafdagi xonalarga o'tib olishadi. Men hamisha o'sha yoqda turardim. Chunki uzoq yili o'sha bog' ustida charx urib aylangan bir juft qaldirg'och ochiq derazamdan kirib, uy burchagiga in qo'ygan, bola ochgan edi. Shuning uchun bahor boshlandimi — derazani ochibroq qo'yib yotardim, kun sovuq bo'lsa ham qaldirg'ochlar keladi. Hali kelishmagan, biroq derazam ochiq edi...

Eshikni ochdim-u, uyalayotganimni bildirib:

— Bir minut sabr qilasizlar, — deb ichkariga kirdim. Chiroqlarni yoqib qaradim. Hayriyat, o'tirsa bo'ladi. Shamolda deraza

bekilib qolgan ekan, ochib qo'ydim. So'ngra, tuflimni yechsam — ular ham yechishga majbur bo'lishini, ortiqcha shippaklarim esa yo'qligini o'ylab: — Marhamat! — dedim. — Bemalol!

— Machit emasdir. Oyoqni yechmasak ham bo'lar? — deb ishshaygancha ostona hatladi Tavakkal.

— Men ham shuni aytmoqchiydim, — dedim. — Keling, Gulsaraxon. Plashingizni bering...

— E, qishloqilik qursin, — deb burildi Tavakkal. — Qani, o'zim yechintirib qo'yay. — U charm plashni olib, menga berdi. Keyin o'zining shunday kurtkasini yechib uzatdi. Men o'zimning odmi plashimni ham devordan daromad qilib yasalgan shifonerga ildim. — O-o! — deb yana o'zi ichkariga yo'l tortdi Tavakkal. — Yaxshi-ii... A, Gulsara? Bir kishiga bo'ladi-da!

Gulsara stol lampasi ustidagi javonga — kitoblarga, devordagi rasmga (romga solingan rasmda nilufarlar qoplagan ko'l bo'yidagi qo'lbola yog'och o'rindiqda tanho o'tirgan oq libosli parivash tasvirlangan edi) jilmayib boqib, divan va yumshoq kursilarga ham qiziqish bilan ko'z tashlab:

— Yaxshi, uyutna, — dedi. — Menimcha, yozuvchilar hayotdan nolimasayam bo'ladi, Quvvatjon.

— Men haliyam nolimayman, — dedim. — Hayot qanday bo'lsa, shu holida qabul qilishga o'rganganmiz... Qolaversa, shunday islohotlar davrida bunday yashayotganimga shukrona aytaman... Qani, xohlagan joylaringga o'tiringlar.

— Munday qilamiz, — Tavakkal burchakdagi stolchani ko'tarib, divan oldiga qo'ydi. — Quvvatjon, xizmat bo'lmasa, anavini oling. Taqsimcha bordir?

Men yuvingich xona og'zida qoldirilgan salafan xaltani (og'irgina ekan) olib, Tavakkalga berdim. Keyin "Morozka" muzxonasi ostidagi tumbadan sopol taqsimchalarni chiqardim. So'ngra "koka- kola" yozuvli plastmas stakanlar bilan piyolalarni yig'ib, vannaxonaga kirdim.

Men baribir xijolatda edim: uyingga mehmon kelganda (qancha vaqt turmayin, bu — mening uyim-da), dasturxonga qo'ygich yemishlar o'zingdan chiqsin-da...

"Ha-e, tushunib turishipti-ku", deya idishlarni yuvib, qo'l artilmagan sochiqni ham olib chiqdim. Xuddi aybdor xizmatkordek chuchmal tabassum bilan:

— Xush kepsizlar, — dedim. Va stoldagi xushbo'y tovaki (tabaki)lar, bir juft xurmo, bir uyum apelsin, bir juft yopgan non, banka- banka pivolar-u biri ochilgan (restoran stolida ochilgan) va biri ochilmagan yahudiy arog'i hamda arman konyagini ko'rib, umrida bunday ne'matlarni ko'rmagan kishidek yasama shodiyonalik bilan:

— O-o, — deb yubordim. — Restoranni quritibsiz-ku, Tavakkal aka!

— Ha, endi, boyvachcha-da, bu kishi, — dedi Gulsara ham uni maqtagan bo'lib.

— E, shuyam narsa bo'ldi-yu! — Boyvachcha bamaylixotir qo'lini uzatdi. — Taqsimchani bering.

8

Bittadan ichishgach, suhbatimiz ravon oqayotgan irmoq maqomida davom etdi.

Butun bir tovakini (tovuqning to'shini) bir zumda etdan tozalab, chiqitni yalang stolcha chetiga uyub qo'ygan Tavakkal yog'li qo'llarini sochiqqa artib olib, bir oyog'ini tagiga qatlab o'tirgancha, "Malboro" sigaretini tutatar va har tomonga loqayd ko'z tashlab, gapga qo'shilib turar, Gulsara barmog'ida chimdib olgan etni o'ychanlik bilan chaynar, men gapni gapga ulash bilan halak edim.

— ...Ha, Peredelkinadayam bo'lganman bir marta. Yozuvchilarning konferensiyasiga borganda. Ba'zi yozuvchilar bir umr yashashar ekan.

— Endi yo'llar bekildi, — deb qo'ydi Gulsara. Va Tavakkal birdan buklab o'tirgan oyog'ini tushirib:

— Gruziyaga bormaymizmi? — deb qoldi Gulsaraga qarab. — Men Qrimda bo'lganman, Gruziyada — yo'q... Ey, boraylik, Gul! Dunyo o'tdi-ku! — Keyin menga qarab bidillab aytdi: — Kennoyingiz sop-sog' yurgan edi. Bir kechada o'lib chiqdi... Undan sal oldin bitta akam ketgan edi. Juda omonat ekanmiz-da, Quvvatjon! Ey, siz hayotning mana shu tomonlarini ham yozing!

— Albatta, — dedim. Qandaydir yozilmagan axloq qoidasiga ko'ra, Tavakkal bu begona xonimning, aniqrog'i, o'ziga ergashib yurgan "qizi"ning oldida oilasi haqida bemalol gapiravermasayam bo'lardi. Biroq konchi yigitimiz bu haqda jilla mulohaza qilmas, aniqrog'i, haligiday "andisha"ga bormas edi.

Rost, u to'g'ri — bor gapni yashirmasdan aytayapti. Ammo... Ana shu "ammo"ga yetganimda, shunday xulosaga kelgandek bo'ldim: bu ayol bilan o'zining orasida chegara qo'ymoqchi, ya'ni "sen — ko'ngil xushisan, mening o'z hayotim bor", demoqchi.

Sezib turardimki (restorandayam his etgandim), juvon o'zini noqulay ahvolda sezayapti, mening oldimda xijolat chekayapti. Bu hol uning qayrilma qoshlarining ko'tarilib tushishidan bilinar, taomni chaynab turgan jag'lari harakatdan to'xtab qolar edi... U sochiqni dadil olib, barmoqlarini artdi-da, yonidagi sumkasini tizzasiga qo'yib, undan "Bashan" yozuvli yupqa pachkani chiqardi, sof yaproqni o'rab yasalgan sarg'ish sigaret chiqarib, labiga qistirganda (Tavakkal angrayib qarab turardi), men shoshib chaqmog'imni yondirib tutdim. U tutatib:

— Rahmat, — deb qo'ydi bilinar-bilinmas jilmayib.

— Ha-a, bu qanaqa sigaret ekan? — Tavakkal karton qutini dangal olib, yo'g'on barmoqlari bilan yirtgudek qilib ochdi. Bittasini chiqarib hidladi. — Sigara. Sigarami shu? — U mengayam qarab oldi. — Zo'ridan chekar ekansiz.

— Bitta qo'shnim sovg'a qilgan edi, — deb qo'ydi Gulsara. Keyin birdan qaddini rostlab: — Gruziyaga boramiz, dedingizmi? Eto seryozni? — dedi.

Tavakkal hushyor tortib:

— E, meni... meni... — deya bo'g'ilib, birdan xitob qildi. — Hozir desangiz, hozir ketamiz!

Gulsaraning xiyol suzuk, ammo surmaning kuchi bilan katta ko'rinuvchi ko'zlaridan bir nur chiqqanday bo'ldi.

— Hozir?

— Ha, ha. Jo'naymizmi?

— Bo'pti.

— Gap tamom! — Yigit menga dedi: — Quvvatjon, biz ketamiz! Gap bitta... O'zi, o'ylab yurardim. Mana, xonim ham istab

qoldilar. Bir aylanib kelaylik bu o'tar dunyoda... He-he, — deb ilhomlanib ketdi.

Gulsara sigarasini sumkaga soldi. Tavakkal chekib turganini kuldonga bosib ezdi.

Men Tavakkalning dangalligini, aytgan gapidan qaytmasligini bilardim. Ammo juvonning ham bunaqa fe'li borligi... qiziq va zavqli edi. Shu bilan birga kishida noxush taassurot qoldiradigan fikr ham uyg'otardi: "Boyoqish g'amgin ko'rinadi. Buning ustiga, soxti-sumbatiga qaraganda, anchagina o'ziga to'q, "ko'rgan" oilaning farzandiga o'xshaydi. Haligiday bezorilarga sumkasini oldirib yurgan bo'lsa, tag'in: "xaloskor"ni uyiga olib kirgan bo'lsa, demak, yolg'iz... Boyvachcha "tantiboy"ning sharofati bilan bir o'ynab qolgisi keldi, shekilli...". Ayni chog'da boshqa mulohazayam tug'dirardi shijoati: "Tavakkalni sinamoqchi. Undan qandaydir alam o'tgan-u, shu alamdan forig' bo'lmoqchigayam o'xshaydi...".

Harqalay, bir manzara ko'z oldimga kelib, mamnun bo'ldim: Gurjistonning qandaydir xiyobonida, ikkovi ketishmoqda, ikkisi ham bashang kiyingan va bir-biriga yarashgan... Tavakkal uni har qanday sharoitda ham himoya qilaoladi. Va o'sha gurjilar makonida ham sira past tushmaydi.

Ularni ko'rgan-kuzatganlar: "Kimlar ekan bular?" deb bir-biridan so'rashar va bittasi aytar: "O'zbeklarga o'xshaydi, tili turkchaga yaqin...".

9

Ular dabdurustdan o'rinlaridan turishganda, tag'in xijolat hissi ezdi meni: "Hozir bularni samolyot ham kutib turmas... Demak, Gulsaraning uyiga borishadi, albatta. Albatta, bu kiyimini almashtirishi, yana ul-bul olishi kerak. Tavakkal ham mehmonxonaga (nomeriga) kirib chiqadi...".

Xullas, tag'in biron yeyimlik-ichimlik olishlarini taxminlagach, ertaga lohas bo'lishimni bilsam-da:

— Hoy, musulmonlar, yana ikki minut sabr qilinglar, — dedim shoshilib. — Axir, yo'l ketadigan odamlar ham qursoq o'lgurning nafsini qondiradi oldin.

— O‘-o‘, yana bittadan! — deb shang‘illadi Tavakkal.— Ketar jafosiga! Bizga oq yo‘l tilang, Quvvatjon uka! Bu safardan har birimizning orzu-armonimiz ro‘yobga chiqsin! — shunday deb, nimagadir qah-qah otib kulib yubordi.

Gulsara ham birdan yayrab kulvordi-yu:

— Ilohim, ilohim, — dedi.

Shunda angladimki, bularning o‘zaro sirlari bor. Qandaydir istaklari borki, ro‘yobga chiqmabdi ekan... Ana shunda, ont ichaman, ichki bir andisha bilan eslab qoldim: Gulsara Tavakkalni kecha uyida yotqizmagan...

Demak, bu borada ularning o‘rtasida qandaydir hazil-huzulga yaqin, biroq jiddiygina ochiq gap-so‘zlar ham bo‘lgan... Bo‘lgani aniq, shuning uchunki, Tavakkal restoranda xonimning kecha yotishga ruxsat etmaganini aytgach, uyalmay-netmay: “Tegmayman desam ham, ko‘nmadilar”, dedi.

— Oy borib, omon kelinglar, — dedim Tavakkal quyib uzatgan piyolani olib. Shunda miyamdan bir malolsiz xayol kechdi: “Tavakkal — bo‘ydoq hisob, buyam— yolg‘iz ekan, bir-biriga mos tushardi-da, til topishsa...”. Keyin, bu fikrni ochiq aytolmasligim bois: — Bir-birlaring bilan yanayam yaqin bo‘lib kelishlaring uchun, — deb gapni tugatdim.

Ular, nazarimda, biron soniya o‘yga tolib qolishdi. Keyin, yana kula-kula piyolalarini uzatib cho‘qishtirishdi. Ichib bo‘lgach, tovakidan yeyishga qistadim.

Har ikkisi ham rad etdi.

Ular sirtqi engillarini kiyib, men choponimni yelkamga tashlab, yo‘lakka chiqqanimizda, ikkilanib so‘radim:

— Putyovka topilishi... Axir, hozir birov tayyorlab turgani yo‘q, Tavakkal aka.

— E, ukajonim-e, — deb kiftimdan quchdi Tavakkal. — O‘g‘riga mol qahatmi? Ha-ha-ha!

— U yerda ijaraga beriladigan kvartiralar ja ko‘pmish, — dedi Gulsara. — Hatto aeroportga chiqib kutib olisharkan. Shuning ustidan kunini o‘tkazadiganlariyam ko‘p...

— Ha-a. Men u tomonlarga borib ko‘rmaganman. Lekin ulardayam Ijod uylari bor.

Maydonchaga tushganimizda, "Jiguli"ning bir soatdan keyin kelishini eslab, turib qoldik. Tavakkal menga zimdan qarab qo'yib, cho'ntagini kavlar ekan, men soatga qarab olib, uning yetib kelishiga o'n to'rt minut qolganini aytdim. Tavakkal baribir "shoshmang" deganday qilib, pul chiqarganda, men tislanib ketdim va ular katta yo'lga chiqqunlaricha o'n besh minut o'tishini, demak, moshinaga yo'liqishlarini aytdim-da:

— Ketdik, o'zim kuzatib qo'yaman, — dedim. — Yo'lni ko'rib olganlaring qoladi. Axir, yana kelarsizlar?

— Albatta, — dedi Gulsara. — Bu yerni kunduz kuni ko'rish kerak ekan.

Tavakkal o'ylanib qoldi-da:

— Bo'pti, — dedi.

Shunda chiroqlarini lovullatib, sassiz kelayotgan yengil moshina signal berdi-ku!

O'sha "Jiguli" ekan.

Ular o'tirib ketishdi. Men "oq yo'l" tilab qoldim. Yomg'ir allaqachon tinib, endi shu sokinlikka mos shabada esar, uyg'onayotgan dov-daraxtlarning namxush (yelimni eslatuvchi) hidi kelar, bechora oy esa bulutlarni oldidan o'tkazar, nazarimda, ulardan oldinga chiqishning ilojini topolmay xo'mrayar, ba'zan qalin pag'alar soyasiga yashirinar edi...

10

Yozning jazirama issig'i qaytib, shu daraja barobarida salqin tunlaridan biri edi. Men balkon-ayvonchada ichkariga kiritishning ham, pastga tashlavorishning ham "iloji" bo'lmaganidan qolavergan, suyanchig'i baland, enligina kresloda chekib o'tirardim. Xonam shiftining devor bilan ushlashgan joyidagi million qatnash evaziga qurilgan inida ona qaldirg'och yaqinda ochib chiqqan bolalarini bosib yotar, ota qaldirg'och esa darparda ilig'lik moslama ustida qunishib turar, ikkisi ham "chiy-chiy, chiriq-chirq" etib so'zlashib qo'yishar, goho ota qaldirg'och xonani bir aylanib, uskunaning boshqa joyiga qo'nardi. Ular shundoq inoq, ahil, bir-biriga mehribon edilar.

Men esam ularning sasini eshitib, o'zlarini kuzatib zavqlanar hamda totli bir xo'rsinish bilan Buddaning mashhur so'zini bot-bot eslar edim: "Inson har qancha baxtsiz bo'lsayam, yorug' olamni ko'rib turganidan xursand bo'lishi kerak. Chunki uni ko'rmasligiyam mumkin edi".

Keyin esa o'zimizning Muhammad payg'ambar hadislaridan birida insonning boshiga tushguvchi barcha og'irliklar, qalbini larzaga soluvchi iztiroblar Alloh taolo tarafidan bandasini sinash uchun berilajagi, illo bandasi shularga-da shukrona qilsa, farovon kunlarning-u qalbni xushnud etguvchi quvonchlarning qadriga ko'proq yetishi haqida xabar berganlarini esladim.

Qolaversa, bu ikki hikmat — menga tasalli, quvvat berguvchi "hamrohlarim" edi.

Eshigim taqillaganday bo'ldi. Men pastga qaramoqchi edim, haqiqatan ham eshigimni birov ishonch va shaxt bilan taqillatdi. Men yo'lakda turgan kishining begona ekaniga zarracha shubha qilmasdan borib ochdim.

Ishoning-ishonmang... Gulsara jilmayib turardi. "Soat o'ndan oshdi-yov" degan gap xayolimdan kechgan ko'yi, tashqariga bosh chiqarib qarashni ham o'yladim-u:

— Kiring, kiringlar, — dedim birdan chekinib.

— Predstavti sebe, man bitta o'zimman! — dedi mehmon yanada chaqnabroq jilmayib. — Hayronmisiz?.. Hayron bo'lmang, do'stmiz-ku? Do'st do'stning uyiga so'roqsiz kelar emish... — Uning egnida ilon po'stidek yaltirab turgan matodan tikilgan uzun ko'ylak, g'oz bo'ynida bir tizim dur, qo'lidagi salafan xalta og'irlik qilayotgandek o'sha tomonga mayishibroq turardi.

— O', albatta, albatta. Marhamat, — dedim. Va xayolimdan tag'in o'sha o'y o'tdi: "Xonam saranjommidi?" Beixtiyor xaltasiga qo'limni uzatib, yana chekindim.

Gulsara yo'lakning bosh tomoniga qarab olib:

— Hayron bo'lishvotti, kim bo'ldi bu satang, deb... Nu i k chortu, — dedi.

— Hayron bo'lsa arziydi, xonim, — deb eshikni yopdim. Gulsara tim qora tuflisini do'qillatib, xonamga kirdi.

— O, salom sizga, kitoblar... E, qaldirg'ochmi u? O'sha! Vey, muni qarang-a! Yaxshi odamlarning uyiga in qo'yadi, deyishardi... Kampliment emas, siz yaxshi odamsiz, Quvvatjon... Yo'q demang. Ba'zan kamtarlik manmanlikdan dalolat beradi. Topib aytdimmi? Marhamat, o'tiraylik. Man qaytib ketaman. — Keyin divanga o'tirib (stolcha divanning oldida edi) irimiga yarasha fotiha o'qilguncha Gulsara ancha-muncha gaplarni aytib tashladi: — Singlimmi uyida den rojdeniyada edik. Uning eri shishkalardan. Sudya... Da, nu ix... Kechirasiz, Quvvatjon, tanasida madaniyat, aristokratlik bo'lmagan odam baribir xol qo'yadi. Hech qurmasa, o'zini tutishni bilmaydi. Amalini unutmaydi... O'zidan lavozimi balandroq kishi kelsa, unga poy-patak bo'lib ketadi. Bu yoqdagilarni unutadi.

— Ha, undaylar bor, — dedim. — Menimcha, ular rahbar bo'lib ko'rishmagan odamlar.

— Vo-vo-vo! Tog'ga tirmashgandek tirmashib, tirnoqlari qonab ketib, mansabga erishgan-de.

— Choy icharsiz?

— Yo'q. Shu oqshom, ishonasizmi, mast bo'lgim keldi... "Mastlik qanaqa bo'larkin?" deb o'ylasam, juda yoqimli bo'larkan. Bemalol gapirvorarkansan...

— Men ichimlik saqlamayman, — dedim. — Ba'zan hamma narsani unutging keladi, shunda ichib qo'yganingni bilmay qolasan.

— Xuddi shunday, azizim! Bugun man ham dunyoni unutgim keldi... Xaltani oching, hamma narsa bor... Singlimga aytdim: "Eng yaxshi zakuska, ichimlik sol", dedim. U mani yaxshi ko'radi... Xayrlashayotganda ko'ziga yosh oldi.

— Him, nimaga?

— E, manga achinadi-da... Qo'yovuring, birovning achinishiga zor emasman. Qandoq bo'lsam, shundoq o'taman. Gunoh-savobim — o'z bo'ynimda.

— O, yana yahudiy arog'i...

U (bemalol) qah-qah otib kuldi.

— Voy, jugutlar-e, juda ustamon-da. Aroqniyam xushta'm qilishgan. Qoyil.

— Him, adashmay topib keldingizmi? — Aslida: "Taksi bilan keldingizmi?" demoqchi edim.

— O, bitta ko'rgan joyim pamyatimda qoladi. Taksis injiqlik qiluvdi, bor pulimmi... Uchdan birini berdim, — dedi-da, yana kulib yubordi. — Nichego, uyda bor... Qani, quying, Quvvatjon. Sizni "Azizim" desam, maylimi?

— E-e, bemalol... Lekin meni ismimni aytib chaqirishsa, ko'proq yoqadi.

— Ha-a, siz ham...

— Marhamat.

— Sizday... Tavakkal akaning sizday do'sti-ukasi borligi uchun olaman.

— O, men esam, akamning sizday suyuklisi borligi uchun olaman shuni, — dedim.

11

Gulsara qo'lidagi piyolaga tikilib qolgan edi. Irg'ib o'rnidan turdi-da, ayvon eshigidan yarim tanasini chiqarib, aroqni pastga sepib yubordi. So'ng siniq jilmaygancha (shu onda asli qiyofasiga qaytgandek edi) joyiga o'tirib, piyolani tutdi.

— Quying. Mening tostim uchun ichamiz. — Keyin, o'ychanlik bilan davom etdi: — Ijodingiz aslo... aslo bo'shashmasin, Quvvatjon. Qandaydir qiyinchiliklariyiz bo'lsa, iloyi, vaqtinchalik bo'lib chiqsin. Hm, o'tgan gal odamning fe'li o'zgarmasin, debmikan — bir nima devdingiz. Shundoq: sizning shu fe'lingiz sirasira o'zgarmasin... Kennayim borlar-a?

— Albatta, — dedim. — Ikkita farzandim ham bor... Xudoga shukr, meni tushunishadi, o'z holimga qo'yib qo'yishgan... Men ularni har qancha boshimga ko'tarsam, arziydi.

— O'shalarning boshidayam omon bo'ling... Avvalo, siz — yozuvchisiz. Him, menimcha, ancha obyektiv pisatelsiz... Bunday odam kimligiga aqlim yetadi...

— Bu sovub qoldi.

U qah-qah otib kuldi (yana sarxush kayfiyatiga qaytdi). Besholti parrak qazi bilan bir taxsimcha norin olib kelgan ekan, ulardan gazak qildik.

Tabiiy, Gulsara shunchaki gaplashib o'tirish uchun kelmagan, qandaydir (Tavakkal bilan bog'liq!) dardini ochib, hasrat qilmoqchi, balki maslahat so'ramoqchi edi.

Men gap tizginini o'sha tomonga tortishga bahona izlar ekanman, u xuddi o'sha kungi (!) sigara qutisini chiqarib, birini labiga qistirdi. Men chaqmog'imni chaqib, unga tutdim. Keyin o'zim ham "Rodopi"dan tutatib oldim. Gulsara uzun va keng etak ostidagi oyoqlarini chalishtirib, bir-ikki dud oldi-da, tavba qildim, shunaqayam yo'talib qoldiki, ko'karib ketayozdi.

— Kechiring-kechiring, — dedi hansirab. — Maning... maning qandaydir kasalim bo'lsa kerak. — So'ng shu holida jilmaydi. — Lekin yuqumlimas. O'zim feldsherman, axir... — Keyin sigara pachkasini birdan g'ijimladi. — Juvanmarg bo'l... Olti oydan buyon tugamiydi bu savil.

— Kuchli bo'lsa kerak, — dedim men. — Shuning uchun men cheksam ham yo'taltirvoradi.

— Yo'q, maning o'pkamdami, yuragimdami bir illat bor, Quvvatjon. O'zim bilaman... Slabiy bo'lib qolganmi, chyort znaet. O'sha kuni restorandayam ko'rdiyiz-ku... — Shunda men unga tikildim. U menga tikildi: endi maqsadga o'tmasa bo'lmas edi. — Aytmoqchi, — deya birdan yana jilmaydi, — okayiz kelib turiptilarmi? Yo o'sha-o'sha badar ketdilarmi?

— Kelgani yo'q, — dedim. — Lekin bir-ikki marta qo'ng'iroq qiliptilar Qarshidan. Mening yo'g'imda. Borimdayam telefon qilgan bo'lishi mumkin. Tusholmagandir... Buning ustiga, yozda mehmonlar ko'payadi dachada. Hozir ham bor.

— Telefon zaynit?

— Xuddi shunday... Sizga qo'ng'iroq qilib turgandir? Balki uchrashgandirsizlar yana?

— Yo'q, yo'q, — deb beozorgina kuldi. Kulgisida yig'ining saslari bor edi.

— Nega endi? — dedim. — Balki o'zingiz...

— O, man hech qachon telefon qilmiyman! — U bu gapni teran bir ishonch bilan aytdiki, "g'ururdan ham Xudo bergan ekan", deb o'ylash mumkin edi.

— Tushunarli, — deb qo'ya qoldim.

Shunda u qandaydir kinoya aralash nopisandlik bilan so'radi:

— Nega bizning Tbilisi safarimiz haqida so'ramiysiz? Nahotki qiziq bo'lmasa? O'ziyiz kuzatgan, oq yo'l tilagan edingiz, janob yozuvchi?

— Men istihola qilib turibman, — dedim. — Ortiqcha lyubopitstva yaxshimas deyishadi.

— Rahmat. Aytib beraman, — dedi u. Va mening sigaretimdan birini oldi.

Keyin hikoya qila boshladi.

12

— O'sha kecha Tbilisga uchib ketdik... Bo'tdan chiqqanimizdan keyin mani uyda qoldirib, o'zlari aeroportga ketdilar... Tavba, "siz"lab gapirgim kemavotti. Ha, mayli, man uchun shuncha sarf-xarajat qildilar. U yoqdayam, e-he...

— U kishi aeroportga ketdi, — dedim jilmayib (bularning qismatiga qiziqib qolganimni shunda sezdim).

Gulsara kulib yubordi.

— Ha. Man uyda kiyinib turadigan bo'ldim. Soat ikkiga yaqin ikkita bilet bilan kirib keldilar. Nu ne mogu... Munaqa yigitlar kam topiladi, Quvvatjon aka!

— Kechirasiz, u Toshkentga nima uchun kelgan ekan? Ha, geologiya vazirligiga devdi-ya...

— Man so'ramovdim. Man, prosto, hayron edim u yigitning pavideniyasiga... Shunday qilib, tong oqarganda Toshkentdan uchib ketdik. Da. Xo'p, Tiblisga borib tushdik. Aytganimdek, uyini ijaraga beradiganlar chiqib turishgan ekan... Janoblari gaplashdi. Taksiga o'tirib jo'nadik...

— Qayerga?

— Gagraga. Avtobus ham, hatto trolleybus ham qatnar ekan. Biz taksida ketdik, kak palagayetsya... O'rischa so'zlarni ko'p ishlatvomman, kechirasiz.

— Bemalol.

— Oy, juda ajoyib joylar ekan. Tog', dengiz, tinchlikki, qo'yovurasiz... Biz uyiga tushgan odamlar — abxas musulmonlari ekan. Bitta kampir bilan o'g'li turarkan. Unaqa kampir olamda yo'q.

Shunaqayam mehribon, mani shunaqayam yaxshi ko'rib qoldi. Eri baliqchiyakan, shtormda halok bo'lgan ekan.

— Uzr, bitta uyda turdinglarmi?

— Ha-ha-ha! Yo'q... Janobi Tavakkalbek shuni istadilar, albatta. Qolovursa, sizga bo'ladigan gapni aytsam, o'sha maqsadda mani oborgan ekanlar.

— Him, tushunarli.

— Tasavvur etingki, man yonimga qo'ymadim.. Ishonmasangiz, tepamda Xudo bor. Man Xudodan qo'rqaman, irimchi ayolman. Ba'zan o'ylaganim o'rnidan chiqadi. Hatto Toshkentdan jo'nayotgandayoq: "Bu boyvachchaning maqsadi shu-yov", degan edim. Xuddi shunday bo'lib chiqdi.. U manga, bilasizmi, ming dollar turadigan brilliant ko'zli uzuk sovg'a qildi. U-hh. Bitta mestniy xotin opkeluvdi, narxini so'ramay-netmay oldi. Shunaqayam chiroyli, tomosha qilib o'tirsam deysiz... Kechirasiz, biz ayollar lattaga, yaltiroq narsalarga o'ch bo'lamiz-de! Ayniqsa, man... Ha-ha. Ba'zan bitta kiygan ko'ylagimni boshqa kiymasdim, derdim...

— Qachon?

— O, tarixga qaytishga to'g'ri keladi.

— Uzr.

— Uniyam aytib beraman. Balki bir narsa yozarsiz?.. Chem chyort ne shutit! Ha-ha-ha... Hazil. Bu gaplarni, azizim Quvvatjon, sizga aytvomman, xolos. Hatto singlimgayam aytgan yo'qman. Ichimni kemirivordi...

— Qulog'im sizda.

— Shunday qilib, uzukni olmadim... Vey, vijdonan aytivomman! Agar o'sha uzukni "sovg'a" deb berganida, ehtimol... Unga munosabatim o'zgarib ketarmidi... Yo'q, u kishim: "Shu kecha birga yotamiz, xolos, dedilar. — Uzukning haqiga...". Axir, bu — mani haqorat qilish emasmi? O'ziyiz ayting... Man nima o'yda edim-u, u kishi... Yig'lavorishimga oz qoldi. Uydan chiqib ketdim. O'zimga ajratilgan xonagayammas, kampirning xujrasiga kirib yotdim. Bechora ko'p achindi manga... "Eh, qizim-e, soddasan", dedi. "Bir kun pushaymon qilasan", dedi. Haqiqatan ham keyin, shu kunlarda pushaymon qildim. Ishonavering, azizim. Shunaqa bo'ldi...

— Keyin?

— "Yo'q, oyijon, man unaqa qilolmiyman", dedim. Keyin yig'ladim. Ja xo'rligim keldi... Keyin kampirga Tavakkal akangiz bilan qanaqa vaziyatda tanishganimni aytib berdim... Kampir uni yoqladi. Vaabshe, maqtasa arziydi-da u inson! Faqat, nima desam ekan, tarbiya ko'rmagan-a? Siz nima deysiz? Qani, fikringizzi ayting-chi? Yashirmang, iltimos.

— Endi, qishloq joyning ta'siri bo'ladi, albatta,— dedim. — Buning ustiga, u — gapini ikki qildirmagan yigit. Ishoning, Qashqadaryoda uni tanimaydigan kishi kam bo'lsa kerak.

— Hm, shuniyam aytdi... Ertasi mast bo'lib kelib, yuzimga soldi. "Meni xor qilding, yaramas!" dedi.

— Shunday dedimi?

— O, bundan kottalariniyam aytdi... So'ng, uchinchi kuni safarimiz qaridi. Qaytdik janoblari bilan...

— Keyin?

— Sovuqqina xayrlashdik... Malades, u uyimgacha olib keldi taksida. Man shundoq chiqqan edim. Da, esimda: bir-birimizga qarab kulishdik. Uning kulgusi... Lekin ja ezildi bechora, g'ururi poymol bo'ldi. O'rganmagan-de, toes, munaqasini ko'rmagan-da... Xo'rozga o'xshab yugurganda, makiyonlar pas-s etib... Kechirasiz, aynib ketdim. Vabshe, bilasizmi, kunlarning birida mana shunaqa aynishniyam istab qolar ekansan. Axir, tilimizda so'kishlar bor, haqoratlar... Nega ularni birovlar ishlatadi-yu, biz ishlatmay o'tamiz? Ha-ha-ha... Hazil, azizim.

— Bilaman.

— Odam. Har qanday sharoitdayam odam bo'lib qolishi kerak. Aks holda, hayvondan nima farqi qoladi? Mana, siz yozuvchilar yozasizlar. Har baloni: seks bormi, urush-janjal bormi — barini qog'ozga tushirasizlar. Lekin bir maqsadni ko'zlaysizlar-ku? Yaxshiliknimi? Ezguliknimi?

— Albatta, — dedim. — Chunki, Gulsaraxon, bu jihatlar odamzodning tabiatida bor. Lekin muayyan sharoit ta'sirida...

— Ponyatno! — Keyin kulimsirab, shunchaki dedi:— Meditsinada shaxsning xarakteri embriondayoq ma'lum bo'ladi, degan gap bor, janobi pisatel.

— Bor, bor. Albatta, — dedim. — Insonning tabiatida "bor" deganimdayam shuni ko'zda tutgan bo'lsam kerak. To'g'ri, u yoki bu tomonga, o'rischasiga aytsak, otklaneniya bo'ladi, albatta.

— Otayizga rahmat.

— Yana quyay, a?

— A-aa, mayli!

— Gulsaraxon, siz anchagina o'ziga to'q, ham madaniy oiladan chiqqansiz-a?

— O, so'ramang, — deb tag'in kuldi u. — yeshyo kak... Lekin, lekin ularning konstitutsiyasi boshqa edi.

— Nimasi?

— "Axloq kodeksi", — deb qahqaha otdi-yu, darhol jiddiy tortdi. — Yo'q, man ularning... — keyin menga yalinish bilan boqdi. — Keling, o'sha yoqqa o'tmaylik. Hozirgi dardim ham yetadi. Hozir ham man nimadandir umidvorman... Tushunasizmi, masalan, o'h, Tavakkal akangiz sal boshqacha... Voy, man tushunaman, u erkak odam! Uning talabi, ehtiyojlari boshqacha... Eto yestestvenno. Him, man ham uning nog'arasiga tushdimmi, demak, u istagan raqsni o'ynashim kerak... Tushunyapsizmi?

— Ha, albatta.

— Lekin, man... Man o'zi jinniman, bu hayotga to'g'ri kelmiyman. Qiz bolaligimda singlim, singlim-a... manga: "Sen romantiksan, dadammi aytganini qil", der edi. Singlim. Qilib ham ko'rdim, dadamning aytganlarini. Natija chiqmadi. Qaytamga... Keling, shuni ichayluk. Man uchun hozirgi damlar, mana shu o'tirishimiz ham g'animatga o'xshaydi.

— Qaysi ma'noda aytayapsiz, bilmayman-u, ammo har bir daqiqaning qadriga yetish kerak, deydilar.

— Da, nu! Ba'zan tezroq, bu umr o'ta qolsaydi, deysan. Umr — yelkangdagi yuk, mashaqqatlardan iborat bo'lib ko'rinadi... O'h, xvatit falsafa.

— To'g'ri aytasiz. Biroq, menga ishonib shuncha gaplarni aytganingiz uchun rahmat.

— Da, — dedi u mubham bir ohangda, boshini egib.— O'ylab qoldim-de, ziyofatdan chiqib: "Qatga borsam ekan? Kim maning dardimni tushunadi?"

— Rahmat.

— Balki sizning xolisligingiz uchun, yo'q... anavi boyvachcha vallamatga yaqinligingiz uchun, ha-ha, bizning u bilan munosabatlarimizni faqat siz bilardingiz. Beixtiyor guvoh bo'lib qolgan edingiz. So'ngra odamlarning gaplarini yaxshi tinglaysiz. Va hokazolar! Qani?... — U yana kulib yubordi. — Sizdan uyalmiyman, Quvvatjon. Anchadan buyon biladiganga o'xshiyman. Yoshimiz ham teng bo'lsa kerak.. Eng muhimi — siz odamlarnnig ustidan kulmaysiz.

— O', aslo, — dedim. — Haqqim yo'q. Kulish lozim bo'lsa, mening ustimdan ham juda kulish mumkin.

— Ko'p yashang.

— Sizlar bilan, el qatori.

13

Shundan keyin sezib qoldimki, suhbatimiz ado bo'lgandek: illo Gulsara hasratini qilib bo'lgan, men eshitgan, u ko'nglini bo'shatgan, xo'-o'sh, Tavakkalga nisbatan munosabatini aniq aytmagan hali, balki aytib bo'lgan ham edi. Shundoq gurungga yangi ruh bergan narsa — mening aziz mehmonlarim — qaldirg'ochlarim bo'ldi. Derazalarda ochilgich uskuna ustidagi xo'rozi "chirq-chirq" etdi, xonani bir aylanib, derazaning yuqori ko'ziga o'rnatilgan sovutgich ustiga qo'ndi. Shunda makiyon qaldirg'och ham asta-asta chirqillab qo'ydi. Voy, bularning bir-birini tushunishlari!

Qaniydi, Sulaymon payg'ambar ular so'zlarini sharhlasalar-u, biz eshitsak!

Biroq, shunday taxmin qilish ham mumkin edi: "Qalaysan? Yaxshi yotibsanmi?" dedi erkagi. "Durust, har holda", deb qo'ydi makiyoni. "Ha, unday bo'lsa, yotaver", — "Siz ham damingizni oling". O'sha kunlarda, ishonasizmi, ona qaldirg'och inida ko'proq yotib qolsa, ota qaldirg'och unga tumshug'ida xo'rak opkelardi: xuddi jo'jasiga berganday qilib og'zini ochar, ona qaldirg'och kattagina boshini uning og'ziga tiqib, naq jig'ildonidan yemish olardi.

— Voy, voy, — der edi Gulsara o'zicha. — Oynanib ketay sizlardan.

— Bultur ham shu ikkisi kelgandi, chamamda, — dedim. — Umuman, bular bir-biriga juda sodiq bo'ladi. Hatto aytishadiki, juft oqqushdan biri halok bo'lsa, ikkinchisi ko'kka ko'tarilib, o'zini qoyalarga urib o'ldirar emish.

Gulsara xayollanib, totli "oh" yegan qizboladek tanglayini taqillatdi.

— Udivitelno! — Keyin menga jo'ngina tikilib so'radi: — Demak, bular bir-birini sevib, oila qurishar ekan-de? Fikrimni tushuntiraoldimmi?

— Ha, — dedim. — Sevishmi bu, ko'nikishmi bu, har holda tabiiy tanlanish yo'li bilan juftlashadi bular.

— A, yestestvenniy otbor... — Keyin sho'xgina tabassum qildi. — Baribir tanlashar ekan-de, azizim?

— Ha, endi, shunday, — dedim. — Lekin ularda tanlashning mezonlari boshqacharoq bo'lsa kerak.

— Yerunda! Kechirasiz... Makiyonlari erkagining faqat kuchliligiga maftun bo'ladi, deysizmi? Baribir... Zot qoldirish uchun erkakning kuchli bo'lishi har qancha shart esa-da, baribir urg'ochi uni sevishi kerak. — So'ng u o'z fikriga yana sho'ng'iy boshladi: sezib turibman, bu — uning uchun muhim edi. — Siz ular munosabatida qandaydir mezon bo'ladi, dediyiz. Bo'ladi, albatta. Ammo o'sha mezon faqat kuchni o'lchamaydi...

— Ajoyib fikr aytdingiz, — dedim uning ko'ngliga borib. Va darhaqiqat, Gulsaraning fikrini quvvatlaydigan misol yodimga tushdi. Ana shu "yodga tushgani"ni aytgach, qolganini ham sharhladim: — Afrikada o'zimizning zag'izg'onga o'xshash bir qush bo'larkan. Juda chiroyli, "Hayvonot olamida" ko'rsatishgan edi. Xo'rozi, ayniqsa, go'zal bo'lar ekan... Siz yeb o'tiring, iltimos. Menimcha, ziyofatda to'yib ovqatlanmagan bo'lsangiz kerak?

— Topdingiz, azizim. Man, umuman, mehmondorchilikda deyarli ovqatlanmiyman. Ayniqsa, bizning... Nu ladno. Fikringizni davom ettiring, qiziq gap gapirvossiz.

— O'sha qushning xo'rozi in qurib bo'lgandan keyin shu uyasining atrofiga har xil latta-putta, yaltiroqtoshlar, hatto shisha siniqlarini ham opkelib, sochib, qo'yarkan. Buyam kam, keyin uyasining atrofida aylanib, raqs tushar ekan. Qanotlarini hurpay-

tirib... Biram qiziq! Maqsad — makiyonning diqqatini tortish. Qizig'i shundaki, bitta makiyon haligi molga qiziqib yoniga kelsa, boshqasi kelmay — o'tib ketar ekan.

— Oh, qoyil! — deb yubordi Gulsara. — Siz ko'p narsani bilasiz.

— Ko'rganim-da... Shuni nazarda tutganda, sizning fikringizga qo'shilish mumkin, — dedim. — Ya'ni, mana... mana shu qaldirg'ochlar ham juftlashishdan oldin bir-birini tanlagan ham, balki sevgan bo'lishlariyam mumkin.

— Mumkin emas, xuddi shunday!

U "shunday"ligini istar edi.

— Balki, balki, — dedim. — Xo'sh, bundan murod.. Kechirasiz, siz ilgari turmush qurgan bo'lsangiz kerak?

U divanga birdan yastanib, uh tortib yubordi. Keyin piyola tubida qolgan ichimlikni birdan sipqordi-da:

— Mne pora, dorogoy moy, — dedi. — Uzr, bezovta qildim bemahalda, — so'ng yig'ishtirina boshlab, davom etdi: — Tavakkal akangiz telefon qilib qolsalar, salom ayting... Him, mejdu prochim, aytmasangizam bo'ladi.

— Aytaman, — dedim.

U qah-qah otib kuldi.

— Qaniydi...

— Nima?

— "Kazaki" filmini ko'rgansiz-a? Bir zamonlar ja tomosha qilardik. O'shanda Orlova degan bir go'zal ayol... aktrisa Gardi Gardiyevich degan bir... barvasta, shop mo'ylov rais bilan vidolashgach, chiroyli bir ashula aytib ketadi. Foytunda, — So'ng Gulsara ovozini bemalol qo'yib aytib yubordi: — "Kakim ti bil, takim ostalsya... Ti moy dorogoy...".

Man qo'shni xonadagilar eshitadi, deb jilla xavotirlanganim yo'q, aksincha, uning yana aytishini istar edim... Chunki, yana ont ichib aytaman, Xudo bunga ovozdan ham bergan ekan.

Afsuski, yo'lakdan kimningdir nimadir degani eshitilib, Gulsara kafti bilan og'zini yopti.

— Uyat, a?

— Yo'q, — dedim.

— Mayli. Kulishsa — kulishar... Da, Tavakkal haqida (u "aka"ni tashlab ketdi) yana nimadir demoqchiydim. O'h, chort.

— Shoshmang, — dedim men ham qo'zg'olib. — Sizga qo'ng'iroq qilmadimi?

U lablarini cho'chchaytirib, kulumsiradi. Keyin:

— Men kvartirammi almashtirvordim, — dedi. — Ha, tovarish pisatel. — Keyin birdan xo'rsindi, — Jinniman-a?... O'z, o'zimni o'zim o'ldirib qo'ygim keladi... Shunaqa. Janoblari ketayotganda mani taksidan tushirib qo'ygandan keyin: "Baribir qo'limga tushasiz", dedilar...

— O'h, qaysar.

— Qaysarlik emas, johillik bu, azizim... Bilasiz, u yigitning qo'lidan har ish keladi.

— Men fikringizga qo'shilmayman, — dedim. — Shunday yot yurtlarda qo'pollik qilmagan kishi...

— Him, bu gapingiz ham to'g'ri.

— Bekor almashtiribsiz kvartirani... Gulsara, balki telefonnomeringizni tashlab ketarsiz? Men unga berib qo'ysam, yomon bo'lmasdi.

— O, o! Mutlaqo, — dedi u.

Men bo'sh kelmadim, illo bunga to'la asosim bor edi:

— U ayol kishiga zulm qilmaydi hech qachon, — dedim. — Men eshitmaganman, aksincha, surxondaryolik uch-to'rtta qizlar Qarshi pedinstitutida o'qiyotganda, ularni bezori bolalardan himoya qilib, bittasini pichoqlab qo'ygan. Shuning evaziga sakkiz yil yotib chiqdi... — Gulsara menga so'mrayib qoldi. — Ehtimolki, o'sha voqeadan keyin biz aka-ukadek bo'lib ketdik. Him, o'sha qizlardan biri menga yaqin qarindosh bo'lardi. O'sha yig'lab aytib bergan. "Bular — mehmonlar-ku, nokaslar! Tarqalinglar!" deb baqirgan. Ular Tavakkal akaga tashlanishgan, u kishi...

— Nu-nu, eto j strashno, — dedi Gulsara. Keyin chehrasi birdan yorishib ketdi. — Umuman, yigit kishining ishini qilgan ekan. Qoyilman.

— Shunaqa.

— Nega bo'lmasam menga "unaqa" dedi?

— Endi, alami kelib... O'zingiz yaxshi tushunasiz-ku? Kvartirani almashtirib chakki qilibsiz.

U boshini xam qilib, dasturxonga tikilib qoldi. Keyin parishonlik bilan:

— Shu shishani olsam maylimi? — dedi. Dedi-yu, ko'zi yoshga to'lgandek yiltirab ketdi. Men uning charm sumkasini qo'lidan tortibgina olib, shishani soldim. Keyin qazi-qartaga qo'l cho'zgandim, u endi sumkani tortib oldi. So'ngra "Rodopi"dan birini olib: — Bilasizmi, kvartirani ikki xonaliga almashtirmoqchiydim, — dedi. — Uch xonalik edi.

— Telefon nomeringiz...

— O, yo'q. — So'ng kuldi. — Kerak bo'lsa, topib oladi. Ha-ha-ha! Erkaman-a?

— Yo'q, siz o'zingizning qadringizga yetasiz. Lekin, aybsiz Parvardigor, deydilar.

— Da, kaneshna... Xo'p, mani pastgacha kuzatib qo'yarsiz?

— Katta yo'lgacha.

— Uf-f. Da-a... E, xayr qaldirg'ochlar! Azizlarim! Bir-biringga sadoqatli bo'linglar!

— Rahmat, Gulsara.

— Endi uchrashmasak kerak.

— Nega?

U hiringlab kuldi.

— "Chuyu" degan ekan chukchi.

14

Yo'lakka chiqqanimizdan keyin men yana uyga qaytib kirib, stol tortmasidagi "bir qora kunga" deb saqlab qo'ygan aqchamdan taksi puli olib chiqdim.

O'zingiz ham payqagan bo'lsangiz kerak, Gulsaraning qaytib ketishga puli qolmagan ("borini uchdan birini bervorgan") edi; bundan tashqari, juvonning shishani olishi-yu o'sha paytdagi miskin holatidan ham ma'lum ediki, u har qancha go'zal kiyingan va mag'rur boyvuchchadek ko'rinmasin, "cho'ntagi kasal" ekan.

Omadni qarangki, yengil mashinalar to'xtamiga chiqsak, bitta "VAZ-31"dan yelkasiga charm to'rva osgan ajnabiylar tushish-

moqda, haydovchi orqa qopqani ochib, g'ildirakli charm chamadonni chiqarmoqda edi.

Uning yaqiniga borib so'radim:

— Shaharga qaytasizmi, aka?

— Ha.

— Bitta mehmon bor edi.

— Faqat skvergacha, — dedi-da, jomadonni yerga qo'yib, Gulsaraga qarab oldi. — Shu kishimi?

— Ha.

— O'tirsinlar.

— Mana, yuz ellik so'm.

— Bo'ladi. Hozir... — U jomadonni g'ildiratib ketdi. Men Gulsarani imlagan ko'yi yoniga bordim.

— Sizni opketadi.

— Xayriyat, taksimas ekan. Men taksislarga ko'p ishonmiyman... Rahmat sizga.

— Iltimos, pul chiqarmang, — shunday dedim-u, mehmonlarning yukini zinapoya pastida qoldirib qaytayotgan haydovchiga peshvoz borib, kira haqini berdim.

Gulsara kabinaga kirayotganda atayin kulib:

— O, bosslarning moshinasi-ku! Supervolga, — dedi. — Eslab qoling, janob pisatel!

— Xotirjam bo'ling, — deb eshigini yopdim. Oynasidan boqib: — Ko'rishguncha, — dedim.

U kulib yubordi.

— Yomonsiz...

— Balki nomeringizni aytarsiz? — dedim. — Eson-omon yetib borganingizni bilardim.

U yana qah-qah otib kuldi.

— Yo'q. Kerak bo'lsam, o'zi topsin...Chao. Uzr, sizni ishdan qoldirdim.

— Aslo.

Shunday qilib, Gulsara ketdi va oradan biron hafta o'tdimi — Tavakkalbek Kitob tumanidan qo'ng'iroq qilib qoldi. U shirakayf va tajang edi.

Mendan hol-ahvol so'rashni orqaga surib:

— Gulsara tirikmi? Ko'rdingizmi hech?.. Men borolmayapman! Har yerda — qurilish! Bosh qashishga vaqt yo'q, uka. Lekin u yaramasni bir sekund ham unutganim yo'q, — deb savol aralash gapni qatorlashtirib tashladi.

— Gulsarangiz o'n kuncha burun kelib ketdi, — dedim. — Kayfiyati o'rtacha.

— "Kelib ketdi?" Dachaga?

— Ha. Bir soatcha o'tirib ketdi... Sizni so'radi. Menimcha, u bilan uchrashsangiz yomon bo'lmasdi.

— Telefoniga nima bo'lgan uni? Ming marta qo'ng'iroq qildim... O'sha uchrashuvimizdan bir kun oldin olib edim nomerini. Telefon qilganimda, tushib edim...

— U kvartirasini o'zgartirgan, — dedim. — Kerak bo'lsam, izlab topadi, dedi.

— Shundaymi? "Topadi" dedimi? — hovliqib so'radi u. Xursand bo'lib ketganiga shubha yo'q edi. — He, qistaloqning qizi... Quvvatjon, unaqasi bitta tug'iladi...

— Fikringizga qo'shilaman, — dedim.

— Vsyo! Men yaqinda boraman. Toshkentda bo'lsa, topaman uni... E, sizning telefoningiz nimaga zaynit bo'ladi nuqul?.. A? Mehmonlar ko'p? Ha-a... Bir-ikki marta so'raganimda, shaharga tushib ketganlar, deyishdi...

15

Tavakkalning "yaqinda" degan muddati uzoqqa cho'zilib ketdi: na ijod bog'iga keldi, na sim qoqdi. Men ular ikkovlonning juda yaqin, juda yaqin, hattoki birga bo'lishlarini ich-ichimda istaganim uchunmi, nazarimda, ular til topishgandek, demak (ne ajab!) meni unutgandek edilarki, bundan ham qanoatda edim.

Biroq ko'nglimda gumonlar ham kezib qolardi: "Til topisholmadi-yov.

Aks holda, deylik, "yarash-yarash"ni nishonlash uchun ham birrov kelib ketishlari lozim edi".

Shunday o'ylashga qandaydir ma'naviy haqqim borligi uchunmi, hatto Tavakkalning qo'ng'iroq qilmagani qandaydir malolroq kelib turgan kunlarning birida...

...qaldirg'ochlarim hayotida bir ajib tomoshani ko'rdim.

Qosh qorayishiga yaqin ulardan qaysi biri tashqarida bo'lmasin, albatta "chiy-chiy"lab uchib kelar, xonani shifti ostida bir aylanib, tupukda iylab va somon qipiqlarini qo'shib "pishitgan" loylaridan yasalgan qattiqqina chipor inning labiga qo'nar, xo'rak keltirgan bo'lsa, tumshug'ini ochib sherigiga tutar, agar sherigi ilgariroq kirib o'rnashgan bo'lsa, bir-ikki sas chiqarish bilan qanoatlanar va o'ng kelgan joyga qo'nib, tunni o'tkazardi. Goho ikkalasi ham tashqarida bo'lishsa, ketma-ket uchib kelishar, shunda, tasavvur etingki, sap-sariq tumshuqchalarini boricha ochgan jo'jalari chiyillashib qarshi olishar, ota-ona ularga navbat bilan yemak berishardi.

O, bularning tashvishlari!

Go'yoki bor bisotlari — shu bolalari-yu barcha xatti-harakatlari — ularning qornini to'ydirish va, demak, uchirma qilishdan iboratdek tuyulardi!

Men bu ajib qushlarni taniganimdan buyon — inoq, ahil, bir-biriga mehribon, deb o'ylab yurardim albatta va bu borada Gulsara bilan ham biroz gaplashgandik. Yo'q, birodar, bularning orasida ham xuddi odamzodning er bilan xotini orasidagi...

Bir daqiqa bardosh qiling.

Bir oqshom ona qaldirg'och xufton mahali chiyillab uchib xonaga kirdi-da, jon holatda og'zini ochib, o'ziga chorlay boshlagan bolalariga qaramay, qaytib chiqib ketdi. Biroq, ikki-uch daqiqadan keyin yana o'qdek uchib kirib keldi-da, tag'in xonani aylanib va asabiy chiy-chiylab, inining qirg'og'iga qo'ndi. Keyin bolalarining nafsini qondirib, ular ustiga astagina o'tdi-da, bag'rini berib yotdi. Biroq, onlar o'tib-o'tmay chiy-chiy etar, uning zorlanayotgani shundoq bilinib turardi.

Erkak qaldirg'ochdan darak yo'q. (Men ularning jussasi va dumining uzun-qisqaligiga qarab, nari qaysi-yu modasi qaysi — taxminlab bilib olgan edim.)

Baxtga qarshi, havo sovub, yomg'ir sevalay boshladi. Derazani yopay deyman, ammo erkak qaldirg'ochning kelishini kutaman: hozir kelar, endi kelar...

Makiyon hamon "chiy-chiy" etadi. Endi uning unidan nochorlik, ojizlik sezilardi.

Shunda ko‘p taxminlarga bordim: “Elektr simiga qo‘ngan bo‘lsa — tamom... Yoki biron yirtqich qushning domiga ilindimi? Yo‘q, uning qirg‘iylar bilan yonma-yon uchib yurganini ko‘rganman... Nima bo‘ldi ekan unga? Ha-a, sho‘x bolalar rogatka bilan... Qayda! Unga sochma o‘q ham tegmaydi...”.

Xullas, shu kecha derazani yopmadim. Qalin kiyinib yotdim. Chiroqni ham o‘chirganim yo‘q: uchib kelishi mumkin. Adashib qolmasdan inini topsin...

Men-ku uxlab qoldim. Ammo ona qaldirg‘och uxlamadi hisob: qachon uyg‘onib ketsam, uning ingragan kabi nolasi eshitilar, yulduz-qurtdek ko‘zlari yiltillab ko‘rinar edi.

Odatdagidek, soat beshlarda o‘rnimdan turdim. Tong yorishib qolgan, ona qaldirg‘och esa, hamon... uyg‘oq edi. Xuddi shu mahalda derazani ochardim-u, u (ham) yemak g‘amida uchib chiqib ketardi. Bu gal joyidan jilmadi.

Bir mahal, sopol choygumimni suvga to‘ldirib, ichiga qaynatgichni solib, endi tokka ulayman deganimda, shuvillab, ha, o‘qdek uchib ota qaldirg‘och kirdi. Kirdi-yu, in labiga qo‘ndim deganda, ona qaldirg‘och unga shunday hujum qildiki, bir necha patchalari to‘zib ketdi. U qochib, darparda ilig‘lik temirga qo‘ndi. Ona qaldirg‘och uni quvlab borib, tag‘in boshini cho‘qiy boshladi. Ota qaldirg‘och tag‘in qochib, sovutgich ustiga qo‘ndi-da, qandaydir qunishib, bo‘ynini qisib turaverdi.

Xotini uni rosa cho‘qidi, hatto ustiga chiqib olib, yelkalarini cho‘qidi. Eri jim turib berdi. Nihoyat, makiyon toliqdi shekilli, erining kiftida biroz turib, patlarini tozalagan bo‘ldi-da, iniga uchib chiqdi.

Keyin ota qaldirg‘och ham o‘zini silkitib, qandaydir oro bergan bo‘lib, “chirq-chirq” etdi va uyasining chetiga chiqib qo‘ndi. Makiyon ham “chirq-chirq” qildi-da, birdan uchdi. Uning ketidan erkagi ham uchdi. Shuvillab tashqariga chiqib ketishdi.

Men lol-u hayron edim.

Bir narsa shak-shubhasiz ediki, erkak qaldirg‘och kechasi uyga kelmay qolgani uchun makiyoni uni talagan, uning miq etmasdan turib berishi esa — aybini bo‘yniga olganini ko‘rsatar edi.

Ammo u tongda kelar ekan-ku, nega tunda, to'g'rirog'i, vaqtida kelmadi?

Biz insonlar o'zimizcha fikrlaymiz, ya'ni, masalan, "mushukkina yilida bir marta mov bo'ladi", deb qaldirg'ochlar haqida haligiday, "o'ynashining uyida qolgan", deyishimiz ham mumkin. Lekin bu — odamga xos "fikr" bo'ladi xolos... Ona qaldirg'och uni "rashq"dan taladi, "qizg'anib" taladi, deyishimiz ham mumkin. Biroq bu taxminlar bari — ota qaldirg'ochga tuhmat bo'lishiyam mumkin... Demak, o'sha gap-gap: erkak qaldirg'och kechasi uy(i)ga kelmay qolgani uchun "xotini" dan jazo oldi.

16

Ushbu voqeadan keyin ham haftalar o'tdi. Tabiiy, o'z ishim — yozuvim bilan mashg'ul bo'lib, Tavakkal aka bilan Gulsaraning munosabatlari qanday kechgani (agar uchrashishgan bo'lsa) haqida ham onda-sonda eslaydigan bo'lib qoldim. Biroq, ular, xususan, Gulsara yodimga tushishi zamon makiyon qaldirg'ochning qilig'i ham xotiramda uyg'onar, ular bilan ayniqsa, Gulsara bilan uchrashib qolsam, albatta "azizim" deb suygani qaldirg'ochlarning bu mojarosini aytib berish va uni qandaydir tahlil etish, balki u bilan Tavakkalga tegishli xulosa ham chiqarish mumkinligini o'ylardim.

Zero, o'zim ularning aloqasini qushchalarning o'zaro munosabatlariga o'xshatolmas edim.

Biroq, makiyon qaldirg'ochning "eri"ga qilgan "muomalasi"dan o'zimga tegishli saboq oldim.

"Oilam meni erkin — o'z holimga qo'ygan", deb haftalab uyga — uyimga bormas edim va borsam, xotinim goho ilmoqli gaplar qilar, mendan noligan bo'lardi.

Shunda men: "Qo'ysang-chi, onasi. Rashk qilish — bizga yarashmaydi. Pirovardi, bu — bir-birimizni kamsitish bo'lardi...", der edim va mana shu mantiqiy fikrga inonardim.

Qaldirg'ochlarning o'zaro aloqalari menga shuni ko'rsatdiki, rashk, qizg'anish, qolaversa, juftidan xavotir olish va nolish — bular barisi tirik jonzotlarga xos bo'lib, faqat insongina "mantiqan

fikrlash qobiliyati"dan foydalanib, uni inkor etmasa ham, panja orasidan qarashi mumkin ekan...

Qisqasi, kuz ham yetib keldi, to'g'rirog'i, kuzga ham yetib bordik.

Qaldirg'ochlarim bolalarini uchirma qilib, xonamni tark etib ketishdi...

Deraza yaqinidan o'tgan simlarda son-sanoqsiz qaldirg'ochlar tizilib o'tirishar, keyin duv-duv uchishar, men aziz hamxonalarimni taniy olmas edim-u, shod edim: yaqinda ular uzoq — issiq o'lkalarga uchib ketishadi. Va qishni o'sha yoqda o'tkazib, bahorda bizga qaytishadi.

Men esam — bu yerda turishi yana nasib etsa — ularni yana derazalarimni ochib, kutib olaman...

Voqeadan biroz uzoqlashdim. Na chora, bu bahor qushlari — elchilari ham suhbatlarimizga rang bergan, fikrlarimizni tiniqlashtirgan "ulfatlar" edi.

Ana o'sha qaldirg'ochlar gala-gala bo'lib uchib keta boshlagan kunlar birida...

...Jumhuriyat Radioeshittirish Qo'mitasiga borayotgan edim. Anchadan beri yozayotgan qissam tugagani uchun undan bir eshittirishlik parcha diplomatimda, metroning Amir Temur bekatida tushib qolib, o'sha restoran yonidagi daraxtzor xiyobondan tez-tez yurib (xayolimda Tavakkal-u Gulsara bilan o'tirgan cho-g'imiz suratlanib) borayotgandim, qiyshayib o'sgan yolg'iz sanobar (sosna) ostidagi yog'och o'rindiqda chekib o'tirgan ayolga ko'zim tushib, uni Gulsaraga o'xshatdim. Biroq, bu juvon xiyla ozg'in, tag'in — rangi o'chgan jinsi yubka bilan ko'ylak kiygan, sochini ham kalta kestirgan (o'sha kezlar sochi yelkasiga tushib turardi), o'tirishida ham qandaydir chapanilik bor edi.

Rost aytayapman, uning nimasini Gulsaraga o'xshatganimni ham, unga sinchkovlik bilan qarab olganimning ham sababini bilmayman: qandaydir tuyqusdan ko'zim tushgan edi. Balki restoranda o'tirganimizni eslashim bunga sababdir.

Qisqasi, uch-to'rt qadam bosgandan keyin yana unga qayrilib qaraganimni bilaman... tanish tabassumga yo'liqdimki, taqqa to'xtab qoldim.

U — Gulsara edi.

Qandaydir hayajonlanib, nimalardandir xijolat tortib, ammo ichimdagini sirtimga asti chiqarmay, xayol qilingki, u bilan kuni kecha xayrlashgan kabi bir qalbaki mamnuniyat bilan oldiga yo'naldim.

Gulsara, nazarimda, menga boshdan oyoq razm solib chiqdi-da, qandaydir kerishib, o'rnidan turdi.

— O, tovarish pisatel!

— Salom alaykum, Gulsaraxon. — Unga e'tibor berajagimni yashirish uchun darhol uzatilgan qo'lini oldim. — Salomat bormilar? Yuz dollarga o'xshab ketdilar?

— Ho'-o', — deya piching qilganday kulib qo'ydi. — Marhamat, o'tiring.

— Albatta... Birovni kutmayapsizmi?

— Yo'q, — dedi u keskinlik bilan. — Shu trotuardan o't-vossam, ichkarida "Tanovar" chalinvotgan ekan. Bitta maymoq o'ynayotgandir-da, deb to'xtadim. — Keyin yayrab kulib yubordi. — O'sha o'tirishimiz esimga tushib ketib, sho'tda o'tira qoldim... Mejdu prochim, man sizni hu o'tda ko'rgan edim. O'sha kishimi-boshqami, deb o'yladim... Qarasam — siz.

— Keyin teskari qarab oldingiz?

— Ha.

— Bizdan biron gap o'tganmidi?

— Oy, shto vi? Tak prosto... — U menga tik qaradi. Ovozida sezilarli hayajon bilan: — O'zgarib ketibmanmi? — dedi.

— Menimcha, yo'q, — dedim. — Faqat bu kiyim-boshda birinchi marta ko'rishim.

— Konechno... Lekin o'zgarganman. Siz... siz hamma vaqt odamni ayab gapirasiz. Bu — yaxshi odat, lekin ba'zan yolg'on so'zlashgayam majbur bo'lsangiz kerak?

Men "ayb"imni bo'ynimga olgandek bosh irg'adim-u, Gulsaraning barmoqlari beo'xshov titrab ketganini ko'rib qoldim. Yuziga boqsam, pastki qovog'i sal osilgan.

— Him, Gulsaraxon, shaharni sog'inib tushgan edim, rosti, — dedim. — Keyin, tasavvur etingki, metrodan chiqiboq uchovlon o'tirganimizni esladim.

— Nu i nu!

— Ha... agar vaqtingiz bo'lsa, mana shu restoran ostidagi choyxonaga kirib, besh minut o'tirsak. Odam kam. Salqin tushib qoldi... Halaqit berishmaydi.

U menga qandaydir achingandek qarab turgan edi.

— Jonim bilan, Quvvatjon, — dedi. — Siz yaxshi odamsiz... Umuman, gaplashadigan gaplar anchagina yig'ilib qolgan. Man bir-ikki marta dachayizga bormoqchiyam bo'ldim. No... Oyog'im tortmadi. — Keyin kulib yubordi. — Tuzukroq bir vecherdan chiqqanimda, borardim albatta!

Men ham kuldim.

Choyxona oldidagi hovuzning suvi yashil bo'lib ko'rinar, demak, ko'pdan beri suvi yangilanmagan, umuman, choyxonadan fayz ketib qolgan, beton ustunlar orasidagi ko'pchilik stollar bo'sh, bufetda qandaydir italiyacha kuy ingranar, mutasaddi yigit — peshtaxtaga tirsaklab olgan qo'ng'iroqsoch kishi bilan erinib gaplashardi. Chap tomondagi ustun panasida turgan stolni tanladim. Bufetga yuzlanib, Gulsaradan so'radim:

— Shampanga qalaysiz?

— O, o'zi-da! — deb jilmaydi xonim. — Lekin holingizga qarang, Quvvat aka.

— Quvvat akangizning quvvati bitta shampanga yetar, — dedim-u, ildamladim.

— Ikkita fujer, shampan va gugurt qutisidek bir juft shokolad olib (cho'ntakda faqat avtobus puli qolib), keldim. Gulsara mening ahvolimni sezib turgandek iymanish ham achinish bilan tabassum qilib:

— Yaxshi kunlar o'tib bo'lgan ekan-u, bilmay qolgan ekanbiz-de, — dedi.

Ikkovlon kulishdik. Shunda... atrofga qarab olganimni bilmay qoldim: bilsam, Tavakkalni izlayotgandek, u hozir yetib keladigandek bir holga tushgan ekanman. So'ngra jilmayishni qo'ymasdan kursiga o'tirdim.

Shishaning sim bo'yinbog'ini burar ekanman, Gulsara birdaniga toshqin va qandaydir hasratli ohangda:

— Poqillatvoring! — deb qoldi. — Azizim, shunday qiling... To'kilsa to'kilar. Bir soat, bir minut bo'lsayam yayrab o'tirayluk! Okangiz aytganlariday — dunyo o'tdi-ku... Aytmoqchi, jentelmen okayizzi ko'rib turasizmi?

Mavzu darhol Tavakkalga burilganidan mamnun bo'lib:

— Yo'q. Sizlar uchrashib tursangizlar kerak? — dedim. Va davomini ham aytib yubordim: — Kaminani unutishdi, deb o'pka-gina qilib yuribman, ha.

Gulsara qattiq kuladigan kabi boshini orqaga soldi-yu, qandaydir xo'rsindi, xolos.

— Yo'-yo'q. Aftidan u kishigayam o'shanda "alvido" deganga o'xshab qoldim.

— Demak, uchrashar ekansizlar. Mengayam shunday devdingiz, mana, Xudoning yo'liqtirgani.

U mujmal bosh irg'ab kuldi. Shunda shampan tiqini otilib, poqillab ketdi.

— Hayotning g'animat ekanini tushunib qoldim, azizim, — dedi Gulsara fujerni ikki barmog'ida aylantirarkan. — Barcha iztiroblar, orzu-armonlar — behuda ekan. Hayot shunday ekanki, har qancha osmonlarga chiqib ketma, o'zining izmiga solar ekan. Keyin san o'zingga qandaydir...

— Xo'sh?

— So'qmoq tanlar ekansan... Umuman, maning omadim kelmadi hech. Bir hisobda shunday bo'lishi tabiiy ekan. Chunki man hayotdan ko'p narsalarni talab etar edim... Ishoning, do'stim, Cho'lponmikan, qaysidir bir shoir: "Bu dengizning chuqurligini bilmay, qulochni katta otdim men", degan ekan.

— Ha.

— Hayot boshqacha ekan.

— Siz tushkun gaplarni aytyapsiz, Gulsara... Esdan chiqarmang, egachi, — siz tushkun bo'lasizmi, hayotni boricha qabul qilasizmi yoki yaxshi orzu-istaklarning qachondir bo'lsayam ro'yobga chiqishini orzulab bunga inonib yashaysizmi — umr baribir o'taveradi.

— Ay, maning umrim... umrimning eng yaxshi, nurli chog'lari o'tib bo'ldi, — dedi u va fujurini uzatdi. Cho'qishtirgan bo'ldik. — Qolgani foydaga qoldi. O'shani yaxshi o'tkazishni o'ylavomman keyingi paytlarda. Ammo "yaxshi o'tkazish" uchun... Nu i k chyortu! Oldik, azizim! Tavakkal okayiz ham qolgan umrini yaxshi o'tkazsin... Uniki yaxshi o'tadi. Chunki u perejivaniyani bilmaydi.

— Menimcha, unchalik emas.

Fujerlar ichidagi "jodugar" kamaygani sari suhbatimiz qiziy boshladi.

Bu orada u jildini tizzasiga qo'yib, undagi ko'zguga bir-ikki marta qarab oldi. Ko'z jiyaklarini jimjilog'ida artgan bo'lib, anchagina qizil surilgan lablarini yalab qo'ydi. Nazarimda, u vaqt o'tgan sayin o'zida qandaydir sifatli o'zgarishlar yuz beradigandek — shuni umid qilayotgandek tuyular va ko'zgudagi aksidan qanoatda emasligini bildirib qo'yardi.

Ko'nglimdan kechgan tag'in bir holni qayd etishim lozim. Gulsara shu tobda ilk bor restoranda o'tirgan o'sha mayin — uyatchan va g'amgin juvonga deyarli o'xshamas, "deyarli" deganimning boisi — favqulodda yangroq kulib yuborishi-yu shijoatigina uni g'ira-shira eslatar edi. Qolaversa, kechasi ijod bog'imizga borgan chog'idagi qiyofasi ham deyarli o'zgargan, hozir u — xiylagina chapani, ya'ni betgachopar, qayoqqadir ketvorishga shaydek — bir jonsaraklik unda bor, yuzining biroz cho'zilib, yanoqlarining botinqirab qolgani va ko'z qarashlarida asabiy bir iztirob, uyquga to'ymay uyg'onib, uyg'otganning yuziga tarsaki tortib yuboradigandek teran bir holatda ham ediki, men uning siymosida odamzodning shugina o'tgan vaqt orasidayam yetarli darajada o'zgarib qolishi mumkinligini ko'rib turardim. Va, o'z-o'zidan ma'lumki, bu qaydlar bari ichimda edi.

18

— ..."Unaqasi bitta tug'iladi" dedi, — deya takrorlab, gapimni davom ettirdim: — Menimcha, o'sha kuni Toshkentga uchib kelgan bo'lishi kerak.

Gulsara miyig'ida jilmayib, iyagini boshmaldog'ida qashib turarkan.

— Yo'q, yo'q, — dedi. — Toes, u kelgan. Kelgan ekan! Bizning padyezdagilardan ham so'ragan ekan mani. Lekin, man ahmoq ularga: "Qatga ketganimni aytmanglar", devdim. Chunki okayizning kelishini bilardim.

— Chakki qilgan ekansiz-e.

— Aytvomman-ku, jinniman, deb... — Keyin yana lablarida menga tanish g'amgin tabassum paydo bo'ldi.— Bechora paliklinikagayam boripti. Glavvrachga: "Gulsarani topib bermasangiz, xapa qilaman" depti. U iplos qatga ishga o'tganimmi bilsayam aytmas edi... Xudoning zorini qilib qutulipti...

— Shoshmang-shoshmang, siz ishdan ham ketdingizmi?

— Ay! — dedi u g'ijinib. — Baribir ketmoqchiydim... — Keyin lablarini qimtidi-da, boshini saraklatdi. "Hozir yig'lavoradi" deb o'yladim. Xayriyat, uning ovozigina "yig'lar" edi: — Odammi xor qilishadi.

— Ya'ni?

— "Men bilan yurgin" der edi-da-e... Og'zidan qoni kelsin unaqa erkakning!

— A-a, past odam ekan.

— Past... — deb takrorladi-yu, boshini ilkis ko'tardi. — Tavakkal okayizzi undan nima farqi bor? A?.. Xo'p, okayiz — mard, vallamat yigit.

— Endi, yigitlik — itlik, degan gapam yo'q emas.

— Itlik! Topib aytdingiz... E, Xudojonim, nimaga munday, a, bu insonlar? — Uning surma tortilgan kipriklari pirpirab, ko'zlari g'ilq yoshga to'ldi. — Axir, shu ishlari bilan ular o'zlarini yerga urishadi-ku? Moldan farq qilishmayotganini nahot sezishmasa?! Yo'q, sezishmaydi.

— Shampanning ko'pigi uchib ketdi.

— Rahmat.

— Xo'sh, Tavakkal akaga kelsak...

— Qo'ying o'sha kishini... O'ziyam bir tavakkalchi ekan. — Keyin vinodan sipqorib; yana o'ylanib qoldi-da, tiniq jilmaydi. — "Unaqasi bitta tug'iladi" dedimi?

— Xuddi shunday dedi, — qaytardim jonlanib. — Menimcha, u sizning qadringizga endi yetayapti.

— Bilmadim-de... Ha-ha-ha! — Kulgisi to'xtamasdanoq tag'in g'amgin tortib qoldi. — Man ham o'zimni "bitta..." deb o'ylardim. — Menga yalt etib boqdi. — Kechiring mani. Ahmoqlik qivomman. Ammo sizga rostini etivomman. Albatta bu — soddalik, jo'nlik... Vabshe, ko'pchilik qizlar ham shunaqa deb o'ylasa kerak. — Keyin yana ko'zguga qaraydigandek sumkasini ochdi-yu, davom etdi: — Chesni aytaman: man o'rtoqlarim orasida eng go'zali edim. Kulmang faqat... Rahmat. Kitobiy tarbiya topdim shekilli, ritsarnamo yigitlarni orzu qilardim. Albatta, bittasini-de! Xa-xa-xa... Ja ochilib ketvomman. Mayli, siz kulmaysiz.

— Mutlaqo! — dedim. — Biroq, Gulsaraxon, sizsiz ham sizni bir ko'rgan kishi xolis bahoyingizni beradi. Ont ichaman, hamon juda go'zalsiz.

— Rahmat. Lekin keyingi vaqtda ozdim, ko'p perejivaniya qildim. Juda... — Keyin shoshilib, aytmasa— esidan chiqib qoladigan bir holatda davom etdi: — Paliklinikadan ketganimdan so'ng pulsiz qoldim.

— Boshqa ishga...

— E, o'lib ketsin o'sha iplos. Manga buyruq chiqarganida, "tani sog' emas, zakritiy tuberkulyozi bor", deb yozgan ekan. Man o'zimni yo'qotib qo'ydim. Yo'talim bor, eskittan bor... Balki o'pkam xastadir. Ammo tuberkulyoz?! Izvenite... Yaponlarning apparatigayam tushib ko'rdim. Soppa-sog'man.

— Qachondir shamollagandirsiz-u, asorati qolgan bo'lishi kerak, — dedim.

— Otayizga rahmat... Lekin u yaramas bir bahona topib, mani yiroqlashtirishi kerak edi. Chunki, ishoning, mani ko'rsa, qaltirab ketovurardi.

— Ko'rmayin ham, kuymayin ham depti-da.

— Shu-shu... — Keyin menga bir samimiy tikildi.— O'shanda, ishdan ketgan kunlarim Tavakkal akani har soatda... kutardim. O'liy agar, ros etivomman. Tag'in nimani o'ylardim deng? O'sha glavvrachchi urdirmoqchi bo'lardim.

Ikkimiz ham mazza qilib kuldik. Lekin mening ko'nglimda shunday bir fikr ham ildiz ota boshladi: "Bu juvonning Tavakkalda ko'ngli bor...".

Ha-ha, oldingi suhbatdayam bir necha marta: "Qaniydi..." degan so'zni aytgan edi.

19

Shu payt yonimizdagi eshikdan (shu eshikdan ham restoranga yo'l bor) har doimgiday xipcha, bashang kiyingan, qo'ng'irsoch Husanjon qo'lida bir dona nozik chinnigul bilan chiqib kela boshladi. Men o'rnimdan turdim: aytishim lozimki, bu — zal boshlig'i boshqa mijozlari bilan qanchalik yaqin bo'lmasin, menga bir do'sti kabi qarar (bir suhbatda mening undan ikki kun oldin tug'ilganim ma'lum bo'lgan, shundan keyin men unga "Akangizman, aka deb chaqiring", deya hazillashardim ham), bir ko'rgan odamining nima kasb bilan shug'ullanishi-yu "soqqasi" ko'p-ozligini ham bexato aytib berar, aksari o'ris ofitsiantlarga bosh ekani, ovrupocha muomalani o'rniga qo'yishi ham menga yoqar edi.

— Assalom alaykum! — U gulni xonimga berdi.

Salom ham ko'proq Gulsaraga qaratilgan edi. Biz o'zaro "o'pishdik", ya'ni, chakkamizni chakkamizga tegizib oldik. Keyin men uni bo'sh kursiga taklif etdim. U o'tirmayoq qo'shni stoldan taqsimcha olib, shokoladlar qoldig'ini joylab qo'ydi. Keyin sho'xgina jilmayib, fotiha o'qidi-da:

— Nega bu yerda yashirinib o'tiribsizlar? — dedi. Men bu savolni "hazil" deb o'ylagan bo'lsam ham:

— Kimdan? Sizdanmi? — dedim. Shunga Gulsara ham kaminani qo'llab tushdi.

— Biz oshini ko'chada ichadigonlardanmiz, o'rtoq zavzal!... Xo'sh, boyvachcha kliyentingiz keldimi yaqinda?

Men bularning, harqalay, tanishganlarini, o'rtalarida Tavakkal haqida gap bo'lganini ham tusmolladim. Va miyamning qandaydir orqa tomonidan bir o'y o'tdi: "Gulsara kim-kimlar bilan restoranga kirgan bo'lishi mumkin?"

— Kliyentim, — deya qizg'in tabassum qildi Husan,— mana, ikki minut oldin shu yerda edi.

— A? — Men o'rnimdan turib ketayozdim. — Hozir qayerda? Shu yerda bo'lsa, topish kerak!

— Nazarimda, ketdi-yov, — dedi Husan tepaga, ikkinchi qavatda joylashgan restoranning derazalariga qarab. Bitta hamrohiyam bor edi. Rashyot qildi-yu, xolga chiqdi. Sal oqsabroq ko'rindilar... Nima, kelganidan bexabarmidinglar?

— Do'stim, uni topish kerak, — dedim. — Menga suv bilan havodek zarur.

— Ha, bir ko'rsak, yomon bo'lmasdi, — dedi Gulsara ham hayajonini bosib. — Sho'tda tunadimi kecha? Qachon keluvdi o'zi?...

Men uning o'zini tutolmay qolayotganini sezdim: shuncha savolni qatorlashtirib tashladi.

— Soat o'n bir yarimdan buyon o'tirishuvdi, — dedi Husan o'rnidan turib. — Abeddayam bo'lishdi... "Tanovar"ni, bilmadim, necha marta chaldirdi...

Husan tez burilib ketdi. Men Gulsaraga qaradim. U karaxt tortib qolgan, ko'zlarida esa yana... yiltiroq shu'lalar paydo bo'lgan edi.

— Gulsara, menimcha, u sizni sevadi, — dedim. — Kechirasiz, sevib qolgan bo'lishi kerak.

— Yerunda, — deb yubordi u birdan. — U odam ayol kishiga perchatka deb qaraydi.

— O', xato qilyapsiz, — dedim. — To'g'ri, uni bu yo'rug'da "oppoq" deyish mumkinmas.

— "Oppoq?"

— Kechirasiz, shu so'z tilimga kelib qoldi... Lekin, u ayol kishini hurmat qila biladiyam.

— Bilamiz, nima maqsadda hurmat qilishlarini...— Gulsara oldimdagi "Rodopi"dan oldi. Men chaqmoq chaqib tutdim. — Tavba, o'zi "surqash"lar bir-birin himoya qiladi deb eshitardim bir vaqtlar. Uzr, ular guruhiga siz qo'shilmagandirsiz balki... Ammo siz taraflarda mahalliychilik...

— Gulsara, — dedim keskin. — Chalg'ib ketyapmiz... U mening singlimni, toyes, jiyanimni himoya qilgan. Him, xotini haqida hurmat bilan gapiradi. Sizni esa... — Keyin jahlim chiqa

boshladi. — Agar u yigit juvonga... zor bo'lganida, o'shanda... har qadamda topardi.

— Bunga shubham yo'q.

— Sizni shundan o'sha yoqqa — Gruziyaga olib ketishi, qolaversa, o'sha billur ko'zli uzukni xarid qilishi...

— Ey, kechirasiz, siz mani kim deb o'ylavossiz, — deb qoldi u birdan. — Ko'nglingizga olmang, iltimos qilaman sizdan, Quvvatjon, o'lay agar... Xudo tepamdan urib, tariqday sochib yuborsinki, man birov bilan yurmadim hech. Kulib qaragan bo'lishim mumkin. Hazil-huzul deganday...

— Him, ishonaman.

— Mani o'sha yoqqa olib boriptimi, demak, arzigan bo'lsam kerak? — shunday dedi-da, g'ururiga qo'shib uyalganini ham yashirish uchun kulib yubordi. — Jichcha quying, azizim... kelgan, ketgan bo'lsa — yaxshi bo'pti.

— U sizni sog'ingan, — dedim. — Bekorga "Tanovar"ni hadeb qo'ydirmagan.

U menga tikilib qoldi va:

— Da, eto interesno, — dedi.

— Shunaqa.

— Bo'pti, xafa bo'lmang.

— Bir-birimizdan hech qachon xafa bo'lmasligimiz uchun.

— Yashang! Xafa bo'lishning o'zi, vabshe, foydasi yo'q, ekan... O'zing ezilasan. Dushmanlaring ahvolingni ko'rib kulishadi. Do'stlaringni rahmi keladi.

20

Husanjon shoshib kelib, stol chetiga kaftlarini tiragancha:

— Ketiptilar, — dedi. — Xizmat qilgan ofitsiantka taksi zakaz qilgan ekan. Kecha bizda yotmagan, administrator bilan ham gaplashdim.

— Him, o'tiring... Qayerga ketishganini aytmagan bo'lsa kerak? Taksi — shaharda qatnaydimi faqat yo mejdugarodniylari ham bormi hozir?

— Hozir farqi yo'q, okajon, — dedi Husan. — Ommo-lekin bitta qarz gapni aytib qo'yishim kerak... Xonim, sizni ikki marta

so‘radilar. Ilgari kelishlaridayam so‘rovdilar. Man sizni bir bor ko‘rganimmi, siz ham u kishini so‘raganiyzni aytuvdim. Hu, biron oylar muqaddam...

Gulsara miyig‘ida jilmayib, sekin-sekin bosh irg‘adi. Keyin menga qarab kuldi.

— Bir marta so‘rovdim... Shu ko‘rgim keluvdi-de ablah okayizni.

— Attang-attang, — dedim men. Ammo Gulsara ham uni ko‘rishga, darhaqiqat, umidvor ekaniga shubham qolmadi. Bu esa, mening: “Gulsara ham uni sevib qolgan”, deb hukm chiqarishimga asos bo‘ldiki, ularni uchrashtirishni — do‘stona burchim, deb hisobladim. (Biroq “burch”ning ijrosi yana cho‘zilib ketdi...)

— Men tepaga chiqishim kerak, — dedi Husanjon.— Okamizzi endi qo‘ldan chiqarmayman!

— Omon bo‘ling.

— Ichkarigayam kirib turinglar... Mahalliy kliyentlar ja sanalib qolishdi. Hozir ham turitslar o‘tirishipti.

— Bizgayam navbat kelar, — dedim.

— Kelmasayam o‘ksimiymiz, — dedi Gulsara.

Kulishdik. Husanjon ketdi. Men fujerlarga yana shampandan quydim. Gulsara chinnigulni avaylab-avaylab hidlar edi, daf’atan kaftida qisib, burniga bosib turdi-turdi-da, stolga tashladi. Keyin birdan sergaklanib:

— Qaldirg‘ochlar qalay? Qaldirg‘ochlariyiz? — deb so‘radi. — Bola ochgandir?

— Allaqachon.

— Kichkina jishdir?

— Temirqanot ham bo‘ldi... — shunday deb, juvonning ul murg‘ak qushchalarga bo‘lgan g‘oyibona mehri menga ta’sir etib ketganini sezdim: nazarimda, u qush haqida emas, odam bolasi haqida so‘rayotgandek edi.

Keyin, ittifoqo: “E, bu ayolning ham farzandi bo‘lganmikan — bormikan? — deb o‘yladim. — Lekin buning qachondir oila qurganiga shubha yo‘q...”.

Keyin, shu mavzuda ham jilla ma'lumotga ega bo'lishni istab, tag'in qaldirg'ochlar haqida so'zlashni ma'qul ko'rdim: shoyad mavzu oila xususiga ko'chsa...

— Keyin uchishni o'rganishdi. Endi... janub mamlakatlariga uchib ketishadi.

— A-a, Gruziyaning ustidan o'tishadi, — deb xayolchan jilmaydi Gulsara.

— Mening eshitishimcha, Bosfor bo'g'ozining ustidan uchib o'tisharkan. Boshqa qushlar — laylaklar, turnalar ham... — Uning miq etmagani uchun yana davom etdim: — Buni bilgan lochinlar, yirtqich qushlar oldinroq borib, Bosfor osmonlarida uchib yurisharkan-da, bular o'tishayotganda hujum qilisharkan.

— Voy ablahlar! — Gulsara hushyor tortib ketdi. Keyin mijg'ovlanib davom etdi: — Baribir o'shalarning hayoti — hayot. Nimagaki, do'sti ham, dushmani ham ma'lum. Turmush kechirishlari bir izga tushgan: o'zgarmaydi.

— Rost aytasiz, — dedim. — Faqat inson hayotida o'zgarishlar ko'p bo'ladi. Bu aqlli maxluqlar bir kunda oila qurib, ikkinchi kuni ajrashib ketishlari ham mumkin.

— Oh, yaxshi gap aytdiyiz, — dedi Gulsara birdan.— Ajralib ketishadi... — Keyin yana chinnigulni olib silkitdi. Puflab gulbarglarini tikkaytirgan bo'ldi-da, tuyqus so'rab qoldi: — Man erimdan... Erim deyishga tilim bormaydi... O'sha — mani olgan shaxsdan qanday qilib chiqib ketganimni aytib beraymi?

— O', Gulsaraxon, — dedim. — Shu narsaga qiziqqan bo'lmasam, har narsa bo'lay.. Kechirasiz, meni "qo'rqoq" deyishadi ba'zi adiblar. Dangal gapirmaganim uchun. Him, birov urib ketgandayam indamagan paytlarim bor-da.

— O', unaqa bo'lmang, og'ajon, — mayingina zaharxanda qildi Gulsara.

— Juda unaqayammasman, egachim. Shu, "andisha" degani meni bosib turadi.

— A-a, shuning uchun..

— Qulog'im sizda.

— Men o'ris maktabda o'qirdim, — deb hikoyasini boshladi u. — Oilada tabiiy, o'zbekcha so'zlashardim. Tarbiyamda, lekin ovro'pocha tarbiyaning ta'siri bor.

— Oz-moz.

— Anchagina.

— Xo'p.

— O'ninchini bitiradigan yilim dadam turmushga chiqardi. O'nni bitirsa, biron yoqqa — Moskopgami, Leningradgami ketvoradi, deb o'yladilar.

— O'zlari nima ish qilardilar?

— Hozir aytaman... Lekin ketvorishim ham mumkin edi. Moskva konservatoriyasigami, Leningraddagi xoreografiya maktabigami, vobshem, aktrisa bo'lishim kerak edi-de... U kishi bo'lsa, raqqosalarning o'yinlarini, ashulalarini jon deb tomosha qilardilar, eshitardilar-u, biroq o'zlarining oilasidan shunday kishilar chiqishini sira-sira istamasdilar. Eski o'zbekcha odatlardan bas degancha bor edi, rahmatlida.

— "Rahmatlida?"...

— Ha, Gdlyanning qama-qamasi vaqtida olamdan o'tdilar. Infarktdan.

— Joylari jannatda bo'lsin.

— Him, iloho... Lekin dadam juda qattiqqo'l edilar. Shunaqa odamning qanaqa bo'lib bo'shlik qilganiga aqlim yetmaydi... Skaree vsego, vahima opketdi u kishini... Bilasizmi, dadam — sud raisi edilar.

— A-aa.

— Dadam "besh yil" bergan aybdor shaxslarni Gdlyanning shaykasi qayta sud qildirib, "o'n yil"dan berdira boshladi. Manimcha, dadamni poraxo'rlikdayam... — U birdan uh tortib yubordi-da, g'ijinib ketib: — Nega bu narsalarni aytivomman? — dedi. — Nu i k chyortu hammasi! Man dadamdan rozimasman, vassalom! Ha-ha, azizim, mani kuydirdilar. Xazon qildilar.

— Erga berganlarimi?

— Voobshem-to, da. Sigaretingiz bormi?.. Rahmat,— u shampandan ham bir qultum oldi-yu, soatiga qarab qo'ydi. — Bitta jugut o'rtog'im chaqirgan edi... Nichevo, hali vaqt bor. U kutadi. Ko'pdan beri uchrashmoqchiydik. — Keyin yayrab kuldi-yu, miskin bir tus olib, ilova qildi: — Ikki xonali kvartiraga almashtirdim-u uch xonammi. Balki... Nima uchun, deb o'ylarsiz? Mening ust-boshimga, o'zimni tutishimga qarab, ja boyvuchcha satang, deyish mumkin... Da-da! Lekin man iqtisodiy qiynalganim uchun shu ishni qiluvdim.

— Lekin, bitta kishiga ikki xonayam bemalol yetadi... Kechirasiz, farzandingiz bormi?

— Bor edi hisob, o'g'il, — dangaliga aytdi. — O'tgan oyning boshida Sirdaryoga cho'ktirvorishipti do'stlari... — Uning iyagi pir-pir ucha boshladi. — "Toshkanga ketaman, opammi topaman", der ekan... Xayriyat, uni tetapoyaligida ko'rganim. Da, o'sha qiyofasida qoldi. Bu yog'iga...

— Pepsi opkelaymi?

— Shuyam bo'ladi.. Yo'q, man yig'lamiyman. Bo'lar ish bo'ldi. Yomon bolalarga qo'shilgan ekan... Bu gaplarning hammasini manga singlim aytib berdi. Erim... oting o'chkur nokas, hatto xabar qilmadi manga.. Bilasizmi, uning ham nimasidir dadamga o'xshar edi. Qarang, bir-birini topishganini.

— U kishi nima ish...

— Prokuror edi. — U entikib-entikib, shampandan sipqordi. O'zini bosib oldi-da, istehzoli jilmaydi. — O, ular o'zlarini qandoq tutishar edi! Silneye mira vsego... Sho'rlik aristokratlar... Butun harakatlari Ovro'poga taqlid edi! Ammo o'zlari — ichlarida g'irt johil, konservativ o'zbeklar edi.

— Eringiz sizdan kattaroqmidi?

— O, o'n besh yosh katta edi! Qatdan bildiyiz?.. A-a, ularning o'tirib-turishini aytdim-a... Ha, o'sha o'tirishlarda manam xizmat qilardim. Muzika qo'yardim. Ba'zan o'ynab berardim. Ashula aytgan paytlarim ham bo'lgan. — Ko'zidan tizilib yosh chiqib ketdi. — Vey, mani qanaqa ardoqlashardi. Hammasi kaftida ko'tarardi, desam ishonovuring, do'stim.

— Ishonaman.

— Man, man... prosto uchib yurardim. Yerdamas edim. Xohlaganimni kiyardim, yerdim. Tagimda — moshina. Shofyor aytganimmi qilardi. To'g'ri, mani olib yurishdan zavqlanardi u kishim. — Gulsara zavq bilan kulib qo'ydi. — Notavon ko'ngilga qo'tir jomashov... A, mayli! Man parvo qilmasdim. Ko'pincha maktabgayam moshinada borardim. To'garak mashg'ulotlari kech tugaydigan bo'lsa, moshina mani kutib turardi. Dadam yer-u ko'kka ishonmasdi mani.

— Tushunaman.

— Ana o'sha kezlarda — ziyofatlarda bo'lajak kuyovto'rayam o'tirardilar ishshay-yeeb. Dadamning shogirdi edi o'zi... Kechirasiz, ja cho'zvormadimmi?

— Yo'q-yo'q.

22

— Shunday qilib, mani o'sha maxluqqa berishdi. — Gulsara o'sha "maxluq" ro'parasida turibti-yu undan yuz o'girgandek — ko'cha tarafga qarab davom etdi: — U yaramas mani, o'h-h, domkulturaga borishimmiyam taqiqlab qo'ydi. Bilaman, u mani yaxshi ko'rardi. Lekin insonlarga ishonmasdi. Dadamdan farqi shuki, u hamon tirik, dadam esa nomusdan... Oh! — u shoshilib, "Rodopi"dan yangisini oldi, men tag'in chaqmoq yondirib tutdim: uning chalg'ishini aslo-aslo istamas edim. Xayriyat, bir-ikki bor tutun tortgach, yana davom etdi: — Man: "Dadamga etaman, meni qafasga soldingiz", deb gapirovurganimdan keyin yaqinimizdagi medtexnikumga qo'ydi. Har holda, yaxshi o'qidim. Bitirgandan keyin esa, u isqirt mani ishlashga qo'ymasa bo'ladimi...

— A-a, Sho'ro davridagi tashbeh bilan aytsak, "feodal" ekan, — dedim.

— Sto protsent! — ta'kidladi Gulsara. Va horg'in tortib, allaqanday cho'kib qoldi. — "Yo'q, man siz bilan yasholmayman", dedim bir kuni... Aniq esimda bor: uyda yolg'iz o'zim zerikib, magnitafonda muzika qo'yib, xirgoyi qilayotgan edim, kelib qoldi. "Ha, qo'msayapsizmi?" dedi. "Ha, — dedim. — Qo'msavomman!— dedim. — Chidasangiz, shu!" Shunda nima deydi deng... "Qo'chqordek o'g'il tug'ib bergan xotinlarga o'xshab gapira-

san-a?" Manikiyam tutib ketdi: "Siz, tug'dirolmasayiz, man nima qilay?" dedim.

— Tushunolmay qoldim? — dedim. — Boya "o'g'lim bor edi", deganday bo'luvdingiz.

— Ha, bor edi, — dedi u keskin. — Okasining o'g'li edi. Okasi serfarzand, lekin kambag'al yashardi... O'shaning kenjasini oluvdik. — Keyin birdan eri hamon qarshisida turipti-yu, men tergovchi kabi — menga jahl bilan uqtira ketdi: — U odam ilgariyam uylangan ekan. Ammo farzand ko'rishmagan. Orada gap qochib, xotini ketvorgan ekan. O'sha bechorani aybdor qilib... O', prokuror deganiyiz istasa har qanaqa fitna, ig'vo o'ylab topib, bo'yniyizga qo'yishi hech gapmas. Menga ishonavuring.

— Ishonaman.

U sigaretni so'rib, o'ylandi. Shunda, meni O'zi kechirsin, Gulsaraning qandaydir darajada qariyotganini sezdim. Eshitganim bor: tug'mas ayollar tez qartayadi, deb. Shundanmi yoki iztiroblardanmi... Bunday desam, bundan besh-olti oy burun yashnab ochilib turgan gulday juvon edi...

Keyin esladim: uning restoranga kirib turishi, afti-yu ust-boshining o'zgargani, umuman, xulqidagi o'zgarishlar-u ozib, qovoqlarining osilib ketishi — bular bari meni aytishga noqulay bir xayolga olib bordi.

— Lekin u bolakayga mehrim tushib qoluvdi, — dedi ohista ovozda. — Uyam mani "opa" der, manga ergashib yurardi. Ehtimol, ehtimol, shuning uchun man bir-ikki yil yashab qoldim u yerda... Him, nima deyatuvdim?

— Shu-shu... Faqat eringizga haligiday "ayb sanda" ma'nosida gap qilgan edingiz.

— Ha. — Gulsaraning chehrasi bir zumda ochilib ketdi. — Ja chiyillavordi-de... — Keyin o'zicha xo'p kuldi, boshini saraklatdi. Keyin birdan xo'rsindi. "Ketasanmi?" dedi. "Albatta, — dedim. — Hozir ketishim mumkin!" Yaramas... Kuldi u. "Ahding shunchalik ekan, nega ketmayapsan?" dedi. "Birinchi xotiningizning kuni boshimga tushishi mumkin, deb qo'rqaman", dedim. — E, etdim-ku, fitnaning uyasi bo'larkan bunaqa shaxslar... Kechirasiz, dadam bunaqamas edi.

— Bildim.

— U sho'rlik ayol Jizzaxdanakan. Chegarada uni savdogar deb o'ylashganmi, boshqalar qatorida sumkalarini tintishgan. Bitta sumkasidan yuz dollar chiqqan... Ha-ha. So'rashsa, ayol "bilmayman" degan. Keyin janoblariga qo'ng'iroq qilishadi. Bu kishim: "Man yuz dollarimni yo'qotuvdim", deb javob beradilar. Ayol boyaqish hibsga olinadi. Uf, keyin ablahning o'zi uni go'yoki afv etib, ozod qilib yuboradi. Shu tariqa ularning ajralishi qonuniy bo'ladi. Er — oppoq, xotin— qop-qora.

— Tavba.

— Nazarimda, xotinga aytgan u: "Bola ko'rmaganimizni ovoza qilib yurma", degan.

— A-aa.

23

U, peshonasi xunuk tirishib, ammo yayrab kuldi.

— Kaminayi kamtarin ham janoblarining nozik joyiga tekkan ekanman. Buning ustiga, xotinini eslatdim... Ja bo'lganicha bo'ldi. Vey, bilasizmi, mana shunaqa befarzand erkaklar, ayniqsa, o'z xotinlariga ishonmas ekan. Eta pravda!.. Da-da... — Bu gapni jiddiy aytdi-yu, keyin yana yumshadi. Va meni xuddi sirdosh bir dugonasi kabi bilgandek (endi) shivirlab davom etdi: — Kelishaylik, — dedi manga. Xarakterimiz to'g'ri kelmadi, vassalom". Man rozi edim, o'liy agar. Uning peshonasidan o'pib olishimga sal qoluvdi. Ammo miyam ishlab ketdi shu payt. Ha. "Uyimizga borganda shu gapni etsam, ular ishonishadimi?" dedim. Keyin yana aytdim: "Siz aytgan sababni aytsam, singlim ham mani yomon qabul qiladi. Tushunvossizmi?.. O'ziyiz bilasiz, dodamning qazosidan keyin hovlimizzi tortib olishdi. Singlimlar zo'rg'a uch xonali kvartirada turishadi. Xo'sh, bu yog'iga nima deysiz?"

— Nima dedi?

Gulsara boshini chayqab, o'z-o'zidan zavqlanib kuldi.

— Vey, makkorlik har qanday odamning qo'lidan kelarkan. Man o'zimmi... Net! Kim biladi deysiz, uni tushirmoqchi bo'ldimmi yoki yengganimmi?...

— Lekin shartingizda logika bor, — dedim men.— Aks holda bir necha yil birga yashagandan keyin topilgan mol-mulkning... him, baribir farzandlaring bor ekan.

— Azizim, man uning davlatiga tupuraman! — dedi Gulsara birdan. — Man hozir kambag'alman... Juda! Him, qanaqa qilib kun kechirayotganimmi yolg'iz o'zim bilaman, Alloh biladi. Tavba qildim. Allaqachon do'zaxda joyim tayyor bo'lgan. — U gangib, shampandan tag'in ho'pladi. Men ham ichib, so'radim:

— Keyin?

— Mana shu, — qo'li bilan orqa tomonni ko'rsatdi,— uch xonali kvartirasini berdi. O'ynashlari bilan mayishat qilarkan... Nu, ya tak dumayu.

— Hmm, shunday qilib...

— Qo'zichoqni yedi o'rmonda, — deb qahqaha otdi.

Tavba, uning ovozida ham ko'p ichuvchi ayollarga xos xirillash bor ekan — shunda sezdim.

U esa qattiq kulganidan andak xijolat bo'lib, birdan soatiga qaradi-yu, qoshlari chimirilib ketdi.

— Sizni ushlab qoldim, — dedim.

U men ilgari sira sezmagan betakalluf ohangda:

— Ha, — dedi. — Biroz kechikdim... — Keyin g'ijimlangan gulni oldi-yu, yana kuldi. — O'zim ham shu gulga o'xshab qolganman... Xo'p deng, azizim.

— Yo'q, — dedim. — Kechirasiz, Tavakkal aka bilan uchrashib qolsam yoki qo'ng'iroq qilsa, nima deyin?

Gulsara xuddi to'kilib ketganday mung'ayib qoldi. Keyin boshini asta qimirlatdi.

— Bilmayman, yo'q. — Keyin g'amgin kulumsiradi,— shu payt hozir bo'lgandamidi... — So'ngra sovuqqon bir tarzda qo'shimcha qildi: — U mani unutdi hisob... Da-da, o'tirishimizzi, "Tanovar"ni unutmaydi, albatta. Tiblisni ham. Ammo u ayolsiz turadigan, yashaydigan yigit emas.

— Endi...

— Xayr, azizim.

— Xo'p.

U chinnigulni yana bir-ikki bor hidladi-da, ustun tomonga otib yubordi.

Keyin ketma-ket maydonga chiqdik. U metro tomonga, men radio qo'mitasi tomonga ketdim.

Ochig'i, mening kayfiyatim yaxshimas edi. Ko'nglimda allaqanday — aytib bo'lmaydigan gumonlar.

24

Ko'ngil sezadi, deganlari rost ekan (Men "ekan-pekan" kabi kashfdan darak beruvchi so'zlarni ancha qo'lladim. Ammo ularning — "endi" ekaniga ko'p marta amin bo'lganman).

O'sha qaldirg'ochlarning, to'g'rirog'i, makiyon qushchaning "rashki" — erini — "nimalar"dandir qizg'anishi oqibatida olgan sabog'im tufayli xotinimning ayrim hollarda tagdor gaplar qilib qolishini — tabiiy deb hisoblaganim uchun uyga ham tez-tez tushib chiqadigan bo'lib qolgan edim.

Qish. Toshkent qishining achchiq sovuqlardan keyin kelguvchi ilimiliq kunlaridan biri edi. Bahor nafasi esar, istirohat bog'imizdagi bir necha tup bodom daf'atan gulga kirgan, tabiiyki, ularning vaqtli gullashi bizni achintirar, ayni chog'da ko'zlarni quvontirar edi.

Restoran joylashgan tepalik bag'ridagi bir necha tup do'lanasimon daraxtlar ham oppoq bo'lib gullab qolganini ko'rdim-u, kayfiyatim yana-da ko'tarilib ketdi. Kechasi — soat to'qqizlar edi, chamamda. Men metro bekatidan chiqib, kurant tomonga borayotuvdim, u yerdan avtobusga chiqib, Yunusobodga ketmoqchiman.

O'sha dahada qurilgan yozuvchilar uyidan menga ham berishgan, bola-chaqam o'sha yerda turishadi.

Xullas, metrodan chiqib, ko'lmak suvlar yaltirab turgan kenggina xiyobondan tez-tez yurib borarkanman, anavi mehmon daraxtlarning gullariga ko'zim tushib, haligiday quvonar edim. Va ixtiyorimdan tashqari holda — chap tarafimda qolib ketayotgan restoranning bo'g'iq saslarini ham eshitib, savqi tabiiy bir tarzda — aroq, sigaret va yana qandaydir hidlarga to'la, nimasi bilandir jodugarning kulbasidek o'ziga tortadigan o'sha joy bi-

lan bog'liq xotiralar miyamning allaqayeridan zuv-zuv o'tishar, ular orasida, ayonki, Tavakkal bilan Gulsara xonim dasturxonida o'tirganim va ular ila bog'liq xotiralar-da g'ira-shira yuz ko'rsatib o'tardi.

Yozuvchilikning bir yomon jihati shundaki, har dam, soniya miyang-u qalbingni band etgan asarni yozib tugatgach, sal vaqt o'tmay uni izsiz unutasan: boshqa — yangi voqealar seni band etib, hushingni oladi.

Shundoqki, Gulsara bilan so'nggi uchrashuvimizdan keyin u bilan Tavakkal akaning munosabatlariga nuqta qo'yilgandek bo'p qolgan edi: illo, men ularning na birini ko'rgan, na biri bilan telefonda gaplashgan edim.

Yurtga borish esa mushkul bo'lib ketgan, borar bo'lsam ham Qarshiga tushishning iloji (ma'nisiyam) yo'q edi.

Qisqasi, ularning aloqalari-yu o'zimning ishtirokim qachondir yozilgan asardek bo'lib qolgan edi.

To'g'ri, ba'zi-ba'zida biron sabab bilan eslab qolsam, barcha voqea va uchrashuvlar lop etib ko'z oldimga kelar, xuddiki o'sha voqealar hozir davom etayotgan kabi tuyular edi.

Izohlarni to'xtatdim.

... O'sha xiyobon biron ellik qadamlardan keyin chapga burilib, restoran ustidagi bahaybat mehmonxonaga olib chiqadigan zinalar pastidan o'tadi. O'ng tomon — yengil moshinalar bekati, u yerda ko'pincha xorijiy tamg'ali avtolar ko'p, ularning birlari — ajnabiy mehmonlarga qarashli bo'lsa, birlari — o'zimizdan chiqqan yosh puldorlarga tegishli.

Ana o'sha zinapoyalar-u bekat orasidan o'tayotgandim, zinapoya chetida qo'r to'kib turishgan qizlar kulgisi eshitildi. Men jilla e'tibor bermadim. Chunki bu qizlarning aksari — yengiloyoq, ochig'i, fohishalar ekanini Husanboy aytmasidan burun ham bilardim. Biroq shunda birov yo'talib qoldi-ku!

Yalt etib qaradim: yo'tal menga g'oyat tanish edi. Qarasam, "soyavon"li shapka deymizmi, shlapa deymizmi, ishqilib, urfga kira boshlagan antiqa bosh kiyimli, egnida yaltiroq charm plashi bor bir juvon chetga burilib, engashib yo'talyapti. Tumshug'i uzun bir juvon uning tirsagidan tutib turipti.

— Gul, Gulsara, — degani qulog'imga kirdi-yu, qotib qoldim. Ko'rinib turibdiki, yo'tal tutgani— Gulsara, yonidagisi (talaffuzidan ma'lum) — uning dugonasi edi. Mening to'xtab qarab turganimni ko'rgan dugona Gulsaraga nimadir deb shivirladi. U boshini keskin ko'tarib, menga qaradi-yu, tikilib qoldi.

Ont ichaman-a: ko'zlarimiz bir-biriga to'qnashdi. Ammo men qotib turardim. U esa o'rmon kiyigidek mag'rur boqarkan, birdan mehmonxona tomonga burildi.

Men asta jildim, Gulsara esa o'rtog'i bilan qo'ltiqlashgancha zinadan ko'tarilib ketdi.

Mening gumonlarim haq ekan. Ammo endiyam uni tilda ochiq aytolmayman.

25

Bahor ham yetib keldi. Ammo qaldirg'ochlar kelishiga hali vaqt bor (20-martdan keyin kelishadi), shunga qaramay derazani ko'pda bekitmayman. Gulga kirib qolgan olmazor bog'dan qochoq bulbullarning sayrashi tonggi soat to'rtda boshlanishi bilan uzzu kun tinmaydi. Tez-tez yomg'ir yog'adi, ba'zan tunlari yaxshigina sovuq bo'ladi. Ko'pincha ko'kda bulutlar suzib yurishsa-da, quyosh ko'rinib turadi: ish stolida bitadiganlarning ayni mavsumi.

Kechasi soat birmidi-ikkimidi eshigim taqillab qoldi. Navbatchi yigit ekan.

— Telefonga so'rashyapti. Qarshidan, — dedi.

Shoshilib quyi qavatga tushdim.

— Quvvatjo-on?

— Men. Bormisiz, Tavakkal aka?

— E, "aka" bo'lmay ketay men, — dedi u. Kayfi yo'q edi. — Oxiri ish olib ketadi bizni... Oyoq singan edi. Marmar qattiq bo'ladi, deb jiyagidan borayotsam, ko'chib ketdi.

— Shuning uchun qo'ng'iroq ham qilolmadingizmi?— dedim gina qilib. — Lekin Toshkentga kelib ketishga yarapti shu oyog'ingiz... Husanboydan eshitdim. Oqsab kelib oqsab ketdilar, dedi... Bungayam ikki oydan oshdi.

— Quvvatjon, ishga berilib ketib, vaqtida borolmab edim do'xtirga. Singan joyni ulagan simlari suyakka qo'shilib ketgan ekan. Aperatsiya qilishdi...

— Ha, omon bo'ling, aka.

— Xayriyat, oqsamayapman... Qaynardagi sanatoriyda yotib edim. Ammo ikki-uch marta telefon qildim. Sizni — "uyiga ketishgan" deyishdi. Yaxshi bo'pti-da, uy, bolalar — birinchi o'rinda turadi... Xo'sh, xonim tirikmi? — jiddiy gapdan keyin bu savolga shunday tez o'tdiki, asli so'ramoqchi bo'lgani shu ekaniga shubha yo'q edi.

Ayni chog'da uning "tirikmi?" degan savolini qo'pol yoki nopisandlik belgisi, deb ham bo'lmasdi: janubning gapirishi kaminaga ma'lum: ko'pincha eng yaxshi fikrlarni yomon libosga solib ham aytishadi. Masalan, Navoiy hazratlari ham ishlatgan "yomonim" — uyoqlarda hamon amaldaki, "yomonam yaxshi ekan" degan kalima ham bor.

Biroq men ularning munosabatlariga nuqta qo'yganim uchunmi, Tavakkal akadan ginam borligidanmi:

— Tirik bo'lsalar kerak, — dedim.

— E, nahotki ko'rmadingiz? Bir shaharda yashab... Da-da, tushunaman, — dedi keyin. Lekin men bir borganimda uning adresini topaman, deb ko'p urundim, uka. Ishlab ketgan joyidagilarni terror qilishimga oz qoldi.

— Tavakkal aka, siz uni ko'rishni istaysiz-a?

— E, "mi"sini optashlang — Axir, men... nima desam ekan, qo'ying, u yog'ini aytmayin...

— Bo'lmasam, Toshkentga kelganingizda o'sha restoranga kiring-u, zavzal yigit Husandan so'rang. U aytib beradi uning...

— Nima-nima? Restoranga ishga kirganmi?

Men andak mulohaza qilib:

— Shunga o'xshaydi, — dedim.

Dedim-u, ko'nglim g'alati bo'lib ketdi; shunday qiz, shunchalik qobiliyati bor juvon, shunday pokiza, brilliant uzuk... Uf! U buyuk fojiaga yo'liqqan ediki, bunga Tavakkal aka bilan munosabatlarining ham ta'siri yo'q, deb bo'lmasdi: o'ylab ko'ring axir, Tavakkaldan sovushi (agar sovugan bo'lsa!) menga ham

teskari qarashiga, tabiiy, boshqa ko'p jihatlardan ham yuz o'girishiga turtki bo'lmaganmi? Turtki bo'lgani aniq.

— Quvvatjon?

— Qulog'im sizda.

— Men ertaga yetib boraman!

— Marhamat.

— Sog'liq joyidami o'zi?

— Xudoga shukr.

— Ha, bo'lmasam, ko'rishguncha, Gulsarani topsam... Topaman albatta, dachaga oboraman.

— Bemalol.

Uni ichimda so'kib, dastakni joyiga qo'ydim. Xonaga ko'tarildim. Ishim yurishmay qoldi: bilsam, ular uchrashuvining nima bilan tugashini hoziroq kutayotgan ekanman.

26

Ertasi kuni qattiq yomg'ir yog'di. "Samolyot ucharmikan? Uchar-ov..." deb, yog'inning tinishini iltijo qilib yurdim. Tasavvur eting, kunduzi ham ishim siljimadi, ammo ularning yonma-yon kirib kelishlarini endi tasavvur etolmasdim: axir, Tavakkal akaning "gap ko'tarmas" yigitligini yaxshi bilaman...

Gulsaraga kelsak, u Tavakkalga muhtoj...

Kech tushdi. Tun yarimdan oshganda, divanga cho'zilib yotdim. Ammo quloqlarim tashqarida...

Imoratning qo'sh tabaqali oynaband eshigining gursillab urilayotganidan uyg'onib ketdim. Derazaga qarasam, tong yorishyapti, bulbullar sayray boshlagan.

"Oshpazlar kelishdi, — deb o'yladim. Keyin soatga qaradim, endi to'rtdan oshayotir. — Ular beshdan keyin kelishadi-ku? Kim bo'ldi bu — shunday paytda nozik odamlar ham yotadigan korpusning eshigini bor kuchi bilan gursillatib urayotgan?!"

Shu payt eshik qars-qurs etib ochildi. Kelgan kishi navbatchi qorovul bilan gaplashdi. Keyin, bir-ikki soniya o'tmasidan uchinchi qavatga olib chiqadigan pillapoyaning shaxtam qadamlardan gup-gup etayotgani eshitila boshladi va men bemahalda kelgan betakalluf mehmonning — Tavakkal ekaniga mutlaq ishondim.

Ishondim-u, uning bunchalik kech kelishini — "biron xususiy kafeda ichib o'tirgan-da", deb ta'birlagan bo'lsam, uning yolg'izligini ham shu yo'sinda tushungan bo'ldim.

Alqissa, "Ular urishgan. Tavakkal qandaydir nojo'ya ishlar ham qilgan. Keyin alamidan mast bo'lgan, keyin esiga men tushib, bu yoqqa jo'nagan", degan fikrga keldim.

Men xonam eshigini qulflamayman, shundoq bo'lsa-da, yo'qlovchi kishi eshikni taqillatadi.

...Qishloqi aka eshikni taraqlatib ochib kirdi. Men o'rnimdan turib ketgandim. Shiftdagi qandil ham, stol lampa-chirog'i ham yoniq: yerga igna tushsa, ko'rinardi.

Tavakkalni, aytish mumkinki, tanib bo'lmas edi: lablari yorilgan, labining chetlarida qon yuqi bor, yap-yangi charm kurtka ostidagi tivit jemperining yoqasi lang ochiq — bittayam tugmasi yo'q, yuzida o'zidan o'zi kulayotgan kishiga xos shikasta alamzada tabassum javdirab turar edi.

— O'-u, Quvvatim! — deb xitob qildi: sezdimki, tiliniyam tishlab olgan. — Akangizni tabriklang!

— Keling, Tavakkal aka, — dedim va ne bir xush istak ila so'radim: — Nima bilan tabriklay?

— O-ozodlik bilan! — dedi u. Keyin, loyga belangan tuflisini bir-biriga ishqab yechib tashladi-da, xonaga kiriboq meni mahkam quchib oldi. — Azizim, ukam, yurtdoshim... Akangiz rasvo bo'ldi. Hammasi tugadi, uka.

— Tavakkal aka, o'tiraylik, — dedim. Uning kayfi bor-u, kishini "qochiradigan" darajadamas edi.

Buning ustiga, butun bir viloyat yigitlariga so'z bermay yurgan vallamatning bu turqi-tarovati-yu so'zlari meni larzaga solib yuborganki, sababini tezroq bilgim kelardi.

— Rahmat. O'tiramiz, — deb meni darhol qo'yvordi-da, divanga gurs etib o'tirdi. — Kechirasiz...

— Shunday gaplar bo'lmasin, — dedim uzr so'ramoqchiligini anglab. — Rosti, men sizni kutayotgan edim.

— Meni? Bitta o'zimni? — U tilla tishlarini ko'rsatib iljaydi-da, keyin qah-qah otib kuldi. — Qoyilman... Unga — Gulsaraga

qoyilman. Meni yana yengdi... Bu safar ma'rakadan chiqarib yubordi. Kurash tushmaydigan qilib yubordi.

— Bir minut sabr qilasiz, — deb, choynakni olib, vannaxonaga chiqdim. Idishni chayib, sovuq suvga to'ldirib kirdim. Choy qaynatgichni solib, u yog'ini tokka uladim. — Ana endi gaplashamiz... — Unga tikildim-u, aftidagi o'zgarishlar haqida savol bermay turishni ma'qul ko'rdim: baribir o'zi aytadi. — Xo'sh, bir boshdan eshitamiz-da? Restorandamidingiz?

U yana qah-qah otdi. So'ng:

— Milisadan kelayapman, — dedi boshini ko'tarmasdan. — Ayb o'zimda...

— Nima qilib qo'ydingiz?

U shiftga qarab, oyoqlarini chalishtirib oldi.

— Samolyotdan — oxirgi reysdan tushib, to'g'ri restoranga bordim. Husan bugun ishlamas ekan. Ya'ni, kecha, ha, kecha... Uning adresini olib, uyiga bordim. Yaxshi yigit, dilbar inson... Menga ochig'ini aytmadi-yu, gapni aylantirdi: "Sevasizmi? Uylanasizmi?" Yana ko'p gaplar... — Tavakkal ko'zlarini yirib ochib, menga tikildi. — "Ha — dedim. — Uylanaman, do'stim. Gap tamom...". Men uni deb... U mening mana bu yerimdan juda-a chuqur joy olib qolgan. Men unga... men uni oddiy marja... Kechirasiz! Xullas, Gulsarani uzoqdan ko'rsatishga va'da berdi. Jonimni hovuchlab yo'lga tushdim. Yo'lga tushdik... "Nima gap o'zi? Nima bo'lgan?" deyman. Gapirmaydi. Xo'p, restoranga yetib bordik. — U bilagidagi oltin soatiga qarab oldi. — Xayriyat, shuni olishmadi milisalar... Borganimizda, soat o'n yarimlar bor edi. Men u restoranda ming marta bo'lganman.

— Bilaman.

— E-e, superlukslarida yotganman, jononlar bilan... O'shalarning aylanib turadigan joylarini ham bilaman. Uch-to'rttasining telefon nomeriyam bor edi. Bir yil burungi gaplar bu... Xullas, Husan jo'rangiz meni restoranning ichidan o'tkazib, zavzal o'tiradigan stolga olib bordi-da, apisankalar bilan gaplashdi. Keyin yo'lakka chiqdi. Liftga bordik. Shu yerda Husan qoldi. Men uni tushundim. O'ziyam aytdi: ular restorandagi intim sirlarni hech qachon hech kimga aytishmaydi.

— Men ham shu gapni eshitganman, — dedim. — Lekin Husan baribir odamgarchilik qipti.

— O'-o', albatta!

— Keyin?

— Oltinchi qavatga chiqsam, dejurni o'tiripti. Boshqa zot yo'q. Bir amallab Gulsarani izlayotganimni aytdim. "Maya rodstvennitsa", dedim. Oxiri, g'aladonini shartta tortdim-da ikki yuz so'm tashladim. "Sestrichka, skaji...".

27

Mening nazarimda, Tavakkal aka Gulsaraning "ahvolini" eshitishi zamon iziga qaytishi, ya'ni Husanning to'mtoq gaplaridanoq voqeani anglab, unga qo'l siltashi lozim edi.

Shuning uchunmi:

— Xo'sh, uni topib nima qilmoqchiydingiz? — deb gapini bo'ldim.

Tavakkal bir muddat angrayib qoldi.

— Xudo ursin, bilmayman, — dedi keyin. Keyin esa peshonasiga qars etkazib urdi.

— Keyin nima bo'ldi?

— Keyin, — u endi qontalashgan ko'zlarini palosdan uzmay gapira boshladi: — Keyin o'sha apisanka... e, dejurni ular o'tirishgan xonani ko'rsatdi-da, tuya ko'rdingmi — yo'q, deganday qildi. "Gap bitta!" deb, bordim... — U o'tirgan yerida baxshiga o'xshab bir-ikki chayqaldi. — Voy-voy, boryapman-u, butun borlig'im titraydi. Hech, hech qachon bunday bo'lmagan...

— Demak, u bilan o'tirgan kishini urmoqchisiz?

— Kim biladi! — deb do'q qilganday bo'ldi. — O'zim o'zimni tushunmay qoldim... Yo'q, uning kavalerini urish niyatim yo'q edi. O'zi rozi bo'ptimi — tamom. Ammo, qiziq, o'zini ko'rmoqchiman-da! Ha-ha... Bir ko'rsam deyman...

— Qiziq.

— Shunday qilib, eshikni shartta ochdim! — U xo'rsinib, timirskilanib, nimanidir izladi. Men "Rodopi" pachkasini uzatdim. Mamnun bo'lib, birini tutatdi. Bir-ikki dud olgach, ancha hov-

ridan tushib, davom etdi: — Eshikdan... dejurnilarga ishonganlari uchunmi, eshikni ichkaridan qulflashmagan ekan. Men, men... haligiday manzarani ko'raman, deb o'ylab edim, shekilli. Yo'q, ikkovi stolchaning ikki yog'ida o'tirishgan ekan, endi konyakli rumkani ko'tarib turishgan ekan. Meni ko'rib qarab qolishdi.

Tavakkal hikoya qilarkan, meni hayajon tutgan, ishonishingizni so'raymanki, yozuvchi bo'lib bunday nozik, hatto xavfli manzarani tasvirlamagan edim.

— Keyin? — dedim.

— Bilasiz, bir jonon bilan ketayotganingizda, boshqa bir jonon ro'parangizdan chiqib qolsa, u albatta sizga qaraydi. To'g'rimi?.. Buning aksi bo'ldi: men yigitga qaradim. Bir nozik, galstuk taqqan, sochlarini o'xshatib taragan, umuman, intilligent yigit edi. Bilasizmi, mundaylarga qo'l ko'targing ham kelmaydi. Lekin, umuman, birov bilan janjal qilish niyatim yo'q edi... Qolaversa, Gulsaraning bu ko'chaga kirganini Husan bilan gurungdanoq payqab edim. Ha... Lekin shunday qizning, shunday mag'rur, hatto meni nazariga ilmagan juvonning...

— Men tushunaman, — dedim.

— Yo'q, siz ham tushunmaysiz, — dedi Tavakkal. Keyin o'ylanib so'radi: — Qanaqasiga tushunasiz?

— Harqalay, o'tmishini aytib bergan... Sizga-chi? Gagrada bo'ldinglar...

— E-e, o'tmishini so'rash... O'tmishi menga bir kapeyka edi. O'zi yoqib qolgandi, xolos...

— Attang.

— Arog'ingiz yo'qmi?

— Qatdadir bo'lsa kerak... Shishaning tagida... Ha, anavi "Morozka"ning ichida. Hozir... Mana, mana, pechenye ham bor ekan. Oling. Omon bo'ling.

— Rahmat, uka. O'zim opkelmoqchi edim. Milisalar bor pulimni qoqib olishdi. Taksiga zo'rg'a yetdi... Nichavo, ertaga topamiz... E, tong otib ketipti!

— Ha.

— Him... Shunday qilib, erkakdan keyin Gulsaraga qaradim. Qaradim-u, yiqilib tushishimga oz qoldi. Boshim aylanadi deng...

Men uni yaxshi ko'rarkanman, uka... Yo'q, yaxshi ko'rib qolgan ekanman. Keyinchalik...

— To'g'ri aytasiz. Uyam sizni keyinchalik yaxshi ko'rib qolgandek edi.

— Rosti bilan-a?

— Ha, o'zi aytuvdi.

— Voh, voh!.. Nega bo'lmasam... Him, — u bosh irg'ab qo'ydi. — Ha-ha, oxirigacha Gulsara bo'lib qoldi u... Lekin bitta gapi o'lgunimcha yodimdan chiqmaydi! Aytdiki...

Men bularning ikkovining taqdiriga yana qiziqib qolgandim, zeroki, bular munosabatlariga so'nggi nuqta endi qo'yilayotgani boisidanmi, Tavakkal akaning Gulsara bilan o'sha qaltis nozik damdagi gap-so'zlarini bilib olish maqsadida yana uning gapini bo'ldim:

— Kechirasiz, Tavakkal aka, eshikdan kirdingiz, xo'sh, keyin Gulsaraga ko'zingiz tushdi-yu...

— Ha-ha! — deb baqirib yubordi. — Voy Quvvatjon, qiziq-a? O'lay agar... Birov shunday bo'ldim desa, sira ishonmasdim. Chunki, bilasizmi, uka, men "muhabbat, sevgi" deganlariga, — u o'qlovdek-o'qlovdek panjalarini yozib ko'rsatdi, — mana shularning orasidan qarardim. Kitoblargayam ishonmasdim. To'g'risida... Kechirasiz, sizga tegib ketmasin. Siz ishq-muhabbat haqida...

— Deyarli yozmaganman, — dedim. — Men bilganlarimni yozganman, xolos.

— Balli.

— U-chi, u qanday holatga tushdi? Sezdingizmi salpal?

— Ha, vabshe, kallam joyida edi, ko'rib turibman uni... U, nazarimda, menga tikilib qoldi. Keyin sal-pal kulumsiraganday bo'ldi-yu, "Sizga kim kerak?" deb so'radi.

— Shunday dedi?

— Ha. Meni, umuman, tanimaydigan kishidek so'radi... Vo-oy, o'yinni biladi desam, aktor ekan!

— Balki bu aktorlik emasdir, — dedim menga ham teskari qaragani esimga tushib.

— Axir... — Tavakkal yana boshini egib qoldi-da, butun tanasi bilan irg'aldi. — Siz haqsiz, uka. Men unga begona edim endi. Qoyil.

— So'ngra siz nima dedingiz?

U yana qomatini rostlab o'tirdi.

— Nima der edim. "Sizga bir og'iz gapim bor edi", dedim. Hatto yigitga qarab, uzr so'radim. Yo'q, ruxsat so'radim. U bechora yelkasini qisdi.

— Keyin?

— Keyin Gulsara... "Men sizni tanimayman", dedi... Quvvatjon, o'sha paytda orqaga qaytishim kerak ekan. Ablahman-da, inim! Ablahman... Balki shu tariqa undan ayrilishni istamagandirman? Shu-shu. Uni qoldirib, orqaga burilsam, nima bo'lardi?.. Nima qilardim? O'zingiz ayting...

— Xo'sh, keyin?

— Keyin... — U siyrak, jingalak sochli boshini kaftlari orasiga olib, yana baxshinamo chayqaldi. — "Kel bu yoqqa, men seni opketish uchun keldim", depman... — U boshini yana ilkis ko'tardi. — Shunday dedim. Shu gapim rost edi! Tepamda Olloh bor, gapim rost edi... O'zim ham uni bu yerdan olib ketish uchun kelganimni o'sha paytda bildim...

Men ittifoqo ko'nglimda bir mamnunlikni tuydim. Xorijiy adabiyotning ayrim mashhur asarlarida, masalan, fohishaga yoki lo'liga o'ylangan "shahzodalar" tasviri bor.

Tavakkal "kitoblargayam ishonmayman" degani kabi men ham o'sha qahramonlar harakatiga ishonmas edim-u, inkor ham etmas edim.

Ro'paramda o'tirgan bir chapani o'zbek yigitning fohishalik ko'chasiga kirgan bir qizga bo'lgan munosabatini deymizmi, sevgisinimi, xullas, biz — xom sut emgan yozuvchilar ham inson ruhidagi bu singari o'zgarishlarni anglashga ojizlik qilamiz, albatta.

Alhol, men Tavakkalni so'nggi gapini eshitib, qalbimda ajib bir mamnuniyatni tuydim. Tuydim-u, Gulsaraning nima deb javob bergani meni ohangrabodek tortib:

— U, u nima deb javob qildi sizga? — dedim.

Ajabo, Tavakkalning ham chehrasida bir mayin tabassum yoyilgan ediki, qandaydir hasratli yig'ining sirtqi ifodasiga o'xshardi.

— "Endi kechikdingiz", dedi. Ha, haligina "sizni tanimayman", deb turgan xonim endi shu gapni aytdi... Anavi kavaleriga ta'sir qilishiniyam o'ylamadi.

— Yaxshi.

— Sirayam kech emas, Gulsara, dedim men. Keyin men ham ochig'iga o'tganimni bilmay qoldim: axir, sir ochilgan edi. — Men sizni yaxshi ko'raman, — dedim. Allaqachon yaxshi ko'rib qolgan ekanman-u, bilmay yurgan ekanman, — dedim. — Ishoning, Gul... Men, men ham ko'p ayollar bilan yurganman. Xo'p, siz ham... Nima bo'pti? Gap bunda emas-ku?

— Xo'sh? U...

— Yaramas yig'lab yubordi-de... Vey, ichkariga qanday otilib kirganim esimda yo'q.

28

Tavakkal o'rnidan irg'ib turib, ayvonga ochiladigan eshik oldiga bordi. So'ng eshikni lang ochib, negadir kurtkasini yechdi-da, divanga otdi.

— He, bu dunyoning onasini... Puf-f. — So'ng menga keskin qayrildi. — Qarang, uka, gap nimada-yu men nimani so'kayapman... Ahmoqlik shu-da.

— Siz xonaga otilib kirdingiz.

U bosh irg'ab, yana divanga cho'kdi. Va qolgan gaplarni, ya'ni, voqeani qandaydir hissiz bir ohangda tezgina aytib tashladi:

— Uning bilagidan ushlab tortdim. Yigit bir nima deb edi, unga mana bu qo'limni cho'zdim. "Og'zingni yum", dedim shekilli. Gulsara dodlab yubordi. Qarang, men tek turib qoldim... Shunda ikkita milisa paydo bo'ldi. O'zimcha o'ylaymanki, haligi dejurni xotin chaqirgan. U bilan gaplashganda, vajohatim yomon edi, shekilli. Kim biladi, o'zidan qo'rqqanmi...

— Shu gapingiz to'g'ri, — dedim. — Sizni opketishdimi, Tavakkal aka?

— Ha, albatta... Anavi so'tak ham bir nima dedi melisalarga. — Lekin Tavakkal menga yana xo'rsinish ifodasi kabi bir nigoh bilan boqdi, — Gulsaraning gapi gap edi. "Bu odam nomerga bostirib kirdi. Biz tanimaymiz. Aftiga qaranglar, g'irt mast", dedi. — Tavakkal qah-qah otib kulvordi. — Ichmagan edim. Bir gramm ham... Gulsaraga qarab kuldim. U kresloga o'tirib, yana yig'lay boshladi. Bilasizmi, uning bu galgi yig'isiyam boshqacha edi... Endi oxirgi gapini eshiting. Milisalarning oldida "Bu odamni biz tanimaymiz", deb turgan juvon yig'lab turib: "Mani esdan chiqaring, Tavakkal aka. Bo'lar ish bo'ldi. Sizzi ko'chayizga begonaman. Maning yo'lim bo'lak endi. Tamom", dedi.

— Siz lol-hayron...

— Ha, milisalar meni itarib-itarib chiqarishdi. Karidorga chiqqanda, bittasining quloq-chekkasiga qo'yib yuboribman... Banditlik-da. Lekin meni milisa zoti turtmagan edi, qamoqda yotganimdayam... Ha-e...

— Keyin?

— Nima bo'lardi. Shunisi shaytonlab qoldi, unisi chopib borib, dejurnining telefonidan zvanit qildi... Menga hamma narsa baribir edi. Hey, unday joydagi kresloga borib o'tirdim. Besh-oltitasi kelib edi, men aytdim: "Tegmanglar, qo'l tegizsanglar, chatoq bo'ladi. Xohlagan joylaringga o'zim boraman", dedim. Ular ham qandaydir ishonishdi. Endi ishonmasayam bir-ikkitasining jag'-pag'i sinar edi.

— Keyin milisaxonada urishdi?

Tavakkal bosh irg'adi.

— Ha.

— Keyin?

— Ekspertiza qilishdi. Tarsaki yemagan milisa — odam ekan. Gulsaraning oxirgi gaplarini aytib edi, tushunishdi... Kattasi tushundi. Lekin formadagi milisani urganim uchun tovon to'ladim hisob. Bor pulimni berib qutuldim...

— Pulsiz chiqqan bo'lsangiz, nimaga ichdingiz?

— Ha-ya. — Tavakkal horg'in kulib, tikilib o'tirdi. — Husanboy yigit ekan. Otdeleniyadan chiqsam, kutib turipti meni. Quchoqlashib ketdik.

— Keyin kafega bordinglar?

— Ha, uyiga yaqin joyda bitta xususiy oshxona bor ekan. Meni mehmon qildi. Uni qadrlang, Quvvatjon... Xo'sh, bor gap mana shular, uka.

U yana irg'ib, o'rnidan turdi-da, kurtkasini egniga tashlab, ayvonga chiqdi.

Men ham choponimni yelkamga ilib, uning yoniga borsam, shundoq ro'paramizda oy, ha, rangi o'chgan to'lin oy turibdi.

— Ko'ryapsizmi? — dedi Tavakkal. Men uni bog'ni tomosha qilayapti, deb o'ylagan esam-da:

— Nimani? — dedim.

— Oyni-da, e, yozuvchi, — kinoya qildi Tavakkal. — Bulut to'sdi.

— Ha-ha. Hozir o'tib ketadi. Oy yana ko'rinadi... Kallangizga biron gap keldimi?

— O'zimni shu qora bulutga o'xshatdim. Oyni nima desam ekan, keling, muhabbat deb ataylik... Ha-ha-ha!— Keyin g'amgin tortib qoldi. — Shu o'tdi-ketdi. Bilmay qoldim... Xuddi umrga o'xshaydi-ya muhabbat ham. O'tganini bilmay qolasan... Bo'pti, endi menga javob berasiz, uka. Shaharga tushib, tanishlardan uch-to'rt so'm qarz olayin. Keyin to'g'ri Qarshiga!

Men qattiq hayajonga tushib qolgandim: axir, ushbu voqeaga — Tavakkal akaning Gulsara bilan munosabatiga, boringki, boringki, qismatlariga beixtiyor so'nggi nuqta qo'yilgan, bunda, ayniqsa, o'zining "mohiyati" ochilib ketgan edi.

Shuni idrok etdim-u, ishoning, shunaqayam mayin tortib, mamnuniyatga to'ldimki, undan keyingi gap-so'zlar qulog'imga kirmay qo'ydi.

Lekin Tavakkal akaning so'zlarini eshitardim, munosabat ham bildirardim.

— ... Namgarchilikda og'riydi.

— Issiq tutish kerak.

— Vannada issiq suv bormi?

— Biroz oqizsangiz, keladi.

— Quvvatjon, vaqtingiz bo'lsa, men bilan chiqmaysizmi?

— Sizni kuzatib qo'yaman.

— Rahmat.

1996

BANDI BURGUT

1

O'shanda bir qarich jujuq edim. Teng-to'shlar bilan yozda tuproq changitib, qishda qorbo'ron o'ynab, bahor kezlarida ham o'ziga xos ermaklar topib yurgan beg'am, baxtiyor chog'larim edi.

Biz, ayniqsa, ko'klam kezlarida to'rt-beshta bo'lvolib, poliz paykallarida izg'ib yurardik. O'tgan yildan qolib ketgan savzi bormi, lavlagi, kartishka bormi— kavlab olib, qishloqning chetidagi bir g'arib dala shiyponiga borib, o't yoqib, uning qo'riga topgan-tutganimizni ko'mib-pishirib yer edik. Qo'llarimiz, og'zi-burnimiz qorayib, bir-birimizdan kulib, maza qilib o'tirardik.

Shunday o'tirishlarning birida havo aynib qoldi: qop-qora, xunuk uvada bulutlar tepamizni bir zumda qoplab oldi-da, Xudoning qudrati bilan, tuxumdek-tuxumdek do'l yog'a ketdi.

Buning ustiga osmon darz ketgandek momaqaldiroq qarsillaydi, chaqmoq chaqadi. O, inson bunday paytda ojizligini nechog'lik aniq sezadi. Bu samoviy kuchlar qarshisida yo'q bo'lib ketadigandek sezasan o'zingni.

Lekin biz "bor" edik, bir-birimizning pinjimizga tiqilib, hazil-huzulni ham batamom unutib, tashqariga qarab o'tirardik.

Bir mahal shiyponning orqa tomonidan bir qora narsa pastlab kelib, shunday ro'paramizdagi yolg'iz o'rik shoxiga qo'ndi. Bu qanotlari ho'l bo'lib yoniga osilgan, ko'zlari olazarak burgut ekan. Do'l urgan bo'lsa kerak.

Saldan keyin uning, nisbatan, yosh burgut ekanini angladik. Kulangir tovuqcha kelar, ammo qanotlarini yozsa, bir qulochdan kam chiqmas edi.

Bilasiz, jala yoqqanda, shamol ham zo'rayadi. Shamol deng, yon tomondan uvullab esganda, boyoqish daraxtning shoxlari yerga tekkudek bo'lib egilar, keyin zo'rg'a o'nglanib olardi. Burgutcha ham shox bilan birga pasayib, birga ko'tarilar, ana shunda qanotlari boricha ochilib ketar edi.

Aftidan, u ham tabiatning bu o'yinidan hayratda, shuning uchun qo'nim topgan joyini tark etishni istamasdi.

Yerga qo'nmaganini qarang: burgut-da...

2

Bir zamon shamol sekinlab, do'l ham siyraklashdi. Shunga barobar atrof ham yorishib qoldi. Tabiatning bu tovlanishlari bir necha daqiqa orasida yuz berdi, azizim.

Qarangki, insonning tabiati ham sirtqi muhitdagi o'zgarishlarga mos holda o'zgarar ekan: bizning-da lablarimizga kulgu yugurdi. Burgut esa...

Xuddi endi palapondek silkinib, ho'l-shalabbo qanotlarini yonlariga tars-tars urib, parvoz qildi. Albatta, bu uchishni parvoz deb bo'lmas edi. Shunchaki yerga tushib ketishni istamagani va osmonga ko'tarilishga ham madori yo'qligi tufayli zo'rg'a qanot qoqardi — to'g'ri qishloq tomonga uchib ketdi.

Biz tapir-tapir qilib tashqariga chiqdik. Ixtiyorsiz bir tarzda bilardikki, bu qush bora-bora tag'in bir daraxtga qo'nadi. Unga odamlarning ko'zlari tushadi: tabiiyki, uni tutishga harakat qilishadi. Nima uchun?

O'zlari ham bilmasa kerak... Ha-ha, biz ham unga ega bo'lishni istardik, xolos.

Qishloq biz turgan yerdan uch chaqirimlar etakda edi. Loy kechib, jo'nadik. Qaysimiz qishloqqa oldinroq yetsak, osmon qushi o'shaniki bo'ladigandek. He yiqilib-surinib deng, tomida lolaqizg'aldoqlar ochiladigan ilk kulbalarga yetdik.

Qush yo'q edi.

Soylikkacha cho'zilgan xonadonlar, torko'chalardan burgutning biron-bir joyga qo'nganidan darak berguvchi shovqin-suron ham eshitilmasdi.

Tarvuzimiz qo'ltig'imizdan tushib, shiypon ayvonchasida — qo'r ostida qolgan totli ko'mmalarimizni eslab, bir-birimizdan ayb topishga chog'lanib turganimizda, eshitilib qoldi:

— Yo'qo-ot! Yo'qot deyapman senga! Jo'jalarni yeb qo'yadi. Burgut-ku bu!

Shundaygina oldimizdagi hovlidan eshitilardi ayol kishining vahimali shovqini.

— To'raquldi enasi-ku! To'raqulga aytayapti... — shunday deyishib, tomorqani aylanib o'tdik.

Chetandan qarasak, oramizda eng nimjon, bizga qo'shilavermaydigan tengqurimiz burgutning oyog'iga bog'langan ipni tutib turipti. Burgut qanotlarini yozib yer bag'irlab yotipti. Tirnoqlari yerga qadalgan, qutulishga harakat qilayotgani ham ko'rinib turardi.

— Ey, muni nima qilay, jo'ralar? — dedi To'raqul dir-dir titrab.

— Bizga ber, jo'ra, — dedim men. — Menga ber...

Keyin boshqa bolalar ham boshlashdi:

— Menga ber, menga ber...

— Birinchi men aytdim, men olaman, — dedim men.— Xola, menga bersin, bizda tovuq yo'q...

— Bekorlarni aytibsan, — dedi To'raqulning onasi. — Bachalarni chalg'itib har go'rlarga oborib yurasan. Bilaman, shiypondan qabristonning ostidan kelayapsizlar. Balo bormi u yerda?.. To'raqul, bularga qo'shilma!

— Vey, muni qarang, qanday yaxshi, — dedi shunda To'raqul yig'lab-piqillab.

He, kambag'alchilik qursin, azizim. To'raqullar qishloqda eng faqir oilalardan edi. Kambag'alchilik odamni ehtiyotkor qilib qo'yar ekan-da.

Qisqasi, To'raqulning onasi qilchilvirni uning qo'lidan olib, burgutchani o'zi sudray ketdi... Ha, engarakdan chiqarib, soyga optushadigan so'qmoqqa yo'naldi. Xayriyat, yer loy-sirpanchiq edi, xolaning o'ziyam bazo'r qadam bosardi. Biz unga ergashib chuvillaganimiz chuvillagan:

— Xolajon, o'ldirmang... Buni do'l urgan, garang bo'p qolgan. Bir kun tursa, o'ziga keladi. Uchib ketadi ota-enasining oldiga...

— Yo'qol hammang, — deb shang'illaydi xola. — Qorni to'q bilan qorni ochning nima parvoyi bor. Bu yetimcha nimani biladi hali... Senlarga o'yin bo'lsa, bo'ldi...

Ana shunda bodomgulli yirik otda kichkina bo'lib o'tirgan bir kishi — qishloqdagi eng qorni to'q zodagonning o'g'li Yo'ldoshboy chiqib kela boshladi.

"Zodagon" kim bo'lardi, do'stim? Kolxoz raisi-da: qishloqning begi.

Lekin "rais" deganda siz etik kiygan, qorin qo'ygan, shopmo'ylovi kishini tushunmang. Juda nozik, To'raqulga o'xshash dardman, rangpar kishi edi u. Bo'ynidan galstuk uzilmas, boshida shlapa, tagida — "Pobeda" moshinasi.

Uyi ham...

Shoshirmang, bir boshdan aytay.

3

Yo'ldoshboy o'zimiz tengli yigitcha edi. Qo'shni sinfda o'qirdi. Lekin juda yaxshi kiyinardi. Shunday kiyinardiki, bir-ikkita bolalar hasad qilganlaridan uning ust-boshini bir-ikki marta yirtib tashlashgan edi.

Menga u bola yoqardi, umuman. Yaxshi o'qirdi, informatsiyaga boy edi. So'ngra undayam qandaydir, siz aytmish "romantika"dan bor edi. Biroq rais otalari xuddi To'raqul juldurning onasidek o'g'lini biz juldurvaqalarga qo'shilib yurishini xohlamasdi: qarang, boylar ham ehtiyotkor bo'lishadi, a?

Xullas, biz ota-onamizdan gap eshitmaslik uchun undan o'zimizni tortib yurardik.

Xola Yo'ldoshboyni ko'rdi-da, taqqa to'xtab ta'zim qildi:

— Assalomu alaykum, rais bobo! — Ha-ha, raisning o'g'liniyam "Rais bobo" deyishardi. — Eson-omongina yuribsizmi? Bobo yaxshimilar? Enaginangiz?

— Rahmat, xola, — dedi u. Ko'zi qanotlarini yozganicha bizga tikilib yotgan burgutda. — U nima? Nima qilasiz uni? Qayerdan ushladingiz?

— He, mana bu shumtakalar ragatka bilan urganmi, do'l urganmi, shunday kelib gujumga qo'ndi-yu, yerga tushdi. Mana bu dirriq jo'rangiz To'raqul ushlab oldi. "Katakka solib boqaman" deydi. Axir, bir kechada bari jo'jalarni yeb qo'yadi.

— Yemaydi. Omborda boqaman, — dedi To'raqul.

Biz ham oraga tushdik:

— Bizgayam bermayaptilar...

— Muni nima qilasiz, xola? — deb so'radi Yo'ldosh.

— Kultepaga optushib o'ldiraman, og'ajon.

Shunda Yo'ldoshboy jonimizga ora kirdi:

— Menga bering, xola. Munga katak yasataman. Tashqariga chiqarmasdan boqaman, — dedi. Keyin yana qo'shimcha qildi: — Bizning uydayam shunday burgutdan biri bor. Lekin u jonsiz, haykal... Men burgutti yaxshi ko'raman...

Tabiiy, biz undan xursand bo'ldik. Biroq bu marta ham unga hasad qilganimiz aniq.

— Bering Rais boboga, bering, — degan gaplar og'zimizda qoldi. Xola rozi bo'ldi:

— Ha, esa mayli, og'ajon. Ehtiyot bo'lasiz-da. Tag'in chiqib-netib bizning...

— Xolajon, yirtqich qushlar o'zlarining atrofidagi tovuq jo'jalariga teginmaydi, — dedi Yo'ldosh.

Xola chilvirni tutamlayotgandek bo'lib yirtqich qush tepasiga keldi-yu, unga qo'l tegizishga jur'at etolmay qoldi. Shunda kamina yugurib borib, burgutchaning qanotlarini yoniga bosib ko'tardim.

U negadir meni cho'qimadi. Aksincha, meni onasi deb fahmlagandek og'zini ochib tutdi, xolos.

Og'irgina ekan. Ko'tarib oborib, Yo'ldoshga uzatdim. U olib, egarning qoshiga qo'ydi.

— Borsak, ko'rsatasanmi? — dedim.

— Ko'rsataman, — dedi u. — "Yuniy naturalist"ga a'zomisan?

— Nima?

— Shunday jurnal bor.

— Bilmayman.

— Bo'lmasa Bo'zmerganni topib so'ragin: burgut nima yeydi? Bu yosh ekan, nima berish kerak?

— Xo'p, — dedim. — Lekin bu kasalga o'xshaydi. Yoki do'l urgan buni.

— Opam ko'rib beradi, u kishi do'xtir-ku.

Yo'ldoshboy xolaga qo'shib bizlarga ham rahmat aytdi-da, bo'z yo'rg'ani burib, pastga enib ketdi.

4

Bo‘zmergan degan ovchi bo‘lardi. Yonida bir juft tozi (it) bilan bitta gurju (kuchukvachcha)ni ergashtirib yurardi. Kuchukvachcha mushtdek bo‘lgani bilan juda dovyurak, jangari bo‘larkan: tulkilarning iniga bemalol kirib ketib, o‘zidan uch-to‘rt karra katta hayvonni qitiqlab g‘ordan chiqararkan. Keyin tozi itlar uni quvib ushlasharkan. Tozilarining bo‘yi mendan baland edi: or-riq, xipcha, ola-bula. Tumshug‘lari uzun. Yugurganda, leopardni ham orqada qoldirarkan. Lekin qiziq-da: tulki shayton ungayam chap berib qolarkan ba’zan. Shu chap berganda, o‘qdek uchib borayotgan tozi ham burilarkan-u, epsizroq bo‘lsa, dumalab, beli sinib ketarkan.

He, hozir unday itlar ham yo‘q. “Gurji”ni bo‘lsa, “laycha” deyishadi.

Xo‘sh desangiz, Bo‘zmerganni topdim. Burgut haqida so‘radim-surishtirdim.

Keyingi kuni saharlab Yo‘ldoshboylarning uyiga yo‘l oldim.

Soy bo‘yiga tushsam, Rais boboning xizmatkori suvi bo‘g‘ilgan irmoqning ko‘lmaklarida oralab yurib, baliq ovlayapti. “Ovlamayapti” — terib-tutib olayapti. Qo‘lida mayda chiviqdan to‘qilgan chuqur savatcha.

Bu yonda suvdan ancha baland ko‘tarib qurilgandek yog‘och ko‘prik. Ajoyib ko‘prik edi: tagida turib qarasangiz, osti shiftga o‘xshab ko‘rinardi. Po‘stlog‘i archilmagan archa xarilaridan iborat. Suvning ikki chetiga bir qavat tosh, bir qavat yog‘och bosilib ko‘tarilganda, ustiga xarilardan yotqizilgan. Keyin ulovning oyog‘i tushib ketishi mumkin bo‘lgan oraliqlarga tosh tashlab qo‘yilgan. Eshak o‘tsayam ko‘prik lopillar, g‘ijirlar edi. Hurkak hayvonlar esa, umuman, o‘tolmasdi.

Azizim, ko‘prik haqidayam ta’rif berayotganimning sababi shundaki, bu — “romantik” do‘stingiz ana shunaqa sirli joylarniyam yaxshi ko‘rardi: o‘lay agar, kultepani ham oy yorug‘ida ko‘p kuzatganman. Shiypon yuqorisidagi qabristonni ham. Axir, ko‘prik, kultepa, mozorlar haqida qancha sirli afsonalar bor. Jin-ajinalar, yalmog‘iz kampirlarning manzillari, deyishardi-da...

E, qadrdon, haliyam shu gaplarga ishongim keladi. Siz ishonmang — mayli. Men ishonay. Nima bo'pti? Bir-birimizda yo'q jihatlarni to'ldiramiz, xolos...

Xizmatkor meni ko'rib, qoshini uchirdi. Baroqqoshli tojik yigit edi. Umuman, Rais boboning oilasi — baynalminal oila edi, desa bo'ladi. Xotini — totormi, boshqirdmi, ishqilib, tili o'zbekchadan farq qilardi.

— Yo'ldoshboyga gapim bor, — dedim.

U qasr tomonga qaradi.

— Sani kelishingdi biladimi Yo'ldoshvoy?

— Biladi, — dedim.

— Undoq bo'lsa, o'zi enib keladu hozir. Uning durbuni bor, sani ko'rib turubdu.

Haqiqatan ham ikkinchi qavatdagi... ha-da, boloxonada turib meni ko'rgan ekan.

So'qmoqdan chopib kelayotipti-yu, meni qo'li bilan imlay boshladi. Xizmatkor senga ruxsat deganday bosh irg'ab qo'ydi. Men ko'prikdan shipillab o'tdim. Shundayam ko'prik silkindi. Xuddiki, prujinasi bordek.

5

— Yur uyga, — dedi u qo'limni qo'yvormay.

— Yo'q, — dedim men. — Otang bilsa, yomon bo'ladi.

Nuqul yolg'iz yuraman, — dedim. Bir kuni meniyam do'l urib ketadi, — dedim.

— Zo'r ekansan-u?

— Onam mening yonimni oladi. Bu bola boyqush bo'lib o'sayapti, deydi.

— A-a, boyqush ham yolg'iz yashaydi. Bo'pti. Yur. Qafas qilishyapti balkonda... Ayvonda. — Keyin bilagimdan tortib: — Bo'zmerganga borganing uchun rahmat, do'stim, — dedi. — Oqshom uning o'zi uyga keldi. Burgutti ko'rib, "qarchig'aylar avlodidan", dedi. Unga faqat go'sht berish kerak ekan. Keyin tirik quyon, kalamush, kaptar...

Men uning gapiga qiziqib yo'lga tushgan edim. Shu o'rinda jindakkina manzara tasvirini qilmasam bo'lmaydi.

Soyning biz tarafida daraxt ko'p, bahaybat yong'oqlar ko'p, tok, do'lana... Bu tomonda mevali daraxt faqatgina kattakon chetan qo'ra ichida o'sgan, atroflar — yam-yashil o'tloq, qamishli joylar ham bor, bu yerga suv soyning bosh tomonidan qirni qiyalatib olib kelingan edi.

Bu tomonning har yoni ochiq, atrofdagi tog'lar baralla ko'rinar, bu yerning havosiyam boshqacha — toza, o'pka to'lib nafas olar edi. Keyin bu tomonda bo'sh yerlar, ya'ni bedazorlar mo'l, u yerlarda bemalol chopqillab o'ynash mumkin edi.

Sezyapsizmi, anavi qishlog'imiz ham o'shanda menga tor-biqiq ko'rinar edi.

Uylari ajabtovur edi: boloxonasining oldi ayvon. Lekin ayvonni pastdan bir necha oppoq ustunlar ko'tarib turar, ular orasida chipta kreslolar, chipta-to'garak stol, stollardan birida naq cho'qqilarda bitadigan yovvoyi gullar solingan malla sopol tuvak. Shiftda uch chiroqli tillarang qandil...

Ha, MTSda dvijok ishlar edi. Kechalari soat birgacha chiroq yonardi. Bularning uyida biron yig'in yo ziyofat bo'lsa, tonggacha o'chmas edi.

Men jiddiy aytayapman: Yo'ldoshboylarning uyi ham, yashash tarzlari ham anavu qishloq odamlarining hayotidan keskin farq qilar, bamisoli soyning ikki tomoni — ikki qutb ediki, endi o'ylasam, bu go'shada o'risning dvoryani, u tomonda krestyanlari yashayotgandek edi. Ishonavering, men bo'rttirayotganim yo'q. Buning ustiga, bu — o'zaro farqqa urg'u berishdan menga naf yo'q. Ya'ni, sizga aytmoqchi bo'lganim voqealarga anchayin daxli bor, xolos.

Uzun bu imoratning orqa tomoni oq devor bilan o'ralgan saroy edi: sigir, qo'y, pichan...

Qisqasi, takxona ayvonidan ko'tarilgan zinapoya bilan ikkinchi qavatga chiqdik. Bu tarafdayam, u tarafdayam — xonalar, oq-oq eshiklar. Oyog'imiz osti — taxta pol qilingan ediki, buni ham birinchi marta ko'rishim edi.

Biz kigizning ostidan solinadigan bo'yrani bilardik-da, birodar...

— Baqqa yur, — deb bir xonaga boshladi. Oshxona ekan: gaz plitani ham shunda ko'rdim. — Yur-yur.— Kichkina rais shu xonadan ochilgan eshikka boshladi.

Undan chiqdim-u, qarshimda — soyning u betida sochilib yotgan qishlog'imni ko'rdim.

Men sizga rais boboning uyi, ashqol-dashqoli haqida hayratimni bayon qilyapman, qadrdon. Bu hali— unga mehrim tushib qoldi deganim emas.

6

Ayvon-balkonga qadam bosib, qishlog'imdan keyin ko'rganim yog'och randalayotgan usta Shodmon-u burchakda xuddi malla mushuk kabi hurpayib turgan burgut bo'ldi.

Uning kechagi ho'l qanotlari, patlari qurigan, o'ziyam shishinib ketganday edi.

— Shunqor. Mening Shunqorim, — dedi Yo'ldosh qush oldida cho'nqayib o'tirib. — Ye, yegin. Nimaga yemaysan? Xafa bo'lma, o'rtoq bo'lib ketamiz.

U bitta cho'p olib, qushdan ancha narida yotgan xom go'sht bo'laklarini unga sura boshladi. Burgutcha battar hurpayib, ishoning-ishonmang, ayni mushukka o'xshash "fish-fish" etgan ovoz chiqardi. Tumshug'i unchalik uzunmas, ammo qaytiq, ko'zlari sarg'ish, oppoq panjalari taxminan uch yashar jujuqning barmoqlaridek kelar edi.

Men uni tomosha qilar ekanman, ko'zlariga tikilishni istamasdim. Nimagaki uning nigohida bizga nisbatanmi — bir yovuzlik, yotlik bor edi.

Men buning sababini tushunib tursam ham:

— Bizni yomon ko'ryapti-ya? — dedim.

— Bizni emas, — dedi Yo'ldosh. — Anavuni... Qara. Tur o'rningdan.

— Burgutti jo'jaligida olib boqsang, el bo'ladi,— dedi shunda ishi bilan band usta. — Qozoqlar itelgini shunda o'rgatishadi ovga, qo'lga...

— Buni o‘rgatib bo‘lmaydimi? — deb so‘radim.

— Yo‘q, bu kattarib qolgan, ulim. Bu erkinlikning havosini olgan. Bu bandilikda uzoq qololmaydi...

— Qoladi! — deb do‘q qildi Kichkina rais.

— Xo‘p-xo‘p. Iloyi, iloyi, — dedi usta.

— Bo‘zmergan aytdi. Haliyam o‘rgatsa bo‘ladi, dedi. Ovqat bermay-bermay — bersang, yeydi, dedi. Tirik quyon opkeladi. Otam bo‘g‘altirga tovuq jo‘jasidan opkeling, dedi... Yur, jo‘ra. Yur-yur. Bu — bizning zalimiz. Ya’ni, mehmonxona bu... Qara, yaxshi, a? Yaxshi. Endi ko‘zingni yum!

Mehmonxonada billur idishlar, anvoyi ichimliklar saqlanadigan bufet bo‘lishi, suyanchig‘i baland — taxtmonand kursilar-u uzun stol ham bo‘lishi, chetda yumshoq divan-u kreslolar turishi, devorlarda tabiat manzaralari tasvirlangan yirik-yirik romlarda rasmlar turishi mumkinligini ham, ont ichaman, shu yerda ko‘rdim. Rais bobo ko‘z yumishim kerakligini aytdi va men ko‘zlarimni chirt yumdim.

Bilasizmi, do‘stim, bunday dav-daska menga o‘xshagan o‘rtahol bir kimsaning bolasini mahv etib emas, ezib, qandaydir xijolatga solib qo‘yarkan: o‘zingni faqirliging, bu narsalardan bittasi ham xonadoningda yo‘qligidan uyala boshlar ekansan... G‘alati tuyg‘u, a?

— Ko‘zingni och, — dedi Yo‘ldoshboy.

Men ko‘zimni ochib, hech narsani ko‘rmadim. Uy egasi deraza pardalarini yopgach, shundoq ham qora mebellardan nimqorong‘i bo‘lib turgan mehmonxona endi tun qo‘yniga cho‘mgan-u, ortimizdagi oynaband eshikdan tushayotgan nur — baayni oyning shu’lasi ediki, buni ham g‘ira-shira his etardim.

— Ko‘ryapsanmi? — deb so‘radi sehrgar rais.

— Nimani?

— To‘rga qara.

Qaradim-u, ko‘zimning paxtasi chiqib ketay dedi. Anqayib qoldim. To‘rdagi televizor ustida bir necha marotaba qabristonda ko‘rganim oqish nur qandaydir qabarib-kattarib keta boshladi. Keyin u shaklga kirdi: qushga o‘xshay boshladi. Shunda qushning ko‘zlariga ko‘zlarim qadalib qoladi.

U ko‘zlar to‘q qizil bo‘lib, tobora alanga olayotganga o‘xshar, bunga sari bu afsonaviy parrandaning shakli-shamoyili aniq ko‘rinar edi.

7

— Burgut! — deb yubordim. — Topdimmi?

— Topding, — dedi u. — Kechayam aytuvdim-ku, bizdayam burgut bor, lekin haykali bor, deb edim.

— Ha-ya, shunday deganding.

— Qalay?

— Zo‘r.

— Nimaga yonib turipti u, bilasanmi?

— Shu, mozordagi...

— Buniyam topding. Buyam fosfor, — dedi Yo‘ldosh. — Fosfor burgut. Dadam Bolgariyadan opkelgan... Ha-ha! Uzoq yili kurortga borganlarida opkelganlar.

— He, uylaring ajoyibxona ekan.

— Anavi burgutning nimaga qarayotganini endi bildingmi?

— Tushunmadim?

— Anavu do‘l urgan burgutcha... Shu yoqdan ko‘z uzmaydi-ku? Ko‘rding-ku!

— Ha-ha.

— Mana shunga tikilgani tikilgan.

— Qiziq.

— Mana, hozir eshikni ochayin, ko‘rasan... Ana, ana, qaradi. Bizga emas. Dadam ham sendek o‘ylagandilar. Keyin kuzatib bildilar, mana shu jonsiz sherigiga qarab turgan ekan... Juda qiziq-a? U buning o‘lik ekanini bilarmikan?

— Qandayiga “o‘lik” bo‘larkan bu? Oldin tirik bo‘lgan bo‘lsa, unda...

— Kechirasan. Bu — shunchaki jonsiz haykal ekanini bilarmikan, o‘rtoq?

— Bilmadim.

— Eshik yopiq bo‘lsa, tinchib go‘sht-po‘sht yeydi. Eshik ochildimi, tikilib qoladi.

Shu-shu, men bularning uyiga keladigan bo‘pqoldim.

8

Suhbatlarimizdan birini Yo'ldoshning onasi eshitgan ekan, bizni yana-da yaqin bo'lishga rag'batlantiradigan so'zlar aytdi. Yo'ldoshning otasi — Katta rais bobo esa menda xunuk taassurot qoldirdiki, bu xotira hamon o'chgani yo'q.

Bir kuni tojik xizmatkor ushlagan baliqlarni ko'tarishib keldik. Yo'ldoshning onasi bizni iliq qarshi olib:

— Jarit qilib beraymi, uxa yeysizlarmi? — dedi.

— Uxa, — dedi Yo'ldosh. — Bu tog'liklar faqat qovurib yeyishni bilishadi.

Shu narsani qayd qilishim lozimki, endi bularning uylari joylashgan yerlar ham, imoratlarining antiqaligi ham, mehmonxona va boshqa xona jihozlari ham oldingidek ko'zlarimni qamashtirmas edi.

Aksincha: endi men o'zimizning anavi tomondagi dalashiyponimiz-u loysuvoq uylarimizni, gilam-kigiz, bo'yralarimiz-u po'stak va ko'rpachalarimizni yana-da ko'proq yaxshi ko'radigan bo'lib qolgan edim. Shunchalikki, bularning uyida ko'proq vaqt tutilib qolsam, siqilib ketar edim.

Ha, teng-to'shlarim-chi, qadrdon? Ularning ko'zi to'rt bo'lib shu tomonga tikilishar, To'raqul nimjon bo'lsa, har ko'rganida, burgutning ahvolini so'rar edi.

Darvoqe, o'tgan bir-ikki oy mobaynida burgutcha ancha yetilib, bo'yin-u qanotlari cho'zilib qolgan, qandaydir oriqlagandek ko'rinar, ammo yetilayotgan yirtqich qushligi yaqqol bilinib turardi. Tag'in shunisi zavqli ediki, u (hamon oyog'idan bog'langan) katta qafas ichida qanotlarini halpillatib urib, burchakka suyab qo'yilgan quruq o'rik shoxiga uchib chiqar, o'sha yerda mag'rur o'tirib, patlarini cho'qir, sarg'ish, gajak tumshug'ini butoqqa rosa surkab artar edi. Umuman, bu— o'limtikxo'r yirtqich qushlar turkumidan bo'lsa ham, juda ozoda edi: tumshug'ini deng, butoqning goh bu, goh u tomoniga rosa suykab artar, gohida shox ostidagi katta tog'oraga solib qo'yilgan suvga tushib olib, qanotlarini pat-patlatib urib cho'milar, so'ngra shumshukkina bo'lib

chetga chiqar va soyni kechib o'tgan moldek silkinib, patlarini qurita boshlar edi.

Uni bu mashg'ulotlardan faqat bir narsa chalg'ita olar edi: mehmonxona eshigining ochilishi-yu jonsiz burgutning ko'zga tashlanishi edi. Shunda u yana xo'mrayib, sezilarli hurpayib olar, ko'zlarida yovuzona bir yovqurlik chaqnar edi.

Tag'in bir gap: Yo'ldoshning aytishicha, osmondan o'zga burgutlarning titroqli chinqirig'i eshitilgan chog'larda juda bezovta bo'larkan. Bir-ikki marta qafasni aylanib uchipti ham. Lekin ikki gal ham panjaraga urilib yiqilibdi.

9

Endi Rais boboning men bilan o'g'lining yaqinligiga hamda burgutga bo'lgan munosabati haqida.

Yoz boshlanib ketgan, kunduz kunlari qanchalik issiq bo'lsa (tog'ning toshlari darrov qiziydi-da), kechalari shunchalik salqin, hatto sovuq bo'ladigan kunlardan biri edi.

Cho'milishni sog'ingan ekanmiz, soyning yo'lini tosh-chim bilan to'sib, ko'l, ya'ni "gum" qilayotgan paytimizda Kichkina rais bobo kelib qoldi.

— Ana, Rayis jo'rang, ana burgutchi! — deb hasad-u havas bilan chug'urlashdi tengdoshlar.

Albatta, men Yo'ldoshboyni oramizdagi eng faqir To'raqul-chadan ham baland ko'rmasdim-u, qo'lidagi burgut, uning antiqa savodxonligi, to'g'rirog'i, "bilag'on"ligi, boringki, uning "madaniyati" meni juda qiziqtirar, qolaversa, ojiz bandamiz-da: kimsan — Rais boboning arzandasi bilan "do'stligim"dan hamda buni birovlar ko'rib turganidan g'ururlanar ham edim.

— A-aa, Yo'ldosh, ke! — dedim xizmatkorga taqlid qilib. U ham kulumsirab:

— Mirzajon, salom! — dedi. — Sizni Rayis bobo chaqiropti!

— Qaysi Rais? — dedim atay. Bilaman, o'zining yoniga chaqiryapti.

— Kichkina rais, — dedi u.

Men ko'ylakni kiyib, himarilgan ishton pochasini tushirib, uning yoniga chiqib bordim.

— Burgut go'sht yemayapti, — deb shivirladi u. O'zi oq-sariqdan kelgan bolaydi, rangi, umuman, oqarib ketgan edi. — Munaqada o'lib qoladi, a?

— O'ladi. Ovqat yemasa, odam ham o'ladi, — deb javob berdim.

— Yur, ichim achib ketyapti.

Men ham unga, ya'ni, burgutga ichim achishini aytdim-da, keyin qaysi go'rdan ham og'zimga kelgan gapni qaytarmadim:

— Ey, o'shani qo'yib yuborsang-chi, Yo'ldosh... A? Uniyam sen bilan menga o'xshagan ota-onasi bordir. Bor, axir! Ota-onasiz bola tug'iladimi? Ular bolalarini yo'qotib, xapa bo'lib yurishgandir... — Yana avj qildim: — Balkim uylaring tepasida aylanadigan burgutlar — o'shaning ota-onasi yoki aka-ukasidir?

Yo'ldosh menga yovqarash qildi-da:

— Gaping-ku to'g'ri, — dedi. — Lekin men uni yaxshi ko'raman... Yo'q, uni qo'yvormayman, o'rtoq! Sen bilmaysan, kechalari uyg'onib ketib, undan xabar olaman...

— Zaldi eshigini ochib qo'yasanmi?

— Ha, bezovta bo'layotgan bo'lsa, birdan tinchib qoladi... U ba'zi kechalari o'zini har tomonga uradi, jo'ra. Ayniqsa, tong otayotganda...

— Bechora.

10

Xullas, oldinma-ketin boloxona ayvoniga chiqib borsak, Yo'ldoshning otasi zalga kiraverishda kursi qo'yib o'tiribdi. Somon shlapasi bilan yelpinayotgan ekan.

— Dada, keldingizmi? — dedi Yo'ldosh.

Dadasi savolga javob berishni lozim topmadi-da (bir hisobda u kishining kelgani aniq edi-da!) daf'atan menga boshdan oyoq qandaydir horg'in nazar bilan tikilib:

— Him, oyoqqa bir narsa kiyib yurish kerak, — dedi.

— Bor edi, qoldi, — dedim. Bu kishining ana shu zerikarli nigohi menga yoqmas, aytish mumkinki, bu shaxsan mendan bosh-

qalarga, kolxozchilarga ham shunday nigoh bilan qarar, tabiiyki, ularni o'zidan yuz chandon past ko'rardi.

— Kiyib yur, — deb takrorladi u kishi. Keyin shlapani chap qo'liga olib, o'ng qo'lini burchakda tumshayib turgan burgutga cho'zdi. — Shuning fe'li yomon,— dedi. — Bu el bo'lmaydi, o'g'lim... Lekin chiroyli, mag'rur qush.

— Ha, chiroyli. Yaxshi ko'raman, — dedi Yo'ldosh shoshilib. Sezdimki, bu borada otasi bilan o'zining orasida qandaydir gaplar kechgan bo'lishi kerak.

Darvoqe, bir muhim narsa yodimdan ko'tarilibdi.

Yo'ldoshboy bilan do'stligimiz boshlangan kunlar edi. U meni saroylariga ergashtirib borib, bir echkini ko'rsatdi. Qip-qizil. "Kiyikdan tarqagan!" dedi. Bu gap to'g'rimi, noto'g'rimi — hamon bilmayman, ammo yovvoyi takadan qochgan jaydari echkilarning tug'ganini eshitganman.

Qolaversa, bu usulda molning zotini yaxshilash, issiq-sovuqqa, yemish tanlamaslikka o'rgatish bobida olimlar ish olib borishayotganini maktabda eshitgandim. Gapning qisqasi, qizil echkining burama shoxiga qiziqib qoldim-u, Bulg'oriyaday joydan fosfor burgut ko'tarib kelgan Rais boboning g'alati fe'llari borligi, ya'ni, bor ekanidan gap ochdim. Axir, Rais bobo — "xalqning otasi" hisoblansalar ham, xalqqa qandaydir begona edilar-da, do'stim...

Uzr, takrorlagan bo'lsam.

Yo'ldosh mening mulohazamdan zavqlanib ketib, bilagimdan tutdi. Bedaxonaga olib kirib, undan yana bir xonaning eshigini ochdi. Keyin eshikni "yopma" deb, chetlandi-da, qo'lini cho'zib, devorlarni ko'rsatdi.

Yopiray, devorlarda tulkining ham, bo'rining ham, qoplonning ham terisi ilingan, bir nechta burama, changarakshox kiyik hamda yovvoyi qo'yning shoxlari-da bor edi.

Xonani naftalin hidi tutib ketgan bo'lsayam, bu yerdan chiqqim kelmay qoldi! Bu makonda vaqtidami, bevaqtmi halok bo'lgan jonzotlardan qolgan nishonalar — ularning arvohidek tuyuldi menga!

Ha-ha, Rais bobo bularni ko'chadan terib kelgani yo'q. Birlari o'ldirilgan, birlari qopqonga tushirib nobud qilingan, xullas, Rais boboning yaqin kishilarining ishi bu: tabiiyki, unga xushomaddan shu ishni qilishgan.

He, birodari aziz, buyam holva ekan.

— Endi bu yoqqa qara, — dedi Yo'ldosh.

Burilib, ortimdagi devorga qarasam, o'nlab qushlarning — kaklik deysizmi, chil, hakka, qumri, hatto jannat chivinxo'ri degan dumi uzun qizg'ish qushning ham ichiga bir nima tiqilgan mo'lasi saf tortib turibdi.

Xuddi tirikday!

Ko'zlari...

11

Endi Rais bobo bilan "suhbat"ga qaytaman. Kichkina rais burgutni yaxshi ko'rishi, uning chiroyli ekani haqida shoshilib aytdi.

— Baribir bu o'ladi, o'g'lim, — dedi Rais bobo.

— O'lmaydi! — dedi Yo'ldosh yig'lamsirab. — Shunchaki erkinlikni, uchishni sog'ingan.

— Yo'g'asam, qo'yvor.

— Qiziqmisiz?

— Shu-da. Men ham istamayman... Lekin bundan yaxshi chuchela chiqadi, o'g'lim, — dedi Rais bobo. O'shanda men "chuchela" so'zining ma'nosini bilmasdim. Ammo o'lgan buzoqning terisiga somon tiqib, onasini iydirish mumkinligini ham bilardim. Rais bobo so'zida davom etdi: — Bo'zmerganning ham fikri shu.

"Bo'zmerganning?" Yuragim shuv etib ketdi. Saroydagi xilvat xona va undagi yovvoyi hayvonlardan shilib olingan terilar-u arralab, qoqib olingan shoxlar ko'z oldimga keldi: demak, bu ishlarning boshida o'sha odam tursa kerak.

— Kerakmas o'sha Bo'zmerganingiz, — deb, endi barala yig'lab yubordi Yo'ldosh.

Unga qo'shilib mening ham yig'lagim kelib turgan bir paytda, Xudo shohid, kallamga yana bir fikr keldiki, uning amalga oshganini ko'rib, boshim osmonlarga yetdi.

— Rais bobo, — dedim qunishibgina. — Yo'ldoshboyning burguti qafasda turgan bo'lsayam oyog'i bog'liq. Shu, qafasning anavi tomoni ochib qo'yilsa-chi? Burgut havoga uchardi. Tag'in qaytib keladi. Agar ipi uzunroq qilinsa...

— Ana, ana! — deb mening kiftimdan quchib oldi Yo'ldosh. — Shunday qilamiz!

Rais bobo xo'rsinib, o'rnidan turdi.

— Mayli. — Keyin ijirg'anib, ayvon to'sig'iga bordi. — Gulnazar! — deb chaqirdi. Javob qaytmagach, oshxonaga yo'naldi. — Sasib ketipti hamma yoq. Go'sht, go'sht sasipti. Dimog'ing bitganmi... Vabshe, sassiq narsa bo'lar ekan bu. Tog'niyam olisdan tomosha qil, deganlariday.

U kishi vaysanib, oshxonadan ham chiqqach, ittifoqo qo'lansa et hidi mening ham dimog'imga urildi. Yo'ldosh esa burnini kafti bilan to'sib kuldi.

— Men sezmappan.

— Men ham, — dedim.

— Lekin dadamni onam: "Siz — sabachiy nyux" deydilar... Tarjimasi — "iskovich it"ga to'g'ri keladi. Dadam asmatik-da... Nafasi qisib turadi. Damqisar ham. — Keyin zalning eshigini baralla ochib yubordi. Lekin fikridan chalg'imas edi: — Dadam ilgari Qishloq Xo'jalik ministrligida ishlar edi. Shaharning havosi to'g'ri kelmay qoldi... O'rtoqlari shu tomonlarga ketishni maslahat berishdi. Dadam ham shu tog' havosini istar edi. Ho', men chaqaloq ekanimda ularning dachasi shu yerda qurilgan...

— Mana shu uyni aytyapsanmi?

— O'shanda bunaqa bo'lmagan... Dadamga achinaman. Lekin shu yerda yashashga majbur. Menga bo'lsa juda-a yoqib qoldi... Ey, o'rtoq, yaqinda tug'ilgan kunim bo'ladi.

— Tug'ilgan kuning bo'lsa... — Kulmang, qadrdon, hozir yoli oqarib, baloga aqli yetadigan bo'lib qolgan bu do'stingiz o'sha vaqtlarda "tug'ilgan kunni nishonlash" degan gapning ham ma'nosini tushunmasdi.

— Imenina-da! — dedi u. — To'planamiz. Ana, zalda o'tiramiz! Onam chabureki pishirib beradi... — Yo'ldoshboy shu tariqa

har bir so'zi izohga muhtojligini sezmay so'zlar ekan, men yana burgutga tikilib qolgan edim.

U esa birdaniga o'qrayib qoldi. Bu ham yetmaganday, qanotlarini yoniga sal kerib, xuddi: "Urushasanmi? Bir kuch sinashaylik!" deganday panjaraga yetib, birdan tortilib ketdi. So'ngra bir oyog'i dumi tomonda qolganicha to'xtab, bag'rini yerga berib yotdi. Shu yotishida o'ljasini poylayotgan och bir maxluqqa o'xshardi.

12

Hamon hayron, hayronlar bo'laman, qadrdon. Bu bandi qush anavu jonsiz haykalga nechuk buncha qiziqib qolgan ekan? Uni o'z qavmidan ekanini bilgani uchunmi?

Balki, balki uning uy to'rida erkin turganiga g'ashlik, ozodlikka intilmayotganidan hayratda, balki g'azabi ham shundan edi.

Kulmang, azizim. Biz hali parrandalarning tilini bilmaymiz-u, tuyg'ularini qayoqdan his qilamiz?

Ertasi tomosha boshlandi. Qishloq bo'yicha tom boshiga chiqib olib, Rais boboning qasri tomonga qaramagani yo'q edi desam, bo'ladi.

O'zingiz o'ylab ko'ring: yam-yashil qir ostidagi zumraddek o'tloq o'rtasida qad ko'targan oppoq imorat ustida — tepasida bir bahaybat qush aylanayotir. Shunday tez aylanardiki, boshi aylanib yiqilib tushmaganiga hayron qolasan!

Tag'in: bir xil balandlikda, taxminan bir arqon bo'yi tepada charx urmoqda yovvoyi — yirtqich qush! O, ana qarang endi! Tog'ning bag'irlaridan pistirma ichida yotgan "mig" samolyotlari kabi sonsiz burgutlar uchib kela boshladi. Ular Rais boboning uyi tepasiga yetgach, sekinlab aylanishga tushdilar. Ular balandda. Tutqin— oyog'ida kapron zanjiri bor burgut esa pastda... U titrab, chinqiroq ovoz chiqaradi. Tepadagilar unga jo'r bo'lishib, ayrimlari bandining yonidan uchib o'tishadi. Uchib o'tishadi-yu bu "yigitcha"ning ne ko'yga tushganiga aqllari yetmaganday yana balandlab ketishadi va zorlanib ovoz chiqarishadi.

Men sizga o'sha manzara-yu holatni qanday yetkazyapman, bilmayman, ammo o'shanda ko'zlarim g'ilq yoshga to'lgan, biroq

lablarim kular edi: mening "ixtirom" ro'yobga chiqib, shu tufayli burgutcha erkinroq parvoz etayotganidan bir qanoatim ham bor edi, biroq... buncha sheriklarining yopirilib kelishidan, inson degan maxluqning bir hiylasi tufayli mag'rur inilari ko'klay olmayotganidan hayron bo'layotganlari ham meni mahv etar edi.

O, inson, boshing omon bo'lsin-u, naqadar makkorsan!

Do'stim, men hozir ham to'liqib ketayotibman: u — ajoyib va fojiaviy bir manzara edi.

Tasavvur etingki, uni tomosha qilayotganlardan ko'plarining yuzlarida kulgu bor, Rais boboning o'g'li qilgan ishdan faxrlanish, unga tan berish bor, tag'in: teatr, televizor degan narsalardan bexabar gumrohlarning laqmalarcha anqayishi bor... o'y, mulohaza — yo'q edi, desam bo'ladi.

Bir mahal burgut shunday aylanishga berilib ketdiki, tuyqus qafasga urildimi yoki xizmatkor ipdan qattiq tortdimi — xuddi o'q tekkandek bir ag'darilib pastlay boshladi. Keyin uy atrofida xuddi ipga bog'langan ajabtovur varrak kabi aylana-aylana ayvonga tortildi.

Men tasavvur etdim: burgut o'z qafasida hansirab yotibdi shu tobda. Illo, ko'pdan beri bunday parvoz qilmagan! Shubha yo'qki, shu tobda mehmonxona eshigi ochiq, u yerda Rais bobogina emas, u kishining xotini va o'g'li ham bor.

Shubham yo'qki, toliqqan, ip tortilganda biron yeri balki shikastlangan burgut yana zal to'riga ko'z tikib qolgan. Balki endi qushning vajohati, burungidan ham battardir: axir, o'z makonida parvoz etib keldi.

Anavi notavon esa, hamon uyning to'rida qotib, ko'zlari lovullab turibdi.

13

Xuddi shunday bo'lgan ekan, qadrdon.

Yo'ldoshboyning tug'ilgan kuni munosabati bilan chorlangan mehmonlar, ya'ni, "aybdor"ning padari buzrukvori-yu volidayi muhtaramasi, tag'in ikkita feldsher bilan Yo'ldosh o'qiydigan sinf rahbari va biz jujuqlar — he, stulda to'g'ri o'tirishni bilmaydigan, ayrimining oyog'i yerga tegmay tagiga qatlab olgan qishloq shum-

takalari davrasida burgutning ilk bor uzun ipda uchirilgani hikoya qilinar edi.

— Menimcha, shu haykalni yomon ko'rib qolgan, — dedi Rais bobo injiqlanib. U kishi davradan turib ketishni istar, ayoli qo'ymas, aftidan, yana uch-to'rt daqiqa o'tirishga undar edi. — Buyam odamzodga o'xshaydi-da, — deb davom etdi u kishi. — Chiroyli bir go'shada yashayotgan kishiga boshqalarning rashki keladi.

— Shunday-shunday, — deb tasdiqlashdi do'xtirlar. O'qituvchi esa irimiga yarasha:

— Shunday qilmanglar, bolalar, — dedi bizga. — Rashk yaxshi fazilat emas...

Chog'imda, Yo'ldosh ham ularning so'zidan o'ziga tegishli ma'noni chiqarib ololmayotgan ekanmi, gapni bo'lib:

— Vey, o'sha kuni yovvoyi burgutlar biram qochib qolishdi! — deb kuldi. — Keyin o-osmonga chiqib ketishdi. Keyin sekin-sekin tovush chiqarishdi. Keyin buyam sekin-sekin ingradi.

Yopiray, uniyam ko'zi yoshga to'lib ketdi. Hammamiz bir soniya tinch qoldik. Shunda Yo'ldosh ulug' bir xulosani aytdi:

— Dada, onajon, bugungi kun meniki, mening gapimni qilasiz, to'g'rimi? — Mehmonlar ham "to'g'ri" deb tasdiqlashdi. Men uning chehrasidagi nurli bir iztirobni ko'rib hayratga tushdim. Gapni ham juda keksa odam qazo qilganida so'zlayotgan imomdek tantanali va fojiaviy tarzda boshlagandi-da. — Shu burgutni, shu qushni, — deya titrab o'rnidan turdi. — Hozir qo'yvoraylik... A, jo'ralar, to'g'rimi gapim? Biz uni, yo'q, sizlar uni tutib oldinglar. Men... biz uni tuzatdik...

Bizga birdan jon kirdi-ku!

— Qo'yvorish kerak! — dedim.

Boshqa bolalar ham o'z mulohazalariga ko'ra bu fikrni, ya'ni Yo'ldoshning iltimosini ma'qullab, Rais boboga qarashdi. "Ziyofat aybdori"ning onasi ham bu fikrga hayron ekanini yashirmaydigan bir nazar ila eriga boqardi.

Rais bobo miyig'ida kulimsirar ekan, peshonasi tirishdi. Kasalvand qiyofasi tag'in miskin bir tus oldi.

— Rahmdillik — yaxshi narsa, — dedi. — Sizlarning yoshlaringda bo'lganimda, men ham shu fikrni aytgan bo'lardim ehti-

mol... Biroq, yigitchalar, bilib qo'yinglarki, bizning falsafamiz — hamma narsa Inson uchun, deyiladi. Tabiat ham, gullar ham, mana shu burgut kabi qushlar ham... Ulardan zavqlanishimiz lozim. Ana shuning uchun ham bizda zooparklar bor, qo'riqxonalar bor. Biz noyob parrandalar va kamyob hayvonlarni asraymiz. To'g'ri, ularning o'rgatilgan bo'lishlari shart emas...

— Albatta, albatta, — dedi o'qituvchi. — Sirkning yo'rig'i boshqa.

— Balli, — deb davom etdi uy egasi. — Lekin biz bu shunqor qushni xonadonimizga o'rgatmoqchiydik. Bir hisobda shuning uchun ham uning bu yerda turishiga ruxsat etuvdim...

— Lekin o'rganmadi. O'rganmas ekan, — dedi Yo'ldosh otasining nima demoqchi ekanini anglagandek. — Bo'zmergan ham aytdilar...

— Ana bu boshqa gap, — deb yana tabassum qildi otasi. — Demak, buning joyi — bu yer emas.

— Demak, buning joyi — osmon! — deb yubordi Yo'ldosh va men yengil tortib ketdim.

— E, yo'-o'q, — deb bosh chayqadi otasi va... Yo'ldoshboy yig'lab yubordi.

— Buning joyi, buning joyi... saroy-da, a? Ayting, to'g'risini, dada! Ayting... Yo'q, aytmaysiz hozir. Ammo men bilaman: siz buning terisini shilib, Bo'zmerganga berasiz. U ustasiga oborib, chuchela qildirib keladi. — Rais bobo otashin bo'lib, g'uldirab o'rnidan turdi. Onasi Yo'ldoshning bilagidan ushlab bir nimalar deb yolvordi. Endi Yo'ldosh o'zini to'xtatolmas edi: — Chunki bu — noyob qush, a, dada? Shunqorlar avlodidan! Yoki qarchig'aylar oilasidanmi? Dada, deyapman! Ana ko'rasiz, qo'yvoraman shuni...

Eshik og'ziga yetgan Rais bobo o'g'liga ilkis qaradi.

— O'zingni bosib ol. Mehmonlar bor... Jo'ralaringniyam birinchi marta kelishi. Kansert ko'rsatma, o'g'lim. Ha, bir gap bo'lar. Undan ko'ra, taomga qaranglar, de. Yeb-ichib o'tiringlar. Keyin, ana, burgutingni uchir. Onang bir tasmaga: "O'g'lim, tug'ilgan kuning muborak!" deb yozib qo'yipti. Gulnazarni chaqir, tasmani burgutning oyog'iga bog'lasin. Keyin uchiringlar.

Rais bobo chiqib ketdi. Saldan keyin uy bekasining imosi bilan mehmonlar ham turishdi, ya'ni, kattalar qo'zg'alishib, boshqa xonaga o'tadigan bo'lishdi.

Biz bolalar ham beixtiyor o'rnimizdan turgan edik: o'zimiz qo'lga tushirgan qarchig'ayni, yo'q — shunqorni, bas, burgutni o'z qo'limiz bilan havoga uchirib tomosha qilishni istardik.

Albatta, uni butkul ozod qilish — faqat Rais boboning irodasiga bog'liq edi.

14

Xullasi kalom, burgutni uchirdik. Vay-vay, bunday go'zal manzarani ko'rish kishiga kamdan kam nasib etadi: burgut parvoz qilib aylanayotir, bir oyog'iga bog'langan oq tasma hilpirab ergashgan, undagi qizil yozuvlar ko'rinib-ko'rinib qoladi.

Vey, bunday manzarani ko'rganmisiz? Buni to'qib chiqarib ham bo'lmaydi, do'stim!

Ammo o'zi jo'ngina munosabatlardan kelib chiqdi... Ha, hamma buyuk narsalarning otasi — soddalik.

Biroq, jindak xayolga tolsangiz, shu manzara ham foje manzara ekanini uqasiz: ha, do'stimizni ko'kdan turib tabriklayapmiz! Yaxshi. Ko'pga kirsin Yo'ldoshboy.

Ammo bandi-zanjirband burgutdan foydalanyapmiz-ku? U qushning bag'ri qon-ku?

Bizga — pastda qiyqirib chapak chalayotganlarga qarab u, agar aqli bo'lsa, nimani o'ylayotgan ekan?

Shubhasiz, bizdan jirkanar, nafratlanar edi bu— gladiator burgut...

Lekin sal vaqt o'tmasdan tomoshaning pachavasi chiqdi: yirtqich qush ortidan ilon kabi ergashgan narsani payqab qolib qo'rqib ketdi, shekilli, shunday uchishga— aylanishga tushdiki, motori buzilgan "mig"dan farqi qolmadi. Yoki shamol oqimiga tushib qolgandek harakat qila boshladi: dam pastlab ketadi, dam yuqorilab va birdan to'xtab teskari tomonga uchadi.

Xullas, sho'rlik burgut dumiga paqir bog'langan qandaydir maxluq holiga tushdi.

Natija shu bo'ldiki, toliqdimi, boshqa bir narsa ta'sir etdimi, sekinlab-sekinlab, ayvondan pastga shunday osildi-qoldi. Boshi pastda, qanotlari qayrilib tumshug'iga tushgan.

Tomda turib chelakda loy tortgan suvoqchidek uni tezda tortib ayvonga chiqardik.

U qanotlarini yozib yotib oldi.

Voy, naqadar g'amgin ko'rindi u menga!

U kasal emas edi, yo'q — bandi edi: biz uning bandiligidan...

15

Biz bolalar zaldagi deraza pardalarini tushirib, nimqorong'ilikda fosfor burgutni tomosha qilib, xayolimizda u tufayli qo'zg'algan har xil afsonalarni — toshqasrlar-u jodugarning bir "sufi" bilan tosh qotgan odamlarni eslab, ayni chog'da haykalning qizil ko'zlaridan hayiqib, shu boisdanmi, past ovozda gaplashib o'tirardik.

Boya burgutni o'z holida qoldirib, katak eshigini atay yopmasdan kirgan: bir payt patir-putir qilib o'zini nari-beriga ura boshladi-yu, biz tashqariga chiqquncha u havoga parvoz qildi.

U endi ohista uchar edi. Taajjub: boyagi charchog'idan asar ham yo'q edi. Ko'kda biroz to'xtagan bo'lib, titroqli ovoz ham chiqardi. Boyagi burgutlar (boya tasma bilan uchirganimizda ham bir necha sherigi ko'kda paydo bo'lgan edi) yana allaqayoqlardan yetib kelib, tag'in balandda aylana boshlashdi. Biz ixtiyorsiz bir tarzda uning osmonga intilishini kutardik. Lekin u intilmas, shu balandlikda uchishga ham rozi bo'lgan kabi edi.

Keyin, tepani qo'yib, tobora ayvon qarshisida aylana boshladi. Nihoyat, ayvonga kirib ham o'tdi.

Biz bundan quvonib ham ketdik: nazarimda, burgut "o'z qafasi"ga o'rganayotganga o'xshardi.

Bir mahal qarasam, yoshi ulug' mehmonlar ham oshxona derazasidan qarab tomosha qilishyapti.

Kapron chilvirning uchi Yo'ldoshboyning qo'lida edi. U damodam: "Uch! Osmonga chiq!" deb go'yo dalda berar, biz ham uning so'zini takrorlar edik.

Ana shunday anqayib-angrayib, quvonib-suyunib turgan cho-g'imizda shunqor, yo'q — qarchig'ay, unday emas— burgut yana ayvon ichini razvedka qilganday uchib o'tdi-yu, birdan shitob bi-lan aylana ketdi. U aylanayapti, bizning ham boshimiz aylanadi. Xudo ursin, ko'zim tiniy deganda, uni yana, ha, demak, oxirgi marta tepamda ko'rdim, xolos.

Keyin, mehmonxonaga o'zini urdi va ichkarida taqir-tuqir bo'lib ketdi. Ichkariga kirsak, fosfor burgut chil-chil sinib ketgan, bizning burgut esa televizorning oyog'i ostida qanotlarini yozib jonsiz yotibdi. Mehmonlar ham orqamizdan chopib kirishgan edi. Uning tepasiga kelishdi.

Yo'ldosh qushga egilgancha qo'lini tegizishni ham, tegizmas-likni ham bilmay hiqillab turarkan, Rais bobo kelib tizzalariga kaf-tini tiragan ko'yi qushga bir muddat tikildi-da, xo'rsinib qomatini ko'tardi.

— Tamom bo'pti, — dedi. — Saroyga oborib tashlash ke-rak... — Nihoyat, televizor ustiga, keyin atrofda sochilib yotgan haykal siniqlariga boqib, achinish bilan bosh qimirlatdi. — Esiz haykal.

Keyingi kuni tong payti edi, uyimizning devorini birov dukil-latib urdi. Men sigirimizni podaga qo'shish uchun uydan chiqa-yotgan edim. Ayvon chetiga borib, uy ortiga qarasam, Yo'ldoshboy bo'z otida turibdi. Oldiga paxmoq adyolga o'ralgan bir narsani o'ngarib olgan. Kam uxlagandek qovoqlari shishib ketgan.

— Muni, muni nima qilamiz? — dedi. — Otam chuchela qildiradi baribir...

— Him, eslatib turadi. Yomonmi? — dedim.

— Yo'q, eslatmasin o'zini... Baribir yodimda qoldi endi. Buni yana ermak qilishmasin.

Ko'zim charaqlab ochilgandek bo'ldi: darhaqiqat, to'g'ri ay-tayapti bu!

Kallamga kelgan ilk fikrni aytdim:

— Ko'mamiz.

— Ha, — dedi u.

— Sen shiyponga boraver bo'lmasa. Men bu yoqdan sigirdi haydab chiqaman.

— Mayli. Huv, o'sha kulba-ya?

— O'sha.

... Atrofini simto'r bilan o'rash ham odamlarning xayoliga kelmaydigan, to'g'rirog'i, bu holni xayollaridan chiqarishgan, yana-da to'g'risi, bunga ruxsat etishmaydigan, bundan ham to'g'risi — obod qilishni o'ylagan odamni qishloqdan badarg'a etilishiga sabab bo'ladigan qabristonga yetib borganimda, Yo'ldoshboyning yonida To'raqul, yana bir-ikki bola bor edi.

Biz xas-xashaklarni yeb yurgan eshaklarni haydab yuborib, qabristonning tog' tomoniga o'tib, cho'kkan bir go'rni ko'rdik. Unda odam suyaklari bo'lsa kerak, deb o'zimiz go'r qazishga kirishdik. Birimiz cho'p bilan, birimiz plugning zanglagan tishi bilan xo'p unnab chuqurgina lahim qazdik.

Keyin sor burgutni adyolga yaxshilab o'rab lahimga qo'ydikda, ko'mdik.

Qabristonda shahid o'lganlarning, ya'ni, huv grajdanlar urushi davrida Ozodlik, Mustaqillik yo'lida kurashib halok bo'lgan "bosmachi"lardan ham bir nechasining qabri bor, xalq uni pinhon tutar, biz jujuqlar ham birovga og'zimizdan chiqarmas edik: ularning belgisi — bir quloch cho'p-u yarim gaz churuk bo'z edi.

Bu fikr mendan chiqdi desam — xato bo'lar, ishqilib, qaysimizdandir chiqdi:

— Tug' qadab qo'yaylik, a?

Biz o'zimiz anglamagan holda ozodlik yo'lida ko'p intilib, bag'ri qon bo'lib, halokatdan o'zga chora topolmagan, shu ishni ham o'ziga xos bir tarzda ado etgan sor burgutni baayni "shahid" deb dafn etdik.

1996

TO‘P O‘YIN

Suyukli nevaralarim Qahramonjon va Javlonbekka bag‘ishlayman

1

To‘p o‘yin...

Bizning bolalikda, to‘p deganining o‘zi — dalada o‘tlab yurgan sigir bormi, qo‘y-echki bormi, boringki, oddiy po‘stakdan ham yulib-yulib olib, kaftda iylab-o‘qalab — bamisoli “qayla” qilib, keyin o‘rtacha musht kattaligiga keltirilgan silliq, yengil va tez uchadigan dumaloqni tushunar edik.

O‘-o‘, uni yasashning o‘zi bir olam zavq berardi. Bechora hayvonlarni titratib-titratib, ba’zisini qochishga majbur qilib, terisidan olingan yungni ariq bo‘yiga keltirib, chordana qurib o‘tirvolardikda, dastlab bir chanoq paxtadek bo‘lagini olib, suvga botirardik. U suvni shimib olgach, kaftda aylantira boshlardik. Tez-tez. Bir-birimizga qarab-qarab...

To‘pning yumshoq yo qattiq chiqish uni boshdayoq kaftlar orasida qattiq qisgan holda, namini qochirmasdan iylashga bog‘liq bo‘lardi: shoshilsang, kafting og‘risa, ayasang — to‘ping yumshoq chiqardiki, bora-bora o‘z-o‘zidan so‘kilib-titilib ketardi. Qattig‘i esa toshdek bo‘lib, havoga otsang — ko‘rinmay ketar, yerga tushganda — odam bo‘yi sapchir, bironta raqibingning badaniga tegsa, izini qoldirardi, albatta...

Sirasini aytganda, to‘pni yasashdan murod ham shu edi: raqiblarning bir-biriga...

Keling, “To‘p o‘yin” qoida-qonuni haqida biroz so‘zlab beray: axir, sizlar (hozirgi yoshlar) uni bilmaysizlar deyarli. Chunki u o‘yin o‘ynalmaydi hisob...

2

Tasavvur etingki, ko‘m-ko‘k o‘tloqdasiz, o‘rtoqlaringiz bilan. Har biringizning qo‘lingizda bittadan to‘p. To‘plarni salmoqlab, yerga urib, osmonga otib sinayapsizlar. Nihoyat, bitta to‘p ma’qul topiladi. Va hakam-jo‘raboshi e’lon qiladi:

— O'ynaymiz! Qani, turklar — bu yoqqa, inglizlar u yoqqa o'tinglar! — Qo'li bilan ko'rsatib, bolalarni ikki guruhga ajratadi, to'g'rirog'i, ularning o'zlari ajralishadi; nimagaki, o'tgan gal "turk" bo'lganlar bu gal "ingliz" bo'lishlari va "ingliz"lar "turk"ka aylanishlari kerak.

Darvoqe, bu gaplardan, ya'ni "ingliz-turk" degan atamalardan hayron qoldingiz chamasi?

Ha-ha, o'sha vaqtlarda bu atamalar amalda edi va yuz foiz inoning, bu atamalar-u o'yin ishtirokchilarini shunday nomlarda ajratish bizga ota-bobolarimizdan qolgan edi.

Xo'p, ular muomalasiga qayerdan kirib kelgan bu nomlar? Buning tarixiga siz ham qiziqsangiz kerak... Zero, yaqin yillarda ham "turk" so'zi qatag'on qilingan kabi tilga olinmas, qandaydir yozilmagan qonunlar asosida "turk, Turkiya, Turkiston" so'zlarini tilga olish ham man etilgan edi.

3

Endi sizdan andak sabr-toqat tilab, ushbu atamalarning paydo bo'lishi va tilimizdan badarg'a etilishi tarixidan jindak so'zlab bersam.

1917-yilda O'rusiyada O'ktyabr to'ntarilishi bo'lib, ya'ni, chor hukumati yiqitilib, davlatni Sho'rolar (kommunist-bolsheviklar) qo'llariga olganlaridan so'ng ularning dohiylari Lenin bilan Stalin "Sharq musulmonlariga (yoxud Sharq xalqlariga) murojaat" degan bir manifest e'lon qiladi.

Undagi eng muhim gap — "Chor hukmronligi davrida mustamlaka bo'lib kelgan o'lkalarning o'zlaricha mustaqil bo'lishlari mumkin!" degan quvonchli xabar edi.

Buni o'qigan ota-bobolarimiz boshlari osmonga yetib, Vatanni "Mustaqil!" deb e'lon etish harakatiga tushadilar va ular orasidan chiqqan ziyoli, fidoyi hamda Istanbul-u Peterburg dorilfununlarida o'qigan huquqshunoslarning eng saralari to'planib kengashadilar-da, Turkiston musulmonlari Qurultoyini chaqirish va "Turkiston — Mustaqil davlat!" deb e'lon qilishga kelishadilar. Ayni chog'da Turkistonning bo'lg'usi hukumati a'zolari, hatto Prezident kim bo'lishi haqida ham bitishib oladilar.

Alqissa, Qurultoy bo'lib, "Turkiston Muxtoriyati" bir ovozdan e'lon qilinadi va hukumat boshliqlari-yu nozirlari (ministrlar) saylanadi.

O'-o', o'sha Qurultoyda O'rusiya taxtiga chiqib, mashhur "Manifest"ni e'lon qilgan Lenin bilan Stalinning Kommunistlar (bolshovoylar) firqasiga hamd-u sanolar aytiladi.

Bu xushxabar yetgan har bir kent, qishloq, ovulda bayram bo'lib ketadi...

Oradan ko'p ham emas, oz ham emas, — o'n olti kun o'tgach, Moskva, ya'ni Sho'rolar firqasi va uning boshliqlari Lenin-u Stalin tomonidan "Turkiston Muxtoriyati qonunsiz hukumat. Yerlik millatchilarning ig'vogarligi orqasida e'lon etilgan. Boylar-burjuylar hukumati u!", demak, "Turkiston Muxtoriyati" — "O'rusiyaning kambag'al dehqon va ishchilar hukumatiga qarshidir", degan ko'rsatmasi asosida...

"Yosh Turkiston hukumati"ning a'zolari qamoqqa olina boshlaydi.

Hukumat a'zolaridan bir qismi Qo'qondan qochib qutuldim deyishganda...

...O'rusiya Sho'rosining jallodlari u shaharga ham yetib borishadi va ularni ta'qib eta boshlaydilar, xalq kecha e'lon etilgan Mustaqilligini himoya qilishga chog'lanib, namoyishlar qilayotgan bir paytda, shaxsan Stalinning buyrug'i bilan Qo'qonga Perfilev degan yosh general rahbarligida to'p-to'pxona va tish-tirnog'igacha qurollangan Qizil askarlar, (dashnoqlar ham) jo'natiladi. Ular..

... Qo'qonni uch kun to'pga tutib, uch kun yondirishadi.

O'shanda shaharning o'ttiz ming (30 ming) aholisi nobud bo'ladi, qolganlaridan bir qismi — xorijga bosh olib chiqib ketadi, bir qismi qasoskorlar-fidoyilarga (Sho'ro tashbehida aytilsa — "bosmachilarga") aylanib, tog'-toshlarga chekinishadi-da, Turkistonning ozodligi uchun to qurbon bo'lgunlarigacha kurashadilar...

Endi, "turk, Turkiya, Turkiston" so'zlarining tilimizdan qatag'on qilinishi-yu "turk-ingliz" nomlarining "to'p o'yin"da qolishi haqida ozgina gapirsak bo'ladi.

4

O'rusiyada Oktabr inqilobini, xususan, sobiq mustamlakalarning "Mustaqil, Suveren" bo'lib ketishiga bemalol ruxsat berganlarini shod-xurramlik bilan kutib olgan, Sho'ro dohiylarini tabriklagan Turkiyaning millatsevar ziyolilari (u mamlakatda ziyolilarning aksari, ayni chog'da, zobit-ofitserlar bo'lishgan) O'rusiya hukumatining turkistonliklarga nisbatan qilgan ushbu riyokorligi, Sho'rolarning aslida — Chor zobitlaridan farqi yo'qligini ko'rib, qattiq iztirobga tushadilar va mamlakatimizga yordam qo'llarini cho'zadilar: "qasoskor — fidoyilarimiz" orasida Jahon muhorabalarini ko'rgan turk zobitlari shu tariqa paydo bo'lishadi, ular Turkistonni ozod etishga bel bog'lagan vatanparvarlarga harbiyatdan saboq bera boshlaydi, ularning boshlarini qovushtirib, qasoskorlik harakatini — "Milliy Ozodlik harakati"ga aylantirishadi. Va shu tariqa dunyo afkor ommasining e'tiboriga tushishadi.

Turkiyadan ixtiyoriy ravishda (jonlarini fido qilishga rozi bo'lib) kelishgan ziyolilar esa, vatanimizning turli go'shalariga tarqalishib, aksari maktablarga joylashib (shubhasizki, ularga homiylik qilgan yerliklarimiz ko'p bo'lgan), yoshlarga turli mavzularda saboq berishar ekan...

...harbiy saboqqa alohida e'tibor etishadi va bu borada bolalarbop o'yinlardan ham foydalanishadi.

Masalan, o'sha o'yinlardan birida jujuqlar ikki guruhga ajratilib, biriga — "turk", ikkinchisiga — "angliz" nomi shartli ravishda qo'yiladi-da, to'siqlardan oshib o'tish, zovurlardan kaltak yordamida (unga suyanib) hatlash, so'ng taraflarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yib, qo'llaridagi kaltaklarni — nayzali (xanjarlishtikli) miltiq fahmlatib, bir-biriga o'qtalishni, ya'ni, "Sanch! Ur! Qoch!" buyruqlari asosida jang qilishni o'rgatar ekanlar, hatto ularni bir safga tizib, — o'rischa "komanda"lar bor-u — "Nale-vo! Napra-vo! Na meste shagom marsh!" degan — ana o'shalarning turkchasini aytib, ya'ni, "O'na do'n! So'la do'n! Yelinda soy!" — o'ngga burilish, so'lga burilish, depsinish kabi harakatlarni ham mashq qildirishadi.

Izohga hojat qolmadi deyman?

"To'p o'yin"da taraflarning nomlanishi o'sha zamonlardan qolgan ekan-u, biz uni takrorlar ekanmiz, xolos.

Aytmoqchi, o'sha yillarga yana bir nazar tashlasak, darhol ko'ramizki, turk ziyoli zobitlarining Turkiston milliy-ozodlik harakatidagi boshchiliklari ham, maktablardagi faoliyatlari ham uzoqqa cho'zilmaydi: vatanparvar-erksevar yigitlarimizga, ya'ni Milliy-ozodlik qo'shnimizga...

... millionlab Qizil askarlarni tashlagan O'rusiya hukumati maorif sohasida ishlayotgan turk ziyoli-zobitlarini terib ola boshlaydi.

Milliy-ozodlik harakatimiz tor-mor etilganda, turk muallimlaridan ham hech kim qolmaydi. Keyin esa...

...Xalqimizning ruhida Ozodlik va Mustaqillikka tashnalik aslo so'nmasligiga shaksiz ishongan O'rusiya Sho'ro hukumati tilimizda hatto "Ozodlik, Mustaqillik" kabi so'zlarni ishlatish (boshqa mamlakat fuqarosiga nisbatan ishlatilsa, mayli)ga ham shubha bilan qarashi barobarida "turk, Turkiya, Turkiston" kabi nomlarni-da iste'moldan chiqarib yuborishga harakat qilishadi va bunga qisman erishadi ham.

5

Qarang, odiy "to'p o'yin"imiz... Mustaqillik uchun kurash tariximiz bilan bog'liq ekan-a!

Bu o'yinning qadimiyligi, demak, bir zamonlar raqib taraflarning nomlari ham o'zgacha atalgan bo'lishini hisobga olsak, qandoq po'rtanali yoxud sokin o'tgan (tariximiz) jabhalari bilan bog'liq chiqar ekan?..

Ha-da, ajdodlar tarafidan kashf etilgan har qanday o'yin-u masxarabozlik, dorbozlik va hokazo "san'at"larning (shu so'zni ishlatishga jur'at etdim) kundalik turmushda ahamiyati cho'ngligi shubhasiz bo'lgan...

Bir on xayolga tolaylik: tasviriy san'atimizning durdonalarini yaratgan Behzod-u Mahmud Muzahhiblarning tabarruk kitoblar sahifasidan joy olgan ov manzaralari go'zal-a? Go'zal, ko'zga-yu ko'ngilga zavq beradi. Biroq tasvirdagi shohlar (chunonchi, Bobur ham, Temur ham) nechuk bo'lib buncha davdaska qilib, falon yuz-

lab sipoh olib, qulon, kiyik, yo'lbars yo qoplon ovlariga chiqishar ekan? Faqatgina hordiq uchunmi?

Ha, ular hordiq olayotgan chog'larida shikorga chiqishgan. Biroq bundan amaliy maqsad — o'zlarini ham, qo'shinni ham jangovar ruhda tutib turish ko'zda tutilgan ekan.

Chekinish bas, "to'p o'yin"ga qaytamiz.

Demak, o'tloqdamiz, Jo'raboshi: "Guruhlar, joy-joyingizni egallang!" deb buyurdi.

Biz, deylik, sakkiz nafar bo'lsak (o'shanda haqiqatan ham 8 ta edik), to'rttadan bo'linib, aytilgan joyga chekinamiz. Va ko'pkariga kirishini sezgan ot kabi sirli titroqni vujudimizni egallayotgan shiddatni seza boshlaymiz.

— Qani, kattalar, kelinglar, — deydi hakam shunda. Va gugurt cho'pmi, bir tiyinlik sariq chaqami qisilgan mushtlarini uzatib turadi.

Biz tarafdan eng pakanamiz bo'lsayam, chaqqonimiz Sobir Katta chiqadi. U tarafdan esa, haqiqatan ham katta — baquvvat va semiz Rahmat Katta chiqadi.

— Topinglar, — deydi hakam. Kattalar, ya'ni, taraf boshliqlari mushtlarga sinchiklab tikilishadi: go'yoki kaftda yashirilgan narsani ko'rib oladigandek.

Keyin bittasi uzatilgan mushtlardan biriga "shap" yetkazib uradi-da, ochilishini jon holatda kutadi. Kaftlar darhol ochilib ketadi.

Qarabsizki...

6

Men endi o'yin asnosida yuz bergan voqea bayoniga o'taman, shu jarayonda "To'p o'yin"ning asosiy qoidalarini ham bilib olasiz, albatta.

Bizlar qachon o'ynayotgan bo'lsak, o'yinning ham eng qizigan — bolalar terlab-pishgan, biroq chehralarda quvonch, qanoat hislari barq urgan, tag'in g'oliblar mag'rur, mag'lublar alamzada bo'lib, yangi kurashga shaylangan chog'ida...

...bedapoyaning mahalla uylari, bog'-rog'lari joylashgan tomonidan, jo'xoripoyani oralab bir bola, bolayam emas, o'smir yigit chiqib kelardi.

Bo‘yi balaand, mirzaterak desangiz ham — shu, poliz qo‘riqchisi desangiz ham — o‘sha edi. Nimagaki, uning ham egniboshi — jup-juldur, yengidan tirsagi, shimidan tizzasi ko‘rinib turardi. Oyog‘ida urush yillarida paydo bo‘lgan qo‘nji uzun, tagcharmi qalin botinka. (Uni “Amerika patinkasi” deyishardi). Biroq shunday pishiq poyabzal ham to‘zib ketgan: birining bir qulog‘i yo‘q, birining tumshug‘idan bo‘zbolaning boshmaldog‘i chiqib turardi.

Aftiga qarasangiz, daf’atan qo‘rqib ketardingiz. Ishoning, quruq teri-yu suyak, to‘g‘irog‘i, suyakdan yasagan-u, sarg‘ish yupqa teri tortib qo‘yganday, shuning uchun ko‘zlari chuqur botib ketgan, odamga sovuq, hissiz boqardi.

Uzr, “hissiz” ham emas, yovvoyi-yot bir ma’no bor ediki, tikilib tursang, badaning jimirlashib ketardi.

... Ana shu arvoh jo‘xoripoyadan chiqqanida, qo‘lida albatta bir-ikkita jo‘xori so‘tasi bo‘lar, u lo‘k-lo‘k yurib kelarkan, paykal tugab, bedapoya boshlangan yerdan o‘tguvchi ariq bo‘yida to‘xtar, keyin yolg‘iz saritol ostiga borib tutab turgan gulxan yoniga o‘tirar va jo‘xorilarni qo‘rga ko‘mib qo‘yib, yonboshlagan holda bizni tomosha qilardi.

Aytmoqchi, gulxanni bizlar yoqib qo‘ygan bo‘lardik. Yo‘g‘asam, u bizni o‘yindan qoldirib, ya’ni o‘yinni buzib, cho‘pchak terib kelish va o‘t yoqishga majbur qilardi.

“Majbur qilardi” deganim — do‘q qilardi, taysallagan bolani aylantirib solardi, deganim, o‘, suyakdan iborat mushtining zarbasini tasavvur etish qiyin...

7

Bir kuni u jo‘xoripoyadan qo‘li bo‘sh chiqdi. Biz bir-ikki qo‘l o‘ynab bo‘lgan, birovlar ajriqda o‘tirib dam olar, birovlar ariq bo‘yiga cho‘kkalab, “iflos” deyish xayolimizga kelmaydigan suvga lablarimizni tegizib simirardi.

— Vistat! Ismirna! — deb yubordi u enkayib. Vajohati buzuq edi.

Apil-tapil o‘rnimizdan turib, tosh qotdik. Shuni aytishim mumkinki, uning bu buyrug‘i bizga yoqardi ham. Ammo, qotirib

qo'yganidan keyin cho'ntaklarimizni kavlab, qo'liga ilingan narsani olishi... juda alam qilardi.

Hatto Rahmat go'pponning ham unga bir og'iz qarshi gapirishga jur'ati yetmas edi.

To'g'ri, bolalarning ichida men gapga chechanroq edim. Chunki, onam — tikuv artelining raisasi, uy-joyimiz, bog'-rog'imiz ham o'zgacha, turgan gapki, mening ust-boshim ham binoyi, buning ustiga, maktabda yaxshi o'qirdim.

Demoqchimanki, men bu "zolim juldur"ning qiliqlari, bizga o'tkazadigan zulmi haqida onamga bir og'iz aytsam, u tinch qo'ymasdi bu zo'ravonni.

Biroq, "chaqimchilik bo'ladi", deb o'ylarmidim, yo boshqalardan farq qilishni istamasmidim, xullas, dardimni ichimga yutardim. Qolaversa, "bezori"ni kuzatish menga yoqardi, jumladan, buyruqlarini bajarish ham qiziq edi-da!

...Qisqasi, ba'zi bolalar kissalaridagi zaril narsalarni yerga tashlavorish (qochib ketishni hech kim o'ylamas edi!) uchun navbatdagi "volna!" komandasini kutishar ekan, battol haqiqatan ham: "Volna!" dedi-yu, jo'xoripoyaga burildi.

— Marsh! Jo'xori topib kelinglar! Topmagan — kelmasin! Keyin o'zim gaplashaman u bilan!

Biz ariqdan hatlab, allaqachon yiqilib qolgan chetandan ham sakrab o'tib, uzun-qisqa poyalari qolgan "jo'xorizor"ga oralab ketdik.

8

Shu engashib izlaymiz! Yiqilib yotgan, bosib sindirilgan poyalarni ko'tarib, tagiga qaraymiz: yo'q! So'ta yo'q, zo'g'atasi bor. Ammo ularni qandaydir hasharotlarmi, boshqa bir maxluqmi — shunday tozalashganki, bittayam donasini qoldirmagan.

Paykal shatir-shutirga to'lgan: bolalar chopishadi, poyalarni sindirib otishadi, oyoqlari bilan g'ijirlatib bosishadi, qars-qars sindirishadi, ba'zan birontasi xursand bo'lib: "Topdim!" degan chog'da... topgani — so'kinish bo'lib chiqadi.

Tavba, doriga topilmasa!

Bezori ko'mma qilib yeydigan so'talarni, albatta, shu yerdan olib chiqardi. Demak, bu maxluqning o'zi quritgan. Demak, boshqa topolmagani uchun quturib ketgan...

Nimagadir "bezori"ning ko'zlarini shu tobda mushukning ko'zlariga o'xshatdim: har on sergak va yovuzona tikilib turishiga emas, yo'q, uning tunda, qop-qorong'i kechalarda ham har baloni ko'ra olishiga o'xshatdim.

Axir, "bezori"ning ham, bir hisobda, o'g'ri mushukdan farqi yo'q edi-da.

Kimning uyidan poyabzal yo'qolsa yo dorga tashlab qo'yilgan kiri gumdon bo'lsa — hech ikkilanmasdan shu "zo'ravon"dan ko'rishar, biroq "qo'lga tushmagan — o'g'rimas", deganlariday, uni qo'lga tushirish, hatto belgisini topish ham mumkinmas edi. Oradan bir-ikki hafta o'tgach esa, mol egasi ko'ylaginimi-chalvorinimi ko'chada qandaydir kimsaning egnida ko'rar, u kimsa bo'lsa kimdan sotib olganini aytmas, "o'g'lim ko'hnachidan opti", "xotinim jo'gidan xarid qipti", deb qo'ya qolardi.

O'-o', bu "bezori" qorong'i kechalarning "yo'lovchisi" edi, desam, ishonavering: avvalambor, u qishloqdagi yolg'iz kinoxona zalida chaqib tashlangan pista po'choqlarini tozalaguvchi (ayni chog'da patta olishga puli yetmagan bolalarni devordan tushirib, haqini oladigan) farrosh ediki, tungi kino tugab ketganidan bir-ikki soat keyin zalni supurib bo'lgach, uyga qaytar edi.

Shunday bo'lgach, tank motori bilan ishlaydigan elektrostansiya, ya'ni "tap-tap" (yoki "pat-pat") soat o'n birdayoq tinib, naq g'orlarda bo'ladigan zimziyolik cho'mgan qishloq ko'chasidan bemalol yurib keladigan bu "mirshab"ni mushukka o'xshatmasdan bo'ladimi?

Hammamizning tarvuzimiz qo'ltig'imizdan tushib, beixtiyor to'planib qoldik.

— Yo'q. Terib ketgan... O'zi terib yeb qo'ygan... Ha, juvari dumbulligidayam uni ko'rardim shu yerda... Shu quritgan... Endi o'zi topib yesin...

Yoki tag'in mana bunday gaplar:

— Bizdikida juvari bor-u — sitilgani, yarim qopcha... Yo'q, shu yerdan topinglar, dedi-ku?

— Bo‘pti. “Topolmadik” deb aytamiz, — dedi Rahmat go‘pppon. — Yuringlar, qarab turipti.

— Men qo‘rqaman...

— Yo‘q, — dedim shunda men. Qitmirligim tutdimi, alamimdanmi kallamga kelgan fikrni aytdim:

— “Topolmagan — kelmasin”, dedi. Biz topolmadik. Demak, hech kim uning oldiga bormaydi... O‘zi kelsin, mayli...

Shunda kallamga yana bir fikr keldi: “Biz ko‘pchilikmiz, shuni tutib, bir urib, tavbasiga tayantirsak bo‘lmas ekanmi? Qachongacha u xo‘jayinlik qiladi?”

Biroq bu fikrni aytishga ulgurmadim (aytganim bilan ko‘pchilik unamas ediyam): zo‘ravon qo‘l bulg‘ab, ya’ni, o‘ng qo‘lini suzayotgan kabi silkitib, bizni yoniga imlay boshladi. Biz beixtiyor jodugarning domiga ilinganday jila ketdik. Va qadamlarimiz tobora tezlashib, uning qoshiga yetdik. O‘ylash mumkinki, to‘g‘irog‘i, orzu qilish mumkin ediki, odam qiyofasidagi bu maxluq hechqursa iljayar, “topolmasliklaringni bilardim”, der.

Yo‘q, u chimirilgancha:

— Kimda nima bor? Qornim och, — dedi-da, birdan baqirib yubordi: — Ag‘dar kissangdi hammang!

U har birimizga shunday sovuq-sovuq tikildiki, shu tobda uni “arvoh” emas, “o‘lik” deb atash mumkin edi. Illo, o‘lgan odamning qotib qolgan hissiz nazari bilan tikilarkan, biz taxta bo‘lib qoldik. Va darhol cho‘ntaklarimizni ag‘darib, unga ko‘rsata boshladik... Yana shu narsani aytib qo‘yishim lozimki, u qorni ochganini aytganida, hech birimiz achinmadik unga. Uning qorni hamma vaqt och bo‘lardi. Buning ustiga, bizni ham hamma vaqt to‘q yuradi, deyish qiyin edi... Esdan chiqarmangki, bu voqea oltmishinchi yillarning boshlarida kechmoqda. Jahon urushining asorati hamon bilinar, ayniqsa, otalari urushda halok bo‘lib, onalari er qilib ketgan, o‘zlari yetimlar uyida jon saqlagan bolalarning ko‘pligidan bilinardi. Qolaversa, yetimxonalardan qochgan yoxud, umuman, o‘g‘rilik, kissavurlik bilan kun o‘tkazadigan yoshlarning ham yetarli darajada ekanidan bilinar, “zo‘ravon”ning garchi uyi-hovlisi hamda hassaga tayanib yuradigan yalmog‘izdek buvisi bo‘lsa-da, o‘sha “ko‘cha bolalari”dan biri, va eng ashaddiysi edi.

"Ashaddiy" deyishimning boisi shulki, Zo'ravon — o'g'ri, bezbet va muttaham ekanidan tashqari, u anchayin tuzuk taom yegan, bir navi durust kiyingan bolalarni ko'rolmas, masalan, bayram tantanalarida janjal chiqarib, bashang kiyingan bolalarning nuqul kiyimini yirtib tashlar (shunda urmas) edi. Yoki bozorchamizda qovun tilimlab, tarvuz karchlab yeb o'tirgan kishilarning boshiga borib, biroz serrayib turardi-da, yemakxo'rlar uni saflariga taklif etishmasa, "taom"ga tupurib o'tib ketardi. E, qari-qartanglarning uni qarg'ab qolganlarini ko'p ko'rganman...

U — shunday battol, badbin, odamga xos sifatlarini yo'qotgan, lekin...

...odam suratida yuradigan bir vahshiy ediki, turib-turib (uni kuzatib), uning odam shaklida ekaniga nomus qilar ekansan, kishi. "Tavba, shuyam gapiradi-ya? Tili bor..." deb hayron qolgan chog'larim ko'p bo'lgan.

Xullas, uning amri bilan kissalarimizda bor bisotimizni ko'rsatdik: bu gal u faqat yesa bo'ladiganlarini oldi: tosh qotgan "piryanik", bir kaft jiyda, parvarda, kallaqand... Oldi-da:

— Endi marsh, o'ynanglar, — dedi.

Uydan olib chiqqan yemishlaridan ayrilib, ichlari ezilib turgan bolalar "ochofat"dan yengil qutulganlariga daf'atan shod bo'lib ketishdi.

Biroq bedapoyaga chopib qolishga shaylangan onda, menimcha, hammamizning ko'nglimizdan bir shubha o'tdi: "Tag'in bir baloni boshlab qolmasa...".

Shunda men mahmadonalik qildim:

— Biz o'ynab bo'ldik, Tarzan aka!.. Uyimizga ketamiz endi. Bolalar, ketamiz!

Darvoqe, bu "bezori, mushtumzo'r, arvoh"ning mahalladagi laqabi — "Tarzan" edi, o'sha vaqtlarda "Tarzan" filmi qo'yilgan, ho'-o', u — baquvvat, har yelkasiga bir odam o'tirsa bo'ladigan, daraxtdan daraxtga maymundek sakrab o'tadigan yovvoyi yigitga taqlid qilib, necha-necha bolalarning qo'l-oyog'i singan edi.

Bu yaramas "skelet"ga kim u laqabni qo'ygan? Bilmayman, albatta. Ammo, uning yovvoyiligimi, o'sha o'rmon odamiga o'xshar edi.

Gulxan qo'riga yo'nalgan Tarzan taqqa to'xtab, menga, keyin boshqalarga o'ychan tikildi: butun vujudidan shu ma'no anglashilar edi: "Meni gapimni ikki qilyapsanlarmi?"

Biz uning nigohiga bardosh berib turarkanmiz, u shunday baqirdiki, uchib tushdik.

— Marsh!

Biz beixtiyor burilib, maydonga tushdik. Ammo, sezib turibman, uning bu buyrug'i endi — ortiqcha, bizni tahqirlashdan boshqa narsamas ediki, buni har bir bolaning qadam olishidan bilsa bo'lardi.

— Ey, bu qachongacha... — dedim, xolos. Rahmat go'ppon pixillab:

— Jim, jim, — deb shivirladi. — Yomondan yo qochib qutul, yo tonib qutul, deydilar, uka.

— E, boring-e!

— Bu — to'g'ri gap, — ta'kidladi go'ppon. — U — yomon, vassalom. Andak o'ynaylik, bas qilamiz... Meniyam qornim ochdi. Mana muning piranigini bo'lib yemoqchiydik...

— Zahar bo'lsin unga, — dedi pryanigidan ayrilgan bola. — Kechadan beri asrab yurib edim.

— Bizlar qo'rqoqmiz, — dedim. — Ana, "Temur va uning komandasi"da...

— Qo'y shu gapingni, — dedi Rahmat. — Qachon bir narsa desam, bir kitobni ro'para qilasan... Qani, o'ynaymiz! To'p kimda?

O'rtacha mushtdek keladigan qop-qora to'p egasining boya yechib qo'ygan do'ppisida ekan. Biz istar-istamay bo'lina boshladik.

10

Ammo o'yin yarmiga yetmayoq shunday qizishib ketdikki, bizni Tarzan ham to'xtata olmas edi. Darvoqe, o'ynar ekanmiz — to'p osmonga uchar, kimningdir qo'liga tushar, kimdir yelkasiga urilgan koptok zarbidan tappa yiqilar, ya'ni, "o'lar" ekan, zo'ravonning bizga diqqat bilan tikilib turganini ko'rar edikki, fahmim-

cha, ana shu hol ham bizni jon-jahdimiz bilan o'ynashga, yugurishga, to'p urishga undar edi.

Bir mahal ich-ichimdan sezib qoldimki, bezorining ham o'yinga qo'shilishini xohlayapman ekan; uning lo'killab yugurishini tomosha qilib, miyig'da kulish, o'ng kelsa — og'irgina to'p bilan (hatto) basharasiga solishni ham orzu qilayotgan ekanman; bu istak ilgari paydo bo'lganmi-yo'qmi — eslolmayman.

Harqalay, biz gulxanni yoqib qo'ygach, "ishimiz bitgan" hisoblab o'yinga berilib ketardik va zolimning qachon turib ketib qolganini ham sezmas edik.

"Tavba", deyman endi, bir mahal...

11

Bir mahal u o'rnidan turib qoqindi-da, bizni maydondan (buldozer bo'lib) surib yuboradigandek bir shiddat bilan engashib kela boshladi.

Biz ayb ish qilayotgandek sekinlasha-sekinlasha to'xtab qoldik.

Tarzan unday joyda to'xtab, Rahmat go'pponni imladi. Go'ppon yugurib bordi.

Biz ham ularga qarab jila boshladik.

— Sen sudyami? — deb so'radi u.

— Ha, aka. Sudiya... Hakam. Nima desangiz, shuman aka, — qaltirabgina javob berdi Rahmat.

— Sen sudya emassan endi. O'ynaysan, — deb davom etdi Tarzan. — Bir tarafga bosh bo'lasan.

— Xo'p, aka.

Men daf'atan hayron qoldim: bu odamovi jo'xorixo'r tol tagida yonboshlab yotgani bilan bizni kuzatar, yo'q, to'po'yinni kuzatar ekan, "sen — bir tarafga boshsan" deganidan ma'lumki, o'yin qoidasini ham o'rganib opti-da.

Aslini olganda, bu holdan hayratga tushmaslik lozim edi: nimagaki, boshqa guzarlarda ham to'p o'ynaladi va uning qoidalari ham bir xil edi.

Biroq, bu ro'dapo hech qachon... bizning safimizga qo'shilmagan, qo'shilish qayoqda, tomoshabin ekani ham bilinmas, hatto

u to‘p o‘yinni tomoshaga arzimas bir ermak kabi ko‘radiganga o‘xshardi.

Bizdan shilib olgan yemishlarini yeb bo‘lib, zerikdimi, nima balo...

— Eshitinglar, bu xomsemiz bir tarafga, men bir tarafga bosh bo‘ldik, — dedi, nihoyat, bizga nazar tashlab. — Tushundinglarmi?

— Ha. Albatta. Yaxshi...

Men esam:

— Juda yaxshi bo‘ldi-da, — dedim. — Rahmat akam hakamlik qilaverib o‘ynamas edilar.

Haqiqatan ham shunday edi: biz — to‘qqiz bola, taraflar esa to‘rttadan bo‘lar, demak, bir “kishi” ortib qolar, o‘sha “ortiq” — Rahmat aka bo‘lardi.

To‘g‘ri, safdoshimizdan birontasi kelolmay qolsa, o‘rniga Rahmat aka tushardi.

12

— Xo‘-o‘p. — Tarzan yengidan tirsaklari ko‘rinib turgan qo‘llarini ikki tomonga yozdi. Biz bu harakat ma’nosini fahmladik: bir tomonga kechagi “turklar”— bugungi “anglizlar”, ikkinchi tomonga — kechagi “anglizlar”, ya’ni bugun “turk” bo‘lganlar o‘ta boshladik.

— Men, men qaysiga bosh bo‘lay? — qo‘llarini qovushtirib, qunishib so‘radi Rahmat aka.

— Kecha kim eding?

— Men kecha... hech kim edim.

— Him, mayli, turk bo‘laqol. Qaysi taraf — turklar?.. O‘t, bo‘rdoqi!

— Xo‘p, aka.

— Demak, men — anglizman! — qandaydir tantanavor qilib dedi Tarzan.

Tasavvur etingki, bezorini “Mushtum” jurnali-yu boshqa kitoblarda rasmi chiqib turadigan chet el ishchisiga o‘xshatib qoldim: oriqligi, juldurligi, bo‘yining uzunligi-yu rang-ro‘yi ham “non emas” chet el “rabochisi”ning o‘zi edi. Faqat burni ularning burnidan kaltaroqmidi...

Kulging keladi: o'sha yillarda (hatto yaqin-yaqingacha) xorij ishchisi, ya'ni, kapitalistik olam fuqarosi ana shu shaklda tasvir etilar, biz esak... bunga achinar, ishonar edik. Gumrohlik...

Men bugun "turk"lardan edimki, bu menga yoqardi. Chunki bu ismda hamma vaqt ko'nglimga yaqin bir nimalarni tuyardim.

Qolaversa, qandaydir qarindoshimizning qachonlardir Turkiyaga o'tib ketganini bilardim. O'sha kishi haqida uyimizda gap bo'lib qolsa, onam: "Birovga aytma, yomon bo'ladi" der, men "yomon bo'lmasligi" uchun sirni ichimda saqlardim.

Xullas, qarangki, o'yinning sharofati bilan men— "turk", Tarzan "ingliz"ga qarshi bo'lib qolgan edim!

13

Keyin u (Tarzan) cho'ntagini kavlab, parvarda sinig'ini chiqardi-da, qo'llarini orqasiga qilib bir zum turgach, mushtlarini Rahmatga cho'zdi.

— Top.

Go'ppon mamnun bo'lib (bezorining safimizga qo'shilgani, odamga o'xshab muomala qilayotgani ham bunga sabab) ketmon peshidek kaftiga tuflab ko'tardi-yu, mushtumzo'rga yalt qarab olib, barmoqlaridan to'rttasini bukdi. Keyin ko'rsatgichi bilan uning chap mushtiga turtgan bo'ldi.

Musht ochilib ketdi: parvarda ezilib turardi.

— Urish sendan, — dedi-da, shirinlikni kapdoriga o'xshatib og'ziga otdi Tarzan. Keyin o'sha qo'li bilan adoqni ko'rsatib pashsha haydagan kabi qimirlatdi. — Ketinglar, turklar... Qo'log'och bormi? Bor. Bittang g'iyyiomlik qilsang, joningdi sug'uyib olaman.

Umri g'irromlik bilan o'tayotgan kishining tilidan bu gapning chiqishi g'alati edi.

— Biz g'irromlikni bilmaymiz! — dedim.

So'ng bolalarga ergashib, chopib ketdim. Ellik qadamlar etakda futbol "darvozasi"dek makkamiz bor edi: o'n qadam uzunlikdagi masofaning u boshida ham, bu boshida ham bedapoyada o'tlaydigan sigirlarning qurigan tappisi uyub qo'yilgan, xalacho'p bilan

chiziq ham tortilgan ediki, shu chiziqdan o'tgan bola — "tirik", unga yetolmasdan to'p yegan bola — "o'lik" hisoblanardi.

To'po'yin qoidasi haqida yana andak tasavvur bersam, deyman.

Taraf-taraf bo'lib ajralganimizdan keyin shu ellik qadamcha masofaning u boshidagi makka bilan bu boshidagi makka (ya'ni, marra)ga borib, poygaga ruxsat kutayotgan sportchilar kabi engashib turib olardik.

Tabiiy, chek qaysi tarafga tushgan bo'lsa (yoxud to'p urish navbati qaysi tomonda bo'lsa), o'sha yoqning Kattasi qo'lida salmoqlab turgan onasopday yog'och bilan...

...Rahmat go'ppon qo'log'ochni mahkam qisib, men esam qo'limdagi to'pni havoga irg'itib berishga shaylanib turarkanmiz, ko'zimiz raqiblarda edi.

Ro'dapo qo'lini ko'tarib birdan tushirdi. Shu zahoti go'ppon menga bosh irg'adi. Men koptokchani biron gaz balandga otdim. Go'ppon qo'log'ochni yoniga uzatib, o'ziyam o'sha tomonga mayishgan holda, tushayotgan to'pining tagidan shunday urdiki, osmonga chiqdi-ketdi.

Bizlar "ingliz"larning makkasiga yetib burilganimizda, maydon o'rtasiga qarab yugurgan "inglizlar" osmonga qarab turishar, qora yumaloq endi tushib kelmoqda edi.

Kelib-kelib Tarzandan nariroqqa tushdim deganda, u atay o'stirgandek barmoqlarini ochib, shundoq tutib oldi-da, nopisandlik bilan biz tomonga otvordi. Koptokcha dumalab kelarkan, ular borib, bizning marraga turishdi. Nazarimda, Tarzan "inglizlar"iga nimadir deya boshladi.

Biz shod edik! Ichimizda tantana qilardik! Shubhasizki, Rahmat go'ppondan minnatdor edik. Nazarimda, u hech qachon to'pni bunchalar havolatmagan, ya'ni, osmonga chiqarib yubormagan edi.

Dumalab kelgan to'pni yerdan olib, tag'in ko'tarib berishga shaylangan chog'imda esa, u:

— U nima dediykan? — deb shivirladi. — Juda alam qildi yalmog'izning nevarasiga, a?

— Battar bo'lsin, — dedim men. — Soling, Rahmat aka!.. Ayamang hech!

U yana shivirladi:

— O'yinning qizig'i qolmaydimi, deyman?

— Mayli, — shunday dedim-u, darhaqiqat, go'ppon aka haq gapni aytganiga inondim: bunaqada taraf-taraf bo'lishning ham hojati yo'qda.

Oltita bola bir tomonda turib, ikkitasi biz qilgan ishni qilsayam bo'laveradi.

— Astaroq uray, a? — deb (negadir) yalindi Rahmat aka. — Baribir biz yutamiz.

— Arvohning chopganini ko'rganmisiz?

— Chopolmaydi.

— Sizga o'xshab...

— Qitmir.

Shu on u yoqdan Tarzanning na'rasi keldi:

— U-ur!

Biz yana cho'chib tushdik: negadir bunday oriq, rangpar kishilarning ovozi xastaroq bo'ladi, deb o'ylardim. Buniki esa... ichida radio karnayi bordek chiqdi.

— Qani, tashlab ber, uka.

— Lekin juda sekin urmang... O'zingizga qiyin bo'ladi. Xo'p deng, yugurolmaysiz.

— Mahmadanalik qilma.

— Xo'p.

14

To'pni yana avaylab irg'itdim. Go'ppon ikkilandimi, taysallab qoldi-yu, qo'log'ochni sermagandi... tegmadi to'pga. Safdoshlarim xuddiki ingrab yuborishdi, "inglizlar" bo'lsa tantana qilishdi:

— Bi-ir!

Men hayajonda edim: tag'in ikki marta qo'log'ochni to'pga tegizolmasa, tamom — "gali kuyadi". To'p urish navbati raqiblarga o'tadi va hisob bir-u no'lligida qoladi.

O'yin qoidasi oz-moz tushunarli bo'lyaptimi? Yana bitta muhim shartni aytaman: koptokcha osmonga (o'ng-u so'lga chiqib

ketmasligi, ularning marrasidan ham oshib o'tmasligi kerak!) ko'tarilishi bilan taraflarning bir-biriga yuzma-yuz yugurishi ma'lum bo'ldi, shunda to'p urgan taraf ilib oluvchilarning marrasini egallashi lozim bu orada: to'pni ilib olganlar esa yon-verlaridan chopib o'tayotgan raqiblarning birontasini urib qolishi shart: agar to'pni tegizolmasa, yutqazgan hisoblanadi... Ammo, tag'in aytish lozimki, raqibga tegmagan koptok maydondan chiqib ketmasidan burun uni o'sha raqiblarning boshqa bir a'zosi tutib olib, bulardan boshqa birontasini urishga ulgursa, yutgan bo'lishadi.

— Rahmat aka, dadil bo'ling, — deb yana to'pni ko'tarib tashladim, yana... urolmasa bo'ladimi!

Uyoqda — yana qiyqiriq, bizda — so'kinish, afsus...

Shu payt qandaydir his bilan sezdimki, Rahmat go'ppon to'pni urishga qo'rqayapti.

Anavi azroildan...

— Rahmat aka? — deb baqirib yubordim. — Jo'rttaga qilyapsiz! Buyoqqa o'ting: boshqasi uradi!

— Yo'g'-e, o'zim... — (ilojini topsa, o'rnini bo'shatardi) deb qo'log'ochning ushlanadigan joyiga tupurib qo'ydi. — Qani, bo'yingdan, tashla!

Tag'in shoshmasdan tepaga otdim to'pni. Go'ppon tayoqni siltadi. To'p.

...to'ppa-to'g'ri "inglizlar"ga qarab uchdi, uni har bittasi ham tutib olishi mumkin edi.

Ammo Tarzanning oldini kesishmadi. U to'pni osongina ilib oldi-da, serrayib turaverdi. Biz yugurib boryapmiz: har bittamiz to'p yeyishimiz mumkin. Shuning uchun "o'q"qa chap berishga, yotib qolib — o'tkazib yuborishgayam tayyormiz.

Zing'illab bora-bora juldurning yonginasidan o'tib ketdim.

Makkaga yetib qayrilib qarasam, "turklar"im sochilib kelishyapti-yu, Tarzan hamon qo'lida koptok, serrayib turipti. Ablahning nigohidan kimni urmoqchi ekanini angladim: Rahmat go'ppon eng orqada halpillab kelar, masofaning yarmisidan endi o'tmoqda edi.

Tarzan undan ko'z uzmay asta burila boshladi. Va go'ppon yonidan o'tayotganda, qulochkashlab to'pni shunday otdiki, safboshining yelkasiga teggan koptok osmonga chiqib ketdi. Go'ppon

yovuzga tan berganini ko'rsatish uchunmi yoki haqiqatanmi: "Voh! O'ldim!" deb o'tirib qoldi.

Tarzan, nihoyat, tepadan tushayotgan to'pni yana ilib oldi-da:

— Yuringlar, — deya (go'pponga qaramay) "inglizlar"ini ergashtirib ketdi.

O'rin almashdik.

15

To'p urish navbati endi ularda. (Hisob: 1:1). Biz safga tizildik, yana enkayib oldik. Go'ppon esa inqillay-sinqillay chetga chiqdi.

"Koptokni Tarzan uradi", deb o'ylovdim. Yo'q, u qo'log'ochni salmoqlab ko'rdi-da, yonidagi bolaga (o'sha guruhning eski boshlig'iga) berdi.

Keyin, barmoqlarini og'ziga tiqmasdan shunday hushtak chaldiki, hammamiz hayron bo'p qoldik. Keyin koptokni ham o'zi unga tashlab berdi. U bola ham chaqqongina edi, bor g'ayrati toshib ketdimi, chunonam urdiki, to'p yana osmonga chiqib ketdi. Biz apil-tapil olg'a yugurdik.

"Inglizlar" ham bizga qarab, ya'ni, bizning orqamizda qolgan marrani ko'zlab yugura qolishdi. Tarzan esa... shoshilmasdan yo'rtib kelar edi.

Koptok tusha boshladi. Har qaysimiz ham uni ilib olishga, anavi oliftani solib qolishga intilar edik. Shuning uchun to'p tushadigan yerga yig'ilganda, bir-birimizga to'qnashib ham ketdik. To'p esa, bamisoli Alloh buyurgandek eng kichkina va chaqqonimiz Sobirning qo'liga tushdi...

Biz daf'atan yengil tortib ketdik. Hatto iljayganlar ham bo'ldi.

Arvoh esa hamon yo'rtib kelmoqda, taxminan yarim yo'ldan o'tgan edi.

Sobir koptok tutgan qo'lini silkitib, unga ro'para bo'ldi. Oralarida uch-to'rt qadam qolganda:

— Aka, chopsangiz-chi? — dedi u.

"Aka" pinak buzmay:

— Ur-ur, — dedi. — Urolsang... Men bilan ishing bo'lmasin...

Shu gap uning og'zida, belida umurtqa suyak emas, prujina bordek shunday chayqalib ketib mayishdiki, shu soniyada koptokni otgan Sobirning og'zi ochilib qoldi.

Koptok arvohning ustidan o'tib, maydondan chiqib ketgan edi. Nihoyat, shayton qaddini tikladi-da, seryamoq shimining orqa kissasidan bir nima oldi. Keyin yon cho'ntagidan bir qiyqim qog'oz chiqardi. Va orqa cho'ntakdan olganini (tamaki ekan) qog'ozga to'kib, qog'ozning bir chetini tili bilan ho'lladi-da, o'rab labiga qistirdi. Keyin kissalarini tag'in kavlashtirib, tirnoqcha gugurt quti parchasi (ruxi) bilan bitta gugurtcho'p chiqardi.

Papirosni tutatib, bizning manzilimizga yo'l oldi.

Biz unga anqayib qarab turardik: u papiros chekish bilan ham bizdan ustunligini ko'rsatayotgan edi. Keyin uning bu qadar bamaylixotir yurishi, Xudo haqqi, bizni — "turklar"ni tahqirlar edi.

O'sha kezlarda "papiros" deganini asosan urushdan omon qaytgan cho'loq-mo'loq kishilar chekishar, hamqishloqlar ularga yotsirab qarashsa, chollar jirkanishar, bamisoli ular "girmon urushi"dan hazar qilgudek bir kasalni yuqtirib kelganga o'xshardilar.

To'g'ri, kinoxona atrofida papiros qoldig'ini chekkan juldurvoqi yetim-yesirlarni ham ko'rib turardik. Ammo Tarzanning shunday qilib, aftidan, rohatlanib chekishini...

16

Hayotda shunday paytlar bo'lar ekanki, safdoshing-yo'ldoshing o'yini so'zsiz anglab turar ekansan, kishi. Shundayki, biz to'rt "turk"ning ham ko'z qarashimizda: "Endi nima qilish kerak?" degan savol bor, ko'nglimizning tub-tubida esa bu savolga javob izlanmoqda edi.

— Sobir, qo'lingga to'p tushsa, otma, — dedi Rahmat. — Sherigingga oshir.

— Ha, uni chalg'itish kerak, — dedim men.

Shu payt u yoqdan to'p urildi. Biz taxminlab, to'pning kelib tushadigan joyiga yugurdik. Kim havolatganini sezmay qoluvdim, bu gal ham juda balandga chiqib ketgan ekan, u yerda bir to'siqqa uchragan kabi, koptok qaytib tusha boshladi.

Qarasam, "inglizlar"ning chopishi unchalik emas: ancha xotirjam.

Tarzan esa-o'sha-o'sha.

...To'p kelib-kelib, kaminaning qo'liga tushdi-ku! Qisib ushladim-u, o'ng-u so'limdan endi chopib o'ta boshlayotgan "inglizlar"ni "kaput bo'lgan"dek hisoblab, ularning sardoriga yuzma-yuz bo'ldim.

U o'sha yurishida tamaki tutatib kelardi.

Ko'zlari esa manglayi ostidan menga tikilgan, go'yo avrayotganga o'xshardi: haqiqatan ham uning nigohida odamni gangitib qo'yadigan bir quvvat bor edi. Men xiyol kalovlandim-u, darhol o'zimni qo'lga oldim: "Buyam— odamzodning bolasi... Qo'rqma, akasi! Lekin hovliqma...".

Shunda uni urganimdan keyin qochib qolishni, demak, qochayotganda koptokka chap berishni-da o'ylab, koptok tutgan qo'limni keskin-keskin qimirlatib, unga yaqinlasha boshladim. Uyam menga yaqinlasha boshladi.

Hayajonlanaman.

— Ursang-chi, — deb iljaydi. Xudo haqqi, iljayishi ham sovuq, badanni jimirlatar ediki, koptok unga tegsayam — qo'liga tushsam meni bo'kirtirishi aniq edi.

Aytmoqchi, bu qaydan biladi to'p o'yinni?

Demak, u soyning narigi betida...

17

Ha, Tarzan bilan momosi qishloqni ikkiga bo'lib o'tadigan soyning u betidan ko'chib kelishgan edi; ular kelguncha, bizga qo'shni, ya'ni, chorrahaga kelib tugaydigan xaltako'chaning adog'idagi balx tuti bor hovlida Elbek to'qimchi degan bir chol qariyb yolg'iz yashardi; uning tomga chiqib, paylari osilib qolgan oyoqlariga bir nimani surtib, oftobga toblab o'tirishini ko'p ko'rardim; cholga allaqaysi mahalladan keladigan uyli-joyli qizi qarashib turardi; shu qariya qazo qilib, bedapoya etagidagi qiyalamada joylashgan qabristonga qo'yilganidan keyin (biron hafta o'tgach), mana shu shoterak Tarzan bilan bukchaygan buvisi hovliga ko'chib kelib joylashishgan edi.

... Hozirgi gapim shulki, bu yaramas o'zining eski mahallasida to'po'yinning havosini rosa olgan, aytish mumkinki, pixini yorgan ekan.

Qarang endi: men — hujumchi, qo'limda qurolim bor-u, tislanib ketyapman, u — qurolsiz bandit esa bostirib kelayapti!

Shunda kallamga bir ajoyib fikr keldi: marraga qarab chekinaversam-chi?

U kelaversa...

Marraga yetganda, to'p bilan aylantirib solsam-u, o'zimni chegaradan nariga otsam.

Shunday qila boshladim. Tarzan ham chekishini qo'ymay, bostirib kelaverdi.

Vo, ajab, "inglizlar" kulishga tushdilar. E'tirof etishim lozimki, o'zimizning "turklar" ham iljaya boshlashdi. Lekin men tishimni tishimga bosaman.

Shunday qilib, bir mahal oyog'im chalishib, chalqancha yiqilsam bo'ladimi!

Tarzan ustimga kelib engashdi.

— Hozir, hozir, — deya o'rmalab turib oldim-da, uch-to'rt qadam nariga qochib borib, to'pni go'yo otdim. Tarzan bir aylandi. Yana bir "otdim", tag'in bir aylandi. Endi bolalar xaxolab kulisha boshladilar.

Shunda "prujina"ni mazax qilish o'zimgayam yoqib ketdi-yu, endi uni chap tomondan uradigan kabi harakat qildim: u o'ng tomonga mayishib ketdi. Shu harakatni tag'in qilgandim, u tek turib qoldi-da:

— Masxara qilyapsanmi? — dedi.

— Hecham! — dedim, yana tislana boshlab. — Sizni urish qiyin. Maymunga o'xshaysiz.

— Maymunga sen o'xshaysan, men ... jirafaga o'xshasam kerak, — dedi u, ishshayib.

— Qiziq.

Shunda nima uchundir ikki taraf bolalari ham marrani tashlab bizga yaqinlashib kela boshladi. Chamasi, "urishib qoladi", deb o'ylashar, ma'lumki, birovlarning mushtlashishini tomosha qilish juda maroqli bo'ladi.

— Ursang-chi, enag'ar! — Tarzan shunday deb yubordi-yu, a'zoyi badanimga ming bir ari yopishgandek chiyillab yubordim, deyman. Va qo'limni dast ko'taruvdim, u orqaga chayqalib, naq umbaloq oshadigandek bo'ldi. To'pni otsam, albatta ko'kragining ustidan o'tib ketardi.

U ko'zlariga qon to'lib, qaddini ko'targanini bilaman, boshqasini...

... qo'lim biladi, toshdek koptok naq tumshug'iga tegib, ustimdan oshib ketdi. Bunday bo'lishini kutmaganimdanmi, bir fursat turib qoldim. Shunda ko'rdimki, burnidan yiltirab qon oqa boshladi. U qo'lini burniga olib bordi.

Shunda men qocha qoldim. Tan olishim kerak, bu qochishim qo'rquvdan ham edi.

18

Tarzan, o'yin qoidasi bo'yicha — "o'lgan" edi. Biz esa olti bola qolgan, demak, o'yinni uchtadan bo'lib davom ettirishimiz lozim edi.

Men raqiblarning makkasiga borib turib olgach, safdosh "turk"-larim ham birin-ketin yonimga kelishdi-yu, "inglizlar" Tarzandan nari ketolmay qolishdi.

Tarzan endi cho'nqayib o'tirar, burnini qisib-qisib qonni oqizar va barmoqlariga qarar, keyin barmoqlarini ajriqqa artib, biz tomonga ko'z qirini tashlar edi.

Yuragim seza boshladiki, har qaraganida, talay tuklari tikkayib ketmoqda, biron kor-hol bo'lishi tayindek edi. U bolalardan biriga nimadir devdi, u qabriston poyidan o'tguvchi jilg'a tomonga chopib ketdi va hademay do'ppisida suv olib kela boshladi.

— Ukalar, boraylik biz ham, — dedi Rahmat go'ppon yuzida iztirob bilan (uyam yonimizda edi). — Yomon uribsan-da, uka... Menimcha, kechirim so'rashing kerak.

— Nima? — dedim. — Vey, qanaqa odamsiz o'zi? Sizni qanday urdi, voy-voylab qoldingiz-ku?

— Ha, endi...

Yuzini yuvib, bo'z ko'ylagining etagiga artgan yarador o'rnidan turdi: u chindan ham bo'yni uzun jirafaga o'xshar edi. Yo'ta-

lib, bir-ikki tupurdi-da, biz tomonga, ya'ni, biz egallagan marraga yo'l oldi.

"Ingliz"lar ham unga ergashishdi. Shu payt qaysi biridir menga qo'lini silkitib: "Ket! Qoch!" deganday qildi. O'zimning "turk"larimdan ham shu mazmunda gap chiqa boshladi:

— Asad, kelyapti u... Qarashi yomon... Asad jo'ra, qochib qol, bir balo qiladi u...

Men dir-dir titray boshladim. Hatto uning bir musht urishi hamon to'ntarilib tushishim va ehtimol o'rnimdan turolmay qolishim ham ko'z oldimga kela boshladi.

Biroq, qanday qilib qochaman? Qayerga boraman?.. Axir, baribir uning qo'liga tushaman-ku... To'g'ri, qochib ketsam, balki orqamdan kulib qolar... Ammo buyam azobli-da men uchun... Qolaversa, baribir shu maydonga kelaman-ku...

Keyin iqror bo'ldimki, qochib ketsam — bir chaqaga qimmat odam bo'laman.

Bo'lar ish — bo'ldi.

Qolaversa, ehtimol u shunchaki — nimanidir ajrim qilish uchun kelayotgandir.

Axir, bu — o'yin!

19

Jirafa yaqinlashar ekan, tislanayotganimni sezib, oyoqni yerga qattiq bosdim. Nazarimda, "taraf"kashlarim ham chekinishmoqda, o'rtada bo'shliq — doira hosil bo'lmoqda edi. Yarador doiraning o'rtasiga kelib to'xtaganda, uning "inglizlari" ham atrofdan joy olib, qurshovni to'ldirishdi.

Arvoh menga tikildi. Uning terdan va kirdan qotirmachoq bo'lib ketgan ko'ylagining oldilari — qip-qizil, shimidan chiqib ketgan etagi ham qon edi.

— Shunchalik zo'r bo'p ketdingmi, pakana? — dedi u. Aniq-rog'i, lablari qimirladi-yu, shu so'zlar og'zidan chiqdi. Ovozida tahdid yo'q, faqat ko'zlari och mushukning ko'zlari kabi tik boqar, butun vujudidan hamlaga hozirligi ham ko'rinib turardi.

— Nega, men emas... siz zo'r, — dedim. Va uni murosaga chorlayotganimni, demak, qandaydir muruvvat istayotganimni

fahmlab: "Lekin haqiqatan ham bu zo'r", dedim-u, keyin o'zimni rostgo'y bola kabi sezib, xotirjam tortdim.

— Bilaman zo'rligimni, — dedi u hissiz bir ohangda. — Lekin nimaga unday qilib urding?

— Qanday qippan? — dedim.

— Siz chap beraverdingiz, men poylayverib... Shunga to'g'ri kelib qoldi-da. Bu — o'yin. O'zingiz ham Rahmat akamni dodlatib yubordingiz-u...

— Enangga ishonasan-da, a?

— Qo'ysangiz-chi.

— Tiling ham uzun bo'p ketipti.

— O'zi bori shu.

— Sal qisqartirib qo'ysam-chi?

Men qo'limni og'zimga olib borganimni sezmay qoldim: tilimning uzun-qisqaligini bilmoqchimanmi? Yo'q-yo'q, shu aziz tilning qisqarishini istamaganim uchun... Shu on u ham beixtiyor qon tomchisi sizib tushayotgan, shishib ketgan burnini siypab, yana qo'liga qaradi-yu, ko'zlari yumilib ketayozdi: azobdan, alamdan...

So'ngra nochor bir holda qur tutib turganlarga ko'z tashladi. Barcha-barchasi: "Endi nima qilasiz?" deganday termulishar edi.

U — arvoh xo'rsinib yubordi-da:

— Qani beri kel, — dedi menga.

— Gapiravering, — dedim. — Eshitaman... Nima, urasizmi?

— Munda kel, deyapman.

— Axir... — yarim qadam bosdim-u, birdan yana bir qadam tashladim.

— Yuraging bor, — dedi u. — Lekin xafa bo'lish bekor. Men seni urmasam bo'lmaydi.

— Uring, juda bo'lmay ketayotgan bo'lsa... Lekin, men ham sizni tek qo'ymayman...

— O', yaxshi odat bu... Yana bir qadam bos!

— Qo'lingiz yetadi.

— Malades.

U birdan keskin qimirladi: oldin o'ng, keyin chap tomondan qo'l siltagan bo'ldi. Men uning usulida — o'ngga, keyin so'lga mayishib, qaddimni rostladim.

Keyin uni boya xuddi shu alpozga solib, go'yo "masxara" qilganimni eslashni va iyagim-u ko'kragim aralash tushgan zarbdan qayoqqadir otilib ketganimni ham bilaman...

20

Ko'zimni ochsam chalqancha yotibman. Osmon gir aylanib, asta to'xtadi. Va engashib qarab turgan bolalarning yuzlari ko'rindi. Sobircha yig'lar edi... Ana shu yig'i, ha, shu yig'i hushimni o'zimga keltirdi-da, o'likrangli basharani izlab tikildim: u yo'q edi. Irg'ib turmoqchi bo'luvdim, boshim yana aylanib ketdi. Ko'zlarimni chirt yumib, tamshandim chog'i, tilim o'zimnikimasdek, og'zimga bir parcha xom go'sht solib qo'yilgandek tuyuldi. Va Tarzanning "Tilingni qisqartish kerak" degani xotiramga keldi. Shundan so'ng tag'in hushyor tortib ko'zimni ochsam, olam yana ravshan ko'rindi. Shunda iyagim og'riyotganini sezdim. Shu bo'ldi-yu, boyagi voqealar ongimdan bir zumda o'tib ketdi.

— U qani? — dedim, endi jonsiz tilim og'zimga sig'mayotgandek bo'lib.

Bolalar birdan burilib, jo'xoripoya tomonga qarashdi.

— Ketyapti... To'xtadi. Yana jildi...

Men emaklab, endi ko'kragim ham qattiq og'riyotganini sezib, oyoqqa turdim. Shunda yana boshim (demak, o'ng-u so'lim) sal aylandi-yu, to'xtadi. Men mahalla tarafga qaradim.

Oqish tuman ichida sharpa ko'rindi. Keyin uning to'xtab turgan jandapo'sh ekanini bildim-u, birdan otildim. Tag'in bosh qurg'ur bir aylanib, bir "o'ziga kelib", ayni chog'da qo'limdan, yengimdan tortgan tengqurlarimdan tortilib-qutulib, yolg'iz tolga yetganimda, gulxanning chet-chetida yotgan chalalarga ko'zim tushdi-yu, durustroq-salmoqliroq va uzunroq bir chala cho'pni izlay ketdim.

Qani topilsa!

Shu payt ariqning u betidagi chetan "vayronasi"ga baqrayib qoldim-u...

...Tarzan yarim o'girilib qarab turar, meni diqqat bilan kuzatar edi. Unga qarab chopib borarkanman, iyagimga ham tikilib turganini ko'rdim: aftidan, u mening sog'-omon ekanimni bilmoqchi edi.

Qiziq, men ham uning mushtdek burniga, do'rdaygan lablariga boqib, ichimda mamnun ham bo'lib ketdim: uning basharasini men o'zgartirdim.

Lekin u...

Endi har qancha mulohazaga bormayin, ortimdan chopib kelayotgan do'stlarga tutqich berib — to'xtashni istamayin yoxud Tarzanning nima uchun urganini ajrim qilish maqsadida to'xtash xohishini ham sezmayin, baribir men uni urishim kerak edi.

Ha, qo'limdagi ho'l novda bilan...

Axir, bekorga chopib bormayapman-ku... yugurib, go'yo uni quvlab, novdani silkitib?

Unga uch-to'rt qadam qolganida, ko'ziga ko'zim tushsa adashib ketishimni fahmladim-da, og'ochni baland ko'tarib, boshiga tushiruvdim, u bir qadam chetga qo'yib, kaltakni yerga tegishga "majbur" etdi. Tag'in novdani ko'tarib soldim, Tarzan yana chap berdi. Undan so'ng yo'g'on chiviqni boshim uzra aylantira-aylantira unga yaqinlasha boshladim-u, manfur bir-ikki chayqalib-pasaydi-da, novdani shappa ushlab oldi.

"O'h, meni uradi" degan o'y xayolimda, cho'pni boshi uzra uloqtirib yubordi.

— Sen o'g'ri... sen nomard... — Engashib novda ortidan yugurdim.

Yerdan olib, yana siltagandim, maymunqo'l makkor novdani yana tutib oldi-da, endi tizzasiga tirab qars-qars sindirdi. Keyin sekin yonimga keldi-da (men qochmas, tislanmas ham edim), shapaloqlab bir urdi. Kallam burilib ketib, ko'zlarimdan bir tutam binafsharang o't otildi.

Gangib turib qoldim.

Yetib kelishgan bolalarning gaplarini eshitaman: "O'ldirib qo'yasiz-ku? Qanaqa odamsiz?.."

Men o'zimni yana o'nglab oldim: nazarimda, "turk"-u "inglizlar"ning bir yoqadan bosh chiqarib mening yonimni olishayotgani, zo'ravonga esa gap qotishga jur'at etishgani menga dalda bo'lgan edi. Unga shundoq burilib, inoning-inonmang, naq ajalning bag'riga o'zimni otgandek bo'ldim.

— Zolim, iplos... Azroil bo'lsang ham, qo'ymayman endi! Ey, bolalar, uramiz buni!

Men barmoqlarimni ochib, xotinchasiga basharasini tirnashni istabmi tashlangan edim, u yoqamdan shappa ushlab, tag'in bir shapaloq urdiki, yana hech narsani sezmay qoldim... O'zimga kelsam, o'yindosh do'stlarim atrofimda cho'nqayib o'tirishipti. Bittasi do'ppisidan suv olib, yuzimga sepayapti.

— U qani?

— Ke-etdi.

Yana o'rnimdan turdim-u, endi atrofga diqqat bilan qarab, uzunligi bir qulochlar keladigan armatura temirini topdim. Salmoqli, tegsa bormi...

Men uni qo'ymayman!

— A-aay! — deb baqirib yuborganimni bilaman, o'qdek uchib ketdim. Bolalar ham orqamdan tushishdi. Shu ketishda jo'xoripoya adog'iga yetib, torko'chaga qayrildim. Undan o'tib (boyagi mushtning ustiga yana ikkita shapaloq yeb esam-da, endi boshim aylanmas, aftidan, boshimning bor-u yo'qligini ham sezmas edim), ko'chalar qo'shiladigan yerga yetganimda, "qochoq"ning xalta ko'chasiga kirayotganini ko'rdim. — To'xta, o'g'ri! — U shoshib to'xtadi-da, uni "quvayotgan" men emas, balki o'zlarining ko'chasida, ko'ringandek, burildi. Men uning kimdandir xayiqishi, demak, baqirishimni aslo-aslo istamasligini anglab, battar hayqira boshladim: — Qaysi go'rdan kelding, sen yovuz, battol!.. Nimaga bizni urasan? Qul qilmoqchimisan, yaramas.

U har ikkala qo'lini ko'tarib, "bas, bas" deganday qildi. Bu paytda hamqurlarim ham yetib kelishgan, endi ular yengimdan tortishmas, "qo'y, aytishma" qabilida gap ham qilmas, demak, mening bu hayqiriqlarim ularga yoqib ketgan edi.

21

Tarzan yonimga kelmoqda edi. Men uning oldiga yetib bordim-u, muvozanatim buzilmasdan... temir kaltakni ko'tarib siltadim: vo, darig', kaltak qo'limdan chiqib ketishi barobarida unga yana tegmadi.

U hamla qilib, bir qo'lida meni bag'riga tortdi-da, ikkinchi qo'li bilan og'zimni yopdi.

O', mening tipirchilashimni ko'ring endi! Har tomonga o'zimni uraman, bo'g'ilib qolayotgandek big'illayman — uni tishlamoqchi bo'laman, boshim bilan ko'kragiga... Oqibat, u meni bag'riga bosib shunday qisdiki, suyaklarim qisirlab ketdi: men odamzodning emas, qandaydir temirning iskanjasiga tushgandek edim. Ont ichaman-a, qotib qoldim.

U qo'lini og'zimdan oldi. Baribir men qimir etolmas, entikib-entikib nafas olar edim. Shunda bolalar... ha, mening yurak oldirib qo'ygan jo'ralarim uning qo'liga yopisha ketishdi.

— Qo'yvoring. O'ldirib qo'yasiz... Tarzan aka, muning onasi katta odam...

Tarzan bo'sh qo'li bilan Sobirning boshiga bir tushirdi. U o'tirib qoldi. Shu bilan boshqalar tinchib, bir-bir qadam chekinishdi.

Men hansirab:

— Qo'yvorgin endi, hayvon, — dedim.

— Faqat baqirma, — dedi yon tomondan ishshayib: tishlari biram qiyshiq-tuyshuq ekan. — Baqirsang, bo'g'ib o'ldiraman.

Og'zimdan yomon bir gap chiqib ketdi. Va yana qutulmoqchi bo'luvdim, yana shunday qisa boshladiki, nafasim ichimga tushib ketayozdi.

— Bo'pti, gapir, baqirmayman, — dedim. Dedim-u, "baqiroqlik" — nomardlik bo'lib tuyuldi: axir, bunday tovush chiqarish — atrofdagi odamlarning e'tiborini tortish, demak, ularni yordamga chaqirish ham edi-da!

Men esam, shu tobda birovning yordamiga muhtojmas edim.

Tarzan meni bo'shatdi-da, bilagimdan tutgancha yo'g'on simyog'och (aslida rostakam yog'och)ga suyanib-cho'nqayib o'tirdi. Men ham beixtiyor shunday qildim. Bizni ko'rib, bolalar ham cho'nqayishdi.

Shu payt katta ko'cha adog'ida kimdir ko'rindi. Va Tarzan tura-solib, o'zlarining xaltako'chasiga tortdi meni. Bizga ergashib, boshqalar ham kirishdi.

— Xo'sh, nima istaysan mendan? — dedi u endi tik turgancha. — Bilasan, yana ursam dabdala bo'lasan...

— Ur, — dedim.

— Yetadi, — dedi u.

— Yo‘q. Ur... Sen haromining boshqa nima hunaring bor?

Uning ko‘zlari “yilt” etdi-yu, bir qo‘li bilan bo‘ynimni, ikkinchi qo‘li bilan jag‘imni shunday qisdiki, jag‘ o‘lgur ham zarb yegan ekanmi, shunday zirqiradiki, ovozim emas, ko‘zlarimdan yosh chiqib ketdi.

— Men haromi emas, otam girmon bilan urushib o‘lgan, — dedi hansirab. — Enam — haromidir, er qilib ketdi, bizni tashlab...

Bu “hasrat” menga ta’sir etmadi.

— Momongni bobong tashlab ketgan ekan, — dedim. — O‘zi, avlodlaring buzuq ekan... — Jag‘imni bo‘shatarkan, shunday dedim-u, birdan uning bilagidan tishladim. U tortilib ketdi.

Keyin:

— Muni qara, qashqir, — deb bilagini ko‘rsatdi. Etiga uchta tishim botgan, undan qon tomchisi chiqa boshlagan edi. Ayni chog‘da uning urmagani uchun past tushayotganini his etib:

— Ha, meni sen qashqir qilib qo‘yding, — dedim.— Seni... seni bir kuni yeyman... — Bu gap o‘zimga yoqib, davom etdim: — yeyman, ko‘rasan... — Yana ovozim ko‘tarila boshladi: — Sen endi mendan qutulib bo‘psan!

U yana ishshaydi.

— Xo‘sh, nima qilishim kerak?

— Nima... Nima qilsin... bolalar? — birdan hovliqib so‘radim jo‘ralardan. Ular hayratdan yoqa ushlaguday bo‘lib bir-biriga qarashar ekan, qayoqdandir tanish bir so‘z tilimga keldi: — Kechirim so‘rasin bizdan. Bezori... Kulma, foydasi yo‘q. Hoy, “enasiga chaqadi”, deb o‘ylama... Men nomard emasman, jirafa! Lekin aytsam, allaqachon aytib, seni turmaga yotqizardim. Ana, kinoxonaning orqasida bor-ku melisaxona... Qancha qalang‘i-qasang‘i yotipti u yerda...

Jirafa horg‘in bosh irg‘adi.

— Ha, o‘zimam melisaning uchyotidaman.

— Nima?

— “Kechirim” so‘rashing kerak de? Shu ipirisqilardan? — U qandaydir xo‘rlangan odamdek bo‘lib, davom etdi: — Shu maymunlardan, a?

— Bular — maymun emas! — dedim og'zimni to'ldirib va shu bir gapning o'zi ichimni ham qandaydir kuchga to'ldirib yubordi. — Kechirim so'ra! Bular — insonlar...

— Insonlar? — deb tag'in lablarini ikki yonga tortib, buzuq tishlarini ko'rsatdi (ishshaydi).

— Yo'g'asam-chi... Ha-da... Siz u — boshqa...

— So'ra, — dedim Tarzanga yana: endi tashabbus men tomonga o'tgandek edi. — Bugundan boshlab hech kimga zulm qilmayman de, men ham ikkita oyoqli, ikkita qo'lli odamman de. Hayvon emassan-ku?

Shunda yana dunyo aylanib ketdi: yo'q, mening o'zim boya "qayoqqa" ketgan bo'lsam, tag'in "o'sha yoqqa" og'ib ketdim: tag'in boyagidek binafsharang nur endi ko'zlarimdan ko'proq chiqqanini ko'rdim, xolos.

22

Tag'in hushimga keldim. Juldur dev belimga minib o'tirardi. Atrofdan cho'zilgan qo'llar uning yengidan, yoqasidan, etagidan tortishyapti.

Tarzanning ko'ziga tikilsam yosh bor... Juda cho'kib qolganga o'xshaydi... Mening ko'zim ochilganini ko'rgan bolalar yana dadillashib ketishdi:

— Turing endi... Ana, odamlar!

"Odamlar!" ko'chaning adog'ida edi, chamasi. Lekin, tuq-tuq etgan tovush boshqa yoqdan eshitilar, tag'in it g'ingshigandek ham bo'lardi.

Tarzan har yonga qarab, tek qoldi. Uning birdan xo'rsinib yuborganini xiyol ko'tarilib tushganidan bildim-da, yo pirim, deb basharasiga tupurib yubordim.

U betimga bir shapati urdi-da, aftini arta boshladi. Men tizzam bilan uning orqasiga turta boshladim... Endi hayron bo'laman: buncha chidam, qaysarlik qaydan paydo bo'ldi ekan menda? Shuncha mushtning zarbi... Axir, o'sha mushtlardan birini ham yemasligim mumkin edi-ku? Buning uchun unga bo'ysunsam bas edi, xolos... Yo'q, unday qilolmadim: unga bo'lgan nafratim anchayin qiziqishlar, qo'rqishlar tufayli yuzaga chiqmay kelar ekan, xolos...

Shu payt:

— Nima gap? — degan xirqiroq tovush keldi bosh tomonimdan. Keyin shang'illay ketdi: — Hoy, bu nima o'tirish, yetimcha? Tur o'rningdan, yigit o'lgur!

— O'zini qarang... — dedi Tarzan yutinib. — Hech qo'ymaydi... Tinch qo'ymayman deydi...

— Nima qilib eding? O'zingdan ham o'tgandir-da, joning chiqqur!

Albatta, uning buvisi vaysamoqda edi.

— Momo, buningiz mendan qutulmaydi endi, — dedim. — Bu bizlarni dodga keltirdi... Hammamizni qo'rqoq qilib qo'ydi bu bezoringiz...

Tarzan boshini egib o'tirarkan, endi bu chakkamga bir tarsaki urdi. Ko'zimni yumdim-u, boshqa bir qarsillagan tovushni eshitib — ochsam, Tarzanning yelkasidan hassa ko'tarilyapti. Bundan dadillanib, yana tipirchilay boshlovdim, kampirning jazavasi tutib:

— Turasanmi-yo'qmi — deb o'shqirdi. —Otangniyam yeding... Turmasang urib, mayib qilaman!

— Bu "kechirim so'ra" deyapti-da, — dedi, nihoyat, Tarzan buvisiga ko'zyoshlari orasidan qarab.

— Nima-a? — deb baqirib yubordi momo. — Nimani so'rayapti. Bu nima deganing?!

E'tirof etishim lozimki, "kechirim so'rash" degan gaplar o'sha yillarda muomalaga endi kira boshlagan edi: ungacha ehtimolki faqat "tavba qilish" bor edi.

— Kechirim-da, — dedi Tarzan.

— Momo, — bo'g'ilib baqirdim men. — Boshqa bunday yirtqichlik qilmayman. Bolalarni tinch qo'yaman, desin... Hech kimni qo'rqitmayman, kissasini kavlamayman, o't yoqib ber demayman desin...

— Mayli, biz bilan o'ynasinlar, — deb qoldi shunda Rahmat guppon. — Lekin g'irromlik qilmasinlar, kuchlariga ishonmasinlar... O'yinni buzmasinlar. Bizlar...

Tarzan unga intilmoqchi bo'ldi: mabodo yaqin turganida, urib yuborishi aniq edi.

— Ana, gap qayerda! — dedi momo. — Eshitdingmi, quloqsiz? Hoy! Tursang-chi, ho'kiz?.. Buyam — birovning bolasi... Shoshma, sen...

— Momo, urmang, — dedi yana Rahmat. — Faqat kechirim so'rasalar, bas.

— So'ra! — gap ma'nosini tushungan momo zug'um qilib dedi.

— Hoy, esh-shak, — dedim. — Uzr so'ramasang, tinch qo'ymayman... Meni o'nta ursang, seni bitta urarman. Baribir uraman! Poylab turib uraman seni... Anavilar bilan birga uramiz seni... Keyin milisaga topshiramiz...

— Rosti bilanmi? — dedi Tarzan menga tikilib.— Seni mard bola, deb o'ylovdim...

— Sen nomardga mardlik qilish xayf! — deb baqirdim. — Kechirim so'ra, nokas!

"Nokas" g'amgin bosh irg'adi. Keyin o'rnidan — qornimdan turdi-da, oyog'ini nariga o'tkazgan chog'da menga nima bo'ldi...

...bilmay qoldim: tura solib, temirni oldim-u... kampirning chiyillaganidan hushyor tortib ketdim.

Tarzan boshini egib turar, aftidan "kechiringlar" deyishdan ko'ra, temir tayoq zarbini afzal ko'rardi.

— Bo'pti, — dedi nihoyat.

— Nima, "bo'pti"? — dedim.

— Mayli, kechiringlar, — dedi-da ho'ngrab yuborib, kampirning yonidan o'tib ketdi.

"Qiziq, — deyman hozir. — O'sha paytlar "kechirim so'rash"ning og'irligi, u so'zdagi mas'uliyat shunchalar bo'lgan ekanmi? Yoki biz o'zimiz beixtiyor ravishda u so'zga shunday katta ma'no yuklagan ekanmizmi? Harqalay, o'sha vaqtda "kechirim" — sirli so'z bo'lib qolgan, yo'q eng og'ir qasam, tavba edi...".

Kampir ham hassasini do'qillatib ketdi.

XOTIMA

Kunlar o'taverdi. Biz Tarzanni deyarli ko'rmas edik.

Bedapoyada to'p o'yinimiz davom etar, o'rganish ekan— ba'zan ariq bo'yida gulxan yoqardik-da, gurung qilib o'tirardik.

Endi biz xotirjam, inoq, bir-birimizning ko'nglimizga qarashni odat qilgan ("kechirim-uzr", darhaqiqat, hamrohimiz), adolat hissi esa mezonimizga aylana boshlagan ediki, to'p o'yinimiz bu borada eng muhim sinov maydoni edi...

Ho'-o', o'tdi u kunlar! Qolib ketdi... Ammo, tan olish lozimki, o'shanda bizda paydo bo'lgan yaxshi sifatlar esa — qoldi bizga hamroh bo'lib, buni bilmoq uchun o'sha safdoshlarimning har bittasi bilan gaplashish, yo uni kuzatish kifoya qiladi. Illo, men ham o'shalarning birimanki, juda unaqa...

...nima desam ekan?

Darvoqe, Tarzan!

O'sha voqeadan keyin biron oylar o'tdimi-yo'qmi— eshitsak, sil degan kasalga yo'liqqan (ilgariyam belgilari bor ekan) ekan. Uylarida yotganda — uylariga, qishloq kasalxonasida yotganda — kasalxonaga ko'rgani bordik, ammo bizni qo'yishmadi.

O'limiga bir hafta qolganda (keyin bilsak), u shifoxona kiyimida qabriston osha kelib, jilg'aning bo'yiga o'tirdi. Biz chopib borarkanmiz, u qo'l qimirlatib: "Kelmanglar!" ma'nosini anglatdi.

Rahmat go'ppon: "Bechora, "kasalim yuqadi", deb qo'rqayapti", dedi. Biz tushundik.

O'sha kuni uni xursand etish uchun rosa o'ynadik! U mamnun jilmayib, gulxan yoqib o'tirdi. Nihoyat, qo'l silkitib xo'shlashdi-da, yana qabriston osha ketdi.

1996

NAVRO'Z, NAVRO'Z...

1

Sulton katta-katta odim otib borar, shundoq ham esib turgan salqin shabada uning ko'kragiga urilar, jonsiz, uzun, sanoqli sochlarini to'zg'itar (u onda-sonda barmoqlari bilan sochini silab qo'yardi), ko'zi oldinda — huv yo'l burilishida, yuragi ham qadamiga mos holda gurs-gurs tepar, yosh olim (yosh bobida — yosh, bo'lmasa ham filologiya fanlari doktori, professor— siyrati-yu sirtidagi holatini izchil sezib borar va bundan quvonar edi: ha, u eng oliy, eng odamiy niyatini amalga oshirish uchun borayotir, qutlug' ayyom arafasida (ertaga — navro'z!). U bu niyatni amalga oshirish uchun ilgari ham bir muncha xayollarga tolgan edi, biroq shu ishni amalga oshirsa — bachkanalik qilgandek tuyulgan, keyin bir xo'rsinib: "Baribir, ayb menda emas-ku!" deb qo'ya qolgan edi. Endi, navro'z arafasida...

U battar quvonib, og'zini katta ochib nafas oldi. Tepasidan uchib o'tgan qarg'alarga: "E, do'stlarim! He-e, uchaveringlar! Sizlarning go'shtingiz hech kimga kerakmas, — deb qo'ydi. — Qiziq, shahar ko'chalarida, xiyobonlarda hech kimdan qo'rqishmaydi-yu, dalada, tog'da bir kunlik joyda qorangni ko'rsa, qorasini o'chiradi..." Uning xayoli beixtiyor olis tog'lar bag'riga, qandaydir yong'oqzorlarga og'ayotganini fahmlab qolib, o'sha yong'oqzorda kechgan ko'ngilxiralikni eslamaslik uchun... boshini chayqab, yana oldinga — burilishga qaradi: endi uni boyagi shodon, toshqin kayfiyat tark etgan edi.

Sulton ancha bo'shashib qoldi. Biroq bunga sari o'jarligi tutib, qadamni yanada kattaroq bosa boshladi. Endi u lo'killab borardi. Bora-bora plashchining oldini yopdi, keyin tugmalarini o'tkazdi. Boshini silab qo'yib: "Shlapani kiysam bo'larkan, — deb o'yladi.— Juda shoshib chiqdim-da. Ishqilib, Joniqul aka dachasida bo'lsin...".

Burilishga yetganda, ro'parasidan pasayib-g'ing'illab kelayotgan oq "Volga"ni ko'rdi: dachadan chiqqan. Birorta — deputatning mashinasi-da. Yoki kommersantning... Sultonning deputatlar bilan ham, savdogarlar bilan ham ishi yo'q — mayli, biri yalab-yalab deputat bo'pti, biri intilib biznesmen bo'pti. O'zi — olim: folklorist... O'ziyam ko'p intilgan, lekin olimlik darajasini egallash uchun emas, xalq og'zaki ijodini to'plashga intilib, qayerlarga bormagan edi...

Sulton kamtarona tus olib, boshini egdi. Mashina yoniga yetib kelganda ham qaramadi. "Volga" to'xtagach, yalt etib boqdi-yu, deraza oynasini tushirayotgan Ertoyni ko'rdi: yurtdoshi, hamqishlog'i, inisi. Vazirlikda ishlaydi: o'sadigan yigit. O'ssin! Mana, yosh bo'lsayam deputat bo'ldi: aqlli, tadbirkor-da.

— Assalom alaykum, Ertoyjon! — dedi Sulton boshini egib va yo'lka chetidagi to'siqchadan hatlab o'tib, unga uzun, so'laqmonday qo'lini uzatdi. Ertoy uning dastpanjasini olib:

— Salom. Sovqotibsiz. Yo'l bo'lsin? — dedi. — Muncha g'izillab ketayapsiz?

— Dachaga. Joniqul akaning dachasiga... Bormikan? Ko'zingiz tushmadimi?

Ertoy azbaroyi og'asining hurmati — eshikni ochdi: chiqmoqchi... Sulton chiyillab yubordi:

— Yo'-yo'q-yo'q! Bemalol o'tiring. — Eshikni ohista yopdi-yu, pushaymon yedi: niyatini bungayam aytsa bo'lardi. Axir, bu aqlli yigit...

Ertoy unga qarshilik qilmay qoshini chimirdi. Odatdagicha, nozik chehrasi iztirobni aks ettirib.

— Ko'rmadim-ov, — dedi. — Biz... — Keyin birdaniga sho'xgina kulimsiradi. — Munday... yarashib oldinglarmi? Nazarimda... A? — Ertoy kulib yubordi.— Alomat odamsizlar. U kishiyam, siz ham. — So'ng bir soniya jimib, qo'shimcha qildi: — Ba'zan ko'rib qolaman. Bechora hayron bo'ladi: "Men Sultonjonga hech bir yomonlik qilgan bo'lmasam... Doktorligini yoqlaganda birinchi bo'lib ovoz berdim. Maqtadim. Hayronman!" deydi.

Sulton ham kulimsiragancha unga tikilib turarkan:

— Yo'q, ayb o'zida, — dedi. — Sezmaydi-da... Yo'q, o'ylamaydi u ablah. — Birdan tilini tiydi: "ablah" dedi. Axir, maqsadi...

— Ishqilib, boshqa urishmanglar, — dedi Ertoy kattalarga xos salmoq bilan.

— Boshqa... Mutlaqo! — deb yubordi Sulton va azbaroyi yuragi yana qattiq tepib ketganidan ichidagi gapi vujudini yorib yuboradigandek bo'ldi-yu: — E, ukajon, bir minutga chiqing, — dedi. — Kechirasiz.— U haydovchiga ham mo'ralab: — Uzr, uzr, — deb qo'ydi. Haydovchi xayrixohona tabassum qilib, mashinani sal chetga ola boshladi.

Sulton Ertoyni bilagidan ushlagancha yo'lkaga o'tkazdi. Kuzgi bug'doy tizza baravari bo'lib qolgan dalaga qaramayoq undan-da ilhom olib:

— Ertoyjon, — deb shivirlади boshini egib. — Men... men yaxshi odam bo'lmoqchiman.

— Nima?! — Ertoyning qoshlari chimirilib ketdi. Beixtiyor bo'ynini cho'zib, uni hidlagan bo'ldi.

— Ichmaganman. Mutlaqo, — dedi Sulton endi jiddiy tus olib. — Umuman, ichkilikniyam tashlayman... Tashladim hisob! Endi, sizdan ham bir kechirim...

— Xo'sh, bir nima "bo'laman" deganday bo'ldingiz? — yana beozor, sho'xgina kulimsiradi Ertoy.

— Men... men seryozni gapiryapman, — dedi Sulton hatto qovog'ini sola boshlab. — Men... ko'p o'qidim, Ertoyjon. So'fiylarning ta'limotini ham. Komil inson haqidagi yo'rig'larini... — Yuragi tepa boshladi. — O, ana ular — odamlar! Ular — inson! Biz nima?.. Kechirasiz, men o'zimni aytayapman.

— Xo'sh, demak, — deya Ertoy tabassumini jiddiyat bilan yashirib, bilagidagi soatiga qarab oldi. — Demak, komil inson bo'lmoqchisiz? To'g'ri tushundimmi?

— Ha, — dedi Sulton teran bir ovozda. Va duduqlanib qoldi. — Komil emas-u, mundayroq...

— Yaxshi, yaxshi, — dedi Ertoy.

— Yo'q, siz kulmang-da, uka.

— Sulton aka... — Ertoy meni ranjitmang deganday boshini orqaga soldi. — Nahotki sizdan kulsam... Biz axir, aka-ukalar-

miz... Him, — birdan so'rab qoldi: — Aytmoqchi, yangam yaxshimi? Jiyanlarim yuriptimi? Ish bilan bo'lib... — Sultonning hamon chimirilib turgani, "chalg'ityapsiz-a?" degan ifoda yuzida borligini ko'rib, Ertoyning hafsalasi pir bo'ldi, — Sulton aka, — dedi ovozi o'zgarib. — Men sizni tushunaman... Siz aslida oliyjanob odamsiz. Bu kampliment emas... Hamma biladi buni. Joniqul aka bilmasa...

— Qo'ying o'shani! — Sulton shunday deb yubordi-yu, yana uyalib, qiynalib, tilini tiydi. — Uzr, uzr... Men o'zim... o'zimga hayron bo'laman, uka... U yog'ini so'rasangiz, men o'sha odamdan shaxsan...

— Nima?

— Yomonlik...

— Ko'rganingiz yo'q! Bo'ldi-da... — Ertoy mashinaga qarab oldi. — Adabiy merosga munosabat esa...

— ...hali shakllanmagan. Ukajon, yo'ldan qolmang.— U deputatning bilagidan ushlab, itargudek bo'lib, yo'lka to'sig'idan o'tkazdi. Ertoy ochiq eshikka qo'li tekkanda, yana qat'iy to'xtadi.

— Lekin men sizning...

— Keyin gaplashamiz... Ke-yi-in, — dedi Sulton va uning bilagini bo'shatib, qo'lini ko'tardi. — Oq yo'l! Kelinimni so'rab qo'ying. Jiyanlarni o'ping.

— Ajoyib odamsiz-da, aka, — Ertoy ichkariga kirib o'tirdi. Sulton eshikni ohista yopdi.

— Xayr. Ishlab charchamang, Ertoyjon.

— Men oqshom telefon qilaman. Uyda bo'lasizmi?

— Bo'lmasa go'rda bo'larmidim.

Ertoy undan yana nimanidir — aftidan, nimaga borayotganini so'ramoqchi bo'ldi-yu, Sultonning jila boshlaganini ko'rib, oldinga boqdi: shofyoriga "haydang" degani. Ammo shu onning o'zida haydovchining bilagini chap qo'lida ushlab, o'ngi bilan ro'parasidagi bardachok ustiga tarsillatib urdi. Qah-qah otib kulganicha, boshini oynadan chiqardi.

— Hoy, Navro'z muborak!

Hali qadam otishga ulgurmagan Sulton ham taqqa to'xtab, xoxolab yubordi.

— O'zlarigayam! — dedi unga burilib. Keyingi gaplar beixtiyor og'zidan chiqib keta boshladi. — Voy-y, muni qarang-a, ukaboy... Navro'z! Axir, axir...

Ertoy namoyishkorona xo'rsinib yubordi.

— O'rganmaganmiz-da, aka! Esimizdan chiqarishgan... E, muni qarang. Shu masalada, axir, shoshib ketayotibman o'zim... — Birdan so'radi Sultondan: — Sizlar qayerda nishonlaysizlar? Institutdami yoki bu yerda? Bor kattalaring shu yerda...

— Uni, uni... bilmayman, Ertoyjon, — dedi Sulton. — So'raganim yo'q... Nimadir gaplar bo'layotuvdi. Lekin nishonlaymiz, albatta! E, busiz mumkinmi? — Keyin do'ng peshonasiga shap etkazib shapati tushirdi. — Qovoq kalla...

— Yana nima bo'ldi?

— Hov, sizgayam navro'z muborak bo'lsin! — deb tirjaydi Sulton shofyorga. U boshini egib, ko'ksiga qo'lini qo'ydi. Ertoy Sultonga mehr bilan tikildi-da, ko'zini qisgan bo'ldi. Sulton unga ta'zim qildi. Mashina jildi.

2

Sulton xursand, endi bemalol qadam tashlab borar, goh o'zicha kulimsirab boshini chayqatar, keyin tirjaygancha so'l tomonga — yam-yashil bug'doyzorga, keyin o'ng tomonga — qiyg'os gullagan shoxlari beton devor uzra oshib tushgan olchalarga qarab qo'yar, tepadan tag'in qarg'alarningmi, boshqa qushlarningmi uchib o'tishayotganini payqar, tag'in ko'ksi ko'tarilib-ko'tarilib nafas olar edi.

Yoniga surilib odamga yo'l beradigan yaxlit tunuka eshik qiya ochiq ekan: demak, Ertoy chiqqanidan keyin yopilgan-u, odam kirgulik joy qoldirilgan. E, bira-to'la ochib qo'ysa bo'lmaydimi! Axir, moshinalilar chiqadigan vaqt hozir. Asqar aka (dachalarning qorovuli, bu yerda qishin-yozin istiqomat qiladiganlar unga maosh tayinlashgan: xalfanaga pul yig'ganday — yig'ib berishadi) ehtiyotkor-da bechora. Joniqul aka shungayam azob bersa kerak-ov: "Nimaga kechasi eshik ochiq qolgan edi? Hozir odamlarga ishonib bo'ladimi?.."

Sulton ochiq joydan yakka kift bo'lib o'tdi-yu, chap qo'ldagi hujra eshigiga qarab:

— Asqar ako-o! — deb chaqirdi sho'xchan ovozda. — Navro'z muborak bo'lsi-in!

Hamisha soqoli o'siq yuradigan, dardchil qorovul ichkaridan tez yurib chiqdi.

— E, Sulton aka... Ko'rinmay ketdingiz? O'zingizgayam navro'z muborak bo'lsin! — Har ikkala qo'lini uzatib ko'rishdi. — Ko'nglimdan o'tgan edi: hayitda ko'rishamiz deb...

— E, sadag'asi ketay navro'zdi! — deb yubordi Sulton. — Odamlarning bir-biri bilan diydor ko'rishishigayam bahona bo'ladi... Ha, qalay? Bog' tinchmi? Uchyoniylardan kimlar yashayapti dachasida? Aytmoqchi, Obid Odiljonovich uyidami?

— Ha, xo'jayin uyda, — dedi Asqar aka. — Kecha bir-ikkita mehmonlari bilan keluvdilar. "Mehmonxonani tuzatib qo'yganmiz", dedim. Yo'q, uylariga olib ketdilar.

— A-a, navro'zga kelishgandir-da ular?

— Shu-da. Bugun yana kelishsa kerak, — horg'in davom etdi qorovul. — Ertaga ziyofat bermoqchilar. Qo'y opkelishdi... Siz ham bo'larsiz, Sulton aka?

— Albatta, — dedi Sulton. Ilgari har xil ziyofat, ichkilik ichiladigan o'tirishlardan o'zini olib qochardi: ichib qo'ysa, keyin — bir-ikki kun qiynalib yuradi-da. Buning ustiga, aroq unga tez ta'sir qiladi, shunda o'zini... Sulton yana takrorladi: — Albatta kelaman, Asqar aka. Miriqib gurung qilamiz... Ichkilik bo'lmas-a?

— O'-o', yo'-o'q, — dedi qorovul. — Machitdan domlalar ham kelarmish. Gapirishayotuvdi... Shu atapleniya masalasi chatoq bo'lyapti-da. Issiq suv kelmay qo'yadi. Tok uzildimi — tamom. Simlar zanglab ketganmi, kim bilsin.

Sulton bu gaplarni diqqat bilan tinglagan esa-da, qulog'ining yonidan o'tkazib yubordi.

— Joniqul aka shu yerdami?

Qorovul birdan qo'lini cho'zib, ushbu yo'l ellik qadamlardan keyin yonidan o'tib ketadigan oppoqqina imoratni ko'rsatdi: institut direktori Obid Odiljonovichning (ya'ni, Sultonning dorilfununda birga o'qigan do'sti, hazilkash, samimiy kishi — Obidjonning)

tashabbusi bilan qurilgan mehmonxona, ayni chog'da kichik to'y, ziyofatlar o'tadigan choyxona vazifasini o'taydigan joy u.

— Ho-ozir kirdilar. Telefonda gaplashmoqchiykanlar. Bu yerdagi apparat buzilgan edi.

— Eh! — Sultonning ko'zi ochilib ketganday bo'ldi: omadni qarang! Bo'rini yo'qlasang, qulog'i ko'rinadi, deganlari shu-da... "Yo'q, bunday ulug' ayyom arafasida ishing o'ngidan kelishi tabiiy, — deb ko'nglidan kechirdi. — Yo'llarning ham tanobi tortilib qolar, ha... Ana, ko'chaga chiqishim bilan avtobus bo'ldi. Yomg'ir ham tindi. Kecha esa... — Bo'pti. Sizga rahmat, Asqar aka. O'sha kishiga aytadigan ikki og'iz gapim bor edi.

— Bemalol, bemalol. Hali chiqqanlari yo'q.

Sulton shitob bilan odim otdi-yu: "Ey, bu odamdan ham bir kechirim so'rab qo'ysam bo'lardi, — deb o'yladi. — Lekin oramizda hech gap o'tmagan. Mayli, qaytishda yaxshilab xayrlashaman".

U ildamlab-lo'killab, suv sepganday namchil asfaltda bora-bora mehmonxonaga burildi. Bir on to'xtab quloq tutdi: ovoz eshitilmadi. Keyin boshini egib, ishonch bilan yurib, zinalardan ko'tarildi. Ichkariga kirdi-yu, shundoq ro'parasidagi ochiq eshik ichkarisida, baland deraza pastida — stolga tirsaklarini tirab, naq o'ziga tikilib turgan kichkina odamni ko'rdi: derazadan tushayotgan nurda uning basharasi aniq ko'rinmas, biroq mushtdekkina odamligidan Joniqul aka ekaniga shubha yo'q edi.

Sulton shu yerdan bosh egib, salom berishni o'yladi-yu, nazdida, u ham o'zini aniq ko'rmayotgandek bo'ldi. Shaxt va shijoat bilan yurib, eshikka yetdi.

— Assalom alaykum, Joniqul aka! — dedi. U sergaklanib, nimadir deb po'ng'illadi. Sulton bemalol borib, egilib, qo'l uzatdi. U kishi ham kalta barmoqli kaltagina qo'lini cho'zdi. Sulton uni kaftiga olib (do'mboq, yumshoq va kichkina ekanini endi sezdi go'yo), bir silkitdi. Joniqul aka unga qalin, armaninikiga o'xshash qoshlari ostidan hurkak-ehtiyotkorlik bilan qarab turardi; qo'lini tezgina tortib, endi qomatini tiklagan novcha yigitga pastdan boqib so'radi:

— Telefon kerakmi?

— Yo'q, bemalol, — dedi Sulton. — Men...

Joniqul Jondor gaplashishi zarurligini eslagandek dastakni ko'tardi. Stoldagi ko'zoynakni taqib, raqam tera boshladi. Sulton chiqib turishni ma'qul bilib, tislandi. Xiyol burildi. Shu ko'yi bir qadam bosganida, Joniqul akaning o'ziga bag'oyat tanish, ayni chog'da ko'plab marta yuragini siqqan palag'da-injiq ovozini eshitdi.

— A, elektrikmisiz, uka? Sizdan so'rayapman, — dedi u. — Uka, siz quloq soling: siz bilan... him, filologiya fanlari doktori, chlen korrespondent Joniqul Jondorov gaplashyapti! — "O'h, — deb yubordi Sulton ichida. — Shu yerdayam... elektrikkayam-a? Unga sening chlenliging nimaga kerak? Hozir — bir pul. E-e, sadqayi...". Sulton eshikdan chiqdi-yu, o'ylagan o'yi o'ziga kor qilib ketdi: nima, aytsa aytar... Shungayam g'ashlanish kerakmi? — Nima? — ichkaridan chlen korrespondentning chiyillagani eshitildi: — Axir, pulini vaqtida to'lab tursak... Bu nima? Izdevatsya qilasizlarmi? O'zingiz yosh yigit bo'lsangiz kerak... — Sulton quloqlarini bekitgudek bo'lib, zaldagi ustun orqasiga o'tdi. Olimning ovozi bu yergayam yetib keldi: — Batareyalar muzlab yotipti. Qishning zahri ketgani yo'q. Hozir shamollash...

"O', pishiq-puxta odam, — deb o'yladi Sulton, — qishning zahri ketmaganiniyam biladi bu. Hozir shamollash... Shunda uning havoda sal namlik sezildimi— institutga qavat-qavat kiyinib, boshiga sariq itning terisidan tikilganday paxmoq telpagini bostirib, bo'yniga sharfni aylantirib o'rab borishini esladi: ha-ha, hamma vaqt shunday: "Chelovek v futlyare". Kim aytgan edi bu gapni?.. Sulton silkinib kuldi: Obidjon aytgan edi. Yelkasi silkinib kula-kula: "Joniqul akani ko'rsam, nima uchundir Chexovnnig "G'ilof bandasi"ni eslayman, do'stim", degan edi quvlik bilan. Topib aytgandi... Hozir qanaqa kiyimdaydi? Egnida nima bor edi? Kastum shekilli... Boshida telpagi. Him, uyidan shoshilib chiqqan bo'lsa kerak...".

Ichkarida ovoz o'chdi. Sulton ustun yonidan mo'ralab qarab, Joniqul akaning o'rnidan turgani, deraza pardasini surib, bog' tomonga qarayotganini ko'rdi. Yana ildamlab kirib bordi. Chlen korrespondent ilkis o'girildi. Sultonga sovuq-sergak tikildi-da:

— Marhamat!.. Yo menda gapingiz bormi? — dedi.

— Ha, Joniqul aka. Gapim bor, — dedi Sulton sipolik va har qanday mushtga yelkasini tutib berishga tayyor bir tobelik bilan. — Marhamat qilib bir minut o'tirsangiz.

— Yo'q. Gapiravering, — dedi u tezgina va plashini (bu havorang yomg'irpo'shi stolning eshikchasi ustida ekan) olib, bilagiga soldi. Sulton shoshib qoldi: axir, u ne maqsadda yigirma kilometr joydan keldi-yu, bu odamning bir minut tinglashga toqati yo'q.

— Joniqul aka, mening sizga aytadigan muhim gapim bor, — dedi Sulton.

— Gapiring, eshitaman dedim-ku? — birdan bo'g'ilib dedi u.

— Xo'p. Bo'lmasam...

Joniqul Jondor stolning yoniga chiqdi.

— Ey, bir minut sabr qiling! — Sultonning og'zidan chiqib ketdi. — Kechirasiz, men atayin... — Birdan yuzi yorishdi. — Avvalam bor, Navro'z muborak bo'lsin, Joniqul aka!

Joniqul akaning ko'zlari qisinqiradi — go'yoki qoshlari tagiga yashirindi. Sultonning nazarida, uning ham chehrasi yorishib ketishi lozim edi. Yo'q — chehrasida istehzoli kulgi paydo bo'ldi, xolos.

— E, shundaymi? — dedi.

Sultonning yuragi siqilib ketdi.

— Ha-da... — Uh tortib, boshini egdi. — Gap shundaki, Joniqul aka, men sizdan...

3

Joniqul akaning tumshug'i sal ko'tarildi. Sultonning esa boshi shuncha egildi.

— ...men sizdan kechirim so'ragani keldim, — shunday deboq, unga qarasa — aynib qoladigandek shoshilib, hatto ovozi ham o'zgarib — qaltirab ayta boshladi: — Men sizning dilingizni xiyla... marta og'ritganman, aka. To'g'ri, buning sabablari bor edi... Ammo men tezoblik qilmasligim kerak ekan. Payqab qoldim: tushundim... Shuning uchun, mana, — uning nigohiga ichdan bir nur yugurdi yana, — mana ertaga — navro'zi olam! Ertaga — g'animlar ham bir-biri bilan yarash-yarash bo'ladigan

kun! Ertaga ayblar, gunohlar unutiladi... Qadimdan shunday. — Tek tikrayib turgan chlen korrespondentga qaradi. — Buni o'zingiz mendan yaxshiroq bilasiz! — Uning miq etmay turganini ko'rib, gapi yetmaganday — tomdan tarasha tushganday qilib aytganini tuydi. Qaytadan boshladi: — Men siz og'amizning... Siz menga ko'p yordam bergansiz. Masalan, doktorligimni yoqlashda qo'llagansiz, ovoz bergansiz. Men bu yaxshiligingizni unutmayman, albatta... — Joniqul Jondorning tomog'idan "him" degan g'uldirash chiqdi. — Rost, rost, — deb battar shoshilib davom etdi Sulton. — Yoshingiz ulug'. Juda-a, jafokash olimsiz. Xalqimizning ma'naviy boyliklarini izlab topish uchun qanchalar mashaqqat chekkaningizga men o'zim guvohman, domla... — "Mayli, "domla" deyveray. Ba'zan shunday derdim-ku?" Shu o'y xayolidan o'tishi zamon go'yoki uning o'rnini bahaybat yovvoyi yong'oqzor egalladi, yigit xo'rsinib yubordi. — Ko'p qiynalganlaringizni ko'rganman, aka...

Joniqul aka tomoq qirdi. Sulton uning hirqirashidanoq mutlaqo nopisandlik bilan gapirishini uqdi.

— Bu gapni kim o'rgatdi sizga? — dedi u.

— O'rgatdi?.. Qaysi gapni? — Sulton u kishiga boqdi. Ammo yuzidan biron narsani anglab ololmadi.

— Kechirim so'rashni-da, uzr so'rashni, — dedi u boshini biroz orqaga solib.

— A-a, bu... — Sulton yana shoshib qoldi. — Menga birov... Nega endi. Axir, bu niyat... qalbimda paydo bo'ldi. Ishonasizmi, ko'nglimda! — Keyin uning basharasiga qaramaslikka qasd qildi: qarasa — chalg'ib ketadi, buning ustiga, bir nimani uqolmaydi. Uqqani— hamishagi ifodasi uning: xavfsirash va gumon... Sulton beixtiyor yon tomoniga uzum rasmli qog'oz yopishtirilgan devorga qaradi. — Men bu haqda o'ylashga majbur bo'lib qoldim, Joniqul aka. Islom Shayxning "So'fizm" kitobini o'qiyotgan edim. Bangladeshlik so'fiyning... Menga juda kuchli ta'sir qildi...

— Shoshmang, mendan uzr so'ragani keldingizmi?

Sulton unga yalt etib yuz burdi.

— Ha. Meni kechiring, jon aka. Ikkinchi marta unday... gaplarni aytmayman. Sizga qarshi chiqmayman!

— Tavba, — dedi chlen korrespondent. — Qilg'ilikni qilib qo'yib, keyin uzr so'raydi-ya odamlar. Xuddi mastlarning gapi bu! — Joniqul aka baayni hujumga o'tdi: — Siz tog'dayam ichmagan edingiz. Bir gramm ham...

— Ha, endi, noilojlik, yoshlik... — deb g'o'ldiradi Sulton va domlaning juda balandlab ketayotganini dilida qayd etib, o'ziga chidashni uqtirdi.

— Yo'q, siz yosh emassiz, — dedi Joniqul Jondor pinak buzmay. — Qirq yoshga to'ldingiz, menimcha.

— Xo'p, nima bo'pti, — deb yubordi Sulton. — Oltmishga kirgan odam ham xato qilishi mumkin.

— Sizniki xato emas!

— Bir hisobda...

— Ongli harakat!.. Ilmiy ishga rahbar bo'lsam ham, hatto opponent bo'lsam ham, menga hujum qilasiz. "Merosga hurmatsizlik. Baxshilar bangi bo'lmagan...". Hayronman! Ularning g'irt savodsizligini o'zingizam yaxshi bilasiz-ku! Sizniyam maqtatish mumkin: egniga bir chopon yopilsa... Yo'q, siz, umuman, aynib qoldingiz tog' safaridan so'ng.

— Yong'oqzor, — deb pichirladi Sulton.

— Ha.

— Tavba, — Sulton bosh chayqab jilmaydi: domladan uzr so'rash uchun kelgani yodidan chiqdi. — O'shanda o'zingizdanam o'tdi-da, Joniqul aka, — dedi tabassum bilan. — Juda qaysarlik qilib turib oldingiz, vassalom. Axir, men ham issiq jonman...

Joniqul Jondor unga bir on angrayib qoldi-da:

— Siz tuzalmaydigan odamsiz, — deya chetga bir qadam bosdi. Sulton darhol u kishining yo'lini to'sdi.

— Yo'q, domlajon, munday ajrim qilib olaylik.

— Tinch qo'ying meni! Boshimni qotirmang, — deb bo'sh qo'lini (boshqa qo'lida plash) silkitdi. — Vaqtim yo'q... Darslikka bob yozayapman deb uyda o'tirib olganim yo'q... O'shangayam qo'shib yozing: "Joniqul Jondor — konservativ. Baxshilarni yomonlash orqali pozitsiyasini...". Ajab, meni "qaysar" deydi bu yigit. O'zi boltadan toymaydi...

— Domla-domla, qizishmang, — Sulton u kishiga mute ekanini anglatish uchun yelkasini qiyshaytirdi.— Bir minut... Axir, men shuning uchun keldim! — deb baqirib yuborayozdi. So'ng yana mung'aydi. — Joniqul aka, meni shaxtimdan qaytarmang. Xudo uriblar kunpayakun qilsinki, men...

— Nima, uzringizni qabul qildirib, ko'nglimni olmoqchimisiz? Yaqinda attestatsiya, keyin saylov...

Sulton uning og'ziga urib yuborishiga oz qoldi: saylov, attestatsiya...

— Hoy, siz ovoz bermasangiz ham, doktor bo'lardim. Bilasiz-ku!

— Ana, yana o'z bilganidan qolmaydi. Hoy, — deya bo'sh qo'lining ko'rsatkich barmog'i bilan Sultonning ko'kragini ko'rsatdi, — sizning odobsiz, betga choparligingizni hamma biladi. Sirtda yaxshisiz: muloyim xunuk...

— Yo, Xudo!

— Ha, — sira bo'sh kelmasdi Joniqul Jondor. — Agar Obid Odiljonovich bo'lmaganlarida...

— Hay-hay! U odamni oraga qo'shmang, — dedi Sulton. — Biz birga o'qiganmiz, do'stmiz. Ammo... "— Buning ichi kir, fitna, — deb ko'nglidan kechirdi Sulton. — Tavba, tavba!" — Agar, agar shu gapni yana bir marta eshitsam, Obidjonga ro'para qilaman sizni, — dedi birdan ho'rpayib. — Ana o'shanda kim haq —kim nohaqligi ma'lum bo'ladi. Men ishonaman: siz o'sal bo'lasiz.

Chlen korrespondent miyig'ida kulimsiradi.

— Ha, endi siz kelishsangiz...

— Bo'ldi, — dodlab yuborayozdi Sulton. — Gap bunda emas... Buni unutaylik. Unuting, aka. Jon domlajon. Umuman, ularni aralashtirmaslik kerak.

Domlaga bu taklif ma'qul tushdi.

— Xo'p, mayli, — dedi odamga o'xshab. — Nima qildik endi?.. Siz o'sha ekspeditsiyadagi qilig'ingizni to'g'ri deb bilasizmi...

— E, domlajon, qiziq odamsiz-a, — deb beozorgina kuldi Sulton. — Albatta. Xo'sh, axir, o'zingiz ko'rdingiz-ku: men adash-

dim. "Nimaga adashasiz?" deb turib oldingiz. Axir, shu — gapmi? Kishi adashishini bilsa, adashadimi?

— Siz qaysarlik qildingiz, — dedi domla tap tortmay. — O'rtog'ingiz Naimjon: "Qirdan ketaylik", dedi. Siz: "Yo'q, o'rmonni oralab o'tamiz!" deb turib oldingiz.

— Agar o'tolganimizda ikki soat yutgan bo'lardik... Kim bilipti endi, yo'lni suv olib ketganini...

— Siz bir gapdan qolib, Naimjonning gapiga ko'nishingiz kerak edi.

Sulton o'sha... yarim tungi, yong'oqzordan chiqqan yerdagi qashqa yo'ng'ichqalar belga uradigan joyda... bir-birlariga qarab turgan chog'lari ko'z oldiga kelib, xuddi o'shandagi gap-so'zlar takrorlanayotganini anglab qoldi: "Nima qilish kerak? Bu fitna hamon o'sha fikrida: o'zicha haq. O'shanda qo'l chirog'imizning nurini tepadan ko'rib, bizni arnadan qirga olib chiqadigan yo'lovchi yo'q hozir...".

— Joniqul aka, — dedi birdan Sulton jilmayib. — O'sha voqeani ham unutsak-chi? U qolib ke-etdi... O'tgan ishga salovot deydilar. Ertaga yaxshi kun...

— E, e, siz o'zingiz qiziqsiz, — dedi Joniqul Jondor. — O'zingiz ajrim qilib olaylik deysiz-u...

— Axir siz murosaga kelmayapsiz-ku?

— Vey, tavba-a... Meni, meni otmoqchi bo'lganingiz ham yolg'onmi, o'sha yerda?

Sulton dong qotdi: ha, rost. O'shanda Sulton u dedi— domla bu dedi. "Domlajon, adashibmiz", — dedi Sulton yong'oqzor ichidan chiqqach, so'qmoqda... (so'qmoqqa yong'oq barglari ko'rpa bo'lib to'kilgan, ancha vaqtlardan, balki ko'p yillardan beri bu yolg'izoyoq yo'ldan odam yurmaganga o'xshab turardi: ammo tun edi, kuz ediki, Sulton "xazonrezgi mahali"da, deya oldinga tikilgancha fonar yorug'ida eshakni haydab borardi). So'qmoqdan chiqsalar, u yoqda — ro'parada sebarga o'sib yotibdi, odamning beli baravari bo'lib: so'qmoq yo'q, to'g'rirog'i, so'qmoqdan ham yo'ng'ichqa o'sib ketgan; demak, yo'l yo'q... Shunday esa-da, Sulton miltiqni o'qtalib, bedazorga oraladi. Suv toshgan ekan. Bir amallab yurib, tog'olcha butalari qoshiga yetdi-yu, oldinni yoritib

berayotgan fonar nuri... qaygadir tushib ketdi: oppoq ko'piklanib oqayotgan — qaynab-toshib chap tarafga o'tib ketayotgan suvni yoritdi. Suv ancha pastda: butazor ortini — sayxonlikning davomini mutlaqo yuvib-o'pirib olib ketgan edi. Tog'olchalarning sarg'ish tomirlari yuvilgan betdan osilib suvga tegib turar— qandaydir skeletga o'xshar va shu skelet so'ngaklari tepadagi olchalarni ko'tarib turgandek tuyulardi... Sulton so'qmoqning davomini o'ng tomondagi qirning bag'rida ko'rdi: oqqina poyondozdek bo'lib tepaga o'ralgan edi. Ana shundan o'rlab chiqsalar, qirlarning oxiridagi tepalikka chiqishar, undan naridagi qishloqqacha, ya'ni, Sultonning otasiga eskidan oshna bo'ladigan baxshi yashaydigan qishloqqa yarim soatda yetib borardilar. Endi.. Joniqul Jondorning so'qmoqda, ko'zlari o'qrayib qolganini ko'rgan Sulton: — Ha, adashibmiz, Joniqul aka, — deb qaytardi gapini. — Ana, yo'lni suv olib ketipti! — Shunda chap tarafdan yong'oqzor adog'idan oqib o'tayotgan daryochaning shovqini bor shiddati bilan eshitila boshladi. — Shuning uchun endi...— Nima endi, nima endi? — deb yubordi Joniqul aka jazavasi tutib. — Nima bo'lardi, orqaga qaytish kerak, — yana beozorgina kulimsirab dedi Sulton. — Or-qa-ga?! — Joniqul Jondorning dodlab yuborishiga oz qoldi. — Domlajon, domlajon... — Nima, domlajon? — chinqirdi, ha, dabdurustdan chinqirdi domla: insof bilan aytish — ha, iqror bo'lish kerakki, Joniqul Jondorning shu yergacha yetib kelishi ham ko'p qiyin bo'lgandi. Sulton oldinda, yo'lini to'sgan yong'oq shoxlarini qayirib (o'tgan yillar davomida yong'oq shoxlari pastlab ham o'sib ketgan ekan: birov kesmagandan keyin o'sadi-da): "Ehtiyot bo'ling, Joniqul aka", deb o'tar, Joniqul aka g'ingshib, bu yerlardan odam o'tmaganini taxminlar va yo'l chetlarida miltillagan (fonar o'chganda) yulduzqurtlar ham uni cho'chitar, so'ngra Naimjon, bu o'rmonlarda ayiqlar ham bo'ladi, degan ediki, shu gap Joniqul akaning tilidan tushmas, keyin esa yong'oqlarning karbonad angidrid gazini chiqarishi, shuning-chun nafasi qisilayotganini har qadamda aytar, xullas, bu sebargazorga chiqib kelgunicha ham bo'lganicha bo'lgan edi... — Domlajon emish! Xo'sh, qayerga qaytamiz? — Domla duduqlanib qoldi: — Orqaga qaytib, demak, yana qirdan yurib... Shunaqami? — Shunday, —

dedi Sulton hamon tabassumini buzmay (ammo lablari dir-dir titrardi). — Vay-vay, — deya eshakdan og'ib yiqilishiga oz qoldi domlaning. — O'rmonga kirganimizda, soat sakkiz edi. Mana, bir bo'lyapti... Yana uch soat, yo'q... vey, besh soat yuramizmi? — Iloj qancha? — dedi Sulton. — Xohlasangiz, shu yerda yotamiz, gulxan qilib... — Gulxaningiz boshingizdan qolsin, — qariyb yig'-lavordi domla. — Bir tupkaning tubida... Havosiz joyda... Ayiqlar ichida... — Ayiq nima qiladi, domlajon, yozning kunida, — dedi Sulton. — Yo'q, yo'q, yo'q! — Joniqul Jondor deyarli aynib qoldi. — Yo'lni toping! Toping hozir...". Shundan keyin u shunday gaplarni gapira boshladiki, Sultonning o'shanda toqati qolmagan bo'lsa, endi eslashga quvvati yetmadi. Ammo u gaplar aytilgan edi: masalan, siz atay shu yo'lga boshladingiz. Meni yomon ko'rasiz: menga rashk, hasad qilasiz... Mana, doktor bo'lib oldingiz, endi bo'limga intilyapsiz. Meni ko'rarga... va hokazolar. Ana shunda Sulton turgan yerida: "Voy-voy, Naimjon, nega tirik yuribman? Bu gaplarni qara...— degach, Joniqul akaga yig'lab yolvora boshladi: — Akajon, mening ko'nglim to'g'ri. Ishimizga yaxshi bo'ladi, deb ekspeditsiyani... —E, onasini shunday ekspeditsiyani... Men chidolmayman!— Keyin birdan domlaning qarshisida tiz cho'kdi.— Meni o'ldirmang, ya'ni, o'lganning ustiga chiqib tepmang... O'zim bilyapman ichimdan o'tganini! Ey Xudo! Nahotki men jo'rttaga adashtirgan bo'lsam?... O'zimgayam ziyon-ku? Men ham charchadim-ku? Buning ustiga, asablandim... Siz uchun ham azob chekdim. Chekyapman hozir...". Joniqul aka eshakdan beixtiyor tushgan, ammo bo'ynidan ushlab turardi, birdan chekindi; "Turing, lo'lilik qilmang! Men tushunmayman, yo'q, ishonmayman sizga!" Ana shunda Sulton sekin, miltiq qo'ndog'iga tiralib o'rnidan turgan, uni ochib o'qdonni ko'rgan, keyin bitta patron joylab miltiqni tiklagan, keyin turgan yerida bir aylanib, tepaga o'q bo'shatgan edi: guv-guvv! Keyin tepadan qizarib tushayotgan tiqinni tomosha qilib, qah-qah otib kulgan. Shundan so'ngra miltiqni... lol qotib turgan Joniqul Jondorga to'g'rilay boshlaganda, tepadan — hyeey yuqoridan bir shovqin eshitilgan, Naim titrab-qaqshab baqirib yuborgan ko'yi fonar yorug'ini u yoqqa qaratgan edi...

— ...A, yolg'onmi otmoqchi bo'lganingiz? — takror so'radi Joniqul Jondor.

— Domlajon.

— Ha! Ha!

— Axir, jahl kelganda aql qochar ekan-da...

— Sizda o'zi aql yo'q.

— Menga qarang, domla, — Sulton uning jilmoqchi ekanini ko'rib, jilishi mumkin bo'lgan tomonni to'sdi. — Menga qarang... Gapning po'st kallasi shu: kechirasizmi, yo'qmi?

Joniqul Jondor jim qoldi. Keyin:

— Nimani? — dedi parishonxotirlik bilan. So'ng miyig'ida achchiqqina kulib, boshini sarak-sarak qildi. — Odamda yuz bo'lmagandan keyin shu ekan-da.

— Vey, menda yuz bor. Menda vijdon ham bor, — dedi Sulton. — Ana shuning uchun sizday... Tavba qildim. — Keyin yana qiynalib (ammo), yalinishga tushdi:— Meni shu gal afu eting... Keyin, mayli, bir umr gaplashmay ketamiz: siz uchun men yo'qman. Men uchun — siz yo'qsiz...

Chlen korreepondent bo'sh qo'li bilan yoqasini ushladi.

— Men shuncha yoshga kirib, odam ko'rib...

— Ha, mendaqasini ko'rmagansiz.

— O'ting! Yo'limni to'smang! — baqirib yubordi Joniqul Jondor. — E, jo'jaxo'roz...

— Shundaymi, domla? — Sulton birdaniga bo'shashib qoldi; undagi butun shiddat, shaxt, alam endi tog'dan tushayotganda sharqirab toshdan-toshga urilib, nihoyat sayxonlikda sokin oqayotgan irmoqning holatiga tushdi; ammo o'sha kuch-qudrat suvosti oqimiga aylangan edi.

— Ha, — deb yubordi domla. — Kecha ichib chiqqanmisiz, nima balo... Yo bir joydan tekkanmi...

— Tekkan, — dedi Sulton. — So'fiylardan tekkan...

— E, sadqayi so'fi...

Sulton xorg'in jilmaydi.

— Shu og'zingizga urib, o'ttiz ikkita tishingizni tushirsammi, a? — dedi. — Men... o'zim ahmoqman. Sizday bir ipirisqi, johil, qo'rqoq odamdan uzr so'rab o'tiribman. Shuning uchun kelibman... Nimaga? — u baqirib yubordi. — Bir poklanay deb... Yo'q, sizniyam bir xursand qilay deb kelibman. Shunday ulug' ayyom arafasida... Odamzodning poklanadigan kuni arafasida. Hoy, bilasizmi, — deya endi bemalol gapira ketdi, — bahorda hamma narsa yangilanadi, a? Shoshmang! Yangilanadi. Go'yoki hayot qaytadan boshlanadi. Qadimda shunday fikr qilinarkan: navro'zning falsafasi bu... Eshiting, siz bilmaysiz: siz uni diniy bayram deb biladigan... bir harfxo'rsiz! Boylar bilan dinchilar avomni mehnatga jalb etish... alanglamang... Gapimni tugatay. Keyin — katta yo'l! Ketavering!

— Xo'sh, davom et-chi, — dedi Joniqul Jondor: aftidan, uning ham alami, qaysarligi — barisi tinib, sokin bir yo'lga tushgan edi. — Gapir, gapir, — bemalol senlay ketdi. — Men eskicha fikrlaydigan harfxo'rman. Sen — Mustaqillik mevasi. Konkurensiyani ham juda nozik tushunadigan bo'libsan...

— He, badbin odam-e, — dedi Sulton. — Amal sizni yesin... Bo'lim mudirligi boshingizdan qolsin. Tavba. Bo'pti, quloq soling... Bu gaplar men aytadigan falsafaning oldida — uch pul... Demak, Navro'zda, o'zimizcha, Yilboshida odamlar bir-birlariga mehr izhor qilib, urushlar ham to'xtab, hatto ashaddiy yovlar... Mana siz-u bizga o'xshagan betamizlar ham yarashib, ko'ngillarini soflashar ekan. Yangi yilga ochiq yuz bilan kirar ekanlar. Qarangki, tabiat ham shu alpozda bo'larkan: uyam yangilangan, go'zallik fasli... Uf!— Bu yog'ini tezgina aytib yubordi: — Ana shu kayfiyat kuch-quvvat bo'lib davom etaverarkan, etaverarkan. Keyin yoz kelarkan, kuz kelarkan, qish kelarkan... Qarabsizki, odamzod yana aynigan: o'sha ahd-u paymonlar sovugan, yana o'zaro urushlar boshlangan, yana mehr-u oqibat ko'tarilgan... Tabiat ham horigan, o'ziga xos qarigan. Yangilanmasa, o'ladi... Ana shunda yana bahor, yana Navro'z kelib qoladi gurkirab! Yana odamlar hushyor tortib, bir-birlarini endi ko'rayotgandek bo'lib, bir-birlariga mehri toshib, yaqinlashadilar: Navro'z ularni og'a-ini, oshiq-ma'shuq, qadrdon qilib qo'yadi... Ana shunday

kun arafasida turibmiz. — Sulton birdan qah-qah otib kuldi. — Balki men oldinroq, bir kun oldin harakat qilib qolgandirman. Balki... Ammo niyatim pok edi...

— O'zingizcha... — deb to'ng'illadi Joniqul Jondor.

— Bilmaysiz, — dedi Sulton ishshayib. — Siz musulmon ham emassiz, o'tparast ham... Vabshe, insonligingizga gumonim bor. — Domla yalt etib qaragandi, Sulton battar avj oldi. — Ha, ha, ha! Inson, odam... shunday kunda o'ylab ko'rardi... To'g'ri, menda kamchiliklar ko'p: o'sha safardayam nuqson o'tgan mendan... Mayli, bo'ynimga olaman. Him, xo'sh, umuman, hayotda ko'p xatolarga yo'l qo'yib yuraman: hali rost aytdingiz, institutimizda meni xush ko'rmaydiganlar yo'q emas. Nazarimda, to'g'ri gapirib qo'yishim uchun... — U birdan xo'rsindi. — Ammo Obidjon Odiljonovichdan, haqiqatan ham, minnatdorman: g'ayirlarning gaplariga kulgi bilan qaraydi. Shunday bo'lmaganda, sizga o'xshaganlar...

Shunda Joniqul Jondor shunday chinqirib qoldiki, Sulton, nihoyat, uning nima deganini angladi: "Yo'qo-ool!" debdi ekan. Mayli, mayli... Bunday pachakilashib turish ham yaxshimas...

Demak, oralari "ochdi" bo'ldi, ammo boshqa yo'rig'da: u kechirmadi, bu niyatiga yetmadi.

Nima qilish kerak?

Sulton kulimsirab chetlandi.

— Marhamat. Katta yo'l.

— He, padaringga...

Sultonning ko'z oldi aylanib ketdi. Unga intilganini payqamay qoldi. Qo'li plashga yetgani uchunmi — plashni tortib oldiyu, nazarida, intilishdan maqsadiga yetishgandek bo'ldi. Joniqul Jondor unga yana angrayib qolgan edi. Sulton plashni turgan yerida g'ijimladi. Keyin otib yuborishga joy izladi: xona tor. U lapanglab tashqariga chiqdi. Ustunlarga tikildi-yu, chap tomonda — burchakda turgan eski shkafni ko'rib, o'shaning ustiga otvordi plashni. Keyin xo'p bir yaxshi ish qilganday kaftlarini bir-biriga ishqab, bir on serraydi-da: "Tuf-e!" deya, binodan chiqdi. Ajabo, yomg'ir sevalay boshlagan edi. Zinadan tushdi. Keyin o'z plashining yoqasini ko'tarib, bemalol yurib ketdi. Boshiga yomg'ir

tomchilari tushar ekan, havoning allaqanday nozik bo'ylarga to'la ekanini tuyib, bahri-dili ochila boshladi. Darvozaga yaqinlasharkan, hujradan qorovul chiqdi.

— Ha, Sultonjon... Ovozingiz balandroq chiqdimi? Domla bilan...

— Ay! — dedi Sulton.

Asqar aka yuzida odatdagicha iztirob bilan:

— Juda injiq odam-da, o'sha kishi, — dedi. — Akademiklar ham munchalik emas. Obidjon aka salomlashib o'tadilar... Kecha domla aytdilar: "Xomtok qilasiz. Toklar ham soya bersin, ham uzum qilsin", dedilar. Tavba, bu gapni qarang.

Sulton maza qilib kuldi. To'xtab, tag'in biroz gaplashishni o'yladi-yu, tezroq ochiq joylarga chiqish, anavi yashil bug'doyzorni tomosha qilib, nafas olish xohishi ustun keldi. To'xtamasdan sekin yurib ko'chaga chiqdi. O, yomg'ir kuchaydi... Mayli, ko'klam yomg'iri bu. Rahmat yog'ayotir.

U yo'l yoqasida bir muddat turib qoldi. Uzoqdan bir necha qarg'alar quvq-quvq etib suzib (ha, uchibmas...) o'tishdi. Ular endi Sultonning dilida na bir his, tasavvurida na bir o'y uyg'otdi. U qo'llarini cho'ntakka tiqib — qattiq tirab, xiyobon bo'ylab yurib ketdi. Ketarkan, burilishga yetganda, ittifoqo Ertoy bilan uchrashganini eslab qoldi. Joniqul Jondordan (ismini eslashniyam istamasdi) uzr so'ramoq uchun kelayotganini aytmaganiga mamnun bo'ldi: keyin so'rasa, nima deb javob berardi?

U yo'lida davom etdi. Qay bir joyda o'zining bu yoqqa kelayotganini, o'shanda qadamlari ildam, ko'kragi ochiqligi, g'oyatda xursand-shod ekanini esladi va o'sha onlarni boshidan kechirgan-chun yanada mamnun bo'lib, umuman, bugungi bir-ikki soatlik vaqti yaxshi, bo'larini aytganda, ma'noli o'tganini qayd etdi.

Ammo asl niyati amalga oshmagani, buning ustiga, Joniqul aka bilan endi chinakamiga ayri tushganiga iqror bo'ldi-yu, miyasining qay bir joyida: "U nima qilarkan endi?" degan savol g'ivirladi. Nazarida, bu gumonli...

5

Sulton ittifoqo shoshib qoldi: negaligini o'zi ham bilmas edi. Tezroq uyiga borishi kerak. Ivib ketmasdan burun. Ishqilib, avtobus bo'la qolsin. Bekatga yetdi. Ayvonchada bir necha yo'lovchi qunishib turishar, avtobus keladigan tarafga qarashar edi. Sulton ham sekin ular yoniga bordi-yu, ulardan biriga aylanganini ichki bir tuyg'u bilan his etdi: hali-boya bu tomonga kelayotganida, ko'ziga hech narsa, jumladan, yo'lovchilar ham ko'rinmas edi; u yer-u zamindan balandda— xayolda, ajib oliyjanob niyatlar qanotida edi, u yaxshi odam bo'lmoqchi edi. Komil inson emas... O, komillar — superodamlardir. Unday bo'lish kamdan kam kishiga nasib etadi. Ammo ular aqidalariga, yo'llariga intilishning o'zi kishining ko'nglini ne bir cho'g'dek yashnab turguvchi tuyg'ularga to'ldirar ekan: axir, odam bo'lsang, kamida o'shalarga intilguvchi yaxshi odam bo'lgin-da; buning lazzati cheksiz ekan... Hozir Sulton bekatda qunishib turgan yo'lovchilardan birigina ekanini his etaroq ruhi tushdi: ha, shunday bo'lib qoldi. Ha-ha, shuning uchun bo'lsa kerak — uyiga shoshilayotir: to'g'ri-da, sang'ib, charchab-horib, tag'in yomg'irda ivib yurishning nima ma'nosi bor.

Avtobus keldi. Sulton yo'lovchilar qatori chiqdi. Iliqqina ekan. Bir chetga borib, tepadagi halqadan emas — halqa ilingan tutqichdan ushlab turdi.

Shaharga yetildi.

6

Sulton liftdan chiqib, eshigigacha bo'lgan besh-olti qadamlik masofani uch qadamda bosib, tutqichdan tortdi. Xayriyat, qulflanmagan ekan: o'zi bo'lmaganda, eshikni ichkaridan zanjirlab qo'yish odati bor xotinining. Ichkariga — tanish, qadrdon go'shaga kirib, tuflisini yecharkan, qandaydir yaltiroq uchli tufliga ko'zi tushdi: kim kelibdi? Zalga qaraboq, tanish ovozni eshitdi.

— Ho'v, pari, kim keldi? — deya plashini yechdi. Zaldan chiqqan xotini eriga istehzoli kulimsirab turaverdi. Sulton ichdan zil ketdi: u o'z niyatini, ya'ni, kimga qachon bir ozor yetkazgan bo'lsa, kimni sal-pal ranjitgan bo'lsa.. undan uzr so'ramoqqa ahd

qilganini tongdayoq gazga choy qo'yayotgan xotiniga hovliqib aytgan, uning kinoyaomuz jilmayishlariga javoban bir muddat va'zxonlik ham qilgan, pirovardi, uning yelkasidan quchib: "Ering komil odam bo'ladi endi! Xursand bo'lmaysanmi, xotinjon?" degan, keyin xotinining "Shunisiyam yetardi" deganiga javob bermay kabinetga qaytgandi.

— Ha, kim u? — dedi Sulton, zalda — stol yonida kimdir o'tirganini payqab.

— Kiring, ko'rasiz, — dedi xotini. — Qanchalik komil odam bo'lganingizni bilasiz...

— Oh! — Sulton yuragi gup-gup urgancha zalga engashib kirdi-yu, deraza pardasi yonida, qo'llarini stolga behol tashlab, o'ziga xo'mrayib qarab turgan Ertoyni ko'rdi. — E! — deb yubordi beixtiyor ishshayib va xursand bo'lib ketib. — Ertoyjon? Bu qanaqasi... — U lo'kiilab borib, qo'lini uzatdi.

Ertoy qo'lining uchini beraroq:

— O'tiring, aka, — dedi qarshisidagi kresloga ishora qilib. Sulton qobilgina bo'lib o'tirdi: kreslo past, o'zining ham yarim belidan yuqorisi kaltaroq (bu yog'i uzun) ediki, Ertoy taxtda o'tirgandek bo'lib qoldi. Sulton unga mo'ltirab boqdi. Tilida "Tinchlikmi?" degan savol. Ertoy jahl bilan so'radi-dedi: — Nima qilib qo'ydingiz dachaga borib? Ey, juda alomat odamsiz-da!.. — Sulton: "N-nima qipman?" demoqchi bo'ldi-yu, bolalarcha boshini egdi. — Axir, kap-katta odamsiz. Yoshingiz bir joyga borib qoldi. Bu nima qiliq? Shunda uy bekasi ham kelib, stol yonidan joy oldi. Ertoy battar xuruj qildi: — Joniqul Jondordan uzr so'ragani borgan odam shunaqa qiladimi? Axir, u yig'lamoqdan beri bo'lib... Xudoya tavba qildim. Melisa chaqirsa, nima qilardingiz? Haliyam u tinch qo'ymaydi sizni...

— He-e, — Sulton karaxt tortib qolib, birinchi marta (bugun hisobida) sigareta tutatdi. Deraza rafidagi chig'anoq kuldonni olib, oldiga qo'ydi. Keyin birdan so'radi: — A, nima? Siz qaydan...

— Hm, menga telefon qildi, — dedi Ertoy jahldan jilla tushmay. — Sizlar yurtdoshsizlar, bu bezori akangizni yig'ishtirib olsalaring bo'lmaydimi, dedi... Nimalar qildingiz o'zi? Uning plashi qani?

Sulton unga angrayib qaradi.

— Qanaqa?.. A-a? — Birdan qizarib ketib stolga egildi. — O'sha yerda. — So'ng birdan g'azabi qo'zib ketdi. — O'sha zalda. Shkafning ustiga otvorgandim.

— Nega otvorasiz? — battar fig'oni chiqdi Ertoyning. — E, u odamga o'tkazib qo'ygan joyingiz bormi? Yo akangizmi, tog'angizmi u odam? Axir normal kishi...

— Ha, men ninarmalni ekanman, — dedi Sulton.— Shu, uka. Endi sizdan iltimos...

— Iltimos, iltimos... — Ertoy birdan xo'rsinib, Sultonning xotiniga murojaat qildi: — Yanga, bu odam o'zi, to'g'risini aytsam, yaxshi odam. Yaxshi odam... Men ham o'sha bog'da turaman-da. Boshim og'ib yer olgandim, bir boshpana qurganman... O'sha yerda olimlar bilan ham gaplashib turaman. Ayniqsa, Obidjon aka bu odamni hurmat qiladi... Boshqalar ham. Ammo bu kishining ba'zan qilib qo'yadigan ishlarini yosh bolayam qilmaydi. Xo'p, so'fiylikka qiziqibdilar...

— O, tilidan tushmay qolgan, — dedi yangasi. — Yaqinda namoz o'qimoqchilar.

Sulton xotiniga og'ir qarab qo'ydi.

— Shart emas.

— Shart. Men sizga aytsam, — dedi Ertoy, — men ham undamunda o'qib turaman. O'sha so'fiylar ham shariat talablarini bajarishgan... Xo'sh, nima qilamiz endi? — Sulton unga chaqchayib qaradi. Tilida: "Nima?" Ertoyning ensasi qotdi. — He, odam bo'lmay... Uzr, aka. Odamni xafa qilasiz-da. — U yana yangasiga qaradi. — Obidjon akaning aytishicha, eringiz majlislarda Joniqul akaning nuqul g'ashiga tegarkan. "Fikri buzuq", deb burilib ketaverar ekan...

— Uf, — deb yubordi Sulton, — axir, shunga barham beray deb bordim-ku, musulmonlar. — So'ng yana birdan boshini xam qildi. — Bo'lmadi. Chiqmadi.

Ertoy xaxolab kulib yubordi.

— Chiqmadi... Axir, yotig'i bilan, vazminlik bilan tushuntirsangiz, chiqar edi... — U yana kulib qo'ydi. — Siz bo'lsa hujum qilgansiz...

— Yo‘q-yo‘q, — Sulton o‘rnidan qo‘zg‘alib o‘tirdi... Yo‘q... Faqat u tushunishni istamadi... Umuman, ilmdayam shunday. Masalan, boy — yomon, faqir yaxshi. Vassalom! Hozirgi biznesmenlarniyam yomonlagani-yomonlagan. Sezaman, hasad bor unda... Keyin jaholat... Fikrini qitmirlik bilan o‘tkazmoqchi bo‘ladi.

— Xo‘p. Uniyam gapida jon bor bo‘lishi mumkin... Nega endi siz nuqul inkor qilasiz?

Sulton jimib qoldi.

— Uf. Basharasiyoq g‘ijinimni... Ay! — Stolga qo‘lini tashlavordi: urgandek tuyuldi. — Bo‘lar ish bo‘ldi.

— Yo‘q, bo‘lmadi.

— Nima qilay? — Sulton unga yana angrayib qaradi. — Balki yana uzr so‘ra dersiz.

— Ha, — dedi Ertoy ishonch bilan. — Uni, yanga, siz yaxshi bilmaysiz, ko‘p kekchi odam. Mnitelniy... Xo‘p, Sulton aka, endi o‘zingizni bosib olib...

Shunda yo‘lakda telefon jiringlab qoldi. Uy bekasi turib borib, dastakni ko‘tardi. Sulton negadir qiziqib quloq solar, shu tobda nega qiziqib qolganini o‘ziyam bilmasdi: holbuki, u nafaqat birovlarning, balki ayolining ham telefonda gaplashuvini tinglamas — undan qochar edi. Qiziq, Ertoy ham yo‘lakka qarab turar, aftidan, yangasining tezroq qaytishini istar, balki Sultonga yana qanday tazyiq o‘tkazishni o‘ylar, Sulton esa ana shunday zug‘umdan bir daqiqa xalos bo‘lish uchun u yoqqa qarab turgandek edi.

Aksiga — beka qo‘ng‘iroq qilgan kishi bilan past ovozda gaplashdi. Kulimsirab bir nimalar dedi, uning gapini tasdiqladi. Keyin uning oilasi haqidayam so‘radi. Nihoyat, bemalol kulib, dastakni toshoyna oldiga qo‘ydi, shekilli, zalga mo‘raladi.

— Sizni so‘rayapti, dadasi.

— Kim ekan u?

— Gaplashing oldin, — beka unga yo‘l berib, zalga kirdi. Sulton trubkani ko‘tarib, tomoq qirishi bilan... g‘oyat tanish, qadrdon, sho‘xchan ovozni eshitdi:

— Sultonjo-on?

— E, Obidjon? — deb yubordi Sulton. — Sizmisiz?

— Biz-da, — dedi u. — Qani, Navro'zlar muborak bo'lsin!.. Bir tabriklab qo'yay dedim. — Sulton ham bidillab uni qutladi. — Rahmat, rahma-at, og'ayni... Xo'p dorulomon zamonlar keldi-da, o'zimizning asl bayramlarimizni nishonlayotirmiz... Aytmoqchi, ertaga dachaga o'tasiz albatta. Uyda ishlayotganingiz uchun kotibamiz yetkazmagan ekan. Qalay — darslikka yozayotgan...

— Bo'lyapti, bo'p qoldi, — dedi Sulton. — Rahmat, Obidjon! — Yigitning ko'ngli ilib, mutaassir bo'lib ketdi: qarang, azzabazza institut direktori — naq akademik uyingga qo'ng'iroq qilib, Navro'z bayrami bilan qutlasa! U — barkamol inson!.. Aytmoqchi, uniyam so'fiylikdan xabari bor. Tasavvuf haqida "Tafakkur"da savol-javob ham qilgan edi.

— Sultonjo-on!

— Labbay-labbay, eshityapman!

— Jim qolganingizga... Xo'sh, do'stim, yana bir gap bor. Bu-u, bizning hurmatli domlamiz, ajoyib inson Joniqul Jondorovich bilan bugun uchrashibsizmi deyman?

— "Ha, shu..." deb ming'irladi Sulton.

— Jo-on do'stim, endi sizdan bir iltimos, — dedi u.

— "Xo'p-xo'p!" — Xo'sh, Joniqul akamizdan yana bitta uzr so'rab qo'yasiz... — "A? E, yo'g'-e, uzr so'rab bo'ldim..." dedi Sulton.

— Hov, jon do'stim, xo'p deng... Og'a sal ranjibdilar... — "Endi o'zlariyam...".

— A, rahma-at, ulug' ayyom kunida ruhan bi-ir poklanib olay deb ahd qilibsiz-u, bu yog'i uncha chiqmapti-da... — Sulton beixtiyor kulib yubordi: "Shunday bo'ldi, shunday...".

— Endi, og'ayni, shunday ulug' kun arafasida munday arazlashib yursak, xo'sh, bir-birimizdan shikoyat qilsak, menimcha, yaxshimas, a? — Sulton iljayganicha bosh irg'adi-da, Joniqul Jondorning unga shikoyat qilgani, ehtimol, yonida o'tirganini tusmolladi. — Xo'pmi?— dedi shunda Obidjon Odiljonov. — "Nima qilay?"— A-a, iloji bo'lsa, ertaga bog'da, xo'sh, maza qilib o'tirganimizda, maza qilib uzr so'rab yuborsangiz, olam guliston. — Sulton ming'irlab qoldi. Obidjon esa:— Rahma-at, — dedi. — Juda xursand qildingiz, do'stim.— Keyin yana o'sha ovozda so'-

radi: — Bu, domlaning plashini opketibsiz? — shunday dedi-yu, hiringlab kuldi. — Sizga kalta keladi-ku baribir...— Sulton voh-vohlab kula ketdi va ichi og'riy boshladi: "Voy, Obidjon, topilmay keting, siz..." — Shundaymi? — dedi Obidjon Odiljonov. — Demak, plashniyam oborasiz? — "E, plash o'sha yerda-e, shkafning ustida!" — dedi Sulton. — A-a, shundaymi? Men xato eshitibman, — dedi Obidjon. — Ha, mayli. Ertaga ko'rishguncha... A-a, Ertoy ukamizniyam tabriklab qo'ying, jiyanlarni o'ping...

— O'zingiz ham, o'zingiz... — Sulton u yoqdan ovoz o'rniga "ting-ting" tovushlarni eshitib, dastakni apparatga qo'ydi. Xo'rsinib, qomatini rostlab, sigaretni izladi. Zalga tez kirib, chig'anoqda tutab turgan qoldiqni oldi. Labiga tegizgandi, barmog'i kuydi. Uni kuldonga tiqib yuborib, boshini sarak-sarak qildi.

— Direktormi? — so'radi Ertoy.

— Ha, shu kishi, — Sulton shunday deb yana bemalol kulib yubordi. — Juda sho'xda... He-he... U fitna "plashimni o'g'irlab ketdi", degan bo'lsa kerak. "Plash sizga baribir kalta keladi-ku", dedi. — Ertoy ham, kelin ham baralla kulib yuborishdi. Sulton hatto o'rnidan turib, turgan joyida bir aylandi. — Ajoyib inson-a!.. — Keyin birdan xo'rsindi... — Men unday bo'lolmayman. Hech qachon! — So'ng barmog'i-la shiftni turtgan bo'ldi. — Shuning uchun u — direktor. — Ertoyga tikilib qoldi. — Siz ham juda zukko odamsiz, uka. Yo'q demang. Shunday... Uf. — U birdan joyiga o'tirdi. — Men uzr so'rayman sizlardan, — dedi. — Sendan, xotin. Sizdan, Ertoyjon. Ovora qildim. Meni deb zaril ishlaringizni tashlab kelibsiz...

— Obidjon akayam uzr so'rang dedilarmi? — nihoyat, qo'zg'alishga shaylanib so'radi Ertoy.

— Ha, endi... — Sulton boshini egdi. Ertoy fotiha qilib, yo'lakka chiqqanda, uning orqasidan yugurdi. Shu borishda uni quchib, chakkasidan o'pdi.

— Uzr. Siz yaxshi insonsiz-ku! Akangizni qo'yavering... Aytmoqchi, uyga borganda, kelinimni Navro'z bilan tabriklang...

— Xayr, yanga. Yaqinda o'zimiz nishonlaymiz Navro'zni... Borasizlar, albatta. Akam aytadilar vaqtini.— U birdan qo'lini Sultonga uzatdi. — Xayr. Chiqmang!

Sulon uning hukmiga bo'ysunib qoldi. Keyin deraza yoniga borib, yangi sigaret tutatarkan, oynadan ko'rdi: Ertoy uzun, oppoq "Volga"ga kirib o'tirdi. Mashina qayrilib ketdi. "Hali ko'rmagan ekanman, — deb o'yladi. — Ko'rsam ham...".

Xotini unga tepadan qarab turdi-turdi-da, yayrab kulib yubordi. Sulton siniq jilmaydi.

7

Ertasi choshgohlarda Sulton bir navi kiyingan holda, bo'ynidan tortib sudralayotganday egilib, mashina yurgudek yo'lkadan oppoqqina imorat tomonga bir-bir bosib bormoqda, orqada — darvoza yonida Asqar aka hayratlanib turar, oldinda esa — imorat qoshidagi maydonchada stollar tuzalgan, har stolda — bozordan xarid qilingan atirgullar, ushbu bog'da yashovchi olim-u arboblar, ya'ni qo'shnilar to'p-to'p bo'lib gaplashib-kulishib turishar, zinapoya ustida ilonteri kastum kiyib olgan Obidjon Odiljonov uch-to'rtta mehmonlar va bizneschilarga tevarak-atrofni ko'rsatib, aftidan, bog'ni yalpi harakat-la obod qilish rejalarini so'zlar edi.

Sulton shu ko'yi — g'amgin, parishon yurib borarkan, qulog'iga asta-sekin anavilarning g'ovur-g'uvuri kira boshladi, ammo — so'zlar ma'nosini anglamasdi. Chap tomondagi hamishabahor butalar ortidan musiqachilarning asboblarini sozlayotgani ham eshitilarkan, Sulton: "Ashulachilarniyam aytishibdi-da", deb ko'nglidan kechirdi; shu alpozda bu ziyofat institut hisobidanmi, anavi kommersantlar uyushtirganmi, balki halfana qabilida pul jamg'arilgan bo'lsa, o'zining tekin taomga sherik bo'lajagini o'ylab, qizarib ketdi: tekin oshga... Uning ittifoqo jahli chiqib, bakovulga pul tashlab ketish ahdi bilan ro'parasiga ilkis qaradi-yu, oftob nuri tushganday ko'zi qamashib ketdi: muncha odam.. Hammasi qarab turibdimi o'ziga? Yo'g'-e, kim bo'pti bu— Sulton ularning oldi-da?

— Ana bizning do'stimiz Sultonboy ham keldilar!

Sulton shoshib qarab tanho uni — Obidjonni ko'rdi: kastumining g'alatiligini ham dilida qayd etdi. Shunda uni yana-da suyib ketdi-da, birdan jilmayib ildamladi. Shu yurishda zinapoyaga

ko'tarilib, unga qo'l uzatdi. Obidjon uning qo'lini ushlab, o'ziga tortinqiradi. Sulton unga qarab-qaramay yoniga o'tdi. Keyin beixtiyor uyalib ketayotganidan o'zini yomon ko'rib ketdi: "Voy, nimaga, nimaga boshimni ko'tarolmayman?— deb so'radi o'zidan. — Bularni xafa qil... Yo'g'-e!"

— Birodarlar, — dedi shunda Obidjon nari-beriga qarab. (Sulton sezdi: u jindek otib olgan — hidi kelayotir). — Bugun shunday bir kunki, Oy bilan Quyosh ham yarashadi! — Sulton o'sha afsonani esladi: ular ikkovi opa-singil bo'lishgan, keyin janjallashib qolib, Oy Quyoshning yuziga bir hovuch ignani sochib yuborgan, Quyosh esa Oyning aftiga bir hovuch kul sepib yuborgan. — Bu matalning mazmunini bilarsizlar, deb o'ylayman, — deya davom etdi Obidjon Odiljonov. — Endi, gapning bo'larini aytsam, oramizda ikkita zo'r-zo'r olimimizning oralaridan qora mushuk o'tgan ekan. Buni, payqadimki, bu yerdagi ko'pchilik o'rtoqlar bilisharkan... Shu denglar, hozir shular bir-birlariga qo'l berishadi. Navro'zning eng muborak udumi shularning apoq-chapoq bo'luvidan boshlanadi hozir. Keyin biz buni bir piyoladan choy ko'tarib nishonlaymiz... — U birdan ovozini ko'tardi: — Yana birov-yarimlaringni oranglardan ham qora sharpa o'tgan bo'lsa, tayyorlanib turinglar... Qani, Joniqul aka, bu yoqqa chiqing! — Sulton unga qaramoqchi bo'ldi-yu, qarolmadi. Ammo butun vujudi bilan "ko'rib turardi": tim qora kastum kiygan, kastumining ichida qalin jun jemperi ham bo'lsa kerak, juda miqti bo'lib qolgan chlen korrespondent ildam yurib, zinalardan ko'tarildi va institut direktorining yonida turib oldi. — Sultonjon, qani, qo'lni bering, — Sulton qo'lini asta uzatdi. — Endi Joniqul, aka, siz ham qo'lni berasiz!

— Sizga beraman-u, lekin unga... — deya chaynaldi-da, shiddat bilan tomoq qirdi Joniqul Jondor. Obidjon odatdagi sho'xlik bilan:

— Xo'p, xo'p. Yoshi ulug' allomalarning aytgani vojib, — deya "yoshi ulug'"ga urg'u berdi. So'ng Sultonga boqdi. — Qani, do'stim, ko'nglingizga tugib qo'ygan gapingiz bo'lsa, bir eshitaylik. Birodarlar, diqqat!

Sulton Obidjonning barmoqlari zo'rg'a bellab to'tib turgan qo'liga tikilib, birdan yelkasi silkinib ketdi.

— Yo‘-o‘q, yo‘q, — deb oldin aytdimi, yig‘lab yuborganidan keyin aytdimi — alhol, o‘ziyam bilmay qoldi.— Iltimos, iltimos... — deya atrofga alangladi keyin. — Hammangizdan uzr so‘rayman! Hammadan... Anavi qorovul akamizldan ham! — So‘ng negadir osmonga qaradi. — Hamma narsadan! — dedi keyin. — Lekin... — U qo‘lini Obidjonning changalidan tortib oldi-da, Joniqul aka tomonga allaqanday siltab, shartta qayrildi. Zinapoyadan sakrab tushdi. Hali g‘unchalari ham qizarmagan gulzor yonidan o‘tib, yo‘lkaga chiqdi. Yelkasi yana silkindi-da, baralla ho‘ngrab yubordi. Shu onning o‘zida ko‘nglining tub-tubida yer yorilsa, kirib ketajagini his qildi: shunchalar uyat bo‘ldi!... U ushbu hisdan qochib, ya’ni, qadamini tezlatib ketarkan, dod degisi kelayotganini tuydi: o, bu endi jinnilikka o‘tadi... U tezroq qorasini o‘chirish uchun binoning orqasiga burildi. Kimsasiz... Entikib nafas oldi-da, umuman, ovloq — tanholikka bop joyni izlab, yo‘rtib ketdi. Imorat burchagidan o‘tib, boshqa yo‘lkaga tushdi-yu, ro‘parasidagi anchayin simto‘r darvoza ochiqligini, ya’ni, tabaqalar ikki yonga jag‘ kabi ajralib yotganini ko‘rdi. Ichkarida odam yo‘qligini his etib, olg‘a bosdi. Ha, bu — endi epaqaga kelayotgan dalahovli edi. Sulton chala yotgan bino qoshiga yetdi. Undan ham burilib o‘tgandi, shundoq ro‘parada pastak beton devor ko‘rindi. U yugurishda borib, devor qirrasidan ushladi va bir intilib, undan yarim beligacha oshdi. Keyin qiyshayib, u yoqqa tushdi. Shundoq yonginasida devori makkajo‘xori poyalaridan tiklangan chayla turardi. Sulton ittifoqo xursand bo‘lib, unga kirish uchun jildi-yu, oyog‘i ostidan qochib qolgan kalamushni ko‘rib, tek qoldi. Keyin qo‘llarini beliga tirab, atroflarga qaradi: bu uyam kimningdir bog‘chasi edi: turli ko‘chatlar ekilgan, yiriklari hali ship-shiydam, chetan o‘rniga ekilgan olchalar qiyg‘os gullagan, jiblajibonning g‘ujur-g‘ujuri eshitilardi. Sulton “vo-o” deya so‘rib-so‘rib nafas oldi. Keyin xazonga to‘lgan ariqdan hatlab, so‘qmoqligi bilinib turgan joyga tushdi. Jila-jila keksa bir o‘rik ostiga yetganda, shundoq oldida chaman bo‘lib ochilib yotgan sap-sariq nargislarni ko‘rdi. “Voy, aylanib ketay”, deya cho‘nqaydi. Uzmoq uchun qo‘l uzatdi-yu, darhol tortdi. Shunda yonida xayrigulning uzun poyalar yonboshlab yotgan to‘nkani ko‘rib qoldi. Unga astagina o‘tirdi.

Shu payt... tepadan — allaqaylardan yurakni o'rtachuvchi mungli sadolar eshitilayotganini fahmlab qoldi. "E, turnalar-ku!" U o'rnidan turib, xoliroq joyga chiqdi. Osmonga tikila-tikila ko'rdi: qora nuqtalardek bo'lib o'tishyapti: ha, bolaligida ham shunaqa qilib o'tgan paytlarini ko'rgan...

— Turnalar, — deb beixtiyor shivirladi. Va hushyor tortib ketdi: nega bu yerda u? Birovning bog'ida... Ha, u qochib keldi. Anavi ablahdan, yo'q, ajal kabi sovuqdan qochib keldi... Ular Sultonning ustidan kulishyapti hozir: he, u odamlar buning — Sultonning ichidan o'tganini qaydan bilsin! Kechagi niyatini...

Mayli, mayli.

Sulton yana to'nkaga o'tirdi. Yana sigaret chiqarib tutatdi va anchagina o'ziga kelib oldi, "Shunaqa, — deb o'yladi. — Ulardan uzr so'rashim kerak. O'shalardan. Shakkokligim uchun... — So'ng xo'rsinib yubordi.— Ey, Navro'z. G'alati bayram ekansan-da! Xudoga shukr... Sendan ulug' bayram yo'q. Sen odamni o'zgartirishgayam qodir ekansan... Axir, men yaqin-yaqingachayam tinchgina yurgan edim-ku...

Endi nima bo'ladi? Mening g'iybatim. Tabiiy... Balki haligi qiliqlarim uchun jinnivoyga chiqarishar... Ha, ular haqli. U — ablah esa, taltayib ketadi...

Men, men — baribir yomon odammasman: shunday deyishadi-ku... Lekin o'ylaganimdek, ha, ahd qilganimdek komil odam bo'l... — Keyin birdan kulib yubordi. — Bu olamda komil odam bo'lish ham qiyin ekan. He, — xuddi bir kashfiyot yaratgandek bo'ldi. — Nachora, tirik jon ekanmiz, — dedi nihoyat. — Ideal yaxshi. Unga intilmoq kerak... Ammo o'ylaganingdek bo'lolmas ekansan...

Boring-cha qolding, shekilli..."

Sulton o'rnidan turib, to'g'riga yurdi. Toshloq bir ko'chaga chiqdi. U avtobus yuradigan katta yo'lni taxminlab, so'l tomonga burildi. Bir necha burilishlardan keyin naq haligi — bog' darvozasi biqinidan chiqdi-yu, birdan lo'killay qoldi: ketdi, ketdi... Burilishdan (Ertoy bilan uchrashgan joyidan) o'tdi. Keyin biroz sekinlab, bekatga yetib bordi.

U yo'lovchilardan biri edi, xolos.

1997

QULOQCHO'ZMA

1

Qing'ir-qiyshiq tor ko'chadan chiqardik. Xivich otimizni savalab, kishnab. Qarshimizda maktabimiz. Devorlari somon-suvoq qilinib, ustidan oqlangan. Yo'g'in-sochinda ohagi ko'chib sarg'ayib qolgan. Bo'g'otlarda chumchuq bolalari chirqillar, inlaridan xas-xashak, qiyqim-siyqimlar osilib turardi. Biz pastdan tomosha qilar, bironta bolasining yiqilib tushishini istardik. Keyin qunishib-diydirashib, maydonda shildirab-dumalab yurgan qog'ozlarni yig'ib o't yoqardik. Keyin unga isinib, maza qilib o'tirardik.

Ana shunda qarshimizdan ko'zlarimizni qamashtirib quyosh chiqib kelardi.

Bunday vaqtlarda agar yolg'iz bo'lsam, maktabning katta yo'lga qaragan tomoniga o'tib, poydevordan chiqib turgan to'sin uchiga o'tirardim-da, o'tgan-qaytganlarni kuzatar, oq jujun kitel kiygan yoki etigidan g'arch chiqayotgan, umuman, bashang engilli odam yo'ldan o'tib qolsa, unga: "Salom muallim!" deb baqirardim. Nazarimda, barcha bashang kiyimlilar o'qituvchilar bo'lar, faqat o'shalargina shunday kiyinishi kerak edi. Nega shunday o'ylarkanman? Bilmayman. Balki o'shanda muallimlarning mavqeyi baland, topish-tutishi ham yaxshi bo'larmidi.

Xullas, ko'chani tomosha qilib, o'zimga ermak topib o'tirgan chog'larimda, yo'lning narigi betidagi katta hovlidan ikkitalab-uchtalab qishloqi bolalar chiqishar, ular ham simyog'ochlarga suyanib-gaplashib turishar edi. U hovli "internat yotog'i" hisoblanar, unda tog'-u dashtlardan uchinchi sinfgacha o'qib, qolganini markaziy maktabda davom ettirish uchun kelgan yigit-qizlar turishar, biz ularni "qishloqi", o'zimizni "shaharlik" deb atardik.

Ammo bizning yurish-turishimiz, kiyinishimiz ham ularnikidan farq qilardi-da. Masalan, kitel-shim deganlarini onalarimiz bizga tikib-tiktirib berardi. Ular ishtonda, choponda, kunning

issig'idayam— telpakda, ko'pincha oyoqlariga ham bir narsa ilmasdan yuraverishardi.

Mening "ermak"larimning eng qizig'i — o'shalar edi, desam bo'ladi. Biroq ular ham biz "shaharliklar"ga qiziqib qarashar, goho shundoq ro'paramizga kelib — ariqning labiga cho'nqayib o'tirishar, goho maktab maydonida chillakmi, koptokmi o'ynayotgan bo'lsak, bu yoqqa o'tib bir chetdan kuzatishar edi. He, o'shandoq paytlarda juda gijinglab ketardik-da: o'zimizni ko'rsatish uchun!

Shu bilan birga biz ularni pisand qilmas, ulardan qandaydir "ustun" ekanimizni bildirib turardik: kiyinishidan kulardikmi-ye, burnini cho'qilayotgan bo'lsa "qonatib qo'yasan" dermidik, ishqilib, bir qitmirlik qilardik. Sho'rliklar angrayib qolishar, ba'zisining uyalgani ham sezilardi, albatta. Ha, ular sodda, endi o'ylab qarasam, tog'-u dasht kabi pokiza ekanlar. Keyin bizdan ba'zi yomon odatlarni ham o'rgana boshlashdi. Qolaversa, bizning muomalamizga javoban ularda e'tirozlar tug'ilar, bu e'tirozlar goho harakatlarida ham ko'rina boshladi.

Xo'sh, ular ichida bitta g'alati bola bo'lardi. Past bo'yli, yelkalari keng, kallasi xumdek, boshida telpagi bo'lganda bo'yni ko'rinmas, telpakli kallasi naq yelkasiga qo'ndirib qo'yilgandek tuyulardi. U yerdan bir narsa topadigandek boshini egib yurar, qo'chqornikidek do'ng peshonasi ostidan olayib qarardi. Shu qarashiyam menga yoqmas, qo'shnim — sinfdoshim Erkin bo'lsa, uni ko'rganda, ko'zini g'ilay qilib, bir narsani suzadigan yosh buqachadek boshini qiyshaytirib o'tardi.

Biroq u bolaning yana alohida bir a'zosi bor ediki, har qanday odamning ham diqqatini tortardi. Bu— uning quloqlari edi. Shalpang, shalpanglarning shalpangi! Lof bo'lsayam, polvonning kaftidek kelar, tepadan bosib turgan telpak ostidan ikki yonga chiqib turganini ko'rsangiz, kulib yuborar edingiz.

Bu g'o'daygan, tund bola esa quloqlari shundayligini sezmagandek yurar, ba'zan "Bizni quloqni ko'rib qo'y!" degandek taassurot qoldirardi.

Qaysi kuni telpagini tashlab, do'ppida chiqqanini ko'rdim. Telpakni yozda ham yechmaganmi (yozda qishlog'iga ketardi), kalla-

si oqyem bo'lib ketganga o'xshar, shu kallaning yonidan chiqib turgan bahaybat quloqlari naq lokatorning o'zi edi.

O'sha kuni maktabga vaqtliroq keluvdim. Shundoq yonimizda hayhotdek kinoxona bor, bahorda unda pilla qurti boqilar, kuz-u qishda kino qo'yilar edi.

O'sha kinoxonaning oldiga o'tsam, o'sha shalpangquloq chuqur ariqning u betida o'tiribdi. Tizzalarini bukib, tizzalari ko'ziga qo'llarini qo'yib. Yonida yana bir-ikkita sherigi bor. Bu yoqda kinoxona peshtoqiga o'rnatilgan karnaydan shovqin taralar, aftidan, mexaniklar urush kinosini "prosmotr" qilishmoqda edi.

Men qomatimni g'oz tutib (novchaligim uchun shamolda tebranib turadigan mirzaterakka o'xshab ketardim), qo'limni kissamga tiqib, u yoq-bu yoqlarga qaradim. Shunda kinozal ichidan Toshkanboy chiqib keldi, uyam qo'shnim — sinfdoshim.

— Ha? — dedi.

— O'zim, — dedim-u, ariq bo'yidagi Shalpangquloqni ko'rsatdim. — Anavuni tomosha qilmaysanmi? Ahmoq bo'lib kino ko'rib yuribsan. Bunday quloq olamda yo'q. Zooparkka (Termizga borganda, hayvonot bog'ini ko'rgandim) oborib qo'ysa, har kuni mingta odam tomoshaga kiradi.

Toshkanboy gaplarimga kulmadi-yu, unga tikilib qolib:

— Qulog'ingga nima bo'lgan? — dedi.

U o'qraydi.

— O'zi shunday.

— Juda xunuk-da, — dedi Toshkanboy, — mana, Sultonning qulog'iga qara, menikini ko'r. Qanday chiroyli.

— Qo'yasanmi-yo'qmi, enangdi...

— E, e! Sulton eshitdingmi? — Toshkanboy orqaga tislanib ketib, keyin chopib kelib ariqdan sakrab o'tdi. Shunda Shalpang turasolib uning ko'kragiga kalla qildi. Do'stim ariqqa tushib ketdi.

Kinoxona oldida besh-oltita odam bor, pista chaqib yurgan o'ris-tatar qizlari ham bor edi. Muni qarangki, Erkin bilan Istat (Toshkanboyning ukasi) ham ichkarida ekan. Chopib chiqishdi. Ulardan quvvat olib, ayni chog'da kuchimga ishonib (biz boks qilishni bilardik, qolaversa, qishloqilar bizga hujum qilishga botinolmasdi), ariqdan hatladim. Jo'ralarim ham o'tishdi. Shal-

pang bizni ham kalla qiladiganday (negadir qochmas edi) tislana boshladi. Shunda birdan unga tashlandik. Tavba, mening qo'lim qulog'iga yetibdi deng. Rosa burab ushlab oldim. Hovuchim to'lib ketdi.

— Sol qishloqini! — deb baqirdi Erkin.

— Suvoloch, ti biyosh moy brat? — deb Istat ham otildi. (Istat o'zining "shaharlik" ekanini eslatib turish uchun, bilsa-bilmasa, o'rischa qo'shib gapirardi).— Bey yevo! Na tibe!

Hayron bo'lardim men: uning sheriklari oraga tushmas, chetlanib, ranglari gezarib turishardi. Shu payt internat yotog'idan chiqqan Farmon aka degan tarbiyachi "hay-hay"lab yugurib keldi. Biz sal chekindik. Faqat Toshkanboy Quloqning yoqasidan tutib, qorniga boks qilardi.

Farmon aka uni ajratdi-da, bizni emas... Shalpangni chakkasiga bir shapati urdi.

— Nimaga bular bilan talashasan? Senlarga necha marta aytganman bu arzandalar bilan talashmanglar, deb! Boringlar! Ketinglar! — So'ng bizgayam do'q qildi: — Sizlar ham keting... Boybachchalar! Ota-onanglarga aytaman endi. Ma'mura opagayam aytaman... Melisaga xabar bersammi...

Biz to'ng'illay-to'ng'illay, Shalpangquloqqa mushtimizni ko'rsatib, uzoqlashdik. Maktab maydoniga o'tganimizdan keyin qaysimiz qishloqining qayeriga tushirib qolganimizni aytib, biroz maqtanishdik. So'ngra Toshkanboyning kiyim-boshini (loyga belangan edi) yuvib-artib tozalash uchun maktabning bu tomonidan yurib, yana ariq bo'yiga chiqdik.

Shunda birov bilan gaplashib turgan Berdi laqqi degan kishi (uzoq qarindoshimiz edi) menga:

— Qulog'ini rasvo qilding-ku, jiyan, — deb kuldi. Keyin sherigiga murojaat qildi: — Agar shu bola quloqcho'zmaga kirsa, Xudo bir-a, qulog'idan ayrilib chiqadi.

Rosa kulishdik.

"Quloqcho'zma" o'yini haqida biroz tushuntirish bersam. Odatda, to'y-ma'rakalarda kurash bo'ladi, ko'pkari ham, piyodauloq ham. Ammo bular boshlanishidan oldin, ayniqsa, kurashdan oldin bakovullar bir qarich toychoqlarni davraga chiqarishadi:

nafslambiri, shu bolakaylar kurashni boshlab beradi. Ha, endi toy-toy bo'lgan bolakayning qo'lidan yetaklab yoki ko'tarib davraga opkirishlari, uni tengqurlari bilan qo'l ushlatib tanishtirishlar, keyin o'rtadagi zotni e'lon qilib, har ikkisiga ham oq fotiha berish va olomonga: "Falon polvon bilan piston polvon olishadi!" deb hayqirishlar ko'p zavqli bo'ladi-da! Ajab, bir qarich mishiqilarni "polvon" deb atashadi! G'olib chiqqanini — "Piston polvon bosdi!" deb olqishlaydi. G'olib polvon ham olgan zotini (ro'molmi u, matohmi) yelkasiga yelvagay tashlab, davrani bir aylanadi... Shundan boshlansa kerak-da — milliy kurashga qiziqtirish, kurash deganini yoshlarning murg'akligidan ongiga singdirish, pirovardi, millatga xos urf-odatlarni avlodma-avlod o'tkazish...

Ba'zi davralarda kurash boshlanishidan oldin "quloqcho'zma" o'yiniga asosan o'smirlar taklif etiladi. Va tegishli gap-so'zlardan keyin o'rtasidan tugilgan ro'molcha qurga otvoriladi. Shunda, tabiiy, qo'yilgan sovrin ham aytiladi. Masalan: "Bir juft kalish!" yo "O'n so'm puli bo-or!" deyiladi.

Keyin bosa-bosni ko'ring. Tugun o'rtaga kelib tushishi bilan hamma unga yopiriladi. Albatta, kimdir uni oladi. Oladi-yu, qulog'ini "beradi". Ya'ni qo'li yetgan bola uning qulog'ini cho'zadi-buraydi, tortadi. Alqissa, u bola tugunni yo bironta sherigiga uzatadi yoki otvoradi. Shunday qilib, tugun qo'ldan qo'lga o'taveradi. Bu orada necha-necha yigitchalar quloqlarini ushlab (cho'zilgan quloq qizib ketadi), uf-uflab yurishadi. Lekin o'shalar ham yana...

Xo'sh, oqibat kim g'olib chiqadi? Tugilgan ro'molchani bakovulga keltirib bergani g'olib, deb o'ylaysizmi? Yo'q. Bu — qiyin emas. Qiyini, ha, eng mushkuli— o'smirlardan ko'p kuch-quvvat, tirishqoqlik va matonat talab etadigan — maydon o'rtasiga qoqib qo'yilgan yoki ikkita baquvvat yigit ushlab turgan silliq xodaga o'rmalab chiqish va tepaga yetib, tugunni ko'rsatishdir.

Bu ish har kimning qo'lidan kelmaydi: pochangdan tortib tursa, etagingdan tortsa, butingga osilsa... Tepaga chiqib bo'psan! Tag'in silliq yog'ochga tortilib...

"Quloqcho'zma" ana shu!

Berdi laqqi shu o'yinni tilga olib, Shalpangquloq ishtirok etsa, quloqsiz qolishini aytgan edi.

Darvoqe, bu kishi ko'p gapdon — mahmadona bo'lgani uchun "laqqi" degan laqab olgan. Shu bilan birga to'y-tomoshalarda bolalar o'yini musobaqalariga bakovullik ham qilardi.

Toshkanboyning kiyimini yuvib-artib, maktabga qaytdik. Biron soatdan keyin dars boshlandi. Ma'mura opamiz, albatta, Toshkanboyga e'tibor berdilar: "Tek yurmaysizlar-da", deb uni burchakdagi tunuka pech yoniga o'tqazib qo'ydilar. O'shanda sovuq tushib qolgan, sinfxonamizda taxta pol yo'q (uning bo'lishini bilmasdik ham), yer zax, shu bois pechkamizni qizdirib qo'yishni opamiz qorovulga bot-bot tayinlar edi.

(O'shanda beshinchi sinfda o'qirdik. Uni bitirsak, biz ham markazdagi o'rta maktabga borishimiz kerak edi.)

2

Shu kuni qosh qoraygan paytlar edi. Biz — jo'ralar boshi darvozamizda bo'lgan xaltako'chalar tutashgan joyda — maydonchada gaplashib turardik. Eski devor ostida Odil aka va Ochil aka degan aka-uka qo'shnilarimiz cho'nqayishib o'tirib gurung qilishardi. Odil akaning bolalari bekinmachoq o'ynashar, lekin qiy-chuv, chopish-quvishlar Ochil akaga yoqmas, chunki u kishining farzandi yo'q, tinchlikka o'rgangan edi. Bu aka-ukalar goho mast bo'lib urishib ham qolishardi. Shunda Odil akaning to'qqizta qursog'i Ochil akaga to'qqiz tarafidan yopishar, eng kichigi, albatta, jiydaning butog'i bilan amakisining boshiga solib qolar, Ochil aka keyin bizga — o'smirlarga tikan kirib qonagan kallasini ko'rsatib: "Buni ko'ringlar, jiyanlar!" deb yig'lar edi.

Umuman olganda, bizning kechki saylimiz shu yerda tugar, keyin: "Uy-uyiga, ko'cha-ko'yiga!" deb xayrlashardik.

Kechasi-tunda katta ko'chaga chiqib, aylanish yoki kinoxonaga borish bizga man etilgan edi, to'g'risini aytsam, o'zimiz ham chiqishga qo'rqar edik. Sabab: biz "shaharlik"lardan ham zo'r

"shaharistonliklar" bor, ular — ota-onadan yetim qolib, bezori bo'lib ketganlar shaykasi ediki, kap-katta kishilarni ham pana joylarda tunab qo'yishardi.

Urush kasriga ota-onadan ayrilib qolgan yetim-yesirlar 60-yillarning boshida ham "shaharning atamanlari" edi.

Qisqasi, Toshkanboy, Istat va men suhbatlashib turuvdik, xalta ko'chalar tutashuvidan paydo bo'lgan torko'chada pakana bir bola ko'rindi. Qo'lida chelak, g'izillab kelar edi.

— Erkin-ku!

— Ha, Erkin? — dedi Toshkanboy.

— E, sizlar shu yerdami? — Erkin burnini tortib, pishillab yonimizga keldi. Odatdagicha, Odil aka bilan Ochil akaga salom berdi: — Salom, amakilar! Qanday o'tiribsizlar? Urishmanglar. Malade-es... Biz sizlardan o'rnak olamiz.

Kattalar to'ng'illashib, Jabbor polvonning "shu uli ko'-o'p mahmadona chiqqan"ini aytib, gap ma'qullay boshlashdi. Erkin bizga qarab davom etdi:

— Yaxshiyam shu yerda ekansizlar.

— Nima bo'ldi? — dedi Toshkanboy. — O'zing qayerdan kelyapsan? Kechasi...

Erkin chelagini ko'rsatdi.

— Kuchugimga ichak-chaboq opkelyapman qushxonadan.— Keyin ovozini pastlatdi. — Ey, jo'ralar, kelayotib kinoxonaga burildim. "Qani, yangi kino keptimi", deb bordim. Borsam, odam mana shunday! Urush kino bo'lyapti. Ozgina ko'rib olgim keldi. Alfiya opaga yalindim: "Ko'raman-u, chiqaman". Bechora ruxsat berdi. Sekin kirib burchakka o'tdim. Ekranda to'polon. Xitoylar gamindonchilarni yasayapti. Menday keladigan bir bolani gamindon otib tashladi. Yig'lab yubordim. Odamlarga qo'shilib "Gamindonni ur!" deb baqirayotgandim, oldimda o'tirgan bir bola sekin burilib qaradi. Qarasam, gamindonning o'zi! Faqat quloqlari ko'rinadi... "E, Shalpang, sen ham kirgan ekansan-da?" dedim. Shunda ikki qo'llab qulog'imga yopishib qolsa bo'ladimi? Mana quloqlarim — chuchvaraday. Lekin uning qo'li kuchli ekan! Ushlab olgan: qisadi, buraydi. Ko'zimdan yosh chiqib ketdi... Albatta-da, faqat urayapman. Boks qilayapman— o'tmaydi unga. Kinoni

to‘xtatishdi. Uf... Keyin meni chiqarib yuborishdi. “Xuligan, zayas”, deb... Chelagimni ko‘tarib kelayapman-da. Jo‘ralar, uning adabini berib qo‘ymasak bo‘lmaydi. O‘zidan ketib qopti.

Shunday qilib, ertaga to‘ppa-to‘g‘ri internatga kirib borishga qaror qildik.

Ertalab sigirlarni podaga qo‘shgach, maktab hovlisiga, ya’ni maydonga to‘plandik. Qog‘oz-pog‘ozlarni yig‘ib, o‘t ham yoqdik.

Demak, to‘g‘ri kirib boramiz internatga. Ko‘pchilik bo‘lib hujum qilishsa, “shipanalarni chaqiramiz!” deb qo‘rqitamiz. Ammo Farmon aka ko‘rmasligi kerak. To‘g‘ri, u kishi: “Senlarni Ma’mura opaga chaqaman” deganlari bilan bu ishni qilmaydilar. Lekin internat hovlisiga bosqinchilik qilib kirib borishimizga ham qarab turolmaydi...

To‘rtovlon internatga yo‘l oldik. Yo‘lning u betiga o‘tib, oldin razvedka qilishni ma’qul ko‘rdik. Mening bo‘yim uzun, “Devordan qara” deyishdi. Keyin Erkin cho‘nqayib turdi. Men uning ustiga chiqib, qarasam...

“Kanat”ni bilasizlar: ikkitasi yerga, bittasi tepaga ko‘ndalang qoqilgan uchta yog‘och o‘rtasidan osilib turadigan yo‘g‘on arqon, oq arqon. Ipdan eshilgan. O‘shani mahkam ushlab, faqat bilaklarning-u barmoqlarning kuchi bilan tortilib-tortilib tepagacha chiqiladi. Keyin, qanday tushish — o‘z ixtiyoringizda. Shart shulki, oyog‘ing kanatga o‘ralmasligi kerak.

O, bu — juda qiyin ish edi. Badantarbiya darslarida markazdagi maktabning beshinchi va undan yuqori sinf o‘quvchilarini ana shu arqonga tortilib, tepaga chiqishga buyurishar, o‘ntadan bittasi yuqoriga chiqib tushardi.

Endi, qarangki, internat bolalari hovligayam shunday ustunlar o‘rnatib kanat bog‘lashgan, mashq qilishyapti ekan. Aytmoqchi, bu kanat “quloqcho‘zma” o‘yinidagi silliq ustunni eslatmaydimi?

Ha-da...

Shu payt uzun yotoqning bir eshigi ochilib, yashik ko‘targan Farmon aka chiqdi.

— Hoy, bolalar, bir soatdan keyin uylaringni ko‘raman! Kimlarning xonasidan bir hokandoz axlat chiqsa, o‘shalar nonushta-

dan mahrum bo'ladi! — dedi-da, yashikni yo'lkaga qo'yib, ko'cha eshigidan chiqdi.

"Xo'sh, qayerga ketar ekanlar? — deb qarab turdim.— Yotoqning orqasiga o'tadimi? — Orqa tomonda bog' bo'lib, yotoqning talay eshiklari o'sha yoqqa ochilar — o'sha xonalarda qizlar turishardi.

Shunda Erkin yurib ketdi. Men sakrab tushdim. Qarasam, Farmon aka markaz tomonga zing'illab ketib borayotibdi.

Ana, devlar o'ldi, sulaymonlar qutildi...

Sekin-asta yurib, eshikka yetdik. Keyin kerilib, hovliga kirdik. Shalpang arqonga osilib tushmoqda edi.

— Jazoni topdim! — dedi-yu, Erkin oldinga o'tdi.— Hoy, quloq! To'xta... To'xta deyapman! — Pastga sakrab tushgan Shalpang boshini egib qarab turdi. — Marsh tepaga! — dedi Erkin ham enkayib olib. — Tepaga! O'n marta chiqib tushasan. Chiqolmasang, qulog'ing bizniki bo'ladi.

U xayollanib jilmaydi-da, birdan kanatga tirmashdi, tortila-tortila o'rmalab chiqa boshladi. Yuqoridagi ko'ndalang yog'ochga yetdi. Qaytib tusha ketdi. Bunga qiziqib, boshqa bolalar ham to'planib kelishdi. Shalpang yana tepaga tortila boshladi-yu, kanatning yarmiga yetganda, birdan sirpanib tushdi.

— Qo'lim toldi, — dedi.

— Qo'ling bilan ishim yo'q! — zulm qilib buyurdi Erkin. — Chiq deyapman!

— Davay-davay, — dedi Istat ham. — Nu-ka. Ato poluchish sechas.

— Eshityapsanmi? — dedim men.

— Qo'lim toldi, — dedi u yana.

— Men nima dedim senga? O' qulog'ingdan kechdingmi?

Erkin shunday deganini biladi, Shalpang hamla qilib, uning har ikkala qulog'idan ham ushlab oldi. Lekin tutib turolmadi. Erkin "Voy..." deb tortiluvdi, uning qo'li chiqib ketdi. So'ng biz bosdik! Urish yo'q, chertish yo'q. Faqat qulog'ini buraymiz, tortamiz.

Shalpang g'ing demas, faqat yerda dumalar, tipirchilar edi.

Shu payt hovliga uch-to'rtta qizlar kirib keldi-yu, hamma ish buzilib ketdi.

— Nimaga qarab turibsizlar, hoy? O'likmisizlar? Jovlining qulog'iga rahmlaring kelmaydimi? — deb ustimizga yopirilib kelishdi. Buni ko'rib, anavi "tomoshabinlar"ga jon kirdi-yu, birdaniga bizga tashlanib qolishdi-ku?

Endi bizning quloqlardan ayrilishimizga oz qola boshladi. Ular ko'pchilik, buning ustiga yoshlari katta, umuman, durkun-durkun bo'zbolalar edi.

Sekin-sekin chekinib, tepinib, "Hali ko'rasan! Shu yerdan chiqolmaydigan qilamiz..." deyishib, ko'cha eshigiga yetdik. Va undan chiqa solib, zanjirlab qo'ydik.

Quloqlarimizni silab-siypab, yo'ldan o'tdik.

3

Bir tong eshitdiki (darvozamiz og'ziga kelib, otda turib baqirgan jarchidan), mahalla etagida yashaydigan Qirg'iz chobag'onning uyida to'y bo'lar emish! Bizlarga jon kirdi: yashirmayman sizlardan, uyimizdayam (jo'ralarimning uylaridayam) palov bo'lavermas edi. Shuning uchun to'yxonalarga vaqtliroq borib, xilvatroq joy topib, o'tirib olardik. Toshkanboy oramizda tetikroq — qozonboshidan laganni o'sha olar, Erkin pildirab davramizga yetkazardi. "Xilvatroq joy" deganimning sababini ham aytaman. Tungi banditlar bor-ku — qarovsiz bezorilar — ana o'shalar ham to'yxonaga kelishar, xizmatkorlar esa o'shalarning ko'nglini olishga harakat qilishar edi.

Ammo bu ochopatlar bu bilan qanoat qilmas, uchovorato'rtovora qo'yilgan laganlarni bemalol ko'tarib ketishar yoki o'rtadagi palovga shunchaki... tupurib o'tirishar, keyin tovoqqa uzatilgan qo'llar o'z-o'zidan tortilar va bolalar to'ng'illab-to'ng'illab turib ketishar, mushtumzo'rlar (hozir osh yeb olishgan bo'lsayam) ularning joyiga o'tirib olishardi.

Umuman, ularni — yosh terrorchilar desayam bo'lardi, yosh reketchilar desayam...

Xullas, panada oshni yeb olganimizdan keyin katta yo'ng'ichqapoyaga bordik. Atrofni odamlar to'ldirib yuborishgan: oldindagilar chordona qurib o'tirishar, o'rtadagilar cho'nqayishib,

orqadagilar oyoqda turishardi. Xotin-xalaj ham ko'p. O'rtada esa polvonchalar kurash tushayotgan ekan...

— Ho', bo'ylaringdan, — deb biz ham cho'nqayishib oldik. Ha, ichkariga suqulib kirdik-da.

Berdi aka — bakovul. Beliga bir qizil qiyiqni bog'lab olgan, gijinglagan toydek bo'lib davrada aylanib yuribdi. Ikki gapning birida:

— Mening gapim — ga-ap! — deb qo'yadi. — Qani, yana kim qo'shadi? Pulmi, gazmolmi — parqi yo'q... Mana bu ikkita polvonga bir juft kalish qo'yilgan! Bu ikkovining o'rtasiga — bosh sovrin! Kim nima qo'shadi yana?

— Mendan besh so'm! Mana shu olachoponga, — deb baqirdi birov.

— Men telpagimni beraman! — dedi boshqa birov. U mast bo'lsa kerak, odamlar kulishdi.

Qisqasi, polvonchalar kurashib bo'layozdi chog'i. Berdi aka dadilroq bolalarni davraga torta boshladi. Shu payt bir chetda — ko'rpachada o'tirgan oqsoqollar (sovrin o'shalarda) bakovulni chaqirib qolishdi. Keyin ma'lum bo'ldiki, bu ahvolda hademay katta polvonlarning ham chiqishiga to'g'ri kelarkan. Holbuki, rayonning kattalari hali yo'lda, qolaversa, kurash degani kattakon gulxan atrofida bo'lishi kerak.

Shuning uchun "olish"ni biroz to'xtatib, boshqa bir o'yin boshlashga kelishilgan ekan.

— Quloqcho'zma-a! — deb yubordi-ku Berdi aka o'rtaga chiqib. — Qani og'ochni opkelinglar! Chaqqonroq!.. He, barakallo, Odil aka! Ho', Ochil aka, siz ham ko'tarishib yuboring. Ikkovlashib ushlab tursalaring, soz bo'ladi-da. Xudoga shukur, ikkovlaring ham zo'r! Ho', bolalar! Sizlar ham chiqinglar-da. Sizlarning o'yin-ku — bu... E, Erkinboy? Jabbor polvonning bolasida bu! Bilaklarini ko'ring... Toshkanboy? Sulton? Barakallo! Sovrinni olmasanglar, guzarimiz uyatga qoladi!.. Ana, dasht sultonlariyam chiqishyapti! Tog' burgutlariyam kelishipti. Barakallo.

Qishloqilar orasida Shalpangquloqni ko'rdim-u, entikib ketdim. Lekin shu lahzadayoq vahima tushdi: ular — ko'pchilik, buning ustiga, bari baquvvat. Tog'-u dashtda o'z boshiga yayrab

o‘sgan-da! Agar shu kuchi, inoqligi ustiga g‘irromlik ham qilishsa, bas, sovrin ularda ketadi.

“G‘irromlik” deganimni mundoq tushunish kerak: deylik, tugilgan ro‘molcha bittasining qo‘liga tushdi. U, tabiiy, tikkayib turgan xodaga qarab yuguradi. Shunda uning atrofini sheriklari o‘rab olib, boshqalarni unga yaqinlatmasa... U bemalol, xodaga tirmashadi, hatto tepaga chiqib olishiyam mumkin.

Agar maydonda tarafma-taraf bo‘lishsa, bu usulni— “g‘irromlik” deb bo‘lmas edi. Rost-da: xokkeyda ham, beysbolda ham shu usulni qo‘llashadi. Biroq, “Quloqcho‘zma”ning ulardan farqi — har kim o‘zi uchun kurashadi. Ayni chog‘da g‘olib chiqqan bolaning mahallasi ko‘kragini ko‘tarib: “Biz yutdik” deydi.

Shu bois bizning guzar bolalarigina emas, boshqa mahalla bolalariyam maydonda bir-birini kishi bilmas qo‘llashar, tugilgan ro‘molchani tanishiga uzatar, shu tariqa og‘ochga yetib borishar, tugunli yigitcha xodaga o‘rmalab chiqayotganida ham uni muhofaza qilishar — yotlarni yonlariga yo‘latmas, safni yorib kirishga yo‘l bermas edilar. Shuni aytishim lozimki, ana shu holdayam og‘ochning uchiga chiqib borish, o‘sha yerda turib tugunni ko‘rsatish — e-he, onda-sonda bo‘ladigan hol edi.

Xullas, Berdi laqqi odatdagicha:

— Ho‘, chaqqonlar, ho‘ zo‘rlar! Eshitmadim demanglar, o‘yin qoidasini buzganlar davradan chiqib ketadi! O‘yinda birov birovni urmasligi kerak, mushtlamasligi, tepmasligi kerak. Unda g‘irromlik bo‘ladi!.. Faqat quloq cho‘zish hisob! Ha-ha, qulog‘i Shalpanglar xapa bo‘lmasin! Tomoshabin bo‘lish ham yaxshi! — deb, o‘yinning ahamiyati haqidayam gapirdi: — Bu o‘yinda iroda sinaladi! Chidam, bardosh, kuch-quvvat, chaqqonlik sinaladi! Ana shunday yaxshi jihatlarga ega bo‘lg‘on o‘g‘lo-on g‘olib chiqadi!.. Tarafkashlik bo‘lmasin, ho-o! Bu — mardlarning maydoni! Eng mard yigitga nasib etadi bu to‘n! — deb bir quloch beqasamni tepasida silkitdi. — Himmati baland og‘alarimiz yana qo‘shadilar hali! Kimdir betoqat bo‘lib:

— E, laqqi, boshla endi! Mendan besh so‘m! — degandan keyin bakovul chap qo‘lidagi ro‘molchani yozib, ichiga bir changal

tuproq solib, tugdi-da — Bor-ha! Har kimning omadini bersin! — deb osmonga otib yubordi.

Xuddi ko'pkarida uloqqa intilgan otliqlardek tushgan tugun ustiga bosa-bos qilib bordik. Yo'ldayoq bir-ikkita bola yiqildi. Biz jo'ralar shivirlashamiz:

— Qaysimiz olsak, Erkinga berish! Erkinni bilagi kuchli. Xodagayam chiqolar... Oldingdan kelsa — kusay, orqangdan kelsa — pinay. Qishloqilar bermasa, biqiniga sol...

Shunda og'ochni ushlab turgan Odil aka bilan Ochil akayam dalda bera boshladi:

— G'ayrat qilinglar, jiyanlar. Bu yoqda o'zimiz bor...

Qiziq: qo'liga tugun tekkan bola yiqiladi. Keyin qulog'i qo'lma-qo'l bo'lib... Goho tugunni olgan bola dodlab yuboradi: "Voy, biqinim!" Goho qur xuddi yirtqich qushlar galasidek dam nariga ko'chadi, dam beriga...

Bir payt qo'shni mahalla bolalari g'uj bo'lib, surilib-yiqilib, og'och tomonga jila boshladi. Birinchi bo'lib bizning bolalar baqirib yuborishdi:

— G'irromlik! G'irromlik!

Berdi akayam nimalardir deb baqirdi. Qayoqda! Ular og'ochga yaqin qolishdi. Shunda Erkin o'rmalab borib, ular orasiga kirdi-yu, tugunli bolaning faryodi eshitildi:

— Gurramdi to'kasan...

Erkin tugunni olgan ekan, tirsaklarini yoniga chiqarib aylandi-da, Toshkanboyga otdi. Toshkanboy ilib olish bilan qishloqilar uni bosib tushishdi. Pastdan Istat bo'g'ilib baqirdi: — Atpusti, ato ubiyu...

Shunda tugun menga otildi. Ilib oldim-u, aylanib chopaman deb uchib tushdim. Ammo tugunni yana Erkinga berishga ulgurdim. Erkin tugunni kissasiga tiqdimi, ko'ylagining yoqasidan ichkariga soldimi, ish qilib:

— Qani ro'molcha? Kim oldi, hoy? — deb hayqira boshladi o'zi. Hamma bir zum turib qoldi. Shunda Erkin birdaniga og'ochga yugurdi. Orqasidan baayni bahaybat qovoqarilar yopirildi unga. Yana bosib tushishdi. Shu on bir bola: "Voy, qo'limdi tishladi!" deb yuborganidan keyin Berdi aka yana aralashdi:

— Qoida! Qoidaga itoat qani!

Nihoyat, ro'molcha-tugun Shalpangning qo'liga tegdi-yu, yuragim "shuv" etib ketdi. Nazarimda, tugunni undan olib bo'lmaydigandek, u o'lsa o'ladiki...

Ana shu daqiqada uning kanatga tortilishni o'rganib ketganini ham esladim-u, og'zimdan shu gap chiqdi: "Og'ochga yaqinlashmasin!" Demak, uning "qishloq"doshlarini ham og'ochga yaqinlatmaslik kerak edi. Men yuqorida bu bolalar bizdan ba'zi yomon odatlarniyam o'rgana boshladi, devdim. Ana shulardan biri — shu yerdayoq bilinib qolgan, ya'ni birining qo'liga tugun tushdimi, uni o'rab olishar, shubhasiz bu "g'irromlik"ni shu yerda o'rganib olishgan edi.

Yana shunday bo'la boshladi-yu, bizning ko'zimizga hech narsa ko'rinmay, ularga otildik.

Shalpang ostimizda qoldi.

Ammo u teran bir tirishqoqlik bilan yog'och sari o'rmalar edi.

Shunda qo'shni mahalla bolalari o'rtaga yorib kirishdi va Shalpangni... Biri tizzasi bilan biqiniga niqtaydi, biri bo'yniga uradi, bittasi oyog'ining ostini qitiqlayotganini ham ko'rdim. Lekin Shalpang... xuddi suv ostidagi toshlar oralab suzayotgan g'avvosdek manzilga yaqinlashib bormoqda edi.

Bir payt Erkin uning bo'yniga o'tirib oldi-ku! Qo'lida — uning ikkita qulog'i. Xuddi o'rmalovchi bir mahluqni minib olgan-u, quloqlarni burab chetga chiqarmoqchiga o'xshardi.

— Chuh, chuh! — deb baqira boshladi u. — Bu yoqqa xumkalla! Yog'ochga baribir chiqolmaysan! Undan ko'ra ro'molchani ber!

Shalpang qo'llarini tirsakdan bukib olgan, tirsaklari bilan jilayotganini ko'rdim-u, hayron qola boshladim: shunchalik chidamlimi bu bola! Nahot bir quloch beqasamni deb... Yo'q-yo'q... Gap boshqa yoqda... Ana shunda yana bir narsani eslab qoldim-u, bo'shashib ketdim: — Axir, uning qulog'ini cho'za-cho'za og'riqni sezmaydigan qilib qo'ymadikmikan? Yo'g'asam, odam bolasi dosh berolmaydi bunday azoblarga...".

Nima deysizki, Shalpang og'ochga yetdi. Uni ushladi, asta-sekin tikka bo'ldi. Pastga sirg'alib tushgan Erkin uning biqiniga bir

soldi-yu, haqiqiy g'irromlik boshlanib ketdi: birov uning etagidan tortadi, birov yoqasidan, birov oyog'idan. U...

Tugun og'zida ekan. Kimdir tumshug'iga bir tushirdi: burnidan qon oqa boshladi. Shundagina Shalpang ingrab yubordi va... sheriklari bolalarga tashlanishdi. Shalpang shaxt bilan og'ochga tirmasha ketdi...

Yopiray! Shunda og'och ostida nima bo'lganini bilolmay qoldim. Erkinni Toshkanboy ko'tarib yubordimi, Ochil akami — u Shalpangni qulog'iga... bitta qulog'iga bitta qo'li bilan osilib turardi. Zotan o'yinchilarning o'zlari ham tomoshabinga aylanib, ularga tikilishardi. Shalpang... sekinlik bilan og'ochga tortilib ko'tarila boshladi. Erkin salanglar nari-beriga borib keladi. Oraliqda quloq... u endi quloq ham emas, Shalpangning yoqasimi-yengimi edi.

Shalpang odam bo'yi ko'tarilganda, Erkinning qo'li toldimi yo hafsalasi pir bo'ldimi — o'zini pastga tashladi. Va teskari qarab yig'lab yubordi.

Shalpang oyoqlarini qimir etkazmay xuddi arqonga tortilayotgandek xodaga ko'tarilib borardi. Xoda boloxonali uy baravari edi. Nihoyat, u yog'ochning uchiga ko'kragini tirab qoldi-da, ro'molchani tepaga ko'tardi. Xuddi bayroqni ko'tardi... Pastda shunaqayam qarsak bo'lib ketdiki, go'yo Shalpang butun olomonning orzusini ro'yobga chiqargan qahramon edi. Ha, qahramondek edi, buni tan olmaslik...

Ha, Shalpang g'olib chiqdi. Uning siymosida Iroda, Kuch-quvvat, Chidam va Tirishqoqlik g'olib chiqdi.

U pastga sirg'anib tushgach, Berdi aka dast ko'tarib olib, davrani aylantirdi-da, oqsoqollarning oldiga eltdi. Shalpang odatga ko'ra tiz cho'kdi. Chollar uni duo qilishdi. Keyin Berdi aka uzatilgan beqasamni uning yelkasiga yoyib tashladi. Shunda deng, to'y egasi Qirg'iz chobag'on egnidagi qora zar choponni yechib, Shalpangni ustiga yopti.

"Keyin nima bo'ldi?" Nima bo'lardi: Shalpang boshliq internat bolalari bilan beixtiyor yaqinlashib ketdik, keyin-keyin anavi... bezorilar "shaykasi"dan ham qo'rqmaydigan bo'ldik.

Darvoqe, endi Ma'mura opamiz ham xursand, Farmon akayam mamnun. Ota-onalarimiz ham... *1997*

TANHOLIK

"Shakarjon qiziq og'ir yotibdi", deb eshitdim.
Ko'rgani borsam, uyida yo'q. "Qayerda ustoz?"
— "Choyxonaga chiqib ketdilar". Choyxonaga borsam, o'tiribdilar.
"Ha, bu nima o'tirish? Kasal odam uyida yotmaydimi?" deb so'radim.
"Azroyildan qochib yuribman-e", deb javob berdi u kishi".
***Soyib Xo'jayev** aytgan edi.*

1

1910-yil, 31-oktabr. Kozelskiy bekati. Tong. Soat taxminan yettilarda Shamordino qishlog'i tomondan yelib kelgan foytun to'xtar-to'xtamas eshigi ochilib, papoq kiygan, suvsar yoqali paltodagi barvasta kishi yerga sakrab tushdi. Uning izidan oqchil mantoga o'rangan ayol tushdi. Undan keyin odmigina qora paltoli, boshiga qora shol ro'mol o'ragan juvon tusharkan, erkak hurmat bilan uning qo'lidan tutib tushirdi. Nihoyat, uchovlon ichkariga mo'ralab va qo'l uzatib turishdi. Ichkaridan ko'cha chiroqlarining ojiz nurida jilmaygani bilinib turgan keksa bir kishi elan-qaran siljib va bularga butkul suyanib, oyog'ini foytun zinasiga bir-bir qo'yib tushib oldi-da, shol ro'molining kiftiga qoqib qo'yib:

— Rahmat, qizim. Rahmat sizlarga, — dedi. Keyin u o'siq qoshlari ostidagi chuqur botgan ko'zlarini yiltiratib, ro'parasida fash-fash etib, bug' taratib turgan poyezdga qaradi. Qandaydir yengil tortib, chuqur nafas oldi. Keyin perronda izg'ib yurgan odamlarga ko'z tashlar ekan, birdan shoshib, suvsar yoqali yigitning bilagidan tutdi. — Tezroq vagonga kiraylik. Sonya kelib qolishi mumkin... Nima deding, qizim? U tek o'tirmaydi. Ketayotganimni eshitib, o'zini o'ldirmoqchi bo'lgan-u... Tezroq, azizlarim.

Vagon eshigi og'zida bularning yo'lini to'sgan provodnik cholning qizi uzatgan pattalarga ko'z tikib:

— Siz — Nikolayev? — dedi cholga. Uchovlon bir og'izdan ma'qullashgach, cholga boshdan oyoq — boshidagi eski, gardishi keng shlapa, egnidagi eski palto, oyog'idagi etikka sezilarli hayrat-la qarab olib, ikkinchi pattaga ko'z tikdi. — Frolova kim?

— Men, men, — dedi cholning qizi va yana ikkisi bu gapni ma'qullashdi. Provodnik endi juvonga — uning boshidagi odmi

ro'mol-u egnidagi odmi paltoga ko'z tashlab, boshini chayqadi: anavi ikkisidek bashang kiyimli boylar bu faqirlarga muncha hurmat ko'rsatishyapti? Qiziq. Nihoyat, provodnik ularning pattasini olib ko'rarkan, qiz otasining tirsagidan olib, vagonga boshladi. Buni ko'rib, anavi ikkisi ham ko'maklasha ketishdi. Provodnik ularga yana hayron bo'lib qaradi: "Bu chol Lev Tolstoy emasmikan? Tuladan kelgan telegrammani berish kerak...".

Kupe iliqqina, kenggina edi. Lev Nikolayevich deraza pardasini surib, tashqariga qaradi: nim yorug', odamlar... Orqada — tun, ko'kda yulduzlar.

— Ah, Xudoga shukr, o'zingga shukr, — deya o'rindiqqa o'tirdi u.

— Eh, dada, dadajon. Seni hech kim tushunmaydi. Men ham, — dedi qizi o'rindiqdagi to'shakni qaytarib o'tirarkan. — Aleksey Maksimovich to'g'ri aytgan: "O'n to'qqizinchi asrning eng murakkab odami — sizsiz". Toliqib qolmadingmi?

— E, yo'q, — dedi chol yorqin, ammo botinan tolg'in jilmayib. — Men o'zimni qushdek yengil his etyapman. Shu muhim... To'g'ri, a'zolarimda horg'inlik bor, ammo— bu hech narsamas. Hordiq chiqarsang, o'tadi-ketadi. Ko'ngilda gap ko'p, qizim.

— Ko'ngil-ko'ngil... — Shu payt boyagi bashang kiyingan erkak bilan xotin kirishdi. Erkak sezilarli g'ashlik bilan qo'lidagi telegramma tasmasini cholning qiziga uzatdi. Aleksandra uni o'qib ko'rib, yomon chimirildi-da: — Mana, ko'nglingga javob ham keldi, — deya tasmani otasiga uzatdi. — O'tiringlar, marhamat! — Keyin ularga joy ko'rsatgandi, ular qo'llaridagi sumkalarga ishora qilib, o'z kupelariga joylashib olishlarini anglatishdi.

— O'zing o'qi, Sasha. Ko'zim o'tmayapti, — dedi chol.

— "Ishingiz-ijodingiz uchun sharoitni o'zgartirish vaqti o'tdi, — deb o'qiy boshladi Aleksandra. — Bu safaringizda hech bir ma'no yo'q. Shunga qaramasdan vaqtincha yashab turishingiz uchun uy ajratib qo'yaman. Sizning Novikov".

Lev Nikolayevich boshini egib qolgan edi.

— Biz Tulaga tushmaymiz, — dedi. — Maslahati uchun tashakkur bildirgin, qizim... Nachora, uyam menga aql o'rgatadigan bo'pti. — Munglanib derazaga qaradi.— Orzu qilardim-a: deh-

qonchasiga bi-ir kulbada yashasam, dehqonday kiyinsam, unday ovqatlansam, ishlasam... — U o'sha xayolchanligida qiziga qaradi. — Dehqon yer chopadi, ekadi, hosil oladi. Hunarmand bichadi, tikadi, sotadi. San'at bilan adabiyotning ishiyam — shu: biri — jismoniy mehnat bo'lsa, biri— aqliy mehnat. Farqi yo'q. Lekin negadir, — deya siniqqina kulimsiradi, — dehqon bilan hunarmandning mehnati — foydalimi-yo'qmi, bu haqda fikr yuritilmaydi. Ammo san'at-u adabiyot haqida fikr yuritadiganlar bor. Ular — olimlar, tanqidchilar. Xuddi ruhoniylarga o'xshashadi. Go'yo ruhoniylar bo'lmasa, din ham, Alloh ham yo'qdek. Yoxud ular bo'lmasa, din-u Allohni odamlar tanimay qoladigandek.

— Dada, bu gaplarni menga aytayapsanmi, boshqa birovgami? — otasidan ko'z uzmay turgan Sasha ohistagina so'radi.

Chol pinak buzmadi.

— O'zimga... O'ylarimni ovoz chiqarib aytyapman, xolos. Dunyoni moddiyatdan iborat deb — materialistcha tushunadigan odamlar hamisha shu tarzda fikr qiladilar. Hamma balo shunda. Davlatning ham, sudyalar-u chinovniklarning ham xatosi shunda... Uf, — yana derazaga yuzlandi, — bu xatoni tuzatish uchun ko'ngillariga qaramaydilar. Aql bilan, hisob-kitob bilan ish tutadilar... Mayli-mayli! — Chol tebranib ketdi.— Shunday ish tutsinlar. Ammo barisi ezgulik yo'lida bo'lsin-da! Bolalar qanday yaxshi-ya! — Chol xo'rsinib, suyanchiqqa suyandi. — Ular bizdan yuz karra aqlli. Chunki ko'ngillariga qarab ish tutadilar. Ko'ngilda esa ezgulik bor. Xudo bor.

Otasi hayajonlana boshlashi bilan o'rindiqdan tushgudek bo'lib, uning qo'llarini silay boshlagan Aleksandra:

— Dadajon, bas. Hamma gaplaring to'g'ri, to'g'ri, — dedi.

"Sen ham onangga o'xshaysan. To'g'ri deysan-u..." deya gapira ketgisi keldi-yu, o'zini qo'lga oldi: bu — uning sevimli qizi Aleksandra. Faqat shu, shugina o'zining Yasnaya Polyanadan bosh olib chiqib ketishini, qayerdadir bir g'arib kulbada qolgan umrini (tabiiy, ishlab) o'tkazish qarorini, nihoyat, birinchi bo'lib ma'qulladi. Demak, u dadasining graf uyida — qasrda yashashdan nomus qilib, to'yib ketganini, illo, atrofda ochlik, faqirlik hukm surayotgan bir zamonda o'zining ana shunday koshonada to'q-to'kin

hayot kechirishi— uyat, nomus, o'z e'tiqodlariga zid ekanini tushungan: axir, u — otasi — dunyo taniydigan, imperator Nikolay II ham, kezi kelganda, qo'l qovushtiradigan, kuni kecha Nobel mukofotini olishdan voz kechgan— hayotini allaqachon ezgulik yo'liga — odamlarni baxtli qilish yo'liga bag'ishlab qo'ygan, pirovardi, "o'zing uchun emas, o'zgalar uchun yasha!" degan shiorni umriga dastur qilgan insonni, nihoyat, o'z armonlaridan biri ham ushalmayotganini ko'rib, umri esa poyoniga yetganini anglab, endilikda bu hayotda yashashida ma'no qolmaganiga inonib, azbaroyi "ko'rmayin ham, kuymayin ham" degandek, faqir-haqirlar qatori umrguzaronlik qilishdan boshqa yo'l topolmagan, ana shuning uchun hamma-hamma narsadan voz kechib, qandaydir bir dehqonning kulbasini makon tutmoq niyatida yo'lga chiqqanini biladigan va aks holda, otasining qazosi tezlashib qolishiga inongani uchun uni borar manziligacha kuzatib qo'yish uchun ham yonida yo'lga chiqqan qizi bu...

— Rahmat, chirog'im, rahmat, — dedi chol, nihoyat, uning qo'lini silab. — Sen meni tushunasan. — So'ng bir entikdi. — Onang ham tushunsaydi.

— Tushunadi. Tushuntiramiz, — dedi Aleksandra qat'iyat bilan: biroq onasi Sofya Andreyevnaning "tushunishi"ga ishonmas, ilojini topsa, orqalaridan yetib kelishiga ishonardi: yetib kelishi va otasi bilan uchrashishi esa — dahshat. Lev Nikolayevichni halok qilishi tayin edi; qariyaning yuragi ikki marta urishdan to'xtab qoldi: ikkisiga ham onasining "tushunmasligi" sabab bo'ldi: onasi — chin moddiyunchi, otasining tili bilan aytganda, "sof materialist"...

— Men unga ikkita xat yozdim, — dedi qariya o'kinch bilan. — Shoyad ozgina tasalli topsa... — U yana hayajonlanib ketdi. — Axir, hozir uning ahvoli chatoq! O'zini osmoqchi bo'lganini aytding-ku o'zing? Shunday holatdagi odam bilan gaplashib bo'ladimi? Ayniqsa, men... Uf, men unga ko'p shartlar qo'ygan edim: chamamda, beshta yo'lni aytgan edim: birini ham qabul qilmadi... — Chol yana chayqalib, dardli tovushda hasrat qila boshladi: — Tinayev bilan munosabatlarini bilasan. Haligi yetti yot, ahmoq kompozitor bilan. Uyat... Shu yoshda. O'ttiz besh yildan keyin-a...

— Dada, shuni eslamang, — deb joyiga o'tirdi Sasha. — Mening... ishongim kelmaydi, shunchaki uning muzikasini...

— Qizim, qizim. Axir, sen aqlli qizsan-ku? Mening yo'g'imda uyimizga har kuni kelganiyam yolg'onmi?

— Uf, kelsa kepti,— deb yubordi Aleksandra.— O'zingiz ham... juda unaqa... Kechirasiz, onam bilan bir uyda yotmaganingizga necha yil bo'ldi?

Chol nochorlik bilan qo'llarini yozdi.

— Yotolmasam, nima qilay.

— Choy ichamizmi?

— Jonim bilan.

Sasha kupedan chiqqach, Lev Nikolayevich o'z-o'zidan uyalib ketdi: nega o'sha Tinayev yaramasni tilga oldi? "Uni unutamiz. Men unutdim... Sen ham unut" deb Sofya Andreyevnaga aytgan, va'da bergan va keyinchalik, darhaqiqat, unuta boshlagan edi-ku?

Eslamaslik kerak: hammasi qoldi, qoldi, qoldi... Bu yog'iga endi... U tag'in derazaga yuzlandi-yu, stolchadan beixtiyor telegramma tasmasini oldi. Ko'ziga yaqin tutib o'qirkan, birdan g'ijimlab tashladi:"Menga baribir. Baribir...".

Keyin poyezdning shu ketishda ketaverishi, ketaverishini istab, paltosiga o'ranib oldi. Shu holati o'ziga yoqib ketib, isminiga o'zgartirgani, ya'ni Nikolayev deb o'ziga familiya qo'ygani, Sasha esa — Frolova bo'lganini eslab, go'yoki barcha tanish-bilishlarini aldagandek mamnun bo'ldi: ha, provodnik ham uni tanimadi. Aftidan, sal g'alati bo'ldi, ammo Tolstoy ekanini bilmadi. Kiyimning bunaqa — darveshonasidan kiygani ham xo'p ish bo'ldi-da.

Lekin biron yerda "sir" ochilib qolsa... Yo'q-yo'q. Odam to'planadi. Gazetalar yozadi...

Chol, axir, o'lgani ketayotir...

Ammo shu ketishda qayerga...

Lev Nikolayevich o'ylanib qoldi-yu, ko'z o'ngida yuksak tog'lar ko'rindi: qirlar, cho'qqilar, so'qmoqlar... Paltosini tashlab, mallarang tivit jemper kiyib olgan Sashadan keyin (uni ko'riboq: "Demak, Sasha Varvara bilan qo'shni kupeda yotadi. Yaxshi, ma'qul", deb o'yladi Tolstoy) qo'lida bloknoti bilan Feokrito-

va ("demak, yozib oladi aytganlarimni. O'ylabroq so'zlashim kerak. Axir, ustidan ko'rishga ulgurmasligim mumkin") bilan yalangbosh — sochlari hamishagidek silliq taralgan Dushan Petrovich kirib kelishdi. Tolstoy vrachning paltosini yechmagani — shunchaki egniga tashlab qo'yganini ko'rib: "Do'xtir-da, ehtiyotkor, — deb o'yladi. — E, hayajonda-ku? A-a, Sasha aytgan: hali ancha hayajonlandim. Yaxshimas. Hozir pulsimni sanaydi".

— Kelinglar, azizlarim, — dedi Lev Nikolayevich o'rnidan qimirlab. — Men sizlardan juda-juda xursandman. Ammo ortiqcha erkaligim, bezovta qilib qo'yganim uchun uzr so'rayman.

Makoviskiy Tolstoyning yoniga o'tirib, unga burilishi zamon adib qo'lini uzatdi. Do'xtir valine'matining suyaklari yo'g'on, serajin, "mehnatkash" qo'lini olib, bo'g'iniga boshmaldog'ini qo'yishi hamon Lev Nikolayevichning xayoli tag'in Kavkaz tog'lariga og'di: endi tog'liklar bilan otishmalar, yaradorlar, qoyalarni panalab kelayotgan qandaydir hamshira ko'rindi. Otasining ro'parasiga o'tirib olgan Aleksandra vrachning yuzidan ko'z olmay:

— Bizni bezovta qilishni istamasang, dada, hayajonlanmaysan — dedi. — O'tgan ishga salovat: hammasi qolib ketdi... — So'ng birdan dadasiga tikildi.— Endi qayerga boramiz, dada? — iltijo qilib so'radi.— Tulada to'xtamaymiz.

Tolstoyning xayolida tag'in tog'lar, cho'qqilar, yolg'izoyoq yo'llar namoyon bo'ldi-yu, o'tgan kuni ko'rgan tushi esiga kelib qoldi: tog' bag'ridan ketayotgan ekan, surilib, ushlagan butasi qo'lidan chiqib ketib, quyiga siljigan va yiqilgan edi...

— Tog'da ehtiyot bo'lib yurish kerak, — dedi xayoldan arimay. Keyin qizining o'ziga tikilib turgan ko'zlariga ko'zi tushib, hushyor tortib ketdi. — Qayerga boramiz dedingmi?.. Buni o'ylab ko'ramiz, qizim. Umuman, menga farqsiz-ku endi... Lekin hozir men Kavkaz tog'larini eslab o'tirgandim.

— Nima, Kavkazga boramiz deysanmi?

— O, yo'q. O'tmishga qaytib bo'lmaydi, — dedi Tolstoy bu gapga beixtiyor katta ma'no berib. — Ammo eslash yaxshi... — So'ng entikib, xo'rsinib yubordi.— "Hojimurod"ni sen... ham, Dushan ham biladi,— deya ustozning qon tomiri maromida ura-

yotganidan qanoatlangan do'xtirga qarab oldi. — O'n yildan buyon tugatolmayman. Andisham bor: tog'liklar oldida uyalmasligim kerak. Knyaz Nekashidze juda yaxshi ma'lumotlar berdi-da.

— Dada, shuncha yaxshi ko'rasanmi o'sha tog'liklarni?— deb so'radi Sasha otasining o'sha asar uchun o'n yillarcha izlanganiga achinib. — Qandaydir yovvoyi, kallakesar...

— Hay-hay-hay! — Tolstoy qizining so'zini kesdi. Shunda unga tag'in: "Onangga o'xshab ketding..." demoqchiligini sezib qoldi-yu, tiliga kelgan boshqa muhimroq gapni ayta ketdi: — Men faqat sevgan, ko'nglimda yotgan narsalarni yozganman. Yozib keldim... Umuman, san'at ahli, birinchi navbatda, samimiy bo'lishi kerak. "Samimiylik" niqobi ostida qiyshanglamasligi kerak. Baribir seziladi... Bizning adabiyotimizda eng yomon kasallik — takabburlik bo'lib qolyapti: unday adiblar na sharq donishmandlarini biladi, na Bobil, na Misr, na Grek, na Rim, na-da Xito-yu Buddani biladi. Ular allaqachon aytib qo'yishgan: san'at — samimiyatdan kelib chiqadi, ezgulikka xizmat qiladi, deb... Insonni sevish kerak. Mikluxa-Maklayni eslaysanmi, Sasha? Ikkita broshurasini yuborgan edi. Attang, o'zi bilan uchrasholmadim. Qaranglar, do'stlarim, Yangi Gvineyaga u qurol bilan, aroq bilan bormadi. Qo'lida yoy, oq tanlilarni ko'rarga ko'zi yo'q, odamxo'rlikni hali tark etmagan qabilalar orasiga faqat... aql bilan, ochiq qalb bilan kirib bordi va ularning mehrini qozondi. Chunki ularga — inson deb qaradi. Inson! — Lev Nikolayevich yana to'lg'anib ketdi, — hamma yerda — inson! Allohning bandasi... — Birdan qiziga tikildi u. — O'sha tog'liklar ham — ulug' insonlar bo'ladi. Men bilaman. Sen ham o'qigan, eshitganlaringni bir chekkaga qo'yib, ularni — insonlar, deb o'ylasang, mening fikrimga kelasan.

— Yo'q, dada, men shunchaki...

Qizining qiynalganini ko'rib, unga yon bosdi qariya:

— Bilaman, sening qalbing toza. Hammalaring oliyjanob odamsizlar. Faqat undan-bundan eshitilgan gaplar, hukumat siyosati — bosqinchilik siyosati, o'zga xalqlarga past nazar bilan qarash kayfiyati, hatto durust-durust yozuvchilarimizning ham shu nuqtayi nazarda turishlari ko'plarga ta'sir etadi... — Chol g'ijinib ketdi. — Menga Dostoyevskiyni avliyo, deb uqtirishadi. Uni pay-

g‘ambar deguvchilar ham bor... Axir, u Yaxshilik bilan Yomonlikning o‘rtasida — bularning farqiga yetib-yetmay o‘lib ketdi-ku? Uslubi pala-partish, kallasiga kelgan gapni qog‘ozga tushiradigan, qahramonlari nuqul Dostoyevskiyning tilida gapiradigan bir adib edi. — Tolstoy qiziningina emas, uning dugonasi Varvaraning ham, hatto Dushanning ham bosh egib qolganlarini ko‘rib, g‘amgin kulimsiradi. — Bilaman, gaplarim sizlarga yoqmayapti... Lekin, — deya birdaniga chuqur, ojiz ko‘zlari yaltillab ketdi. — “Yozuvchi yon daftari” jurnalining birinchi soni eslaringdami? Dostoyevskiy jurnalning o‘sha sonida — birinchi betida Aleksandr I ga bergan maslahati — uyat, nomussizlik.

Otasini ortiq hayajonlantirmaslik niyatida o‘ta xotirjamlik bilan so‘radi Sasha:

— Nimaydi u? O‘shanda yosh bo‘lganman...

— “Nima qilib bo‘lsa ham O‘rta Osiyo bilan Turkiyani bosib olmoq kerak” deb yozgan edi. (Vo chto bi to ne bilo, nado zavoyevat Srednyuyu Aziyu i Tursiyu.) O‘shanda undan ko‘nglim qolgandi, qizim. Axir, qanday qilib birovning yurtini bosib olish kerak? Nega?.. Nega Allohning panohida hamma erkin, bir-biriga do‘st bo‘lib yashamasligi kerak. Yo‘q: ana shunday yashashi lozim. Sevgi! (“Lyubov!”) Hamma harakatlarimizning zamirida shu — sevgi yotishi kerak. San’atning eng ulug‘ vazifasi esa — insonlarni birlashtirish, bir-biriga birodar qilishdan iborat.

— Albatta, albatta, — dedi Dushan Petrovich: u ulug‘ adibga shaxsiy do‘xtirgina emas, maslakdosh ham edi.

Varvara Mixaylovna ham:

— Ha, ha, — deb bloknotiga yozishda davom etdi.

Tolstoy o‘zining fikr oqimidan chalg‘imas edi:

— Hatto Pushkin, Lermontov ham tog‘liklarga qanchalik besh ketib, “mag‘rur ular. Do‘stlikka sodiq ular. Xiyonatni kechirmaydi ular”, deb yozishgan bo‘lmasin, baribir ularga kiborona qarashdan o‘zlarini tiya olmagan edilar. — Chol yana qiziga tikildi. — Pushkinning Kavkaz safarini esla. Knyaz Rayevskiy xotiralarida yozadi. Pushkin turklar bilan jang mahali o‘zini tutolmay, otini yeldirib ketadi. Shunda biznikilar bir tepalikni ishg‘ol qiladilar. Pushkin o‘sha tepada turib olib: “Yashasin Rus quroli. Turklarning

yana bir tepaligi bizniki bo'ldi!" deb xitob qiladi... Men uyalar edim, — Lev Nikolayevich mung'ayib davom etdi: — Nimagaki, o'zimizning bosqinchi ekanimizni bilardim... To'g'ri, keyinroq buni his etib, keyin fahmlab bilib oldim. O, yoshlik... Lekin, xayriyat, men o'n besh yoshimdayoq Russoni o'qigan ekanman: erk, erkinlik nimaligini tushunar edim. Injilni o'qigan edim: insonni sevar edim... To'g'ri, o'shanda fikran sevardim tog'liklarni ham... — Chol o'rindiqqa yastanib, ko'zlarini yumdi deyarli. — Keyin u erksevar xalqlarni qalbdan sevib qoldim. "Kavkaz asiri"ni o'shanda yozgan edim. Tog'li qizchani qanchalik sevib yozgan edim. Inson-da u, inson, — deya ko'zini ochdi. — Yoshgina edi, bola edi: pokiza qalbli edi... O'sha kezlar, — deya xo'mrayib davom etdi Tolstoy, — men Shomilgạ qarshi urushayotgan batalonda edim. Ho', yaxshi urishgan bo'lsam kerakki, Georgiyev krestiga tavsiya etishgan edi... Ikki kishiga o'rin berishgan ekan, men bir keksa soldatga berdim o'rnimni.

— Hojimurod ham o'sha Shomilning...

Lev Nikolayevich beixtiyor:

— Ha, — deb yuborgan chog'ida eshik ochilib, barkashda choyli stakanlarni ko'tarib boyagi provodnik kirdi. Lev Nikolayevich darhol qunishib oldi. Ayni mahalda qizining hali choy opkelaman deb chiqqanini esladi: demak, vagon mutasaddisiga buyurgan ekan. Ishqilib, kimligini bilmasin.

3

— Salom, Lev Nikolayevich! — Provodnik tillo topgandek tirjayib va g'urur bilan patnisni stolchaga qo'ydi. — Men sizni darhol tanigan edim,— deya egilgan ko'yi (Tolstoyni yaxshiroq ko'rib olmoqchidek) davom etdi. — Lekin hayron bo'lmadim. Sizning oddiy dehqon kiyimida yurishingizni eshitgan edim. Ko'p yaxshi bo'ldi-da o'zingizni ko'rganim. Uzr, shu kupeda... — Gapini tuzatish, balki jamoani chalg'itish uchun qaddini g'oz tutib, bemalol tislandi. — Telegramma sizlar kelishinglardan bir soat oldin keluvdi...

Hamon qunishib, ammo yuragi allanechuk (o'ylaganiga zid o'laroq) yoqimli tepib turgan Lev Nikolayevich qiziga zimdan qaradi: telegrammani shu bergan ekanda.

Aleksandraga provodnik ham qaradi-yu, chamasi, u "otam bilan kamroq gaplashing" degan bo'lsa kerak, birdan yorqin tabassum qilib, yana tislandi.

— Xizmatga tayyormiz, — deya oyoqlarini askarchasiga juft qilib, boshini egdi va chiqib ketdi.

"Harbiyda xizmat qilgan. Balki politsiyada..." — deb ko'nglidan kechirgan esa-da, unga biron og'iz iliq so'z aytmaganiga achindi Lev Nikolayevich: bechora, qancha hurmat ko'rsatdi. Yo'g'asam, ular ham — o'zicha chinovnik. To'g'ri, uyam poraxo'r-u, baribir odamga odamchasiga muomala qilish lozim.

U beixtiyor xo'rsinib, o'zining kimligini, albatta ushbu poyezddagi boshqa ko'p odamlar ham hademay bilib olishlariga ishondi va esiga tushgan voqeadan kulib yubordi: o'zining 80 yilligini nishonlash uchun Peterburgda maxsus komissiya tuzilib, buni Lev Nikolayevichga ma'lum qilganlarida, adib ularga yolvorgan edi: "Kerak emas... Odamlardan farqlanishni sira istamayman. Meni ko'tarib qo'yasizlar, o'zimdan xijolat tortib yuraman...". Bunaqangi dabdabalarni aslan xush ko'rmasligi, shuning uchun Pushkindek ulug' zotning ham haykalini ochish marosimiga (Turgenev Yasnaya Polyanaga maxsus kelib, iltimos etgan esa-da) bormaganini qayd etgan bo'lsa ham, baribir tug'ilgan kuni nishonlangan: Rusiyadagina emas, balki Ovrupoda ham muxlislari nishonlashgan, keyin Lev Nikolayevich ularga matbuot orqali kamtarona minnatdorchiligini bildirgan (bildirishga vijdonan majbur bo'lgan) edi... Ammo oradan bir muncha muddat o'tgach, Moskvaga borganida,— ko'zga tashlanmaslik uchun o'rtahol kiyingan bo'lishiga qaramay, uni vokzalda tanib qolishgan, hash-pash deguncha minglab odamlar to'planishgan. Tolstoyni olqishlashgan va ko'tar-ko'tar qilishlariga ham oz qolgan edi... Lev Nikolayevich hozir o'shani eslab, o'shanda ichi-ichida qandaydir mamnun bo'lganini ham iymanib xotirlab... provodnikning ham ko'rsatgan izzat-ikromi qandaydir yoqqani bois kulib yuborgan edi.

Qarasa, do'xtir chimirilib, qizi boyagidek xo'mrayib qarab turibdi.

— Bir narsani esladim, — dedi-yu, yana Kavkaz bilan bog'liq xotiralar, tog'li xalqlarga, umuman, o'zga mamlakatlarga Rus imperiyasining, o'zi uchun nafratli munosabati yodiga tushib, u gurung maromiga yetmay qolganini his etdi. — Men Nikolay II ga ham ochiq yozgan edim bu haqda, — dedi, — anavi bosqinchilik siyosati haqida...

Ular uchovlon bir-biriga qarab olishdi: shubhasiz, ular bu sakson ikki yashar cholning xotirasiga hayrat ila (go'yo uning muhofaza quvvati susayib ketayotganiga shubhalari qolmagandek) tan berdilar: ha, chol hech narsani unutmaydi, ayniqsa, miyasi "yo'nalgan" manzilni: o, shundoq bo'lmaganda "Urush va tinchlik" kabi epopeyalar paydo bo'larmidi? Kamida ikki ming sahifadan tarkib topgan asardagi har bitta detal, eng kichik qahramonning ham anchayin harakatlarini yodda tuta bilish uchun insonning xotira quvvati qanchalar kuchli bo'lishi kerak. Ha, bu chol hali kuchli...

Bu bilan ehtiyot bo'lib gaplashish kerak... Ammo bir muncha ko'p so'zlamayaptimi...

— Tavba, podsholarga maktub yetkazish ham qiyin-a,— Sashaga qarab mo'jazgina kulimsiradi Lev Nikolayevich. — Esingdami, ulug' knyaz Nikolay Mixaylovich orqali yetkazgan edim. — Shunda Sashaning yelkasi ko'tarilib tushdi: xo'rsinib yubordi.— Ensang qotdi-ya, qizim? — deb yana kulimsiradi ota. — Mayli, onangchalik jahling chiqmovdi o'shandayam... — Keyin tez-tez bosh irg'adi. — Bilaman, onang meni o'ylovdi. Bir kori hol bo'lmasin, devdi... Dushan, siz ham buni yaxshi bilasiz-ku? — Do'xtir butun gavdasi bilan irg'aldi.— Shunaqa... Lekin nachora, nachora? Boshqa ilojim yo'q edi...

— Men ham qo'rqqan edim o'shanda,— dedi, nihoyat, Aleksandra bemalolroq o'tirib.— Axir, oltmish birinchi yilda uyimizni tintuv qilishgan ekan...

— Parvo qilma, qizim, — dedi chol stakanni olib. — Hozir tintuv qilishmasam... Har qadamda ayg'oqchilari bor. Dadangni qadamini kuzatishadi. Eng yaxshi maqolalarini chop etgan

noshirlarni "davlatga qarshi qo'poruvchilik qilyapti", deb qamashdi-ku...

Sasha o'zini harchand bemalol tutayotgan bo'lmasin, yana o'ksib, yelkalari silkinib ketdi.

— Cherkovdan seni badarg'a qilishganda... Voy-voy, dadajon. Axir, bilasan-ku, qadimda nimalar qilishgan senday cherkov ta'limotiga qarshi borganlarni? — Birdan qizishib ketdi. — Kuydirishgan, yondirishgan! Badnom qilishgan... Tag'in sen onamdan xafa bo'lasan. Qanday maqola yozdilar seni himoya qilib!

— Rahmat, rahmat, qizim, — dedi chol. So'ng: "Onang meni emas, o'zini, oilamiz tutgan mavqeini himoya qildi..." demoqchi bo'ldi-yu, Sofya Andreyevna haqida boshqa gapirmaymiz, deyilganini eslab, tilini tiydi.

Ammo Rusiyadagi aksari ziyolilarning cherkovning Lev Tolstoyga nisbatan qilgan ushbu "hurmatsizligidan" g'azablanib, guruh-guruh bo'lib matbuotda chiqish qilganlari, adibning uyiga — Yasnaya Polyanaga ham shu mazmundagi maktublar kelganidan mana bu Varvara bilan Dushan ham yaxshi xabardor ekanlarini o'ylab, ko'ngli qandaydir taskin topdi; qolaversa, Sofya Andreyevnaning erini "himoya qilib" yozgan maqolasida Tolstoyning mazkur cherkovga-yu uning tashviqotiga bo'lgan asl munosabati ochilmagan (uni ochishga aqli yetmagan, illo, dinni — Iso ta'limotini eri kabi qabul qilmagan, qabul qilishni, aftidan, aqliga sig'dirolmas) edi.

Holbuki...

Lev Nikolayevich shu xususda baribir bir-ikki og'iz izoh berishni o'ylar ekan, eshik orqasida — yo'lakda qandaydir tapir-tupur bo'ldi: kimlardir kimlarnidir surishdi. Otasining u yoqqa qarab qolganini ko'rgan Aleksandra jahl bilan turib borib, eshikni ochdi-yu, yerga tushib ketgan shapkasini olayotgan provodnik ko'rindi: birov bilan talashganmi? Yoki eshikka qulog'ini taqab turganmidi...

Provodnik iymanib-iljayib, yo'lak adog'ini Sashaga ko'rsatdi. Nimalardir deb pichirladi. Uning gapi Aleksandraga ma'qul tushdi. Ammo chekinar ekan, u tag'in bir nimalar devdi, otasiga o'ychan qarab olib, provodnikka yo'l berdi.

— Meni ma'zur tutasiz, Lev Nikolayevich, — dedi vagon mutasaddisi tag'in qo'mondon qarshisida to'xtagan askardek bo'lib va ochiq yalinib davom etdi:— Biz sizni Rusiyada eng fuqaroparvar, hatto podsholar bilan ochiq bahslashadigan bir ulug' inson, yozuvchi sifatida bilamiz. Shuning uchun sizdan bir narsani so'ramoqchiydim. — U eshikni ochib, yo'lakka qarab oldi. — Siz xatda yozganingizdek xufiyalar serob... — Shunday degach, qizarib ketib, battar talmovsirab davom etdi: — Bundan yetti yil muqaddam podshoyi a'zam Nikolay II hazrat oliylariga jahl bilan xat yozganingiz rostmi?

Lev Nikolayevich provodnikka hali tuzuk muomalada bo'lmaganidan achingani uchunmi, uning bu tarzda duduqlanib gapirishini — chin samimiyatdan deb bildimi, birdan unga iltifot ko'rsatdi:

— O'tiring, azizim. Marhamat. Agar tashqarida zaril ishingiz bo'lmasa...

— O, mening sheriklarim bor, — deya Sasha tarafdagi o'rindiq chetiga omonatgina cho'kdi.

— Mening Nikolay II ga alam bilan maktub bitganim ham, undan o'n yillarcha burun Aleksandr III ga qatlni bekor qilish uchun iltimos bilan maktub jo'natganim ham rost, — dedi Tolstoy. — O'lganimdan keyin u xatlar e'lon qilinadi. — Keyin mehr bilan Aleksandraga va hamrohlariga qarab qo'ydi. — Bular e'lon qilishadi... — Biroz jimib, yana ilova qildi:— Mana, Sashaning onasi xo'jayin — 81 yilgacha yozgan asarlarimga. Undan keyingi — bugungi kungacha yozganlarimning ixtiyori — mening qadrdon do'stim, noshirim Chertkov Vladimir Grigorevichning ixtiyorida.

— Dada, — dedi shunda Sasha keskinlik bilan. Biroq shu onning o'zida ovozini zo'rg'a yumshatib, jilmaydi. — Shuncha tafsilotlarni aytishing shartmi? Bu janobning savoliga javob berding...

Lev Nikolayevich qizining tajanglanib ketgani sababini biladi: ilgari ham, ha-ha, keyinlari ham o'zi — Lev Tolstoy anchayin piyonista mujik bilanmi, isqirt gadoy bilanmi, yetim bolakay bilanmi — shunday bahuzur suhbatlashib o'tirganini ko'rsa, toqati toq bo'lib ketardi. Mashhur ota qizining fe'lidagi bu jihatni ham —

"onasiga o'xshab ketishi"ni dilida qayd etgani holda, unga xayrixohona tabassum qildi.

— Balki bu janob o'sha xatlarning mazmuniga qiziqar, — dedi. — Shuning uchun...

— Shunday-shunday, — dedi shunda provodnik hayajon bilan. — Kim qiziqmas ekan unday xatlarning mazmuniga?.. — Keyin gangib jamoaga qaradi. — O'sha xatlar yo'q-a... bu yerda?

Tolstoy beozor kuldi.

— Albatta.

— Bilasizmi... — Provodnik kitelining ko'krak kissasidan oppoq qog'oz chiqardi; buklangan, buning ustiga, bir necha varaq ekan, asta ochib va qo'li qaltirab, Sashaga uzatdi. — Shuni bir sherigim to'rt yil burun topib olgan edi. O'shanda 1-klass vagonda provodnik edim. Ulug' knyaz Nikolay Mixaylovich tushib qolgan edilar... O'sha kishidan tushganmi bu...

Tolstoyning: "O'sha kishidan!" deb yuborishiga oz qoldi. Va qiziga oshig'ich buyurdi:

— O'qi-chi.

— Bu... ko'chirilgan, — dedi Sasha peshonasi tirishib. — To'rtinchi nusxa bo'lsa kerak. — So'ng provodnikka negadir jahl bilan qarab qo'ydi-da: — Ba'zi joylari bilinmaydi, — deya o'qiy boshlashi bilan Lev Nikolayevich esladi: o'zining xati.

— Qattiqroq o'qi.

Sasha xatni o'zidan olisroqda — derazadan tushayotgan yoruqqa tutib, qaytadan o'qiy boshladi.

Nikolay ii ga
1902-y. 16-yanvar. Gaspra.

MARHAMATLI BIRODAR!

Sizga murojaat qilishimning boisi — Sizni nafaqat shoh deb bilganim, balki Sizni o'zimga birodar bir inson deb bilganimdandir. Qolaversa, men Sizga baayni narigi dunyodan yozmoqdaman, chunki qazoyim yaqin qoldi.

Tolstoy birdan jilmaydi: "Odam o'limini bilmaydi-ya? Lekin sezyapman: yaqin qoldi!!!

Ammo Sizning bugungi kunda qilib turgan ishlaringiz, ya'ni ijtimoiy faoliyatingiz haqida, bu faoliyat qanaqa bo'lishi mumkin edi: millionlab insonlarga qanchalar foydali bo'lur edi va ushbu faoliyatingiz shu tarzda davom etaversa, o'sha millionlab insonlarga va shaxsan o'zingizga qanchalar ziyon yetkazishi mumkinligini aytmasdan o'lishni istamayman, birodar.

Tolstoy qanoat bilan xo'rsindi: "Birodar" ortiqcha...".

Rusiyaning uchdan bir qismi bamisoli qamal holatida yashaydi. Politsiya qo'shinlaringiz — oshkora va xufiyalaringiz kundan kunga ko'paymoqda.

"Bu provodnik ko'p talmovsirayapti. Tag'in o'zi xufiya bo'lmasin...".

Senzura shu qadarli ahmoqona ta'qiqlar chegarasiga yetib keldiki, eng qora kunlarimiz sanalmish — 40-yillar darajasidan ham o'tib ketdi. Diniy tazyiqlar hech qachon bu qadar shafqatsizlik bilan olib borilmagan edi... Shaharlarda — zavod-fabrikalar qoshida qo'shinlaringiz hargiz tayyor turardiki, qaysi bir joyda xalq andak norozilik bildirsa, miltiqlariga ajal o'qlarini joylab yugurishadi...

Davlatning mana shunday shafqatsiz — muttasil amalga oshirayotgan tadbirlari tufayli 100 millionli dehqon xalq — ha, qudratli Rusiyaning dehqonlari kundan kunga kambag'allashib borayotir, ochlik odatdagi holga aylanib qoldi. Va, tabiiy, jamiyatning barcha qatlamlarida davlat siyosatiga nisbatan qarshilik ko'rsatish, unga

"5-yildagi fevral inqilobi shuning uchun bo'ldi, nihoyat, — deb ko'nglidan kechirdi Lev Nikolayevich. — Oldinda yangi inqilob kutayapti. Boshqacha bo'lishi mumkin emas... — So'ng xo'rsinib yubordi — Attang-a, attang, odam o'ladi, qon to'kiladi... Ha, bunday davlat, bunday siyosat mavjud ekan, qon to'kilmasdan iloji yo'q. Afsus...".

Avomning shohga, ya'ni Sizga va Sizning korchalonlaringizga ko'rsatayotgan sevgisi Sizni adashtirayotir, birodar. Moskva va boshqa shahar ko'chalarida Sizni va yordamchilaringizni ko'rishganda, xalqning "ura!" deb ayyuhannos solishiga ishonmang. Ko'pincha bu olomon, ya'ni xalqning muhabbatini Sizga izhor etuvchi bu avom — polisya tomonidan haydab kelingan va saf tortib qo'yilgan qo'rqoqlar bo'ladi. Eslaysizmi, bobongiz Xarkovda bo'lganida, ibodatxona maydonini to'ldirgan ming-minglab xalq — kiyimi o'zgartirilgan politsiyachilardan iborat edi.

Sasha birdan jimib, bosh egib qoldi. Keyin yig'lamsirab turib, otasining chakkasidan o'pdi. "Dadajon, dada... Siz qanday ulug' odamsiz..." dedi. Tolstoyning o'zi ham shu nuqtaga kelganda, uyatdan boshini egib qolgan, vujudida esa xavfli titroqni sezar edi. Qizining bu harakati uning ko'ngliga quvvat bo'lib, hatto quvontirib yubordiki, hamrohlariga qarab, ularning ham iztirob-u uyatdan jovdirab turganlarini ko'rdi. Provodnik esa xatni ilgari o'qib ko'rmagandek: "Nahotki, Lev Nikolayevich?" dedi. Lev Nikolayevich unga tuyqus sovuq tikildi-da, qiziga ishora qildi: "O'qi. Uyalish yaxshi. O'z shohingni qilmishlaridan uyalish, nafratlanish yaxshi... — So'ngra yana vagon mutasaddisiga ko'z otdi: — Bu xatni ko'proq nusxada tarqatish kerak, — dedi. — Mening xatim bu, men yozganman. Nega baqrayib turibsiz? Sasha, o'qi-chi... Ha, bu yog'idayam kerakli gaplar bor... — "Ko'rib turibman", dedi Sasha va yana o'qiy boshladi.

Sizning bu kunlarga kelib qilayotgan ijtimoiy faoliyatingiz shu tarzda kechayotir...

Dunyoviy siyosat yo'rig'ida ham Siz xalqlarning g'azabini qo'zg'atayotirsiz: chunonchi, Finlandiya xususidagi buyrug'ingiz — 1900-yili finlarni ruslashtirish maqsadida Finlandiyada "Davlat

tili — rus tili" deb e'lon qilganingiz, 1901–1902-yillarda Germaniya, AQSH, Angliya, Fransiyaning Xitoyga qilgan intervensiyasiga qo'shilishingiz, 1899-yili Sizning tashabbusingiz bilan Gaagada Tinchlik konferensiyasining ochilishi-yu, ayni chog'da Uzoq Sharqni batamom bosib olish uchun tayyorgarlik bobida buyruq chiqarishingiz — bu aksilinsoniy qiliqlaringiz bo'lmasligi mumkin edi...

Lev Tolstoy.

Yana qizib, hayajonlanib ketgan Aleksandra favqulodda jiddiy va mag'rur, otasi kabi qandaydir (aslida ma'lum) kurashlarga tayyor bo'lgandek Lev Nikolayevichga qaradi. Cholning ko'ksi ko'tarilib-ko'tarilib tushar, ammo ko'zi yuminqirab pinakka ketgandek edi. Sasha Varvara bilan do'xtirga ham shu nazar ila qaradi-yu, g'olibo provodnikka yuzlanib, maktubni unga keskin uzatdi.

— Ko'paytiring... Xohlasangiz, Stolipinning mahkamasiga topshiring. Aytingki, bu xatni haqiqatan ham Lev Nikolayevich Tolstoy yozgan ekan, deng. Ha-ha, podshohimiz buning asl nusxasini Ichki ishlar vazirligiga bermagan bo'lishi kerak. Aleksandr III ham otamning maktubiga javob bermagan edi. Ha-ha, bu odamning obro'sidan hayiqishadi ular... — Varvara uni gapdan to'xtatish uchun ishora qildi. Sashaning battar jahli chiqib ketdi. — Shuning uchun tuya ko'rdingmi — yo'q, deyishadi... Sen ko'r, men ko'r — tamom! Politsiya uchun esa — bu qimmatli hujjat! Mana, tasdiqlatib ham oldingiz...

— Nega, nega endi, — deya yelkasini qiyshaytirib o'rnidan turdi vagon mutasaddisi.

— Siz — agent, — deb yubordi Aleksandra vajohat bilan. — Eshikka qulog'ingizni taqab turgan ekansiz...

— Xudo haqqi agar... — Provodnik tuyqus yig'lamsiradi. — Lev Nikolayevichni qanchalar hurmat qilishimizni bilsangiz edi... — U xatni olib, avaylab bukladi. — Buni tumordek saqlab yuraman, singlim, — dedi va avaylab cho'ntagiga soldi. — Meni ma'zur tuting, do'xtir... — Keyin Tolstoyga javdirab qaradi.

4

Aleksandra maktubning oxirgi jumlalarini o'qishi zamon Lev Nikolayevichning xayoli yana Kavkaz tomonga ketgan, u yoqdagi jang-jadallar-u u yoqdan Yasnaya Polyanaga qaytishi ko'z o'ngidan o'tar-o'tmay, Dostoyevskiyning "Yozuvchi kundaligi" jurnalidagi ilk sahifa bu xotiralarni bosib ketgan, so'ng yana Pushkin, keyin Lermontov yodiga tushgan edi; Sashaning vagon kuzatuvchisiga aytayotgan gaplari uni ushbu xayoldan ajratolmagan esa-da, qulog'iga kirmoqda ediki, mutasaddining chiqishga shaylanganini payqab, yuminqirab turgan ko'zlarini birdan ochdi.

— Ey, o'tiring, azizim, — dedi. Uning mo'ltiragan ko'zlariga tikilib, birdan so'radi: — Nega shapkangiz tushgan edi... yerga? Yo'lakda to'polon bo'ldi, shekilli?

Provodnik birdan jonlanib va Aleksandraga xavfsirab qarab olib:

— Shunday-shunday, — dedi. — Sal-pal... Shu deng, sizning poyezdga chiqqaningizni bilishibmi, uch-to'rt yuvuqsizlar ham chiqishgan ekan. Taxmin qilama-an, sizlarni olib kelgan foytunchi aytgan bo'lishi mumkin. Ammo...

— Siz biletsiz qo'yar ekanmisiz? — chirsillab dedi Sasha. — Bizni qandoq o'tkazdingiz?

— Janob Lev Nikolayevich, — yana Tolstoyga murojaat qildi provodnik "qizingizdan xalos qiling", deganday chetlanib. — Bu vagon — 3-klass... Ular boshqa vagondan o'tib kelishdi. Provodniklarning ko'zini shamg'alat qilib...

— Xo'p, ularning muddaosi nima ekan? — so'radi Tolstoy va qiziga qo'lini sal qimirlatdi. — Sen sabr qil, Sasha.

— Ular, ular... — Provodnik negadir qo'liga qarab ming'irladi: — Sizdan pul so'ramoqchiykan... — Keyin shoshib, "aybim yo'q" degan kabi davom etdi: — Men bu gapni qizingizgayam aytuvdim. Ularni haydavordim, dedim. "Yaxshi qipsiz", dedilar. Shunda shapkani olgan edim...

Tolstoyga boshqa gapning keragi yo'q edi: provodnik kim? Ayg'oqchimi, boshqami — ahamiyati yo'q. Ammo aytilgan "yu-

vuqsizlar"ning pul so'rab kelganlari— uning uchun yetarli: isbot talab etmaydigan fakt edi: axir, axir...

U birdan o'zini behol sezdi: bu to'g'rida, ya'ni pulni yomon ko'rishi, puli yo'qligi haqida necha marta gazetalarga tushuntirish xatlari yozdi...

U sergak tortib, ammo o'zi gapirsa — yana holdan toyadigandek bo'lib, Sashaga tag'in qo'lini qimirlatdi-da (jim o'tir), do'xtirga o'girildi.

— Dushan, sen bu kishiga tushuntir. Toki bu kishi boshqalarga ham... — deya (shu gapning davomini aytishgayam hafsalasi kelmay), provodnikka joyini ko'rsatdi. — O'tiring, azizim.

Provodnik astagina joyiga o'tirdi. Hali vagon yo'lagida tapir-tupir bo'lganda darhol turib eshikdan qarashga ulgurolmaganidan (Sashaning yo'lini to'sish — uning jahlini chiqarish, demak) xijolat tortib, ayni chog'da bu chaqirilmagan mehmonning (provodnikning) bu yerdan tezroq gumdon bo'lishini istab turgan Makovetskiy bir ko'ngli uni tashqariga chiqarib tushuntirishni ham istadi, biroq Lev Nikolayevich "tushuntir" deganda, demak, shu yerni ko'zda tutgani bois Tolstoyning cho'ntagida shu tobda sariq chaqa ham yo'qligi, shunday ulug' va boy odam shu tobda batamom yo'qsul ekanini qanday qilib ifoda etsa — bu sirli, qiyshanglagan chinovnikka yetishini o'ylarkan, qaror qildiki, bu holni baralla aytadi: zero, tarixda bu kishiday inson o'tmagan, ehtimol Sulaymon podsho o'tgandir...

Lev Nikolayevich esa Dushanning aytajak gaplarini eshitish ham o'ziga og'ir tushishi, demak, eshitmaslik uchun yo'l izlab, yana xayolga tolish va o'zi uchun aziz-u muqaddas bo'lgan nimarsalar — g'oyalar, manzaralar, shaxslar haqida miriqib-berilib o'ylashni ma'qul topdi: ha, o'ylash, tasavvur qilish — unga yengil, hatto rohatbaxsh mashg'ulot edi; aftidan, vagonga chiqqandan beriyam ancha gapirib qo'ydi: o'zi istamagani holda gapirib ketdi, jahllandi, asablandi, ehtimol, shu narsayam uni ancha toliqtirdi.

Kupega kirganida qanday xursand edi: derazadan qaradi: tun, yulduzlar...

Tavba, suhbatga berilib, to'g'rirog'i, o'tgan voqealar haqida "sayrab", tashqari batamom yorishib qolganini ham sezmabdi...

Lev Nikolayevich derazaga qarab turarkan, ko'zi yumilib ketganini payqab qoldi. Uyalib, hushyor tortib, qiziga yalt etib qaradi. Sasha sumrayib-tikilib turgan ekan. Chol iljaydi. Qizi ham jilmaydi-yu, butun gavdasi bilan anavilarga burildi.

— Yo'q-yo'q, — dedi chol. — Xalaqit berma. Men... Gapiraver, Dushan. — Keyin provodnikka aytdi: — Azizim, gaplaring ado bo'lgach, bizga qarashsangiz. Tozaroq to'shak, choyshab...

Mutasaddi sapchib o'rnidan turdi.

— Hozir.

Tolstoy uni sevib ketdi.

Do'xtir ham o'rnidan irg'ib turdi.

— Men sizga keyin ham tushuntiraman, — dedi provodnikka. — Siz kupeni sozlang... — Keyin Tolstoyga dedi: — Lev Nikolayevich, tashqariga chiqib tursak...

"Graflikning, shuhratning ham o'ziga yarasha ustunliklari bo'ladi, a? — deya ichida qandaydir zavqlanib qo'zg'aldi Lev Nikolayevich. — Gap shundoq-shundoq deb buyurtma berganimizda, 1-klassda ketardik. Ozoda, toza kupeda... Mayli. Buyam yaxshi. Darvoqe, ayni menbop bu! Ayni... Faqat mana bularga qiyin... — Shundan keyin kechagi, o'tgan kunlar ham chopa-chopda, Sofya Andreyevnaning yetib olishidan xavotirda, Ostin ibodatxonasida tilovat qilish — o'tgan gunohlar (gunohlarini Lev Nikolayevich aniq eslolmas, ammo har qadamida his qilardi) uchun tavba qilish — ha-ha, ruhoniydan "gunohlarimni so'rab bering" deb iltimos qilish emas (unday ruhoniylarning tili boshqa-yu, dili boshqa ekanini Lev Nikolayevich juda yaxshi biladi: bu holni badiiy asarlarida ham, maqolalarida ham baralla aytgan; shu tariqa, albatta, cherkovning g'azabini qo'zg'agan, keyin esa, umuman, dinga, Isoga munosabatini ochiq bayon qilib, Injilni noto'g'ri talqin qilayotganlarini isbotlab berganida, cherkovning toqati tugagan edi), xullas, Alloh taolodan, ha, faqat uning o'zidan (go'yo yakkama-yakka turib) gunohlaridan o'tishini, bu foniy dunyoda bulg'anmagan kishining o'zi yo'qligini, u dunyoda imonini berishini tilab tilovat qilishar, keyin kohin singlisining akasi "dunyoni tark etayotgani" uchun yig'lab, shu holning o'zida ham o'zicha gunoh ekanini aytganlari — Tolstoy uni tinglashga majbur bo'lib,

ko'p xalqlarda inson 60 yoshga to'lganidan keyin "tarki dunyo etish" odati mavjudligi (masalan, hindularda o'shanday odamlarning o'rmonlarga ketib qolishlari, O'rta Osiyoda esa Ahmad Yassaviy degan so'fiyning 63 yoshdan keyin yer ostiga tushib yashagani...) haqida vazminlik bilan gapirib, nihoyat, barcha payg'ambarlar — Allohning yerdagi rasullari ekani, Alloh yagonaligini aytish ila singlisini tinchitgani — alalxusus, ul ibodatxonadan chiqib, Shamardinoga zudlik bilan yo'l olganlari...

... Ha-ha, keyingi kunlarning chopa-chop, qocha-qoch, qizg'in-asabiy tortishuvlar va yig'ilar girdobida o'tgani, nihoyat, bugun — naq soat 4 yarimda vokzalga jo'naganlari (ungachayam uyqu deyarli bo'lmagani), shoshilinchda, demak, 1-klass vagonga joy olinmaganini eslab: — "Bu jigargo'shalarim ham o'rganishsin fuqaro orasida yurishni, yotishni, muloqotda bo'lishni... Bu hammasi yaxshilikka", — deya Aleksandra bilan Varvaraning o'rtasida jilib, keyin Dushanning chaqqonlik bilan tutgan qo'liga tayanib, vagon yo'lagiga chiqdi. Deraza qoshiga bordi va yo'lak adog'ida to'planib turgan talay juldur kiyimlar tomonni to'sib olayotgan ayollarni kuzatib, miyig'ida kuldi.

— Ha? — dedi otasini, o'zicha, besh barmog'idek biladigan, ammo hamon unga hayrat ila qaraydigan qizi Aleksandra. — O'sha isqirtlaringiz bilan ham gaplashmoqchimisiz? Qo'ymayman. Dod desangiz ham... Tavba, o'zlari qochib yuribdilar-u ism-familiyalarini o'zgartirib, tag'in anavi ayg'oqchi bilan sirlashadilar...

"Qochib yuribdilar..." degan gap Tolstoyning yodiga bir haqiqatni tushirdi: axir, ko'zga tashlanmaslik — tanilmaslik uchun 3-klassdan joy olishni o'zi tayinlagan edi-ku!

Tolstoy mamnun bo'lib xo'rsindi: xotiradan ham quvvat ketyapti shekilli... Bu — dahshat: yozuvchi uchun, xususan, o'lim... Yo'q-yo'q. Shunchaki, ha, shunaki boyagi yoqimtoy hisga bir soniya berilib, ya'ni o'z mavqelariga mos kupega buyurtma qilganlarida, boshqacha — binoyi muhitga tushgan bo'lishlarini o'ylab, asl xayollaridan bir soniya chalg'idi, xolos.

— Hammasi yaxshi, joyida, — dedi Lev Nikolayevich va derazadan qarab, entikib ketayozdi: zumraddek sanoblar, kuz

chechaklari (sentyabrinalar), ana oqqina quyon... Bu yoqda butun boshli go'zal va mangu hayot mana men deb turibdi-yu, choli tushmagur nimalarni eslab, mijg'ovlanib mulohaza qilayotir. Lev Nikolayevich o'ziga kinoyali jilmayib turgan qiziga qarab, yana takrorladi: — Yaxshi.

Uni qara... Kavkazdayam mana shunday manzaralar bor! — Sasha: "Yana Kavkaz" deb ming'illadi, ammo cholning xayoli kerakli yo'lga tushgan edi. — Lekin u yerdagi tabiat ancha yovvoyi, yovvoyi... — Ovozi pasayib: — Lermontov "Bela"ni yaxshi yozgan-a? — deb qoldi birdan. — Tog' manzaralarini o'xshatib tasvirlagan. Yaxshi shoir u! — Shu bilan Lev Nikolayevich, Sashaning nazarida, "ke-yetdi". — Ammo "Munozara" she'ri — juda yomon. Kazbek tog'i bilan Shat-Elburs cho'qqisi munozara yuritadi. Odam shaklida. Lermontov rus qo'shinlarini mehr bilan tasvirlaydi. Kavkaz o'zimizniki bo'ladi, deb quvonadi. Buyam kam — Sharqqa past nazar bilan qaraydi... U yosh edi, juda yosh, navqiron edi, — deya qiziga achinish bilan uqtirgan bo'ldi. — Shuning uchun na Sharqni, na... Sharqni, umuman, bilmaydi. Bilsa, uni "ming yillardan buyon uyquda", uni biz uyg'otamiz, deb yozmas edi...

Dostoyevskiyning hidi keladi. Vo-oy, — Lev Nikolayevich shunday jirkanish ila boshini orqaga tortdiki, chayqalib ketayozdi. — Pobedonossevning maslahati bilan Nikolay II ning bolalariga saboq bera boshladi: o'qituvchilik qildi! Dehqon bolalariga emas, podshohning arzandalariga! Nimani o'rgatardi u — O'rta Osiyo bilan Turkiyani tezda bosib olishni shohga maslahat bergan bosqinchi... bosqinchilik, qon to'kilishining tarafdori? Juda cheklangan odam edi bu avliyo... Sasha, Sasha, kulsang — kulaver. Sengayam gaplarim yoqmaydi, Varvara qizim. Ammo inson — Allohning bandasi hech qachon qon to'kilishiga, odam o'ldirilishiga, o'zga yurtlarni bosib olinishi, erkin insonlarning kishanlanishiga xayrixoh bo'lmasligi kerak. E, Xudoyim, bu nima ahvol?

— Dada, dada... Ana, Dushaning bilan ayg'oqching joyni tayyorlab bo'lishdi. Yur, dadajon.

5

Kupega kirganlaridan keyin Aleksandra otasi yotajak (boya o'tirgani) o'rindiqqa tezlab borib, oq choyshab sirilgan to'shakning chetini surib qo'ydi, yostiqni ko'tarib tashlab, ustiga taptap urdi: go'yo qappaytirdi, cholning ozor topmasligi chorasini ko'rdi. Ammo ichidan o'tayotganini o'zi bilardi: par yostiqlar, shohi choyshablar, bu deraza — derazami, uyni bo'ylab turgan deraza — undan tushadigan mo'l-ko'l quyosh nuri— bular barchasi xayolidan zuv-zuv o'tar, ta'siri harakatlarida zohir bo'lar, tilida esa beixtiyor shunday so'zlar aylanardi: "Mana shu qotgan to'shakda yotadi endi. Qaysar chol. Xo'p azob chekib, yo'lidan qaytsaydi...

He, yo'-o'q, buni o'limgina qaytaradi", deb ko'nglidan o'tkazgan ko'yi chetlanib, Makovetskiy bilan Varvaraning o'rtasida, ularga suyaninqirab turgan otasiga joyini ko'rsatdi.

— Marhamat, janob graf! — Shunda birdan intilib, o'zi otasining qo'lidan tutdi. (Bulardan uni qizg'anganini ilk bora his etdi: bunga sari g'ashligi kuchaydi.) — O'tir. Yot... Yotasan endi. Hali ko'zing yumilib ketdi-ku? Qo'y o'sha Dostoyevskiyni. Bilaman. Lekin bizni undan bezdirolmaysan ham... Xo'p-xo'p. Yot. Yechib nima qilasan paltoni? A-a, balli. O'zlari dehqonlarning uyida, pichan g'aramlarida shunaqa dumalab yotardilar-ku...

Aleksandraning "zulmi" ostida yonboshlay boshlagan Lev Nikolayevich birdan iljaydi.

— Sen meni tushunasan, — dedi. — Hozir, hozir... Yana biroz o'tiraylik. Uyqum o'chib ketdi. Xudo haqqi...— Nihoyat, qiziga og'ir qaradi. — Mening ham ra'yimga qara... — Qizining chehrasida birdaniga xokisorlik-itoat zohir bo'lganini ko'rib, yana uni ardoqladi: — Rahmat, jonim.

— Lev Nikolayevich, ko'nglingizga kelganini qiling, — dedi shunda Makovetskiy: do'xtir mumkin qadar Tolstoyga erkinlik berishga ahd qilgan (uning "uzlatga chekinish" qarorini ham bejiz ma'qullamagan edi), illo, uning kuni yaqinligini yaxshi bilar, ayni chog'da cholning biron narsadan qattiq ranjishi— yurakning so'nggi bor to'xtashiga obkelishiga ham shubhasi yo'q edi.

— Rahmat, Dushan, — dedi Tolstoy turib o'tirarkan. Keyin o'zining g'oyat bardamligi, hushyorligini namoyish etish uchun hatto qattiqqina tomoq qirib, derazaga bemalol surilib o'tirdi. Tashqariga ko'zi tushib, bu tomonda ham o'rmon yastanib ketgani, gunafsharang kuz chechaklari qutirib gullab yotganini ko'rdi. Xayolining qay bir joyida yana Kavkaz jamol ko'rsatdi-yu, shu zahoti xira tortib ketdi. O'rnida, ajabo, Yasnaya Polyananing moychechak ochilgan (ochiladigan) yalangliklari, kapalak quvlab yurgan sutrang soyabonli qizchalar namoyon bo'ldi: bu manzarani qachon ko'rgan ekan? Balki tasvirlagandir...

Bu vaqtda Dushan Petrovich yana boyagi joyiga (endi to'shak chetiga) o'tirib, yuziga g'oyat xotirjam ifoda berib olgan, Varvara yana bloknotini ochgan, Aleksandra esa otasining ko'ksiga tushgan oppoq soqoli, oqarib qolgan qoshlari-yu sochlariga o'ychan tikilgancha, uning qariganini endi bilgandek: "Odamzod shunaqa bo'lar ekan-a oxiri... — deb o'ylar edi. — Ammo-lekin juda nuroniy, a? Xuddi sharq donishmandlaridek. O, ko'p narsani biladi bu chol. Afsuski...".

— Sasha, — deb qoldi shunda Lev Nikolayevich, — kelinglar, Yasnaya Polyana haqida gaplashamiz.

Sasha tek qoldi: o'zi undan qochib kelayotir-ku? U makonning nomini tutishniyam istamay qoluvdi-ku!

— Xo'p. Juda soz, — dedi sheriklariga zimdan qarab olib. — Ishqilib, — iljaygan ko'yi davom etdi, — Kavkaz mavzusini unutsak bo'lgani...

— O, o, juda ma'qul. Ko'nglimdagini aytding, — dedi Tolstoy: darhaqiqat, Kavkaz-u u ila bog'liq xotiralar, hatto o'ylarni ham qandaydir tark etganini, qolaversa, u o'y-u xotiralar esidan chiqib qolganday holatda ekanini angladi: bundan hayron ham bo'lmadi — baayni shundoq bo'lishi lozimdek edi.

— Lev Nikolayevich, — deb qoldi shunda Varvara Mixaylovna. Poyezdga chiqqanlaridan beri bu kamtar muxlisining ilk bor murojaat etgani uchunmi Tolstoy unga shoyon diqqat bilan boqdi. — Sizni... Sofya Andreyevna aytadilarki, sizlarning eng shirin hayot kechirgan vaqtlaringiz Kavkazdan keyin...

— O, Sofya Andreyevna juda to'g'ri aytadilar! — dedi Tolstoy va odatdagicha, xayoli o'zligiga og'di: — Mening eng totli, lazzatli kunlarim — o'sha kunlarga, oylarga, yillarga to'g'ri keladi... Ha-a, sog'inib kelgan edim. Keyin darhol "Sovremennik" jurnali bilan aloqa bog'ladim. Qo'limda "Bolalik" ("Detstvo") tayyor edi. Uni Nekrasovga yubordim. Hali-hali esimda: "Menda iste'dod bo'lsa, uni to'g'ri ayting. Shunday bo'lsa, — bitta so'zimni ham o'zgartirmang", deb povestni jo'natdim. U janobdan yaxshi mazmundagi xat oldim. Ammo asarimni "Mening yoshligim" deb chiqarishdi... — Lev Nikolayevich stolga termulib qoldi: u aytajak gaplari hamsuhbatlariga zerikarli tuyulishi ehtimolini ham, masalan, Sashaning g'ashini keltirishi mumkinligiyam his etar, ammo ko'nglidagi gapni aytishi kerak edi. Shuning uchun ularga qaramay qo'ydi: kishiga qarab gapirsang, uning chehrasidagi ifodalarni ko'rib turasan va unga moslashganingni bilmay qolasan; shunda yolg'onni ham qo'shib yoki allanimalarni bo'rttirib, balki tashlab ketayotganingni-da sezmay qolasan, kishi, sezganingda ham, qandaydir quvonch hissi seni shu taxlit davom etishga undaydi: illo, hikoyang eshituvchiga yoqayotgani senga ham yoqadi; shunday qilib, asl maqsad ham o'zgaradi... Shuning uchun Lev Nikolayevich, ko'pincha xayollari bo'lsin, fikrlari bo'lsin, o'zicha-boricha aytar va fikri bir to'xtamga yetmaguncha chalg'imas edi. — "Mening yoshligim" emish! — g'ijinib dedi Lev Nikolayevich. — Bu, birinchidan, badiiy asarga — hayotning tasviri deyilmish aqidaga ziddir. Adibni kamsitishdan boshqa narsamas... To'g'ri, adib qahramoni qiyofasiga kirib yozadi. Ammo men... insonning bolaligini yozgan edim!— cholning ko'zlari chaqnab ketdi. — Ma'lum bir davrdagi tabaqaga mansub bir yosh yigitning dunyosini tasvirlagan edim: he, unga boshqalarning tarjimayi hollaridan ham ancha narsalar qo'shilgan edi... — U birdan Sashaga ko'z otdi. — Sen bilasan-ku? Onang ham... Xullas, — deya yana suyanchiqqa surilib o'tirdi, — Nekrasovga achchiqlanib xat yozdim. Tafsilotini yozmadim. Faqat: "Mening yoshligim kimga kerak?" — dedim... Shu-shu, o'sha insondan ko'nglim sovidi. Lekin, — xo'rsinib oldi, — jurnal bilan aloqa qilishim, jurnal atrofidagi yozuvchilar bilan tanishishim, umuman, adiblar bilan

tanishishim lozim edi. Yaqinlashdim. Turgenev, Goncharov bor ekan. Chernishevskiy jurnalning g'oyaviy rahnamosi ekan... Uni darhol yomon ko'rib qoldim: u asabiy, hamma yeb — o'zi quruq qolganday zot edi. Tag'in, jurnalda Gogol yo'lini o'tkazishga harakat qilardi. Hajv yo'lini, satirani qo'llab-quvvatlardi... Tavba, san'at asari hayotni masxara qilsa — yaxshimish. Shunda hayot o'zgararmish. Qayoqqa qarab o'zgaradi? Axir, san'atning maqsadi — go'zallikni tashviq qilish, ezgulikka tortish emasmi? Men bilardim: allaqachon shu fikrga kelgan edim. Kim biladi, Russo tufaylimi, Injil tufaylimi...

— O'zingdayam bo'lgan, dada, ezgulikka intilish, to'g'rilikni, halollikni ulug'lash...

— Topding, qizim, — deb shodlanib ketdi Lev Nikolayevich. — Men o'zi shunday yaratilgan ekanman. Egamga shukr... — Tuyqus Varvaradan so'radi: — Yozyapsanmi?

— Ha-ha, keyin nima bo'ldi?

— Keyin, keyinmi... jurnaldan ham uzoqlashdim.— Nihoyat, chol yayrab xo'rsinib yubordi. — Mening eng yaxshi, samarali ijod qilgan davrim shundan keyin boshlandi. "Urush va tinchlik" ham... E, bilasizlar-ku. Lekin boshqa narsani bilmaysizlar, — deb qoldi birdan va, hatto Makovetskiyga ham qarab oldi. — Men asar yozish, jiddiy asarlarimni yozish jarayonida o'zim hayotda nimaniki yomon ko'rsam, nimaniki yaxshi ko'rsam — o'shalarni qaytadan, boshqa insonlar — obrazlar taqdirida kashf etdim. Kashf etdim-ku, atrofimga qarasam, hamon qayerdadir urush bo'layapti, hamon xiyonat sodir bo'layapti... Hamon oddiy xalq og'ir ahvolda yashayapti: har yerda ochlik, yupunlik... Men esam koshonada yashayapman: qornim to'q, ustim but. Xizmatkorlarim ko'p. Boyligim, e-he... Minglab faqir dehqonlar men uchun xizmat qiladi. Menu mening oilam a'zolari o'shalarning mehnati ustidan shohona kun kechiramiz... Bu qanaqasi? Hammamiz Allohning bandalari bo'lsak-ku, menda ming-minglab desyatina yer bo'la turib, anavilar yersiz bo'lsa... — Cholning ko'zi yana nurlanib, ovozi ham teranlashib ketdi. — Shuning uchun men xususiy mulkni bekor qilish tarafdori bo'lib qoldim.

— Xo'sh, — deb istehzoli jilmaydi Aleksandra. — Biron natija chiqdimi? Chiqaroldingmi? — Bu mavzu azbaroyi o'ziga ham, aka-ukalariga ham ajal tamg'asidek tuyulishidan o'zini xalos qila olmagan — xalos qilishni ham mutlaqo istamaydigan Sashaning rangi bo'zarib ketdi. — Dada, shu gaplaring... g'irt utopiya ekanini nahot bilmasang? — deb yubordi. — Stolipingayam rosa xat yozding... Qancha maqolalar e'lon qilding. "Xususiy mulkni — yerga egalik qilishni bekor etmoq kerak! Bu yer-u zamin — Allohning mulkidir!" Dadajon, — deya ko'zlari g'ilq yoshga to'ldi. — Bular — bo'lmagan gaplar. Sen o'z yerimizni, mulkimizni, masalan, musodara qildirganing bilan baribir... u dehqonlarga bo'lib beriladi, agar insof qilinsa... Misol uchun aytyapman-da! Demak, dehqonlar xususiy yerga ega bo'lishadi-ku baribir...

Tolstoy xo'rsinib yubordi.

— Barcha zamindorlarning yerga egaligini bekor qilgan hukumat keyin o'sha yerni nima qilishini ham bilar, deb o'ylovdim-da, — dedi. — Lekin men inondim, — o'sha teranligida davom etdi: — Hayot buni inkor qilar ekan...

— Shunday ekan, nega hamon shu fikrdan qaytmaysan?

— Qanaqa qilib qaytayin? — hayron bo'ldi Tolstoy. — Undan qaytishim — Isodan qaytishim bilan teng-ku?

— Uf-f.

— Iltimos, onangga o'xshama, qizim.

— Yana — onam...

— Ha, — dedi Tolstoy birdan g'ijinib, — Sofya Andreyevnaga... — Shu payt eshik ochilib (surilib), vagon mutasaddisining shapkali boshi ko'rindi, keyin sal suqildi: chehrasini iztirob aralash sirli bir zavq egallagan edi. Tolstoy uning murodi borligini his etmayoq: — Keling, azizim, kiring! — dedi daf'atan; bular uchun "daf'atan"-u, Lev Nikolayevich uchun uning kirib o'tirishi — ayni muddao edi: inchunun o'zining faqirligi (bir puli yo'qligi) haqida Makovetskiydan unga "tushuntirish"ni so'ragan — do'xtir tushuntirganmi-yo'qmi, bundan qat'i nazar, hozir o'zining xuddi o'sha mavzuda gapirmoqchi ekani (gap boshlab qo'ygani), provodnik kirib tinglasa, foydadan xoli bo'lmasligini darhol anglagan edi. Provodnik ham jon-jon deb turgan ekan: kira solib, Dushan Petro-

vichning yoniga o'tirib oldi. Tolstoy uning Sashaga yer ostidan qarab qo'yganini payqaboq fikrini jahl bilan davom ettirdi: — Ana, Sofya Andreyevna — sening onang, sizlarning bekalaring — hozir eng katta zamindor! Men unga butun mol-mulkim, yerim-suvim, dehqonlarim, hamma-hammasini xatlab berdim. O'zim— boshi ochiq xotin ahvolidaman... Demoqchimanki, xonim hozir — boylar, yer egasilar! Ammo u kishi shunga ham qanoat qilmaydilar, qilmayaptilar. Vladimir Grigoryevich (Chertkov)ga ixtiyorini berganim — 81 yildan keyin yozgan asarlarimga ham xo'jayinlik qilmoqchi: o'zi nashr etib, o'zi gonorarni olmoqchi.

— Olib bo'pti! — deb yubordi Aleksandra, aftidan, oila sirlarini begona odam ham eshitayotganidan lablari titrab. — In-so-ni-yat-ga hadya qilding-ku, ularni dada! Necha marta matbuotda yozding: keyingi asarlarimni kim xohlasa, nashr etsin: puli ham o'shaniki. Menga hech narsa kerakmas deb...

— Rost, — dedi Lev Nikolayevich birdan yumshab, hatto qizini suyub ketib. Shu asno eski paltosi yoqasini ushladi. — Shundan boshqa hech narsam yo'q: kerakmas, azizim.

— Nahotki? — deb yubordi shu on provodnik, chamasi, o'zini tuta olmay.

— Xuddi shunday, — deya Tolstoy unga yalt etib qaradi. — Shunday. Shuni siz ham bilib oling, boshqalargayam ayting.

— Men janob do'xtirdan eshitdim. Ammo ishonmab edim, — dedi negadir iyagi ham titrab provodnik.

— Men tushunaman, — dedi Tolstoy o'ychan tortib.— Bu ishlarning boshida bo'lgan mening sevimli qizim ham buni aqliga sig'dirolmayapti...

— Nega-nega? Tuhmat qilma, dada, — dedi Aleksandra. — Juda-a yaxshi tushunadi qizing!.. Xo'p, bizga berding mol-mulkingni... Xuddiki vasiyat qilib topshirding. Mana, o'ttiz yildirki, onam xo'jalikni qanday boshqaryapti, pulni qanday sarflayapti — so'ramaysan... Bir hisobda buning uchun rahmat senga...

— Onang ham rahmat deydi, — dedi Lev Nikolayevich tag'in xotini tilga olinganidan g'ashlanib. Ammo endi u haqdagi gapni biryo'la bartaraf qilib yuborgisi kelib ketdi. — Onang sarflayapti. Yaxshi... Xo'sh, bor boylikni sizlarga taqsim qilganini ham bila-

man. Buyam yaxshi. Ammo meni kuydiradigan narsa — oilamda, bu olamda eng yaqin — sirdosh kishilarim orasida ham hayotning ayni ilgarigidek davom etayotganida: o'sha egoizm, o'sha man-manlik, o'sha dabdabali ballar, ziyofatlar... ahmoqona hazillar, qartabozliklar, fol ko'rishlar... — U birdan chatnab ketdi.— Bu axir, g'oyat zerikarli hayot-ku? Ma'nosiz umrguzaronlik-ku! — U birdan boshini adl tutib, tek qoldi. Ko'z o'ngida Yasnaya Polyanada tinch-totuvlikda, ijodning zavqli mehnat-u farog'atda o'tgan kunlari namoyon bo'ldi. — Men bir kuni anglab qoldim, — deya ko'zlarini qisinqirab davom etdi: — Qarasam, o'zim ota bo'libman — otam o'rnida. Xotinim — ona bo'libdi — onam o'rnida. Bolalarim bola bo'libdi — mening bolaligimdek... Hech narsa o'zgarmayapti: rollar o'zgaribdi, xolos. Dahshatga tushdim: nahot hayot shunday davom etsa? Axir, yozayotgan asarlarimdagi hayotni tasvirlashdan murodim — uni ezgulikka chorlash, Xudo yo'liga tortish edi-ku! Shu, shu... Men sezib-tushunib qoldimki, hayotim boshqa-yu ijodim boshqa bo'layotibdi. Men riyokorlik qilayotibman: axir, eng muhimi — mazkur hayotni ezgulik yo'liga chorlash ekan, nega bu ishni asarda amalga oshiraman-u, hayotda befarqman?..— Dushan Makovetskiy nimadir deya yalindi. Aleksandra burnini tortib xo'rsindi. Lev Nikolayevich bularni sezdi, ammo xayolidan ariy olmadi. — Ana shundan keyin men sindim... Him, bu yoqqa qaradim: xalqimga, uning ahvoliga... — Tolstoy birdan ko'zini yumib oldi. U yanada toliqqani, uyquga o'xshash orom hissi o'ziga tortayotganini his etdi. Lekin endi aytajak gaplari ko'proq orom berishini tuyib, ittifoqo mamnuniyat bilan davom etdi: — Mening... Ey, birodarlarim,— deya ko'zini katta ochib, hammaga bir-bir qaradi: aftidan, xayoli hukmida bo'lgani uchun ularning birontasida ham "to'xtamadi". Baayni bu gaplarni noma'lum shaxslar, kim-kimlar uchundir ham baralla aytayotgandek edi:

— Mening eng baxtiyor kunlarim, bilasizlarmi, o'sha dehqon bolalariga maktab ochib, darsliklar yozib, mishiqi, yupun, g'arib, yetimcha jujuqlarga saboq bergan yillarim bo'ldi. Ularning jovdirashlari! Ko'zlarimdan tirqirab yosh oqib ketardi... Men ularning savodli bo'lishlari, inson bo'lishlarini istardim: illo ular bunga batamom haqli edilar... Keyin ochlarga yordam berish jami-

yatlari tuzdim: xayriya, xayriya... Yo'q, yo'q! O'ylab boqsam, mening ishlarim — uchqun ham emas, hayot azaliy izida: inson adashgan — adashuvda hamon... Uni faqat hokimiyat birmuncha o'zgartirishi mumkin. Keyin hokimiyatga murojaatlarim boshlandi! Ming-minglab xatlar, maqolalar... — Lev Nikolayevich ovozi pasayib qolayotganini tuyib, ittifoqo qo'rqib ketdi: ikki bor yuragi urishdan to'xtayozgan mahalda ham uni uyqu og'ushiga olgan, uyqu og'ushiga olayotgandek sokin bir holatga tushgan edi: bu — xavfli holat... — Alloh! — Tolstoy shunday nido qildi-yu, din bobida ham, Iso payg'ambarning buyurganlari bobida ham eng to'g'ri — ezgu mulohazalari, ya'ni muqaddas Injil-u Isoning yo'lidagi asl haqiqatlarni aytib chiqa boshlashi ham... samara bermagani, aksincha: hukumat unga qanday xavfsirab qarasa, cherkov ham shunday xavfsirab qaragani va oqibat, chiday olishmaganidan uni deyarli "dinsizlik"da ayblashgani qalbida g'ulu qildi. Lev Nikolayevich bu yo'riqda ham ayrim gaplarni gapirib olish vaqti — hozir ekani uchun beixtiyor tetiklanib va tomoq qirib: — Men asl xristian edim, — dedi. — Alloh mening necha yoshimdan ekan... qalbimda edi, birodarlar. Bilasizlarmi, cherkovdagi ruhoniylarning ko'zbo'yamachiligi, davlatga, podshoga batamom qul bo'lib qolganlari, podsholarimizning aksilinsoniy siyosatlariga xizmat qilishlari qayerda ko'rinadi? — Tolstoy jamoaga shunday murojaat etgan esa-da, buyuk hind jamoat arbobi, zulmga zulm ila qarshi kurashmaslikni targ'ib etaroq Hindistonni inglizlar asoratidan qutqarish harakatini boshqarayotgan Muhandas Gandiga yozgan maktubi shundoq ko'z o'ngiga keldi-yu, yana, aftidan, qandaydir noma'lum kishilarga ayta boshladi: — Muhandas Gandiga ham bu to'g'rida ochiq yozgan edim. Esimda, — deya tiniqqina kulimsiradi. — Cherkovlarda kohinlar imtihon qilinadi. Bilasizlar. Shunday bir imtihonda bo'lib edim. Ruhoniy ota yoshgina qizchadan so'radi: "Alloh qaysi jabhalarda insonni o'ldirishga ijozat etadi?" Kulgili! O, jaholat... Qizcha javob berishi kerak. "Faqat urushlar mahalida. So'ng ashaddiy jinoyatchilar qatliga..." deb javob berishi lozim. Shunday javob beriladi! Hozir ham. Bundan keyin ham... Ammo u qizaloq: "Alloh insonning o'ldirilishiga qarshi. Iso: "O'ldirma" degan, — deb javob berdi... Qanday ajoyib, pokiza inson u. Hali

fikri chalg'imagan, materialist bo'lmagan... Xullas, ruhoniy qotib qoldi. Nima desin u johil, riyokor? Axir, Nikolayga ham, uning bosqinchilik urushlariga ham shular fatvo beradi. Fatvo berib kelishdi... Qatllarga ham! Mana shunday gaplar, azizlarim... E, men bu misolni Gandiga yozgan xatimda keltirgan edim. Bilasizlarmi! — deya Lev Nikolayevich yana hayajonlanib ketdi.— Gandining yo'li, umuman, hindlar dinidagi zulmga qarshilik ko'rsatmaslik g'oyasi bizning xristian dinimizdagi shunday g'oya bilan juda uyg'un-a?.. To'g'ri, to'g'ri: kurashning yo'llari ko'p. Masalan, Gandi... — chol chindan ham holdan toydi. — Meni kechirasizlar, — dedi-da, devorga suyandi.

6

Lev Nikolayevich ko'zini ochib: "Uxlabman-da", deya atrofiga shoshilinch nazar soldi-yu, shundoq ro'parasida (boya Aleksandra o'tirgan joyda) o'tirgan ko'yi boshini orqa devor bilan deraza davomiga — burchakka qo'yib, shirin uxlayotgan Dushanga tikilib qoldi: shunday yosh, navqiron yigit ham uxlaganida yuzidagi barcha a'zolari salqilanib qolishini dilida qayd etaroq qandaydir xursand bo'lib ketdi: shundoq sog'lom yigit ham uxlayapti-ku? O'zi — qarib-churib qolgan, o'limini bo'yniga olib qo'ygan, aftidan, qayerdadir o'lish uchun ketayotgan qariya o'tgan kunlar davomidagi charchoqlar, uyqusizliklar evaziga jindak mizg'igan bo'lsa, ne ajab?

"Aytmoqchi, Sasha qayerda? A-a, mana bu kupeda... Varvara ancha narsani yozib oldi, a? Mayli. Ko'p yaxshi. Shuni istaydi u... Lekin yozganlarini Vladimir Grigorevich ko'radi: u meni tushunadi — batamom. Bu yoshlar hali...

Aytmoqchi, suhbat nimada tugagandi? Nimani gapirayotib... A-a, Gandi! Yo'q, undan o'tgan edim, chamasi... Xo'sh, xo'sh... Ko'p gapirib yubormayapmanmi? Ko'p, ha. Bekorchilikdanmi? Balki... Ammo o'z-o'zidan chiqayotirda... Mana, hozir ham... E, urush mavzusiga yetib kelgandim, chog'i. Cherkovning urushga ruxsat etishi... O, qanday ko'zbo'yamachiliklar bor bu olamda!"

Chol beixtiyor eshikka qaradi-yu, undan mo'ralab turgan provodnikning boyagi siniq-chuchmal qiyofasi xayolida jonlandi: u nimadir demoqchiydi.

Lev Nikolayevich o'sha odamning (har holda, begona u) oldida uxlab qolgani uchun endi uyaldi. "Qarilik..." deya o'zini ovutgan bo'ldi. Keyin tag'in uning nimadir— aftidan muhim bir narsani aytishga kelganini (axir, Sasha unga nimalar devdi?) taxminlab: "Balki aytib ketgandir", deya ko'nglidan o'tkazgan chog'ida Dushan Petrovichning ko'zi katta ochilib ketganini ko'rdi va unga mayin jilmaydi. Dushan uzr so'rab, uyalib, qomatini rostlab o'tirdi. Peshonasiga tushgan sochlarini orqaga silab, xuddiki Lev Nikolayevichga dori beradigandek bo'ldi. Ammo... boshini chayqab qo'ydi: chol doridan allaqachon yuz o'girgan; to'g'ri, tabiatdan olingan jaydarisi bo'lsa, bemalol tanovul etardi... Nimchasi cho'ntagidan zanjirli soatini olib qaradi-yu, qoshlarini ko'tardi. Uni beixtiyor kuzatib turgan Lev Nikolayevich esa derazaga qaradi: quyosh ko'tarilib ketgan, o'rmon bug'simon tuman qo'ynida edi.

— Ancha uxlabman, — dedi Lev Nikolayevich va uyqudan qo'rqishi yodiga tushishi zamon Gamletning: "O'lim — bir uyqu, xolos", degan kalimasi esiga keldi. Bu gapning o'ziga xos haqiqat ekanini bilib tursa-da, Shekspir haqidagi so'nggi fikrini aytib qolishni istadi. Biroq so'nggi fikrining izohi ham talay vaqtni olishi — tabiiy, o'zini g'azablantirishi va toliqtirishini his etaroq: "Bas, Dostoyevskiyni shuncha yomonlaganim yetar. Endi Shekspirniyam... Bular gaplarimning rostligiga shubha qilib qolishadi. Musulmonlarning shu odati yaxshi: o'lganlarning ortidan yomonlashmaydi, — dedi-da, umuman, u din haqida, Muhammad payg'ambar haqidagi xulosalarini yana bir bor tahlil etish ehtiyojini tuydi: — U buyuk din. Chunki so'nggi din. Muhammad ham so'nggi payg'ambar... Demak, ko'p muqaddas kitoblardan — Qur'on... — Tolstoy u yog'iga o'tmay xo'rsinib yubordi. — Alloh yagona. Bas!" — Keyin islomiyatda o'tgan so'fiylar, xususan, Ahmad Yassaviy haqida gapirmoqchi ekanini payqab qoldi: biroq bu gapni anavilar ham eshitishi lozim. Shoyad Sasha taskin topsa...

— Lev Nikolayevich, 1-klass vagonga o'tishga to'g'ri keladi endi, — dedi shunda Makovetskiy va kulimsiradi. — Sizni bilib bo'lishdi... Qolaversa, u yerda — kupeda bemalol ovqatlanish mumkin. — Tolstoy bosh irg'ab turgan esa-da: — Taomni o'zimiz pishiramiz, — dedi. — Tepasida o'zim turaman.

Tolstoy tushundi: "Ovqatga go'sht tushmaydi", demoqchi u. Chol tag'in mayin jilmaydi.

— Men bu yerga o'rganib bo'lib edim. Aytmoqchi, haligi provodnik janob...

Eshik surilib ochildi. Aleksandra otasiga o'tkir tikilib:

— Xudoga shukr, — dedi. Keyin yelkasi osha ortiga qarab: — Kelaver, Varya, — deya xonaga kirdi. Xonaga moychechak hidi taraldi: Sasha uxlaganmi-yo'qmi, ammo o'ziga pardoz bergani aniq edi. Makovetskiy bu yoqqa— joyiga o'tdi. Xonaga kirgan Varvara Lev Nikolayevichga uning uxlaganidan ko'p mamnun bo'lgan onaday jilmayib qo'yib, joyiga o'tirdi. Oyog'i uchida ko'tarilib, yuqori polkalarga qarab olgan Aleksandra ham joyiga o'tirdi-da, tirsaklarini tizzasiga tiragan ko'yi kaftlarini bir-biriga qapishtirib:

— Janob Lev Nikolayevich, hiylalaringiz ish bermadi, — dedi. — Mening Frolova emasligim ham...

Shu payt xuddiki Sashaning g'ashiga tegish yoki undan yana bir-ikki og'iz sovuq gap eshitishga o'rganib qolgandek provodnik xonaga bosh suqdi.

— O, keling, — deb yubordi Tolstoy. Aleksandra chuqur xo'rsinib, suyanchiqqa orqasini berdi.

— Kelavering, — dedi ensasi qotib. — Bizning kompaniya bu kishiga juda yoqib qolibdi-da, dada.

— Jim tur, Sasha. — Lev Nikolayevich vagon mutasaddisining boyagi holatda ekani, hatto aytajak gapi shunday muhimki, aytmasa — bir kor-hol bo'ladigandek ekanini angladi. Baharhol u shu ma'noni anglatadigan iztirobli harakat-la xonaga kirib, endi oyoqlarini juft qilib qo'yishni ham unutgan kabi so'ljayib yolvordi:

— Lev Nikolayevich, janoblar... Taqsir, shu yerda qolinglar. Men xizmatlaringizni qilayin... To'g'ri, 1-klass — yaxshi, keng. Ammo bu yerda ham...

— Bo'pti, — dedi Sasha. — Boshqa gapingiz yo'qmi?

— Boshqa gapim... Axir, Lev Nikolayevich hali ko'zlarini yumdilar. Men aytolmay qoldim...

— A, nimani aytmoqchiydingiz, azizim?

— E, dada, sizni...

— Sasha.

Provodnik tiz cho'kmoqchidek pasaydi-yu, xo'rsinib shiftga boqdi.

— Sizga Alloh taolo ko'p, ko'-o'p yillar umr bersin, — dedi. So'ng ko'zlaridan bahuzur yosh quyilib ketdi. — Siz avliyo ekansiz. Siz inson qavmidan emas... Yo'q-yo'q, Aleksandra Lvovna, ruxsat eting, gapimni tugatib olay. Men siz haqingizda, Lev Nikolayevich, ko'p gaplar eshitib yurardim. Yasnaya Polyanadan boshqa qishloqlardagi ochlar, faqir-haqirlarga yoningizdan pul ulashib yurganlaringizniyam eshitib edim. Ular duo qilishardi sizni... — Lev Nikolayevich o'tgan bir necha yillar davomida faqat chet ellarda chop etilgan ayrim asarlari uchun noshirlar marhamat qilib yuborgan qalam haqiga mutasaddilik qilar, shundayam pulni qo'liga olmas, qizi Tatyana va kotibi Bulgakov Valentin Fyodorovich (bir yarim yil davomida) orqali (Sofya Andreyevnadan yashirincha) o'sha aqchalarni faqir-fuqarolarga ulashar edi. Provodnik shu haqda eshitgan ekan, demak... — He-e, maktab tashkil etganingiz, qamoqxonalarga kirib mahbuslarning holidan xabar olganingizni ham eshitib yurardim. — Tolstoy siniq jilmaydi: ha, "Tirilish"ga material to'playotganda ikki-uch marta qamoqxonalarda dehqon libosida bo'lgan edi. — Ammo bizlar sizni — shunchaki, saxiy graf deb yurardik, — davom etdi provodnik. — Sizning bu yo'lga umringizni bag'ishlaganingiz, dunyo boyliklaridan voz kechganingiz, huzur-halovat, maishat... voy, vo-oy... Aqlga sig'maydi — aqlga sig'maysiz, Lev Nikolayevich! — Shunda birdan gurs etib tiz cho'kdi. Keyin keskin burilib, eshik tutqichidan ushlab surib yubordi: eshik qattiq bekildi. — Meni, Lev Nikolayevich... Him, men ko'nglimdagini aytdim. Sizni hurmat qilardik. Yozuvchiligingiz bilan ham faxrlanar edik. O'zimizning Tuladan deb... Ammo meni ma'zur tutasiz. Mayli, meni haydab yuboring hozir. Ammo men Yapon urushidan qaytganimdan keyin

provodnik bo'lib ishga o'tdim-u, ammo... politsiya bilan aloqam yo'q edi. Hech, hech. Lekin bilardim, brigadirimiz... vojatiymiz, shu, shu-da endi...

Qarangki, naq ober-prokuror Pobedonossevning maxfiy... uf, maxfiy buyruqlari bor ekan: sizni kuzatish to'g'risida... Xo'sh, sizni bu yerga joylagandan keyin unga uchrab, shunday-shunday desam, qulog'imni burab, kupesiga olib kirdi. Tushuntirdi. Juda-a uyaldim... Men yaxshi jangchi bo'lganman. O'zimcha, mag'rur odam edim. Qo'rqitdi meni... Men ishdan ajralib qolsam, oilamga yomon bo'ladi... Ammo, menga ishoning, Lev Nikolayevich, iltimos qilaman. Azbaroyi sizga qiziqqanim uchun ham o'sha xatni olib keldim... Mana, qizingiz Aleksandra Lvovna juda zukko ayol ekanlar. Darrov sezdilar...

— Azizim, azizim. O'zingizni bosing, — dedi Lev Nikolayevich o'zi haqidagi gaplarning qiziqligidan ustun kelgan his — bu barvasta, kelishgan kishining o'zi uchun... shu holatga tushganidan ta'sirlanib ketgani bois o'zining ham ko'ngli buzilib, ovozi olinib. — Men tushundim sizni. Nazarimda, qizim ham... Mana, Dushan, Varvara... Sizga rahmat. Lekin bu sirlarni bizga aytmasangiz ham bo'lardi. Hukumatning bu xil qiliqlari menga yaxshi ma'lum... Yaqinda mening urushga qarshi yozilgan ayrim maqolalarimni ko'p nusxada tarqatgani uchun Xarkovda Aleksandr Mixaylovich Badyanov degan bir oliyjanob, tinchliksevar kishini qamadilar. Olti oy muddatga... — Tolstoy chayqalib ketdi. — Lekin umumiy kameraga qo'yishibdi. Holbuki, yolg'iz o'zi bitta kamerada yotishga (odinochka) hukm etilgan ekan-u, bunday kameralar band ekan... Tavba, yaqinda ichki ishlar vazirligining buyrug'i chiqdi. Odinochkalarning yotish muddati uchdan birga ko'paytirildi. Janob Badyanov yaxshi odam, kasalmand lekin... Shuning uchun do'stim Staxovichga iltimos bilan xat yozdim. Muddati uzaytirilmasin, dedim. U shunga erishibdi. — Tolstoy yana to'lg'anib ketdi. — Lopatin! Lopatinni bilarsizlar? Men ismi-sharifini bilmayman. Haftalik "Hayot" ("Jizn") gazetasining bosh muharriri. Qatlga qarshi yozilgan asarimni gazetasida chop etgani uchun uch oy qamoq jazosi berilibdi. Janob Lopatin menga maktub bitib...— U hammaning, ayniqsa, qizi Sashaning

o'zidan xavotirga tushganini fahmlab, o'zini zo'rg'a bosdi. Biroq ovozidagi yig'i qoldi. — Meni qiynaydigan narsa shulki, — dedi mavzudan chekinib, — men chekishim lozim bo'lgan azobni ular tortayaptilar. Bu — nohaqlik... Shu, shu. — Nihoyat, fikriga qaytdi-da, jilmaydi. — Azizim, tushungan bo'lsangiz, gap shundoq ekan, nega endi mening ketimdan odam qo'ymasliklari kerak? Men — mavjud tuzum, davlat ustunlari tagiga suv quyayotgan odam bo'lib tanilganman, axir... — Chol inqillab kulib yubordi.

— Xudoga shukr, shukr, — deya ana shiftga qarab nido qildi vagon mutasaddisi. — Mening uchun eng baxtli kun — bu kun... — Keyin birdan Lev Nikolayevichga yana yolvordi: — Ruxsat eting, valine'matim, sizni to-o boradigan manzilingizgacha o'zim olib ketayin... Demoqchimanki, tekin olib ketayin. Hammangizni...

Tolstoy siniq-titroqli jilmaydi. Ular uchovlon— Sasha, Varvara va Dushanlar bir-birlariga ma'noli qarab, jilmayishdi. Nihoyat, Aleksandra:

— Buni o'ylab ko'ramiz, — dedi labidan (kiborona) tabassum arimay. — Lekin, dada, sen yana...

— Bo'ldi-bo'ldi, hayajonlanmayman, — va'da berdi Lev Nikolayevich va provodnikni o'ziga yaqin tutib aytdi: — Birodarim, bizlarga choy bersangiz... Bu yerda cho'qishtiramiz stakanlarni... — Mutasaddining ko'zlari alanglab ketganini Lev Nikolayevich, aftidan, to'g'ri tushundi. — Esingizda bo'lsin, vino ichmaganimga o'ttiz yildan oshayotir... Umuman, meni yangi Gvineyaga oborib qo'yib yuborsalaring ham, kunim o'tadi: vegetarian odamman...

Provodnik ayrimi bo'shagan, ayrimidan biroz ichilgan stakanlar turgan barkashni dast ko'tarib, mamnun holda (endi harbiy-chasiga) chiqib ketdi.

Hamma — har kim o'zicha o'ylanib qolgan edi.

7

— Dada, bitta savolimga to'g'ri javob ber, — deya engashib o'tirdi Aleksandra. — Uzr, sen hamma vaqt to'g'ri... ko'nglingdagi gapni aytasan. Ammo bu savolning javobi... Xo'p, aytgin-chi,

haligi qamalgan muxlislaringdan biri sening, nima desam ekan, harbiy xizmatdan bosh tortish haqidagi maqolangni tarqatgan.. Xo'sh, sen o'zing shu gapga ishonasanmi? Axir, harbiy xizmatning yo'q qilinishi — tasavvur etasanmi— nima bu? Sen tasavvur etarsan balki, ammo... Xo'p, tushuntira qol...

— Qizim, jon qizim, — dedi Lev Nikolayevich yana sezilarli titray boshlab. — Muhandas Gandiga yozgan xatimni o'zing ham o'qigan eding. Ungayam... axir, takror-takror aytdim-ku: hayotning tarzi, davlat siyosatining zug'umi-zulmi shu darajaga yetdiki, ikki yo'ldan birini tanlash lozim bo'lib qoldi. Birinchi yo'l: bu mavjud shafqatsiz, adolatsiz, ilohiy va insoniy qonunlar oyoqosti qilingan, toptalgan, toptalayotgan bu hayotni boricha — mavjudligicha qabul qilmoq kerak, uning tarziga bo'ysunmoq kerak. Ikkinchi yo'l: bu tuzumga-yu bu dasturlarga tish-tirnoq bilan qarshi kurashmoq kerak... — "Kurashmoq" so'zi Lev Nikolayevichning yuragini jizillatib yubordi: u tish-tirnoq bilan kurashishga hamisha qarshi edi, e, Alloh! "Chidab turolmayman!"ni yozganidan keyin Tangriga hamd-u sanolar ayta afular so'rab, o'zini bosgan va: "O'zing meni shundoq yaratgan ekansan-da", deya Xayyomona fikr qilish orqasida birmuncha tasalli topgan edi. — Men, jon bolam, ikkinchi yo'lni tanlaganman: mening uchun boshqa yo'l yo'q. — Tolstoy qandaydir ilohiy kuch qarshisida turganday boshini egdi.

— Dadajonim, — dedi Sasha uni suyib ketib. — Demak, o'zingdan boshqalarning ishonishi unchalik...

— Men... o'zim haqimda gapirdim, — dedi Lev Nikolayevich yana boyagi holatiga qaytib. Va qiziga g'olibona bir nurli nigoh ila boqdi. — Men bu foniy dunyoni tark etish yo'liga tushgan bo'lsam, birovga taqlid qilmadim. To'g'rimi? Men — qalbim, imonim, vijdonim, alqissa, Allohim buyurgan ishni qildim. O'zim...

— Ha, bu gaping rost, — birdan past tushdi Aleksandra. — Shuning uchun seni Maksim Gorkiy...

— Bas, — deb yubordi Lev Nikolayevich. — Menga Bernard Shou ham, hatto Gyote ham yoqmaydi... — U o'shalarning ashaddiy tarafdorlariga duch kelganday qizishib uqtira ketdi: — Bernard Shou: "Xudoni tan olaman", deydi. Xudo shunga muh-

tojday... Ha, mayli. Dramalaridayam bu yaqqol seziladi. Ammo u quv odam! Bir dialogdan keyin shunday hazil qiladiki, hamma muqaddas narsalarni bir chaqaga chiqaradi. Shuning uchun men uning xatiga yozgan javobimda shu gapni ikki bor takrorladim: "Bu mavzular shu qadar jiddiyki, hazilkashlik bilan munosabatda bo'lish — gunohdir!" dedim. Boshqa nima deyishim mumkin edi? Progressning, xususan, texnik progressning izidan tushib, uning jodusiga aldanib, ma'naviyatdan tobora yiroqlashayotgan bu Ovrupodagi adiblarni tushunolmay qoldim. Ibsen ham bir go'r... Gyote esa bu tabiatshunos, kalondimog' kibor hayotni boricha qabul qiladi. Insoniyatni Haq yo'liga tortish... yo'q, yo'q! Ammo u balo, aqli hamma narsaga yetadi. Sharq so'fiylari maqomida she'rlar yozishni ham juda-a biladi. "Bir tabassumingga Samarqand bilan Buxoroni bervorardim", deyishniyam biladi. Hofizdan olgan bu obrazni... — Tolstoy tuyqus o'ylanib qoldi. Ichki bir xumor bilan derazaga yuzlandi. — O'sha Samarqand, Buxoro, Toshkentni ko'rishim kerak edi-da... Vereshchagin so'zlab bergandayoq oshiqi beqaror bo'lgan edim. Keyin Toshkentdan kelgan haligi huquqshunos bor edi-ku? Peterburgda o'qirkan... Nimaydi nomi? Gubaydulxojamidi...

— Unga xat ham yozganding-ku?

— Ha-ha. — Chol birdan xo'rsindi. — O'shani eslasam, u ta'riflagan Ahmad Yassaviy bot-bot yodimga tushadi. Uning payg'ambar yoshiga yetganidan keyin tarki dunyo qilgani... boylikni inkor etgani, faqirlik etagidan tutgani... Bular — ayni menbop harakatlar-da, azizim. Ammo, umuman, Sharq so'fiylarining bosh harakati — meni hamon hayron qoldirib keladi: ular o'z g'oyalarini ma'lum odamlargagina tashviq qilishgan... Odamzodga emas. Tavba! Balki, balki... — Chol allanechuk qiynalib-qisinib-kichrayib ketdi. — Odamzodning baribir bu g'oyalarni qabul qilishlariga ishonmaslikdandir bu... — U birdan sergak tortdi. — Ha. Ularni ham... hatto islom ruhoniylari tushunishmagan: ularni "dahriy" deyishlar ham bo'lgan. Qatl qilinganlariyam ma'lum... — Tolstoy yana tolg'inlikni tuydi. Lekin fikri ravshan, bu mavzuda hatto Cherkovgayam ochiq so'zlamagani bois hozir, ha, shu tobda so'zlab qolish ehtiyojini qattiq tuydi. — Bu din — islom, — deya

dona-dona qilib ayta boshladi, — oxirgi payg'ambar targ'ib qilgan dindur. Qur'on ham oxirgi kitob... Bunda biz bilmagan dunyoviy, ilohiy sirlar ko'p, qizim. Ajabo! — deb yubordi u birdan. — Islomiyatda ham dunyoni boricha — yaratilganicha qabul etish kayfiyati bor. Ammo u shaxsning o'ziga havola qiladi ko'p imkonlarni... Shu bois islomiyatda Alloh bilan bandasining o'rtasida turguvchi vositachi yo'q. Yo'q! — deb uqtirdi jahl bilan. — Riyokor, xudbin ruhoniy — otaxon (svyatoy otets) yo'q. Tepada — qalbingda yagona Alloh bor-u sen borsan... O, qanday yaxshi! Men, men bu yo'rig'da musulmonman, qizim. Shu yo'rig'da, ha. Shuning uchun cherkovdagi menga qarshi ruhoniylarning haligi qarorlari zig'ircha ta'sir etmadi menga! — "Urush va Tinchlik"da fransuzlarga asir tushgan Per Bezuxovning asirlikda g'oliblar tantanasidan kulgan joyi yodiga tushib ketdi: "Men asirman? Men-a? Ozod inson-a? Mening qalbim erkin, ozod-ku? Vujudim nima...". Lev Nikolayevich o'z bitigidan qanoatlanib jilmaydi.

— Balki sharqqa... o'sha Toshkent tomonlarga borishni istarsan endi? — deb astagina (yo'liga) so'radi Sasha otasining tabassumiga tabassum bilan.

Tolstoy bu gapni eshitmadi: aniqrog'i, uning mazmuni e'tiboridan chetda qoldi, faqat "safar" haqida qandaydir taklif qilganini uqdi.

Lekin bu borada ham o'ylagisi kelmas edi.

— So'fiylar, — deb pichirladi yana va hamma vaqt Qur'on-u Muhammad payg'ambar haqida o'qigani va o'ylaganida, miyasining muhim bir joyida madda qiladigan narsa — ularning xotinlari qandoq bo'lgani haqidagi savol-u bunga o'zicha javob yodiga tushdi. — Ha, — dedi u beixtiyor ovoz chiqarib, — Muhammadning xotinlari qanday bo'lgan bo'lsa, so'fiyning ham ayollari...

— Dada, — dedi shunda hamrohlariga ko'z qirini tashlab olgan Aleksandra.

Ota hushyor tortib ketdi.

— A, sening savolingga javob berdim, chamasi, — dedi. Keyin xayoliga kelgan o'ydan yorqin kulimsiradi.— Napoleon Fransiyani yana egallasam, "bir musulmon davlati quraman" deb orzu qilgan ekan... Tushundingmi? — deb yubordi. — Men buni keyin

bildim. G'alati-ya? Shunday. Ammo bunda gap bor... — Shunda "Urush va Tinchlik"ning asl g'oyasi miyasining tag-tubidan chiqib keldi: axir, unda "hayot mana shu edi, shunday bo'ldi: demak, shunday bo'lishi kerak ekan", degan oddiy haqiqatni ifodalab bermadimi? Shu, shu. Shuning uchun Kutuzovning eng qiyin jang oldidan bemalol uxlaganini ham huzur qilib tasvirladi: "Alloh biladi", deydi u. — Nahot inson idealga intilib yashaydi, xolos? — U qiziga "gapimni bo'lma", degandek barmog'ini ko'tarib qo'ydi. — Ha, albatta. Chunki inson idealga yetishgan kuni — o'ladi... — Bemalolgina kuldi. — Romen Rollan yaxshi yozuvchi bo'ladi, — dedi. — Unga yozgan xatimdayam shu fikrni aytgan edim... .

Aleksandra chuqur o'ylanib jimib qoldi-da, avaylabgina so'radi:

— Dadajon, orzularga... jumladan, Xudoning ham, Isoning ham buyurganlariga yetishish ham, demak, ideal, a?

Lev Nikolayevich birdan tek qotdi.

— Xo'sh?

— Bundan chiqdiki, sen, dada... ideal bilan yashamoqchisan. To'g'rimi?

— Ha. Xo'sh?

— Shunday ekan-da.

— Tamom, — dedi Lev Nikolayevich. — Tasavvur qilginkim, kimdir shunday yashashi kerak ekan, men yashabman... So'fiylardek. Ammo so'fiylar dunyoni o'zgartirishga ko'pam harakat qilmaganlar... Uf, o'shalarning yo'lini ko'proq o'rganishimiz kerak ekan-da... Bizda, aqlimizda qandaydir chegaralar bor, g'ovlar bor. Biz — xristian deymiz o'zimizni. Injilni mahkam ushlab olib...

Aleksandra o'z-o'zidan qo'rqib ketdi: otasi qandaydir boshqa tomonga — xavfli tomonga og'ib ketayotgandek tuyuldi. Shoshapisha eshikka qaradi-yu, baxtiga, uning qitirlab surilayotganini ko'rdi. Irg'ib turgan onida Dushan Petrovich eshik tutqichini o'ziga qaratib tortdi. Barkash ko'targan vagon mutasaddisi tiniq tabassum ila namoyon bo'ldi. Jamoaning o'ziga iliq boqib turganidan battar shodlanib, ichkariga qadam bosdi.

Stakanlarni olib choy ho'plashar ekan, Aleksandra otasiga qandaydir xush yoqadigandek:

— Dada, Muhammad payg'ambarning xotinlari haqida gapirding, — dedi-yu, yuragi shuv etdi: ishqilib, onasi tilga olinmasin! Buning ilojini qiladi. — Nimasi yoqqan edi senga uning xotinlariga xos jihatlardan yoki...

— A-a, — Tolstoy darhol stakanni barkashga qo'ydi. — Bu — jiddiy masala, — dedi haqiqatan ham jiddiy tus olib. — Uning birtalay xotinlari bo'lgani ma'lum... Balli. Juda ko'p bo'lgan. Ammo ikkitasi boshqacha bo'lishgan, ya'ni o'ziga munosib, o'zidek... ayni o'zi istaganidek bo'lishgan. — "Boshlandi", deb o'yladi Aleksandra va savol berganiga pushaymon qildi. — Oysha degani — aslida yahudiy bo'lgan, qizim. Qara, islomning bag'ri keng... — So'ng asli gapi nimada ekanini eslamoqchi bo'ldi: ha, Muhammad payg'ambarning bejiz ko'p uylanmagani, har bitta xotiniga uylanishining o'z sabablari mavjudligi haqida so'zlamoqchiydi, shekilli. Ammo shu tariqa — shu tobda o'z xotini Sofya Andreyevna haqidagi so'nggi gapini aytib qolish ehtiyoji ustun keldi. — Bilasanmi, onangdan nima uchun... umuman, Sofya Andreyevna qiyofasida kimni ko'rishni istovdim-u, yo'q, keyinchalik istab qoldim-u, kimni ko'ra boshladim? Shuni aytsam... Uzr, buni aytdimmikan... — "Nega chalg'iyapman?" dedi o'ziga o'zi va, darhaqiqat, vujudan sog'lom esa-da, miyasida bir parokandalik borligini-boshlanganini his etdi: bundan qo'rqib ketib, tezlab davom etdi: — Men, men, qizim...

— Dadajon, qiynalayotgan bo'lsang...

— O, yo'-o'q, — deb yubordi u. — Men so'fiylarning... uf. — Keyin birdan miyasiga kelganini ayta qoldi: — Biz xristianlar tilimizda Injilning har bir oyatini muqaddas bilib takrorlaymiz. Iso alayhissalom tilimizdan tushmaydi. "Sevib yasha. O'zgalar uchun yasha. O'ldirma..." deymiz. Ammo amalda hamma vaqt shuning teskarisini qilamiz... Hayronman! Bu — ne baxti qarolik? Gandiga ham shu narsani ochiq yozib edim, qizginam...

— Endi, unchalik emasov, — dedi Sasha. — Mana, sening o'zing... — U birdaniga eshikka — provodnik hozirgina asta-asta yurib, ne bir umidvorlikda chiqib ketgan eshikka qarab oldi. — Ana o'sha xufiya ham — qandoq Xudojo'y odam ekan. O'zining...

— O, menga yoqdi, — dedi Lev Nikolayevich oshig'ich.— Bir hikoya chiqadi. Aytmoqchi, menda uchta sujet bor. Nasib bo'lsa, ularni... — "Qayerda yozaman?" — degan gap ongiga sanchilib kirdi-yu, bu borada ham endi aniq bir to'xtamga kelishi lozimligini tan oldi. So'ng o'z o'ylarini qizi bilib turgandek unga g'olibo bo'shashib termuldi. — Sasha, qayerga qo'nsak ekan? — Shoshib qoldi: qizarib ketdi. — Bir aniqroq manzilni belgilasak, keyin uydagi qo'lyozmalarim, boshqa mayda-chuydalarimni yuborishing yengil ko'chardi, qizim... Qayer ma'qul ekan, — savol esidan chiqib, pichirlab qoldi. — Qrimmi... — Sezdiki, Qrimda uni bog'laydigan nimarsalar kam: undan hamon Kavkaz afzal. Biroq endi undan ham ko'ngli sovugan: nechun? Hafsalasi pir bo'lgandek... Nechun? Ha, o'tmishni qaytarib bo'lmaydi. Shuning uchunmikan... Eh, unga Rusiyada, 100 million dehqoni bor ulug' mamlakatning bir pana go'shasida bir kichik hujra bo'lsaydi...

Qizi ham, uning dugonasi va do'xtir ham o'ziga tikilib turganini his etaroq:

— Ketaveramiz! — deb yubordi birdan. — Nima bo'lsa, demak, o'sha narsa bo'ladi.

— He, dadajonim.

Tolstoy ko'zini yummoqchi bo'ldi-yu:

— A, Sofya Andreyevna mening uchun — olamda eng yaqin, eng sirdosh, eng yaxshi tushunadigan — mening ikkinchi menim bo'lishi mumkin edi... Yoki...— "Nega?— deb so'radi birdaniga o'zidan o'zi. — Bu talab— men tarafimdan xudbinlik emasmi? Obbo, obbo. Rost..." — Onangni men baribir yaxshi ko'raman... Uni — o'sha Sofyani, — deya og'zidan chiqib ketdi: ammo o'zini tiymadi. — Uning Lyubov Yakovlevnadan meni rashk qilishga ham haqqi bor edi: ayol kishida rashk bo'ladi-da, erini sevganidan keyin. Ammo men Gurevich bilan "Severniy vestnik"da uchrashardim. U noshir edi... Ay! — Lev Nikolayevich birdan qo'l siltadi. — Arzimaydigan gaplar: u meni, men uni kechirgan edik... — Shu payt yo'lakdan etikning emas, yo'q, tuflining tuq-tuq etgan keskin (ishonchli) tovushi eshitilib ketdi-yu, Lev Nikolayevich yana tek qotdi: qadam tovushlari Sofya Andreyevnanikiga o'xshar edi. Chol entikib, choydan ho'pladi. Shunda

suhbatlari Kavkazdan boshlangani va davom eta-eta... qandaydir oxirlab, Alloh, payg'ambar va o'lim bilan tugaganini eslab hayron bo'ldi: bir tizimda davom etibdi, qiziq, deyarli adashmabdi... Mana, bu yog'iga gap qolmaganday...

— Dadajon, demak, ketaveramiz-a? — boshini ko'tarmasdan dedi Aleksandra.

— Ha, — dedi Tolstoy xayolan tashqariga — poyezd borayotgan tomonga qarab. — Qayerda...

— Choying sovudi.

Tolstoy stakanni olarkan, qizidan mamnun ekanini butun vujudi bilan his qildi. Shunga barobar mana bu Varvaraga ham, mana bu slovak Dushanga ham mehri toblab ketdi: qaniydi, bisoti yana bo'lsa-yu, bularga ham bo'lib bersaydi: bular, shubhasiz, xursand bo'lishardi: moddiyun olamining odamlari...

Ammo shunday odamlar haqida yozdi, o'yladi, ular qalbini ochdi — o', o'ziyam qiynaldi, ayni chog'da rohatlandi: u ishlar — shunchaki ermakmidi? Yo'q: ijtimoiy-ma'naviy ehtiyoj ediki, uni qalbdan ijro qildi. Oqibat, o'zi ham "qarshilik ko'rsatma" degan e'tiqodiga zid o'laroq — chiday olmadi...

Axir, axir, boshqacha yasholmagan bo'lsa, nima qilsin?

Iloji yo'q...

Balki bunga yoshi, yozadiganini balki yozib bo'layozgani, quvvatdan ketib qolayozgani, kasaldan boshi chiqmayotgani, keksalikka xos asabiylik, injiqlik...

Shoshma, o'zi-ku Novikovning bir kichik hujrasini ko'zlab yo'lga chiqdi: qancha tayyorgarlik, rejalar bilan... Kutilmaganda, o'sha dehqon ham uni inkor etdi: yo'lini, tutumini... So'ng qayoqqa yo'l oldi?

Yo'qlikkami?

Lev Nikolayevich ko'zini yumib o'ylanar ekan, o'zini ixtiyorsiz bir tarzda mayin, sokin va xotirjam makonda xuddi shunday holatda his eta boshladi: bu — totli uyquga o'xshash holat ediki, chol qurg'ur bir mahal hayajonlanib ketdi: yo'q, ko'zini ochib o'tiradi. Yorug' olamni ko'rib o'tiradi.

Ha, u uyqudagi holatida yuragining bir g'ijimlashi oqibatida olamdan ketishni istamaydi: u — ulug' Tolstoy bir narsani bil-

mas — his etolmas, o'shani his etishni istar edi: o'lim holatini — bu jarayondagi holini, fikrini... bilib qolishni istar edi: birdaniga paq etib o'lib qolsang...

* * *

Lev Nikolayevich tag'in ko'zlari yumilgani — rohat, rohat uni o'z og'ushiga olganini payqamay qoldi. Keyin yana uyg'ondi. Astapovo bekatiga yetishgan ekanlar. Dushan Petrovich shu yerda tushajaklarini e'lon qildi. Lev Nikolayevich buning sababini so'rashga erindi: yotgisi kelardi. Poyezddan tushdilar. Provodnik uning qo'lini o'pdi. Tolstoy, aftidan, uning boshini siladi. Keyin vokzal boshlig'ining uyiga olib borishdi, chog'i. Chol yotdi. Qancha yotganini bilmaydi, bir zamon eshitdiki, o'g'illari Andrey bilan Mixail kelibdi. Nimadir dedi. Ha, ko'zini ochmasa...

Bir zamon tush ko'rdi: tog' bag'ridan siljib ketdi. Toshlar ko'cha boshladi. Keyin toshlarning gursillashi pasayib, tuq-tuq tufli tovushlariga aylandi. Sofya Andreyevnaning ovozi eshitildi. Keyin uning, ha-ha, xuddi o'shaning oyoq tovushi o'ziga yaqinlasha boshladi. Lev Nikolayevich tuyqus ko'zini ochgisi keldi-yu, boshini ko'tardimi-yo'q, yuragi bir g'ijimladi, keyin butun vujudini turtdi va Lev Nikolayevich hech narsani sezmay qoldi.

1998

MUNDARIJA

Nozik adib, nozik inson *(Ibrohim G'afurov)* 3

Hikoyalar

Notanish odam 8
Bir ko'rgan tanish... 11
...Ikki ko'rgan bilish 20
Ko'kboy 25
Olma yemadim 31
Kechagi kun kecha 34
Hayot abadiy 45
Og'ir tosh ko'chsa 49
Ot egasi 65
Zov ostida adashuv 72
"O'zbekning soddasi" 92
Bahor o'tdi 96
Qariya 111
Odam 121
Podachi 128
Qaytish 134
Cho'loq turna 146
Kimsasiz hovli 155
Bodom qishda gulladi 169
Tabassum 204
Yashil "Niva" 220
Xumor 227
O'zbek xarakteri 236
Qadimda bo'lgan ekan... 255

Ko‘k dengiz 274
Chillak o‘yin 293
Oqtosh 302
Arosat 327
Ozodlik 339
Bulut to‘sgan oy 416
Bandi burgut 491
To‘p o‘yin 516
Navro‘z, navro‘z... 550
Quloqcho‘zma 579
Tanholik 594

Sh 91 Shukur Xolmirzayev [Matn]: nasr/to'plovchi va nashrga tayyorlovchi Sayyora Xolmirzayeva. – Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti", 2022. – 640 b.
ISBN 978-9943-8569-2-9

UO'K 821.512.133-31
KBK 84(5O')-44

TURKIY ADABIYOT DURDONALARI

SHUKUR XOLMIRZAYEV

25-jild

Adabiy-badiiy nashr

Muharrir *Odil Ikromov*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Munisa Ismoilova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog'ozi. "PT Astra Serif" garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 40,0. Nashriyot-hisob tabog'i 37,69.
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 93-1/22. Buyurtma raqami № 22-307

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining "O'zbekiston" nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

"O'zbekiston" NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.



TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

SHUKUR XOLMIRZAYEV

